O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

UMUMIY PEDAGOGIKA

DARSLIK

(5111700 – Boshlang‘ich ta’lim va STI bakalavr ta`lim yo`nalishi talabalari uchun tuzilgan)

GULISTON – 2020

Mazkur darslikda oliy ta'lim muassasalarida bo`lajak boshlang`ich sinf oqituvchilarini tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, shakl, metod, vositalari, shuningdek, bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining taffakkurini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan.

Ushbu darslik O‘zbekiston Republikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 18 avgustdagi 4-sonli qarori bilan 5111700 – Boshlang‘ich ta’lim va STI bakalavr ta’lim yo‘nalishlari uchun tasdiqlangan “Umumiy pedagogika” namunaviy fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar **t.f.d., prof. M.T.Xodjiev, p.f.d. B.Raximov, f.f.n.dots. F.Sharipov**

Taqrizchi: Nukus davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”
kafedrasi mudirii, p.f.d.T.Utebayev
Gul DU “Maktabgacha ta`lim” kafedrasi mudiri,
p.f.n. dots M.Saribayeva
Darslik Guliston davlat universiteti o‘quv-uslubiy Kengashining 2020 yil
2020 iyuldagi №11-sonli yig‘ilish qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan.

Ходжиев М.Т., Рахимов Б.Х., Шарипов Ф.Г. Учебник по «Общей педагогике». В этом учебнике описаны педагогические условия, содержание и структура, форма, методы, инструменты, а также теоретические и практические основы совершенствования мышления будущих учителей начальных классов в высших учебных заведениях. Данный учебник является стандартным предметом «Общая педагогика», утвержденным постановлением Министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан от 18 августа 2018 года № 4 5111700 - Начальное образование и степень бакалавра НТИ. разработан на основе программы.

Рецензенты: Нукусский государственный педагогический институт «Педагогика начального образования».
Заведующий кафедрой, п.ф.д. Т. Утебаев
Заведующий кафедрой дошкольного образования Гульского государственного университета
p.f.n. dots M.Сарибаева
Учебник Ученый совет Гулистанского государственного университета 2020
Рекомендовано к публикации постановлением № 11 от 7 июля.

Khodzhiev M.T., Rakhimov B.Kh., Sharipov F.G. Textbook on "General Pedagogy".

This textbook describes the pedagogical conditions, content and structure, form, methods, tools, as well as theoretical and practical foundations for improving the thinking of future primary school teachers in higher education. ,

This textbook is a standard subject "General Pedagogy", approved by the decree of the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan dated August 18, 2018 No. 4 5111700 - Primary education and bachelor's degree in NTI. developed based on the program.

Reviewers: Nukus State Pedagogical Institute "Pedagogy of Primary Education".
head of the department, p.f.d. T. Utebayev
Head of the Department of Preschool Education, Gul State University
p.f.n. dots M. Saribayeva
Textbook Academic Council of Gulistan State University 2020
Recommended for publication by Resolution No. 11 of July 7th.

KIRISH.

Jahonda zamon talablariga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo`lgan pedagogik kadrlarni tayyorlash, oqituvchilarda ta`limni tashkil etishni takomillashtirish mexanizmlarini va texnologiyalarini ishlab chiqish bo`yicha keng ko`lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda “ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish”ga zarurat borligi qayd etilmoqda.

Dunyoda bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining integrativ yondashuvdan kengroq foydalanish, bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining interaktiv oqitish metodlaridan foydalanishga doir kasbiy kompetentligini rivojlantirish,ta`limni tashkil etishni takomillashtirishning modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini yaratish, raqobatbardosh bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarini tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikada oliy ta'lim muassasalarida bo`lajak boshlang`ich sinf oqituvchilarining kasbiy tayyorgarligini ilg`or xorijiy tajribalar ularning tafakkurini takomillashtirish texnologiyasini, didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, takomillashtirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, ўqitish sifatining samaradorligini oshirish, shuningdek, bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining taffakkurini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O`zbekicton Recpublikacini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar ctrategiyacida “uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo`lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish; umumiy o`rta ta'lim sifatini tubdan oshirish; ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo`yicha tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimi faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish”ustuvor vazifa sifatida belgilanib, bu borada keng ko`lamli ishlar olib borilmoqda. Natijada bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirish, matematik tafakkurini rivojlantirishga yўnaltirilgan texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati kengaytirilmoqda.

Mazkur “Umumiy pedagogika” kursidan tayyorlangan darslik Ushbu darslik O‘zbekiston Republikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 18 avgustdagi 4-sonli qarori bilan 5111700 – Boshlang‘ich ta’lim va STI bakalavr ta’lim yo‘nalishlari uchun tasdiqlangan “Umumiy pedagogika” namunaviy fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Majmuaning mazmun-tarkibiy qismlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: pedagogikaning umumiy va metodologik asoslari, pedagogika tarixi, didaktika, o‘qitishning innovatsion va pedagogik texnologiyalari, tarbiya nazariyasi, o‘qituvchining pedagogik mahorati, ijtimoy pedagogika, korreksion pedagogika va boshqalar.

MARUZALAR KURSI
(III semester)

1-MODUL. PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA.

1-mavzu: Pedagogika fani, uning pridmeti, metodologiyasi ilmiy tadqiqot ob'ekti va metodlari.

Asosiy savollar

1. Pedagogika fanining predmeti va asosiy vazifalari.
2. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Pedagogika fanlari tizimi
4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari
5."Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

. **1. Pedagogika fanining predmeti va asosiy vazifalari**

Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida ilg'or fikrlarni ilgari surishgan. Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G'arb ma'rifatparvar-larining asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayxon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk bo'lishi kerakligiga alohida ahamiyat qaratishgan. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi. Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish;
- fanga qiziqtira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi,aqliy darajasiga mos ravishida berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olimlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. ... yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni ilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa, bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir»1

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: «uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima etsin. shunisi ham borki, II to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham,yosh bolalarga ustoz haqqi

1 Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. O'n besh tomlik. 13-tom. – T., «Badiiy adabiyot», 1966, 189-190-betlar.

ko‘pdir. agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi. Haq yo‘lida kimki senga bir harf o‘qitmish ranj ila, aylamak bo‘lmas ado qiling haqin yuz ganj ila».2
Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o‘z asarlarida o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o‘rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog‘lom bo‘lib o‘sishida ota-onalar o‘ziga xos rol o‘ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydi.
Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta’kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur» - deydi. ya.a.Komenskiy o‘z davrida o‘qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o‘qituvchilik «er yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta’kidlaydi.
Muallifning fikricha, pedagog o‘z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o‘z qadr-qimmatini to‘la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarning namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqligiga urg‘u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, o‘quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortidan ergashtiruvchi va diniy e’tiqod.
K.D.Ushinskiy o‘qituvchi ma’naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to‘g‘risidagi fikrni ilgari suradi. Mazkur g‘oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o‘qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.
Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.
O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqda. CHunonchi, bu borada Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etgan edi: «Tarbiyachi – ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.
O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo‘li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e’tirof etilib, «ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish»3 davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e’tibor yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi. Respublika ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo‘nalishlari O‘zbekiston Respub-likasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» kabi me’yoriy hujjatlarda belgilab berilgan. Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo‘llarini o‘rganadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogika fanining predmeti – ta’lim va tarbiya jarayonining ichki qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat.
Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida hissa qo‘shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida etakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida demokratik, isonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida

---

2 Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. O’n besh tomlik. 13-tom. – T., «Badiiy adabiyot», 1966, 190-191-betlar.

.

3 Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T., «Sharq», 1997. 14-19 б.

mazkur fan yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g‘oyasi asosida ta’lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratiladi:

1. Ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o‘rganish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi tajribasini o‘rganish asosida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish.
4. Ta’lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta’lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta’lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish.
8. O‘qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

2. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va boshqa fanlar bilan aloqasi.

Bizgayaxshima’lumki, harbirfano‘ziningtayanchtushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalaritizimigaega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e’tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushunchalar “kategoriyalar” deb ataladi.4

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta’minlash, ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta’lim (o‘qitish, o‘qish), bilim, ko‘nikma, malaka, ma’lumot, rivojlanish.

shaxs– psixologikjihatdantaraqqiyetgan, shaxsiyxususiyatlarivaxatti-harakatlaribilanboshqalardanajralibturuvchi, muayyanxulq-atvorvadunyoqarashgaegabo‘lganjamiyata’zosi.

Ma’lumot – ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ta’lim– o‘quvchilarninazariybilim, amaliyko‘nikmavamalakalarbilanqurollantirish, ularningbilishqobiliyatlarinio‘stirishvadunyoqarashlarinishakllan-tirishgayo‘naltirilganjarayon.

Tarbiya– muayyan, aniqmaqsadhamdaijtimoiy-tarixiytajribaasosidayoshavlodnihartomonlamao‘stirish, uningongi, xulq-atvorivadunyoqarashinitarkibtoptirishjarayoni.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aksetuv chiborliq haqidagi tizimlash tirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Ko‘nikma – shaxsning biror bir vazifani bajarishga qaratilgan hatti-harakati, muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma’lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo‘lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma’lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, uning

4 Podlasiy I.P. Pedagogika. v 3-x kn., kn. 2. – Moskva, «Vlados», 2007. 67-78 б.

umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o‘rtasida yaqin aloqadorlik mavjud.
1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.
2. Iqtisod – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv binolarini qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.
3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.
4. Etika – shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.
5. Estetika – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.
6. Fiziologiya – o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyat-larining inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.
7. Gigiena – o‘quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda o‘zining nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi.
8. Psixologiya – shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.
9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g‘oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.
10. Madaniyatshunoslik – o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.
11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanshini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

3. Pedagogika fanlari tizimi

Pedagogika fanlari tizimi. shaxs kamolotini ta’minlash, uning intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.
shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogika fanlari tomonidan o‘rganiladi.5 Ular quyidagilardir:
1. Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalarini o‘rganadi. Bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o‘rganadi.
2. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o‘rganadi.
3. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi – boshlang‘ich sinflar. O‘quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o‘ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish.
4. Korreksion (maxsus) pedagogika – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganadi. O‘z navbatida

5 Podlasiy I.P. Pedagogika. v 3-x kn., kn. 2. – Moskva, «Vlados», 2007. 47-66 б.

korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohalari kiradi. Ular quyidagilardir:
4.1. Surdopedagogika va surdopsixologiya – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o ‘rganadi.
4.2. Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlan-tirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.
4.3. Tiflopedagogika va tiflopsixologiya – ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.
4.4. Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi – nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlari bo‘lgan bolalar (ko‘r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.
5. Metodika – alohida fanlarni o‘qitish xususiyatlarini o‘rganadi.
6. Pedagogika tarixi – ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda etakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi.
7. Pedagogik texnologiya – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.
8. Pedagogik mahorat – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.
9. Ta’limni boshqarish – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o‘rganadi.
10. Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqiash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon etkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayon-larining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlar-ning samarali kechishi bir qator ob’ektiv va sub’ektiv omillarga bog‘liq.
Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodologiyasi asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Respublika Prezidentining yoshlar siyosati, ta’lim sohasiga doir qaror va farmonlari, ta’lim to‘g‘risidagi davlat xujjatlari, SHarq mutafakkirlarining ta’lim va tarbiyaga doir ta’limotlari, ularning pedagogik merosi, jahon va o‘zbek pedagog olimlarining ta’lim va tarbiya sohasiga doir ilmiy izlanishlari, ular tomonidan yaratilgan pedagogik asarlar va boshqalar tashkil etadi.
Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.
Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari – bu shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob’ektiv va sub’ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Ayni vaqtda, O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi.
Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta’minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e’tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun bir qator quyidagi shartlarga rioya etish zarur:
- muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi;
- vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi;
- tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob’ektiv yondashuv;
- tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchilarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi;
- tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o‘tish;
Bugungi kunda tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanil-moqda:
1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10.Matematik-statistik metod.

5.“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin 1992 yilning iyul oyida «Ta’lim to‘g‘risida»gi birinchi qonun qabul qilindi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi birinchi qonun kutilgan natijani bermadi. Umumta’lim maktabi majburiy 9 yillik bo‘lganligi bois, ko‘pchilik yoshlar shu bilan chegaralanib qoldi. Shuning uchun ham 1997 yilning 29 avgustida «Ta’lim to‘g‘risida»gi yangi qonun qabul qilindi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun 5ta bob, 34 ta moddadan iborat.
1997 yilning 29-avgustdagi Oliy majlisning IX sessiyasida «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun bilan birga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ham qabul qilindi. Uzluksiz ta’limning kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibiga quyidagi komponentlar kiritildi: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish. Ushbu komponentlar bir-biribilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.
Bu hujjatlar bir qaraganda mamlakatimizda ma’orif ishlarini tartibga solish, ma’lum bir muddat davomida uning rivojlanishini ta’minlash maqsadiga qaratilgandek tuyuladi. Aslida esa ularning mohiyatiga chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, ma’rifiy maqsad va vazifalar kiritilgan bo‘lib, yaqin kelajakda O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining o‘ziga xos modeli ishlab chiqilgan.
Mazkur qonunlarning hayotga tatbiq etilishi xalq xo‘jaligining barcha sohalarini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi. CHunki bu qonunlar jamiyatning har bir a’zosiga qobiliyati, qiziqish va intilishlariga mos bo‘lgan ta’lim-tarbiya berish, shaxsiy sifatlarni to‘la tarkib toptirish hamda namoyon etish imkonini yaratadi. Uzluksiz ta’lim tizimi barcha kishilarga mos bo‘lgan ta’limni olishi, kasb egallashi, uni takomillashtirib borishlariga to‘la sharoit yaratishga mo‘ljallangan.
Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning uzviy davomi bo‘lib, mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni amalga oshirishning uchta asosiy bosqichi belgilab berilgan: 1997-2001, 2001-2005, 2005 va undan keyingi yillar. Dasturda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Biroq, unda ko‘zda tutilgan vazifalar amalda o‘z echimini to‘liq topdi, deb bo‘lmaydi. Uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishning birinchi bosqichi (1997-2001 y.y.) ta’lim muassasalarida moddiy-texnik bazani yaratishga qaratilgan edi. Umumta’lim maktablari qayta ta’mirlash , kopital rekonstruksiya, ko‘plab AL va KHK lari qurilishi

kerak edi. Bu masalalar deyarli to‘liq hal etildi. Biroq, maktabgacha ta’lim muassasalarining ahvoli mutloqo talabga javob bermay qoldi. Milliy dasturni amalga oshirishning ikkinchi, sifat bosqichi (2001-2005 y.y.)da quyidagi vazifalar ko‘zda tutilgan edi: ta’lim mazmunini tubdan yangilash (DTS, O‘R, FD, darslik va o‘quv qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratish), zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish, tabaqalashtirilgan ta’limni joriy etish va h.k. Ikkinchi bosqichda ham anchagina yutuqlar qo‘lga kiritildi. Milliy dasturning uchunchi bosqichi (2005 va undan keyingi yillar) ta’lim sohasida erishilgan yutuqlarni tanqidiy tahlil etish va unga o‘zgartirishlar kiritishga qaratilgan edi. O‘tgan davr moboynida o‘zliksiz ta’lim tizimida yutuqlar bilan bir qatorda turli xil muammolar ham yuzaga keldi.
SHunga ko‘ra, Respublikamiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev uzliksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, undagi kamchiliklarni tugatish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qildi. Bular: 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 sonli hamda 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261 sonli qarorlaridir. Bundan tashqari o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini qayta ko‘rib chiqish, ularga ob’ektiv ehtiyojlardan kelib chiqib o‘zgartirishlar kiritishga doir farmon va qarorlar ham qabul qilindi.
Ayniqsa, Respublikamizda kasb-hunar kollejlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, ular sonini ob’ektiv ehtiyojlardan kelib chiqqan holda qisqartirish, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 11 yillik o‘qish muddatlarini qayta tiklashga doir qarorlari xalqimiz uchun ayni mudao bo‘ldi.

Nazorat savollari:
1. Pedagogika fanining predmeti va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Pedagogning shaxsiy va kasbiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini izohlang.
4. Pedagogika qanday fanlar bilan yaqin aloqador?
5. Pedagogika fanlari tarmog‘iga qanday sohalar kiradi?
6. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodologiyasini nimalar tashkil etadi?
7. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlariga qanday metodlar kiradi?
8. Qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar haqida nimalarni bilasiz?
9. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsad va vazifalari haqida so‘zlab bering.
10. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun nechta bob va moddadan iborat?
11. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh g‘oyasi qanday?
12. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ruyobga chiqarish bosqichlari haqida alohida to‘xtalib o‘ting.
13. Kadrlar tayyorlash milliy modeli deganda nima tushuniladi?
14. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro aloqasi qanday?
15. Uzluksiz ta’lim tizimi va uning asosiy turlarini yoritib bering.

Test topshiriqlari:

1.Qaysi javob variantida pedagogika fanlari tizimi to’g’ri ko’rsatilgan?
a) umumiy pedagogika, maktabgacha ta’lim pedagogikasi, korrektsion (maxsus) pedagogika; surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya;
v) umumiy pedagogika, maktabgacha ta’lim pedagogikasi, korrektsion (maxsus) pedagogika, metodika, pedagogika tarixi, ta’limni boshharish, ijtimoiy pedagogika va boshqalar;
s) umumiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, kasb ta’limi;
d) umumiy pedagogika, metodika, ta’limni boshqarish; axloq-tuzatish pedagogikasi;
e) barcha javoblar to’g’ri.
2. Mazkur g’oya qanday tushuncha mohiyatini yoritadi: «... shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo’nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga yo’naltirilgan pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari bo’lib, ular

asosida muammoni ijobiy hal etishga yordam beruvchi tamoyillari, ob'ekti va sub'ektiv omillari aniqlanadi»?
a) pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining;
v) ta'lim nazariyasining;
s) tarbiya nazariyasining;
d) pedagogik fanlar tizimining;
e) pedagogika fani vazifalarining.

2-mavzu: Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari

Asosiy savollar:
1.Shaxs va uning rivojlanishi
2. Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar
3. Shaxsning ijtimoiylashuvi

1.Shaxs va uning rivojlanishi

Shaxs tushunchasi insonga taaluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak. "Individ" nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. Individ (lotincha "individium" so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan etarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.6
Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.
Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'ycha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi.
Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanishning o'zi nima? Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yuq bo'lib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi.
Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot

6 G`oziyev E. Psixologiya (yosh davrlar psixologiyasi). – T., «O`qituvchi», 1994. 45-59 b.

tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.
Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va behato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. SHunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

2. Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar

Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi yoki tabiiy omillar etakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday? Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar etakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi.
Ular to'g'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim Torn Daykdir.
Progmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar.
Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. SHu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar.
Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.
Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga etadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida insonfaolligini namoyon etadi.
Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi. Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud. SHunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'siretadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi. Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi, ya'ni:

- birinchidan, tarbiya ta’sirida muhit bera olmagan bilim, ma’lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalar hosil bo‘ladi;
- ikkinchidan, tarbiya tufayli to‘g‘ma kamchiliklar ham o‘zgartirilib, shaxs kamolga etadi.
- uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini ham yo‘qotish mumkin;
- to‘rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.7

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta’sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir. SHunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham etakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin, shaxs rivojlanishida faoliyatnig o‘rni. SHaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo‘ladi. Faoliyat o‘zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko‘ra belgilanadi. Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to‘g‘ri tashkil etish lozim. Lekin ko‘p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyala-nuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo‘ladi.

O‘smir va o‘spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o‘yin, o‘qish va mehnat kiradi. Ular yo‘nalishiga ko‘ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko‘ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir. Faoliyat faol va passiv bo‘lishi mumkin. O‘smir faoliyati muhit va tarbiya ta’sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o‘z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o‘zini shaxs sifatida ko‘rsata olishi unda o‘z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko‘zga tashlanadi. Ta’lim jarayonidagi faollik o‘quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o‘z qobiliyatini namoyon etishga yo‘llaydi. Bilishga bo‘lgan faollik o‘quvchining intellektual rivojlanishini ta’minlaydi. Faollik ko‘rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. SHunga ko‘ra, o‘quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlcha bo‘ladi. Ta’lim muassasasida, hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o‘zgaribturishi kerak. Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir.

Chunki, har bir inson o‘z mehnati, g‘ayrati, intilishi angina faollashadi. O‘qituvchi qanchalik yaxshi o‘qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o‘zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma’naviy-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o‘z faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaganligidadir. SHuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. SHunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo‘ladi. Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. CHunki bola orginizmining o‘sishi ham, rivojlanishimham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi.

Abu Ali Ibn Sino, YAn Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar. Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan,

7 Podlasiy I.P. Pedagogika. v 3-x kn., kn. 2. – Moskva, «Vlados»,, 2007. 13-45 б.

ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig‘inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur. Bolaning individual – o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. «temperamentum», «qismlarning bir-biriga munosabati» ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o‘quvchilari bilan 10-sinf o‘quvchisini tenglashtirib bo‘lmaydi. SHuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. Go‘daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo‘lgan davr.
2. Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha bo‘lgan yosh davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (bolalar) – 7 yoshdan 11,12 yoshgacha.
5. O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar) 14-15 yosh.
6. Katta yoshdagi maktab o‘quvchilari (o‘spirinlar) – 16-18 yosh.8

Kichik maktab yoshida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘irligi jihatdan uning tashqi ko‘rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi. Jismoniy o‘sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o‘rganishga qiziquvchan bo‘ladi. Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o‘quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo‘ladi, his-tuyg‘ulari mazmuni o‘zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar. O‘rta maktab yoshi (o‘smirlik 12-15 yosh). O‘smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bolaning o‘sishi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy etilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe’l-atvoriga ta’sir etadi. O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba’zilarining o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi. Hozirgi davr o‘smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko‘zga tashlanadi:

Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to‘garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o‘tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o‘qishga qiziqishi ortadi.

O‘z-o‘zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o‘zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi. Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda, o‘smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo‘ladi. Bu o‘smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi. Lekin o‘smirlarning hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas, 38 foiz o‘smir hech qaysi o‘quv fanlarini o‘qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o‘quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o‘quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kichik yoshdagi o‘smirlar qiziqishi o‘qituviga bog‘liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o‘qishlari ham barqaror emas. Turli to‘garaklarga 21 foiz o‘smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug‘ullanadi. 40 foiz o‘quvchida, sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo‘q.

Eng muhim qiziqish – tele eshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o‘smir tomosha qiladi. Ular oddiy kunni o‘z ixtiyorlari bilan qanday o‘tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o‘smir vaqtini o‘z holicha o‘tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko‘radi, 50 foizi sport bilan shug‘ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi. SHuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga

8 Ғозиев Э. Психология (ёш даврлари психологияси). – Т., «Ўқитувчи», 1994. 78-89 б.

boradigan o‘smirlarning soni 15% ni tashkil etadi. O‘smirlarda bir narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta’sir etadi. SHuning uchun maktab hayoti “qiyin” vazifalarga to‘liq bo‘ladi.
Bu shda o‘smirlar kattalar oldida o‘zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan talab o‘sadi. “Dangasa”, “qo‘pol”, bee’tibor”, “qobiliyatiz” degan kattalarning baholarini ular og‘rinib qabul qiladilar. O‘smir yoshida, o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. SHuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e’tibor berish lozim. o‘z-o‘zini tarbiyalash natijasida o‘g‘il bolalar kuchli, erkin, e’tiborli, jasur; qizlar esa – o‘ta ko‘nikuvchan, kamtar va jiddiy bo‘la boshlaydilar. SHuning uchun o‘smirga o‘z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur.
13-14 yoshgacha o‘smirda burch hissi, mas’uliyatni his etish, vazminlik paydo bo‘la boshlaydi. Muhimi, o‘smir shaxsini hurmat hilish, kamsitmaslik, katta bo‘lib qolganligini tan olish zarur. Katta maktab yoshi – kollej, litsey o‘quvchilari (o‘spirinlik davri 15-18 yosh). Bu davr o‘spirinlarning ilk balog‘atga etgan davridir.

3- asosiy savolning bayoni.
Shaxsning ijtimoiylashuvi. shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. CHunki, ta’lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog‘iq bo‘lgan holat va hodisalar o‘rgatiladi. Bu jarayonda o‘quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ular ma’lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko‘rsatma) orttiradilar, ya’ni, ijtimoiylashadilar. Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon.9
Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me’yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o‘rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a’zosi bo‘lish ikoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta’sir etadi. Bu ta’sir ta’lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g‘oyalar, ijtimoiy muhit ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar ijtimiy me’yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o‘rganadilar.
Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin, hayotda ba’zan aksi ham bo‘ladi: to‘liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba’zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko‘rsatmaydigan odamlar ham mavjud. Bu holat ko‘p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o‘qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g‘oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:
1.«Individ», «shaxs», «individuallik» tushunchalarini sharhlang.
2. Rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta’riflang.
3. shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar haqida nimalarni bilasiz?
4. shaxs faoliyati haqida so‘zlab bering.
5. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini tavsiflang.
6. shaxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz?

Test topshiriqlari:

Shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega individual xususiyatlariga berilgan to’g’ri ta’rifni belgilang:
a) shaxs rivojlanishidagi umumiylik;

9 Podlasiy I.P. Pedagogika. v 3-x kn., kn. 2. – Moskva, «Vlados»,, 2007. 23-35 б.

v) shaxs rivojlanishidagi o’ziga xoslik;
s) tarbiya jarayonini amalga oshirish;
d) o’quvchilarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlariga asoslanish;
e) barcha javoblar to’g’ri.

Nima uchun V-VII sinf ba’zi o’quvchilarining o’zlashtirishi va intizomi susayadi?
a) sinf rahbari va o’qituvchilar ularga boshlang’ich sinfdagiga qaraganda kam e’tibor beradi;
v) o’quvchilar o’qishning yangi talablari va sharoitiga o’rganmagan yoki tayyor emaslar;
s) boshlang’ich sinf o’quvchilari rivojlanishida, V sinfda o’qish uchun zarur bo’lgan masalalarga e’tibor berilmagan;
d) mazkur davrda o’quvchilarning rivojlanishi ularning yosh xususiyatlariga bog’liq;
e) barcha javoblar to’g’ri.

2-MODUL. DIDAKTIKA ASOSLARI.

3 - mavzu: Didaktikaning maqsadi va vazifalari.

Asosiy savollar
1. Didaktika – ta’lim nazariyasi, uning asosiy maqsad va vazifalari
2. Ta’limning gnoseologik (tarixiy) asoslari
3. Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi
4. Didaktikaning ta’lim tamoyillari va qonuniyatlari.

1-asosiy savolning bayoni.
Didaktika – ta’lim nazariyasi, uning asosiy maqsad va vazifalari. Insonning faoliyatida o‘qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ta’lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo‘lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish, taqlid qilishdan iborat bo‘lganda ham shunday bo‘lgan; keyinchalik, ta’lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo‘lganida ham shunday bo‘lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta’limni nazariy tahlil qilish va o‘rganish ishlari olib borilmagan shuning uchun ham u uzoq vaqt davomida o‘z nazariyasiga ega bo‘lmagan.
Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o‘zgarishlar olib keldi: aynan o‘sha paytda ta’lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi. Didaktika (yunoncha «didaktikos» - “o‘rgatuvchi”, «didasko» – “o‘rganuvchi” ma’nosini bildiradi) ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayoni mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolar)ni o‘rganuvchi fanga aylandi. Bu tushunchani buyuk Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) “Buyuk didaktika” (1657 yil) nomli mashhur asarida tilga oladi.10
Lekin, YA.A.Komenskiy “Didaktika bu faqat ta’limgina emas, balki tarbiyalash ham”, - deb ta’kidlaydi. Mazkur asarda olim ta’lim nazariyasining muhim masalalari: ta’lim mazmuni, ta’limning ko‘rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so‘z yuritadi. Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi. Pedagogika fani ta’lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o‘rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib ko‘rsatadilar. Hozirgi davrda didaktika o‘qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi. Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo‘ycha ta’lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud.

10 Ya A.Komenskiy. Buyuk didaktika. – T., 1991

Ularning mazmuni ta’limning ma’lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o‘rganish va ta’lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o‘qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur. Didaktika predmetini aniqlash bo‘ycha turli qarashlar ilgari surilgan. Qarashlarning turlicha bo‘lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog‘liq. Ko‘pchilik olimlar ta’lim ob’ekti deb o‘qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko‘rsatadilar. Didaktika ta’limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e’tirof etadi. Ta’lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta’limiy faoliyatini tashkil etishda o‘qituvchi – o‘quvchi, o‘quvchi – o‘quv materiali, o‘quvchi – boshqa o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi. Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiyligini isoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o‘quvchining o‘quv materialiga bo‘lgan munosabati, ya’ni, bilimlarni o‘rganish munosabatini asosiy deb e’tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko‘p.
Darhaqiqat, o‘qish, o‘rganishi ta’lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta’limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta’limga pedagogik, ya’ni, ijtimoiy tajribani berish, o‘rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat – ikki shaxs (o‘quvchi va o‘qituvchi) o‘rtasidagi munosabatlar etakchi o‘rin egallashi lozim ekanligi anglanadi. Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta’lim-tarbiya jarayonini yaxlit o‘rganish zarurligini ilgari suradi.
Ta’limning tarbiyaviy vazifalari o‘quvchining bilimni o‘zlashtirishlarini ta’min-labgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma’lum ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirishi, fe’l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat. Didaktikaga ta’limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o‘rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta’limni faqatgina o‘rganish ob’ekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyilalashtirish ob’ekti sifatida qaraydi. Umumiy didaktikaning predmeti dars o‘tish (o‘qituvchi faoliyati) va bilim olish (o‘quvchining o‘rganish faoliyati)ning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.
Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:
- ta’lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta’riflash va tushuntirish;
- ta’lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya’ni, ta’lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- ta’lim jarayoni uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta’riflash.
Didaktika nazariy va bir vaqtning o‘zida me’yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta’limning mavjud jarayonlarini o‘rganish, uning turli jihatlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir. O‘zlashtirilgan nazariy bilimlar ta’lim amaliyotini yo‘naltirish, ta’limini jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta’lim mazmunini anglab olish, ta’lim tamoyillari, ta’lim metod va vositalarini qo‘llash me’yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me’yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.
Ta’lim funksiyalari. “Funksiya” tushunchasi “ta’lim vazifalari” tushunchasiga yaqindir. Ta’lim funksiyasi ta’lim jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa ta’limning komponentlaridan biri hisoblanadi. Didaktika ta’lim jarayonining quyidagi uchta funksiyasini ajratib ko‘rsatadi: ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalari.11
Ta’limiy funksiya – ta’lim jarayonining o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Ta’lim natijasi sifatida bilimlarining to‘laligi, chuqurligi, tizimliligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta’lim jarayonining metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

11 Podlasiy I.P. Pedagogika. v 3-x kn., kn. 2. – Moskva, «Vlados», 2007. 78-89 б.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ular tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikma va malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega. Ko‘nikma olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi. Malaka ongli xatti-harakatning avtomat-lashtirilgan tarkibiy qismi. Umumiy ko‘nikma va malakalarga og‘zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalana olish, o‘qish, manbalar bilan ishlash, referat yozish, mustaqil ishini tashkil etish kabilar kiradi.
Ta’limning rivojlantiruvchi funksiyasi ta’lim jarayonida, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchining rivojlanishi sodir bo‘lishini ko‘rsatadi. Rivojlanish quyidagi yo‘nalishlarda sodir bo‘ladi: nutqi rivojlanishi, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy va ehtiyoj-sababli sohalari rivojlanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim shaxsni har doim rivojlantiradi. Lekin o‘qituvchi va o‘quvchining shaxsiy har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan maxsus o‘zaro munosabatlarida rivojlantirish funksiyasi yanada samaraliroqdir.

Ta’limning o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi “rivojlantiruvchi ta’lim” tushunchasi bilan ifodalanadi. xx asr 60-yillaridan boshlab rivojlantiruvchi ta’limni tashkil etishga nisbatan turli yondoshuvlar yuzaga keldi. Bularning hammasi ta’limni tashkil etish faqat bilimlarni shakllantirishga emas, o‘quvchini har tomonlama rivojlantirish (birinchi navbatda, aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, turlarga ajratish va boshqalarni kuzatish, xulosa chiqarish, ob’ektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o‘rgatish, uning natijalarini tekshirishni bilish malakasini rivojlantirish)ga xizmat qilishini anglatadi. Ta’lim jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlik ob’ektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq shaxsni ta’lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oila, mikromuhit va boshqalar)ning ta’siri tufayli qiyin kechadi.

Ta’limning tarbiyaviy funksiyasi. Ta’limning tarbiyalovchilik xususiyati turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarbiyalash funksiyasi ta’lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o‘qituvchi hamda o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida etakchi o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi.
Ta’limning tarbiyalovchilik xususiyati, eng avvalo, ta’lim mazmunida aks etadi. biroq, shuni ham e’tiborda tutish kerak-ki, barcha o‘quv fanlari ham birdek tarbiyalovchilik imkoniyatiga ega emas. Gumanitar va estetik fanlarning bu boradagi imkoniyatlari yuqori. Ta’lim jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o‘qituvchi va o‘quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o‘qish jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari, o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o‘qituvchining rahbarligi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatning eng qulay usuli sifatida demokratik usulini e’tirof etadi. Bu usul ta’lim jarayonida o‘quvchilar shaxsini hurmat qilish, ularning xohish istaklari, qiziqishlarini inobatga olinishini anglatadi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faoliyatlari. O‘qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta’lim muassasasi (umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari)da tashkil etiluvchi ta’lim jarayonida o‘quvchining faoliyati o‘qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O‘qituvchi faoliyatining vazifasi o‘quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo‘naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir. Ta’lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

1) rejalashtirish;
2) tashkil etish;
3) boshqarish (rag‘batlantirish);
4) nazorat;
5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

O‘qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejasini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning tayyorliklari darajasi, ularning o‘quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o‘rganib chiqishi, o‘quv materiali mazmunini tanlab

olishi, dars olib borish shakli va metodini o‘ylab chiqishi kerak bo‘ladi. O‘quvchilar faoliyatini tashkil etish o‘quvchilar oldiga o‘quv masalalarini qo‘yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo‘ladi.

2- asosiy savolning bayoni.

Ta’limning gnoseologik (tarixiy) asoslari. O‘quv jarayonini mantiqiy qurilishi ta’lim mazmunining xususiyatlari va gnoseologik jihatlariga bog‘liq. Gnoseologiya (yunoncha – «gnosis» («gnoseos») – bilim, ong, o‘rganish, logiya – fan, ta’limot) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo‘lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta’limot. Ijtimoiy taraqqiyot tarixida insonning atrof-muhitni bilishi umumiy tuzilishiga va bosqichlariga turlcha yondoshishlar ma’lum. ana shu yondoshishlar o‘quv jarayonini qurish va ta’lim mazmunini tushunish mantiqini belgilab beradi.

Muhammad al-Xorazmiy (IX asr) bilish nazariyasi rivojlanishiga katta hissasini qo‘shgan. U birinchi bo‘lib koinot ob’ektlarining harakatlari hamda erdagi nuqtalarining joylashishini jadval ko‘rinishida aks ettirib, tajriba-kuzatish va tadqiqotlar metodlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, yagonalikning birligi tamoyili, shuningdek, alohida va umumiy, induksiya va deduksiyalarning mohiyatini aniqlashtirdi; matematik masalalarni echishning algoritmik metodini ishlab chiqdi. Bu metoddan bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda.

Al-Kindiy (IX asr) ilmiy bilishning uch bosqichli konsepsiyasini ilgari suradi. Alloma insonning bilishini: sezgiga oid va ratsional bilish tarzida ikkiga ajratadi. Sezib bilishning predmeti va ob’ekti barcha jism va moddiy narsalar hisoblanadi. Kindiyning fikrcha, sezib bilish aql uchun muhim materialni beradi. Faqatgina aql tashqi dunyo haqida haqiqiy bilim va tushunchani ishlab chiqishga qodir, - deb hisoblaydi Kindiy.

Abu Nasr Forobiy (X asr) Kindiy g‘oyalarining mohiyatini aniqlashtiradi. Biror narsani bilishga intilgan inson avvalo uning ma’lum holatini o‘rganadi, o‘zlashtirgan-larini o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilimlarga yo‘naltiradi. Alloma fanlar klassifi-katsiyasi, shuningdek, bilish faoliyatini tashkil etishga oid tavsiyalarni ishlab chiqadi. YAxshi nazariyotchi bo‘lish uchun deydi, - Abu Nasr Forobiy, - qaysi fan bilan shug‘ullani-shidan qat’iy nazar quyidagi uchta shartga amal qilish kerak:

1. Fan asosida yotuvchi barcha tamoyillarni yaxshi bilishi;
2. Ushbu tamoyil va ma’lumotlar asosida zarur xulosani chiqarishi, ya’ni, mulohaza yuritish qoidalarini bilishi kerak;
3. Xato nazariyalarni isbotlab berish va boshqa mualliflar fikrlarini tahlil qilishni, shuningdek, haqiqatni yolg‘ondan ajratish va xatoni tuzatishni bilishi zarur.

Abu Rayxon Beruniy (XI asr) bilishni uzluksiz, to‘xtovsiz davom etadigan jarayon sifatida tushunadi. Allomaning fikrcha, insoniyat borliqning haqiqiy mohiyati, hozircha noma’lum bo‘lgan jihatlarini kelajakda bilib oladi.

Abu Ali Ibn Sinoning (XI asr) bilish nazariyasida sabab haqidagi ta’limot alohida o‘rin oladi. U sabablarni aniq, sezish asosida anglanadigan va yashirin, tashqi holatlarini tahlil etish asosida tushuniladigan sabablarga ajratadi va hodisaning mohiyati uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash yo‘li bilan anglanishi mumkin deb hisoblaydi. Alloma ushbu gnoseologik qoidani o‘zining tabiblik amaliyoti, kasalliklarni ularning simtomlari bo‘ycha va dorilar ta’sirini kuzatish asosida aniqlagan.

Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy XVII asrda ta’lim jarayonining mohiyatini ilmiy asoslashga urindi. Alloma tomonidan ilgari surilgan ta’limning tabiiyligi g‘oyasi ta’lim jarayoni, uning tuzilishi, tamoyil va metodlari tabiat qonunlariga muvofiq belgilanishini ta’kidlaydi. Ya.A.Komenskiyninng tabiatga bog‘liqligi haqidagi g‘oyasi – g‘arb olimlarining ta’lim jarayonining gnoseologik asoslarini ochib berish, moddiy dunyo qonunlarining o‘quv jarayoniga ta’sirini ko‘rsatib berishga urinishlaridan biridir.12

12 Я.А.Коменский. Буюк дидактика. – Т., 1991

XVIII asrda fransuz olimi Jan Jak Russo ham insonning tabiat va jamiyatdagi o‘rni haqidagi falsafiy dunyoqarashlar asosida ta’lim mohiyatini ochib berishga urinib ko‘rgan. Olimning fikrcha, ta’lim jarayonining mohiyati bolaning atrof-muhitni bilishi tabiatidan kelib chiqadi. Bola tabiat qo‘ynida, qishloq joylarda rivojlanishi kerak. Bolaning atrof-muhit mohiyatini tez anglashi xususiyatini hisobga olib ekzistensiolizm (yunoncha «existetia» - mavjudlik) vakillari ta’lim mohiyatini quyidagcha ifoda etadilar: maktabning asosiy maqsadi intellektini rivojlantirish emas, balki bolani emotsional tarbiyalashdir.

Ekzistensializm ratsional bilishni rad etadi, ta’lim fandan ko‘ra san’atga yaqinroq deb hisoblaydi, shuningdek, borliqni bevosita bilish metodini ilgari suradi. Ta’lim mazmuni masalalariga boshqa bir yondoshish “pragmatizm pedagogikasi” yoki progressivizm AQSHda, alohida rivojlandi. Uning etakchisi Djon Dyui mazkur ta’limotni ifodalashda pragmatizmning falsafiy g‘oyalarini asos qilib oldi.

Pragmatizm (yunoncha pragma – ish, harakat, falsafiy amal) zamonaviy amerika falsafasida idealistik oqim. Bu oqim haqiqatning ob’ektivligini rad etadi, haqiqat bu ob’ektiv borliqqa mos kelmaydi, balki amaliy foydali natijalar beradi.

D. Djui fikricha, bilish va bilim inson o‘z hayotida duch keladigan turli muammo yoki qiyinchiliklarni engish vositasi hisoblanadi. Bilim yashash uchun kurash vositasi va shaxsning rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. Biz faqatgina muammoni hal etayotganimizda fikrlaymiz, buning boshlanish yo‘li har doim qiyinchilikni his etish hisoblanadi. “Harakatlar pedagogikasi” konsepsiyasi ko‘p jihatdan Dj.Dyuining falsafiy (pragmatizm) va psixologik qarashlarining oqibati hisoblanadi. Uning muallifi, reformatorlardan biri nemis pedagogi Vilgelm Avgust Lay (1862-1926 yillar) bilim olish jarayonida ko‘zga tashlanuvchi quyidagi uch bosqichni ko‘rsatadi: idrok etish, qayta ishlab chiqish, ifoda etish. Bugungi kunda ham ta’lim mohiyatini tushunishga nisbatan turlcha yondoshishlar mavjud.

Xususan, sotsiologik yondashuv. Unga ko‘ra ta’limning mohiyati ijtimoiy tajribalarni yoshlarga etkazishdan iborat. O‘quvchilar insoniyatning ijtimoiy tarixiy tajribasi natijalari bo‘lgan bilimlarni o‘rganadilar. Ta’limning mazmuni o‘quvchilarning ajdodlar tajribasini o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi jarayonini tashkil etishdan iborat. Bu falsafiy qoida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning muhim omili – shaxs kamolotini tushunishga ilmiy yondashishni anglatadi. Ta’limga bunday yondashish ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Boshqa bir yondashishni xususiy pedagogik yoki didaktik yondashish deb atash mumkin. Bu yondashish yaxlit ta’lim jarayonining borishini belgilab beruvchi bilim olish bosqichlari (o‘quv materialini o‘rganishni, uni anglab etish, mustahkamlash, amaliy faoliyatda bilimlarini qo‘llash)ni ifodalaydi.

Mazkur yondashuvga ko‘ra ta’lim mazmuni o‘quvchilar tomonidan bilim egallash bosqichlarining ketma-ketligiga amal qilish asosida faoliyatni tashkil etishdan iborat. Konsepsiya tarafdorlari bilish yo‘lini quyidagcha formula asosida ifodalaydilar: jonli mushohadadan abstrakt fikrlashga va abstrakt fikrlashdan amaliyotga. Ta’lim mazmunini tushunishga nisbatan psixologik yondashish bilimlarni o‘zlashtirish va inson rivojlanishi borasidagi psixologik nazariyada ilgari surilgan g‘oyalarga tayanadi. Bu konsepsiyaning kelib chiqishi Vigotskiyning (1896-1934 yillar) ta’limning shaxs rivojlanishida asosiy omil bo‘lishi haqidagi “yaqin rivojlanish zonasi” deb uritiluvchi qarashining yaratilishi bilan bog‘liq. Unga ko‘ra, ta’lim faqat yaqin zonada qurilganda, hali to‘la shakllanmagan, Lekin o‘quv jarayonini qurishga asos bo‘la oladigan mexanik harakatlar asoslangandagina mazmunga ega bo‘ladi.

Psixologik tadqiqotlar pedagogik nazariyani so‘zsiz boyitadi. Bilim olish jarayonida shaxs rivojlanishining kechish jarayoni mohiyatini ochib beradi. Ammo faqat psixologik g‘oyalar asosida ta’lim mohiyatini yoritish pedagogik jarayonni bir tomonlama talqin etishga olib keladi. XIX asrning 40-yillarida dialektik materializm nazariyasi asoslandi. Dialektik materializm tabiat, jamiyat va fikrlashning harakatlanishi hamda rivojlanishi borasidagi umumiy qonunlarni yorituvchi falsafiy ta’limotdir.

Bu ta’limotda Feerbaxning materializmi va Gegelning dialektikasi uzviy ravishda birlashadi. Bu ta’limot ta’lim jarayoni inson ongining borliqni aks ettira olishiga imkon berishi zarur degan g‘oyani ilgari suradi. Haqiqatni bilish murakkab jarayon. Dialektik nazariya g‘oyasiga ko‘ra rivojlanishning asosi qarama-qarshilik hisoblanadi. Rivojlanish qarama-qarshi kuchlar kurashidir. Dialektik yondashishga binoan ta’lim jarayonining asosiy qarama-qarshiliklari quyidagilar sanaladi:

1. Ijtimoiy-tarixiy (ilmiy) bilimlar hajmi va o‘quvchi o‘zlashtirgan bilimlar hajmi o‘rtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilik ta’lim jarayonini harakatlan-tiruvchi kuch hisoblanadi. U ta’lim mazmunini doimiy takomillashtirishga olib keladi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini ijtimoiy-texnik taraqqiyot darajasiga yaqinlashtirish zaruriyati ta’lim mazmunini tubdan yangilash, uni yangi tamoyil, shakl, metod va vositalarini izlashni muhim ijtimoiy vazifa qilib qo‘ymoqda.
2. O‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan o‘rganishning amaliy jihatlari (shakl, metod va vositalari) ning darajasi bilan ijtimoiy-tarixiy bilish (o‘rganishning o‘quvchi egallab olishi kerak bo‘lgan shakl, metod va vositalari) darajasi o‘rtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilikni hal etish o‘quvchining intellektual rivojlanishi sur’ati va darajasiga bog‘liq. Bir xil mazmun va hajmdagi o‘quv materiali aqliy rivojlanishning turli ko‘rsatkchlariga namoyon etishi mumkin.
3. O‘quvchining mavjud rivojlanish darajasi bilan ijtimoiy buyurtmada ko‘zda tutiluvchi rivojlanish darajasi o‘rtasidagi qarama-qarshilik. Agarda ijtimoiy talab bolaning idrok etish imkoniyatidan yuqori bo‘lsa, unda jiddiy qiyinchilik yuzaga keladi.

XX asrning 80-90-yillarida pedagogik hodisalar, shu jumladan, ta’lim muammolarini ham o‘rganishda MDH davlatlarida aksiologik yondashuv ko‘zga tashlana boshladi. Aksiologiya (yunoncha «axios» – qimmatli, logiya – fan) – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta’limot bo‘lib, u XIX asrning oxiri xx asr boshlarida shakllangan. Rossiyalik ba’zi olimlar (V.A.Slastyonin, I.F.Isaev, E.N.SHiyanov) mazkur yondashuvni ta’limning yangi falsafasi asosi hamda zamonaviy pedagogikaning metodologiyasi sifatida tushunishni taklif etadilar. Hayot, sog‘liq, muhabbat, oila, ta’lim, mehnat, tinchlik, ishonch, go‘zallik, ijod va shu kabi qadriyatlar hamma davrlarda ham inson hayoti uchun o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan.

Insonparvarlik g‘oyasi asosini tashkil etuvchi ushbu qadriyatlar tarixiy taraqqiyot jarayonida vaqt sinovidan o‘tgan. O‘zbekiston Respublikasida kechayotgan demokratik o‘zgarishlar mazkur qadriyatlarni qayta tiklash va baholash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqmoqda. Insonparvarlik g‘oyasi markazida shaxsni har tomonlama kamol toptirish masalasi yotadi. Shaxsni rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi asoschilari ushbu masalani nazariya uchun qilib olganlar. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasining g‘oyalari XX asrning 80-yillarida, pedagogikaga muqobil sifatida yuzaga kelgan hamkorlik pedagogikasida o‘z aksini topdi. Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglar pedagogik jarayon ishtirokchilari (o‘qituvchi va o‘quvchilar) o‘rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o‘zaro munosabatlari tashkil etishini ta’kidlab o‘tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalari – A.Avloniy, G‘.G‘ulom, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, YA.Korchak, K.Rodjers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Pedagogik hamkorlik g‘oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va “XXI asr ta’limi konsepsiyasi” asosini tashkil etadi. Pedagogik hamkorlik mazmuni va metodikasi xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsga ta’limning maqsadi sifatida yangicha qarash: bola maktabda – to‘la huquqli shaxs, pedagogik jarayonda sub’ekt; shaxsning rivojlanishi – ta’lim tizimining maqsadi; har bir erkin, o‘z fikrini mustaqil ifodalovchi, barkamol shaxsni tarbiyalash ta’lim maqsadining asosi kabi g‘oyalarlarni aks ettiradi.
2. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bolalarga nisbatan muhabbatli bo‘lish, ularning taqdiri bilan qiziqish; bolaga o‘z kuchi va iqtidoriga ishontirish; pedagogik munosabatlar jarayonida u bilan hamkorlikka erishish, o‘qituvchi va o‘quvchining huquq jihatldan tengligi; bolaning erkin tanlash huquqi; xato qilish huquqi; o‘z shaxsiy nuqtai

nazariga ega bo‘lish kabi holatlarni ifodalaydi. Aksincha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlash inkor etiladi.
3. Individual yondoshishning yangi talqini. uning mazmuni o‘quv fanini o‘quvchiga emas, balki bolani o‘quv faniga yo‘naltirishdan iborat. Individual yondashish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: materialni o‘rtacha o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga mo‘ljallashdan chetlanish, shaxsning ijobiy sifatlarini ko‘ra bilish, shaxsni psixologik-pedagogik diagnostika qilish.
4. shaxsning ijobiy «Men – konsepsiyasi»ni shakllantirish. Men konsepsiyasi – bu shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlari asosida shaxsiy hulqini shakllantiruvchi tizim bo‘lib, ijobiy men – konsepsiyasi (men o‘zimga yoqaman, men har ishga qodirman, men hamma narsani bilaman) shaxsni muvaffaqiyatlarga rag‘batlantirib, shaxsninng ijobiy namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Salbiy men – konsepsiyasi (men o‘zimga yoqmayman, men hech narsani bajara olmayman, men hech kimga kerak emasman) uning turli faoliyat yo‘nalishlarida muvaffaqiyatga erishishiga halaqit beradi, o‘qish natijalarini yomonlashtiradi, shaxsda salbiy sifatlarning shakllanishiga olib keladi. O‘qituvchining vazifasi har bir o‘quvchi timsolida komil shaxsni ko‘rish, uni tushunish, qabul qilish va unga ishonishdan iborat («hamma bolalar iste’dodli» tarzida).
5. “Nimaga?” va “Qanday ta’lim?” masalasini hal etishga yangcha yondashish. Uning mohiyati ta’lim mazmunini shaxs rivojlanishining vositasi sifatida tushunishdan iborat.
6. Zamonaviy maktabda tarbiyalash konsepsiyasi. Hamkorlik pedagogikasi quyidagi muhim g‘oyalarni aks ettiradi: bilimlar maktabini tarbiya maktabiga aylantirish, o‘quvchi shaxsini yaxlit tarbiya tizimining markaziga qo‘yish, tarbiyaning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarning shakllanishi, bolaning ijodiy qobiliyati hamda uning individualligini rivojlantirish, individual va jamoaviy tarbiyani uyg‘unlikda olib borish. pedagogik hamkorlik yuqorida qayd etilgan g‘oyalar asosida shaxsga yo‘naltiriluvchi (rivojlantiruvchi) texnologiya yaratiladi. Ta’lim texnologiyasining mohiyati shaxsni rivojlantirish, ta’lim nazariyasini asoslash uchun nazariy shartsharoit yaratish, falsafasi esa insonni shakllantirishdan emas, balki unga o‘zi-o‘zini tarbiyalashga yordam berishdan iborat. Ta’lim qonuniyatlari va tamoyillari. O‘quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiy va xususiy tarziga ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko‘ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy, amal qilinishiga ko‘ra faqat alohida tarkibiy qismlariga taalluqli bo‘lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb ataladi.13
Ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
1. Ta’lim maqsadi quyidagilarga bog‘liq: jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi.
2. Ta’lim mazmuni quyidagilarga bog‘liq: ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati, o‘quvchilarning yoshi imkoniyat-lari, ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o‘quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari.
3. Ta’lim sifati (samaradorligi) quyidagilarga bog‘liq: avvalgi bosqich mahsuldor-ligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi, o‘quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta’sir ko‘rsatish hamda o‘quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta’lim vaqti.
4. Ta’lim metodlari samaradorligi quyidagilarga bog‘liq: metodlarni qo‘llashda bilimlari va ko‘nikmalari, ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, o‘quvchilarning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta’minot hamda o‘quv jarayonini tashkil etish.
5. Ta’limni boshqarish mahsuldorligi quyidagilarga bog‘liq: ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta’sir ko‘rsatishlarning asoslanganliligi.

13 Podlasiy I.P. Pedagogika. v 3-x kn., kn. 2. – Moskva, «Vlados», 2007. 97-108 б.

6. Ta’limni rag‘batlantirish samaradorligi quyidagilarga bog‘liq: ta’limning ichki rag‘batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag‘batlari. Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlarning ko‘plab soni ma’lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:
1. Didaktik qonuniyatlar.
2. Gnoseologik qonuniyatlar.
3. Psixologik qonuniyatlar.
4. Kibernetik qonuniyatlar.
5. Sotsiologik qonuniyatlar.
6. Tashkiliy qonuniyatlar.
Didaktik tamoyillar o‘quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang‘ich qoidalardir. Tamoyil (yunoncha «printsipium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang‘ch qoidasi; boshqaruvchi g‘oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab. Ta’lim qonuniyatlari va tamoyillarining shakllanish tarixi.
Ibtidoiy jamiyatda insoniyat o‘sib kelayotgan avlodga mavjud bilimlarni uzatish asosida amaliy bilimlari asta-sekin shakllangan. O‘sha davrdayoq ta’lim amaliy qoidalari ishlab chiqilgan va avloddan-avlodga uzatib kelingan. Antik davrda asosan ajdodlar tajribasi an’analar tarzida umumlashtirilib, amaliy ta’lim masalalari hal etilgan. Platon va aristotellar tavsiya hamda qoidalar to‘plarni ko‘rinishida amaliyotiy ta’lim mohiyatini umumlashtirishga uringanlar.
sharqdagi uyg‘onish davrida (IX-XI asrlar) arab, musulmon madaniyatining yaqin va markaziy osiyo xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyati bilan birlashishi asosida alohida sinkretik (yunoncha “synkretismos” – birlashish, yaxlitlik, qo‘shilish) madaniyat birlashgan turi yuzaga kelgan. Allomalar Muhammad Al-Xorazmiy (787-850 yillar), Abu Nasr Forobiy (870-950 yillar), Al-Kindiy (800-870 yillar), Abu Rayxon Beruniy (973- 1050 yillar), Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yillar) va boshqalar uning asoschilari sifatida mashhur bo‘ldilar. bu madaniyatning asosiy markazlari Suriya, Eron, Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan.
sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida ta’lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta’lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar. Biroq ta’lim masalalari bilan ular maxsus va izchil shug‘ullanmaganliklari bois maxsus didaktik nazariya yaratilmadi.
Ta’limni ular fan sifatida emas, boshqa fanlarga o‘rgatish san’ati, hunarmandchilik sifatida tushundilar. SHarq allomalari tomonidan ilgari surilgan qoida, usul va tamoyillarning aksariyati zamonaviy maktablarda ham qo‘llanilmoqda. Quyidagi jadvaldan sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Kindiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muslihiddin Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham ta’limning ilmiyligi, ongliligi, ko‘rgazmaliligi, tushunarliligi, ketma-ketligi, muntazamligi, moslashuvchanligi va mustaqilligi, shuningdek, bolaning individual xususiyatlari, layoqati va qobiliyatlarini hisobga olish, ta’limni insonpar-varlashtirish kabi qoida va tamoyillarni ifoda etib berganlari anglanadi. XVII asrda pedagogika amaliy tabiatshunoslik sifatida biologiya qonuniyatlariga bo‘ysunishi e’tirof etilgan. Pedagogikani tubdan to‘la qayta qurishni chex olimi YA.A.Komenskiy va ingliz pedagogi Djon Lokk amalga oshirdilar.
1. Ijtimoiy-tarixiy;
2. Tabiiy-tarixiy;
3. Psixologik.
Yan Amos Komenskiy didaktikaning tematik belgilariga ko‘ra guruhlangan quyidagi qoidalar tizimini ilgari surdi:
1. “Ta’lim va oson o‘qishning asosiy qoidalari” (“Buyuk didaktika” - XVII bob);
2. “Tabiiy o‘qish va ta’limning asosiy qoidalari”;
3. “Fanlarga o‘qitish san’atining to‘qqiz qoidasi” (XX bob) va boshqalar.
3-asosiy savolning bayoni.
Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi. Muayyan fanga xos bo‘lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

1) falsafiy tushunchalar;
2) xususiy ilmiy, ya'ni, muayyan fangagina xos bo‘lgan tushunchalar.14
Didaktika uchun "umumiy va alohida", "mohiyat va hodisa", "qarama-qarshilik", "bog‘liqlik" kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo‘llaniladigan umumiy-ilmiy tushunchalar orasida "tizim", "tuzilma", "vazifa", "element" kabilar alohida o‘rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:
1) ta'lim – o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarash-larini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon;
2) dars – bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli;
3) bilim olish – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;
4) ta'lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.
5) o‘quv fani – ta'lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan hamda o‘zida muayyan fan sohasi bo‘ycha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.
6) ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo‘ycha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.
Didaktikada "idrok etish", "o‘zlashtirishi", "mahorat", "rivojlanish" va boshqalar (psixologiya), "boshqarish", "qayta aloqa" (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo‘lgan tushunchalar ham qo‘llaniladi. Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to‘ldirilib borilmoqda. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta'lim, bilim, ko‘nikma, malaka, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijasi. So‘nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.
Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui;
Bilim olish – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;
Ko‘nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi;
Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;
Ta'lim – o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarash-larini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon;
Ta'lim metodlari – ta'lim jarayonida qo‘llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui;
Ta'lim mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;
Ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'ektiv (o‘qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

14 Yuzlikayev F.R. Pedagogika institutida bo`lajak o`qituvchini didaktik tayyorlash jarayonini jadallashtirish. – T., «Fan», 1995. 69-79 b.

Ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon;
Ta’lim mazmuni – davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan, ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo‘ycha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;
Ta’lim maqsadi (o‘qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning aniq yo‘nalishini belgilab beruvchi etakchi g‘oya;
Ta’lim natijasi (ta’lim mahsuli) – ta’lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o‘quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;
Ta’limni boshqarish – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash;
Ta’lim tizimi – yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo‘lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o‘quv-tarbiya muassasalari majmui. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Ta’lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi. Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlar asosida ta’lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko‘rsatish demakdir. U ta’limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlarga ajratadilar:
1) an’anaviy;
2) progressiv;
3) zamonaviy.
Ta’lim nazariyasida Ya.A.Komenskiy, I.Pestalotsi va I.Gerbartlarning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega. An’anaviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbart (1776-1841 yillar) nomi bilan bog‘liq. U Ya.A.Komenskiyning sinf-dars an’anaviy tizimini tanqidiy nuqati nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta’lim tizimini yaratdi.
I.R.Gerbart ta’lim tizimining asosiy belgisi quyidagilardan iborat: o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlash maktabning asosiy vazifasi; bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir. Progressiv (pedosentrik) tizim bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol o‘ynashini e’tirof etadi. Zamonaviy didaktik tizim XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo‘lingan axborotlarni etkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o‘zlashtirishda samaradorlikka erishish g‘oyasini ilgari suradi.
Mazkur g‘oya keyinchalik dasturiy ta’lim deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o‘quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratdi. D.Dyuining nazariy g‘oyalari muammoli ta’limning asosi bo‘lib qoldi. Bugungi kunda muammoli ta’lim deb nomlanuvchi, ushbu g‘oya o‘qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o‘quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta’minlashga erishishni nazarda tutadi. muammoli ta’limning vazifasi faol o‘rganish jarayonini rag‘batlashtirish, o‘quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.
V.Zankovning (1901-1977 yillar) rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi XX asrning 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g‘oyalarini amalga oshirish ta’lim jarayoniga insonparvarlik g‘oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Psixolog L.S.Vo’gotskiy (1896-1934 yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” g‘oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra bola kattalar yordamida bilim olib, o‘zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ta’lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g‘oyalarga muvofiq tashkil etilishi e’tirof etilgan. Ta’limni insonparvarlashtirish ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, uning sha’ni, obro‘si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste’dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik, ta’lim dasturlarini tanlashda o‘quvchilarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi.

Respublika uzluksiz ta’lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga xizmat qiladi, barkamol shaxs va etuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma (modeli)lari. Pedagogik paradigma (yunoncha «paradeigma» – misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma’lum bosqichida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko‘rsatmalar to‘plami bo‘lib, u ta’limning konseptual modeli sifatida qo‘llaniladi. Bugungi kunda ta’limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

1. An’anaviy – konservativ paradigma (bilim paradigmasi).
2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma.
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik paradigma.
5. Ezoterik paradigma.

Ayni vaqtda ta’lim paradigmalarini belgilashga nisbatan uch xil yondashuv mavjud.

1. Qadriyatli (aksiologik) yondashuv – madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.
2. Faoliyatli yondashuv asosan madaniyat moddiy va ma’naviy boyliklarini yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.
3. SHaxsiy yondashuv – madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo‘ladi.

Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi har bir paradigma muayyan ta’limiy muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o‘quv muassasalarining vazifalari;
- ta’limning samarali tizimi;
- o‘quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;
- ta’limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

Ayni vaqtda quyidagi paradigmalar mavjud:

1. Bilim olishning an’anaviy paradigmasi (modeli). Unga ko‘ra ta’limning asosiy maqsadi – “bilim, qanchalik qiyin bo‘lmasin bilim olish”. An’anaviy paradigma maktabning maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari – bilim, ko‘nikma va malakalar, ilg‘or g‘oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga etkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta’lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan-avlodga etkazish.
2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma (P.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar). Ratsionalistik paradigma diqqat markazida ta’lim mazmuni emas, balki o‘quvchilar tomonidan turli bilimlarni o‘zlashtirilishini ta’minlovchi samarali usullari yotadi. Ta’limning ratsionalistik modeli asosini B.Skinerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik (inglizcha behavior – xulqi) konsepsiyasi tashkil qiladi. Maktabning maqsadi – o‘quvchilarda g‘arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko‘zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi “xulqiy repertuar”ni shakllantirishdir. SHu bilan bir vaqtda, “xulq” atamasi bilan “insonga xos hamma ta’sirlanishlar – uning fikrlari, sezgi va harakatlari” ifodalanadi (R.Tayler). Bunda ta’limning asosiy metodlari, o‘rgatish, trening, test sinovlari, individual ta’lim, tuzatishlari bo‘lib qoladi. Buning oqibatida, ta’limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi, tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. ... mustaqil fikrlash – ham katta boylikdir”.

Ezoterik paradigma (yunoncha «esoterikos» yoki sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo‘ljallangan insonning dunyo bilan o‘zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqat abadiy va o‘zgarmas, doimiy ekanligini ta’kidlashdan iborat. Paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo‘lmasligi, unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkinligini ta’kidlaydilar. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, o‘quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. SHu bilan birga, o‘qituvchining himoyalash

vazifasi muhimdir, u o‘quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma’naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo‘naltiradi.
Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning asosiy maqsadi amaliyotni takomillash-tirish asosida ta’lim oluvchilarga “aniq” ilmiy bilimlarni berish va ularning o‘zlashtirilishini ta’minlashdir. Bilim – kuchdir, shu bois shaxs qimmatiuning o‘rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. SHaxs muayyan (o‘rtacha, standartlashti-rilgan) bilim yoki xulq-atvor egasi bo‘lsagina qadriyat sifatida e’tirof etiladi degan g‘oya ushbu paradigmaning asosini tashkil etadi. So‘ngi yillarda noinstitutsional paradigma rivojlana boshladi. U ta’limni ijtimoiy institutlar, ya’ni, maktab va oliy ta’lim muassasalaridan tashqarida tashkil etish g‘oyasini ilgari suradi. Bu ta’lim “tabiatda” – internet, “ochiq maktablar” – kompyuterlar vositasida ta’lim dasturlariga (masofadan o‘qitish) muvofiq o‘qitish samarali deya hisoblaydi.

4-asosiy savolning bayoni.
Pedagogikaning didaktika nazariyasi qismida ta’lim tamoyillari – o‘qituvchining faoliyatini va o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun-qoida, yo‘l-yo‘riqlari sifatida qaraladi.
Har bir o‘qituvchi shuni anglab etishi muhimki, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagogik qonun-qoidalar, didaktik qoidalardan ijodiy foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Ta’lim jarayonini tashkil etishda qo‘yidagi ta’lim tamoyillariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi:
- ta’limning ilmiy bo‘lish qoidasi;
- ta’limning tizimli, izchil, uzviy bo‘lish qoidasi;
- ta’limning tarbiyaviylik harakteri;
- ta’limning hayot va amaliyot bilan bog‘liqlik qoidasi;
- ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi;
- ta’limda ko‘rsatmalilik qoidasi;
- ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yoshi va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish qoidasi;
- ta’limda ilmiy bilim va ko‘nikma, malakalarni puxta, mustaxkam o‘zlashtirish qoidasi.15
Ta’limning ilmiyligi qoidasi.
Ushbu qoida o‘quvchininig o‘quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o‘zlashtirishi uchun to‘g‘ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir.
Har bir sinfda ilmiylik qoidalari vazifalaridan biri – nazariy ma’lumotlar tizimini shy ma’lumotlarda tevarak atrofdagi dunyoni qanchalik chuqur aks etganligi nuqtai nazaridan bilib olishdir.
Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e’tiqod tarkib topadi, tafakkur rivojlanadi.
Didaktikaning ilmiylik qoidasi maktab ta’limning mazmunigagina aloqador bo‘lib qolmay, o‘qitish usullariga ham aloqadordir. U ta’lim jarayonida fan, ilm-texnika yutuqlaridan foydalana oladigan o‘qitish usullarini takomillashtirishni ham talab qiladi.
Ta’limning tizimli, izchil, uzviy bo‘lish qoidasi.
Ijtimoiy taraqqiyotning har bir davridagi maktabning tarixiy tajribasi ta’lim vazifasini ma’lum bir tizimsiz bajarib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.
O‘quv materialini tushuntirish tizimi o‘quv materiali aniq bayon qilingan g‘oyalarga, o‘qituvchi bu g‘oyalarning qaysilarini tushuntirmoqchi ekanligiga, bolalar yoshi, ularning bilimlarni o‘zlashtirishga qanchalik imkoniyat berishini, o‘qituvchining yaxshi bilish bilmasligiga, shu yosh va shu saviyadagi bolalarga xos fikrlash faoliyatining xususiyatlariga, darsdagi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni odamda qanday tushunilishiga bog‘liqdir.
Dars mazmunining muqobil tuzilishini tanlash, o‘qitishdagi didaktikaning tizimlilik qoidasini hisobga olishni talab qiladi.

15 Podlasiy I.P. Pedagogika. v 3-x kn., kn. 2. – Moskva, «Vlados», 2007. 77-98 б.

Ta’limda izchillikka rioya qilib o‘qitish lozim, toki bugun o‘rganilgan bilimlar kecha o‘rganilganlarni mustahkamlansin, ertaga o‘rganiladiganlarga zamin hozirlasin. YA’ni, o‘tilayotgan fan yoki bayon qilinayotganligi materialning o‘quvchilarning oldingi o‘zlashtirgan ilmiy bilimlari, ko‘nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog‘lanishi, shu bilan bir vaqtda o‘qitilayotgan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish orqali kelajakdagi bilimlarni o‘zlashtirishga, shuningdek navbatdagi ta’lim bosqichiga zamin yaratilishi nazarda tutiladi.

Ta’limning tizimli bo‘lishi uning izchil bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Izchillikka asoslangan ta’limning harakterli belgisi shundaki, u o‘quvchilarning oldindan o‘zlashtirgan bilim va malakalari zamiridaligi bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, ularning o‘zaro bog‘lanishlarini takomillashtirish va aksincha, bilimlarni bahs qilish jaryonida oldindan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini yana ham chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta’minlashga qaratilgandir.

Tizimlilik va izchillik o‘quvchilarda har qaysi o‘quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lishini ko‘rsatishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ta’limning tizimli bo‘lishi qoidasi bayon qilinayotgan o‘quv materilalarini mustahkamlash va ilgari o‘tilgan materiallarini to‘ldirishga xizmat qilishini; o‘quvchilarning uzluksiz va tizimli suratda mustaqil ish olib borishlarini, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va hosil bo‘lgan ko‘nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o‘z ichiga oladi.

Tizimlilik va izchillik qoidalri o‘zaro bog‘liq bo‘lgan alohida o‘quv fanlarini hamda kundalik o‘quv materiallarini mantiqiy jihatdan bir biriga mustahkam bog‘liq holda va muayyan bir tartibda o‘qitish hamda ta’lim jarayonida o‘quvchilarni tizimli ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirib olishlarini ta’minlaydi.

Ta’limning tarbiyaviylik harakteri qoidasi.

Maktab o‘quvchilariga ta’lim berish, tarbiyalash va ularning umumiy rivojlanishlari bir butunlikda amalga oshirish zarur. Ta’lim tizimida ta’lim tarbiyaning birligi qoidasi asosiy va etakchi qoidalardan biri hisoblanadi. Binobarin, o‘quv fanlarining har biri, xatto, ayrim mavzu va mavzuchalari ham, shubhasiz, tarbiyalovchilik harakteriga ega.

Ta’lim jarayonida o‘tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to‘g‘ri belgilash va uni ta’lim bilan birga, bir butunlikda amalga oshirishni ta’minlash juda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Maktab ta’limida gumanitar fanlarning ham tarbiyaviy mohiyati juda muhimdir. Tarix fanini o‘rganish orqali o‘quvchilar jumhuriyatimiz tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, moddiy-madaniy, ilmiy-siyosiy, ma’naviy jihatdan rivojlanishi, adabiy-badiy merosi, bobokalonlarimiz tomonidan qoldirilgan qimmatli xazinalirimiz, hozirgacha o‘rganilmay qolgan xalq pedagogikasi durdonalari bilan tanishadilar. Adabiyot va san’atni o‘rganish o‘quvchilarni chin inson qilib tarbiyalashdagi eng zarur shartlardandir.

Ta’lim-tarbiyaning birligi ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish va o‘qitishning xilma-xil usul va uslublaridan foydalana olishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Ayniqsa, ta’lim bilan tarbiyaning birligini ta’minlamoq uchun:

a) bayon qilinayotgan o‘quv materiallarining mazmuni ham ilmiy, ham g‘oyaviy jihatdan to‘g‘ri tashkil qilinishi;

b) o‘qitilayotgan temaning ilmiy va tarbiyaviy mohiyatini ochib berilishi, ta’lim jarayonida hadislardan foydalanish imkoniyatini yaratilishi;

v) bayon qilinayotgan puxta va mustahkam o‘zlashtirilishi va turmushda unga amal qilinishi;

g) ta’limda muammoli jaryonni vujudga keltirish, o‘quvchilarning qiziqishlari, aktivlik va tashabbuskorliklarini ta’minlashga e’tiborning kuchaytirilishi:

d) ta’lim jarayonida o‘quvchilarning uyushqoqlik, intizomlilik va javobgarlikni sezish, o‘zaro yordam xislarini tarbiyalashni ta’minlamoq zarur.

Ta’limning hayot va amaliyot bilan bog‘liqlik qoidasi.

Didaktikada ta’limni turmush bilan, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘lab olib borish eng asosiy va etakchi qoidadir.

Binobarin, barkamol inson tarbiyasining maqsad va vazifalari ham, ta’limning mazmuni ham, o‘qitish usullari, ta’limni tashkil etish shakllari ham nazariya bilan amaliyotning birligiga asoslanadi.
Maktab ta’limi tizimida nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasi dastavval o‘quv fanining mazmuni va o‘ziga xos xususiyatiga bog‘liq holda o‘qish jarayonida amalga oshiriladi.
Bu birlik ilmiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish va uni amalda qo‘llay olish, o‘quv materiallarini idrok qilish, anglash shuningdek, uni mustahkam esda saqlab qolish kabi ruxiy operatsiyalar bilan bog‘liq holda bir butun jarayonni tashkil etadi.
Ta’lim jarayonida nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasining izchillik bilan amalga oshirilishi oqibatidagina o‘quvchilar o‘quv materialining tub mohiyatini, tabiiy va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ilmiy asosda atroflicha to‘g‘ri, chuqur tushunib oladilar va kelajakda amaliy faoliyatlari uchuy zarur bo‘lgan maxorat, ko‘nikma va malakalar hosil qiladi.
O‘quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonida boshlanadi. Amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning bajarayotgan hamma ishlari orqali ularda fan asoslarini o‘rganish va mehnatga bo‘lgan qiziqish, intilishi tobora rivojlanadi, mehnatga bo‘lgan muhabbat, mehnat ahliga hurmat, ehtirom kamol topadi.
Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi.
Bu qoida o‘qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o‘quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo‘llash usullarini ongli va faol egallab olishadi. Ularda ijodiy tashabbuskorlik va o‘quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq madaniyati va ilmiy dunyoqarash, e’tiqod tarkib topadi.
O‘qitishning ongli qoidasi o‘quvchilarning materialni idrok qilishda ta’riflar, teoremalar, adabiyotdan she’r yodlash va hokazolarning ifodalanishigina emas, balki ularning hayotiy hodisalar, jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan mazmunini ham tushunishlarini talab etadi. Aks holda bilimlarda yuzakichilik avj oladi, unda material quruq yodlab olingan bo‘ladi. O‘quvchilar uni qayta aytib bera oladilar, lekin uning mohiyatini tushunmaydilar va amaliy faoliyatlarida qo‘llay olmaydilar.
O‘qitish jarayonida onglilik va faollik qoidasi o‘quvchilarda tafakkur va nutqni rivojlantirishni nazarda tutadi. Mustaqil tafakkur turli usullar bilan hosil qilinadi. Tafakkurni shakllantirish usullaridan biri mustaqil hal qilish, muammoli vazifalar qo‘yishdir.
Onglilik va faollik qoidasi o‘quvchilarni mehnat va o‘qishda ijodiy faoliyat usullariga o‘rgatishni talab qiladi. Qayta kurish davrining maktab va xalq ta’limi oldiga qo‘ygan talablari ham shu maqsadga qaratilgan.
O‘quvchilar faolligini rivojlantirish, ularning o‘quv faoliyatlarining takomillash-tirish tufayli ayni vaqtda o‘qitishda yuksak samaradorlikka erishiladi, ya’ni o‘quv jarayoni tezlashadi.
Ta’limda ko‘rsatmalilik qoidasi.
Ta’limning ko‘rsatmalilik qoidasi didaktik qoidalarning biri bo‘lib, u o‘qitish jarayonining sifatini oshiradi, o‘quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. O‘qitishning ko‘rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o‘quvchilarda o‘rganilayotgan narsa va hodisalarni bevosita idrok qilishga bog‘liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo‘lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o‘zlashtiradilar.
Ko‘rsatmalilik qoidasi ta’limning etakchi qonun-qoidalari va talablarini amalga oshirishda vositachilik qiladi.
1. Bayon qilinayotgan mavzuning mazmuniga mos keladigan materiallardan unumli va to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini ta’minlaydi. Dars qiziqarli bo‘ladi.
2. Ta’limda qo‘llanilayotgan ko‘rsatmali qurollar o‘quvchilarning qay darajada yaqqol va aniq, obrazni idrok qilishini ta’minlasa va kuzatayotgan ob’ektga mumkin qadar ko‘proq sezgi organlari safarbar qilinsa, o‘quv materiallari shunchalik tez, qulay va oson o‘zlashtiriladi, uzoq vaqt eslab qolish hamda qayta esga tushirish mumkin bo‘ladi, oqibatda o‘quv materiallarining puxta o‘zlashtirilishi ta’minlanadi.
3. Ko‘rsatmali materiallar orqali o‘quvchilar ob’ektiv borliqdagi narsa, voqealar bilan, ularning xususiyati, belgilari bilan tanishadi. Mavhum hodisalarning aniq obrazlar orqali idrok qilinishi

natijasida o‘quvchilarni mantiqiy fikr qilish qobiliyatlari rivojlanadi. O‘quvchilarning ayniqsa sxema, jadval, diagramma kabi materiallar ustida ish olib borishlari va material xususiyatlarini taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarishlari alohida ahamiyatga egadir.
4. O‘quv materiallarining ko‘rsatmali bo‘lishi o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni tajribada, ishlab chiqarish amaliyotida qo‘llana olishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar bilan ham qurollantiriladi
Ta’limda ko‘rsatmalilikning samarali natijalar berishi uchun uning boshqa tomonlariga ham e’tibor berish kerak.
Birinchidan, ishlatiladigan ko‘rsatmali qurollar u yoki bu sinf o‘quvchilarining yoshi va o‘ziga xos xarakter xususiyatlari, umumiy tayyorgarligi – saviyasiga mos keladigan bo‘lishi lozim.
Ikkinchidan, foydalanadigan ko‘rsatmali qurollar o‘tilayotgan dars mavzusining mazmunini ochib berishga yordam beradigan materiallar bo‘lishini hisobga olmoq, demak, uning to‘g‘ri tanlanishiga e’tibor bermoq lozim.
Uchinchidan, dars jarayonida foydalanish uchun belgilangan ko‘rsatmali material-lardan unumli foydalanmoq uchun zarur bo‘lgan ta’lim usullari to‘g‘ri tanlangan bo‘lishi zarur.
Ta’limning ko‘rsatmali bo‘lishi hozirgi zamon maktablari oldida turgan eng muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan va hozir ham undan yanada samarali foydalanish borasida katta ishlar olib borilmoqda.
Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yoshi va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish qoidasi.
Ta’limning o‘quvchilarga mos bo‘lishi qoidasi deganda o‘quv materiallarning mazmuni, uning hajmi, harakteri, u yoki bu sinf o‘quvchilarining jismoniy rivoji, umumiy tayyorgarligi-saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo‘lishi tushuniladi. Moslik qoidasida ta’limning ikki tomoni e’tiborda tutiladi:
1. Ma’lum sinf uchun belgilangan o‘quv materiallarining harakteri, mazmuni va hajmi shy sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi;
2. Har bir sinf uchun belgilangan bilim hajmi shy sinf o‘quvchilarining saviyasiga mos bo‘lishi lozim. Biroq, shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, maktab islohatidan keyingi qayta qurish jarayoni uchun maktablarimiz faoliyatidagi mazkur ikki holatni qat’iy va hal qiluvchi didaktik talablar deb bo‘lmaydi. CHunki, muayyan bir sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishida ham, bilim o‘zlashtirishidagi kuch va qobiliyatlarda ham, albatta, har-xilliklar bo‘ladi va buni hisobga olmaslik aslo mumkin emas. SHuningdek, moslik qoidasini maktab ta’limining mazmuni bolalarning kuch quvvatiga qarab "engillashtirish", "osonlashtirish" deb ham tushunmaslik lozim.
Aksincha, o‘quvchilarning saviyasiga muvofiq ravishda, asta sekin qiyin va murakkabroq bilimlar berib borish talab qilinadi.
Ilg‘or klassik pedagogika namoyondalari ta’limning o‘quvchilarga mos bo‘lishi yuzasidan bir qator qoidalar ishlab chiqqanlar. Ulardan biri "Osondan qiyinga qarab borish" qoidasidir.
O‘tiladigan materialning haddan tashqari chigal bo‘lishi bolalarni qiziqishini so‘ndirganidek, u bilimda olg‘a qarab borishini ham ta’minlay olmaydi. Aksincha o‘tilajak materiallar bolalar saviyasiga nisbatan og‘ir, tushunish qiyin bo‘lsa, qo‘yilgan misol va masalalarni echish, hal qilishga o‘quvchilarning qurbi etmasa, ularda o‘z kuchiga ishonmaslik kayfiyati tug‘iladi.
Moslikning ikkinchi bir qoidasi "Ma’lumdan noma’lumga qarab borish" dir. Bu qoidaga amal qilishda o‘quvchilarda avvaldan mavjud bo‘lgan ilmiy bilim va tajribalar zamirida yangi, hali o‘quvchilarga ma’lum bo‘lmagan ma’lumotlar bilan qurollan-tirishni tushunmoq lozim.
Moslik qoidasining uchinchisi “Soddadan murakkabga qarab borish” dir. Ta’limning sodda bo‘lishi u yoki bu o‘quv materialini ortiqcha kuch sarflamay tushunib olishdir. O‘quvchilar yaxshi tushungan, o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi tushunchalar (murakkab) bilan aniq va ravshan qilib bog‘lay olishlari natijasida sodda vazifalarni (misol va masalalar) bajara borib, murakkab materiallarni o‘zlashtirish, murakkab bo‘lgan masalalarni ham echishga – hal qilishga hozirlanib boradilar.

Ta’lim-tarbiya jarayonining hamma tomonlari umumsinf o‘quvchilari jamoasiga xos xususiyatlarga amal qilgan holda yo‘l qo‘yiladi. Biroq har bir o‘quvchi o‘ziga xos jismoniy, axloqiy, ruhni va boshqa xususiyatlarga egaki, bu uning o‘quv faoliyatiga katta ta’sir etadi.
Shu jihatdan ta’lim jarayonida umumsinf o‘quvchilarini, hamda shy sinfdagi har qaysi o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holla ish ko‘rish muhim didaktik ahamiyatga ega.
Sinf o‘quvchilari jamoasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar, avvalo, ma’lum sinf o‘quvchilarining jismoniy, aqliy va ruhiy rivojida namoyon bo‘ladi. Ta’limning muvaffaqiyatli bo‘lishida o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini kuzatish va o‘rganish hamda shu xususiyatga xos muomala qilish hal qiluvchi o‘rin egallaydi.
Pedagog o‘quvchilarni darsdagi va amaliy mashg‘ulotlar jarayonidagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari, yasagan ko‘rgazma materiallarini tekshiradi. Darsdan tashqari vaqtlarda o‘rtoqlari va boshqalarga bo‘lgan munosabati, xulqi, irodaviy sifatlarini o‘rganadi, ular bilan suhbat qiladi. Kuzatish jarayonida u o‘quvchining kuchli va ojiz tomonlarini, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga mos bo‘lgan xususiyatlarni bilib oladi, o‘quvchining hayotiy va mehnat qobilyatini o‘rganadi.
Bo‘sh o‘zlashtiruvchi dasturning ma’lum bir bo‘limi yoki fan buyicha orqada qolish sabablarini aniqlaydi. O‘qituvchi ularni bilib olgandan keyin birinchi navbatda yomon holatlarni oldini oladi.
Ta’limda ilmiy bilim va ko‘nikma, malakalarni puxta, mustaxkam o‘zlashtirish qoidasi.
Ta’limning puxta o‘zlashtirish qoidasi muhim didaktik talab va qoidalarni, ya’ni o‘quvchilar tomonidan tizimli va ongli o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustaxkam, esda saqlab qolish hamda o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o‘z turmush faoliyatlarida qo‘llay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.
Demak, puxta o‘zlashtirishni harakterli belgisi ta’limni mustahkam esda saqlab qolishdir. O‘quv materiallarini mustahkam esda saqlab qolish, ayni dars jarayonida bayon qilinayotgan o‘quv materiallarini tizimli va ongli o‘zlashtirilishiga bog‘liq.
Mustahkamlash qoidasi shulardan iborat bo‘lib, ularga rioya qilmaslik o‘quvchilarning ilmiy bilimlarni puxta o‘zlashtirolmasligiga sabab bo‘ladi.
Puxta o‘zlashtirishni muvaffaqiyati ko‘p jihatdan takrorlash va mashq qildirishga ham bog‘liqdir. Takrorlashning ahamiyati shundaki, takrorlash jarayonida faqat oldindan o‘zlashtrilgan o‘quv materiallarigina esga tushurilmay, balki shu o‘quv materiallariga bog‘liq bo‘lgan yangi yangi ma’lumotlar ham beriladi, o‘zlashtirilgan bilimlarning noaniq, tuman bo‘lib qolgan tomonlari oydinlashtiriladi va to‘ldiriladi.
Mavzu yoki bo‘lim yuzasidan o‘rganilgan materialni tizimlashtirish, chuqurlashtirish va mustahkamlash maqsadida o‘quv yilining oxirida asosiy savollar bo‘yicha yalpi takrorlanadi.
Takrorlanishning ikkinchi turi maxsus qaytarishdir. Bunday takrorlash katta mavzularni o‘tib bo‘lgach, shuningdek, ma’lum bir chorak ichida o‘tilgan material yuzasidan olib boriladi. Maxsus takrorlashning keng tarqalgan turi o‘quv yili oxirida alohida ajratilgan soatlarda o‘tkaziladi.
Yuqorida keltirilgan ta’lim qoidalari – darslarni to‘g‘ri tashkil etishda har bir o‘qituvchiga qo‘yiladigan asosiy talablardir. Yaxlit bir butun ta’lim jarayonida boshqa qoidalar bilan bir qatorda ko‘rgazmalilik qoidasiga ham amal qilinadi.

Nazorat uchun savollar:

1.“Didaktika” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Didaktikaning predmeti va ob’ekti nimalardan iborat?
3. Didaktikaning asosiy funksiyalariga nimalar kiradi?
4. Didaktikaning asosiy kategoriyalariga qanday tushunchalar kiradi?
5. Har bir pedagogik kategoriyaga ta’rif bering.
5. Qanday didaktik konsepsiyalarni bilasiz?
6. Rivojlantiruvchi konsepsiyaning mohiyati nimalardan iborat?
7.sharq mutafakirlarining didaktik qarashlariga misollar keltiring.
8. G‘arb olimlarining pedagogik qarashlari qanday bo‘lgan?
9. Ta’lim jarayoni tamoyillarini tasniflang
10.Har bir ta’lim tamoyiliga tavsif bering.

4 - mavzu: Ta’lim mazmuni

Asosiy savollar
1. Ta’lim mazmuni haqida tushuncha
2. Ta’lim mazmunining tarixiy xususiyatlari.
3. Ta’lim mazmunini takomillashtirishga doir davlat siyosati
4. Ta’lim metodlari va ularning tasnifi

1-asosiy savolning bayoni.
Ta’lim mazmuni – o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuidir. Ta’lim o‘quvchilarning amaliy ko‘nikma, malakalari va dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, ushbu tushuncha negizida shaxsning tanqidiy fikrlashi, yaratishi, borliqda sodir bo‘layotgan hodisalarni o‘zaro aloqadorlik nuqtai nazaridan baholay olishi ham aks etadi. Ta’lim tushunchasi, shuningdek, ajdodlar tomonidan to‘plangan ijtimoiy ahamiyatli tajribalarning avlodlarga doimiy uzatilishini ta’minlovchi tizimli jarayoni ham sanaladi. SHaxsni ijtimoiylashtirish uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me’yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o‘zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayonidir.16
Ta’lim mazmuni tizimlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar, qarashlar, ishonchlar to‘plarni, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish natijasida erishilgan amaliy tayyorgarlikning ma’lum darajasi bilan belgilanadi. Ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan bilimlar muhim ijtimoiy qadriyat ham sanaladi. U individning ijtimoiylashishi, odamning sotsium (ijtimoiy muhit)ga kirishiga yordam beradi. O‘tgan asrda ta’lim mazmunini siyosiylashtirishga, urinishga qaratilgan harakatlarning yuzaga kelganligi uning mazmunini belgilashda ekstensiv yondashish (miqdoriy – sonini ko‘paytirish) etakchi o‘rin egalladi.
Natijada ta’lim mazmuni o‘quv fanlari sonining doimiy ortib borish hisobiga kengaytirildi, ta’lim jarayonida tayyor bilimlarni berish asosida, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga e’tibor qaratilib, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish masalasi o‘z echimini topmadi. So‘nggi yillarda, ta’limni insonparvar-lashtirish yo‘lida, ta’lim mazmunini aniqlashda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosiy o‘rinni egallay boshladi.
Bunday yondashish V.V.Kraevskiy, I.YA.Lerner, M.N.Skatkin (Rossiya); M.Ochilov, N.N.Azizxo‘jaeva, N.Sayidahmedov, F.R.YUzlikaev (O‘zbekiston)larning ishlarida o‘z aksini topdi. Masalan, V.V.Kraevskiy, I.Ya.Lernerlar ta’lim mazmuni deganda shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ta’minlovchi pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamini, ijodiy faoliyat tajribasi hamda emotsional-irodaviy munosabat tajribasini tushunadilar. Demak, shaxsga yo‘naltirilgan yondoshishga muvofiq ta’lim mazmuni mohiyatini aniqlashda asosiy qadriyat bilim emas, balki odamning o‘zi hisoblanadi. Bunday yondoshuv shaxsning ta’lim olish, ma’naviy, madaniy va hayotiy talab-ehtiyojlarini qondirish, rivojlanayotgan shaxsga nisbatan samimiy munosabatida bo‘lishi ta’lim mazmunini erkin tanlash imkonini beradi.
An’anaviy pedagogika deyarli faqat odamning ijtimoiy mohiyatini tan olganligi bois, ta’limning maqsadi insonning jamiyat a’zosi sifatida rivojlanishi, unda ijtimoiy ahamiyatli sifatlarining shakllanishi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim jamiyat va davlatning ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishi asosi deb e’lon qilindi. Ta’limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy-axloqiy jihatdan etuk, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.
Ta’limning umumiy mazmuni va vazifalari quyidagilardan iborat:
- aholi milliy-madaniy ehtiyojlarini qoniqtirish, jismoniy va ma’naviy sog‘lom avlodni tarbiyalash.

16 Podlasiy I.P. Pedagogika. v 3-x kn., kn. 2. – Moskva, «Vlados», 2007. 112-134 str.

- o‘quvchilar tomonidan ijtimoiy va ishlab chiqarish talablari bilan belgilanadigan bilimlar tizimini o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- ularda ilmiy dunyoqarash, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy madaniyat, ijodiy, erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning mustaqil bilimlarini oshirib borishi;
- yoshlarda vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fuqarolik dunyoqarashi, insoniy qadr-qimmat, demokratik o‘zini boshqarishda ishtirok etish, shuningdek, o‘z harakatlari uchun javobgarligini yuzaga keltirish.

Ana shu umumiy vazifalar bir qator alohida masalalardan iborat bo‘ladi. Ular o‘quv fanlari mazmunida uyg‘unlashtiriladi.

Ta’lim turlari va ko‘rinishlari. Evropa va Sharq, Osiyo va Amerika mamlakatlarida ta’lim turlari tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan. Birinchi turi mifologik ta’lim bo‘lib, unda dunyoning mohiyati ertak, afsona, doston, qissa hamda qo‘shiqlar shaklida o‘rganilgan.

Keyingi tarixiy turi sxolastik ta’lim bo‘lgan. Uning mohiyatiga ko‘ra ta’limda matn madaniyati va er, osmon haqidagi bilimlar so‘z bilan ifodalanib, xotira va irodani mashq qildirish asosida yosh avlodga inson mavjudligi va u tomonidan tashkil etiladigan faoliyat mazmuni haqida bilimlar berilgan, savodxonlik va nutq madaniyatiga o‘rgatilgan.

Ta’limning uchinchi tarixiy turi – ma’rifatparvarlik bo‘lib, u dunyoviy bilimlar yaratilgan davrda yuzaga kelgan. XX asrdan boshlab esa turli ta’lim paradigma (model)lari, turlari va ko‘rinishlarining rivojlanish jarayoni kuzatildi. Bugungi kunda o‘z asoslariga ko‘ra ta’limning quyidagi turlari, ko‘rinishlari mavjud:

ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish turi va sifatiga ko‘ra (biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta’lim va shu kabi);

ustuvor mazmunga ko‘ra (nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar);

ijtimoiy faoliyatlarni egallashi turi va mahoratiga ko‘ra (musiqiy) badiiy, texnik, texnologik, pedagogik-tibbiy ta’lim va shu kabilar);

madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishiga ko‘ra (an’naviy ta’lim, badiiy-estetik, diniy ta’lim va boshqalar);

kishilik jamiyatining madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish ko‘lamiga ko‘ra (milliy, evropa, xalqaro, global ta’lim va boshqalar);

ta’lim tizimi turiga ko‘ra (universitet, akademik, gimnaziya, litsey ta’limi va boshqalar);

ta’lim mazmuni yo‘nalishining ustuvorligiga ko‘ra (formal va moddiy, ilmiy va elementar, gumanitar va tabiiy fanlar, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy va boshqalar);

ta’lim darajasiga ko‘ra (boshlang‘ich, to‘liqsiz o‘rta, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’lim).17

2-asosiy savolning bayoni.

Ta’lim mazmuni tarixiy xususiyatga ega, chunki u jamiyat rivojining u yoki bu bosqichida ustuvor o‘rin tutuvchi ijtimoiy maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Bu ta’lim mazmunining ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish va ilmiy bilimlarning rivojlanish darajasi talablari ta’siri ostida o‘zgarib borishini anglatadi. Ta’lim ijtimoiy hodisa sifatida odamlarning bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan pragmatik (amaliy) ehtiyojlari negizida shakllangan va u odamlarga hayot faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish uchun zarur. Bilimlarni to‘plash va chuqurlashtirish, jamiyat madaniyatining o‘sib borishi bilim tomonidan tashkil etiluvchi funksiyalari ko‘larnini oshishini ta’minlaydi.

Mazkur yondashuvlar (pragmatik va madaniy) kishilik jamiyatining turli bosqichlarida ta’lim mazmuni yo‘nalishlarni belgilab keladi. O‘rta asrda, Yaqin va O‘rta Sharqda diniy o‘quv muassasalari – madrasalar ta’lim va fan markazlari bo‘lgan. O‘zbekistonlik, Rossiyalik va chet el sharqshunos tadqiqotchilari tomonidan madrasa turidagi o‘quv muassasalari aynan Markaziy Osiyoda yuzaga kelgani va shu erdan boshqa mamlakatlarga tarqalgani isbotlangan.

17 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 2. – Москва, «Владос», 2007. 79-87 стр.

Somoniylar davrida (X asr) faqat Samarqandning o‘zida 20ga yaqin madrasalar mavjud bo‘lgan. Abu Ali Ibn Sino (980-1037) o‘zining «Donishnoma» («Bilimlar kitobi») nomli asarida mazkur madrasalarda faqat musulmonchilikka oid bilimlar berilibgina qolmay, balki dunyoviy ilmlar ham o‘rganilganligi, ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi, ularning negizida ilmiy maktablarning yuzaga kelganligi qayd etiladi.

O‘z davrida madrasalarda o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan fanlarni Abu Ali ibn Sino quyidagi tizimlar bo‘ycha ajratadi: odob (xulq etikasi), astronomiya, tibbiyotshunoslik, til va uning grammatikasi, fikh (musulmon qonunchiligi). Alloma tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari esa quyidagilardan iborat: aqliy tarbiya; jismoniy sog‘lomlashtirish; estetik tarbiya; ma’naviy tarbiya; hunarga o‘rgatish. Abu Ali ibn Sino tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari Markaziy Osiyoda, uyg‘onish davrida (IX-X asr) ta’limning insonparvarlik va shaxsning barkamol rivojlanishi borasidagi g‘oyalarga asoslangan edi, deyishga imkon beradi.

sharqdagi uyg‘onish davri sharq mutafakkirlari – Muahammad Muso Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Bu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniylar o‘zlarining ta’limiy qarashlarida birinchi o‘ringa inson shaxsini qo‘yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zarur deb hisoblaydilar. Aqliy ta’limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga matematika, astronomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmiy fanlarni kiritadilar.

Allomalar bolaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish g‘oyasini ilgari suradilar, sxolastik o‘qitish va qattiy intizomga qarshi chiqadilar. Ularning fikrcha, o‘qish bolada bilimlarga qiziqishni uyg‘otishi kerak.

Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning (1394-1449 yillar) Samarqanddagi faoliyati XIV-XV asrlarda madrasalarning fanlar rivojini ta’minlovchi markazlari vazifasini bajarganligini ko‘rsatadi. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek Samarqandning hukmdori bo‘lishi bilan birga astronom, matematik va tarixchi sifatida mashhur bo‘lgan. SHuningdek, allomaning mohir pedagog ham bo‘lganligini tarixiy dalillar qayd etadi. CHunonchi, alloma ko‘plab iste’dodli yoshlarni tarbiyalagan. U odamlar, ayniqsa yoshlarning ilmiy bilimlarni o‘rganishlariga katta ahamiyat bergan. Alloma o‘z davlatida ta’lim sohasida jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta’minotiga o‘tkazdi, mudarris (o‘qituvchi)larga oylik ish haqi belgilagan, shogird (talaba)larga stependiya ajratgan. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek madrasa o‘quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, qur’on, hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikh (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.

Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o‘zi bevosita ta’lim bergan madrasalarda o‘qish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lgan:

1. “Anda” (kichik) – o‘qish muddati 2 yil.
2. “Aust” (o‘rta) – o‘qish muddati 3 yil.
3. “A’lo” (oliy) – o‘qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda, bugungi kun nuqati nazaridan aytganda bakalavriat va magistratura ko‘zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o‘rta asr evropa universitetlari uchun ham xos bo‘lgan. Buyuk iste’dod egasi sifatida alloma o‘z davridan bir necha asrlarga o‘zib ketgan. Deyarli 600 yil avval Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek quyidagi aksiomani ilgari surgan: bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo‘l demakdir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning hozirgi tajribasi mazkur fikrni to‘la tasdiqlaydi. Evropa uyg‘onish davri (XIV-XVI asrlar) ma’rifatparvarlari XVII-XIX asrlarda ham shaxsning barkamol rivojlanishi g‘oyalarini ilgari surganlar. Misol uchun, Italiya ma’rifatparvari V. De Feltre (XV asr) “Quvonch maktabi”ni tashkil etadi. bu maktabda bolaga erkin jismoniy va aqliy rivojlanish imkoni berilgan.

J.J.Russoning erkin tarbiya nazariyasi, I.G.Pestalotssining odamni faol hayotiy faoliyatga jalb etish yo‘li bilan uni rivojlantirish haqidagi g‘oyasi XX asr pedagogikasining rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ta’lim nazariya (konsepsiya)lari mazmuni an’anaviy pedagogikada formal va moddiy ta’lim nazariyasi keng tanilgan. Bu nazariyalarning mohiyati nima va o‘rta ta’lim mazmuniga qanday ta’sir etadi? Formal ta’lim nazariyasiga Djon Lokk (XVII Asr), Pestalotssi, Kant va Gerbart (XVIII-XIX asrlar) asos solganlar. XVIII asrning oxirlarida didaktik formalizm nazariyasi

(konsepsiyasi) vujudga keldi (bu nom E.SHmit va A.A.Nemeerning «Prinsipo' vospitaniya i obucheniya» asarida tilga olinadi).
Konsepsiya tarafdorlari ta'limni o'quvchilarning iqtidori va qiziqishlarini rivojlantiruvchi vositasi sifatida e'tirof etadilar. Keyinchalik bu ta'limot formal ta'lim nazariyasi sifatida shakllantirildi. Didaktik formalizm tarafdorlarining asosiy g'oyasi qadimiy olim Geraklit tomonidan aytilgan (ko'p bilim aqlni kuchaytirmaydi) fikrlariga asoslanadi. Keyinchalik bu g'oyani I.Kant va I.G.Pestalotssilar rivojlan-tirishdi. Ular o'qitishning asosiy maqsadi eng avvalo, o'quvchining iqtidorini rivojlantirish, o'quvchining to'g'ri tafakkur yuritishini kuchaytirish bo'lishi shart deb hisoblaydilar.
Ushbu nazariya tarafdorlari falsafiy ratsionalizm (lotinchada «rationalts» – aql)ga tayanadilar va bilim manbai aqldir, bilim faqat aqlning mustaqilligida tug'iladi, shu bois ta'lim o'quvchilarning ma'lum bilimlarni egallab olishlari emas, balki ularning aqlini o'stirish, ya'ni, analiz, sintez, mantiqiy fikrlash layoqatlarini rivojlantirish kabi vazifani hal etishi zarur deb hisoblaydilar.
Ularning fikrcha, fikrlashni rivojlantirish vositasi tillar, ayniqsa, qadimiy yunon va lotin tili, shuningdek, matematikani o'rganish lozim. Formal ta'lim elementlaridan hozirgi kunda ham foydalaniladi. Angliyadagi grammatik maktablarda, ushbu nazariya g'oyalari asosida ish ko'riladi.
XVII asr oxiri – XIX asr boshlarida moddiy ta'lim nazariyasi jadal rivojlandi. Nazariyaning paydo bo'lishiga sanoat va uning ilmiy-texnik asoslari rivojlanishi asos bo'lib xizmat qildi. Binobarin, sanoatning jadal rivojlanishi tabiiy fan, texnik va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lgan odamlarni tayyorlash masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Pedagogika tarixida bu nazariya (konsepsiya) didaktik materializm nazariyasi sifatida ham mashhurdir. Ushbu nazariya tarafdorlari (ularni "ensiklopedistlar" deb ham ataganlar), xususan, ingliz shoiri va tarixchisi Dj.Milton, nemis pedagogi N.B. Besedovlar maktabning asosiy maqsadi o'quvchilarga bilimlar berish deb hisoblaganlar hamda o'zlari o'qitadigan fanga iloji borcha ko'proq materiallarni kiritishga intilganlar.
Maktab ta'limi mazmunini shakllantirishga bunday yondoshishning samarasi kam bo'lib chiqdi, chunki o'quvchilarga juda ko'p axborotlar beriladi. Natijada axborotlar qisman va yuzaki o'zlashtiriladi. Bu nazariyaning boshqa tarafdorlari empirizm g'oyalarini ilgari suradilar (lotincha «empiria» – tajriba). Faylasuf-empiristlar, xususan ingliz faylasufi G.Spenser (1820-1903 yillar) bilish tajriba chegarasidan chiqa olmaydi va bilim manbai faqat tajriba hisoblanadi, deya ta'kidlaydilar. Bundan quyidagi pedagogik xulosalar chiqariladi: o'quvchilarni asosan tabiiy-ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kerak, ta'lim materiallarini tanlash uchun esa hayotga, kelajakda o'quvchilarning amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan bilimlarga murojaat qilish kerak.
Moddiy ta'lim nazariyasi real yo'nalish deb ataluvchi maktab ta'limi asosini tashkil etadi. Masalan, IX asr oxirlari XX asr boshlarida Rossiya va Turkistonda, real gimnaziya va real bilim yurtlarida o'qitish qadimgi va g'arbiy evropa tillarini o'rganishga emas, balki tabiiy-ilmiy fanlar (matematika, fizika, ximiya va boshqalar) hamda amaliy xususiyatli fanlarni o'zlashtirishga asoslangan.
Formal va moddiy ta'lim nazariyalarini K.D.Ushinskiy va A.Avloniylar juda asosli tanqid qiladilar. K.D.Ushinskiy bilimlarni o'zlashtirishdan uzoq bo'lgan formal deb ataluvchi rivojlanish o'ylab topilgan yolg'on deb aytadi. Har bir fan biror-bir boshqa narsa bilan emas, odamni o'zining mazmuni bilan rivojlantirishini ta'kidlaydi. SHunday ekan, maktab faqatgina rivojlantiribgina qolmay, balki ularning keyingi faoliyatlarida foydali bo'ladigan bilimlarni ham berishi kerak. O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878-1934 yillar) ana shunday fikrni bildirgan.
U o'zining "Turkiy guliston yohud axloq" nomli asarida "... bilim bizning aqlimizni va bizninng xotiramizni qilich kabi o'tkir qiladi. Bilim, fanni egallash taraqqiyot yo'lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir.... bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o'xshaydi", deb yozadi. SHu bilan bir vaqtda A.Avloniy fanni o'zlashtirishga faqatgina xayoliy amaliyoti uchun utilitar (foydali) yaroqliligi nuqtai nazaridan yondoshish mumkin emas deb hisoblaydi. U hayot bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan bilimlar ham bor va ular amaliy bilimlardan kam bo'lmagan

ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Misol uchun qadimgi tarixdan amaliy faoliyatda foydalanib bo‘lmaydi. Lekin, uni o‘rganish kerak va foydalidir. Uni (tarixni) bilish o‘quvchilarning bilimlarini kengaytiradi, dunyoqarashini shakllantiradi.

XX asr boshlarida, chet el va ayniqsa amerika pedagogikasida maktab ta’limi masalalari bo‘ycha pragmatik (yunoncha «pragma» – harakat, amaliyot) g‘oyasi keng tarqaldi. Pedagogikada mashhur pragmatizm tarafdori Djon Dyun (1859-1952 yillar) maktab ta’limining o‘z konsepsiyasini yaratishga ko‘p urindi. Bu yo‘nalishlar vakillari (Dj.Dyun, G.Kershenshteyner) o‘qitish bu o‘quvchining “tajribasini qayta tashkil etish” uzluksiz jarayoni deb hisoblaydilar. O‘qitishni Dyun kundalik hayotdan olingan amaliy masalalarni hal etishga oid bolalar faoliyatini tashkil etish sifatida tushunadi.

Bu nazariyaning asosiy boshlang‘ich qoidalari quyidagilardan iborat deb hisoblangan: “oldindan tuzilgan o‘quv kurslari kerak emas”, “o‘qitish materiallarini bolaning tajribasidan olish kerak”, “bola o‘qitishning sifati kabi miqdorini ham belgilashi kerak”, “bajarish yordamida o‘qitish – maktabda asosiy metod”. Shunday qilib, Dyun maktabda ta’lim va alohida fanlar aniq belgilangan mazmuni zarurligini rad etadi, ilmiy ta’limni tan olmaydi va o‘qishni tor hamda o‘quvchilarning qiziqishlariga asoslangan praktisizmidan iborat hisoblaydi. Mazkur nazariya asosida uning izdoshi Uilyam Kilpatrik 20-yillarda “o‘qitishning loyihali tizimi” (yoki loyilalar metodi)ni ishlab chiqdi, uning mazmuni o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib bolalar o‘qituvchi bilan birga qandaydir amaliy masalaning echimini loyilalashtirishlaridan iborat.

Misol uchun, o‘yinchoq uychaning qurilishi amaliy faoliyatga kiritiladi va uning davomida til, matematika, boshqa fanlari bo‘ycha u yoki bu ma’lumotlarni bilib oladilar. Bu nazariya ommaviy maktabda ta’lim darajasini pasaytirishi mumkinligini tushunish qiyin emas. Amerikalik pedagoglar I.Adler, Dj.Brunner va boshqalar Dyun nazariyasi amerika maktablari rivojlanishini ortga tortganini aytadilar va ta’limni moderni-zatsiyalashtirish hamda takomillashtirish yo‘llarini izlaydilar.

Ko‘plab pedagoglar – A.Disterveg, K.D.Ushinskiy, M.Behbudiy va A.Avloniylar maktab ta’limiga taalluqli ko‘plab qimmatli g‘oyalarni ilgari surganlar. Ular xalq maktablari, yangi usul maktabda ta’lim darajasini oshirish, tabiiy-ilmiy fanlar va gumanitar fanlar birligi tarafdori edilar. Bugungi kunda turli ta’lim konsepsiyalari mavjud. Konsepsiyalardan biri ta’lim mazmunini ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan fanning pedagogik moslashtirilgan asoslari sifatida talqin qiladilar. Bu erda shaxsning ijodga qobiliyati, erkin tanlashni amalga oshira bilishi, odamlarga haqqoniy munosabatlarda bo‘lishi kabi sifatlari chetda qo‘lib ketadi.

Ushbu yondashish o‘quvchilarni fan va ishlab chiqarishga jalb etishga qaratilgan, Lekin demokratik jamiyatda mustaqil hayotga yo‘naltirishga emas. Amalda odam bu erda ishlab chiqarish omili sifatida ishtirok etadi (avtoritarizm). Boshqa bir konsepsiya ta’lim mazmunini o‘quvchi o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida qaraydi. Bu konsepsiya mualliflari bilim va malakalarni egallab olish odamga zamonaviy jamiyatda mos ravishda hayot kechirishga imkon beradi deb hisoblaydilar. Odamdan faqatgina u bilishi va bajara olishini talab etish etarli. Bunday holatda ta’limga talablar ham quyidagcha bo‘ladi: o‘sib kelayotgan avlodga ona tili, matematika, fizika va boshqa fanlar bo‘ycha bilim va malakalar berish zarur.

Milliy umumiy o‘rta ta’lim maktabi hozirgi zamon sharoitlarida rivojlanishi uchun bu etarli emas. Jamiyatning o‘quvchilardan faqat ma’lum o‘quv fanlari mazmunini emas, balki ularda iroda kuchi, o‘z harakatlari uchun, jamiyat va mamlakat taqdiri uchun mas’uliyatli, atrof-muhitni himoya qilish; millatchilik va diniy aqidaparastlikka yo‘l qo‘ymaslik va shu kabi sifatlarni rivojlantirishni talab etadi.

O‘zbekiston respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997)da zamonaviy ta’lim mazmuni ijodiy, mustaqil fikrlovchi demokratik jamiyat fuqarosini shakllantirish vazifalariga mos kelishi kerak deb belgilangan. Rossiya ta’lim akademiyasi haqiqiy a’zosi V.V.Kraevskiy tomonidan ilgari surilgan konsepsiyada qayd etilishcha, ta’limning asosiy ijtimoiy vazifasi ajdodlar tomonidan to‘plagan tajribalarni avlodlarga uzatish hisoblanadi. Mazkur konsepsiya mazmunida ta’lim mazmuni quyidagi to‘rtta tashkiliy elementlardan iborat bo‘ladi:

idrok etish faoliyatini amalga oshirish usullari qayd etilgan shaklidagi idrok etish faoliyati (bilimlar);
amaliy faoliyatni amalga oshirish usullari shaklida qayd etilgan amaliy faoliyat tajribasi (ko‘nikma va malakalar);
muammoli vaziyatlar, nostandart vaziyatlarda yangi masalalarni hal etish shaklida (ijodiy faoliyat tajribasi);
atrof-muhitga, bir-biriga, emotsional qadriyatli munosabatlar tajribasi, ya’ni, emotsional, axloqiy, estetik tarbiyalash.
Mazkur elementlar o‘zaro bog‘liq va bir-biriga asoslangandir. Mamlakatlar bilimlarsiz bo‘lishi mumkin emas. Odamning ijodiy faoliyati bilimlar va ko‘nikmalar mazmunli ma’lum materialida amalga oshiriladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyalilik odam yashaydigan jamiyatning xulq, ko‘nikma va malakalarini egallab olganligini ko‘zda tutadi. Ijtimoiy tajribaning bu elementlarini o‘zlashtirish odamga jamiyatda muvaffaqiyatli yashash, yaxshi bajaruvchi bo‘lish bilan birga mustaqil harakat qilish, jamiyatni o‘zgartira olish, ijtimoiy taraqqiyotga o‘z hissasini qo‘sha olishga imkon beradi. shuning uchun umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi birinchi navbatda, hayotga tayyorlaydi, ikkinchidan, inson ushbu tartibga o‘z hissasini qo‘shish, xatto uni qayta tuzishga ham qodir bo‘ladi.
Akademik V.Kraevskiyning konsepsiyasi o‘qituvchini o‘quvchilar ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar tizimi, odamlarga insonparvarlik munosabatini shakllantirish, erkin fikrlovchi, barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishga qaratilgan maxsus faoliyatga yo‘naltiradi. Hozirgi zamon bosqichida ta’lim mazmunini belgilovchi muhim g‘oyalar (asoslar). Ta’lim mazmuni – bu jamiyatning shaxsni ma’naviy rivojlanishi darajasiga qo‘yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi, modelidir. Ijtimoiy tajriba quyidagi to‘rt element bilan tavsiflanadi:18
insonning tabiat, jamiyat haqidagi bilimlari;
faoliyatning ko‘nikma, malaka va usullari;
yangi vazifalarni hal etish bo‘ycha ijodiy faoliyat tajribasi;
atrofdagilar bilan o‘zaro emotsional (hissiy) – qadriyatli munosabatlar tajribasi.
Shularga muvofiq zamonaviy didaktika g‘oyalariga ko‘ra ta’lim mazmunining tarkibida quyidagilar o‘z aksini topadi:
1) olam haqidagi bilimlar;
2) faoliyatni amalga oshirish usullari tajribasi;
3) ijodiy faoliyat tajribasi;
4) atrof muhitga hissiy-qadriyatli munosabat tajribasi.
Bilim va ko‘nikmalar ijodiy faoliyat asosi bo‘lib qolishi mumkin. Lekin faoliyatga tayyorlik uchun kafolat bo‘la olmaydi. Atrof-muhitga hissiy munosabatda bo‘lish u haqida bilish, lekin ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmaslikni nazarda tutadi. shaxsda atrof-muhitga hissiy munosabatni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida muntazam ravishda majmuaviy tadbirlarni tashkil etish zarur. Ilmiy asoslangan ta’lim mazmunini qanday aniqlash mumkin? Ta’lim mazmuniga nima ta’sir ko‘rsatadi? U nimaga bog‘liq bo‘ladi? Ta’lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat bo‘ladi:
- fan, texnika, madaniyatning jamiyatda rivojlanganligi darajasi;
- ta’limning maqsad va vazifalari;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlari;
- o‘quvchi shaxsining ehtiyojlari.
Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim mazmuni o‘quvchilarda atrof-muhit haqida umumiy tasavvurlarni hosil qilishi, ularni o‘zlarining amaliy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarni izlash va bu bilimlarni hayotiy muammolarni hal etishda qo‘llashga o‘rgatishi kerak. Ta’lim mazmuni o‘quv rejalari, o‘quv dasturlarida, darsliklarda aks ettiriladi. XX asrning 80-yillarida

18 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 2. – Москва, «Владос», 2007. 135-151стр.

amaliy qo‘llanilgan o‘rta umumta’lim maktabi namunaviy o‘quv rejalari maktabni yangilash vazifalariga, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni hozirgi zamon talablari asosida tashkil qilishga mos kelmas edi. Bu o‘quv rejasining eng asosiy kamchiligi – uni shakllantirishning haddan tashqari markazlashtirilishidir, bu esa maktablarning hammasi bir xil bo‘lishi, taklif etilayotgan ta’lim idealining bir xilligiga olib keladi, unda shaxs, jamiyat va davlatning turli ta’limiy talablari hisobga olinmaydi. Ko‘p predmetlilik, o‘quvchilarga vazifalar ortiqchalik, og‘irlik qiladi va ta’lim mazmunining sun’iy qisqaligi, aralashligi yuzaga keladi; bu ta’limning texnokratik yo‘nalishi uning insonparvarlik va madaniy, badiiy-yaratuvchilik rolini yo‘qotishiga olib keladi. O‘quv rejasining ana shu va boshqa ko‘plab kamchiliklari didakt olimlar va amaliyotchilar tomonidan keskin va haqli ravishda tanqid qilindi.

3-asosiy savolning bayoni.

1991 yilda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtishrishga kirishildi. Bunday sharoitlarda ta’lim, yangi demokratik davlat barpo etish, madaniy va ma’naviy tiklanish, demokratik jamiyat va bozor munosbaatlari shakllanishi, milliy fan va texnikaning rivojlanishini dunyo standart-lari talablari darajasiga ko‘tarishning asosi bo‘lib qolishi kerak. Umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuniga talablar ta’limni rivojlantirish davlat strategiyasi bilan belgilanadi. Bu strategiya respublikaning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan (1997 yil), ta’limni tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo‘ycha milliy tizimni yaratish hisoblanadi.

Ta’lim mazmunida quyidagi ikki jihat ko‘zga tashlanadi: milliylik va umuminso-niylik. Hozirgi sharoitda o‘rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ta’lim mazmuni (o‘quv rejalari)ni ishlab chiqishda ta’lim mazmunida quyidagi g‘oyalar etakchi o‘rin tutadi:

1) insoniylashtirish;
2) insonparvarlashtirish;
3) integratsiyalashtirish;
4) standartlashtirish;
5) ko‘p bosqichlilikka asoslanish;
6) amaliylashtirish;
7) axborotlashtirish;
8) individuallashtirish;
9) uzluksizlik.

Ta’lim mazmunini insoniylashtirish ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsining ustuvor o‘rin tutishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlarini hurmat qilish, birinchi navbatda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotda o‘z yo‘llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko‘zda tutadi. Insoniylashtirish gumanitar va tabiiy fanlarni optimal nisbatlarda bo‘lishi, matematik, biologik, texnik kurslar mazmunini insoniylik haqidagi bilimlar bilan boyitishni ko‘zda tutadi. Ta’lim mazmunida insonparvarlik g‘oyalarining aks etishi o‘quvchilarda fikrlash layoqatining shakllanishiga yordam beradi.

Ta’limni insoniylashtirish – bu ta’lim tizimi va butun ta’lim jarayonini har bir inson huquqlarini hurmat qilish, pedagoglar o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, ularning sog‘liqlarini saqlash va mustahkamlash, shaxsiy qadr-qimmatlarining his etishlarini ta’minlash va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’limni insonparvarlashtirish – yangi tayanch o‘quv rejasining ikkinchi muhim g‘oyasidir. Ta’limni gumanitarlashtirish birinchi navbatda tayanch o‘quv rejasida gumanitar fanlar hajmini oshirishda o‘z ifodasini topadi (50% dan ko‘proq). Bu xususan estetik tarbiyani tashkil etishga o‘quv vaqtini ikki barobar ko‘paytirishga imkon beradi. Gumanitarlashtirish – bu ta’limning bosqichi va turidan qat’iy nazar asosiy ijtimoiy muammo inson farovonligi muammosini hal etishga imkon beruvchi ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naltirishdir.

Ta’lim yangi mazmunini ishlab chiqishning uchinchi g‘oyasi ta’limni differensiyalashtirish. Bu yo‘nalish majburiy kurslar bilan birga katta sinflarda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan

o‘qitish, fanlarni tanlash asosida olib borishni ko‘zda tutadi. Sinfda, sinflar o‘rtasida hamda turli yoshdagi o‘quv guruhlarida fakultativ kurslarni individual, guruhli mashg‘ulotlar hamda qiziqishlariga ko‘ra to‘garaklarni rivojlantirish ham ko‘zda tutiladi.19
Differensatsiyalash – bu zamonaviy sharoitda ta’limni rivojlantirish umumiy yo‘nalishi hisoblanadi. Respublikada o‘tgan asrning 90-yillarida ta’limni differensa-siyalash maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflar (fizika, ximiya, matematika, chet tillarini chuqur o‘rganish bilan) litseylar, gimnaziyalar ochildi.
1997 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning qabul qilinishi ta’lim tizimini rivojlantirishda yangi bosqich bo‘ldi. Davlat ta’lim standartlari talablaridan kelib chiqib, ta’lim dasturlarining yangi avlodi ishlab chiqildi. Kurslarni integratsiyalashtirish ta’limning yangi mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan yana bir g‘oya o‘quvchilarda, dunyoni yaxlit tasavvur qilish layoqatini rivojlantirishda umumlashtiruvchi, dunyoqarashni shakllantirish imkonini beruvchi integrativ fanlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi yagona (tayanch) o‘quv rejasida integratsiyalash hisobiga o‘quv fanlari soni kamaytirildi, soatlarning umumiy hajmi ixchamlashtirildi. Xususan, “Tarix” fani umumiy tarix va O‘zbekiston xalqlari tarixiga asoslanadi.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning ta’lim sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha qabul qilgan famon va qarorlarida ta’lim mazmunini takomillashtirish, uni ilm-fan yutuqlari, xorijiy adabiyotlar o‘quv materiallari bilan boyitish, ta’limni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, DTS, Malaka talablari, o‘quv reja, o‘quv fan dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratish orqali ta’lim sifati va samaradorligiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bugungi kunda mutaxassis pedagog olimlar aynan shu masalalar ustida tinimsiz izlanishlar olib bormoqdalar.

4-asosiy savolning bayoni.
Ta’lim metodlarining mohiyati va mazmuni. Ularning pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari, tarbiya metodlaridan farqli jihatlari. Metod , yo‘l, usul degan ma’nolarni anglatadi. Ta’lim metodlari – bu ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyat yo‘llaridar. Pedagogikada ta’lim metodlari o‘z xarakter xususiyatiga ko‘ra 4ta guruhga ajratiladi: ta’limning og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy va muammoli-izlanuvchi (ijodiy, interfaol) metodlari.20
Qayd etib o‘tilganidek, ta’lim metodlari tizimida og‘zaki bayon qilish metodlari muhim o‘rin tutadi. Og‘zaki mashqlardan ta’lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular o‘quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. SHuningdek, og‘zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o‘rganishdagi ahamiyati beqiyos.
Hikoya o‘qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir. Metodning samarasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining nuqt mahorati, so‘zlarni o‘z o‘rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o‘quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog‘liq. Shu bois hikoya mazmuni o‘quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.
Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O‘qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg‘u berishga e’tiborni qaratadi. Hikoya qilishda (5-10 daqiqa), shu bilan birga o‘quvchilarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg‘otishi kerak. Bu holat hikoyani boshqa ta’lim

19 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 2. – Москва, «Владос», 2007. 137-158 стр.

20 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 2. – Москва, «Владос», 2007. 112-134 б.

metodlari (xususan, namoyish yoki muammoli bayon etish va hokazolar) bilan birga solishtirganda ro‘y berishi mumkin.
Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi bo‘lib, u fanga qadimdan ma’lum, xatto undan o‘z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta’lim jarayonida ko‘p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantish kabi vazifalarni) bajaradi, ammo asosiysi o‘quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o‘qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.
Suhbat faoliyatni endigina boshlagan o‘qituvchi uchun murakkab ta’lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta’minlash ko‘p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O‘qituvchi oddiy savollar berishi, o‘quvchilarga ular yuzasidan batafsil o‘ylash uchun vaqt ajratishi, o‘quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o‘rinlarda ularni sharhlashi lozim. SHu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo‘l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o‘quvchilarga oldindan ma’lum bo‘lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.
Suhbat ko‘proq o‘quvchilarni yangi bil imlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko‘rinishlarda, ya’ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi. Kirish suhbati o‘quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad hal etilishi zarur bo‘lgan ishlar mohiyatining o‘quvchilar tomonidan anglab etilganligini tekshirib ko‘rishdan iborat.
Bunday suhbatlar o‘quvchilarning o‘quv salohiyatini aniqlash, loyilalashtirish ishlarini tashkil etish hamda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga kirishish oldidan uyushtiriladi. Yakuniy suhbat o‘quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.
Katexizism (qisqa bayonli) suhbat – o‘quvchilarning boshlang‘ch bilim darajasi hamda ularning yangi o‘quv metodikasini o‘zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun tajribali o‘qituvchilar tomonidan dars avvalida yohud o‘rganilgan materialni mustahkamlash uchun dars so‘nggida qo‘llaniladi.
Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo‘naltiriladi. Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga «ha» yoki «yo‘q» tarzidagi javoblarni olish emas, aksincha, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta’minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilsin.
Demak, evristik suhbat jarayonida o‘quvchilar bilimlarni o‘zlarining tirishqoq-liklari va mustaqil fikr yuritish layoqatiga egaliklari bois o‘zlashtira olsinlar. Tushuntirish o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o‘quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko‘zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko‘p hollarda o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.
Ma’ruza – yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat’iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko‘pligi, bilimlar bayonining tizimliligi. Maktab ma’ruzasi mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, ob’ektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog‘lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. SHu bois ma’ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo‘llaniladi. Chunki, u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma’ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqtda o‘quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o‘rgata boradi. Maktab ma’ruzasining samaradorligini ta’minlash shartlari quyidagilardan iborat:
- o‘qituvchi tomonidan eng maqbul ma’ruza rejasining tuzilishi;
- rejadan o‘quvchilarni xabardor etish, ularni ma’ruza mavzusining maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;

- rejada aks etgan barcha bandlarning mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etilishi;
- rejaning har bir bandi yoritilgach, ular yuzasidan qisqacha umumlashma asosida xulosalanishi;
- ma'ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o'tishda ular o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning o'rnatilishini ta'minlash;
- bayon qilishning muammoli va emotsional xususiyat kasb etishi;
- jonli til, o'z vaqtida misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish;
- auditoriya, muloqot jarayoni, shuningdek, o'quvchilarning aqliy faoliyatlarini mohirlik bilan boshqarish;
- ma'ruzaning muhim jihatlarini turli tomondan ochib berilishi;
- ma'ruzaning asosiy qismlarini o'quvchilar tomonidan qayd etib (yozib) borilishiga imkon beradigan holatda bayon qilinish tezligi;
- zarur (yozib olinadigan) o'rinlarni oldindan ajratib qo'yish;
- o'rganilayotgan holatlarni yozib olish asosida, qabul qilish va ularning mohiyatini aniqlashtirish maqsadida ko'rgazmalar (namoyish, illyustratsiya, videofilm va boshqalar) dan foydalanish;
- alohida holatlarni chuqur muhokama qilishda ma'ruzani seminar, amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish.21

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rinadi. Inson miyasining 30% hajmini ko'rishni, faqat 3% gina eshitishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85%i ko'rish retseptorlari yordamida o'zlashtiriladi. Demak, o'zbek xalqi tomonidan ko'p bora qo'llaniladigan «Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi» maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Namoyish etish metodi o'rganilayotgan ob'ekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy ob'ektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari) ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan ob'ektlarning sub'ekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o'qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi, bunda ushbu tajriba asosida yotuvchi tamoyillarni tushunish osonlashadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. SHu bois o'qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog'ida, turli o'simliklar bilan esa issiq xonalarda tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan ob'ektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Bu metod yordamida o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ravishda ob'ektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab etishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining bilish jarayoni mohiyatan o'quvchilarning yoshiga mos holda to'g'ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo'naltirishiga bog'liqdir.

Tasviriy (ilyustratsiya) metod namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Illyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi. Namoyish va tasvir metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni o'quvchi yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish,

21 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 2. – Москва, «Владос», 2007. 154-166 б.

agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.
Tasvirning samarasi ko‘pincha o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatuv texnologiyasi qay darajada o‘zlashtirilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o‘rganilayotgan ob’ekt mohiyatini to‘laqonli yorita olishi bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o‘rinlarda kerakli hajmda ko‘rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o‘quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg‘itadi.
Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy ob’ektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Ko‘rgazmali metodlardan foydalanishda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:
- ko‘rgazmalilikning o‘quvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- namoyish etilayotgan ob’ektlar barcha o‘quvchilarga yaxshi ko‘rinib turishi;
- namoyishda uning boshlang‘ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi;
- tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemani chizib ko‘rsatish asosida tashkil etilishi;
- namoyish va illyustratsiya o‘quv materialining mazmuni bilan uyg‘un bo‘la olishi lozim.
Amaliy ishlar metodi o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo‘naltirilgan jarayonda qo‘llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar maktab er maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo‘riqnoma yoki maxsus ko‘rsatmani o‘quvchilar e’tiboriga havola etadi. Qayd etilganidek, ushbu metodlar o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo‘ladi.22
Mashq aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, mashqsiz ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og‘zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo‘linadi.
Yozma mashqlar ta’limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi. Grafikaviy ishlar ham yozma ishlar bilan o‘xshash jihatlarga ega bo‘lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (jumladan, geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta’lim)da keng ko‘lamda foydalaniladi. Mashqlarning bajarilish samarasi quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo‘ladi: mashqlarni bajrishga nisbatan ongli yondashish; uni bajarish qoidasini bilish; vaqt bo‘ycha takrorlanishning to‘g‘ri taqsimlanishi.
Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat:
- o‘qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatishi;
- o‘qituvchi nazorati ostida o‘quvchilar tomonidan o‘quv harakatining dastlabki baja-rilishi;
- zarur ko‘nikma va malakalar shakllangunga qadar o‘quv harakatlarning ko‘p bora takrorlanishi.
Ayrim holatlarda o‘quvchilar ovoz chiqarib o‘quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo‘ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko‘nikma va malakalarni egallashga imkon beradi.
Laboratoriya ishlari o‘quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qurollardan foydalangan holda tajribalarni o‘tkazish metodlari bo‘lib, ular ko‘proq tabiiy fanlar asoslarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu metod o‘quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko‘rish, o‘lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko‘nikmalarini

22 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 2. – Москва, «Владос», 2007. 176-184 б.

tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o‘quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o‘lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi. Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod o‘quvchilarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo‘naltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko‘nikmalarini shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning bilish faoliyati quyidagi besh bosqichda tashkil etiladi:

1. O‘qituvchining tushuntirishi, faoliyat mohiyatini nazariy jihatdan anglash bosqichi.
2. Ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riq berish bosqichi.
3. Sinov bosqichi (bu bosqichda ikki-uch nafar o‘quvchi amaliy harakatlarni bajaradi, qolgan o‘quvchilar esa ularning faoliyatini kuzatadi).
4. Faoliyat (harakat)ni bajarish (har bir o‘quvchi topshiriqni mustaqil ravishda bajaradi, ayni o‘rinda topshiriqni bajarishga qiylanalgan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratilib, ularga yordam ko‘rsatiladi).
5. Nazorat bosqichi (bu bosqichda o‘quvchilarning ishlari qabul qilinadi va baholanadi; ishning sifati, materialning maqsadga muvofiq tanlanganligi, vaqt nutqai nazardan tezkorlik, topshiriqni bajarish tizimining to‘g‘riligi va samaradorligi kabi holatlarga alohida e’tibor beriladi).

Hozirgi vaqtda o‘qituvchilar qo‘lida barcha o‘quv fanlari bo‘ycha didaktik o‘yinlarning ishlanmalari mavjud, ayniqsa, boshlang‘ch ta’lim bo‘ycha yaratilgan o‘quv dasturlarda turli didaktik o‘yinlarning ro‘yxati etarli darajada ko‘rsatilgan. Ta’limning globallashuvi ta’limiy va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo‘nalishi jihatidan xilma-xil bo‘lgan kompyuter o‘yinlarining maktab amaliyotiga jadal kirib kelishini ta’minlamoqda.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarga ijtimoiy-foydali mehnat hamda o‘qish ko‘nikmalarini faol o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi. O‘yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo‘riqishlarini kamaytiradi. Didaktik o‘yinlardan foydalanilganda o‘quvchilarning manfaatdor bo‘lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan taqdirdagina ularni taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunchaki tashkil etilgan o‘yin ijobiy natija bermaydi.

Ta’lim metodlarini tanlash. Pedagogika fanida, o‘qituvchilarning amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asosida ta’lim metodlarini tanlashga o‘quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog‘liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi.

Ta’lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning etakchi g‘oyalari, ta’lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;
- o‘rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o‘ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o‘ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni sara-lashga qo‘yiluvchi talablarning o‘zaro aloqadorligi;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt;
- o‘quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;
- o‘quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta’minlanganlik darajasi, jihozlar, ko‘rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;
- o‘qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;
- o‘quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o‘rnatilganligi.

o‘qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og‘zaki, ko‘rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq echimlar qabul qiladi.

Nazorat savollari:
1. O‘zbekistonda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi haqida fikringiz?
2.Davlat ta’lim standarti mazmunini izohlang.
3.O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida bosh g‘oyalar qaysi?
4. Ta’lim metodi nima?
5. Ta’lim vositalariga nimalar kiradi?
6. Ta’lim metodlarining tasnifi nima?
7. Ta’limning suhbat metodini qo‘llashda nimalarga e’tibor qaratish zarur?
8. Og‘zaki bayon metodlarining afzalliklari nimalarda ko‘rinadi?
9. Ko‘rgazmali metodlar turkumini nimalar tashkil etadi?
10.Amaliy metodlar mohiyati nimadan iborat?
11.Didaktik o‘yinlar qanday maqsadda qo‘llaniladi?

Test topshiriqlari:
1.Didaktika deb nimaga aytiladi?
a) didaktika bu shaxsning rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi fan;
v) ta’lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslabberuvchi ta’lim pedagogik nazariyasi, pedagogikaning sohasi;
s) bola shaxsini shakllantirish qonuniyatlari haqidagi fan;
d) tarbiyalovchi ta’lim mohiyatini o’rganadigan soha;
e) darsni samarali tashkil etish shartlarini belgilaydigan yondashuv.

2. Umumiy didaktikaning predmeti nimadan iborat?
a) dars o’tish va bilim olishning o’zaro aloqalari va bog’liqligi;
v) alohida fanga ta’lim nazariyasi
s) ta’lim faoliyatning alohida turi sifatida
d) ta’lim jarayonida shaxsning psixologik rivojlanishi
e) o’quvchilarni shakllantirish va ta’lim olishning ijtimoiy sharoitlari.
3. Qaysi javob variantida didaktikaning asosiy kategoriyalari ko’rsatilgan?
a) tarbiya, shakllantirish, rivojlantirish, ta’lim, taksologiya;
v) sinf-dars tizimi, jarayon, tuzilish, boshqarish, qayta aloqa;
s) muqobillik, sinf, samaradorlik, idrok qilish, o’zlashtirish, o’quv fani
d) dars o’tish, bilim olish, ta’lim, ta’lim jarayoni, shakl, metod;
e) o’quvchi, tarbiya, shakllantirish, boshqarish, natija.

4.Bu ifoda ta’limning qaysi paradigmasi g’oyasini ifodalaydi: «... paradigmalar o’quvchini hayot sub’ekti sifatida o’zini rivojlantirish ehtiyojiga ega erkin va ma’naviy shaxs sifatida, diqqat markaziga qo’yadi»?
a) an’anaviy paradigma;
v) texnokratik paradigma;
s) insonparvarlik (fenomenologik) paradigma;
d) ezoterik paradigma;
e) ratsionalistik (bixevioristik) paradigma.

5-mavzu:Ta’limni tashkil etish shakillari

Asosiy savollar:

1 Ta’limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta’lim turlari. Darsning turlari va tuzilishi.
2. Nostandart darslar. Ta’limni tashkil etishning yordamchi shakllari.
3. O’qituvchining darsga tayyorlanishi.

1-asosiy savol bayoni:
Ta'lim turlari va shakllarining tavsifi. Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o'qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir.
Ta'lim turlari (yunoncha «species» alohida, o'ziga xos xususiyatga ega) o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvdir. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:
-arxaik (ibtidoiy);
-qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
-avestiy (Baqtriya, Sug'diyona, Xorazmda eramizdan av. VII— VI asrlar);
-yunon (Ellin, rim-yunon, rim eramizdan av. V—I asrlar);
--o'rta asr (dogmatik, sxolastik V—XVI asrlar);
- (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o'qitish muammoli-dasturlashtirilgan, komputerlashtirilgan innovatsion);
-xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan,
- muammoli dasturlashtirilgan, komputerli o'qitish, masofali,Internet yordamida o'qitish va shu kabilar).
Avesto g'oyalariga ko'ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII—VI asrlarda, Markaziy Osiyo hududida zardushtiyiik dini yuzaga kela boshlaganda tashkil topdi. «Avesto» zardushtiylik muqaddas manbayi bo’lib, u o'z davrining ensiklopediyasi hisoblagan. «Avesto» g'oyalariga binoan bolalar va yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash quyidagilardan iboratdir:
-diniy va ma'naviy tarbiyalash;
-jismoniy tarbiya;
-o'qish va yozishga o'rgatish.
Yoshlarni tarbiyalashda ona yerga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini uyg'otish muhim yo'nalish hisoblangan. «Avesto»da barkamol shaxs obrazi haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan.
Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469—399 er. avv. yillar) va uning o'quvchilari tomonidan keng qo'llagan yordamchi savollarga javob topish metodi hisoblanadi. Bu metod suqrotcha suhbat metodi nomini olgan. O'qituvchi (faylasuf) o'quvchida qiziqish, bilishga intilishni uyg'otadigan savoldan foydalanadi, mulohaza yuritish asosida o'quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O'qituvchining mulohazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirilib turiladi. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.
Dogmatik o'qitish - jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda, G'arbiy Yevropada, dogmatik o'qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rin tutgan. Musulmon pedagogik konsepsiyasi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo'lgan. Komillikka bilimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. «Haqiqiy g'oyalar» (Abu Ali ibn Sino. «Donishnoma» «Bilimlar kitobi»), haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishga ikki to'siq xalaqit qiladi: so'zlarining aniq va fikrlarining tushunarli emasligi. Mazkur kamchilikni bartaraf etishda logika alohida o'rin egallaydi. Musulmon mamlakatlarida bolani o'qitish va tarbiyalashda u tomonidan Qur'onning arab tilida yod olinishi bilim egallashning asosiy sharti hisoblangan. Bundan tashqari XV-VII asrlarda, bir qator maktablarda fors tili ham o'rgatilgan. Asosiy ta'limni bolalar maktablar - boshlang'ich maktabda olganlar (muqaddas kitobni o'qish va talqin qilish mashg'ulotlari, o'qish, yozish va hisobga o'rganganlar). Dogmatik o'qitishda o'quvchilarning asosiy faoliyatlari tinglash, o'qish, yod olish, eslab qolish va matnni so'zma-so'z takrorlashdan iborat bo'lgan.
Oliy ta'lim madrasalarda berilgan. Movarounnahrdagi eng yirik o'quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G'ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma'rifiy

markazlarning rivojlanishi XV-VII asrlarga to'g'ri kelgan. Madrasalarda, o'qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o'rganganlar. O'quv rejasiga grammatika, Qur'on, Hadis, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabivot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O'qitish asosan og'zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o'quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko'p qirrali, turli-tuman bo'lib boradi. Maktab ta'limi erkaklar uchun mo'ljallangan. Ammo har bir badavlat oila qiz bolani o'qitish uchun uyga o'qituvchini taklif etgan.
Dogmatik o'qitish o'rniga asta-sekin o'quv jarayonida ko'rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta'lim shakllari qo'llanila boshlandi.
Bugungi kunda o'rta asrda keng qo'llanilgan ta'lim turlari -dogmatik va sxolastik o'qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda.
Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko'rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi.
Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim turi vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta'lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta'minlaydi. Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya'ni, «tayyor» bilimlarni berish va o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish, differensatsiyalashtirish imkoniyatlarining kamligi..
Muammoli o'qitishda o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki o'quvchilarni faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak.
Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O'quv muammosi bir qadar qiyin, lekin o'quvchilarning kuchi yetadigan bo'lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqich yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqichida o'quvchilar savol bo'yicha mavjud muammoni ko'rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar. Uchinchi bosqich muammoni yechish uchun zarur bo'lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan. U xayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi («Men nima qilishni bilaman!»). Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari keladi.
Muammoli topshiriqlar savollar, o'quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Muammoli savoida izlash va javoblar turli variantlari ko'zda tutiladi, ya'ni, oldindan tayyor javob bu yerda mumkin emas. Muammoli savolga misol: «Nima uchun temirdan yasalgan mix suvda cho'kadi, temirdan yasalgan kema esa cho'kmaydi?».
Muammoli masala uni yechish yo'llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o'quv-o'rganish topshirig'idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi. Muammoli masalaga misol: «25-3=21 tengligi to'g'ri bo'lishi uchun qanday amallarni bajarish kerak?».
O'qish jarayonida muammoli vaziyat subyekt (o'quvchi) o'zi uchun qiyin bo'lgan masalani yechishni istashi, lekin unga ma'lumotlar yetishmasligi va u o'zi ularni izlashi zarurligini ko'zda tutadi. Muammoli vaziyatga misol: «6 ta gugurt qutisidan tomonlari bir gugurt qutisi kattaligiga teng 4 ta bir xil tomonli uchburchaklar yasang».
Muammoli o'qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish asosida bilimlarni mustaqil egallash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, mahsuldor fikrlashini rivojlantirish, o'qitishning mustahkam va amaliy natijalari. Kamchiliklari o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil yechish imkoniyatini har bir o'quvchiga taqdim etishning qiyinligi bilan belgilanadi.
Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan o'qitish) harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi «dastur» terminidan kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o'quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat.

Bunday o'qitish asosini kibernetik yondashish tashkil etadi. Unga binoan o'qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi.
Komputerli ta'lim. O'qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi -shaxsiy elektron-hisoblash mashinalari (EHM) rivojlanishi komputerli (komputerlashtirilgan) ta'limning shakllanishiga imkon berdi. Maxsus ta'lim dasturlari bilan ta'minlangan komputerlarni deyarli barcha didaktik masalalar: axborotni berish, o'qitish jaravonini boshqarish, natijalarini nazorat qilish va tuzatib borish, mashqlarni bajarish, o'quv jaravoni rivojlanishi haqida ma'lumotlarni to'plash va boshqalarni hal etishga moslashtirish mumkin.
Rivojlangan mamlakatlarda komputerlardan ta'limda foydalanishning keng rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlashga imkon berdi:
alohida o'quv fanlari (matematika, tabiiy fanlar, ona tili, chet tili, geografiya va boshqalar) bo'yicha o'zlashtirish darajasini oshirishni ta'minlash;
- umumiy kognitiv (idrok etish) qobiliyatlari – qo'yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni egallash (axborotni to'plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlantirish, u yoki bu ko'nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e'tiborni kuchaytirish.
Bundan tashqari komputerlardan avtomatlashtirilgan test sinovlari o'tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalaniladi. Bu o'qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi, natijada pedagogik jarayonning samaradorligi oshadi.
Dasturiy va komputerli ta'limlar o'qitish algoritmlarini ajratishga asoslanadi. Algoritm to'g'ri natijaga olib keluvchi ketma-ket amallar tizimi sifatida bilim, ko'nikma va malakalarni to'la o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv faoliyati tartibi va ketma-ketligini o'quvchiga ko'rsatadi. O'quv dasturlari va komputerli ta'limning samaradorligi fikrlash faoliyatini boshqarish algoritmlarining sifatiga bog'liq.
Ta'lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi. Dunyoda shunday ta'lim tizimi yuzaga kelganki, uni ko'pchilik «qo'llab turuvchi, ta'minlovchi, yordamchi o'qitish» deb ataydilar. U odamni kundalik muammolarni hal etishga tayyorlashga asoslangan bo'lib, shaxsning faoliyati va hayot tarzini qo'llab turish uchun mo'ljallangan.
Ayni vaqtda «innovatsion» (yangilik kiritish) ta'limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur ta'limning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:
1) bu oldindan ko'ra bilish, ya'ni, o'quvchini avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo'ljallashga o'rgatishdan iborat bo'lib, o'quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko'zlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur.
2) o'quvchining hamkorlikda ta'lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishini ta'minlash.
Keyingi yillarda masofaviy ta'lim (lotincha distantia -masofa) -masofadan turib o'qitish keng rivojlanmoqda. Masofaviy o'qitish - ta'lim texnologiyasi bo'lib, unga ko'ra o'quvchi qayerda va qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar muayyan ta'lim muassasasi ta'lim dasturini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari: darsliklar va boshqa bosma nashrlar, o'rganilayotgan materialni computer telekommunikatsiyalari orqali uzatish, videotasmalar, munozaralar va seminarlar o'tkazish, regional va milliy televideniye hamda radio orqali o'quv dasturlarini namoyish etish, kabelli televideniye va ovozli pochta, ikki tomonlamali videokonferensiyalar, telefon orqali qayta aloqa bilan bir tomonlama videotranslyatsiya va boshqalarning xizmatiga tayaniladi. Masofali o'qitish o'qituvchilarga vaqtini tejashda qulaylik yaratadi, asosiy faoliyatidan ajralmagan, jumladan uzoq rayonlarda yashovchilarga o'qish imkonini yaratadi, o'quv fanlari erkin tanlanadi, fan, ta'lim va madaniyat mashhur namoyondalari bilan munosabatlar imkonini beradi. O'quvchi va o'qituvchilarning faol o'zaro munosabatlari, mustaqil ishlashni faollashtirish va o'quvchilarning mustaqil bilim olish ehtiyojlarini qoniqtirishga xizmat qiladi.
Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.
Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:
individual;
sinf-darsli;
ma'ruza-seminarli.
Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli ta'limning individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgilar yordamida o'zining tajribalarini yoshlarga o'rgatgan. O'qituvchi va o'quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan. Individual ta'lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu usul bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning ustunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to'la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishidan iborat. Individual ta'lim o'qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo'lishini talab etadi. Individual o'qitishning ustunliklari bilan bir qatorda bir qator kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:
-vaqtning tejamli emasligi;
-o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);
-boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);
-jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.
Mazkur sabablar XVI asrdan boshlab individual o'qitish usulining ahamiyati pasayib, uning o'rnini ta'limning individual-guruhli shakli egallashiga imkon berdi.
Ta'limning individual-guruhli shaklidan Yevropada, XVI asrda keng foydalana boshladilar. Markaziy Osiyo davlatlarida bu usuldan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi, bu davrda o'quvchilar uchun asosiy o'quv qo'llanma zardushtiylikning muqaddas manbayi «Avesto» (eramizdan avvalgi VII-XVI asrlar) bo'lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoali o'qitish bilan birga olib borilar edi. O'qituvchi «Avesto» kitoblaridan birini ochadi va o'quvchilar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o'qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar. Aqliy mashqlar o'qituvchining o'quvchi bilan erkin suhbati davomida olib borilgan. Jismoniy tarbiyalash individual va jamoali mashg'ulotlar shaklida amalga oshirilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat bo'lgan. Otda yurish, ov qilish, qilichdan foydalanishni bilish, suvda suzish, yugurish, nayza otish va shu kabilar harbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta'lim olish jarayoni kun chiqqandan kun botgungacha davom etgan, uy vazifalari mavjud bo'lmagan.
XV asrda jamoali o'qitishni tashkil etish g'oyasini Muhammad Tarag'ay Ulug'bek davom ettiradi. Mutafakkir o'zining madrasalarida individual mashg'ulotlar tizimini bekor qiladi va «jamoa» sinf-dars tizimiga yaqin bo'lgan shaklini joriy qiladi. Umumiy ma'ruzani 50-70 nafar kishidan iborat katta guruhga odatda, o'z sohasida mashhur bo'lgan olim mudarris (o'qituvchi-professor) o'qiydi, amaliy mashg'ulotlarni esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhda kichik mudarris (o'qituvchi) olib boradi. O'qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar hisoblangan. Samarqand madrasasida ma'ruzalarni allomaning o'zi va Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, Ali Qushchi, Avaz Kirmani kabi va boshqa mashhur olimlar o'qiganlar. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek va uning izdoshlari tomonidan matematika, metafizika, astronomiya, geografiya, tarix fanlaridan yangi darsliklar yaratildi, bu darsliklar oddiy va tushunarli shaklda yozilgan. Lekin «jamoa» usulida ham o'zining salbiy tomonlari bo'lgan. Jamoa usulida XX asr maktabida mashhur bo'lgan guruhli-

laboratoriya metodida bo'lgani kabi o'zlashtirishni individual xususiyati hisobga olinmagan. Yaxshi o'zlashtirmagan ba'zi shogirdlar ham ilg'orlar qatorida bir qo'llanmani o'rganishdan boshqasini o'rganishga o'z-o'zidan o'tavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqadilar2.

Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg'ulotlarni o'qituvchi bir o'quvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo'lgan turli yoshdagi bolalar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O'qituvchi navbat bilan har bir o'quvchidan o'tilgan materialni so'raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan bolalar o'z ishlari bilan shug'ullanadilar. O'qishni bunday tashkil etishda, bolalar mashg'ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo'lgan.

XV va XVI asrlar davomida, Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o'zgarishlar bolalarga ta'lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ulardan biri bolalarni guruhli (jamoali) ta'lim sanaladi. U G'arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) birodarlik1 maktablarida ilk bor qo'llanilgan va o'qish sinf-darsli shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan «Buyuk didaktika» asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi. Quyosh it yuiduzlari turkumida bo'lganida bolalarni dam olishga yuboradilar («ta'til» lotinchada kunlarning eng qizigan davri deganini bildiradi).

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Sinf-dars tizimining mazmuni o'quv ishlarini tashkil etish o'ziga xos shakli sifatida, quyidagilardan iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi;

-mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

-dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois o'quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;

darsda o'quvchilarning ishiga o'qituvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalari, har bir o'quvchini alohida bilimini baholaydi va yil oxirida o'quvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qiladi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog’langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'rsatadi:

1) ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va o'quvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go'yoki «eshik» hisoblanadi.

asosiy masalani hal etishga yo'naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi.

amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo'shdi. U o'qituvchi va o'quvchining faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishning zarurligini asoslab berdi.

Ta'limning sinf-dars tizimi alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit o'quv-tarbivaviy jaravonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; jaravonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jaravonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi;

ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi). O'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi. bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.
Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivoilanish sur'atining ortga surilishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'vicha individual ishlarni tashkil etish. shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi: katta va kichik voshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.
XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xysusiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi (AQSHda Batov, Yevropada Maingeyms tizimi).
Yevropa va AQSHda, XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol. mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905-yili Dalton shahrida (Massachusets shtati) o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. Uni ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar.
Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat: o'quv faoliyatining muvafiaqiyati maktabda ishlash sur'atining har bir o'quvchining jmkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq: ta'lim faoliyati ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish o'quvchining mustaqil o'quv faoliyatining markaziy hisoblanishi. o'qituvchi vazifasining faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi. sinf laboratoriyalarining ustaxonalar bilan almashtirilishi. darslarning bekor qilinishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, o'quvchining laboratoriya yoki ustaxonalarda o'qituvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytda o'qituvchidan yordam so'rashlari. Mazkur tizim bir qator kamchiliklariga ko'ra keskin tanqidga uchragan.
XX asr 20-yillarida maktab ishlari llmiy tekshirish instituti ta'limning loyihali tizimini targ'ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kilpatrik ishlab chiqqan. O'qitish bu tizimining mazmuni o'quvchilarning o'zlari loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog’langan bo'lishi va o'quv guruhi ixtisoslashishlariga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo'lgan.
60-yillarda Tramk reiasi juda mashhur bo'ldi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramk ishlab chiqqan. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 odam) mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va o'quvchilarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etadi. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining 40%i ajratiladi. Kichik guruhlarda mashg'ulotlarga (seminarlar) - 20 % i kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40 % i ajratiladi.
70-yillarda o'qishni tashkil etish noan'anaviy shakllarini izlash davom ettiriladi. Tajriba va sinov maktablarini izlash birinchi navbatda sinf-dars tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog'liq bo'lgan. Izlanishlar asosiy masalasi - o'qishni individuallashtirish edi.
Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'limning ma'ruza-seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali deyarii hech bir katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha leksion-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Leksion-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi. O'zbekistonda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tatbiq etilishi bilan leksion-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida foydalanila boshlandi. Oxirgi paytlarda leksion-seminar tizimi elementlaridan o'rta maktab katta sinflarida ham qo'llanila boshlandi.
Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari. Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo'llarini izlashda darsda o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va

maktab amaliyotida asosan uchta shunday shakllari qabul qilingan ommaviy, guruhli va ndividual.
Ta'limning ommaviy shakli sinfdagi jami o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko'zda tutadi. Guruhli shaklida esa o'quvchilar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Individual shakli har bir o'quvchining alohida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi.
O'qitish frontal shaklida, o'qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun sinf o'quv faoliyatini boshqarib boradi. U o'quvchilarning hamkorliklarini ta'minlaydi va hamma uchun bir bo'lgan ish sur'atini belgilaydi. Frontal ishlashning pedagogik samaraliligi ko'p jihatdan o'qituvchining butun sinfni nazorat qila bilishiga va shu bilan bir vaqtda har bir o'quvchining ishini ko'zdan qochirmasligiga bog'liq bo'ladi. Agarda o'qituvchi ijodiy jamoali ishlash muhitini yarata olsa, o'quvchilar diqqatini va faolliklarini ta'minlab tura olsa samarasi yana oshadi. Ammo frontal ishlash individual farqlarni hisobga olmaydi, u o'rta o'quvchiga mo'ljallangan. Shuning uchun ba'zi o'quvchilar berilgan ish sur'atidan ortda qoladilar, boshqalari esa zerikib, qiynalib ketadilar. O'qish guruhli shaklida o'qituvchi sinf o'quvchilari guruhlari o'quv-o'rganish faoliyatilarini boshqaradi. O'quvchilarni zvenoli, brigadali, birlashtirish-guruhli va differensiyalangan guruhlarga taqsimlash mumkin. O'qish zvenoli shakli o'quvchilar doimiy guruhi o'quv faoliyatini tashkil etishni ko'zda tutadi.
Birlashtirish-guruhli shaklida sinfni odatda katta umumiy topshiriqni har biri faqatgina bir qismini bajaradigan guruhlarga ajratishni ko'zda tutadi.
Differensatsiyalashgan-guruhli ta'lim shakli doimiy guruhlar bilan ham, bir xildagi o'quv imkoniyatlariga ega va o'quv ko'nikmalari bir xil darajada shakllangan o'quvchilarni birlashtirishini ko'zda tutadi. Guruhli shakllariga o'quvchilarning juft bo'lib ishlashlarini ham kiritiladi. O'quv guruhlari faoliyatlarini o'qituvchi o'zi bevosita hamda o'z yordamchilari - o'quvchilar fikriga qarab tayinlangan zvenolar va brigadalar orqali boshqaradi.
Individual ta'lim o'quvchilarning boshqa o'quvchilar bilan bevosita aloqalarini ko'zda tutmaydi. O'z mohiyatiga ko'ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishlashdan tubdan farq qilmasada, biroq o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo'lida maxsus tayyorlangan kartochkalardan foydalanish mumkin.
Darsda o'qituvchining e'tibori bir necha o'quvchiga qaratilsa, bu vaqtda qolgan o'quvchilar mustaqil ishlasalar ta'limning bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi.
Zamonaviy ta'lim amaliyotida ko'proq ikki tashkiliy shakl:: ommaviy va individual shakllardan foydalaniladi. Ayni vaqtda guruhli va juftli o'qish shaklidan amaliyotda ancha keng foydalaniladi.
Ta'limning ommaviy shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmasada, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta'lim deb ko'rsatishga harakat qiladilar.
Jamoaviy ishlash faqatgina differensatsiyalashgan guruhli ishlar asosidagina tashkil etiladi. O'quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o'qituvchi va o'quvchilarning dinamik yoki o'zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir.
Ta'lim maqsadlari va foydalanshning qulayligi nuqtayi nazaridan ta'lim shakllari quyidagicha darajalanadi: asosiy, qo'shimcha va yordamchi ta'lim.
Dars ta'limni tashkil elish asosiy shakli. Dars ta'lim jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tiziinining xususiyatlari aks etadi, unda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o'qituvchi uchun har bir o'quvchi faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi.
Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).
Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o'quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog'liq.
Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:
aralash darslar;
yangi ma'lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo'yicha yoki umumlashtirishlarni anglab yetish va o'zlashtirish maqsadiga ega darslar;
bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;
o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;
malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o'rganish darsi;
o'z tuzilishi bo'yicha oddiy bo'lgan, ya'ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo'lgan dars turlari (o'rta va katta sinflarda qo'llash uchun mos keladi).
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yoshlarini hisobga olib o'quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o'rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to'g'ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu yerda ko'pincha ishlar boshqa turlarini o'z ichiga oladi: materialni og'zaki yetkazish, qiziqarli hikoyani o'qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uv vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol-javob. yangi materialni o'rganish. o'zlashtirishini dastlabki tekshirish. mashq misollari davomida vangi bilimlarini mustahkamlash. ilgari o'rganilganlarni suhbat ko'rinishida takrorlash. o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash uvga vazifa berish.
O'quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o'rganish) darsi nisbatan keng doiradagi savollarni o'z ichiga olgan va uni o'rganishga ko'p vaqtini talab qiluvchi, o'quvchilarga tanish bo'lmagan yangi material uning mazmuni bo'lgan ta'lim jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va o'quvchilarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab, ba'zi hollarda yangi materialni o'zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa - o'qituvchi rahbarligi ostida o'quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchi holda unisi ham bunisidan ham foydalaniladi. Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash. O'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish.
Bilimlarni mustahkamlash darslarida o'quv ishining asosiy mazmuni ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o'zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi.
O'quvchilar o'z bilimlarini yangi manbalar bo'yicha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma'lum bo'lgan qoida asosida yangi masalalar yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og'zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o'rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o'zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo'yicha axborot beradilar. Tuzilishi bo'yicha bunday darslar quyidagi bosqichlardan o'tishni ko'zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish.
Ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog'liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o'rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o'qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini dastlab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qayerda qanday qoida qo'llanilishini o'quvchilarning o'zlari belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko'nikmalarini qo'llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo'llashni o'zlashtirib olishlari kerak.
Umumlashtiruvchi darslar (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o'tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o'quvchilar

bilimlarida mavjud kamchiliklari to'ldiriladigan va o'rganilayotgan kursning muhim g'oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo'lim va o'quv kurslarining yakunida o'tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o'zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o'qib berish yoki o'qituvchining o'quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o'tkazilishi mumkin.
Tekshirish (nazorat) darslari o'qituvchiga o'quvchilarning ma'lum sohadagi bilim, malaka va ko'nikmalari shakllanganlik darajasi, o'quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o'quvchidan ushbu mavzu bo'yicha uning hamma bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llashini talab etadi. Tekshirish og'zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.
Yuqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo'yish va ularni o'quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta'minlash, ish sharoitini yaratish, o'quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko'rsatmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi, ularga erishishda barcha yoki yakka o'quvchilarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi.
Ta'limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi va ta'limiy-tarbiyaviy-rivojlantirish vazifalarini ijobiy yechimini topishga imkon beradi. Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo'lgan talablarda o'zining aniq ifodasini topadi.
Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:
Fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- Darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan
-Bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlami yaratish;
-O'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish;
ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;
-Shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi;
pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
-Zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;
-Mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
-Har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Nazorat savollari:

1. Zamonaviy ta'limning asosiy turlarini ta'riflab bering.
2. "Ta'limning tashkiliy tizimi" tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering.
3. Ta'limning individual shakli afzalliklari nimadan iborat?
4. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
5. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yiladi?
6. O'quvchilar bilish faoliyatining individual, guruhli, frontal shakllaridan foydalanib mutaxassislik fani bo'yicha dars rejasi va konspektini ishlab chiqing.
7. Har bir darsda o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish va baholash kerakmi? Agarda zarur deb hisoblasangiz mumkin bo'lgan metodik variantlarini ko'rsatib bering.

Test topshiriqlari:
1. O'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash yo'li bilan ta'limni tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy fikrlari va idrok etish faolliklarini rivojlantirish. Bu ta'rif qaysi o'qish turiga tegishli?

a) kompyuterli ta’lim;
v) tushuntirish–namoyishli ta’lim;
s) masofali ta’lim;
d) muammoli ta’lim;
e) innovatsion ta’lim.

2. Tinglash, o’qish, mexanik yod olish, eslab qolish va matnni so’zma-so’z takrorlash qaysi o’qishda asosiy faoliyat turlari hisoblangan. Bu erda o’qishning qaysi turi tasvirlangan?
a) tushuntirish;
v) sokratcha;
s) arxaik;
d) kompyuterli;
e) dogmatik.

3. Bu darsning tuzilishi quyidagicha: yangisi uchun asos hisoblangan ilgarigi materialni takrorlash, o’qituvchining yangi materialni tushuntirib berishi va darslik bilan ishlash, tushunishini tekshirish va bilimlarini, dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa. Darsning qaysi turi haqida gap bormoqda?
a) bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsi;
v) ko’nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darsi;
s) yangi material bilan tanishish darsi;
d) bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirish darsi;
e) bilimlarni tekshirish darsi.

4. O’qituvchining darsga tayyorlanishida quyidagi bosqichlar ko’rsatiladi:
a) yordamchi, sinfdan tashqarish;
v) konsultatsiya, instruktaj, konferentsiya;
s) frontal, guruhli, individual;
d) diagnostika (tashxis qilish), bashorat (prognoz) qilish, loyihalashtirish (rejalashtirish);
e) didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

6- mavzu. Ta’limni tashxislash

Asosiy savollar
1. O‘quvchilar bilimini tashxislash va baholashning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlan-tiruvchi ahamiyati.
2. O‘quvchilar bilimini tashxislash va baholashning tur va shakllari.
3. Maktabda o‘quvchilar bilimini tashhislash tizimi va baholash mezonlari.

1-asosiy savolning bayoni:
O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlar talablari darajasiga olib chiqish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunda ta’lim sifati va samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilarga ta’lim berish, ular o‘zlashtirgan bilimlarini ob’ektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish asosiy vazifalardan biridir.
O‘quvchilar bilimini tashxizlash va baholash davlat ahamiyatiga molik bo‘lib, xalq ta’limi organlari va maktab ma’muriyati tomonidan o‘qituvchi faoliyatini nazorat qilish vositasi hisoblanadi. Ta’limning barcha bosqichlarida tekshirish ishlarini olib borish maqsadida tashxizlashning bir necha shakllari: nazorat ishlari, kuzatuv, o‘quvchilar bajargan ishlarini tahlil qilish va boshqalardan foydalaniladi.
Respublikamiz Prezidentining uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi Qarorlari, davlat ta’lim xujjatlarida o‘quvchilar bilimini ob’ektiv baholash jarayoniga o‘qituvchilar,

jamoatchilik mas’ul bo‘lib, ta’lim va tarbiya sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri ekanligi alohida qayd etilgan. O‘qituvchining pedagogik faoliyat natijasi, birinchi novbatda, o‘quvchilar bilimlarni qanchalik chuqur va puxta egallanganligi, tarbiyalanuvchilarning g‘oyaviy-mafkuraviy va axloqiy sifatlari, hayot va mehnatga qay darajada tayyor ekanligi bilan belgilanadi. Davlat ta’lim xujjatlarida o‘quvchi-yoshlar va talabalar bilimini baholashda rasmiyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik, uni shaffof, ob’ektiv bo‘lishini ta’minlash, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish alohida ko‘rsatib o‘tilgan.23

Bilimlarni tashxis etishning ta’limiy ahamiyati shundaki, o‘quvchi qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lganligi o‘qituvchi va o‘quvchi uchun ham aniq bo‘ladi. O‘quvchilarni baholash bilimlarni o‘zlashtirish sifatini belgilaydi. O‘quvchi dasturiy materialni qay darajada o‘zlashtirganligini tushunib etishi zarur: nimalarni etarli darajada yaxshi, nimalarni yuzaki o‘zlashtirgan, nimalarni umuman o‘zlashtirmagan. U dasturiy materialni o‘zlashtirishdagi o‘z yutuq va kamchiliklarini tushunib etmog‘i lozim.

Ta’lim natijalarini tashxizlash va baholash, ayniqsa kichik yoshdagi o‘quvchi shaxsi rivojlanishiga katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar olgan bahosiga maktabda o‘qish natijasining asosiy va hal qiluvchi ko‘rsatkichi sifatida qaraydilar. SHuning uchun ham baholash ta’lim metodi sifatida o‘quvchi o‘zlashtirgan o‘quv materialini tashxiz qilishga bevosita aloqador bo‘lib, o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan ijobiy motivatsiya, qiziqish, moyillikni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi, o‘quv jarayonida jamoa bo‘lib ishlash, bir-birini hurmat qilish kabi his-tuyg‘ularini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘rtoqlari “yaxshi” va “a’lo” baho olishganda xursand bo‘lishadi, ortda qolayotganlarga yordam beradilar. O‘qituvchi bilimlarni tashxiz etish jarayonida sinf jamoasi baholarni qanday qabul qilayotganligi, o‘quvchi o‘z o‘rtoqlarining yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo‘layotganligiga har doim e’tibor qaratmog‘i lozim.

Bilimlarni baholash bolaning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirib, bilimlarni mantiqiy o‘zlashtirishga yo‘l ochib beradi, o‘quvchilar fikrlash ketma-ketligi, mantiqiy tafakkur qilish usullari, o‘quv materialini o‘zlashtirish yo‘llari bilan tanishadilar.

Boshlang‘ich sinflarada bolalar o‘zlashtirgan bilimlarini baholashning turli xil shakl va yo‘llari bilimga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, o‘quv materialini yanada chuqurroq egalashga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilar o‘qituvchiga qanday ohangda javob berish haqida emas, balki topshiriqni to‘g‘ri bajarish haqida ko‘proq o‘ylaydilar.

Bilimni baholashning ob’ektiv jihati o‘quvchi bilimiga o‘qituvchi tomonidan bildirilgan fikr, undagi yutuq va kamchiliklarni tavsiflab berilishidir. Bilimni tekshirishning sub’ektiv jihati o‘quvchining o‘z bilimi, olgan bahosiga nisbatan munosabatidir. O‘quvchilar bilimini tashxizlashda ob’ektivlik va sub’ektivlik to‘liq tantana qozonmaydi. Bilimlarni baholashda har doim ob’ektivlik va sub’ektivlik o‘rtasida u yoki bu darajadagi qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi mumkin. Muhimi shundaki, o‘quvchilar bilimini ob’ektiv tashxiz qilishda o‘qituvchi talabni kuchaytirishi, bunday tashxiz o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lib, u bunday tahlilni qabul qilishi kerak.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimini tashxizlash muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi bois, bunday shakldagi ishlarni to‘g‘ri tashkil etish o‘qituvchi oldiga muayyan talablarni qo‘yadi:

1. O‘qituvchi dasturdagi o‘quv materiallarini o‘zlashtirish sifatini tashxiz qiladi va baholaydi. Albatta, o‘qituvchi bolalar yana qanday qo‘shimcha materiallarni o‘rganganligini bilishi va unga qiziqishi kerak. Biroq, o‘quvchilar bilimini tashxizlash va baholash usullari maktab davlat dasturlarini bajarish maqsadida qo‘llanilib, qo‘shimcha bilimlar esa dastur materiallarini o‘zlashtirishga qay darajada ta’sir etishi nuqtai nazardan tekshiriladi (ammo, baholanmaydi).

2. Bilimlarni tekshirish va tashxizlash maktabda barcha o‘quv yillari davomida tizimli va doimiy ravishda olib borilishi shart. Ayrim fanlardan o‘quvchining bilimini baholash ora-sarada bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur. O‘quvchi har doim, har qanday darsda javob berishga tayyor bo‘lmog‘i lozim. Bilimlarni tekshirish tizimli va tartibli ravishda olib borilmasa ayrim o‘quvchilar o‘qituvchi bari-bir so‘ramasa kerak degan umid bilan darslarga tayyorgarlik ko‘rmasdan kelishi mumkin.

---

23 Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ 2909-сонли Қарори. –Т., 2-3 б.

3. O‘zlashtirilgan bilimlarni tashxizlash va baholash o‘quvchilarda aqliy qobiliyat-larning rivojlanishi, o‘qishdagi qiyinchiliklarni engib o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lgan axloqiy va irodaviy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.24

Har qanday o‘qituvchi bunday talablarni bajarishga harkat qilsada, biroq uning individual shaxsiy sifatlari va kasbiy tayyorgarlik darajasi o‘quvchilar bilimini tashxizlash va baholashning o‘ziga xos usullarini qo‘llashga oliyu keladi. Ayrim o‘qituvchilar bolalar javob barishlari paytida diqqatni ko‘proq darslik mazmunini bayon qilish ko‘nikmasiga qaratadi; boshqalari bolalardan mustaqil fikr bildirishni talab etadi; boshqasi uchun esa o‘quvchi nazariy qoidani misollar keltirib tushuntirib berish ko‘nikmasi muhim; ayrim o‘qituvchilar doim to‘liq javob berishni talab etsa, boshqalari – faqat qisqacha javobni ma’qul ko‘rishadi. Bunday farq o‘qituvchida muayyan odatiy tashxizlash va baholash tizimi shakllanishiga olib keladi. O‘quvchilar, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar ushbu tizimni ifoda etadilar, o‘qituvchining savollari va nazorat uslubiga moslashadilar. So‘rovdagi yutuqlar o‘quvchilar uchun ham yutuqqa aylanadi, tekshirish uslubidagi kamchiliklar esa o‘quvchilarning bilimlarni etarli darajada o‘zlashtirmas-liklariga sabab bo‘ladi. SHuning uchun bilimlarni tashhizlash va baholash usullari trafaret shaklida va bir xil ko‘rinishda bo‘lishi kerak emas. Bunda o‘qituvchi ijodkor va tashabbuskor bo‘lishi zarur.

2-asosiy savolning bayoni:

Kichik yoshdagi o‘quvchilar bilimini tashxiz qilish va baholashning bir necha turlari mavjud: joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat.

Joriy nazorat. O‘qituvchi har bir darsda o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishga tayyorgarligini tekshirib, dars davomida bolalar o‘quv materiali mazmunini qanday o‘zlashtirayotganligini nazorat qiladi.

Oraliq nazorat. O‘qituvchi chorak o‘quv yili davomida o‘quvchilar fanning biror bir bo‘limi, qismini qay darajada o‘zlashtirganliklarini ora-orada, kamida ikki-uch marotaba tekshirib, fanning usha qismiga yakun yasaydi va boshqa bo‘limga o‘tadi.

Yakuniy nazorat. O‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar o‘quv jarayonining ma’lum bir davrida tekshirib ko‘riladi: bir necha xafta, chorak, yarim yil, bir yil, bir necha yil, maktabda to‘qqiz yoki o‘n bir yil o‘qishi davomida o‘zlashtirgan bilimlariga tashxiz qo‘yiladi.25

Hozirgi kunda bolalarning bilimlarni o‘zlashtirishlari asosan mavzular bo‘yicha tekshiriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchi dars mazmuni yoki alohida topshiriqni emas, balki mavzuni bir butunligicha qanday tushunganligini aniqlashdan iborat. Bunday tekshiruv mavzu bo‘yicha bilimlarni tizimga solish va umumlashtirish imkonini beradi.

Ushbu tekshiruv turlari og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘lishi mumkin. O‘quv materialini o‘zlashtirish sifatini nazorat qilish va tekshirish vositasi - bu o‘qituvchi bergan savollarga bolalarning javoblari, mustqil va amaliy ishlar, maxsus topshiriqlar, og‘zaki yoki yozma ishlar, nazorat va tekshiruv ishlarini bajarish, shuningdek dars jarayonida o‘quvchining faol ishtirok etishi hisoblanadi. Aynan shular orqali ularning bilimlarni o‘zlashtirish sifati haqida xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi.

Darsda o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholashning asosiy shakllariga individual va frontal tekshiruvlar kiradi. Frontal so‘rov o‘tkazganda o‘qituvchi qisqacha javob berishni talab etib, savolni butun bir sinf jamoasiga beradi. Bolalar joylarida turib, oldindan o‘qituvchi bilan kelishgan, o‘tirigan yoki turgan holatda javob beradilar. Bitta savolga bir necha javoblar olgan o‘qituvchi, o‘quvchilarga tizimli o‘quv materialining bir qismini aytib berish uchun imkon beradi. Masalan, o‘quvchilar she’rni har bir satrini novbat bilan davom ettirib, uni ifodali tarzda o‘qib berishlari mumkin. Individual so‘rovda ham savol butun sinf jamoasiga berilib, o‘qituvchi sinf jamoasi diqqatini savolga qaratadi. Savol berilishi bilanoq bolani zudlik bilan javob berishga undash kerak

24 Рыжков В.Н. Дидактика. – Москва, ЮНИТИ-ДАНА, 2004. – 118-123 стр.

25 Ильина Т.А. Педагогика. – М., 1995. 34-35стр.

emas. Bolalar berilgan savolga qanday javob berishni bir oz o‘ylab ko‘rib, keyin o‘quvchilardan biri savolga javob beradi yoki doskada berilgan topshiriqni bajaradi. Sinfdagi bolalar o‘z o‘rtog‘ining javobini diqqat bilan eshitib, uning javobini to‘ldiradi, xatolarini to‘g‘rilaydi.
Biror bir o‘quvchi javob berayotganda boshqa bolalar e’tiborsiz o‘tirishlariga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Mahoratli o‘qituvchi bitta o‘quvchidan so‘rayotganda, butun bir sinf bilan ishlashi lozim.
O‘quvchilar bilimini oraliq va yakuniy tekshirish jarayonida nazorat ishlari, maxsus og‘zaki va yozma topshiriqlar o‘tkazish qulaylik tug‘diradi. Bolalar oldindan nazorat ishi qabul qilish haqida ogohlantirilmagan bo‘lsalar, qattiq hayajonga tushib qoladilar. Bolalar, eng avvalo, qanday baho olishga e’tibor qaratadilar. Bu to‘g‘ri albatta, zero nazorat bahosiz bo‘lmaydi.
O‘rtacha o‘qiydiganlar bolalar ««ikki» baho olmasam bo‘ldi», a’lochilar esa «xato qilib qo‘ymasam», - deb hayajonga tushadilar. Kichik yoshdagi o‘quvchilar asosiy e’tiborni bahoga berib, o‘ziga xos his-hayajonga cho‘madilar. Baho ular uchun nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirish, balki unga bo‘lgan tengdoshlari, o‘qituvchilar, ota-ona, tanish-bililarining munosabatini ham belgilaydi. SHuning uchun ham o‘qituvchi nazorat ishini mazmun va shakl nuqtai nazardan puxta o‘ylab, tayyorgarlik ko‘rgan holda o‘tkazishi lozim.
Birinchi novbatda, nazorat ishi tushunarli va o‘quvchilar kuchiga mos ekanligiga ishonch hosil etish uchun ularning imkoniyat va rivojlanganlik darajasini yaxshi bilish zarur. Dastlab bolalar diqqatini bir nuqtaga jalb etish va ulardan ortiqcha kuch sarf etish, zuriqishni oldini oluvchi zaruriy gigienik shart-sharoitlarni yuzaga keltirish muhim ahamiyatga ega. Zuriqish yoki nazorat topshirig‘ini bajarishga ruhan tayyor bo‘lmaganlik oqibatida yaxshi o‘zlashtiruvchi kichik yoshdagi o‘quvchi ham diktant yozishdan “qoniqarsiz” baho olib qolishi mumkin.
Barcha nazorat ishlarini o‘qituvchi sinchiklab tekshiradi va baholaydi, natijalar esa sinfda muhokama etiladi. Eng muhimi, ko‘proq uchraydigan xatolarni aniqlash va shunga muvofiq qoidani qaytarishdir.
Yakuniy nazoratda o‘quvchilarning choraklik va o‘quv yili davomida to‘plagan baholari umumlashtirilib o‘rtacha baho chiqariladi. O‘qituvchi baho qo‘yishda o‘tilgan materialni o‘quvchi qay darajada o‘zlashtirganlik sifatini yaxshi bilishi kerak. O‘quvchi uy ishini bajarish esidan chiqib qolganligi uchun “ikki” baho olgan bo‘lishi mumkin. Biroq, u keyingi darsda tayyorgarlik ko‘rib, aybini tikladi, javob berishga tayyor turdi, lekin hech kim undan so‘ramadi. Agar o‘qituvchi qo‘yayotgan bahosining ob’ektivligiga ikkilansa, o‘quvchiga qo‘shimcha savol berishi mumkin.

3-asosiy savolning bayoni:
Rivojlangan davlatlarda o‘quvchilar, talabalar bilimini baholashning bir necha tizim, tur va shakllaridan foydalaniladi. Masalan, oliy ta’limda 100 ballik reyting tizimi, modulli kredit tizimi va boshqalar. Ayniqsa, amerikalik B.Blum ishlab chiqqan o‘quvchilar bilimini baholash taksonomiyasi alohida diqqatga sazovor. U o‘z taksonomiyasida bilimlarni o‘zlashtirishni olti darajaga ajratadi: bilish, tushunish, foydalanish, tahlil qilish, sintez va baholash darajasidagi o‘zlashtirishlar.
O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari bilimlarini baholashning yagona tizimi qabul qilingan bo‘lib, ular yagona davlat dasturlari asosida olib boriladi. Mustaqillikning dastlabki davrida maktab o‘quvchilari bilimini uch ballik baholash tizimi joriy etilib, u kutilgan samarani bermadi. Ota-ona yoki boshqalar qanday baho olding deb so‘rashganda, bola noqulay vaziyatga tushib – «uch», eng katta baho shu, boshqasi yo‘q, der edi. Hozirgi kunda bizning mamlakatimizda o‘quvchilar bilimini baholashning besh ballik tizimi qabul qilingan.
Maktab o‘quvchilari o‘zlashtirgan bilimlarni baholash mezonlari (ko‘rsatkichlari) quyidagicha:
«5» («a’lo») baho – o‘quvchi dastur materialini chuqur va tuliq tushunib etganligi, bilgan qoidalarini mustaqil fikr yuritgan holda tushuntirib bera olganligi, mantiqan to‘g‘ri va adabiy tilda ravon javob berganligi, javob ishonarli va aniq bo‘lganligi, xato qilmaganligi uchun qo‘yiladi.
«4» («yaxshi») baho – o‘quvchi dastur materialini to‘g‘ri va chuqur o‘zlashtirgan, biroq javob mazmuni va uning shaklan tuzilishida noaniqliklar, ayrim xatoliklarga yo‘l qo‘yganligi uchun qo‘yiladi.

«3» («qoniqarli») baho shundan dalolat beradiki, o‘quvchi o‘quv dasturi materialidagi asosiy, muhim qoidalarni biladi, biroq ularni tushuntirib bera olmaydi, bilish mazmuni va javob berishda shaklan ma’lum xatoliklar, noanqlikliklarga yo‘l qo‘yadi.
«2» («qoniqarsiz») baho – o‘quvchining bilimi yo‘qligi uchun emas, o‘quv materialini yomon o‘zlashtirganligi uchun qo‘yiladi. Qoniqarsiz javob shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi dastur materiali bilan tanishgan, biroq asosiy qoidalarni ajrata olmaydi, o‘rgangan narsasi ma’nosini buzib ko‘rsatadigan jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yadi. U o‘qituvchining so‘zi yoki darslikdan eslab qolgan ma’lumotlarni aytadi, biroq uning ongida ular mantiqan qayta ishlab chiqilmagan, ilmiy qoida, dalillar, illyustratsiyalarga asoslangan tizimga solinmagan. Qoidaga ko‘ra, bunday javob o‘quvchining o‘zi va o‘qituvchi uchun ham qoniqarli emas. Bilimlarni bunday o‘zlashtirish darajasi bilan o‘quv dasturi materiallarini o‘rganishni davom ettish va bolani aqliy rivojlantirish mumkin emas.
«1» («juda yomon») baho – o‘quvchi dastur materiali bilan mutlaqo tanish bo‘lmagan taqdirda qo‘yiladi.
1 sinfda olti yoshli bolalarni o‘qitish jarayonida ular bilimini tekshirishning o‘ziga xos jihati shundaki, bolaga ball bilan baho qo‘yilmaydi. Birinchidan, olti yoshli bola ball ma’nosini tushunmasligi yoki unga sub’ektiv talqin berishi mumkin. Ikkinchidan, olti yoshli bolada ijobiy o‘quv motivini shakllantirish va uni qo‘llab-quvvatlash lozim. Bolaning olgan bahosi esa har doim ham bunga to‘g‘ri kelavermaydi.
Olti yoshli bolalar bilimini tekshirish ularni maqtash, rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash, bolada nimalar yaxshi-yu, nimalar yaxshi bo‘lmayotganligini aniq ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi o‘zining maslahatlari bilan bolaga yordam beradi. Muhimi bolada salbiy his-tuyg‘ularni yuzaga keltirmaslik. Olti yoshli bolalar bilan ishlaganda, eng muhimi yaxshi munosabat, uni yaxshi o‘quvchi ekanligi yoki shunday bo‘lishiga ishontirish.
Maktabni tugatish arafasida o‘quvchilar bilimini tekshirish imtihon shaklida o‘tkaziladi: bitiruvchilarga oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish huquqini beruvchi umumiy o‘rta ma’lumot olganligi haqida shahodatnoma beriladi. Alohida ajralib turgan «a’lochi» maktab o‘quvchilariga «Oltin medal» beriladi. Alohida fanlardan yaxshi o‘qigan o‘quvchilar «Maqtov yorliqlari» bilan taqdirlanadilar.

Nazorat savollari
1.Ta’lim olganliknini tashxis etish nima? Uning mohiyati haqida gapirib bering.
2.Ta’limni baholash yoki tekshirishdan tashxisning o’rtasidagi farq nimalarda ko’rinadi?
3.Nazorat va tekshirish tushunchalarini izohlab bering.
4.Tekshirish tizimi qanday bo’g’inlardan tashkil topadi?
5.Nazorat tekshirishdan tashqari o’z ichiga qanday tushunchalarni oladi? Ular haqida ma’lumot bering.
6.O’quvchilarning o’zlashtirish natijalarini hisobga olishda nimalarga e’tibor berish lozim?
7.Ta’lim jarayonida nazorat qilish va hisobga olishning vazifalari nimalardan iborat?
8.Ta’lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillariga ta’rif bering?
9.O’quv faoliyati natijalarini nazorat qilishning qanday turlari mavjud.
10.Nazoratning shakllari haqida ayting
11.O’quvchilar faoliyatini nazorat qilishning qanday metodlarini bilasiz? Ularning har biri haqida ma’lumot bering.
12.Reyting tizimi nima? U qanday afzalliklarga ega?
13£aysi sabablarga ko’ra besh balli baholash mezoni o’zini oqlamadi?
14.O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini baholash mezonlarini tushuntirib bering.

Test topshiriqlari:

1.O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini tekshirish quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

a) bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish;
v) o'qitish, tashkil etish, tizimlash;
s) nazorat qilish, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish;
d) umuminsoniy, gumanistik, demokratik.

2.o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining yakuniy nazorati nima?
a) o'quvchilardan so'rash;
v) yangi bilimlarni mustahkamlash vaqtida so'rash;
s) bo'lim yakuni, chorak oxirida, yarim yil yoki o'quv yili oxirida so'rash;
d) dars yakunida so'rash.

Mustaqil ish topshiriqlari
1. Darsni kuzatish asosida va bolalar bilan suhbatda o'qituvchi qo'ygan bahoning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ahamiyatini tahlil eting. O'quvchilar javobini baholash mativatsiyasi imkoniyatlarini taklif eting.
2. Boshlang'ich sinflarda bolalar bilimini mavzular bo'yicha tekshirish va baholash-ning qanday ahamiyati bor? Maxsus tayyorgarlik ko'rilgan holda kuzatilgan dars tahlilini bering.
3. O'qituvchi bilan suhbat qilish va maktab o'quv xujjatlarini tahlil etish asosida choraklik, yarim o'quv yili, to'liq o'quv yili bo'yicha yakuniy baholash natijalarini asoslab bering.
4. Ba'zi fanlardan bo'sh o'zlashtiruvchi va o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan suhbat qilib, ularning o'z bahosiga munosabatini o'rganing.

7-mavzu: Tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati

Asosiy savollar
1. Tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati
2. Jamoa va uning bola shaxsi tarbiyasiga ta'siri
3. Tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari
4. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va prinsiplari

1-asosiy savolning bayoni:
Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» nomli asarida o'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma'naviyatni shakllantirishning mazmun-mohiyati, uning samarali omillari va vositalari batafsil yoritilgan. Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash mazmuni asosini milliy va umumbashariy qadriyatlar tashkil etib, uni amalga oshirishda xalqimizning boy merosi, samarali vosita va usullaridan foydalanish zarurati mamlakatimizda olib borilayotgan davlat ta'lim-tarbiya siyosatining dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.26
Tarbiya ijtimoiy xayotning uzluksiz tushunchasi bo'lib, u tarixiy xarakterga egadir. Qadimgi Gretsiyada va Rimda tarbiyaning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi fazilatlarga o'rgatish, unda fuqarolik, vatanparvarlik, ja'surlik, sadoqat, do'stlik kabi sifatlarni rivojlantirish bo'lgan.
O'rta asrlarga kelib yosh avlodda diniy e'tiqod, iymon, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish zarurati to'g'ilgan. Markaziy Osiyo xalqlari bu yo'nalishda katta muvafaqqiyatlarga erishgan. Bu davr buyuk mutafakkirlarni dunyoga keltirdi.
Bugungi kunda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadidir. Ijtimoiy munosabatlar ko'lamining kengayishi o'sib kelayotgan avlodni o'ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayoniga har tomonlama etuk etib tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan etuk inson hayotiy

26 И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., «Маънавият», 2008. 114-121 б.

qarama-qarshilik, xususan, turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushib qolish, nosog‘lom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o‘zini saqlab qola oladi. shuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omildir. O‘zbekiston Respublikasida demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabtini bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o‘zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko‘rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxs o‘z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi.

Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta’limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Bu xususida O‘zbekiston Respublikasinig birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni e’tirof etgan edi: «Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o‘z qobiliyatini, o‘z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma’nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir».

Komil insonni shakllanirish masalasi barcha davrlarda ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta’kidlansa, islom ta’limoti g‘oyalariga ko‘ra etuklikning bosh mezoni – ilmlilik, bilimli bo‘lishdir. Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy komil insonni shakllantirish va fozil jamoa (etuk jamiyat)ni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo‘nalishi ekanligiga urg‘u beradi. Allomaning fikrcha, fozil jamiyat komil inson sa’yi-harakati bilan barpo etilishi mumkin.shu bois mamlakatni boshqaruvchi shaxs o‘zida eng oliy insoniy fazilatlarni mujassam eta olishi zarur, deb hisoblaydi. «Aql to‘g‘risidagi» risolasida Abu Nasr Forobiy rahbar shaxs qiyofasida namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan o‘n ikki fazilatni keltirib o‘tadi. Bizning fikrimizcha, mazkur fazilatlar har bir zamonaviy shaxsda o‘z aksini topa olishi kerak, zero, ular inson hayotini mo‘‘tadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatlarni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi. Abu Rayxon Beruniy ham komillikning asosini ilmli bo‘lishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg‘u beradi.27

Allomaning fikricha, axloqiylik, to‘g‘rilik, odillik, tadbirkorlik, o‘zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, adolatli va vijdonli bo‘lish komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo‘lgan eng asosiy sifatlardir. Abu Ali ibn Sino ham kamolotga erishishning birinchi mezon sifatida bilimli bo‘lishni alohida qayd etadi. Bilimli insonning adolatli bo‘lishi esa uning yanada yuksalishini ta’minlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy xotirjamlik)ning muhim ko‘rsatkchi ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o‘rinni egallaydi va o‘z orzusidagi komil inson shaxsini asarlarining qahramonlari timsolida gavdalan-tirishga urinadi. Mutafakkir qarashlarida komil inson quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi borasidagi g‘oya ilgari suriladi: aqlli, axloqli, bilimli, shaxsning jamoada qaror topishi. Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan jamiyat a’zosi bo‘lib, uning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida kechadi. Mazkur jarayonda qatnashish asosida u jamiyat tomonidan tan olingan ma’naviy-axloqiy, shuningdek, huquqiy me’yorlar mohiyatini o‘zlashtiradi. Jamiyatning a’zosi sifatida uning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi mehnat faoliyatini yo‘lga qo‘yadi. SHuningdek, shaxsiy ehtiyojlari, manfaatlarini qondirish yo‘lida ham atrofdagilar bilan munosabatga kirishadi. Shaxs ijtimoiy muhitdan uzilgan holda mavjud bo‘la olmaydi. Buning misoli sifatida R.Kipling tomonidan yaratilgan asardagi Mauglini keltirish mumkin. Garchi, inson bolasi bo‘lsada, ijtimoiy

27 Ҳошимов К. ва бошқ. Педагогика тарихи (педагогика олий ўқув юртлари ва талаба-лари учун ўқув қўлланма. – Т., «Ўқитувчи», 1996. 138-167 б.

munosabatlar jarayonida ishtirok etish ko‘nikma va malakalari shakllanmaganligi bois odamlar hayotiga moslasha olmaydi. Bola yoshligidan o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit bolaga borliqni anglash uchungina emas, balki o‘zligini anglash uchun ham imkoniyat yaratadi.

2-asosiy savolning bayoni:

Bolaning doimiy ravishda jamoa orasida bo‘lishi, uning jamoa ta’sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi. Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni va roliga alohida e’tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi.

Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o‘zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashi uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta’sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo‘lgan mikro muhit xususiyatini inobatga olishni ta’kidlaydi. Bolani yomon ta’sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi. SHuningdek, alloma o‘qitish samaradorligini ta’minlashda bolalarga jamoa asosida bilimlarni berishni maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi. Abu Nasr Forobiyning uqtirishcha, inson boshqalar bilan munosabatda bo‘lish, ularning yordami va qo‘llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo‘lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga etaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayxon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o‘zaro yordam, jamoa haqida tushuncha.

Jamoa (lotincha «kollektivus» so‘zining tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a’zo (kishi)lardan iboratdir. Ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Kishlarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o‘quv yurti jamoasi, xo‘jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi.

Chunonchi, o‘quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi. Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash – tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning etakchi rol o‘yinashi to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta’minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo‘lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi. O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir. Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari o‘z ifodasini topadi.28

Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo‘lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o‘zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi. SHu bois jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g‘oyaviy xususiyat kasb etishi uning etakchi belgisi sanaladi. Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mavjud bo‘ladi. Muayyan jamoaning har bir a’zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o‘z jaomasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoa a’zolarini intilishlarini tushunish, jamoa oldiga qo‘yilgan maqsad mohiyatini chuqur his etish hamda uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni va rolini to‘g‘ri baholay olish jamoa a’zolarining umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsad, qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatlari o‘rtasidagi birlikni namoyon etadi hamda jamoaning bo‘linishga yo‘l qo‘ymaydi. Har bir jamoa o‘z-o‘zini boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog‘lanadi.

Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g‘oyaviy yo‘nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o‘z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir. Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar

28 Иванов И.П. Воспитатель коллективистов. – М., Педагогика, 1992. 76-87 стр.

guruhining yagona ijtimoiy tizimini o‘rnata olishdagi usuli, ya’ni, jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblandi. Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko‘rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan tashkiliy jihatlari ko‘zda tutiladi.

Mazkur jihat bir tomondan jamoa a’zolari o‘rtasida yuzaga kelganishchanlik munosabati mazmunini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi shaxslar tomonidan jamoa a’zolarining xatti-harakatlari va intilishlarini muvofiqlashtirish yo‘lida tashkil etilayotgan boshqaruv faoliyati mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a’zolari o‘rtasidagi shaxslararo ma’naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim a’zolar o‘rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a’zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o‘rinni egallaydi. O‘quvchining jamoadagi o‘rni uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo‘lganda, jamoaning rasmiy etakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko‘zga ko‘ringan o‘rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo‘la oladi. SHuningdek, norasmiy guruhlar (mikroguruhlar) umumjamoa ijtimoiy manfatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo‘lgandagina jamoa o‘zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin. Bolalar jamoasining shakllanish bosqichlari. Jamoaning vujudga kelish uchun to‘rt bosqich zarur.29 Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o‘qituvchi butun guruh oldiga talab qo‘yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e’tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari jamoa a’zolari oldiga ma’lum talablarni qo‘yadi.

Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har bir a’zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So‘nggi (to‘rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a’zosi o‘z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo‘yish layoqatiga ega bo‘ladi. Ushbu jarayon mohiyatini quyidagicha bayon etish mumkin. Jamoaga qo‘yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkiliy ko‘rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, jamoa a’zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ular o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik, shuningdek, ularning xulq-atvori axloqiy kamolot darajalarini ko‘rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonining mohiyatini inobatga olish zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, zero, jamoaning shakllanishi muayyan chegara yoki oraliqqa ega emas shunga qaramay o‘qituvchilik nuqtai nazardan jamoaning shakllanishini muayyan bosqichlarga ajratish juda muhimdir. Bolalar jamoasini ma’lum rivojlanish bosqichlarga ajratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Endilikda o‘qituvchi jamoada paydo bo‘lgan va u bilan bog‘liq muammo, masalalarni yolg‘iz o‘zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya’ni, jamoa o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tadi.

3-asosiy savolning bayoni:

Mustaqillik sharofati bilan erkinlikka erishdik, boy ma’naviy qadriyat va an’analarimiz qayta tiklandi. Hammamiz azaldan orzu qilgan kunlarga etishdik. O‘zbekistonning ertangi kuni, ravnaqi, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishi albatta o‘sib kelayotgan barkamol yosh avlodga bog‘liq. Buning uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida zamonaviy bilimlar berish, ularni har tomonlama ma’naviy-axloqiy etuk shaxs etib tarbiyalash ustivor masalalar qatoriga kirdi.

29 Иванов И.П. Воспитатель коллективистов. – М., Педагогика, 1992. 69-86 стр.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning bir qancha asarlari, «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa manbalarda yoshlarni har tamonlama etuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalash vazifalari aniq belgilab berilgan.

Bugungi kunda tarbiyaning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol inson etib shakllantirishdan iborat. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi.

Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda SHarq mutafakkirlarining meroslari dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Al-Farobiy, A.Yassaviy, B.Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Firdavsiy, A.Temur, A. Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli bir necha mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, pedagogik, axloqiy qarashlariga tayanib ish ko'rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

Yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish - bizning muqaddas burchimiz, or-nomusimiz. Lekin, barkamol insonni tarbiyalab etishtirish oddiy, oson ish emas. U ko'plab, oylab, yillab mehnat qilishni, sabr-toqatni, chidam va qat'iyatlilikni, irodani talab etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning yoshlar tarbiyasi, ta'lim-tarbiya sohasida qabul qilgan qarorlarida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etib, Respublikamiz istiqbolini belgilovchi yoshlarni har tomonlama etuk, barkamol shaxs, raqobatbardosh kadr etib tayyorlash oliy maqsad qilib qo'yilgan. Bunday shaxs oilada, maktabda va boshqa ta'lim tizimi jabhalarida ta'lim-tarbiya oladi.

Tarbiyaning oliy maqsadiga erishish uchun ma'lum vazifalarni bajarishimiz lozim bo'ladi. Bu vazifalarni esa tarbiyaning tarkibiy qismlari deb atash ham mumkin: milliy-mafkuraviy, g'oyaviy, xuquqiy, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy tarbiya. Tarbiyaning har bir tarkibiy qismi oliy maqsadga xizmat qilishi bilan bir qatorda o'z mazmuni va vazifalariga ega. Mana shular tarbiya mazmunini tashkil etadi.30

Milliy-mafkuraviy tarbiya - o'quvchilarda milliy istiqlol g'oyasiga, umumbashariy va milliy qadriyatlarga sodoqat, vatanparvarlik his-to'yg'ularini shakllantirishga qaratilgan jarayondir.

Xuquqiy tarbiya - o'z haq-xuquqlarini biladigan, ularni himoya qila oladigan, mustaqil fikrlaydigan, siyosat va inson xuquqini chuqur biladigan, konstitutsiya qonunlariga amal qiladigan, o'z fuqarolik burchlarini yaxshi his etadigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Aqliy tarbiya – barkamol inson tarbiyasining etakchi tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg'ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglilik hislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Axloqiy tarbiya. Axloq- ijtmoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insonning jamiyatga, mehnatga, boshqalarga va o'z-o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi hulq-odob qonun-qoidalari, me'yorlari majmuidir. Ana shu xulq-odob qonun-qoidalarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan ta'sirga axloqiy tarbiya deyiladi.

Musulmon axloqining asoslari mazmunan boy va rang-barang ko'rinishlarda o'zligini namoyon etadi. Markaziy Osiyo xalqlari axloqshunoslik sohasida eng boy tajribaga egadirlar. Qur'oni karim va Hadisu shariflardagi axloqqa oid ibratli ko'rsatmalar, maslahatlar, ota-bobolarimiz yaratgan ma'naviy meroslar, mutafakkirlarimizning axloq haqidagi yaratgan ma'naviy meroslari bugunga qadar ham uz qadr qimmatini yo'qotgani yo'q. Axloqiy tarbiya eng muhim insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan jarayondir.

Mehnat tarbiyasi. Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbai, umur mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad avvalo mehnatning mohiyatiga, mazmuniga teran nigoh tashlamoq, muayyan xulosa chiqarishga o'rgatishdan iborat. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan ayniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Dono xalqimiz, allomalarimiz mehnat haqida juda ko'plab fikrlar aytishgan. Haqiqatda ham mehnatsevarlik doimo ulug'langan, dangasalik, mehnatsiz boylik orttirish qoralangan. Mehnat

30 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – М., «Владос», 2007. 98-116 стр.

muhtojlikdan, bekorchilikdan, yurak siqilishdan, axloqiy buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o‘zini, o‘z qadrini biladi, uni el-yurt ulug‘laydi.
Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh vazifalaridan biri ham yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ularni aniq bir kasb-hunar egasi qilib tarbiyalashdan iboratdir.
Estetik tarbiya. Estetika lotincha «Ectetikos», ya’ni «his etaman» degan ma’noni bildiradi. Aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va boshqa tarbiyalarni estetik his-tuyg‘usiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Estetik tarbiyaning maqsadi - o‘quvchilarni tabiat, jamiyat va san’atdagi go‘zalliklarni idrok etish, ularni to‘g‘ri tushunib etish, qadriga etish, hayotga qayta go‘zalliklar olib kira olishga o‘rgatishdan iboratdir. Maktabda tasviriy san’at, musiqa, adabiyot, tabiatshunoslik darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalari hisoblanadi. Biz nafaqat narsa va xodisalar, balki insoniy xulq-atvor, fazilatlarni ham estetik jihatdan baholashimiz mumkin. Insoniy go‘zallik aql, burch, iymon, insof, kamtarlik, latofat, lafz, mehmondo‘stlik, mehr, muloyimlik, poklik, yaxshilik va hakozo sifatlarni o‘zida namoyon qiladi.
Estetik tarbiya go‘zallikdan zavqlanishga, xuniklikdan nafratlanishga, kulgilikdan kulishga, fojealikdan istirobga tushishga o‘rgatadi. Bu holatlarni kishi hayot va san’at voqealiqlarida uchratishi mumkin.
Iqtisodiy tarbiya. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatlarni kamol toptirishdir.
Iqtisodiy tarbiya maktabda asosan tabiiy-matematik fanlar asosida beriladi. Unda o‘quvchilar ishlab chiqarishning turli sohalari, bozor, oila byudjeti, iqtisodiy geografiya, marketing kabi ko‘plab zamonaviy tushunchalar bilan qurollanadilar.
Ekologik tarbiya. «Ekologiya» - yunoncha so‘z bo‘lib, tirik mavjudodlarining yashash sharoiti, uyi, joyi va tevarak-atrofdagi muhit bilan o‘zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o‘rganadigan fandir. Barkamol insonning muhim fazilatlaridan biri uning ekologik madaniyatidir. Ekologik madaniyatga ega shaxs barcha tirik mavjudodlarning yashash sharoiti, muhiti qonun-qoidalarini puxta biladi, tabiat muvozanatini saqlashga hissa qo‘shadi, u atrof-muhitga nisbatan beparvo bo‘lmaydi, aksincha uni yaxshilashga, sog‘lomlashtirishga xarakat qiladi.
Jismoniy tarbiya. Barkamol inson nafaqat ma’naviy jihatdan, balki jismoniy jihatdan ham etuk bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya barkamol inson tarbiyasining yana bir tarkibiy qismidir. Jismoniy tarbiya yosh avlodni jismoniy jihatdan sog‘lom o‘sishlarini, baquvvat bo‘lishlarini va vatanimiz himoyasi uchun qo‘rqmas, jasur, harbiy ilmlar, qurol aslohatlardan foydalanishni biladigan qilib tarbiyalashni o‘zining oliy maqsadi deb biladi.
O‘quvchilarga jismoniy tarbiya maktabda harakatli o‘yinlar, gimnastika, sport, turizm hamda sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg‘ulotlari turlari vositasida beriladi.
Yuqorida qayd etilgan tarbiyaning tarkibiy qismlari o‘z vazifalarini bajarishga qaratilganligi bilan bir qatorda, oliy maqsadga, ya’ni barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular bir-birlari bilan chamabarchas bog‘liq holda amalga oshirilib, o‘quvchi yoshlarni har tomonlama tarbiyalashga qaratiladi.

4-asosiy savolning bayoni:
Ijtimoiy ehtiyojlar tarbiya jarayonining xarakteri, uning vazifalari, mazmuni, usullari va vositalarini qonuniy ravishda aniqlab beradi. Tarbiyashunoslik fanidagi qonun va qonuniyatlar ijtimoiy qonuniyatlarga to‘la mos bo‘ladi. CHunki, ijtimoiy qonuniyatlar jamiyatning taraqqiyotini, unda insonning tutgan o‘rnini, qanday faoliyat bilan shug‘ullanishini, yashashdan aniq maqsad bo‘lish kerakligini belgilaydi.
Tarbiya jarayoning mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki xodisa va munosabatlarni aks ettiradi.
Qonuniyat - barqaror, zaruriy, u yoki bu xodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqadir. Tarbiyaning asosiy qonuniyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:
- tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlarga bo‘linishi natijalarga olib keladi;

- tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga quyiladigan talablar shu qoidalarda o‘z ifodasini topadi.

Tarbiya qonuniyatlari birinchi navbatda jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘zbekiston milliy istiqlolga erishgandan keyin tarbiyaning jamiyat oldidagi mohiyati o‘zgardi. Eski jamiyatning mafkurasiga asoslangan tarbiya yo‘nalishi o‘zgarib, yangi barpo bulayotgan tuzumga mos mutaxassis kadrlar tayyorlash zarurati paydo bo‘ldi. Jamiyatimizda tarbiyaning butun yo‘nalishi shu ehtiyojdan kelib chiqqan xolda o‘zgardi. Ijtimoiy ehtiyoj ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etdi. shunga asosan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi. Ularda ijtimoiy ehtiyoj hisobga olingan holda, tarbiya qonuniyatlariga amal qilish hal etilgan.

Tarbiyaning yana bir qonuniyati uning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllarining uzviy bog‘liqligidir. Yoshlarga beriladigan tarbiya avvalo aniq maqsadga yunaltirilgan, shu maqsadni ruyobga chiqarishda tarbiyaning mazmuni, usullari va shakllari bir-birini to‘ldirishi, takomillashtirishi kerak.31

Pedagog olimlar tarbiyaning hayot bilan bog‘liqligi, bolaning yoshi, o‘ziga xos xususiyatlari, hatto jinsiy tafovutini hisobga olish ham qonun hisoblanadi deb sanaydilar. Ko‘pchilik manbaalarda bu xususiyatlar tarbiyaning prinsipi sifatida qaraladi. Tarbiya prinsiplari qonunlar bilan bog‘langan, ularning mantiqiy davomi shaklida e’tiborga olinib, tarbiya berish jarayonida amal qilinadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, tarbiya prinsiplari tarbiya qonuniyatlarining amalda tadbiq etilishi, mantiqiy davomi, aksi sifatida namoyon bo‘lishi deb hisoblash mumkin. CHunki, tarbiya qonuniyatlariga ham, prinsiplariga ham tarbiya jarayonida amal qilinadi. Tarbiya qonuniyatlari va prinsinlariga alohida e’tibor bergan holda ish ko‘rilganda tarbiyalanuvchilar barkamol shaxsga aylanadi. SHuning uchun ham tarbiya prinsiplarini chuqur ilmiy asoslash bilan birga ularni hayotga tadbiq etish o‘qituvchilar-tarbiyachilar, ota-onalar va jamoatchilikning doimiy e’tiborida bo‘lishi kerak.

Pedagogika fanida turli olimlar tomonidan tarbiya prinsiplari xar hil izohlanib kelingan. Hozirgi paytda tarbiyaning quyidagi prinsiplariga amal qilish tavsiya etiladi:

tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi;

tarbiyada insonparvarlik va demokratik prinsip;

tarbiyaning hayot, amaliyot bilan bog‘liqligi prinsipi;

tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;

tarbiyada o‘quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;

izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta’sirlarning birligi va uzluksizligi;

bola shaxsini tarbiyalashda hurmat va talab birligi prinsipi;

mustaqillik, xavaskorlik va tashabbuskorlikni o‘stirish prinsipi.32

Tarbiyaning maqsadga qaratilganligi prinsipi: tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilgandigi prinsipi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko‘ra bilishga yordam beradi.

Tarbiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad ma’naviy etuk, aqliy va axloqiy barkamol shaxsni, komil insonni shakllantirishdan iboratdir. shunga ko‘ra tarbiya mazmuni, shakli, usullari shu maqsadga qaratilgandir. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o‘ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga mo‘ljallanadi, g‘oyaviy-siyosiy darajasini ko‘taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratik prinsipi: tarbiyaviy faoliyatni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra uni qayta tafakkur etishni ko‘zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o‘zligini anglash huquqini ta’minlaydi.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bolaning o‘ziga xosligini hurmat qilish, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratlashtirish esa uni ma’muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo‘yish, tarbiyachi va

31 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – М., «Владос», 2007. 26-59 стр.

32 Уша жойда. 98-126 стр.

tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o‘zgartirish demakdir.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi prinsipi: ma’naviy qadriyatlar va g‘oyalar har xil millatga mansub o‘quvchilarni birlashtiradi, o‘quv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi. O‘zbek halqining madaniy merosini o‘rganishda va rivojlantirishda milliy o‘ziga xosligi, ma’naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogikasi an’analariga suyangan holda ish ko‘riladi

Tarbiyada izchillik, tizimlilik- tarbiyaviy ta’sir-larning uyg‘unligi va uzluksizligi prinsipi: tarbiyada izchillik muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga birdaniga juda ko‘p qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Bu borada izchillikka amal qilish lozim. Tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish tarbiyaning pirovard natijasiga yunaltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunda pedagogik maqsad va vazifalar uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy ta’sirdagi tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholinining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak. Tarbiyaviy ta’sirda izchillik va davomiylik bo‘lishiga rioya etish, o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini tarbiya usullari va shakllarini o‘z vaqtida aniqlab olish juda muximdir. Bu qoida tarbiyaviy ishlar, hamda tarbiyani amalga oshiradigan barcha bug‘inlarining hamjihat va bamaslahat ish ko‘rishini ko‘zda tutish kerak.

Tarbiyada o‘quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish prinsipi: tarbiya murakkab jarayon bo‘lib, pedagog bu jarayonda har bir o‘quvchining nafaqat yoshi, balki uning shaxsiy xususiyatlariga ham e’tibor qaratishi joiz. Bu borada pedagog o‘quvchini tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmasligi kerak. Pedagogdan o‘quvchi bilan muloqatga kirishishdan oldin uning biologik, fiziologik, psixik rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishni talab qiladi.

Bola shaxsini hurmat qilish va talabchanlik prinsipi: bola shaxsi hurmat qilinsagina u pedagogik ta’sir o‘tkazishga ochiq va moyil bo‘ladi. O‘qituvchini o‘ziga qabul qiladi. O‘qituvchiga nisbatan mehr uyg‘onadi. Undagi bor yaxshi fazilatlarni o‘zlashtiradi va bilim olish samarasi oshadi. Natijada komil inson bo‘lib tarbiyalanishiga zamin yaratadi. Bu borada pedagog o‘quvchini hurmat qilibgina qolmay, talabchan bo‘lishi ham lozim. Talabchanlik o‘quvchilarda tartiblilik, o‘z ishini rejalashtira olish, umumiy vazifa ichidan o‘ziga tegishlisini ajratib olish, ma’suliyatlilik, har ishning me’yorini bilish, ko‘zlagan maqsadga erishish uchun kurasha olish kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

Mustaqillik, havaskorlik va tashabbuskorlikni o‘stirish prinsipi: o‘quvchilarda yoshlikdan mustaqil fikrlash, mustaqil faoliyat ko‘rsata olishni shakllantirish lozim. shunga ko‘ra har bir o‘quvchining qiziqishi va intilishini qo‘llab quvvatlash lozim, ularni o‘zlari qiziqqan kasb-hunarni egallashlariga to‘g‘ri yo‘naltirish lozim. «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bu xaqda batafsil bayon qilingan. Jumladan, «Kamolot», «Umid» singari jamg‘armalar yoshlarda tashabbuskorlik, havaskorlik mustaqillik kabi hislatlarni rag‘batlantirishda, qo‘llab quvvatlashda o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya jarayonining mohiyati nimada?
2. Tarbiya jarayoni mazmuni nimalarini o‘z ichiga oladi?
3. Jamoa nima?
4. Jamoaning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
5. O‘quvchilar jamoasini shakllantirishning asosiy bosqichlarini ta’riflang.
6. Jamoani tashkil etish metodikasi qanday?
7. Jamoa an’analari deganda nimani tushunasiz?
8. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari haqida o‘z fikr-mulohazalaringizni ayting.
9. Tarbiya jarayoni tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
10. Tarbiya jarayoni prinsiplarini tasniflang.

Test topshiriqlari:

1.Ta'lim oluvchilarni fan asoslariga oid bilimlar tizimi bilan qurollantirish ijtimoiy tarbiyaning qaysi yo'nalishi asosida amalga oshiriladi?

a) axloqiy tarbiya;
v) jismoniy tarbiya;
s) aqliy tarbiya;
d) mehnat tarbiyasi;
e) estetik tarbiya.

2.Qaysi javob variantida tarbiya jarayonining xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan?

a) dialektik jarayon;
v) texnologik jarayon;
s) gnostik jarayon;
d) diagnostik jarayon;
e) aniq maqsadga yo'naltirilgan, ko'p qirrali, uzoq muddatli, yaxlit tizimli, ikki tomonlama aloqa, qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

3.Tarbiya nima?

a) shaxsga kasbiy bilimlar berish jarayoni;
v) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat jarayoni;
s) shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi, tarixiy-ijtimoiy tajribaga suyangan holda olib boriluvchi faoliyat jarayoni;
d) bola tarbiyasiga nisbatan texnologik yondashuvni ifoda etuvchi qarash;
e) barcha javoblar to'g'ri.

4.Tarbiya qonuniyatlari qaysi javob variantida to'g'ri ko'rsatilgan?

a) dialektik jarayon;
v) ko'p qirrali, uzoq muddatli, uzluksiz, yaxlit tizimli, ikki tomonlama aloqa, qarama-qarshiliklardan iborat jarayon;
s) dinamik jarayon;
d) texnologik jarayon;
e) ijtimoiy munosabatlar jarayoni.

UMUMIY PEDAGOGIKA FANIDAN SEMINAR MASHG'ULOTI MATERIALLARI

I. UMUMIY QOIDALAR

"Umumiy pedagogika" fanini chuqur o'zlashtirishda seminar mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Seminar mashg'ulot – o'quv materialini jamoa bo'lib o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Shuningdek, amaliy mashg'ulot – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini fanning ishchi o'quv dasturida ko'zda tutilgan hajmdagi amaliy mashg'ulot soatlarida talaba tomonidan fan o'qituvchisining bevosita rahbarligi asosida auditoriyada o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Seminar mashg'ulotning asosiy maqsadi pedagog-xodimning rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini auditoriya sharoitida bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdir. Seminar mashg'ulotga talaba darsliklar, o'quv adabiyotlari, gazeta va jurnallar, radio va televideniye, elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalari, Internet resurslari, ZiyoNET materiallari va fanning o'quv-uslubiy majmualaridan foydalangan holda tayyorgarlik ko'rib kelishi nazarda tutiladi.

1-Seminar mashg'uloti.
Mavzu: Pedagogikaning umumiy asoslari.
Reja:

1. Pedagogika fanining maqsad vazifalari va boshqa fanlar bilan bog`liqligi.
2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari
3. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, taqdimot materiallari, pedagogika darsligi va o‘quv qo‘llanmalari, test varaqalari, daftar konspekt.

O`quv mashg`ulotining maqsadi: Pedagogikaning umumiy asoslari haqida umumiy tushuncha berish pedagogika faning vazifalari, asosiy kategoriyalari pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi pedagogikaning fanlar tizmi, pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari haqida ma`lumot berish.
**O`quv faoliyatining natijalari:** o`quv predmeti haqida umumiy tushunchalarga ega bo`ladilar va asosiy adabiyotlar bilan tanishadilar. «Umumiy pedagogika» fanining maqsad va vazifalarining mazmun-mohiyatini ochib beradi, umumiy pedagogika faniga mehr qo`yadilar shu bilan birga talabalarda qiziqish uyg`onadi. Umumiy pedagogika fanining maqsad va vazifalari haqida ma`lumot beradi, va pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini, izohlab beradi.

Mavzu yuzasidan savollar:
1.Metod tushunchasining mohiyatini ochib bering.
2.Ilmiy-tadqiqot metodlarining fan taraqqiyotidagi ahamiyatini tahlil qiling.
3.Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining ta`lim va tarbiya metodlaridan farqini ajratib bering.
4.Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning maqsad-vazifalaridan kelib chiqqan holda qo’llaniladigan metodlar tizimini so’zlab bering.
5.O’quvchi shaxsini o’rganish uchun so’rovnoma (anketa) tayyorlang va uni o’z maktabingizda to’ldirib natijalarini umumlashtiring.

Taqdimotni baholash mezonlari:
1.Talabaning mimikasi va pontomimikasiga -1
2. Mantiqan bog`langanligi va izchilligi, nutqning ravonligi – 2
3. Ko`rgazmalilik va reglament - 2
4. Jami: eng yuqori baho: 5 ball
Mavzuga oid muammolar:
1.O’zbekiston milliy istiqlolga erishgandan keyin 1992 yil iyul oyida birinchi «Ta`lim to’g’risida»gi qonun qabul qilindi. Bu qonun 1997 yilga kelib talabga javob bermay qoldi. Nima sababdan qonun shunchalik tez «eskirdi»? Uzoq muddatga mo’ljallab ishlab chiqilsa bo’lmasmidi?.
2.1997 yil avgustida «Ta`lim to’g’risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Qonun bilan birga «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham ishlab chiqildi. Bu ikki hujjatni ishlab chiqilishida qanday ma`no bor. Sizningcha bu hujjatlar O’zbekistonda ta`lim taraqqiyotiga qanday ta`sir ko’rsatadi, pedagogika rivojigachi?
3.Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash milliy modeli ishlab chiqilgan. Unda - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta`lim, fan va ishlab chiqarish uzviy bog’liqlikda faoliyat yuritishi qayd etilgan. Milliy modelning bu 5 komponentlari orasidagi bog’lanishni izohlang. Chizma holiga keltiring. Agar ahamiyatiga ko’ra qayta joylashtiring deyilsa qanday tartibda joylashtirgan bo’lar edingiz?.
4.«Ta`lim to’g’risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yanada samarali bo’lishi uchun ta`lim sohasida qanday o’zgarishlar qilishni ma`qullagan bo’lar edingiz?
Mustaqil ish topshiriqlari:
1. Turli ijtimoiy davrlarda ta`lim-tarbiya mazmuni qanday bo’lganini tavsiflang.
2. Pedagogika fanining obyekti va predmetiga aniqlik kiriting.
3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalaridagi uzviy aloqadorlikni asoslab bering.
4. Pedagogikaning turli tarmoqlariga tavsif bering.
5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullarini ta`lim-tarbiya jarayonida qo’llab ko’ring.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:
1.Pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari ta'lim -tarbiya tushuncha beradi.
2.Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi haqida buyuk alomalarining ilmiy asarlari izoh beradi.
3.Pedagogikaning asosiy tushunchalari ma`lumot, ta`lim, tarbiya, rivojlanish haqida tushuncha beradi.
4.Pedagogika fan ilmiy-nazariy asosi shu metod hisobladi.
5.Pedagogika fanining tizimi va boshqa fanlar bilan aloqasi haqida tushuncha beradi.
6.Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari orqali tushuncha beradi.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:
1Milliy va umuminsoniy tarbiya texnologiyasining ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish.
2.Oila pedagogikasining ilmiy va nazariy asoslarini ishlab chiqish.
3.Pedagogika fanining rivojiga hissa qo'shgan sharq allomalarining ta`limotlarini ilmiy tahlil etish.
4.Talabalarda pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishning ilmiy asoslarini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T., «sharq», 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. tuzuvchilar: Qurbonov sh., Axlitdinov R. – T., «sharq», 1999.
3. Pedagogika. o'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahriri ostida. – T., «O'qituvchi», 1996.

2- Seminar mashg'uloti .
Mavzu:Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.
Reja:
1. "Individ" va "shaxs" tushunchasi.
2. Shaxs rivohlanishiga ta'sir etuvchi omillar
3. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, taqdimot materiallari, pedagogika darsligi va o'quv qo'llanmalari, test varaqalari, daftar konspekt.

O`quv mashg`ulotining maqsadi: Shaxsning rivojlanishi haqida tushuncha,individ shaxs,individuallik barkamol shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar, shaxs rivojlanishida faoliyatning o'rni. Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini talabalar ongiga yetkazish, har bir omilning o`ziga xos ahamiyatini uqtirish, o`z kamolotida qaysi omilning ta'siri kuchli ekanligini aniqlash.
O`quv faoliyatining natijalari: o`quv predmeti haqida umumiy tushunchalarga ega bo`ladilar nazariy olgan bilimlarini ifodalaydilar amaliyotda qollay olish ko'nikmasiga ega boladilar va asosiy adabiyotlar bilan tanishadilar. «O`quvchi shaxsi tarbiyaning ob`ekti va sub`ekti ekanligi haqida» ma`lumotga ega bo`ladilar, o`zlarini qiziqtirgan mavzuga oid muammoli savollarni o`rtaga tashlaydilar va talabalar bilan savolning echimini topishga harakat qiladilar.

Mavzu yuzasidan savollar:
1. Shaxs kamolotining omili nimalar hisoblanadi?
2. Ta'lim va tarbiyani shaxs kamolotining omili sifatida izohlab bering.
3. Shaxs kamolotining asosiy omillariga nimalar kiradi?
4. Tashqi qiyofa, qon aylanishi, oliy nerv faoliyati qaysi omil ta'sirida shakllanadi?
5. Til o`rganishda, urf-odatlarni egallashda qaysi omilning ta'siri kuchli bo`ladi?

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:
Shaxs shakllanishiga ta`sir etuvchi omillarni mukammal o`rganish o`quvchilarda qaysi omillar ustunligini aniqlab ularning salbiy xislatlarini bartaraf etish yutuqlarini yuksaltirish metodikasini ishlab chiqish.

3- Seminar mashg'uloti .

Mavzu:O'zbekiston Respublikasining kadrlarlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati
Reja:

1. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi, ularning dolzarbligi.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mazmun-mohiyati.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mantiqiy davomi sifatida.
4. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun mazmuniga kiritilayotgan o'zgartirishlar.

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, taqdimot materiallari, pedagogika darsligi va o'quv qo'llanmalari, test varaqalari, daftar konspekt.
Tayanch tushuncha va iboralar: «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uzluksiz ta'lim tizimi, ta'lim turlari, ijtimoiy himoyalash, ta'lim standartlari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, huquqiy maqom, atestatsiya, akkreditatsiya, nodavlat ta'lim muassasasi, bakalavriat, magistratura, aspirantura, doktarantura, davlat granti, respublika byudjeti, mahalliy byudjet, byudjetdan tashqari jamg'arma, ta'limni taraqqiy ettirish fondi, milliy uzluksiz ta'lim modeli komponentlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish; umumiy va o'rta ta'lim, intellektual rivojlanish, dissertatsiya, fan nomzodi, fan doktori, malaka oshirish, monitoring, tashkilot, moliyalash, yaxlit axborot makoni, axborot texnologiyasi, marketing va boshqalar.

O`quv mashg`ulotining maqsadi:
O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'grisidagi qonun va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalar haqida umumiy tushuncha berish O'zbekiston Respublikasining kadrlarlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyatini nazariy olgan bilimlari asosida mukammal o'zlashtirish topshirig'ini beradi
O`quv faoliyatining natijalari: o`quv predmeti haqida umumiy tushunchalarga ega bo`ladilar va asosiy adabiyotlar bilan tanishadilar. "Ta'lim to'g'risidagi","Kadrlar tayyorlash milliy dasturining" maqsad va vazifalarini, mazmun-mohiyatini ochib beradi, pedagoglik kasbiga mehr qo`yadilar shu bilan birga talabalarda qiziqish uyg`onadi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli uning mohiyati haqida ma`lumot beradi, va ta'lim to'risidagi qonunlarni izohlab beradi.
mavzuga oid muammoli savollarni o`rtaga tashlaydilar va talabalar bilan savolning echimini topishga harakat qiladilar

1-savol bayoni:
O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin 1992 yilning iyul oyida «Ta'lim to'g'risida»gi birinchi qonun qabul qilindi. «Ta'lim to'g'risida»gi birinchi qonun kutilgan natijani bermadi. Umumta'lim maktabi majburiy 9 yillik bo'lganligi bois, ko'pchilik yoshlar shu bilan chegaralanib qoldi. Shuning uchun ham **1997 yilning 29 avgustida «Ta'lim to'g'risida»giyangi qonun** qabul qilindi. Ushbu qonunning uzviy davomi sifatida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ham ishlab chiqildi.
Uzluksiz ta'limning kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibiga quyidagi komponentlar kiritildi: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish. Ushbu komponentlar bir-biribilan o'zaro bog'liq bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Respublikamizning birinchi va ikkinchi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlaridagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash, ularni asoslash

lozim. Milliy modelning beshta komponentlari orasidagi uzviy bog‘liqlik aniq maqsadga qaratilgan. Uni chizma holiga keltirib, tahlil etish maqsadga muvofiq.

2-savol bayoni:

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning mazmun-mohiyati. Ushbu qonun 5 ta bob, 34 ta moddadan iborat.

1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat G’ 13.01.00.00 Ta’lim G’ 13.01.01.00 Umumiy qoidalar]
[TSZ:
1.Ijtimoiy-madaniy masalalar G’ Ta’lim]

I.bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi

Ushbu qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilgan.

2-modda. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ta’lim sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hujjatlaridagidan o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

Ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilinadi.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

Ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

Ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

Umumiy o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

Ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

Davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

Ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

Bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish;

Ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

4-modda. Bilim olish huquqi

Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat’i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

Davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirish;

Ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta’lim olishni tashkil etish;

Ta’lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o‘qitish, shuningdek ta’lim muassasalarida shartnoma asosida to‘lov evaziga kasb-hunar o‘rgatish;

Barcha turdagi ta’lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o‘quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo‘lishi;

Oilada yoki o‘zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta’minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O‘zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilim olishda O‘zbekiston **Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.**

5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi

Tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o‘quv yurtlariga ishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi tasdiqlagan nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.
Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta’lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

6-modda. Ta’lim muassasasining huquqiy maqomi

Ta’lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.
Ta’lim muassasasi yuridik shaxs bo‘lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta’lim muassasasi O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.
Ta’lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko‘rsatadi.
Ta’lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.
Ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya majmuilariga hamda o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.
Ta’lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug‘ullanishga haqli.

7-modda. Davlat ta’lim standartlari

Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.
Davlat ta’lim standartlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

8-modda. Ta’lim berish tili

Ta’lim muassasalarida ta’lim berish tilidan foydalanish tartibi davlat tili haqidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

II. bob. Ta’lim tizimi va turlari

9-modda. Ta’lim tizimi

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
Davlat standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;
Ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
Ta’lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.
O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir.

10-modda. Ta’lim turlari

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:
maktabgacha ta’lim;
umumiy o‘rta ta’lim;
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
oliy ta’lim;
oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
maktabdan tashqari ta’lim.

11-modda. Maktabgacha ta’lim

Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va etuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta’lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulk shaklidan qat’i nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi.

12-modda. Umumiy o‘rta ta’lim

umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari quyidagicha:

boshlang‘ich ta’lim (1-4 sinflar);
umumiy o‘rta ta’lim (1-9 sinflar).
Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshidan qabul qilinadi.
Umumiy o‘rta ta’lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.
Bolalarning qobiliyati, iste’dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

13-modda. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim olish maqsadida har kim umumiy o‘rta ta’lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishning yo‘nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.
Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo‘yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta’limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo‘ladigan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi.
Akademik litsey o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydigan uch yillik o‘rta maxsus o‘quv yurtidir.
Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta’minlaydigan uch yillik o‘rta kasb-hunar o‘quv yurtidir.

14-modda. Oliy ta’lim

Oliy ta’lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minladi.
Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o‘quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta’lim muassasalarida) o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi asosida amalga oshiriladi.
Oliy ta’lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.
Bakalavriat oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha puxta bilim beradigan, o‘qish muddati kamida to‘rt yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir.
Magistratura aniq mutaxassislik bo‘yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.
Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

15-modda. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgandir. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, mustaqil izlanuvchilik) olinishi mumkin.
Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy daraja va ilmiy unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta’minlaydi.
Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Maktabdan tashqari ta’lim

Bolalar va o‘smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalariga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, san’at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog‘lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.
Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi.

18-modda. Oiladagi ta’lim va mustaqil ravishda ta’lim olish

Davlat oilada ta’lim olishga va mustaqil ravishda ta’lim olishga ko‘maklashadi. Bolalarni oilada o‘qitish va mustaqil ravishda ta’lim olish tegishli ta’lim muassasalarining dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Ta’lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo‘sinda yordam ko‘rsatiladi.

19-modda. Ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlar

Akkreditatsiya qilingan ta’lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi.
Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat oilada ta’lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta’lim muassasalarining tegishli ta’lim dasturlari bo‘yicha ekstern tartibida imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi, davlat ta’lim muassasalarida o‘qitilishi shart bo‘lgan va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi tomonidan belgilab qo‘yiladigan mutaxassisliklar bundan mustasno.
Oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplomga o‘zlashtirilgan fanlar ro‘yxati, ularning hajmlari va fanlarga qo‘yilgan baholar yozilgan varaqa ilova qilinadi.
Dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.
Davlat ta’lim standartlariga mos kelgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o‘zaro tan olinishi mumkin.
Tegishli bosqichdagi ta’limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma’lumotnoma beriladi.
Davlat tasdiqlagan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta’lim muassasalarida ta’lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisoslik bo‘yicha ishlash huquqini beradi.

III. bob. Ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish

20-modda. Ta’lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish

Ta’lim muassasasida ta’lim oluvchilar qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta’minlanadi.

21-modda. Ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish

Ta’lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to‘lanadigan yillik uzaytirilgan ta’tillar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.
Ta’lim muassasalari ish haqiga mo‘ljallangan mavjud mablag‘lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to‘lash va uni rag‘batlantirishning turli shakllarini qo‘llashga haqli.

22-modda. Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish

Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish va ularni boqish davlatning to‘la ta’minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

23-modda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o‘smirlarni ushbu ta’lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy-

pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining o‘quvchilari qisman yoki to‘la davlat ta’minotida bo‘ladi.

24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo‘lgan shaxslar uchun o‘quv-tarbiya muassasalari

Alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o‘qishga muhtoj bo‘lgan bolalar va o‘spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta’minlaydigan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tash muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta’lim olishi va mustaqil bilim olishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

IV. bob. Ta’lim tizimini boshqarish

25-modda. O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

-ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

-ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;

-ta’limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-ta’lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;

-ta’lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilash;

-boshqa davlatlarning ta’lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasining hududida ta’lim faoliyati -bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

-qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarini tan olish va hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;

-davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash;

-davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;

-davlat grantlari miqdori va ta’lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;

-davlat oliy ta’lim muassasasining rektorlarini tayinlash;

-ta’lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish tartibini belgilash;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

26-modda. Ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi

Ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

-ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish;

-ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;

-davlat ta’lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo‘lgan talablar bajarilishini ta’minlash;

-o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish;

-o‘quv va o‘quv-uslubiyat adabiyotlarini nashr etishni tashkil qilish;

-ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

-davlat oliy ta’lim muassasasining rektorini tayinlash to‘g‘risida vazirlar mahkamasiga takliflar kiritish;

-pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:
ta’lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta’minlaydilar;
ta’lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo‘lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro‘yxatga oladilar;
o‘z hududlaridagi ta’lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar;
ta’lim sifati va darajasiga, shuningdek pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo‘lgan davlat talablariga rioya etilishini ta’minlaydilar;
qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

28-modda. Ta’lim muassasasini boshqarish

Ta’lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.
Ta’lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

29-modda. Ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar

Ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi.
Nodavlat ta’lim muassasalari ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq to‘xtatib qo‘yishga haqli.
Nodavlat ta’lim muassasalariga qabul davlat o‘quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

V. bob. YAkunlovchi xulosalar

30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari

Voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishlari uchun javobgardirlar.

31-modda. Ta’limni moliyalash

Davlat ta’lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag‘lari, shuningdek byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

32-modda. Ta’limni rivojlantirish fondlari

Ta’limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

33-modda. Xalqaro hamkorlik

Ta’lim muassasalari ta’lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o‘quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o‘rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo‘shma o‘quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

34-modda. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.
O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng jamiyat taraqqiyotida qonun ustuvorligiga alohida e’tibor bera boshlandi. Demokratiya va insonparvarlik tamoyillariga har tomonlama mos bo‘lgan konstitutsiya ishlab chiqildi va qabul qilindi. **Unga suyangan holda 1997 yilning 29-avgustda Oliy majlisning IX sessiyasida «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.**
Bu hujjatlar bir qaraganda mamlakatimizda ma’orif ishlarini tartibga solish, ma’lum bir muddat davomida uning rivojlanishini ta’minlash maqsadiga qaratilgandek tuyuladi. Aslida esa ularning mohiyatiga chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, ma’rifiy maqsad va vazifalar kiritilgan bo‘lib, yaqin kelajakda O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining o‘ziga xos modeli ishlab chiqilgan.

Mazkur qonunlarning hayotga tatbiq etilishi xalq xo‘jaligining barcha sohalarini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi. Chunki bu qonunlar jamiyatning har bir a’zosiga qobiliyati, qiziqish va intilishlariga mos bo‘lgan ta’lim-tarbiya berish, shaxsiy sifatlarni to‘la tarkib toptirish hamda namoyon etish imkonini yaratadi. Uzluksiz ta’lim tizimi barcha kishilarga mos bo‘lgan ta’limni olishi, kasb egallashi, uni takomillashtirib borishlariga to‘la sharoit yaratishga mo‘ljallangan.

3-savol bayoni:
Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning uzviy davomi bo‘lib, mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni amalga oshirishning uchta asosiy bosqichi belgilab berilgan: 1997-2001, 2001-2005, 2005 va undan keyingi yillar. Dasturda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Biroq, unda ko‘zda tutilgan vazifalar amalda o‘z echimini to‘liq topdi, deb bo‘lmaydi. Uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishning birinchi bosqichi (1997-2001 y.y.) ta’lim muassasalarida moddiy-texnik bazani yaratishga qaratilgan edi. Umumta’lim maktablari qayta ta’mirlash , kopital rekonstruksiya , ko‘plab AL va KHK lari qurilishi kerak edi.
Bu masalalar deyarli to‘liq hal etildi. Biroq, maktabgacha ta’lim muassasalarining ahvoli mutloqo talabga javob bermay qoldi. Milliy dasturni amalga oshirishning ikkinchi, sifat bosqichi (2001-2005 y.y.)da quyidagi vazifalar ko‘zda tutilgan edi: ta’lim mazmunini tubdan yangilash (DTS, O‘R, FD, darslik va o‘quv qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratish), zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish, tabaqalashtirilgan ta’limni joriy etish va h.k. Ikkinchi bosqichda ham anchagina yutuqlar qo‘lga kiritildi. Milliy dasturning uchunchi bosqichi (2005 va undan keyingi yillar) ta’lim sohasida erishilgan yutuqlarni tanqidiy tahlil etish va unga o‘zgartirishlar kiritishga qaratilgan edi. O‘tgan davr moboynida o‘zliksiz ta’lim tizimida yutuqlar bilan bir qatorda turli xil muammolar ham yuzaga keldi.
Shunga ko‘ra, Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev uzliksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, undagi kamchiliklarni tugatish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qildi. Bular: 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 sonli hamda 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261 sonli qarorlaridir. Bundan tashqari o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini qayta ko‘rib chiqish, ularga ob’ektiv ehtiyojlardan kelib chiqib o‘zgartirishlar kiritishga doir farmon va qarorlar ham qabul qilindi.
Ayniqsa, Respublikamizda kasb-hunar kollejlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, ular sonini ob’ektiv ehtiyojlardan kelib chiqqan holda qisqartirish, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 11 yillik o‘qish muddatlarini qayta tiklashga doir qarorlari xalqimiz uchun ayni mudao bo‘ldi.

Mavzu yuzasidan savollar.
1. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturii qachon va qaerda qabul qilindi?
2. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi qanday ahamiyatga ega?
3. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari va ularni amalga oshirish bosqichlarini ochib bering.
4. Bugungi kunda «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunga qanday o‘zgartirishlar kiritilmoqda?

4-Seminar mashg’uloti.
Mavzu: Didaktika – ta’lim nazariyasi
Reja:
1. Ta’lim qonuniyatlari va tamoyillari haqida tushuncha
2. Ta’lim o’zi amal qiladigan shart-sharoitga bog’liqligi
3.O’qituvchi va o’quvchi faoliyatinig bog’liqligi.
4. Davlat ta’lim standarti, o’quv rejasi, dasturi, darsliklar va qo’llanmalari.

5.Zamonaviy didaktikada ta’lim metodlari. Og’zaki, ko`rgazmali va amaliy metodlar va ta`lim vositalari
6..Ta’lim turlari va ta’limni tashkil etish shakillari.
7.Dars ta’limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida

O`quv mashg`ulotining maqsadi: Ta’lim qonuniyatlari va ta’moyillari , Ta’lim qonuniyatlari va tamoyillarining shakillanishi tarixi .Ta’lim tamoyillari,ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari haqida umumiy tushuncha berish Talabalarga maktabda ta`lim jarayoni va mazmuni haqida dars mashg’ulotida qanday tamoyil va uni mukammal o’rganishga qiziqish uyg’otadi.

**O`quv faoliyatining natijalari:** o`quv predmeti haqida umumiy tushunchalarga ega bo`ladilar va asosiy adabiyotlar bilan tanishadilar. Maktabda ta`limning mazmuni haqida ma`lumotga ega bo`ladi.
Maktabda ta`limni tashkil etishda ta`lim qonuniyatlari, ta`lim mazmuni, ta`lim metodlari va vositalaridan unumli foydalanishga bo`lgan munosabat shakllanadi.

Mavzu yuzasidan savollar:
1.O’quv reja va o’quv dasturning o’xshashlik taraflari bormi? Uni tahlil qiling izohlang.
2. Ta`lim mazmunida aks etayotgan hujjatlarni sanab o’ting. Ularning bir-biriga bog’liqlik tomonlarini va farqlarini tahlil qiling.
3. Ta`lim metodlari bilan tarbiya metodlarini birma-bir ayting.
4. Ta`lim metodlarini siz qanday ta`riflaysiz? O’z ta`rifingizni izohlang?

Nazorat savollari:
1.O’quv dasturi qanday hujjatga asoslanib ishlab chiqiladi?
2.Darslik yaratuvchilar oldiga qo’yiladigan talablar necha xil?
3.Maktabda o’quv reja, o’quv dastur va darslikning mohiyatini izohlang.
4.Maktabda o’quv reja, o’quv dastur va darslikning mohiyatini taqqoslang.
5.Maktabda o’quv reja, o’quv dastur va darslikning mohiyatini asoslang.
6.Dars turlarini tahlil qiling.
7.Har bir darsning tarkibiy qismlarini o’rganib chiqing. Ular o’rtasidagi bog’liqlikni bayon qiling.
8.Dars bosqichlarini izohlang.
9.Har bir bosqich keyingisidan nimasi bilan farq qilishini ifodalab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:
1.Mutaxassislik fanidan o’quv reja, ishchi dastur tuzing.
2.Darslik va o’quv qo’llanmaga qo’yiladigan talablarni aniqlang.
3.Ta`lim metodlarini o’rganib amaliy tajribangizda sinab ko’ring.
4.Ta`lim metodlarining shaxs kamolotidagi o’rnini izohlang.
5.Ta`lim metodlarining turlarini ilmiy asoslagan olimlarning ilmiy ishlarini o’rganing.

Mavzu bo’yicha ilmiy xulosalar:
1Maktabda ta`limning mazmuni haqida tushunchani namunali dastur beradi.
2.Ta`lim mazmunini aks ettiruvchi davlat hujjatlariga o’quv reja, dastur, darslik kiradi.
3.Ta`limni tashkil etishning shakllari haqida tushunchani talabalarga o`rgatish .
4.Dars va unga qo’yiladigan talablarni bilish.
5.Dars turlari va tarkibiy qismlarini aniqlash

Mavzu bo’yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:
1.Maktabda ta`limning mazmuni milliy va umuminsoniy tarbiya texnologiyasining ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish.

2.Ta`lim mazmunini aks ettiruvchi pedagogika fanining rivojiga hissa qo'shgan sharq allomalarining ta`limotlarini ilmiy tahlil etish.
3. Ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishning ilmiy asoslarini yaratish.
4.Ta`limni noan`anaviy tashkil etish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish.
5.Darsni tashkil qilishda pedagogik texnologiyalarning o'rnini ko'rsatib berish.
6.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilishning tizimini va loyihasini ishlab chiqish, afzalliklarini aniqlash.

5-Seminar mashg'uloti.
Mavzu: Ta'lim jarayoni yahlit tizm sifatida.Ta'lim tamoyillari.

Reja:
1.Ta'lim jarayoni haqida tushuncha .
2. Ta'lim qonuniyatlari haqida tushuncha
3.Ta'lim tamoyillariga amal qilish haqida tushuncha

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, elektron taqdimot, ma'ruza konspekti, test varaqalari, daftar, marker, darslik va o‘quv qo‘llanmalari.

Umumiy tushunchalar:
O‘quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiy va xususiy tarzda ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko‘ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy, amal qilinishiga ko‘ra faqat alohida tarkibiy qismlarga taaluqli bo‘lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb ataladi. Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlarning ko‘plab soni ma'lumdir. Ularga didaktik, gnosologik, psixologik, kibernetik, sotsiologik, tashkiliy qonuniyatlar kiradi.
Ta'lim tamoyillari o‘quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga ko‘ra tashkil etiluvchi ta'lim jarayonining tashkiliy shakl va metodlari, asosiy qoidalari mohiyatini belgilovchi mazmundir. Ta'lim tamoyillarida ta'limning aniq tarixiy tajribaga asoslanuvchi me'yoriy asoslari va qoidalari o‘z ifodasini topgan.
Pedagogikaning didaktika nazariyasi qismida ta'lim tamoyillari tushunchasiga – o‘qituvchining faoliyatini va o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun-qoida, yo‘l-yo‘riqlaridir, deb qaraladi.
Har bir o‘qituvchi shuni anglab etishi muhimki, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagogik qonun-qoidalar, didaktik qoidalardan ijodiy foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Ta'lim jarayonini tashkil etishda qo‘yidagi ta'lim tamoyillariga amal qilish lozim:
- ta'limning ilmiy bo‘lish qoidasi;
- ta'limning tizimli, izchil, uzviy bo‘lish qoidasi;
- ta'limning tarbiyaviylik harakteri;
- ta'limning hayot va amaliyot bilan bog‘liqlik qoidasi;
- ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi;
- ta'limda ko‘rsatmalilik qoidasi;
- ta'lim jarayonida o‘quvchilarning yoshi va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish qoidasi;
- ta'limda ilmiy bilim va ko‘nikma, malakalarni puxta, mustaxkam o‘zlashtirish qoidasi.

Nazorat savollari:
1. Ta'lim qonuniyatlarini ta'riflang
2. Didaktika nazariyasini tushuntiring
3. Har bir ta'lim tamoyillari mazmunini yoriting

TMI topshirig‘i: uzluksiz ta'lim tizimida davlat siyosatining ustuvor prinsiplarini o‘rganish, ta'lim jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan bosh qoida, tamoyillarni chuurroq tahlil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T., «sharq», 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. tuzuvchilar: Qurbonov sh., Axlitdinov R. – T., «sharq», 1999.
3. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. A.Munavvarov tahriri ostida. –T., O‘qituvchi, 1996.
4.R.Movlonova.Umumiy pedagogika - Fan va texnologiya Toshkent- 2018.

6-Seminar mashg’uloti.
Mavzu: Zamonaviy maktab o’qituvchisining vazifalari.

Reja :
1Pedagoglik kasbi, uning paydo bo’lishi va ravnaq topishi.
2.Sharq mutafakkirlari va G’arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o’rni haqida.
3.O’qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo’yiladigan talablar.

Kerakli jihoz va materiallar: Prezidentning ta’lim sohasi bo‘yicha qabul qilgan qarorlari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, pedagogika darsligi va o‘quv qo‘llanmalari, daftar konspekt, elektron taqdimot va mavzuga doir boshqa zaruriy qurollar.

Umumiy tushunchalar:
Pedagoglik kasbi, uning paydo bo’lishi va ravnaq topishi. Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog’liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o’zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o’simliklarning ildizi kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o’rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug’)ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo’lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma’lumotlarni berib, ularda amaliy ko’nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o’zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo’lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo’lishi, shuningdek, urug’ jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg’or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.
Turli tabiiy ofatlar ta’siridan himoyalanish, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun etarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo’lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma’lum mehnat faoliyati yo’nalishida etarlicha bilimga ega bo’lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko’rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o’rgatuvchi kishilar guruhi shakllandi hamda bolalarga ma’lum yo’nalishlar bo’yicha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.
Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda) paydo bo’lib, ularda bolalarga ma’muriy-xo’jalik boshqaruvi asoslari o’rgatilgan.
Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar.
Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so’zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o’z shogirdlariga ma’ruzalar o’qigan bo’lib, keyinchalik ta’lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.
Jamiyatning tabaqalanishi natijasida, quldorlik tuzumida bolalarni ta’lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular «pedagog» deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma’nosi «bola etaklovchi» demakdir.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar.
Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan.
O'rta asrlar davrida, Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular «Donishmandlar uyi» (IX asr, Bag'dod), «Ma'mun akademiyasi» (XI ar boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo'nalishlari bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo'lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan.
O'rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk, turli sohalar bo'yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari – Ali Qushchi, Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim berganlar.
XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy etuk inson sifatida ham nom qozondilar.
Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida. Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan.
Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.
Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvafaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:
1.bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
2.berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
3.ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
4.talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
5.fanga qiziqtira olishi;
6.berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
7.bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
8.har bir so'zning boalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish1.
Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga

1 Rahimov S. Abu Ali ibn Sino, Ta'lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O`qituvchi, 1967. – 75-bet.
2 Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O`n besh tomlik. 13 tom. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. –189-190-betlar.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O`n besh tomlik. 13 tom. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 192-193-betlar.
4.Koshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi G`G`Pedagogika oliy oquv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun qo`ll. - Toshkent, O`qituvchi, 1996, - 301-bet.

urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko’rgazmasa va olg’irlik uchun gap-so’z va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo’lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o’rin bo’lmasa. ... Yaramasliklardan qo’rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o’zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo’lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo’lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir»2.

Ayni o’rinda o’qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta’kidlab o’tadi: «Uning ishi odam qo’lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to’da bolaga ilm va adab o’rgatadi, ko’rkim bunga nima etsin.

Shunisi ham borki, u to’dada fahm-farosati ozlar bo’ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo’ladi. Har qanday bo’lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko’pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo’lida kim senga bir harf o’qitmish ranj ila,
Aylamak bo’lmas ado oning haqin yuz ganj ila»1.

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o’z asarlarida o’qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o’rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog’lom bo’lib o’sishida ota-onalar o’ziga xos rol o’ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o’qituvchining o’rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta’kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog’liqdur»2, - deydi.

Yan Amos Komenskiy o’z davrida o’qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o’qituvchilik «er yuzidagi har qanday kasbdan ko’ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, pedagog o’z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o’z qadr-qimmatini to’la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o’qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarning namoyon bo’lishi maqsadga muvofiqligiga urg’u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o’z ishini sevuvchi, o’quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg’otuvchi, o’quvchilarni o’z ortida ergashtiruvchi va diniy e’tiqod.

K.D.Ushinskiy o’qituvchi ma’naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomilashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to’g’risidagi fikrni ilgari suradi. Mazkur g’oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o’qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

O’qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo’yiladigan talablar. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g’oyalarini amaliyotga tadbiq etish Respublika ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash, ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o’qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog’liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo’lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O’zbekiston Respublikasida o’qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo’ymoqda. Chunonchi, bu borada O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi – ustoz bo’lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o’stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy

vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak»1.
Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?
O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.
O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.
Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi-bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarini ifodalaydi):
1.O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.
2.Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.
3.O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.
4.O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.
5.O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.
6.O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.
7.O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.
8.O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:
a) nutqning to'g'riligi;
b) nutqning aniqligi;
v) nutqning ifodaviyligi;
g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;
d) nutqning ravonligi;
j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).
1.O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi lozim.
2. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

1 Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – Toshkent, Sharq nashriyoti-manbaa konserni Bosh taxririyati, 1993, 27-28-bet.

O’qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o’zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to’g’ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O’quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to’la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so’zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o’quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e’tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o’qituvchining so’zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylik, do’stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko’tarinki kayfiyatda bo’lishi zarur.

O’qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o’quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o’rtasida obro’-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

Pedagogik mahoratni egallash yo’llari. O’qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o’rnak bo’lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, etuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o’zining munosib hissasini qo’shishi zarur.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo’llay olish qobiliyati bo’lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo’lish, ilg’or texnologiyalarni o’zlashtirish asosida tarkib topadi. Yosh, shuningdek, ta’lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo’lgan o’qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo’lishlari o’zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo’lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta’minlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1.Mustaqil o’qib-o’rganish (pedagogika fanida ro’y berayotgan yangiliklar haqida ma’lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma’lumotlar, shuningdek, ilg’or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g’oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

2.Hamkasb tajribali o’qituvchilar faoliyatini o’rganish (ta’lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt, shuningdek, iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o’qituvchilar faoliyatini o’rganish ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg’ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3.Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurs (institut)larida kasbiy malakalarini oshirish.

4.Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferentsiya hamda seminarlar, pedagogik o’qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.

5Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning etakchi ta’lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o’rganish (stajirovka).

Ayni vaqtda, respublikada, «Ustoz» jamg’armasining homiyligida ta’lim muassasalarining o’qituvchilar rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bo’lib, ularning ta’lim tizimi va ish tajribalarni o’rganmoqdalar.

Pedagogik mahoratni egallashda, guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o’zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to’g’riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni barataraf etish yo’llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo’lish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash garovi bo’libgina qolmay, ayni vaqtda o’qituvchining jamoadagi obro’-e’tiborini ham oshiradi, o’quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo’lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo’l qo’yilgan yoki qo’yilayotgan xatolardan holi bo’lish, o’quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O’z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy va boshqalar o’z asarlarida o’qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o’qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo’lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o’zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo’lmagan shaxs ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo’lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari negizini bolani tushuna olish, unga insbatan insonparvar munosabatda bo’lish, vaziyatni to’g’ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo’lgan ziddiyatlarni o’z vaqtida bartaraf etish, pedagogik faoliyatning haqligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o’quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g’oyalarning hayot mavjudligini ta’minlashda qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida O’zbekiston Respublikasida malakali (mahoratli) o’qituvchilarni qo’llab-quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mahoratli o’qituvchilarni aniqlash maqsadida turli ko’rik, tanlovlar tashkil etilmoqda. Xususan, «Yil o’qituvchisi» Respublika ko’rik-tanlovi ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o’qituvchilarga pedagogik mahoratlarini individaul ravishda namoyish etish imkoniyatini berayotgan bo’lsa, «Yil maktabi» Respublika ko’rik-tanlovi o’qituvchilarga jamoa asosida ta’lim muassasasida qo’lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga ko’rsata olishlari uchun sharoit yaratmoqda.

Shuningdek, respublika miqyosida, pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo’lga kirita olgan o’qituvchilar ta’lim sohasida nufuzli sanaluvchi davlat mukofoti – O’zbekiston Respublikasi Xalq o’qituvchisi ko’krak nishoniga sazovor bo’lmoqdalar.

Xulosa o’rnida shuni qayd etish joizki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O’zbekiston respublikasida, ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohalar mazmunini o’zida aks ettirgan muhim yuridik hujjat bo’lib, istiqbol uchun yo’llanmadir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da, alohida ta’kidlangan milliy model O’zbekiston Respublikasining milliy-hududiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ilg’or fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan kadr (mutaxassis) – komil inson va etuk mutaxassis qiyofasini o’zida to’laqonli aks ettiruvchi namunadir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g’oyalarining amaliyotga tadbiq etilishi O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayoti uchun muhim sanalgan bir qator holatlarning qaror topishiga olib keladi.

O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g’oyalarini amalga oshirish jarayonida o’qituvchi kadrlar muhim rol o’ynaydilar. Komil inson va etuk malakali mutaxassis1 maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o’qituvchilarning o’rni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma’naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo’la olishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari

1.Pedagoglik kasbi deganda nimani tushunasiz?
2.Zamonaviy maktab o’qituvchisi qanday bo’lishi kerak?
3. O‘qituvchining ma’naviy qiyofasi qanday bo‘lishi kerak?
4.O‘qituvchining pedagogik kompetentligiga qanday talablar qo‘yiladi?
5.“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 5- moddasini izohlang.
6.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning bosh g’oyasi nimadan iborat?
7Kadrlar tayyorlash milliy modeli nima?
8.Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
9.Uzluksiz ta’lim tizimining mohiyatini yoritib bering.
10.Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim mazmunini izohlab bering.
11Pedagoglik kasbining asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo’ladi?

1 Баркамол авлод орзуси //Тузувчилар Ш.Қурбонов, Ҳ.Саидов, Р.Аҳлиддинов. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти, 1999. – 143-бет.

12O’qituvchi qanday sifatlarga ega bo’lishi zarur?
13.Sizning nazaringizda bugungi kun o’qituvchisiga qanday pedagogik talablar qo’yilmoqda?

Test topshiriqlari:

1.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?

a) uzluksiz ta’lim tizimini yaratish asosida jahon ta’limi darajasiga erishish;
v) ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish o’rtasida integratsiyani yuzaga keltirish;
s) ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish;
d) shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan hamda ishlab chiqarishning o’zaro bog’liqligi va aloqadorligi asosida ta’lim tizimini yuqori bosqichga ko’tarish;
e) milliy pedagogika va jahon ta’limi tajribasiga tayangan holda malakali mutaxassis, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlashda sifat darajasiga erishish.

2.Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?

a) ta’lim muassasasi, pedagoglar jamoasi, Pedagogik Kengash, Xalq ta’limi Vazirligi, Davlat test Markazi;
v) shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish;
s) xalqaro donor tashkilotlar, oliy o’quv yurtlari, umumiy o’rta ta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari;
d) «Ustoz» jamg’armasi, pedagogik xodimlar jamiyati, doimiy harakatdagi seminarlar, metodik birlashmalar, Oliy va o’rta maxsus ta’lim Vazirligi;
e) pedagog xodimlar assotsiatsiyasi, Xalq ta’limi Vazirligi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim Vazirligi., Metodik Kengashlar, xalqaro donor tashkilotlari.

3. «Kadrlarga bo’lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilash, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash» vazifasi kadrlar tayyorlash milliy modelining qaysi tarkibiy qismi tomonidan amalga oshiriladi?

a) shaxs;
v) davlat va jamiyat;
s) uzluksiz ta’lim;
d) fan;
e) ishlab chiqarish.

4. Maktabdan tashqari ta’lim funktsiyasi to’g’ri belgilangan javob variantini toping:

a) tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini berish;
v) madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo’nalishlarda bolalar hamda o’smirlarning ta’limga bo’lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo’sh vaqti va dam olishini tashkil etish;
s) mutaxassisliklar yo’nalishlari bo’yicha fundamental va amaliy bilimlarni berish;
d) bolaning sog’lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlash, unda o’qishga intilish hissini uyg’otish, uni muntazam bilim olishga tayyorlash;
e) barcha javoblar to’g’ri.

TMI topshirig‘i: Prezidentning ta’lim-tarbiya sohasidagi qaror va asarlari, SHarq mutafakkirlari, jahon pedagog olimlarining asarlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarda o‘qituvchi-tarbiyachining shaxsiy sifat va kasbiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish, ularni tahlil etish.

7 –Seminar mashg‘ulot.

Mavzu:Ta’lim metodlari va vositalari

Reja:
1. Ta’lim metodlari haqida ma’lumot
2. Ta’lim vositalari haqida ma’lumot

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, elektron taqdimot materiallari, pedagogika darsligi va o‘quv qo‘llanmalari, daftar konspekt va boshqa zaruriy jihoz, vosita va materiallar.
Umumiy tushunchalar: Ta’lim metodlari – ta’lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta’lim mazmunini o‘zlashtirish yo‘llari ifoda etiladi. O‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi harakatlari xususiyati aks ettiriladi.
Metod bir tomondan ta’lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan boshqari-luvchan o‘qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi. Ta’lim metodlari doimo u yoki bu vositalar yordamida joriy etiladi.
Ta’lim metodlari motivatsiyali, tashkiliy, tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi.
Metod – yo‘l, usul degan ma’nolarni ham anglatadi. Ta’lim metodlari – bu ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyat yo‘llaridar. Pedagogikada ta’lim metodlari o‘z xarakter xususiyatiga ko‘ra 4 ta guruhga ajratiladi: ta’limning og‘zaki (hikoya, suhbat, maktab ma’ruzasi,), ko‘rgazmali (asl holicha ko‘rsatish, tasviriy-ifodaviy metod va h.k.), amaliy (mashq, topshiriq, masala, misol, o‘yinmetodlari va h.k.), muammoli-izlanuvchi (ijodiy, interfaol metodlar: muammoli ta’lim metodlari, aqliy xujm, klaster, BBB, disput, bahs-munozara, baliq skleti kabi) metodlar.
Ta’lim vositalari - ta’lim samaradorligini ta’minlovchi ob’ektiv (darslik, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub’ektiv (o‘qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillardir.
O‘quvchilarning turli xil faoliyat turlari ham ta’lim-tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin: didaktik o‘yin, o‘quv-bilish, aqliy, badiiy, sport, harakatli o‘yinlar va boshqa faoliyat turlari.

Nazorat savollari:
1. Ta’lim metodlari haqida o‘z tushunchangizni bayon qiling.
2. Ta’lim metodlarining shaxs kamolotidagi o‘rnini izohlang.
3. Ta’lim metodlarini xarakter-xususiyatiga qarab guruhlarga tasniflang.
4. Ta’lim metodlarini qanay joriy etish mumkinligini amalda isbotlang.
5. Fanlarni o‘qitishda ta’lim metodlarini namunali qo‘llab ko‘rsating.
6. Ta’lim vositalari va ulardan samarali foydalanish shartlari qanday?

Test topshiriqlari:

1Ta’lim metodlari muammosi qanday tadqiqotga tegishli?
a) fundamental;
v) amaliy;
s) funktsional;
d) sonli.

2.Izohli-tasvirli, reproduktiv, muammoli bayon, evristik, tadqiqotchilik metodlarining asosida nima ajratilib ko’rsatilgan?
a) mazmunning turli ko’rinishlarini egallash xususiyati;
v; funktsiyalari;
s) bilimlar manbai;
d) shaxs faoliyatining tuzilmasi.

3.Binarli (juftli) ta’lim metodlarini asoslangan pedagog nomini ko’rsating.
a) M.I.Maxmutov;
v) M.I.Maxmutov, I.Ya.Lerner;
s) V.G.Bespalko;
d) V.V.Davidov, D.B.Elkonin.

3.Nazariy bilimlarni birmuncha yuqori darajasini shakllantiradi:
a) ma’ruza;
v) namoyish;
s) amaliy;
d) nazorat.

4.Tafakkurni rivojlantirishda samarali sanaluvchi metodni ko’rsating.
a) ma’ruza;
v) munozara;
s) illyustratsiya;
d) davra suhbati.

5.Ko’nikma va malakalarni shakllantirishda asosiy sanaluvchi metod, bu:
a) didaktik o’yin;
v) mashq;
s) namoyish;
d) muammoli.

TMI topshirig‘i: Zamonaviy ta’lim metodlari va vositalari haqidagi manbalarni o‘qing, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash ustida tinimsiz mashqlar qiling.

8-Seminar mashg’uloti.
Mavzu: Ta’limni tashkil etish turlari va shakillari.

Reja:
1. Ta’limni tashkil etish shakillari.
2. Dars turlari va shakllari
3. Dars turlariga qo‘yiladigan didaktik talablar va ularning tuzilishi

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, elektron taqdimot materiallari, pedagogika darsligi va o‘quv qo‘llanmalari, daftar konspekt va boshqa zaruriy jihoz, vosita va materiallar.

Umumiy tushunchalar: Talimni tashkil etishning asosiy shakillari .Dars – ta’lim jarayonining yaxlitligi nuqtai nazaridan ta’limning asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi va unda sinf-dars tizimining asosiy xususiyatlari aks etadi. Unda o‘quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o‘quv ishlarining muntazamligi ta’minlanadi.
Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida, aniq belgilangan vaqt davomida, muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Amaliyot jarayonida darslarning quyidagi turlaridan foydalaniladi: yangi ma’lumot berish, aralash dars, bilimlarni mustahkamlash va takrorlash, umumlashtirish va tizimlashtirish, malaka va ko‘nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash, bilimlarni nazorat qilish va baholash dars turlari.
Har qanday dars didaktik talablarga javob berishi, o‘qituvchi unda ta’lim tamoyillari (aniq maqsadga qaratilganlik, ilmiylik, izchillik, uzviylik, tizimliylik, ta’lim va tarbiya o‘rtasida yaxlitlik, hayot va amaliyot bilan bog‘liqlik, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va h.k.)ga

amal qilishi, o‘quv-me’yoriy xujjatlarga asoslanishi, darsga puxta tayyorgarlik ko‘rishi, AKT va ta’limning ilg‘or usullaridan samarali foydalanish mahoratiga ega bo‘lishi zarur.
Masalan, maktablarimizda eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuzilishda bo‘ladi:
a) yangi bilimlarni bayon qilish;
b) yangi bilimlarni mustahkamlash;
v) yangi bilimlar ustidan mashq qilish;
g) yangi bilimlarga bog‘liq holda uy vazifalarini topshirish.

Nazorat savollari:
1. Dars – ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakli ekanligini asoslang.
2. Ta’limni tashkil etishning asosiy shakl va turlarini sanab o‘ting.
3. Dars qanday funksiyalarni bajaradi?
4. Darsga qanday didaktik talablar qo‘yiladi?
5. O‘qituvchi darsga qanday tayyorgarlik bilan kirishi lozim?
6. Dars qanday tarkibiy qismlardan iborat?
7. Aralash dars turini ta’riflang.
8. YAngi bilim beruvchi dars shakli haqida nimalarni bilasiz?

TMI topshirig‘i: biror bir mavzuda an’anaviy va zamonaviy yondashgan holda dars ishlanmasi tuzing. Tajribali o‘qituvchilar darsini kuzating va tahlil eting.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T., «sharq», 1997.
2. Mavlonova R. Pedagogika. – T., «O‘qituvchi», 2010
3. Pedagogika. o‘quv qo‘llanma. A.Munavvarov tahriri ostida. –T., «O‘qituvchi», 1996.
2.R.Movlonova.Umumiy pedagogika - Fan va texnologiya Toshkent- 2018.

9-Seminar mashg’uloti.
Mavzu: Ta’limni tashxis etish mezonlari

Reja:
1. Kichik yoshdagi o‘quvchilar bilimini tashxizlashning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati.
2. O‘quvchilar bilimini tashxizlash va baholashning tur va shakllari.
3. Maktabda o‘quvchilar bilimini tashxizlash tizimi va baholash mezonlari.

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, elektron taqdimot materiallari, pedagogika darsligi va o‘quv qo‘llanmalari, daftar konspekt va boshqa zaruriy jihoz, vosita va materiallar.
Ta’limning barcha bosqichlarida tekshirish ishlarini olib borish maqsadida tashxizlashning bir necha shakllaridan: nazorat ishlari, kuzatuv, o‘quvchilar bajargan ishlarini tahlil qilish va boshqalardan foydalaniladi.
Bilimlarni tashxizlashning ta’limiy ahamiyati shundaki, o‘quvchi qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lganligi o‘qituvchi va o‘quvchi uchun ham aniq bo‘ladi. O‘quvchilarni baholash bilimlarni o‘zlashtirish sifatini belgilaydi.
Ta’lim natijalarini tashxizlash va baholash, ayniqsa kichik yoshdagi o‘quvchi shaxsi rivojlanishiga katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar olgan bahosiga maktabda o‘qish natijasining asosiy va hal qiluvchi ko‘rsatkichi sifatida qaraydilar.
Bilimlarni tashxiz qilish va baholash bolaning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirib, bilimlarni mantiqiy o‘zlashtirishga yo‘l ochib beradi, o‘quvchilar fikrlash ketma-ketligi, mantiqiy tafakkur qilish usullari, o‘quv materialini o‘zlashtirish yo‘llari bilan tanishadilar.

Bilimni baholashning ob’ektiv jihati o‘quvchi bilimiga o‘qituvchi tomonidan bildirilgan fikr, undagi yutuq va kamchiliklarni tavsiflab berilishidir. Bilimni tekshirishning sub’ektiv jihati o‘quvchining o‘z bilimi, olgan bahosiga nisbatan munosabatidir.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimini tashxizlash ishlarini to‘g‘ri tashkil etish o‘qituvchi oldiga muayyan talablarni qo‘yadi:

1. O‘qituvchi dasturdagi o‘quv materiallarini bolalar tomonidan o‘zlashtirilganlik sifatini tashxiz qiladi va baholaydi.
2. Bilimlarni tekshirish va tashxizlash maktabda barcha o‘quv yillari davomida tizimli va doimiy ravishda olib borilishi shart.
3. O‘zlashtirilgan bilimlarni tashxizlash va baholash o‘quvchilarda aqliy qobiliyatlar-ning rivojlanishi, o‘qishdagi qiyinchiliklarni engib o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lgan axloqiy va irodaviy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar bilimini tashxiz qilish va baholashning bir necha turlari mavjud.

Joriy nazorat. O‘qituvchi har bir darsda o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishga tayyorgarligini tekshirib, dars davomida bolalar o‘quv materiali mazmunini qanday o‘zlashtirayotganligini nazorat qiladi.

Oraliq nazorat. O‘qituvchi chorak o‘quv yili davomida o‘quvchilar fanning biror bir bo‘limi, qismini qay darajada o‘zlashtirganliklarini ora-orada, kamida ikki-uch marotaba tekshirib, fanning usha qismiga yakun yasaydi va boshqa bo‘limga o‘tadi.

Yakuniy nazorat. O‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar o‘quv jarayonining ma’lum bir davrida tekshirib ko‘riladi: bir necha xafta, chorak, yarim yil, bir yil, bir necha yil, maktabda to‘qqiz yoki o‘n bir yil o‘qishi davomida o‘zlashtirgan bilimlariga tashxiz qo‘yiladi.

Hozirgi kunda bolalarning bilimlarni o‘zlashtirishlari asosan mavzular bo‘yicha tekshiriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchi dars mazmuni yoki alohida topshiriqni emas, balki mavzuni bir butunligicha qanday tushunganligini aniqlashdan iborat.

Darsda o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholashning asosiy shakllariga individual va frontal tekshiruvlar kiradi. Frontal so‘rov o‘tkazganda o‘qituvchi qisqacha javob berishni talab etib, savolni butun bir sinf jamoasiga beradi. Individual so‘rovda ham savol butun sinf jamoasiga berilib, o‘qituvchi sinf jamoasi diqqatini savolga qaratadi.

Rivojlangan davlatlarda o‘quvchilar, talabalar bilimini baholashning bir necha tizim, tur va shakllaridan foydalaniladi: 100 ballik reyting tizimi, modulli kredit tizimi va boshqalar. Ayniqsa, amerikalik B.Blum ishlab chiqqan o‘quvchilar bilimini baholash taksonomiyasi alohida diqqatga sazovor: bilish, tushunish, foydalanish, tahlil qilish, sintez va baholash darajasidagi o‘zlashtirishlar.

Hozirgi kunda bizning mamlakatimizda maktab o‘quvchilari bilimini baholashning besh ballik tizimi qabul qilingan.

Maktab o‘quvchilari o‘zlashtirgan bilimlarni baholash mezonlari (ko‘rsatkichlari) quyidagi tartibda ishlab chiqilgan:

«5» («a’lo») baho – o‘quvchi dastur materialini chuqur va tuliq tushunib etganligi, bilgan qoidalarini mustaqil fikr yuritgan holda tushuntirib bera olganligi, mantiqan to‘g‘ri va adabiy tilda ravon javob berganligi, javob ishonarli va aniq bo‘lganligi, xato qilmaganligi uchun qo‘yiladi.

«4» («yaxshi») baho – o‘quvchi dastur materialini to‘g‘ri va chuqur o‘zlashtirgan, biroq javob mazmuni va uning shaklan tuzilishida noaniqliklar, ayrim xatoliklar bo‘lganligi uchun qo‘yiladi.

«3» («qoniqarli») baho shundan dalolat beradiki, o‘quvchi o‘quv dasturi materialidagi asosiy, muhim qoidalarni biladi, biroq ularni tushuntirib bera olmaydi, bilish mazmuni va javob berishda shaklan ma’lum xatoliklar, noanqlikliklarga yo‘l qo‘yadi.

«2» («qoniqarsiz») baho – o‘quvchining bilimi yo‘qligi uchun emas, o‘quv materialini yomon o‘zlashtirganligi uchun qo‘yiladi. Qoniqarsiz javob shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi dastur materiali bilan tanishgan, biroq asosiy qoidalarni ajrata olmaydi, o‘rgangan narsasi ma’nosini buzib ko‘rsatadigan jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yadi. U o‘qituvchining so‘zi yoki darslikdan eslab qolgan ma’lumotlarni aytadi, biroq uning ongida ular mantiqan qayta ishlab chiqilmagan, ilmiy qoida, dalillar, illyustratsiyalarga asoslangan holda tizimga solinmagan. Qoidaga ko‘ra, bunday javob o‘quvchining o‘zi va o‘qituvchi uchun ham qoniqarli emas. Bilimlarni bunday o‘zlashtirish darajasi

bilan o‘quv dasturi materiallarini o‘rganishni davom etish va bolani aqliy rivojlantirish mumkin emas.
«1» («juda yomon») baho – o‘quvchi dastur materiali bilan mutlaqo tanish bo‘lmagan taqdirda qo‘yiladi.

TMI topshiriqlari:
- darslarni kuzatish asosida va o‘qituvchi bolalar bilan suhbatda qo‘ygan bahoning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ahamiyatini tahlil eting. O‘quvchilar javobini baholash mativatsiyasi imkoniyatlarini taklif eting.
- boshlang‘ich sinflarda bolalar bilimini mavzular bo‘yicha tekshirish va baholashning qanday ahamiyati bor? Maxsus tayyorgarlik ko‘rgan holda dars kuzating va uni tahlil eting.
- o‘qituvchi bilan suhbat qilish va maktab o‘quv xujjatlarini tahlil etish asosida choraklik, yarim o‘quv yili, to‘liq o‘quv yili bo‘yicha yakuniy baholash natijalarini asoslab bering.
- ba’zi fanlardan bo‘sh o‘zlashtiruvchi va o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar bilan suhbat qilib, ularning o‘z bahosiga munosabatini o‘rganing.

Nazorat savollari
1. O‘quvchilar bilimini tashxizlashning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatini izohlang.
2. O‘quvchilar bilimini tashxizlashning tur va shakllarini tavsiflang.
3. O‘quvchilar bilimini tashxizlash va baholash tizimlaridan qaysilarini bilasiz?
4. O‘quvchilar bilimini baholash mezonlarini asoslab bering.

10-Seminar mashg’uloti.
Mavzu: Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.

Reja:

1. Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash – milliy tarbiyaning bosh maqsadi
2. Barkamol shaxs tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar.

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, elektron taqdimot materiallari, pedagogika darsligi va o‘quv qo‘llanmalari, daftar konspekt va boshqa zaruriy jihoz, vosita va materiallar.

Umumiy tushunchalar:
Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A. Karimov «Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch» nomli asarida o‘sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma’naviyatni shakllantirishning mazmun-mohiyati, uning samarali omillari va vositalari batafsil yoritilgan.
Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash mazmuni asosini milliy va umumbashariy qadriyatlar tashkil etib, uni amalga oshirishda xalqimizning boy ma’naviy-ma’rifiy, madaniy merosi, samarali vosita va usullaridan foydalanish zarurati mamlakatimizda olib borilayotgan davlat ta’lim-tarbiya siyosatining dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.
O‘sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo‘lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – mafkuraviy-siyosiy, huquqiy, fuqarolik, aqliy, ma’naviy-axloqiy, mehnat, estetik, ekologik, iqtisodiy va jismoniy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo‘llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.
Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida shaxs ongi shakllanib boradi. His-tuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Tabiya jarayoniga ta’rif bering.
2. Yuksak ma’naviyatli shaxs haqidagi tushunchangiz?
3. Barkamol shaxs tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar?
4. Tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiquvchi vazifalarni tavsiflang.
5. Tarbiya jarayonining mohiyati nimada?
6 Tarbiya jarayoni mazmuni nimalarini o‘z ichiga oladi?
7. Jamoaning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
8. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari haqida o‘z fikr-mulohazalaringizni ayting.
9. Tarbiya jarayoni tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
10.Tarbiya jarayoni prinsiplarini tasniflang.

MARUZALAR KURSI
(IV- semester)
3-MODUL. TARBIYA VA UNING TURLARI.

1-mavzu:O’zbekiston respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifalari.

Reja:
1. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni aqliy tarbiyalash
2. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni, uning pedagogik shakl, vosita va usullari
3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish yo‘llari
4. Mehnat tarbisi, uni amalga oshirish shakl, vosita va usullari
5. Jismoniy tarbiya va uni amalga oshirish vositalari.
6. Estetik tarbiyaning mazmuni, uning asosiy vositalari

1-asosiy savolning bayoni:
Ma’lumki, tarbiyaning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol inson etib shakllantirishdan iborat. Barkamol inson o‘zida ma’naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi.
Tarbiyaning oliy maqsadiga erishish uchun ma’lum vazifalarni bajarishimiz lozim bo‘ladi. Bu vazifalarni tarbiyaning tarkibiy qismlari deb atash ham mumkin: milliy-mafkuraviy, g‘oyaviy, xuquqiy, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy va boshqa tarbiyalar. Tarbiyaning har bir tarkibiy qismi oliy maqsadga xizmat qilishi bilan bir qatorda o‘z mazmun va vazifalariga ega. Mana shu vazifalar va ularga qo‘yiladigan talablar tarbiya mazmunini tashkil etadi.33
Dunyoqarash – tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi.

33 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 2007. 47-77 стр.

Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi. SHaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e’tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, mustaqil fikrlovchi, intellektual qobiliyatga ega yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligiga urg‘u berilgan. Yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar bo‘lib etishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Aqliy tarbiya o‘quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi. Aqliy tarbiya jarayonida quyidgi vazifalar hal etiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Bilimlarini muntazam boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish.
5. Bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o‘z fikrini asoslash, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish. Aqliy ta’lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to‘laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi.34

Manbalarning ko‘rsatishcha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo‘lib, quyidagi belgilarga ko‘ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o‘zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko‘nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo‘lgan qziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e’tiqod o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea» - g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya bo‘lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o‘zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ixtirochilik ko‘nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma’lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta’minlaydi. Ilmiy tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi. E’tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi

34 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 2007. 97-113 стр.

ijtimoiy-falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi.

Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi.

Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi.

Uchinchi bosqichda, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo'lish borasidagi qarashlar muhim o'rin egallagan bo'lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omil ekanligiga alohida urg'u beriladi. CHunonchi, «... ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikrcha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning e'tirofcha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixgacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayxon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi» Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqbolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi».

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat-donishmanlik deyildi».

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikrcha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish etakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o‘zlashtirish zarurligini uqtiradi. shuningdek, ilm o‘rganish mashaqqatli yumush bo‘lib, uni o‘rganishda ayrim qiyinchiliklarni engib o‘tishga to‘g‘ri kelishi, bu yo‘lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo‘lish orqaligina mukammal bilimga ega bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi. Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to‘xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, ohiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilch kabi o‘tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur».

2-asosiy savolning bayoni. Fuqarolik tarbiyasi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida voyaga etayotgan fuqarolarni konstitutsiyamizda e’tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsadlar yo‘lida tarbilash davr talabidir. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish – fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi. Jamiyat tomonidan qonunchilik yo‘li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini tahlil qilish uchun mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko‘rinishlar, harakatlar yoki odatlar ma’qullanadi yoki qoralanadi.

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo‘lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob’ekti fuqaro sanaladi. Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxsdir. Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublikdir.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo‘lgan axloqiy va huquqiy me’yorlarga rioya etishga o‘rgatib borish.
2. O‘quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to‘g‘risida ma’lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko‘nikma va malakalar hosil qilish.
3. O‘quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublikamiz Prezidentining sha’ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.
4. O‘quvchilarda xalq o‘tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, ulardan g‘ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.
5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o‘z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga etkazish.
6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e’zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e’tiborini jalb etish.35

O‘quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat konstitutsiyasida ko‘rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma’lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo‘ycha ko‘nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Respublika Bosh qonunida shaxsning quyidagi huquqlari kafolatlanadi: yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, ayblanayotgan shaxs ishining sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilishi, har kim o‘z sha’ni va obro‘siga tahdid qiladigan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanish va turar-joy dahlsizligi, Respublika hududida bir joydan ikki joyga ko‘chish.

O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o‘z vakillri orqali ishtirok etish, qonuniy mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish, kasaba uyushmalarida, siyosiy

35 И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., «Маънавият», 2008. 67-84 б.

partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylash va saylanish, mulkdor bo‘lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, qariganda yoki mehnat qilish layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda ijtimoiy ta’minotdan foydalanish, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi.

O‘quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma’lumot berish, bu xususida o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish ko‘zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo‘ladi.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir:

- fuqarolar konstitutsiya va qonunlarda ko‘zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni, qadr-qimmatini hurmat qilish;
- O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy-madaniy merosini avaylab asrash;
- fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
- qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash;
- O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish.

Yuqorida qayd etilgan burchlarni bajarish O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir.

O‘quvchilarni fuqarolik ruhida, tarbiyalashda davlat ramzlarining ahamiyati.

Davlat ramzlari muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g‘oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuidir. Muayyan davlatning bayrog‘i, gerbi (tamg‘asi) hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuini ifodalaydi. Davlat ramzlari o‘zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy-g‘oyaviy mazmunni ifoda etadi.

Davlat ramzlari (bayroq, gerb)da tasvirlangan ranglar, tasvirlar muayyan xalq, millat o‘tmishi, qadim an’analari, xalqning turmush tarzi, orzu umidlari, maqsadi, hayotiy intilishlarini ifoda etishga xizmat qiladi. Davlat madhiyasida esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi g‘oyalari tarannum etiladi. Davlat ramzlari davlatning mavjudligini ko‘rsatuvchi belgilar sanaladi. Ramzlar – bu shartli belgilar bo‘lib, ular qadim davrlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan.

O‘zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligining e’lon qilinishi ijtimoiy siyosiy mustaqillikni ifoda etuvchi ramzlarni yaratishni taqozo etdi. SHu munosabat bilan 1990 yil 30 martda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi qaror qabul qilindi va bu borada amaliy ishlar boshlab yuborildi. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 10 dekabrda bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi qabul qilindi. Ushbu madhiya mualliflari O‘zbekiston xalq shoiri A. Oripov va taniqli bastakor Mutal Burxonovdir. Milliy qadriyatlar g‘oyalarini o‘rganish asrlar davomida ardoqlanib kelgan an’ana, urf-odat, marosimlar millatni bu qadar jipslashganligi siridan voqif etadi.

Fuqarolik tarbiyasi negizida xalq o‘tmishi, tarixni o‘rganish milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo‘naltirilgan faoliyatga o‘quvchilarni jalb etish ijtimoiy maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan yo‘l sanaladi. O‘quvchilarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg‘usini qaror toptirish, fidoiy, vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalash evaziga ta’minlanadi. YOsh avlodda fuqarolik hissi va e’tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlar va ko‘nikmalarni shakllantirib bo‘lmaydi. Fuqarolik tuyg‘usini qaror toptirish murakkab jarayon.

Bunda dastlab o‘quvchilarga fuqarolikning mohiyati va me’yoriy qoidalar mazmuniga oid bilimlar beriladi. Avvalo, o‘quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushunchalar beriladi, bu xildagi xatti-harakatlarga oid namunalar keltiriladi, so‘ngra faoliyat uyushtiriladi. Ana shu asosida ularda fuqarolik tushunchasi shakllanadi va fuqarolik xulqiy odatlari hosil qilinadi. Badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kinofilm, spektakl g‘oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ‘ib etib borish orqali o‘quvchilar ongiga fuqarolik tushunchalari singdiriladi. Fuqarolik tuyg‘usini bolalarda maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun «Respublika bayrog‘ida nimalar aks ettirilgan?», «Respublika gerbida

nimalar tasvirlangan?», «Humo qushi tasviri qanday ma'noni anglatadi?», «Sen Davlat madhiyasini bilasanmi?» kabi mavzularda suhbatlashish muhimdir. O'quvchiga fuqaro sifatida o'z xulq-atvori mazmunini tahlil etish imkonini berish lozim. ya'ni, «Bugun xalq farovonli, Vatan taraqqiyoti uchun nima qila oldim?», «Zimmamdagi burchni qanday ado etdim?» tarzidagi savollarga javob topishga o'rgatish kerak. Yosh avlodga turli fanlar asoslarini chuqur o'zlashtirish ularning tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga, shuningdek, uqaro sifatida o'z majburiyatlarini to'laqonli anglashlari uchun imkoniyat yaratishini tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Fidoiylik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, qat'iyat, matonat, uyushqoqlik kabi hislatlar o'quvchilarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida tarbiyalanadi.
Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi taqozo etiladi. Bular:
- o'quv yurtida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;
- fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonining muvaffaqiyati o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining saviyasiga bog'liq;
- tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo'lishiga erishish;
- oila, maktab va mahalla o'rtasida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi;
- o'quvchilarning axloqiy va huquqiy me'yorlar, umumiy tartibga qat'iy rioya etishga o'rgatish, zimmasidagi burchni to'laqonli ado etishlariga e'tiborni qaratish.
Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollarga javoblar olish kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi. Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadda diagnostik (tashxis qo'yish), statistik va qiyosiy tahlil tahlilni olib borish lozim.
Ijtimoiy fuqarolik tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaro o'zida quyidagi sifatlarni namoyon eta olishi lozim:
- fuqarolik burchini bajara olish (o'z Vatani, xalqi, ota-onasi oldidagi majburiyatni his eta olish) qobiliyatiga egalik;
- milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish;
- davlat konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti hamda davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya)ga nisbatan hurmatda bo'lish;
- mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mas'ullik;
- ijtimoiy huquqiy hamda axloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo'lish;
- mamlakat milliy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish haqida qayg'urish;
- davlat tili, milliy madaniyat va an'analarga sodiq, ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularni asrash;
- ijtimoiy faollik;
- demokratik tamoyillarga amal qilish;
- tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyatli munosabatda bo'lish;
- fuqarolarning huquq va burchlarini hurmat qilish;
- huquqiy ong va fuqarolik madaniyatiga ega bo'lish;
- to'g'ri so'z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo'lmish;
- o'z faoliyati va xatti-harakatiga nisbatan mas'uliyatli bo'lish;
- baynalminallik, o'zga mamlakatlarning xalqlariga nisbatan hurmatda bo'lish va boshqalar.
Yoshlarda vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish.
Fuqarolik tarbiyasining asosi. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida shaxsda vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Binobarin, fuqaro muayyan davlatning a'zosi sifatida uning sha'ni, obro'-e'tiborini ta'minlashi, uning manfaatlari uchun kurasha olishi zarur. «Vatan atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi, Vatan tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jumuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda

tutilsa, bu tor ma’nodagi tushunchadir». Vatanparvarlik shaxsning o‘zi mansub bo‘lgan millat, tug‘ilib o‘sgan vatani tarixdan g‘ururlanishi, buguni to‘g‘risida qayg‘urishi hamda uning porloq istiqboliga bo‘lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi. «Vatanparvarlik – o‘z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog‘lagan barcha kishilarga xos fazilat.
Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro‘-e’tibori ham shu millat kishilar vatanparvarlik tuysusining darajasi bilan bog‘liqdir».
Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo‘ladi:
1. Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat.
2. O‘zi mansub bo‘lgan millat o‘tmishi, urf-odatlari, an’analari va qadriyatlariga sodiqlik.
3. Vatan va millat tarixdan g‘ururlanish.
4. Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklarini asrash, ularni ko‘paytirish borasida g‘amxurlik qilish.
5. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo‘lida mehnat qilish.
6. Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish.
7. Vatan va millat obro‘, sha’ni, or-nomusini himoya qilish.
8. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo‘lishi.36
Vatanparvar shaxs o‘z vatanini uning boyliklari yoki vatanining qulay geografik hududda joylashganligi uchun emas, balki, o‘zi Vatanning bir bo‘lagi ekanligi, o‘zi mansub bo‘lgan millatning shu Vatanda, shu makonda yashashi uchun qadrlay olishi, unga nisbatan chuqur hurmat ko‘rsatishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida vatanparvarlik, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga keng o‘rin berilgan. Xususan: «O‘zbekiston fuqarosining vatanparvarligi bu qayta o‘zgarish yo‘lini ko‘rsatuvchi, ko‘zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo‘lchi yulduz, ishonchli kompasdir. O‘zbekistonga, uning eriga, tabiatiga, bu erda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o‘lkaning tarix, madaniyati, an’analarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg‘urish ko‘p milltli o‘zbek jamiyatining muhim jiplashtiruvchi asosi hisoblanadi».
Erkka intilish, ozod yashashga bo‘lgan ehtiyoj insonga xos bo‘lgan tuyg‘udir. Inson o‘z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. SHu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g‘oyalarni ifoda etuvchi ta’limotlarning bosh mavzusi bo‘lib kelgan.

3-asosiy savolning bayoni. Ma’naviy-axloqiy tarbiya.
Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining «Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch» asarida o‘zbek xalqining boy yuksak ma’naviyatini o‘sib kelayotgan yosh avlodda shakllantirish omillari, vosita va usullarini batafsil ochib berganlar. Bugungi kunda yoshlarimizni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mazmunini milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida boyitishimiz, uni amalga oshirishda xalqimizning boy merosi, samarali vosita va usullaridan foydalanish zarurati mamlakatimizda olib borilayotgan davlat ta’lim siyosatining dolzarb muammolardan biriga aylandi.
“Ma’naviyat” keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga insonning barcha qarashlari, g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy, axloqiy, badiiy-estetik qarashlarini qamrab oladi. Birinchi prizidentimiz I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda, “ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”. 37
O‘quvchi-yoshlarda yuksak ma’naviyatni tarbiyalash faqat uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshiriladi. Bunday tarbiya bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

36 Педагогика. Ўқув қўлланма. А.Мунавваров таҳрири остида. – Т., «Ўқитувчи», 1996. 96-115 б.
37 И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., «Маънавият», 2008. 9-14 б.

Tarbiya ijtimoiy xayotning uzluksiz tushunchasi bo‘lib, u tarixiy xarakterga egadir. Qadimgi Gretsiyada va Rimda tarbiyaning maqsadi o‘sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi fazilatlarga o‘rgatish, unda fuqarolik, vatanparvarlik, ja’surlik, sadoqat, do‘stlik kabi sifatlarni rivojlantirish bo‘lgan.

O‘rta asrlarga kelib yosh avlodda diniy e’tiqod, iymon, ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish zarurati to‘g‘ilgan. Markaziy Osiyo xalqlari bu yo‘nalishda katta muvafaqqiyatlarga erishgan. Bu davr buyuk mutafakkirlarni dunyoga keltirdi. Siyosiy-ijtimoiy tuzum o‘zgarishi bilan tarbiya maqsadi muammosi ham yangilanib bordi. Ma’lum muddat bizning hayotimizga yod bo‘lgan siyosiy-mafkura kirib kelib, o‘z hukmini o‘tkazishga harakat qildi va yoshlarimiz ongiga uni singdirish o‘sha davr tarbiyasining bosh maqsadi bo‘lib xizmat qildi. Bugungi kunda uning ruhiy asoratlaridan to‘liq qutildik. Ushbu mafkura 70 yildan ortiq hukmronlik qilib keldi. Bu davrda ta’lim sohasida bir qancha yutuqlarga erishgan bo‘lsakda, lekin juda ko‘plab ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizdan yiroqlashtirish tarbiyaning bosh vazifalaridan biri bo‘ldi. Jumladan, milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy-ma’rifiy boyliklarimiz, diniy e’tiqod va iymonimiz kabi ko‘plab tarbiyaviy ozuqa vositalarimizdan foydalanishga izm berilmadi.

Mustaqillik sharofati bilan erkinlikka erishdik, boy ma’naviy qadriyat va an’analarimiz qayta tiklandi. Hammamiz azaldan orzu qilgan kunlarga etishdik. O‘zbekistonning ertangi kuni, ravnaqi, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishi albatta o‘sib kelayotgan barkamol yosh avlodga bog‘liq. Buning uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida zamonaviy bilimlar berish, ularni har tomonlama etuk shaxs etib tarbiyalash ustuvor masalalar qatoriga kirdi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, Prezident Sh.M.Mirziyoevning bir qancha Qarorlari, asarlari va chiqishlarida, «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa manbalarda respublikamiz yoshlarini har tamonlama etuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalash vazifalari aniq belgilab berilgan.

Bugungi kunda tarbiyaning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol insonlar etib shakllantirishdan iborat. Barkamol inson o‘zida ma’naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi.

Yoshlarimizni ma’naviy jihatdan tarbiyalash uchun birinchi galda SHarq mutafakkir-larining meroslari dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Al-Farobiy, A.YAssaviy, B.Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Firdavsiy, A.Temur, A. Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli bir necha mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, pedagogik, axloqiy qarashlariga tayanib ish ko‘rilsa tarbiya ta’sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

Yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish – bizning muqaddas burchimiz, or-nomusimiz. Lekin, barkamol insonni tarbiyalab etishtirish oddiy, oson ish emas. U ko‘plab, oylab, yillab mehnat qilishni, sabr-toqatni, chidam va qat’iyatlilikni, irodani talab etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim to‘g‘risidagi davlat xujjatlarida ta’lim tizimini tubdan isloh etib, Respublikamiz istiqbolini belgilovchi yoshlarni har tomonlama etuk, barkamol shaxs, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida raqobat-bardosh kadrlar etib tayyorlashni oliy maqsad qilib qo‘ydi. Bunday inson, kasb-hunar egasi oilada, maktabda va boshqa ta’lim tizimi jabhalarida ta’lim-tarbiya oladi.

Tarbiyaning oliy maqsadiga erishish uchun ma’lum vazifalarni bajarishimiz lozim bo‘ladi. Bu vazifalarni esa tarbiyaning tarkibiy qismlari deb atash ham mumkin: milliy-mafkuraviy, g‘oyaviy-siyosiy, xuquqiy, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy tarbiya. Tarbiyaning har bir tarkibiy qismi oliy maqsadga xizmat qilishi bilan bir qatorda o‘z vazifalariga ham ega.

Milliy-mafkuraviy tarbiya – o‘quvchilarda milliy istiqlol g‘oyasiga, umumbashariy va milliy qadriyatlarga sodoqat, vatanparvarlik his-to‘yg‘ularini shakllantirishga qaratilgan jarayondir.

Huquqiy tarbiya – o‘z haq-huquqlarini biladigan, ularni himoya qila oladigan, mustaqil fikrlaydigan, siyosat va inson xuquqini chuqur biladigan, konstitutsiya qonunlariga amal qiladigan, o‘z fuqarolik burchlarini yaxshi his etadigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Aqliy tarbiya – barkamol inson tarbiyasining etakchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg‘ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori

onglilik hislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o‘stirishni maqsad qilib qo‘yadi.
Axloqiy tarbiya. Axloq – ijtmoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, insonning jamiyatga, mehnatga, boshqalarga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi hulq-odob qonun-qoidalari, me’yorlari majmuidir. Ana shu xulq-odob qonun-qoidalarini o‘quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko‘rsatilayotgan ta’sirga axloqiy tarbiya deyiladi.
Musulmon axloqining asoslari mazmunan boy va rang-barang ko‘rinishlarda o‘zligini namoyon etadi. Markaziy Osiyo xalqlari axloqshunoslik sohasida eng boy tajribaga egadirlar. Qur’oni Karim va Hadisu shariflardagi axloqqa oid ibratli ko‘rsatmalar, maslahatlar, ota-bobolarimiz yaratgan ma’naviy meroslar, mutafakkirlarimizning axloq haqidagi yaratgan ma’naviy meroslari bugunga qadar ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Axloqiy tarbiya eng muhim insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan jarayondir.
Axloq, xulq va atvor so‘zlari arabcha so‘z bo‘lib, ular o‘zbek tilida ham o‘z ma’nosida ishlatiladi.
Axloq nima o‘zi?
Axloq – ijtimoiy ong shakli bo‘lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida insonning xulq-atvorini yo‘lga solib turadigan qoidalar, talablar, va me’yorlar majmuidan iborat. Axloqda jamiyatda tarkib topgan «yaxshilik», «sharaf», «vijdon», «adolat», «to‘g‘rilik», «halollik», «poklik» singari tushunchalari mustaxkamlangan odamlarning xulq-atvorlari, me’yorlari aks etadi. Bu axloqiy tushunchalarning hammasi ham baholanuvchi harakterga ega.
Yosh avlodning axloqiy tarbiyasida axloqiy ong va axloqiy tuyg‘ularni shakllantirishgina emas, balki eng muhimi – ularning ma’naviy-axloqiy munosabatlarida namoyon bo‘ladigan faoliyatning har xil turlariga jalb etish mumkin. Maktab o‘quvchilarining faoliyati jarayonidagi axloqiy munosabatlarida ularning odobli bo‘lib tarbiyalanish darajasi aks etadi. A.S.Makarenko o‘z vaqtida bunday deb ta’kidlagan edi: «Biz doimo munosabatlar bilan ish ko‘ramiz, chunki xuddi munosabat pedogogik ishimizning xaqiqiy ob’ekti bo‘lganligi sababli, bizning oldimizda doimo ikkita ob’ekt: shaxs va jamiyat turadi. SHaxsni jamiyatdan ajratib qo‘yishning, uni munosabatlardan holi qilishning mutlaqo iloji yo‘q».
Axloqiy munosabatlar o‘z ichiga kishining jamiyatga, mehnatga, boshqalarga va o‘z-o‘ziga axloqiy munosabatlarini oladi. Jamiyat taraqqiyoti tarix shuni ko‘rsatadiki, faqat ma’naviy keng quloch yoygan, ilm taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga, ezgulikka intilishi kuchli bo‘ladi.
Axloq insoniyat ma’naviy madaniyatining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u kishilarning tarixiy tarkib topgan xulq-atvori va yurish turishini ifodalaydigan, ularning bir-biriga va jamiyatga munosabatini aks ettiradigan muayyon qoidalar yig‘indisidir.
Axloq tushunchasi irodalilik, jasurlik, qa’tiylik, vijdoniylik, kamtarlik, adolatlilik, sharm-xayolilik, shirinzabonlik kabi tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi.
Iroda – maqsadga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdir. Kamtarlik kishining o‘ziga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Kishining o‘z qobiliyati, mehnati va muvofaqkiyatlarini qanday baholashiga, boshqa odamlarning qadr-qimmati va yutuqlariga qanday munosabatlarda bo‘lishiga qarab uning kamtarinlik hislatlari aniqlanadi.
O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash ta’lim bilan uzviy ravishda bog‘lab olib boriladi. Ularda ijtimoiy ong va xulq birga shakllantiriladi.
O‘quvchilarda jamiyat va Vatanga, mehnatga, kishilarga bo‘lgan axloqiy munosabatlarini shakllantirish vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
1. Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro etukligi, baynalminallik kabi fazilatlarida aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini ko‘paytirish, ularni himoya qilish va mustaxkamlashga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi.
2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash – shaxsning butun ma’naviy yunalishini belgilaydi. Chunki kishi ishlamay, ko‘rashmay yashashi mumkin emas. Mehnat – yashash manbai. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo‘ladigan yuksak ongida, mehnatning

hayotdagi rolini anglashida, xususiy va ijtimoiy foydali mehnatga tayyorligida, mehnatni xurmat qilish va mehnatsevarligida ifodalanadi.
3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat – shaxsning jamoatchilik, ko‘pchilik ma’nfaatini o‘z shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishidir.
4. Shxsning o‘ziga, o‘z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi – bu o‘quvchini o‘z-o‘ziga nisbatan ongli intizom ruhida tarbiyalashga o‘rgatishdan iboratdir.38
Shaxsni har tomonlama kamol toptirishdagi umumiy tizimning asosi axloqiy tarbiya hisoblanadi. Axloqiy munosabatlar muayyan fazilatlarni o‘z ichiga oladi, chunki ma’naviy fazilatlar axloqiy ong, axloqiy his-tuyg‘u va odob birligidan iboratdir. Demak, axloqiy munosabatlar – bu jamiyatga, mehnatga, boshqa odamlarga, o‘z-o‘ziga munosabatidir.
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qo‘yidagi axloqiy munosabatlarni shakllantirish lozim:
1.Insonning jamiyatga munosabatini belgilovchi axloqiy fazilatlar ichida vatanparvarlik va baynalminallik axloqiy tarbiyada alohida o‘rin tutadi. Hadisu sharifda “Vatanni sevmoq iymondandur”, deb bejiz aytmagan.
2.Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat shaxsning jamoatchilik, ko‘pchilik manfatini o‘z shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishdir.
3.Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash shaxsning butun ma’naviy yo‘nalishini belgilaydi.
4.Shaxsning o‘ziga, o‘z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash – bu o‘quvchining o‘z-o‘zini ongli intizom ruhida tarbiyalashga o‘rgatishdan iboratdir.
Inson – tabiatning eng buyuk ne’mati. Unga aql-idrok, ong, farosat kabi buyuk fazilatlar ato etilganki, u o‘z insoniy fazilatlariga sayqal berib, rivojlantirib olamni, insoniyatni kamolotga etaklab boradi.
Odamning inson sifatida shakllana borishida uning kamolot darajasi odob, axloq, madaniyat, ma’naviyat kabi hislatlarning unda qanchalik mujassamlashgani bilan belgilanadi. SHu o‘rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to‘xtalib o‘tishimiz joizdir.
Odob – har bir insonning boshqa bir inson yoki jamoa bilan bo‘lgan muloqotida, yurish-turishida o‘zini tuta bilishidir.
Xulq – odobning ichki tuyg‘u, ko‘nikmaga aylangan ko‘rinishidir.
Axloq – jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan xulq-odob me’yorlari majmuidir.
Madaniyat – jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to‘plangan barcha ijobiy yutuqlar majmui hisoblanadi
Ma’naviyat – insonning barcha qarashlarini aks ettiruvchi mezon, barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuidir.
Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi, ong esa moddiy va ma’naviy manbaaga aylanadi. shu tarzda inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi.
Inson ma’naviyatli bo‘lishi uchun juda ko‘p insoniylik bilimlari sarchashmasidan bahramand bo‘lishi, o‘z ustida tinmay ishlashi va hayotni kuzatib, undan saboq chiqarib borishi lozim.
Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli asarida komil insonlar haqida shunday deydi: «Yaxshi fazilatlarni o‘ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur». Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, saxiy, mehnatkash, mehr-shafqatli, bilimdon, o‘zgalar uchun qayg‘uradigan mard insonlarni ko‘zda tutadi, «yomon insonlar deb, yomonlik fazilatlari yaxshilik fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytiladi», - deydi. Avloniy kishilarni o‘zida yaxshi fazilatlarni to‘plagan, el nazariga tushgan, yaxshilikka intiluvchi, o‘zini tarbiyalab borishga o‘rgangan insonlar bo‘lishga undaydi.
Moziyga bir nazar tashlaylik. Biz xohlaymizmi yo‘qmi, sharqona erkaklarimizga xos mardlik, jasurlik, g‘urur kabi, momolarimizdan or-nomus, iffatlilik, nazokatlilik, sharm-xayo, shirinzabonlik kabi hislatlar asrdan-asrga meros bo‘lib o‘tib kelmoqda.

38 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 2007. 113-126 стр.

4-asosiy savolning bayoni. Mehnat tarbiyasi

Mehnat tarbiyasi. Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko‘zlangan maqsad avvalo mehnatning mohiyatiga, mazmuniga teran nigoh tashlamoq, muayyan xulosa chiqarishga o‘rgatishdan iborat. Mehnat qilayotgan kishi o‘zi bajarayotgan ishning natijalarini ko‘rsa, his qilsa, o‘sha natijalardan ayniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Dono xalqimiz, allomalarimiz mehnat haqida juda ko‘plab fikrlar aytishgan. Haqiqatda ham mehnatsevarlik doimo ulug‘langan, dangasalik, mehnatsiz boylik orttirish qoralangan. Mehnat muhtojlikdan, bekorchilikdan, yurak siqilishdan, axloqiy buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o‘zini, o‘z qadrini biladi, uni el-yurt ulug‘laydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh vazifalaridan biri ham yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ularni aniq bir kasb-hunar egasi qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatlarni kamol toptirishdir.

Iqtisodiy tarbiya maktabda asosan tabiiy-matematik fanlar asosida beriladi. Unda o‘quvchilar ishlab chiqarishning turli sohalari, bozor, oila byudjeti, iqtisodiy geografiya, marketing kabi ko‘plab zamonaviy tushunchalar bilan qurollanadilar.

5-asosiy savolning bayoni. Jismoniy tarbiya.

Barkamol inson nafaqat ma’naviy jihatdan, balki jismoniy jihatdan ham etuk bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya barkamol inson tarbiyasining yana bir tarkibiy qismidir. Jismoniy tarbiya – yosh avlodni jismoniy jihatdan sog‘lom o‘sishlari, baquvvat bo‘lishlari va vatanimiz himoyasi uchun qo‘rqmas, jasur, harbiy ilmlar, qurol asloliatlardan foydalanishni biladigan qilib tarbiyalashni o‘zining oliy maqsadi deb biladi.

O‘quvchilarga jismoniy tarbiya maktabda harakatli o‘yinlar, gimnastika, sport, turizm hamda sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg‘ulotlari turlari vositasida beriladi.

Jahonga mashhur olim, tabobat ilmining buyuk namoyondalaridan biri Abu Ali ibn Sino o‘z davrida badantarbiya bilan (jismoniy mashqlardan) tana salomatligini yaxshilash va mustahkamlashda, kasalliklarning oldini olish va boshqa hollarda keng foydalanish masalasini ko‘p marta uqtirgan, asarlarida ifodalangan. Shuning uchun Ibn Sino «Kishi salomatligida yugurmasa, kasalligida albatta (tabibga) yuguradi», deb bejiz aytmagan.

Badan tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishning foydasi ko‘p: «Badan tarbiya bilan mo‘‘tadil shug‘ullangan kishi hech bir dori-darmonga muhtoj bo‘ldi». (Ibn Sino).

Tarixiy manbalardan ma’lumki, Amir Temur o‘z zamonasining tengsiz nayzabozi, qilichbozi, kamonchisi, chavandozi, kurashchisi edi. Negaki, buyuk Jahongir bolaligidan jismoniy tarbiyaga, jangovar san’atlarga qiziqqan va tinimsiz mashq qilgan. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport sohasida u bosib o‘tgan yo‘l, ya’ni askarlarning tayyorgarligi vaqtida va ularni chiniqtirishda qo‘llagan uslublari hozirgi yoshlarga ham ibratlidir.

Amir Temur daryodan kechib o‘tish va suzishga ham katta e’tibor bergan. Tez oquvchi daryodan kechib o‘tish, suvda suzish sirlarini mukammal egallagan.

Amir Temur jismoniy mashq va mashg‘ulotlar orqali mardlik, epchillik, chidamliylik sifatlarini o‘zida ham, askarlarida ham birdek mukammal tarbiyalab borgan va u amalda sinalgan, xususan, ona-Vatanni istilochilardan ozod etishda qo‘l kelgan. U ezilgan xalqni qiyinchilikdan olib chiqqan ulug‘ insondir.

She’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy oqillik, axloqiylik, salomatliylik haqida she’rlar yozish bilan birga, xalqning sog‘lig‘i haqida qayg‘urib, bemorlarga dori-darmon bilan emas, balki jismoniy mashqlar yordamida davolash bilan shug‘ullanadigan «Dorush-shifo» (Davolash uyi)ni qurdirgan.

Buyuk bobomiz A.Navoiyning «odam uchun doim harakatda bo‘lish hayotlikdan asardir, jonsiz mavjudotlar tiriklik nishonasidan behabardir», degan hikmatli so‘zlari bugungi kunda ham qimmatlidir. Alisher Navoiy diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur bilgan, ayniqsa u ilm-u badan,

ya’ni badan ilmini o‘rganishni har bir inson uchun u kim bo‘lishidan qat’iy nazar asosiy shart qilib qo‘yadi. Tan nechog‘liq sog‘ bo‘lsa, ko‘ngil shunchalik ravshan, ta’b hushchaqchaq bo‘ladi. «Ko‘ngil badan mulkining podshosidir», deydi mutaffakir.
Buyuk kelajak sari borayotgan mustaqil davlatda jismoniy tarbiya barchaning ehtiyojiga aylanishi kerak. Binobarin, odamlarning salomatligi davlatning eng muhim boyliklaridan biridir.
Demak, biz bobokalonlarimizning fikr va asarlaridan shuni anglashimiz mumkinki, ularning maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy mashqlar orqali sog‘ va barkamol qilib etishtirishdan iborat bo‘lgan.
Jismoniy tarbiya – bu jismoniy kamolotga erishishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Bu jarayonda aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi.
Kichik sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasining maqsadi – sog‘lom, baquvvat, xushchaqchaq, botir, dovyurak, jasur, har tomonlama rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan kishilarni tarbiyalashdan iborat.
O‘quvchilar jismoniy tarbiya darslarida:hayotda zarur bo‘ladigan juda ko‘p muhim harakat, malaka va ko‘nikmalarni egallaydilar, jismonan yaxshi rivojlanadilar, kishi hayotida jismoniy tarbiya juda katta ahamiyatga ega ekanligini tushunib etadilar;
sog‘lom bo‘lish uchun kun tartibidagi ertalabki gigienik gimnastikada qanday mashqlardan foydalanishni, aqliy ishni jismoniy mehnat bilan birga qo‘shib olib borishda qanday shart-sharoitlarga rioya qilishni bilib oladilar;
qisqa va uzoq masofada yugurishni, 4 x 10 m.ga mokisimon yugurishni, uzunlikka va balandlikka sakrashni, koptokni uloqtirishni, turnikda tortilishini, gimnastika devoriga tirmashib chiqishni, muvozanat saqlash hamda akrobatika mashqlarini bajarishni, suzishni, kross tayyorgarligi, harakatli o‘yinlarni, basketbol, futbol, voleybol o‘yini qoidalarini o‘rganadilar.39
O‘quvchilar harakatli o‘yinlar bilan deyarli har bir darsda shug‘ullanadilar. O‘qituvchi shunday harakatli o‘yinlarni tanlaydiki, o‘quvchilar gimnastika, engil atletika, sport o‘yinlari, suzish, kross tayyorgarligi darslarida o‘zlari bilgan mashq harakatlarini takomillashtiradilar va nazariy bilimlarini boyitadilar.
Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanib borish o‘quvchilarga to‘g‘ri va go‘zal qaddi-qomatga ega bo‘lishlariga imkon beradi.
Faqat mustaqillikka erishganimizdan keyingina bevosita yurtimiz rahbari ko‘rsatmalari asosida odamlarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish, sportni ommaviylashtirishg, xususan, bolalar sportini rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qarala boshlandi.
Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga uyg‘un holatda uch bosqichdan iborat uzluksiz sport harakati joriy etildi. Bugun ushbu musobaqalarning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligiga, ularning sog‘lom avlodni tarbiyalashda tutgan o‘rniga hammamiz guvoh bo‘lib turibmiz.
Otashqalb shoirimiz Cho‘lponning xalqni dengizga, to‘lqinga qiyoslagan she’rini ko‘pchilik yod biladi. Go‘zal o‘xshatish. Darhaqiqat, shamol va tufonlar tufayli dengiz qo‘zg‘alishidan paydo bo‘lgan to‘lqin har qanday to‘siqni buzib ketadi, emirib tashlaydi. Asov dovullar anashu to‘lqinni harakatga keltiruvchi kuch sifatida e’tirof etiladi. Xo‘sh, Cho‘lpon nazarda tutgan majoziy ma’nodagi «to‘lqin»ni vujudga keltiruvchi, ta’bir joiz bo‘lsa, xalqning, millatning ertangi kunini belgilab beruvchi qudratning manbai qaerda? Hech ikkilanmay javob berish mumkinki, bu shu xalqning, shu millatning navqiron va sog‘lom avlodi – barkamol yoshlaridir.
Mamlakatimizda Vatan ravnaqi, xalq farovonligini ta’minlashning muhim sharti sifatida har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashga katta e’tibor berib kelinayapti. Bu ezgu maqsadni amalga oshirish uchun jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish ishlari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. 1992 yilning yanvar oyidayoq O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida»gi Qonunni qabul qilinishi fikrimizning tasdig‘i bo‘la oladi.
Erkin va ozod, haq-huquqlarini taniydigan, faqat o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, Vatan va xalq manfaati uchun butun borlig‘i bilan kurashadigan insonlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya

39 Педагогика. Жисмоний тарбия институтлари учун дарслик. –Т., «Ўқитувчи», 1990. 78-121 б.

va sport harakatining o‘rni va ahamiyati naqadar beqiyos ekanligi shaxsan mamlakat Prezidenti tomonidan e’tiborga olindi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi qilib belgilandi.
Biroq, ana shu dolzarb vazifani bajarish uchun, avvalo, o‘quvchi yoshlarda katta ishtiyoq, qiziqish uyg‘otish orqali ularni sportga uzluksiz jalb qila oladigan, milliy ta’lim doirasida o‘tkaziladigan, yoshlarni sog‘lomlik, komillik va go‘zallik g‘oyalari ruhida tarbiyalaydigan o‘ziga xos ommaviy harakatni shakllantirish zarur edi.
Barcha ta’lim bosqichlarini o‘zaro uzviy bog‘laydigan sport tizimi ham Jahon tajribasida mavjud emasligini inobatga olib, yoshlarni bosqichma-bosqich sport musobaqalariga jalb qilish borasida tinimsiz izlanish olib borildi. Buning samarasi o‘laroq, qator vazirliklar, jamoat joylardagi o‘quvchilar dastlab turli mashg‘ulot va musobaqalarga jalb qilindi. Lekin, ta’kidlanganidek, katta jarayonning boshlanishida ko‘zda tutilayotgan harakatning aniq modeli yaratilmaganligi sababli, mazkur urinishlar kutilgan natijani bermadi.
Faqat birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan uzluksiz ta’lim modeli hayotga joriy etilgandan keyin unga uyg‘un holda umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari hamda oliy o‘quv yurtlari talabalarining «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» ommaviy sport musobaqalarini qamrab olgan uch bo‘g‘inli yagona tizim shakllantirildi. Ana shu yaxlit tizim negizida esa umummilliy uzluksiz sport harakati modeli yuzaga keldi.
E’lon qilingan xalqaro monitoring, YUNISEF tashkilotining yuksak e’tirofi zamirida bugun O‘zbekistonda 17 yoshgacha bo‘lgan sog‘lom yangi avlod 10 million 924 kishini tashkil etishini hisobga olganda ularni sog‘lom o‘sishida Jahonda o‘hshashi yo‘q umumo‘zbek uzluksiz sport harakati modeli ahamiyatining hissasi yuqori ekanligini hech kim inkor etolmaydi.
O‘sib borayotgan avlodni jismoniy tarbiyalash pedagogik tizimning tarkibiy qismi bo‘lib, bolalarga ta’lim-tarbiya berish, har tomonlama etuk, jismoniy baquvvat va ma’naviy barkamol insonlarni etishtirish, ularni hayotga va Vatanni himoya qilishga tayyorlash hozirgi zamon pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biridir.
O‘zbekiston hukumati yosh avlodning jismoniy rivojlanishi, salomatligi va ma’naviy barkamolligi haqida doimo g‘amxo‘rlik qilib kelmoqda.
Bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun ular orasida sog‘lomlash-tirish, ta’lim va tarbiya ishlarini o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirish lozim bo‘ladi.
Maktabda kichik yoshdagi o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
a) o‘quvchilar sog‘lig‘ini yanada yaxshilash ularning jismonan to‘g‘ri rivojlanishiga yordam berish va jismoniy imkoniyatlarining o‘sishiga imkon yaratish;
b) jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik) ni tarbiyalash va harakat ko‘nikmalarini shakllantirish (yugurish, yurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish, oshib o‘tish, saf tortish mashqlariga tayyorgarlik, muvozanat hamda qomatni saqlash mashqlari, harakat koordinatsiyasi va jamoat joylaridagi harakatlar va boshqalar);
v) o‘quvchilarga maxsus o‘zlashtiriladigan bilimlar berish va jismoniy tarbiyadan tashkiliy qobiliyatni singdirish. Shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy gigiena ko‘nikmalarini o‘zlashtirish; jismoniy tarbiyaga qiziqishini oshirish, shaxsiy jismoniy shakllanishini takomillashtirish mashg‘ulotlari orqali o‘zlashtirish maxsus guruh bolalari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish.
Jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanish jarayonida maktab o‘quvchilari orasida juda ham kerakli bo‘ladigan irodani tarbiyalovchi sifatlar, ya’ni maqsadga erishish, qo‘rqmaslik, tashabbuskorlik kabilar katta ahamiyatga ega. O‘quvchilar orasida jismoniy tarbiyaning ishlarini amalga oshirishda ularning sog’lig’i, yoshi, jinsi, jismoniy rivojlanish darajasi, har xil sinflarda jismoniy tayyorgarlik bosqichi va jismoniy tarbiyani umumiy tarbiya bilan birgalikda olib borilishi e’tiborga olinadi.
Maktabda kichik yoshdagi o‘quvchilarni jismoniy tarbiyasi o‘zaro bir-biriga bog‘liq tizimlar orqali boshqariladi;
o‘quv jadvali bo‘yicha jismoniy tarbiya darslari va fakultativ mashg‘ulotlar;

maktab kun tartibida sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya tadbirlari (darsgacha gimnastika, darslardagi jismoniy tarbiya daqiqalari, o‘yinlar kuni uzaytirilgan guruhlarda jismoniy mashqlar);
sinfdan tashqari ommaviy sport o‘yinlari (jismoniy tarbiya to‘garaklari, sport seksiyalari, turistik sayohatlar, sport musobaqalari, sport bayramlari);
sog‘lomlashtirish kunlari;
maktabdan tashqari ommaviy sport o‘yinlari (turar joylarda, bolalar va o‘smirlar sport maktablarida, o‘quvchilar saroyida, bolalar turistik stansiyalarida, sport jamiyatlarida, stadionlar va sport maydonlarida, oilada mustaqil jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish).
Jismoniy tarbiya darsi maktabdagi jismoniy tarbiyaning asosiy qismi hisoblanadi. O‘qituvchining darslarni to‘g‘ri tashkil qilish, uyushtirish va o‘tkazish uslubi, pedagogik mahorati jismoniy tarbiya maqsadining echilishini belgilaydi.
Jismoniy tarbiya darslaridan kelib chiqqan holda har bir darsning tuzilishi va mazmuni o‘quvchilarning yoshi, salomatligi va jismoniy tayyorgarligini e’tiborga olgan holda belgilanadi. O‘quv dasturining bajarilishi va o‘quvchilarning kerakli bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishiga jismoniy tarbiya o‘qituvchisi javob beradi. O‘qituvchi sanitariya-gigiena talablarining bajarilishini, sport jarohatlari, ko‘ngilsiz hodisalarni oldini olishni bir yilda 2-3 marta ekspress-testlar orqali bolalarning muntazam jismoniy tayyorgarligini tekshirib, tibbiy tekshiruv natijalarini e’tiborga olgan holda nazorat qilib boradi.
Darsgacha gimnastika sog‘lomlashtirish tadbirlaridan biri bo‘lib, hozirgi bolalardagi kamharakatliylikning oldini olishga xizmat qiladi. Darsgacha gimnastika o‘quvchilarning markaziy asab (nerv) tizimiga ijobiy ta’sir etib, ularning kayfiyatini oshiradi, faollashtiradi, intizomini mustahkamlaydi. Undan tashqari muntazam gimnastika, muskul tizimini, moddalar almashinuvini, ichki a’zolar, ayniqsa yurak va o‘pka faoliyatini yaxshilaydi. Gimnastika har kungi darslar oldidan 7-10 daqiqa ichida o‘tkaziladi. Havo yaxshi bo‘lgan paytlarda gimnastika mashg‘ulotlarini ochiq havoda (maktab hovlisi, sport maydonida), yog‘ingarchilik paytlarida, yilning sovuq paytlarida – yo‘lakda, vestibyulda yoki xonalarda o‘tkaziladi. Jismoniy mashqlar maktab formasida, bo‘shashtirilgan galstuk va yoqa ochiq holda bajariladi.
Maxsus tibbiy ko‘rikdagi bolalar ham qo‘shimcha tibbiy ko‘rikdan so‘ng vrach ruxsati bilan darslargacha gimnastika bilan shug‘ullanishi mumkin.
Darslarda fizkultura daqiqalari muhim sog‘lomlashtirish tadbiri bo‘lib, o‘quvchilarda ishchanlikni oshiradi. Mashhur pedagog K.N.Ushinskiy yozgan «O‘tir, tur, orqaga va oldinga qayril, qo‘llarni yuqoriga ko‘tar, tushir, kursidan turib va tag‘in o‘z joyingga sekin, osoyishta, shovqinsiz o‘tir». Unchalik qiyin bo‘lmagan mana shu oddiy mashqlar bizning maktablarda o‘tkazilsa, bolalarni uyquga tortuvchi holatlardan olib chiqib, ularning sog‘lig‘ini va tetikligini saqlash mumkin. Bolaga bir daqiqa harakat bersangiz, u sira yuz daqiqa idrok bilan javob beradi, bu o‘z navbatida bir haftalik uyquli daqiqalar o‘rnini bosadi.
Fizkultura daqiqalari ta’sirida nafas olish va qon aylanishi, muskullar tonusi va qaddi-qomat yaxshilanadi, bolalarning diqqati va aqliy faoliyati oshadi. Fizkultura daqiqasi mashqini bajarish uchun o‘quvchi o‘rnidan turadi, yoqalarini echib mashq bajarishga tayyorlanadi. Fizkult daqiqa 2-3 minut davom etib, 3- 4 oddiy jismoniy mashqlarini bajarishdan iborat bo‘ladi. Fizkult daqiqani vaqti-vaqtida yangi mashqlar bilan almashtirib turiladi.
Tanaffus paytida o‘tkaziladigan o‘yinlarning sog‘lomlashtiruvchi ahamiyati bor va u kamharakatliylik (gipokineziya)ning oldini oladi. O‘yinlar orqali charchoqlik bosiladi, bolalarning aqliy ishchanligi oshadi. Bu o‘yinlar hovlida, yo‘lakda o‘qituvchilar yoki faol yoshlar boshchiligida o‘tkaziladi. Agar o‘tkazilgan o‘yinlardan umumta’lim darslarida hayajonlanish paydo bo‘lsa, bolalar diqqatini jalb etuvchi jismoniy mashqlar bilan chalg‘itish lozim.
Jismoniy tarbiya ishlarida bevosita maktab direktori rahbarlik qiladi. Direktorning o‘quv-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha muovini jismoniy tarbiyadan o‘quv dasturini, dars sifati va maxsus tibbiy guruhga kiritilgan bolalar o‘rtasida qanday mashg‘ulotlar o‘tkazilayotganligini nazorat qiladi. O‘quvchilarni jismoniy tarbiyalashda butun pedagogik jamoa a’zolari qatnashdilar. Bu ishda asosiy vazifani maktab vrachi olib boradi.

Jismoniy tarbiya ishini tashkil qilishda maktab vrachining roli beqiyosdir. Vrach birlamchi qaytaruv va qo‘shimcha tibbiy ko‘riklarni o‘tkazadi, bolalarni tibbiy guruhlarga bo‘ladi, ularning salomatligi va jismoniy rivojlanish darajasini aniqlaydi, tahlil qiladi, shu asosda pedagogik jarayonga o‘zgartirishlar kiritiladi. Vrach jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirish ishlarini, gigienik talablarning bajarilishini va sport jarohatlarining oldini olishda, ertalabki gimnastika, fizkultura daqiqalarini, harakatlarini, o‘yinlarni o‘tkazishda jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga maslahatlar beriladi.

Maktab vrachi maktabda o‘tkaziladigan sport musobaqalarini tibbiy nazorat qiladi va o‘quvchilar ichidan faol sanitorlarni tayyorlaydi. Ular o‘z navbatida musobaqalardan oldin gigienik sharoitlarni hozirlaydi va sport jarohatlarining oldini olishda shifokorlarga yordam beradilar.

Vrachning asosiy vazifalaridan biri – bu tibbiy-pedagogik nazoratni o‘tkazishi, ya’ni o‘quv yili davomida har bir sinfda kamida 2-3 marta jismoniy tarbiya darslarida va 1-2 marta sport to‘garaklarida qatnashishi hisoblanadi. Vrach doimiy darslargacha gimnastika, fizkult daqiqa va tanaffuslarda o‘tkaziladigan o‘yinlarning o‘tkazilishini doimiy nazorat qiladi. U sanitar-gigienik holat, zo‘riqishlar bolalarning yoshiga va jismoniy rivojlanishiga nisbatan berilishi, jismoniy mashqlarning almashinish samarasi, mashqlarning charchashga olib kelmayotganlik tartibi, buzulishlariga e’tibor berib, o‘z fikrlarini bildiradi va undan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini, direktorlarining o‘quv-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha muovinini bohabar qiladi.

Jismoniy sifatlar deganda faqat sportchilarnigina emas, har bir oddiy kishilar va jismoniy tarbiyaning u yoki bu turi bilan shug‘ullanuvchilar, ayniqsa o‘quvchi yoshlarning harakat faoliyatlari ham tushuniladi. Bu asosan epchillik, chaqqonlik, abjir, kuchli va har bir og‘ir sharoitga bardosh berish, chidamli bo‘lish kabi jarayonlarda namoyon bo‘ladi.

Bunday faol harakatlarni jismoniy mashqlar yordamida tarbiyalash, takomillash-tirish, hayotda bevosita tabiiy harakatlar, jismoniy mehnat va jismoniy tarbiya darslari, mustaqil ravishda bajarish yo‘llari bilan amalga oshiriladi.

Fan tilida jismoniy sifatlar quyidagicha ifodalanadi, ya’ni:

1. Kuchlilik
2. Tezlik (tezkorlik)
3. Chidamlilik (bardoshlik)
4. Chaqqonlik (abjir)
5. Egiluvchanlik (qayishqoqlik)

Bu ko‘rinishdagi jismoniy sifatlar bilan shug‘ullanuvchilarning, ayniqsa sportchilarning faoliyatlarida o‘zlariga yarasha turlicha (boshlanish, rivojlanish, yuqori daraja va hokazo) bo‘lishi tabiiydir. Ular haqida JTNO‘ fanida batafsil ifoda etilgan, ya’ni jismoniy sifatlarni yaratish omillari, usullari hamda ularning texnik jihatdan qo‘llanilishi, miqdori, me’yorlari to‘la bayon etilgan. Shu sababdan qo‘llanmalarda umum ahamiyatga molik va mustaqil ravishda jismoniy sifatlarni oshirish yo‘lidagi oddiy tushunchalar va amallar haqida ba’zi bir mulohazalar bildirilmoqda.

1. Kuchliylikni tarbiyalash yosh bolalar, o‘quvchi-yoshlar va katta yoshdagi kishilarda turli yo‘llar va vositalar orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil sharoitda: maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy ravishda, ya’ni gavda a’zolariga, baravariga mashq o‘yinlar berishi lozim. Chunki, ularning to‘g‘ri rivojlani-shini ta’minlash zarurdir. Bunda oyoqlarga o‘tirib turish, engil yuklarni ko‘tarish, umbaloq oshish, qo‘llarga tortilish va hokazoni qo‘llash lozim. Eng muhimi ochiq havoda o‘ynash, bir-biri bilan tortishish, olishish (kurash) tirmashib chiqish (devor, daraxt) bir-birin ko‘tarib yurish, yugurish va hokazo.

Maktab o‘quvchilari ham yoshlari va jismoniy holatlariga qarab, ochiq havoda tirmashib chiqish, osilib tortinish, kurash, daraxt-devorlarga chiqish, yuklarni ko‘tarish va hokazo harakatlarni bajarishi lozim bo‘ladi.

Eng kichik yoshdagi bolalardan tortib to katta yoshlargacha har kuni 1-2 marotaba bilak kuchlarini sinash musobaqalarini (uy hovli yoki ko‘chada) tashkil qilish yo‘li bilan kuchlarning rivojlanishini nazorat qilib borish zarur.

Salomatligi, yashash sharoiti va mehnat qilish muhitiga qarab katta yoshdagilar og‘ir (tosh) ko‘tarish, turli xil asbob-uskunalar bilan shug‘ullanish, qo‘llarga tayanib bukib-yozishi, turnikda (daraxt) osilib tortinishi, oyoqlarga o‘tirib turish va hokazo mashqlarni har kuni (kunaro) bajarishi lozim bo‘ladi.

Mashqlarni bajarish jarayonida tezda toliqish, og‘riq (sanchiq) sezilmasa mashqlar miqdorini oshirib borish kerak. Har bir shug‘ullanuvchi qon tomirlarining urushi (puls) holatini o‘lchashni bilish va ularning tinch holatda, harakat jarayonlari va mashqlarning keyingi holatlarini o‘lchab, bilib borishi, kuchlarni oshirishga sabab bo‘ladi.

2. Tezlik sifati har qanday kishi uchun eng zarur holat hisoblanadi. Har bir harakatni (o‘tirish, turish, yurish, yugurish, ish bajarish va hokazo) ixcham va epchillik bilan bajarish ishlarining yaxshi ketishini ta’minlashda xizmat qiladi. Ayniqsa, uy yumushlari, ko‘chalarda ketish, ulovlarga chiqish va tushish, biron ish yuzasidan qo‘shnilarnikiga borib kelish, o‘qish va mehnat qilishga o‘z vaqtida etib borishda tezlik harakati juda zarurdir. Bunday hollar hammada ham bir xil kechavermaydi. Buning sabablari ko‘p bo‘lishi mumkin. Ayniqsa beparvolik, xavfsizlik, arazlash, loqaydlik kabi illatlar yoshlarning rivojlanish, tez harakat qilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. SHu sababdan oila va maktab sharoitlarida o‘quvchi yoshlarni tex harakat qilishiga o‘rgatishdan mas’uliyatlarini sezish, vaqtni tejash, o‘z burchini puxta bajarish kabi tarbiyaviy jihatlarni ko‘proq olib borish kerak. O‘z o‘rnida ta’kidlash zarurki, bolalar qanchalik tez harakatchan va jismonan rivojlangan bo‘lmasin, ishni bajarishga loqayd bo‘lsa yoki boshqa sabablar ta’sir etsa aytilgan xillarni, vazifalarni tezda bajarmasligi mumkin.

O‘quvchi yoshlarda, ayniqsa yosh bolalarda tezlik sifatlarini tarbiyalashda ota-onalar, jamoatchilik quyidagi usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni

-kim tez olib keladi yoki kim tez bora oladi (biron buyumni qo‘shni yoki boshqa maydonga etkazish yo‘lida);

-kim birinchi bo‘lib etib boradi (biron belgini ko‘rsatish);

-kim tez ilib ola oladi (kichik to‘p yoki biron buyumni havoga irg‘itish);

-kim tez to‘p yuritadi (futbol o‘yini va hokazo).

3. Chidamliylik. Chidamliylik sifati hayotda eng zarur bo‘lgan tarbiyaviy jarayonlardan hisoblanadi. Shu sababdan bolalar, o‘quvchi yoshlarni chidamliyligini tarbiyalashda oila, mahalla sharoitida alohida e’tibor berish lozimdir.

Buning uchun esa:

-jismoniy tayyorgarligi va kuchiga qarab ma’lum darajadagi og‘irlikni (tosh, gir, yuk, qovun-tarvuz, yog‘och, tuproq, qum va hokazo) ko‘tarib kelish, ushlab (ko‘tarib) turish va hokazo;

-elkalarga yuk ko‘tarib zinapoyalar, narvonlardan chiqish;

-o‘rta masofalarga (1000-15000 m) tez yugurish, qisqa masofalarga (30, 60, 100, 200 m) elkada yuk (4-5 kg) ko‘tarib yugurish;

-suv tagida nafas olmay turish (kim ko‘p turadi shaklida bahslashish);

-8-10 va undan ortiq qadam chuqur nafas olish (o‘rtacha holda yurish) va shuncha masofada sekinlik bilan nafasni chiqarish;

-«Quloq cho‘zma», «eshak mindi» kabi harakatli o‘yinlarni ko‘proq takrorlash;

-piyoda ko‘pkari (elkaga bolalarni mindirgan va yolg’iz holda) o’ynash va hokazo.

Yuqorida zikr etilgan faol harakatlar va boshqa turli-tuman mashq-o‘yinlar bolalarning chidamli, epchil, kuchli bo‘lib o‘sishiga ijobiy ta’sir etadi.

Bunday o‘yinlar va mashqlarni kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari bilan oila, mahalla, ko‘cha sharoitlarida uyushtirishda katta yoshdagilar ko‘maklashishlari, nazorat qilib turishlari lozim. Chunki, o‘yinlar davomida janjallar, o‘zaro kelishmovchiliklar va jarohatlarga yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

Bunday ommaviy o‘yinlarni tashkil qilish bolalarning dangasa bo‘lmasligi yoki nojuya ishlar qilmasligini to‘la ta’minlaydi.

4. Chaqqonlik (abjirlik) harakati (sifat darajasi) tezlik bilan uzviy bog‘lanib ketgan, ya’ni bajarish yo‘llari, mashq harakatlarining shakl hamda mazmunlari gavda a’zolaridagi mushaklarning

faoliyatlari bir-biriga o‘xshab ketadi. SHunday bo‘lsa-da chaqqonlikning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ladi.40

Bularni ifodalash uchun quyidagi harakatlar, mashqlarni bir-biriga taqqoslanilsa, yuqorida aytilgan mulohazalar oydin bo‘ladi, ya’ni:

30-40 m.ga yugurish (tezlik sifati) bilan 30-40 m. masofadan tez yugurib kelib uzunlikka yoki balandlikka sakrash. Bunda o‘ta tez yugurish bir zaylda bajarilmaydi, ya’ni yugurishning boshlanishi va sakrash uchun depsinish (tolchok) paytida yugurish tezligi pastroq bo‘lib, asosiy harakat va diqqat-e’tibor sakrash texnikasiga qaratiladi.

Futbolda to‘pni 40-50 m (undan ham ortiqroq) masofada o‘sha tezlik bilan yugurishi amalga oshirilsa-da, bunda chaqqonlik, abjirlik bilan raqibdan o‘zib ketishi yoki uni aldab o‘tish va nihoyat to‘pni darvozaga zarb bilan tepish (sherigiga uzatish) talab etiladi.

Voleybolda eng past holatda to‘pni qabul qilish. To‘r ustidan to‘pni zarb bilan raqib maydoniga urish ham chaqqonlik alomati hisoblanadi. Basketbolda to‘pni yugurib kelib yoki sherigidan olgan holdayoq uni halqaga otish (tushurish) abjirlikni bildiradi.

Chaqqonlikni tarbiyalovchi mashqlar, harakatlar, barcha sport turlari kabi xalq milliy o‘yinlari, harakatli o‘yinlarda ham ko‘p uchraydi. Masalan, ko‘pkari uloqda erdagi uloqni tez ko‘tarib olib, uloqni egarga o‘ngarib otni choptirish, quloq cho‘zmada quloqni ushlatmay abjirlik bilan qochish va hokazo.

Demak, chaqqonlik sifat darajasi hayotda eng muhim tarbiyaviy jarayon hisoblanadi.

5. Egiluvchanlik sifati insonlarning yoshi, jinsi va jismoniy holatlariga qarab turli xil bo‘ladi. YOsh bolalar va o‘quvchi yoshlarning mushaklari, bo‘g‘imi, egiluvchanlik (elastik) holda bo‘ladi. yosh kattarishi va bir xil mehnat qilish (ketmon chopish, mashina haydash, bir joyda o‘tirib yoki turib mehnat qilish va hokazo) oqibatida bel, qo‘l, oyoq va boshqa a’zolardagi mushaklar harakati cheklanib, qotib qoladi. SHu sababdan bolalarning bo‘sh mushaklarini qotirish (qayishqoq qilish) va katta yoshdagilarning mushaklarini bo‘shashtirib (yumshatish) hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya vositalari bilan muntazam shug‘ullanuvchilar va ayniqsa sportchilarda (shtanga, kurash va hokazo bundan mustasno) egiluvchanlik (mushaklarning yumshoqlik, egiluvchanligi) doimiy ravishda bir xil me’yorda bo‘ladi. SHunday bo‘lsada maxsus mashqlar bilan egiluvchanlik holatlarni (bo‘g‘in) harakati, mushaklarning tortilish va cho‘zilish holatlari muntazam ravishda tarbiyalab borish lozim bo‘ladi.

Egiluvchanlikni tarbiyalash va ta’minlashda:

1.Barcha insonlar (yosh bolalar ham) ertalabki gigienik mashqlarni bajarishni kanda ilmaslik.

2.Bo‘sh paytlarda egilish, o‘tirib-turish, yurish-yugurish, osilib tortinish, uloqtirish, osilish harakatlarini bajarish.

Bog‘cha bolalari va o‘quvchi-yoshlar tarbiya hamda o‘qish jarayonlarida egiluvchanlik harakatlarini bajarib, o‘zlarining bu sohadagi malakalarini mustaqil o‘yinlar davomida bajarib boriladi.

Mehnat bilan (aqliy va jismoniy) shug‘ullanuvchilar har kuni ish jarayonida kamida 2-3 marotaba 5-10 daqiqa jarayonida o‘tirish-turish, egilish (yon, oldinga, orqaga) gavdani aylantirish, yurish-yugurish mashqlarini bajarishlari shart. Bo‘sh vaqtlar topib bu harakatlarni ko‘paytirish, ularning miqdorlarini oshirib borishlari zarur bo‘ladi.

Qariyalar va keksa kishilar salomatligini hisobga olib, yurish, o‘tirib-turish, gavdani egish, turli xil harakatlar qilishlari lozim. Qotib qolgan mushaklarni ko‘proq uqalash, siypalash, ezish (massaj) mashqlaridan foydalanish lozim. Eng muhimi umurtqa pog‘onalari, bo‘yin, oyoq va qo‘llardagi barcha bo‘g‘inlarni vaqti-vaqti bilan harakatlantirish (o‘tirish, turish, egilish, burilishlar va hokazo) zarur. Ana shundagina gavda harakatida biron illat, og‘riq, sanchiq kabi holatlar bo‘lmasligi yoki bo‘lsa kamayishi mumkin.

---

40 Педагогика. Жисмоний тарбия институтлари учун дарслик. –Т., «Ўқитувчи», 1990. 87-99 б.

Jismoniy sifatlarning yuqori darajadagi ko‘rsatkchilari, me’yorlari va mohiyatlari ko‘proq sportchilarga xos bo‘lgan fazilatdir. SHu sababdan ham eng oddiy va xalqchil sifatlar, fazilatlardan ba’zi bir dalillar keltirish, ularni tarbiyalashning eng sodda yo‘llarini ifodalash bilan cheklandik, chunki jismoniy madaniyatning tushunchasida jismoniy sifatlarning boshlang‘ich, o‘rta rivojlangan
Demak, jismoniy madaniyatning asl ma’nosi, mazmuni va mohiyatini anglash yo‘lida boshlang‘ich jismoniy mashqlar ko‘zda tutilmog‘i zarur. Ularning bajarilish shakllari, miqdori, me’yorlari va usullari insonlarning eng avvalo yoshi, jinsi va jismoniy holatlarini salomatligiga asoslanadi.
Xulosa qilib aytganda jismoniy sifatlar salomatlikni yaxshilash, jismoniy jihatdan kamol topish, mehnat qilish, tetiklik va bardamlikni ta’minlash, shular asosida uzoq yillar sog‘lom bo‘lib yurishga zamin tayyorlaydi. SHu sababdan insonlar oddiy harakatlarni faol harakatlarga aylantirish imkoniyat darajasida eng muhim bo‘lgan mashqlar, o‘yinlar bilan muntazam shug‘ullanishga to‘g‘ri keladi.

6-asosiy savolning bayoni. Estetik tarbiya.
Immonuil Kant aytganidek: “Nafosat – bu manaviy ezgulik ramzidir”. Estetika lotincha «Ectetikos», ya’ni «his etaman» degan ma’noni bildiradi. Aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va boshqa tarbiyalarni estetik his-tuyg‘usiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Estetik tarbiyaning maqsadi – o‘quvchilarni tabiat, jamiyat va san’atdagi go‘zalliklarni idrok etish, ularni to‘g‘ri tushunib etish, qadriga etish, hayotga qayta go‘zalliklar olib kira olish qobiliyat, ko‘nikma va malakalar majmuasini shakllantirishdan iboratdir. Maktabda tasviriy san’at, musiqa, adabiyot, tabiatshunoslik darslari estetik tarbiyaning asosiy shakl va vositalari hisoblanadi. Biz nafaqat narsa va xodisalar, balki insoniy xulq-atvor, fazilatlarni ham estetik jihatdan baholashimiz mumkin. Insoniy go‘zallik aql, burch, iymon, insof, kamtarlik, latofat, lafz, mehmondo‘stlik, mehr, muloyimlik, poklik, yaxshilik va hakozo sifatlarni o‘zida namoyon qiladi.
Estetik tarbiya go‘zallikdan zavqlanishga, xuniklikdan nafratlanishga, kulgilikdan kulishga, fojealikdan istirobga tushishga o‘rgatadi. Bu holatlarni kishi hayot va san’at voqealiqlarida uchratishi mumkin. Estetika haqidagi tushunchalar Qadimgi Sharq va O‘rta Osiyoda ham o‘z taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan va rivojlangan. Biz buni qadimiy yozma va og‘zaki yodgorliklar, memoriy obidalar orqali yaxshi bilami.
Nafosat va go‘zallik dunyosi shu qadar xilma-xil, rango-rang, ehtirosli va sehirliki, unda moddiy va mannaviy joziba uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Insonning nafosat olamiga intilishi atrof-voqelikni aniqlashga intilishi bilan chambarchas bog‘liqdir.
Estetik his-tuyg‘u - kishilarning go‘zal va xunik, jozibali va kulguli voqealarni idrok etish va baholash qobiliyatidir.
Taraqqiy topgan G‘arb mamlakatlari nafosatshunoslari Tomos Morgo va Eten Suriolarning fikricha, ”...etika-estetikasi yo‘q davlat - qoloq davlat, etika-estetikasi yo‘q millat qashshoq millatdir”.
Demak, go‘zallik insonning estetik va badiiy didini o‘stiradi. Estetik did esa go‘zal narsalardan zavq olish qobiliyatidir. Estetik madaniyati yuksak kishi manaviy, ruhiy jihatdan barkamol, etiqotli, ishonchli va albatda diyonatli bo‘ladi, desak hato bo‘lmaydi. Estetika, ya’ni nafosatshunoslikning boy va murakkab kategoriyalar tizimi borki, biz bu tushunchalarga atroflicha to‘xtalib o‘tamiz. Bular: go‘zallik, ulug‘vorlik, olijanoblik, fojiyaviylik va kulgililik. Bu kategoriyalar ijtimoiy borliq, inson hayoti sohalarining har birida – ishlab chiqarish, mehnat va ijtimoiy-siyosiy, tabiatga munosabatda, madaniyat, turmush va va hokozolarda olamni estetik o‘zlashtirishning o‘ziga xos ko‘rinishidir.41
Go‘zallik zohiriy va botiniy manoga ega. Voqea-hodisa, buyum zohiran go‘zal, botinan xunik bo‘lsa, bu erda go‘zallik tushunchasi kemtikdir. Oltin taqinchoq tashqi tomondan go‘zal bo‘lsa, uning oltin sifatida ichki mohiyati haqiqiy qiymatga egadir. Bu esa chin manodagi go‘zallikdir.
Yana, insonning chehrasi, qomatidagi go‘zallik muayyan ahamiyatga ega, ammo bu to‘la ma’nodagi go‘zallik emas. Insonning tashqi qiyofasi uning botiniy olami, hulqi, fe’l-atvori,

41 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 2007. 134-167 стр.

mehnatsevarligi, ezgulikga intilishi kabi sifatlar bilan uyg‘unlashsagina, bu – mukammal go‘zallik sanaladi. Taniqli shoirimiz E.Vohidov yozganidek:

Mulki borliq ichra bir mahal
Ko‘rksizgina olam yaralgan.
Bermoq uchun olamga sayqal
Olam aro odam yaralgan.
SHundan beri inson tinmayin
SHu er uzra ter to‘kar hamon
Erni go‘zal qilgani sayin,
Go‘zal bo‘lur o‘zi ham inson.

Go‘zallik quyidagi tamoyillarni o‘zida mujassamlashtiradi: me’yor, uyg‘unlik, estetik shakl, yaxlitlik, maqsadga muvofiqlik.

Malumki, go‘zallikning eng qadimiy va boy manbai tabiatdir. Tabiatning eng go‘zal mahsuli, aql-zakovat va iroda egasi – insondir.

Shunday qilib, go‘zalik turli hil ko‘rinish va shakllarda, voqea-hodisalarda namoyon bo‘ladi, shu tufayli unga faqat bir xilda ta’rif berish qiyin. Tabiatdagi, jamiyatdagi kishilarning ijodiy faoliyatidagi, odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlaridagi, jamiki ijobiy voqealarni – quvonch, his-tuyg‘u paydo qiluvchi, kuch-quvvat beruvchi, kayfiyatni ko‘taruvchi barcha omillarni biz go‘zallik deb atashimiz mumkin.

Fojiaviylik – ijtimoiy hususiyatga molik tushuncha sifatida yolg‘iz insonga hos his-tuyg‘u ekanligi, faqat ijtimoiy munosabatlar jarayonidagina namoyoon bo‘lishi bilan izohlanadi. Sanat asarlarida fojiaviylik yahlit namoyon bo‘ladi.

Fojia birinchi navbatda adolatsizlikka, kishini-kishi ezishiga qarshi, umuman insonlarni ho‘rlash va haq-huquqlaridan mahrum etishlariga qarshi fidokorona, oliyjanoblarcha kurashni ifodalaydi. Masalan, Go‘ro‘g‘li fojiyali sharoitda tug‘uladi, ammo u ko‘p jasoratlar, qahramonliklar ko‘rsatadi. Fojia qahramoni hayotni sevadi, aks holda, u bu hayot uchun shunchalik shiddat bilan qurashmagan bo‘lar edi. U huddi shu hayot yo‘lida jon fido qiladi, bu o‘lim bekor ketmaydi.

Estetik kategoriyalarning navbatdagisi – kulgulilikdir. Kulguli voqea-xodisalar, ko‘pincha munofiqlik, tekinxo‘rlik, yolg‘onchilik, johillik, engil tabiatlilik kabi kamchiliklar, nuqsonlardan kulish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Voqelikdagi kulgulilik xolatiga faqat insongina kulgu bilan javob beradigan qobilyatga ega bo‘lib, boshqa jonzotlar bunday qobilyatlardan maxrumdirlar.

Satira xayotidagi yaramas xodisalarni, yovuzliklarni fosh etadi. A.Qodiriy va A.Qaxxor ijodlarida ham bir qator satira janridagi asarlarni ko‘rish mumkun. Qodiriyning “Og‘zingga qarab gapir”, Qaxxorning “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush” kamediyalarida goho kulguli to‘qnashuvlar mohiyati yangilik bilan eskilik rasidagi kurashda ko‘rinadi.

Estetik ulug‘vorlik – bu so‘zsiz buyuk, salmog‘i bo‘yicha ulkan xodisadir. Ulug‘vorlikning namoyon bo‘lish shakllari hilma-hildir. U behad ulkan shaklning butun ulug‘vorligini bevosita ifoda etishi mumkun bo‘lgan, osmonning butun rang-baangligini, okean va dengizlarni sokin sathi va bepayonligini, qudratli to‘lqinlarning, tog‘larning yuksakligini, vulqonlarni qaynashi manzarasini ko‘rsatish mumkun. Ulkan arxitektura inshoatlari Misr ehrom (peramida)lari, Gotika uslubida qurulgan ibodotxonalar, O‘rta Osiyo va Xindistondagi tarixiy yodgorliklar ulug‘vorlikka misol bo‘ladi.

Ulug‘vorlik sifatiga ega bo‘lgan narsalardan lazzatlanish o‘sha narsalarning sifatiga bog‘liq bo‘lmay balki ulardan lazzatlanayotgan insonning tarbiyasiga xam bog‘liqdir.

Demak, turli estetik xodisalar bir vaqtning o‘zida jamiyatda mavjud bo‘ladi va bu hilma-hillik insonning ruxiy xolatiga ta’sir ko‘rsatadi, uning ma’naviy-ruhiy kamoloti ko‘rsatkichi bo‘lib boraveradi. Hayotning o‘zi go‘zallik manbaidir. Ong esa uni aks ettiradi. Estetik ong xayotning xamma sohalarini – tabiatni ham, kishining olamini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ham qamrab oladi.

Yoshlarni tarbiyalashda estetik ongning quyidagi jihatlariga asosiy e’tibor berish zarur:

1. Estetik his-tuyg‘u – insonning voqelikka, kishilarga, o‘z faoliyatiga nisbatan munosabatidir. Bu tuyg‘u bizni o‘rab turgan voqelikni estetik jihatidan his etish qobiliyatidir, uning go‘zalligini, uyg‘unligini sezishdir.
Estetik his-tuyg‘u - bu chuqur ma’naviy tuyg‘udir. O‘z ishini vijdonan bajaradigan kishida mehnatdan faxrlanish, xayotidan mamnunlik tuyg‘usi kuchli bo‘ladi. SHunday tuyg‘u bilan yashash insonga estetik zavq beradi.
Estetik his-tuyg‘ular bilan ahloqiy va aqliy bilish his-tuyg‘ularni tarbiyalash jarayoni yaxlit bo‘lib, yakka insonning, ayniqsa bolalarning axloqiy tarbiyasi va aqliy ravnaqi ularning estetik his-tuyg‘ularini rivojlantirish bilan qo‘shib boriladi. SHu asosida esa estetik did tarbiyalanadi.
2. Estetik did – murakkab va ko‘p qirralidir. Estetik did insonning fikr-mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma’naviy ijodkorligi orqali namoyon bo‘ladi. Estetik did – voqea-xodisalarning estetik sifatlarini inson tomonidan idrok etmoq va baxolamoq jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg‘usi orqali ifoda topadi. Estetik did zamirida go‘zallikni xunuklikdan ajrata bilish va undan beg‘araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did his-tuyg‘ular bilan ish ko‘radi.
Estetik did – go‘zallik yoki xunuklik to‘g‘risida xukm chiqarish qobilyatimizdir. U bir o‘rinda estetik baholash xamdir, masalan biron tomoshadan so‘ng kishida “yoqdi”, “yoqmadi”, “maroqli”, “zerikarli” deb xukm chiqaradilar. Bu xukm didning sof bahosi xisoblanadi.
Estetik baho predmet yoki xodisaning qiymati va kamchilik nuqsoni haqida xukm chiqara bilishdir. Biz voqelikka estetik baho berar ekanmiz, ematsional jixatdan o‘sha narsa bizga uyg‘otgan tuyg‘uni ifodalaymiz. Masalan, osuda tun, ajoyib inson, porloq yulduz...
3.Estetik baho – bu go‘zallikning xodisa va faktlarning estetik qiymatini bevosita emas, balki ma’nosiga to‘la tushungan xolda bilishdir. Estetik did bilan estetik baxolash o‘rtasida farqli va umumiy tomonlari mavjud. Estetik baxolash – didning aynan o‘zi emas, balki uning fikr-mulohazalari og‘zaki ifodasidir. Uning fikr-mulohazalarida aqliy tomon ko‘proq o‘rin egallaydi: did fikr-mulohazalari doimo baholanayotgan narsaning voqea hodisaning anglab o‘zlashtirishi bilan bog‘liq bo‘lib, boshqalarga mo‘ljallangan holda dalillarning mantiqiy isbotlanishini taqoza etadi.
Ta’lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o‘z diqqat-e’tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatni qaror topdirishda xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e’tiqodiga, dunyoqarashiga, hatti-xarakatlariga, xulq-atvoriga ta’sir o‘tkazishni o‘z oldiga maqsad va vazifa qilib qo‘ygan.
Shu qatori estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifalarning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, tarixiy-ijtimoiy jixatidan axamiyatga molik xodisani anglatadi. SHuni takidlash joizki, qadimda umuman tarbiya maqsadi estetik asosda namoyon bo‘lgan. Masalan, qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqorolarning har tomonlama rivojlanishiga, “ruh va badan” hamohangnligini qaror toptirishga yo‘naltirilgan edi: YUnon mutafakkirlari Aflotun va Arastu kabi zabardast olimlar ta’limotlarida estetik tarbiya tizimining bir-biridan farqli tomonlari bo‘lgani xolda umumiy o‘xshashlik xam mavjud bo‘lib, u yagona estetik orzuni qaror topdirishga, yagona ahloqiy xulq-atvor va fuqorolik hislat va fazilatlarini shakllantirshga xizmat qilgan edi.
O‘rta asrlar SHarq va Ovropada estetik tarbiya ilohiy kuch – qudrat manbayi bo‘lgan Ollohga etiqod qilish va “bu dunyo” ning o‘tkinchi arzimas ekanligini inson shaxsiga singdirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Estetik tarbiya g‘oyalarining ilohiy va dunyoviy mohiyatini kuchaytirishga intilish hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas, zero estetik tarbiyada ilohiylik odamlar mehnati va maishiy xayoti bilan chambarchas bog‘lanib, ya’ni dunyoviylik bilan qo‘shilib ketgan edi.
Ma’lum bir jamiyatda ijtimoiy qaramma-qarshiliklar zaiflashib, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat qaror topib borgani sari odamlarning estetik tarbiya olishlari uchun zarur bo‘lgan muayyan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy, ahloqiy-estetik shart-sharoitlar vujudga keldi. Moddiy-iqtisodiy va umumma’naviy imkoniyatlar kengayib, qoshshoqlik va savodsizlik batomom tugatilsagina, jamiyat xayotida estetik tarbiya muxim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Estetik tarbiya muommolariga doimiy va jiddiy e'tibor, insonni qurshab olgan borliqdagi go‘zallikka, yoshlar va barcha jamiyat a'zolarini adabiyot va san'at olamiga jalb qilish shaxsni tarbiyalash sistemasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Mustaqillik yillarida barcha sohalar kabi tarbiya sohasiga ham, xususan estetik, go‘zallik tarbiyasiga ahamiyat toboro ortib, maktabgacha va matab ta'limi, oliy o‘quv yurti dasturlarida ham chuqur o‘rgatilib kelinmoqda.
Yuqorida takidlaganimizdek, O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topayotgan hozirgi payida estetik tarbiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda.
Birinchidan, mustaqillik sharoitida inson omilining ortib borishi uchun shart-sharoitlar vujudga kelayapti, hayotning barcha jabhalarida faoliyat ko‘rsatayotgan odamlarning ezgu hislat-fazilatlari, ongliligi, faolligi, ijodiy yaratuvchi qobilyatlari sezilib turibdi.
Ikkinchidan, O‘zbekiston aholisining aksariyat ko‘pchiligini umumiy madaniyati yuksalib borish jarayonida yangi texnika va texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil qilish ishi toboro takomillashib borayotganligini aytish mumkun.
Uchunchidan, yangi ishlab chiqarish munosabatlarining, bozor iqtisodiyotining keng o‘rin egallab borayotganligi qonunchilikni keng tarzda rivojlanib, amal qilayotganligi, fuqorolarning umumiy ma'daniyati, ayniqsa estetik madaniyati darajasining ham yuksalib borishini anglatadi.
To‘rtinchidan, xozirgi davr ilmiy-texnik inqilobi sharoitida elektronika, avtommatika, kibernetika, informatika kabi fanlar ishlab chiqarish sahasini tubdan qayta qurishga imkoniyatlar yaratilib berilyapti. Bu xol ishlab chiqarishda band bo‘lgan odamlarning ruhiy xolatini ham tubdan o‘zgarishini kasb-korlik, ijtimoiy-ruhiy, ahloqiy-estetik xolatining vujudga kelishini taqoza etadi.
Beshinchidan, radio, kino ayniqsa "oynai jahon" kabi ommoviy-axborot vositalari-ning turmushdan keng o‘rin olishi natijasida badiiy axborot hajmining ham keskin ortib borishi estetik tarbiya ahamiyatining tez sur'atlarda o‘sishini ta'minlaydi.
Estetik tarbiya – insonni voqelikdagi, san'atdagi go‘zallikni idrok etish, tushunish va qadriga etish qobilyatini o‘stiradi. Estetik tarbiya, shuningdek insoniyat faoliyatining xar qanday sohasida estetik boyliklar yaratish, ya'ni go‘zallik qonuni bo‘yicha ijod qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Estetik tarbiya ijtimoiy sharoidlarga bog‘liq.
Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi – jamiyat azolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go‘zallikni to‘laqonli his etishga ko‘maklashishdan iboratdir.
Etetik tarbiyaning asosiy vazifalarini quydagicha belgilash mumkin:
- insonlarda dunyo go‘zalligi to‘g‘risida his-tuyg‘ular, tassavurlar va fikrlarni tarbiyalash va takomillashtirish orqali inson shaxsining har tomonlama uyg‘un rivojlanishiga ko‘maklashish;
- sanatga bo‘lgan ehtiyoj, uni tushunish, badiiy ijodda faol qatnashishga intilishni tarbiyalash;
- rivojlangan estetik didni shakllantirish;
- o‘quvchi-yoshlarda estetik ongni shakllantirish jarayonida, uni ahloqiy, mehnat, ekologik jihatlardan ham tarbiyalash.42
Estetik tarbiyaning hayotiy omillari faqat estetika, madaniyat, sanat va adabiyotdan-gina iborat emas, ijtimoiy ong ko‘rinishlari va iqtisodiy-siyosiy munosabatlar, turmush va tehnika, sport va milliy urf-odatlar ham nafosat tarbiyasining muhim omillaridandir.
Estetik tarbiyani to‘la amalga oshirmay turib, ahloqiy, g‘oyaviy-siyosiy tarbiya asosida rivojlangan barkamol shaxsni voyaga etkazib bo‘lmaydi.
Estetik tarbiya eng avvalo, tabiat va jamiyatda hamda sanat asarlarida go‘zallikni ko‘ra bilish, uni tug‘ri tushunish va qadrlash qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. U hayot va mehnatning barcha tomonlariga go‘zallik ato etish qobiliyatini tarbiyalash, hayot va sanatda bemanilikka, xuniklikka qarshi kurash hamda qobiliyatiga qarab sanatda o‘zining ijodiy komolotini ko‘rsatishni nazarda tutadi.
Estetik tarbiyaning asl mohiyati insonni real dunyoda mavjud bo‘lgan go‘zallikni to‘g‘ri idrok qilishga va hayotda haqiqiy go‘zallik uchun kurashni ko‘rsatishdan iborat.

42 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 2007. 127-143 стр.

Yuqoridagilardan quydagi hulosalarni chiqarish mumkin:
Birinchidan, inson o‘zining mehnat faoliyati natijasida voqelikni estetik o‘zlashtiradi. Undagi go‘zallikni kashf etadi va idrok qiladi.
Ikkinchidan, estetik tarbiya ishining barcha usul va vositalari kishida to‘g‘ri estetik fikr va idrok qilishni rivojlanishiga qaratilmog‘i zarur. YAni, kishining estetik bahosi, mulohazasi va idroki voqelikda mavjud bo‘lgan go‘zallikni yoki huniklilni to‘g‘ri aks ettirishi kerak bo‘ladi.
Uchinchidan, estetik tarbiya kishida har tomonlama va keng estetik did va manfaatlarni rivojlanishiga qaratilmog‘i lozim. YA’ni, kishining estetik bahosi, mulohazasi va idroki voqelikda mavjud bo‘lgan go‘zallikni yoki xunuklikni to‘g‘ri aks ettirishi kerak.
Biz estetik jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs deb, o‘z mexnati bilan xayot go‘zalligiga go‘zallik qo‘shuvchi, mexnat va ijtimoiy faoliyatini estetik kamolot darajasiga ko‘taruvchi komil insonni tushunishimiz kerak bo‘ladi. “Agar kishini turmush uztozi dono qilmasa, hech dono unga so‘z o‘rgatmoq uchun ovvoro bo‘lmasinki, mehnati zoe ketadi”, - deydi Kaykavus. Demak kishini tarbiyalashda xayotiy ta’sirning roli Kaykavusning diqqatidan chetda qolmagan. YA’ni, u tarbiyani inson aqlini shaxsiy hayotini shakllantiruvchi omillardan deb biladi: uning fikricha dunyoni bilishdan maqsad undan foydalanishdir.
Oddiy musiqa kuyi, chiroyli gullar, su’ratlar dastlabki estetik kechinmalarni keltirib chiqaradi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi avvalo, ularning “eshitish”, ”ko‘rish“, tabiat ko‘rinishlari, atrof-muhitdagi go‘zallikni ajrata bilish va baholash ko‘nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Buning uchun ashula, musiqali o‘yin, rasm solish, xaykalchalar yasash mashg‘ulotlari keng qo‘llaniladi. Estetik tarbiya aqliy, ahloqiy va jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi.
Shuni alohida takidlash joizki, estetik tarbiya yosh avlodning ahloqiy ma’daniyati shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. San’atdagi ehtiyojni, uni tushunishni, badiiy ijodda faol qatnashishga intilishni tarbiyalash estetik tarbiyaning birinchi navbatdagi vazifasidir. O‘z navbatida san’at ham biron maqsadga qaratilgan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Estetik hissiyot xayot xodisalarini yoki san’at asarlarini estetik idrok etish jarayonida paydo bo‘la boshlaydi.
Estetik hissiyot shu idrok yuzaga keltiradigan o‘ziga xos kechinmalardan iborot bo‘lib, go‘zallikni va yuksaklikni, fojiaviylik yoki kulgulilikni his qilish sifatida yuz beradi. Insonning xayotga estetik munosabati nozik hissiyot tarixiy taraqqiyot maqsulidir. U jamiyat estetik ongining darajasini aks ettiradi.
Estetik didni turli estetik xodisalarga nozik baho berish, avvalo chiroylilikni, go‘zallikni xunuklikdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatidir. San’at asarlariga baho beradigan xollarda estetik did badiiy did ham deb ataladi. YAxshi estetik did chinakam go‘zallikdan lazzat ola bilish, mehnatda, turmushda, yurush-turishda, san’atda go‘zallikni idrok etish va yaratishga ehtiyoj sezish demakdir. YOki, aksincha yomon estetik did insonning voqoelikka estetik munosabatini buzadi, chinakam go‘zallikka uni loqayd qilib qo‘yadi, bazan esa hattoki shunga ham orlib keladiki, inson xunik narsalardan lazzat oladigan bo‘ladi. Rivojlangan estetik didni shakllantirish – estetik tarbiyaning muhim vazifalaridan biridir.
Estetik tarbiya insonning estetik ongini shakllantirish jaroyonida uni ahloqiy mehnat, ekologik jihatdan ham tarbiyalash vazifalarin qamrab oladi.
Estetik tarbiyaning ahloqiy tarbiyaga ta’siri shundaki, nafasot olami ezgulik va yaxshilikdan, beg‘arazlikdan ajralmagan xolda amal qilinadi. Estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishi, mehnat jarayoni shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o‘z ifodasini topadi.
Estetik tarbiya bilan ekologik tarbiya bog‘liqligi esa tabiatga beg‘araz, insoniy munosabatda bo‘lishda, jamiyat bilan tabiat o‘rtasida hamohong aloqadorlik munosabat-larini o‘rnatishda namoyon bo‘ladi.
Estetik tarbiyaning estetik ongni shakllantirish maqsadi va vazifasi ko‘proq yosh avlodga ta’aluqli estetik ongni shakllantirish demakdir. Estetik tomonsiz dunyoqarash chala, biryoqlama

bo‘lib qolishi turgan gap, estetik dunyoqarash falsafiy, ahloqiy va boshqa dunyoqarash sohalaridan bahramand bo‘lib, o‘z navbatida ularni ham boyitib turadi.
Estetik tarbiya eng avvalo, shaxsning estetik didining shakllantirishga ta’sir o‘tkazadi. SHaxs o‘zligi esa uning estetik didi orqali namoyon bo‘ladi. Estetik didda inson aqliy va hissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-extiyojlari, maqsad-manfaatlari ro‘yobga chiqishi ifodalanadi. Did faqat kayfiyat baxolarigina emas, balki inson faoliyati samaralari vositasida ham ifoda topadi. Inson faoliyatinig barcha samaralarida uning didi aks etadi.
Estetik tarbiya o‘z diqqat-e’tiborini shaxs estetik ehtiyojlarini shakllantirishga qaratadi. Hilma-hil o‘ta murakkab talab-ehtiyojlarini birlashtiradi, uyg‘unlashtiradi va hamohang tarzda amal qilinishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.
Estetik tarbiyaning inson talab-extiyojlari, madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni ham beqiyosdir, zero insonning talab-extiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg‘usi shaxsiy extiyojni jamiyat extiyoji bilan munosib tarzda qo‘shib olib borishni taqozo etadi. Ana shu mezon tuyg‘usida etuklikka erishish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.
Shunday qilib estetik tarbiya – bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo‘lgan inson shaxsini shakllantirish demakdir. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzu mos keladigan voqoelikni idrok etish, baholash, nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo‘lgan inson shaxsini shakllantirishga mo‘ljallangan ta’lim-tarbiya sohasidir.
Estetik tarbiya shaxsning estetik kamolotiga ta’sir o‘tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog‘liqdir. Estetik tarbiya vositalari shaxsning voqeylikka estetik munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat shakllariga aytamiz.
Yosh avlodni go‘zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to‘g‘ri tushunish, olijanob his-tuyg‘ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilarda go‘zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, do‘stlarining hursandchiliklariga sherik bo‘lish, qayg‘usini birga baham ko‘rish kabi hususiyatlar shakllantiriladi.
Xalq pedagogikasi estetikaning “go‘zallik hayot demakdir“ degan qoidasidan kelib chiqib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi, kishilar munosabatidagi go‘zallikda ishtirok etishini, uning hayotini, sanatni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o‘zining bosh vazifasi deb hisoblaydi.
Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan bo‘lsa, u har qanday qiyin ishda ham go‘zallikni ko‘ra oladi va uni zavq-shavq bilan bajaradi.
Estetik tarbiya – o‘quvchilarning estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko‘nikmalarni, estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalarni tarbiyalashni o‘z ichiga oladi. Bular o‘yin, mehnat jarayoni, maishiy faoliyatda, ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali, sanat asarlari, yani badiiy tarbiya vositalaridan estetik tarbiya berishdan iborat.
Estetik tarbiyaning asosiy vositalariga quydagilarni kiritish mumkin:
-sanat asarlari;
-tabiat manzaralaridan olinadigan taassurotlar;
-insonlarni o‘rab turgan muhit;
-o‘quvchilarning tasviriy faoliyatlari;
-bvdiiy adabiyot, tabiat, mehnat va boshqalar.
Bunday talim-tarbiya va go‘zallik muhiti insonlarni har tomonlama komol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi.
Tarbiyaning yuqorida qayd etilgan tarkibiy qismlari o‘z vazifalarini bajarishi bilan bir qatorda, oliy maqsadga – barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular bir-birlari bilan chamabarchas bog‘liq bo‘lib, ta’lim muassasalarining o‘quv fanlarini o‘qitish, sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda, muayyan tarbiyaviy tizimda amalga oshiriladi.
Maktabda bolalarni tarbiyalash o‘quv jarayoni, sinfdan va maktabdan tashqari turli tuman ishlarda olib boriladi. O‘quvchilarga bilim, malaka va odatlar shakllantiriladi. Bolalar odob va odobsizlik haqida tushuncha oladilar. Ular axloqiy tushunchalarni badiiy va ilmiy adabiyotlar, hayot, kinofilm va spektakllar orqali anglaydilar.

Maktabda o‘quvchilarga tarbiya berishda ma’lum bir tamoyillarga amal qilinadi:
1. Tarbiya o‘quv jarayoni bilan qo‘shib olib boriladi.
2. Tarbiya jarayonining muvafaqqiyati o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasining saviya-siga bog‘liq. Buning uchun jamoa ahil va inoq, bolalar intizomli bo‘lishlari kerak.
3. Tarbiyaviy ishlarning rejali bo‘lishi va hamjihatlik bilan amalga oshirilishi tarbiyaning muvafaqqiyatini ta’minlaydi. A.S.Makarenkoning «o‘nta yuqori malakali, o‘z holicha ishlaydigan o‘qituvchidan, malakasi past, bir yoqadan bosh chiqaradigan beshta o‘qituvchi afzal» deganini unutmaslik kerak.
4. Maktabda ijobiy-emotsional muhitni yaratish tarbiya jarayoniga foydali ta’sir etadi. Masalan, Respublika mustaqilligi kuni, Navro‘z bayrami kabilar.
Tarbiya turlariga bulardan tashqari g‘oyaviy-mafkuraviy, ekologik, iqtisodiy va boshqa tarbiyalar ham kiradi. Tarbiyaning barcha turlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, asosiy maqsad – barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari
1. Ilmiy dunyoqarash tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Sharq mutafakkirlarining shaxs dunyoqarashini shakllantirish borasida qarashlar-dan namunalar keltiring.
3. Aqliy tarbiya mohiyati nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishda qanday o‘rin tutadi?
5. O‘quvchi dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta’sir ko‘rsatadi?
6. Fuqoro deb kimga aytiladi?
7. Fuqarolik tushunchasining mazmunini sharhlang.
8. Fuqarolik tarbiyasini tashkil qilishdan ko‘zlangan maqsadni shaxsiy mulohazala-ringiz asosida bayon eting.
9. Davlat ramzlarini bilish va ularning mohiyatidan xabardor bo‘lish fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda qanday ahamiyatga ega?
10. Sizning fikringizcha, fuqarolik tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishi kerak?
11. Vatanparvarlik nima va shaxsda vatanparvarlik hislati qanday shakllantiriladi?
12. Baynalminallik tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
13. O‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy mohiyatini ochib bering.
14. Ma’naviyat tushunchasiga ta’rif bering.
15. O‘quvchilarda yuksak ma’naviyatni tarbilash omil, vosita va usullarini sanab o‘ting.
16. Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifalarini izohlang.
17. Axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyalarini tavsiflang.
18. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning shakl, vosita va usullarini tavsiflang.
19. Mehnat, ekologik tarbiyaning vazifalari, ularni amalga oshirish vosita va metodlarini asoslab bering.
20. Jismoniy va estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularni tashkil etish shakl, vosita va metodlari haqida o‘z fikringizni bayon eting.

Test topshiriqlari:

1.Bolalar (o’quvchilar) jamoasining shakllanishi qanday bosqichlarda kechadi?
a) uch bosqichda;
v) ikki bosqichda;
s) to’rt bosqichda;
d) bir bosqichli bo’ladi;
5)besh bosqichda.

2. Bolalar (o'quvchilar) jamoasi shakllanishining qaysi bosqichida guruh (sinf) faollari shaxsga nisbatan talablar qo'yadi?
a) ikkinchi bosqichda;
v) to'rtinchi bosqichda;
s) beshinchi bosqichda;
d) birinchi bosqichda;
e) uchinchi bosqichda.

2-mavzu: Tarbiyaning umumiy metodlari.
Asosiy savollar.

1. Tarbiya metodlari va vositalari haqida tushuncha
2. Tarbiya metodlari tasnifi va tavsifi

1-asosiy savolning bayoni:
Har bir o'qituvchi-tarbiyachi bolalar nimalar ta'sirida, qaysi sharoitlarda, muhitlarda kamolga etishishi, uni amalga oshirishda qanday qoidalarga amal qilish lozimligini, qanday ta'sir ko'rsatish vosita va yo'llarini yaxshi bilmog'i lozim.
O'zbek xalqi bola tarbiyasi sohasida ulkan boy tajribaga ega. Shu bilan birga ilmiy pedagogikamiz undagi va fandagi yutuqlarga tayangan holda tarbiya usullari xaqida ma'lum to'xtamlarga kelgan. Unga ko'ra «metod» so'zi grekchadan olingan bo'lib, yo'l, usul, ma'nosini anglatadi. Shuning uchun ham ilmiy adabiyotlarda «tarbiya metodlari», «tarbiya usullari» kabi tushunchalar tez-tez uchrab turadi.
Tarbiya usullariga pedagog olimlar (R. Mavlonova, A. Munavvarov, M. Quronov, K. Xoshimov, O. Hasanboeva, M. Inomova, U. Nishonaliev, R. Hasanov va boshqalar) turlicha ta'rif berishgan.
Ayrimlarida, tarbiya usullari deb, barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida, uning ongiga, xulqiga, irodasiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etish yo'llariga aytiladi. Boshqalarida «tarbiya usuli – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir», - deyiladi. Birinchi ta'rif aniq ma'no kasb etsada, ammo unda faoliyat bir tomonlama ta'sir kuchiga ega. Ya'ni, tarbiyachining ta'sirigina ko'zda tutilganday. Ikkinchisi esa hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sirni nazarda tutadi.
Ta'lim metodlari kabi tarbiya usullari ham alohida tarkibiy qismlarga bo'linadi, masalan, usul va uslub tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'langan holda pedagogik jarayon mohiyatiga ko'ra bir-biriga o'tib turishi mumkin.
Pedagogikada tarbiya shakllari degan tushuncha ham yo'q emas. Masalan, o'quvchilarning jamoa individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalaniladi: sinf majlisi, yig'ilishlar, ertalabki yig'inlar, klub va to'garak ishlari kabilar.
Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalalarni maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi: ko'rsatmali qurollar, kitoblar, radio, televideniya, san'at asari va boshqalar. Ammo, bu predmetlarni harakatga keltirgandagina, ulardan foydalanib, muhokama etganimizdagina tarbiya vositasi bo'la oladi. Tarbiya vositalari sifatida o'quvchilarning turli faoliyatlari ham xizmat qilishi mumkin: kinofilmlar, san'at asarlari, suhbat, bolalar o'yini, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqalar.
Har qanday tarbiyaning natijasi tarbiyaviy jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq.
Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga mos usulni, eng ma'qul usulni tanlab olishlari, uning shaxsini o'zgartirish uchun kerakli sharoit yaratishlari darkor. Tarbiya usullari har bir bolaga, har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishini nazarda tutadi.
Tarbiya g'oyatda murakkab jarayon bo'lib, har davrning ijtimoiy siyosiy hayotini o'zida aks ettiradi. Uning usullari, vositalari va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi. Tarbiya har bir xalqning o'z udumi, usuli, tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi, tarbiya vositalari bo'ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi lozim.

Yuqorida qayd etganimizdek, xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalanish ko‘zda tutiladi. Ularning rang-barangligi ilmiy pedagogikani ham boyitadi.
Bola tarbiyasida xalqimiz qo‘llab kelgan milliy usullarni quyidagicha guruhlarga umumlashtirish mumkin:
1.Tushuntirish: o‘rgatish, odatlantirish, mashq qildirish va h.k.
2. Namuna: maslaxat berish, uzr so‘rash, yaxshiliklar haqida so‘zlash, o‘rnak bo‘lish.
3. Nasihat berish, o‘git: undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma’qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo‘l tilash va h. k.
4.Qoralash va jazo: ta’qiqlash, tana, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo‘rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish-kaltaklash va h. k.43
Agar sinchiklab e’tibor berilsa, ushbu milliy tarbiya usullari ketma-ketligida yaxlitlik bor. Masalan, bolaga avval tushuntiriladi, keyin namuna sifatida ko‘rsatiladi, bunda ham tushunmasa, nasihat beriladi, bunga ham ko‘nmasa, tushinishni istamasa jazo beriladi. Bu so‘ngi chora ekanligini xalqimiz yaxshi bilgan.
Xalqimizning milliy usullari muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Tarbiya vositasi vazifasini quyidagilar o‘tagan: mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar, musobaqalar, turli marosim va boshqalar ham shular jumlasiga kiradi. Bugungi kunda o‘quvchilarni tarbiyalashda milliy an’analar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi zarur. Bular o‘z navbatida, yangi tarbiyaning o‘zgacha muvofiq uslub va shakllarini taqoza etadi.

2-asosiy savolning bayoni:
Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda tarbiya usullari o‘z xarakter va xususiyatlaridan, qanday maqsadga qaratilganidan kelib chiqib to‘rtta guruhga ajratiladi: ijtimoiy ongni shakllantirish usullari; ijtimoiy hulqni shakllantirish usullari; rag‘batlantirish va jazolash usullari; o‘z-o‘zini tarbiyalash usullari.
1. Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari: suhbat, hikoya, pand-nasihat, tushintirish va boshqalar.
2. Ijtimoiy xulqni shakllantirish usullari: namuna, ibrat, taqlid, mashq, o‘rgatish, topshiriq, pedagogik talab, odatlantirish, o‘rgatish, o‘yin va boshqalar.
3. Rag‘batlantirish va jazolash usullari: ishonch bildirish, maqtash, sovg‘a berish, maqtov yorlig‘i, moddiy taqdirlash, hurmat taxtasiga chiqarish, qo‘llab-quvvatlash, mas’uliyat va minnatdorchilik, musobaqa, matbuotda e’lon qilish kabi rag‘batlantiruvchi; tanbeh berish, ogohlantirish, hayfsan berish, uyaltirish, koyish kabi jazolash usullari. Ammo, jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, balki qo‘rqitish, g‘azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o‘quvchi qo‘rqqanidan yolg‘on gapirishga o‘rganadi, ikki yuzlamachi bo‘lib qoladi.
4. O‘z-o‘zini tarbiyalash: shaxsiy majburiyat olish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va boshqalar.
Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar guruhiga o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e’tiqod, tushuncha, ma’naviy va siyosiy g‘oyalarni shakllantirish maqsadida ularning ongi, hislat va irodasiga ta’sir ko‘rsatish usullari kiradi. Bu usullar orasida o‘quvchilar ongiga ta’sir etuvchi va eng ko‘p qo‘llaniladigan usul – tushuntirishdir. Tushuntirishning vazifasi o‘quvchilarni yuksak ma’naviyatli, madaniyatli, milliy g‘ururi yuksak qilib tarbiyalashda yordam berishdir. Masalan, o‘quvchilarga bayroq, gerb, madhiya, Konstitutsiyaning mohiyatini tushuntirish mumkin.
Suhbat usuli. O‘quvchi shaxsini ma’naviy axloqiy jihatdan shakllantirishda O‘qituvchining jonli so‘zi eng ta’sirli usuldir.Suhbat usuli savol-javob negizida ko‘rinadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning dolzarbligi, qiziqarli va kutilayotgan natijani hisobga olish kerak. Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: ahloqiy mavzular, estetik mavzular, siyosiy mavzular, ta’lim va bilimga oid mavzular va h. k. Suhbat davomida o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish va javob berish imkoniyatlari tug‘iladi.

43 Педагогика. Ўқув қўлланма. А.Мунавваров таҳрири остида. – Т., «Ўқитувчи», 1996. 136-157 б.

Hikoya usuli. Kichik yoshdagi o‘quvchilar odatda hayotiy va badiiy adabiyotdan olingan hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga ahloq me’zonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib, mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san’at haqida hikoya qilib berishi mumkin. Suhbat va hikoyalar o‘quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushinadigan tilda o‘tkazilishi zarur. Suhbat va hikoya mavzusini o‘quvchilarning o‘zlari tanlagani yaxshi.

O‘quvchilarda ijtimoiy xulqni shakllantirish usuli. Psixologiyadan bizga ma’lumki, shaxs faoliyatda rivojlanadi. Qolaversa, o‘quvchi uchun faqat tushunchaning o‘zi etarli emas. U o‘zlashtirgan, anglab etgan axloqiy-qonun qoidalariga rioya qilishi, ularga amal qilishi lozim. shuning uchun ham jamiyat talab etuvchi xulq atvorlarni o‘quvchilarda shakllantirish usullari mavjud.

Namuna. Ma’lumki, yosh bolalar kattalarga taqlid qiladilar, ularga o‘xshashga harakat qiladilar. shuning uchun ham eng avvalo O‘qituvchining o‘zi har tomonlama namunali bo‘lishi, o‘z xatti-harakatlarini to‘g‘ri boshqarishi lozim. Aks xolda o‘quvchilarga faqat ijobiy fazilatlar emas, balki salbiy xatti-harakatlar ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bolalar ongiga ilg‘or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan ma’lumotlar, badiiy asarlardagi, kinofilmdagi va spektakldagi qahramonlar xatti-harakatlaridagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta’sir qiladi.

Namunadan milliy tarbiya usuli sifatida ota-bobolarimiz usuli keng foydalanilgan. Zero, ular o‘z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug‘ kishilardan ibrat olishga da’vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» degan dono xalqimiz.

Mashq. Bu usul bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil etish ularni ahloq mezonlari va hulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi. Ota-onalar, O‘qituvchilar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari zarur va shart.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotoba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o‘quvchi uchun ongli va ijobiy jarayondir. Mashq natijasida ko‘nikma, yangi bilimlar hosil qilinadi, o‘quvchilarda aqliy qobiliyat va axloqiy fazilatlar rivojlanadi. Odat muntazam mashq orqali mustaxkamlanadi.

O‘rgatish – ijtimoiy hulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar amaliy ishlardir. O‘rgatish bir necha izchil harakatlar yig‘indisidir, O‘qituvchi bu harakatlarni ko‘rsatib berish, tushintirish, kuzatishi mumkin. Tarbiyada mashq qilishning turli xillari majud: faoliyatida mashq olish, kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘yin viziyatlari ham muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarda xulq-atvor me’yorlarini shakllantirishda azaldan bolalar xalq o‘yinlari kuchli tarbiya vosita va usuli bo‘lib kelgan. Masalan, xola-xola o‘yini, mehmon kutish va h.k.

Topshiriq. Mehnat topshiriqlarini jamoa bo‘lib bajarish o‘quvchilarda o‘z kuchlarini umum ishga sarflashga, jamoa uchun mas’uliyatni his etishga o‘rganidilar. Aqliy va jismoniy mehnat qilish bolani xarakterini shakllantiradi, mustaxkamlaydi.

Talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab – bu o‘quvchining oldiga biron bir vazifani bajarishni qo‘yishdir. Bu o‘quvchining ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib borilishi zarur bo‘lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Rag‘batlantirish va jazolash usullari. Bu usullar o‘quvchilarni harakatga keltiradi, o‘z kuchiga ishonch uyg‘otadi. Rag‘batlantirish usullaridan foydalinish natijasida bola o‘rnining olg‘a siljib borayotganini ko‘ra boshlaydi, xurmat qilayotganini, ishonmayotganliklarini jamoaga kerakligini, o‘qituvchisini qiziqtirayotganligini anglab etadi. Rag‘batlantirish bola ishonchiga, unda bo‘lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarning kuchini e’tirof etishiga asoslangan. Rag‘batlantirish o‘quvchining ko‘nglini ko‘taradi, unga quvonch keltiradi, o‘quvchining yanada yaxshiroq bo‘lishiga intilishga yordam beradi.

Maktablar tajribasida rag‘batlantirishning quyidagi turlari qo‘llaniladi: topshiriq berish, maqtash, sovg‘a berish, maqtov yorlig‘i berish, moddiy taqdirlash, xurmat taxtasi, qo‘llab-quvvatlash,

mas’uliyat va jamoaning minnatdorligi, safarda birinchi o‘rinda turish, musobaqa, gazeta va radiolarda e’lon, reja qo‘yish va h. k. Bu usullarning barchasi pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanilishi mumkin. Har qanday rag‘batlantirishning to‘g‘ri xizmat qilishi, ketma-ket bo‘lmasligi qadrini oshirib maqtashga, boshqa o‘quvchilarga taqqoslab ularni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslikka rag‘batlantirishga bo‘lgan talabchanlikni bo‘shashtirmaslik zarur.

Jazolash. Bu o‘z harakatiga ko‘ra tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo o‘quvchining va butun sinf manfaati uchun qo‘llanilgan eng ohirgi tarbiya usulidir. Jazo choralarini qo‘llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo‘rqitish g‘azablantirish ham yaxshi natija bermaydi.

Maktab amaliyotida qo‘llash mumkin bo‘lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi: tanbeh berish, ogohlantirish, qoniqarsiz baho qo‘yish, maktabdan chetlashish va va h. k.

Jazo yaxshi qo‘llanishi lozim, qiziq ustida tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar bitta bo‘lgani yaxshi, o‘quvchilarning aybiga mos muvofiq bo‘lsin, tez-tez qo‘llanmasin, jazolovchi jazoni haqqoniyligini aniq bilsin va ular o‘z ayblarini sezsinlar. Jazo jamoada muhokama etilsa, ular tomonidan shu jazo usuli qo‘llab-quvvatlansa uning ta’sir kuchi yanada oshadi. Har qanday jazo ham tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqibatlarga solmasligi, uni taxqirlamasligi, sha’nini bulg‘amasligi kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash usullari. Bu usullar o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tarbiyalash ehtiyoji tug‘ilgan degan samara berishi mumkin. Ammo, o‘quvchilarni o‘z ustilarida mustaxkam ishlashga yo‘llashimiz lozim.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga o‘rgatishning bir qancha usullari bor. Masalan, o‘quvchiga ota-ona yoki O‘qituvchi shaxsiy majburiyat berishi mumkin.

Azaldan xalqimiz o‘z farzandlariga majburiyatlar bo‘lib bergan. Masalan, bir farzandli uy ro‘zg‘or ishlaridan, yana biriga chorva ishlari, boshqasiga ovqat pishirish, ukalariga qarash majburiyatlarini bo‘lib berishgan. Bugungi kunda ham O‘qituvchining undovi bilan bolalarga uy-ro‘zg‘or vazifalari, sinf majburiyatlarini berish mumkin. YOshi ulg‘ayib borishi bilan bolaning majburiyati murakkablashib boradi, unga ko‘proq e’tibor qaratilib boradi.

O‘z-o‘ziga hisobot berish. Biz ko‘pchilik oldida, ya’ni sinf jamoasi, ota-ona va boshqalar oldida yuz berishi mumkin o‘ziga-o‘zi hisobot berish bolada o‘z ishi uchun mas’uliyatni oshiradi, o‘z xatti-harakatlari uchun o‘zi javob berishga o‘rgatadi, o‘z-o‘zini tarbiyalash bo‘yicha tajriba almashishga yordam beradi.

O‘z-o‘zini tahlil etish. Bu o‘z shaxsiy fazilatlari ustida mulohaza yuritish. Masalan, men nima qila olaman, men qanday odam, men qanday o‘rtoq? O‘z-o‘zini tahlil etish o‘z xatti-harakatlari va xulq atvorlari ustida o‘ylashga, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga o‘rgatadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish. Bu xarakterdagi, ya’ni sifatlarini aniqlash va kamchiliklar bilan kurashish maqsadida o‘z xulqini doimiy yozib (nazorat qilib) borishidir.

O‘z-o‘ziga baho berish. Bu usul o‘z imkoniyatlarini chamalab ko‘rish va baholashga, chetdan o‘ziga qarashga shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga ob’ektiv baho berish, o‘zining hulq-atvoridan ko‘nikma hosil qilmasliklari tug‘ilishiga yordam beradi

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya metodlarilariga ta’rif bering.
2. Tarbiyada hikoya, suhbat, namuna, ibrat hamda ma’ruza metodlari qanday hollarda qo‘llaniladi?
3. Xalq pedagogikasida qanday tarbiya metodlari uchraydi?
4. Zamonaviy pedagogikada tarbiya metodlari qanday guruhlarga ajratiladi?
5. Tarbiyaning har bir guruh metodlariga misollar keltirib, ularni asoslang.

SEMINAR MASHG’ULOTLARI.
3-MODUL. TARBIYA VA UNING TURLARI.

1-mavzu: Bolalar tarbiya jamoasi va yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli.

Asosiy savollar

1.Jamoa tushunchasi. O’quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari.
2.O’quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari.
3.O’quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Tayanch iboralar: jamoa, rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy), an’ana, kundalik faoliyat an'analari, bayram an'analari, bevosita va bilvosita nazorat. Tarbiya metodlari, tushuntirish (hikoya qilish, o'rgatish), Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish), Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'rash, o'rnak bo'lish), Nasihat qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo’l tilash va hokazolar), Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar),

Jamoa tushunchasi. Ijtimoiy munosabatlar ko'lamining kengayishi o'sib kelayotgan avlodni o'ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayoniga har tomonlama yetuk etib tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan yetuk inson hayotiy qarama-qarshilik, xususan, turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolish, nosog'lom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o'zini saqlab qola oladi. Shuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasida, demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro'y berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtayi nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi.
Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta'limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu xususida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni e'tirof etadi: «Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir»'.
Komil insonni shakllantirish masalasi barcha davrda, ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra yetuklikning bosh mezoni - ilmlilik, bilimli bo'lishdir.
Shaxsning jamoada qaror topishi. Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan jamiyat a'zosi bo'lib, uning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida kechadi. Mazkur jarayonda qatnashish asosida u jamiyat tomonidan tan olingan ma'naviy-axloqiy, shuningdek, huquqiy me'yorlar mohiyatini o'zlashtiradi. Jamiyatning a'zosi sifatida uning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi mehnat faoliyatini yo'lga qo'yadi. Shuningdek, shaxsiy ehtiyojlari, manfaatlarini qondirish yo'lida ham atrofdagilar bilan munosabatga kirishadi.
Shaxs ijtimoiy muhitdan uzilgan holda mavjud bo'la olmaydi. Buning misoli sifatida R.Kipling tomonidan yaratilgan asardagi Mauglini keltirish mumkin. Garchi, inson bolasi bo'lsada, ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalari shakllanmaganligi bois odamlar hayotiga moslasha olmaydi.
Bola yoshligidan o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit bolaga borliqni anglash uchungina emas, balki o'zligini anglash uchun ham imkoniyat yaratadi. Bolaning doimiy ravishda jamoa orasida bo'lishi, uning jamoa ta'sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roliga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o'zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo'lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta'kidlaydi. Bolani yomon ta'sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi.
Shuningdek, alloma o'qitish samaradorligini ta'minlashda bolalarga jamoa asosida bilimlarni berish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.
Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, inson boshqalar bilan munosabatda bo'lish, ularning yordami va qo'llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo'lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o'zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrixohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o'rnini belgilab beradi.
Jamoa haqida tushuncha. Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o'quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.
O’quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash — tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.
O'quvchilar jamoasi o'ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir. Quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so'z yuritamiz.
Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o'zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi.
Shu bois jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy xususiyat kasb etishi uning yetakchi belgisi sanaladi.
Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mavjud bo'ladi. Muayyan jamoaning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoa a'zolarini intilishlarini tushunish, jamoa oldiga qo'yilgan maqsad mohiyatini chuqur his etish hamda uning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini to'g'ri baholay olish jamoa a'zolarining umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsad, qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatlari o'rtasidagi birlikni namoyon etadi hamda jamoaning bo’linishiga yo’l qo'ymaydi.
Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.
Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhining yagona ijtimoiy tizimini o'rnata olishdagi usuli, ya'ni, jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi.
Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa, xususan, uning a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlik, ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun qayg'urish, mazkur yo'lda amaliy harakatlarni tashkil etish hamda javobgarlik hissi qaror topadi.

Demak, jamoa o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:



1-rasm. Jamoaning o'ziga xos xususiyatlari

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, a'zolarda jamoaga mansublik hissini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari orasida o'zaro hissiy birlik (bir-birini yoqtirish hissi) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular o'qituvchining ta'sir ko'rsatishi uchun qo'l keladi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi ruhiy birlik mazmuni ular orasida hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur jihat bir tomondan jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan ishchanlik munosabati mazmunini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi shaxslar tomonidan jamoa a'zolarining xatti-harakatlari va intilishlarini muvofiqlashtirish yo'lida tashkil etilayotgan boshqaruv faoliyati mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, jamoa bir necha (a'zo) kishidan iborat guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida tashkil topadi. Jamoa tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat uning oldiga qo'yilgan maqsad mazmunini ifoda etadi. Jamoa a'zolari o'rtasida qaror topgan o'zaro birlik, shuningdek, ular o'rtasida tashkil etiluvchi munosabat jarayonidagi tenglik jamoaga rahbarlik qilish, jamoa a'zolarining guruh yetakchilariga bo'ysunishlari, shuningdek, ular tomonidan jamoa oldidagi javobgarlik hissini anglashlari uchun zamin yaratadi.

Jamoa va uni shakllantirish o'qituvchilik faoliyatining maqsadi hisoblanadi. Muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan subyektlarning alohida namuna ko'rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bo'lib, ushbu vosita yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a'zosini tarbiyalash ijobiy samaralar beradi.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in - bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi. Maktab jamoasi ikki muhim bo'g'in - o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O'quv yurtlari jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi - bu ijtimoiy ahvoli shuningdek, umumiy saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasi unga rahbarlikni olib boruvchi o'qituvchilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi bo'lib, o'z-o'zini nazorat qilish hamda o'z-o'zini boshqarish huquqi, shuningdek, o'ziga xos psixologik muhit va an'analariga ega bo'ladi.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jaravondir. Jamoaga qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkiliy ko'rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, jamoa a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ular o'rtasidagi ijodiy hamkorlik, shuningdek, ularning xulq-atvori axloqiy kamolot darajalarini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonining mohiyatini inobatga olish zarur.

O’quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. Jamoaning vujudga kelish uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o'qituvchi butun guruhga talab qo'yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a'zolari oldiga ma'lum talablarni qo'yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a'zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So'nggi (to'rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a'zosi o'z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo'yish layoqatiga ega bo'ladi.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, zero, jamoaning shakllanishi muayyan chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay o'qituvchilik nuqtayi nazaridan jamoaning shakllanishini muayyan bosqichlarga ajratish juda muhimdir. Bolalar jamoasini ma'lum rivojlanish bosqichlarga ajratish alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar jamoasi rivojlanishining har bir bosqichi jamoa a'zolariga nisbatan samarali o'qituvchiik ta'sir ko'rsatishning maqbul shakl va metodlarini tanlash imkonini beradi.

Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo’lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O'quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishi, shuningdek, o’quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishning paydo bo'lishiga olib keladi.

Birinchi bosqichida jamoa faolining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo’llab-quvvatlash hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo’lgan va u bilan bog’liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni, jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi.

Uchinchi bosqichi. Jamoa faoliyatida bu bosqich anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning. aniqlashiga ko'ra, bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qochuvchi, injiq shaxs»larga talab qo'ya boshlaydi.

Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi

Uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi.

To'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizkl, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan, o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda o'qituvchi-olimlar (L.I.Nikova va boshqalar) bolalar jamoasining rivojlanish jarayonining mohiyatini tahlil qilar ekanlar, uni quyidagi uch bosqichga bo'ladilar:

jamoani dastlabki jipslashtirish;

jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish;

s) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarni o'z ichiga oladi.

Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi.

O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.

Jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim.

O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi:

kundalik faoliyat an'analari;

bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari) va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tqazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi.

Bayram an'analariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarida turlicha o'tkaziladi. O'quvchilar an'analar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lsalargina uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

An'analarning yuzaga kelishida o'quvchilarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Maktab rahbariyati va o'qituvchilar o'quvchilar jamoasiga muayyan sanalarga bag'ishlab haddan ziyod ortiqcha tadbirni uyushtirish talabini qo'ymasligi zarur.

Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchilar jamoasi yoki o'qituvchi tomonidan ushbu jarayonda o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda ish olib borish, ularni an'analarai davom ettirishga o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratishlari pedagogik jihatdan ijobiy natijalarni beradi.

Jamoa va uning shaxsni shakllanishidagi o'rni va roli muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi borasida quyidagi andozaning yaratilishini ta'minlaydi:

O'quvchilar jamoasi ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o'quvchilar birlashmasi, guruhidir. O'quvchilar jamoasi (shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari jamoasi)ga rasmiy saylangan (tayinlangan) o'quvchi hamda o'qituvchilar yo'lboshchilik qiladi. Ular sirasiga guruh rahbari, guruh faollari (xususan, guruh yetakchisi (starosta), «Kamolot» tashkilotining guruh bo'limi raisi, tozalik komissiyasi raisi, devoriy gazeta muharriri va boshqalar).

Bolalar jamoalarida rasmiy yetakchilar bilan birga norasmiy yo'lboshchilarning mavjudligi ko'zga tashlanadi. Odatda rasmiy yo'lboshchilar tarkibini a'lo baholarga o'qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o'quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko'ra tengdoshlarini o'z ortlaridan ergashtira oladilar. Bunday o'quvchilar boshqalardan jismonan kuchliligi, qat'iyatliligi, hech narsadan cho'chimasligi, o'ziga bo'lgan ishonchi bilan ajralib turadilar. Norasmiy liderlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o'quvchilarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois sinf rahbari hamda maktab pedagogik jamoasi bunday liderlarning faoliyatini bevosita va bilvosita nazorat qilib borishlari zarur. O'quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a'zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Sinf rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar:

1.Yosh o'qituvchi faoliyatini tahlil qiling. Ancha tarbiyasi murakkab bo'lgan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb uylaysiz?

2.Sinfdagi faollarni aniqlash .Sinf rahbari dastlabki kunlardanoq o'quvchilarni jamoat topshiriqlari orqali kuzatib boradi. Ular ichidan faol bolalarni tanlab oladi. Shunday ongli, tashabbuskor, tashkilotchi, a'lochi o'quvchilardan sinf faollarini saylaydi.

3.Jamoat ishini faqat faollar zimmasiga emas, balki barcha o'quvchilar orasida taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Faollarni tanlashga oid muammoli pedagogik vaziyatlarni yechishga harakat qilib ko'raylik:

Muammoli pedagogik masalalar yechish

1-masala.

Sinfda qator yillar davomida saylangan kat'iy «faollar» boshqarib, «passiv»lar unga bo'ysinib keldi. Lekin keyin ular bu holatga qarshi chiqa boshlashdi. Yangi sinf rahbari oldingi o'qituvchining xatosini to'g'rilash maqsadida kat'iy chora ko'rdi. Sinfda qayta saylov o'tkazilib, «faollar» o'rnini «passivlar» egalladi. Lekin bir-ikki haftadan so'ng saylov o'zini oqlamaganligi aniq bo'ldi. Yangi faollarning bir qismi o'z majburiyatini bajarishdan bosh tortsa, ikkinchi qismi kuch bilan tartib o'rnatishga harakat qilishdi. Sinfda yangi guruhlar tashkil topib, «passivlar» ikki barobar ortdi.

O'qituvchi qanday xatoga yo'l qo'ydi? Bu vaziyatda qanday yo'l tutish kerak edi? Qanday hol aktiv jamoani jipslashtirishga yordam berardi? Maktabda o'z-o'zini boshqarishning qanday xususiyatlari bor?

2-masala.

VI B sinf rahbari o'quvchilar o'rtasida norasmiy so'rov o'tkazishi natijasida kamsuqum Anvar sinfdagi eng faol Baxtiyordan ko'ra katta obro'ga ega ekanligini aniqladi. Baxtiyor sinfkom edi.

Shunga asoslanib Baxtiyor noto'g'ri saylangan, uni Anvar bilan almashtirish kerak degan xulosaga kelish mumkinmi? Sinf rahbari qanday yo'l tutishi kerak?

O'quvchilarni istiqbolga chorlash. Istiqbol - bu yorqin qiziqarli va quvonchli voqealar manzilidir. Sinfda yorqin va jozibador istiqbollarning bo'lmasligi, bu jamoada bir xillik va zerikarli holatlarni keltirib chiqaradi.

Istiqbol odatda, oddiy kundalik ishlar: sinf xonasini jihozlash, kutubxona tashkil etish, musobaqalarga tayyorlanishdan boshlanib, sayr-tomoshalarga chiqish, kino, teatrlarga jamoa bo'lib borish orqali davom ettiriladi. So'ngra murakkabroq istiqbolli vazifalar qo'yiladi: kecha tayyorlash,

dramatik to’garak tashkil qilish, olimpiadalarda qatnashish, sovrinlarni («Zulfiya», «Nihol»kabi) qo’lga kiritish uchun harakat qilish kabi.
Sinfda ijobiy an’analarni qaror toptirish deganda nimani tushunasiz?
«An’ana» asli arabcha so’z bo’lib, uzoq zamonlardan beri avloddan-avlodga, otalardan bolalarga o’tib davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir»44. Bu jamoa hayotiga mustahkam o’rnashib qolgan ijobiy tajribalardir. Turli bayramlarni nishonlash, ijodiy ko’riklar tashkil etish, maktabni bitirganlar bilan uchrashuvlar, tug’ilgan kunlarni muborakbod etish kabi an’analar bo’lishi mumkin.
Har qanday an’ana sinf o’qituvchilari va ota-onalar nazaridan chetda qolmasligi kerak. Ular qo’llab-quvvatlagan taqdirdagina bu boqiy an’anaga aylanadi. Yaxshi an’ana sinf jamoasining jipslashuviga ko’maklashadi.
O’quvchilarga yagona talablar qo’yishning jamoani jipslashtirishdagi ahamiyati qanday?
O’quvchilar jamoalarining tarbiyalanganlik darajalari pastligi ko’pincha maktabda o’quvchilarga qo’yiladigan Yagona talablarning yo’qligi bilan izohlanadi. Yagona talablar o’quvchilarda javobgarlik munosabatini, yuksak o’zaro talabchanlikni tarbiyalashga, ularda yuksak axloqiy odatlarni tarkib toptirishga , mustahkam an’analar yaratishga yordam beradi.
Yagona talablarni ishlab chiqishda o’quvchilarning o’zlari, sinf rahbari, ota-onalar qatnashishlari mumkin. Uni tuzishda har bir maktabning o’ziga xos xususiyatlari, mahalliy imkoniyatlari hisobga olinishi zarur. Yagona talablar buyruqbozlikka nisbatan katta afzalliklarga ega. U barcha o’quvchilar tomonidan g’oyat adolatli deb idrok etiladi, tirishqoqlik bilan bajariladi.
XULOSA: Sinf jamoasining shakllanishi va uning rivojlanib, uyushib borishida o’qituvchining roli juda katta. U jamoani tarbiya maqsadiga muvofiq rivojlantirishga yo’naltiradi.
Jamoaning faoliyatida sinf faollarining o’rni ham muhim bo’lib, ishonchli, ishchan faollarni tanlash uchun o’qituvchi o’quvchilarning faoliyatini, sinf ishlariga kim qanday munosabatda bo’lishini kuzatishi, har bir o’quvchi bilan shaxsan suhbatlashib ijtimoiy ish bilan shug’ullanish istagini bilishi, ishning uddasidan chiqadigan bolalarni aniqlashi zarur. Jamoani uyushtirishda jamoatchilik topshirig’idan, o’quvchilarni istiqbolga chorlash, sinfda ijobiy an’analarni qaror toptirish va o’quvchilarga yagona talablar qo’yishdan o’z o’rnida foydalana olishi lozim.
«Bola tarbiyasiga jamoaning ta’siri» va «Jamoaga bolaning ta’siri» mavzularida munozara va debat uyushtiring. ikki guruhga bo’linib, birinchi guruh jamoaning bolaga (shaxsga) ta’sirini, ikkinchi guruh shaxsning(bolaning) jamoaga ta’sirini yoritib o’zaro munozara uyushtiring. Bunda har guruh o’z qarashlari va g’oyalarini hayotiy misollar bilan asoslab berishga harakat qilishi lozim.
Munozarada quyidagi ma’lumotlarga tayanishni unutmang. Jamoaning bola tarbiyasiga ta’sir ko’rsatish shakl va uslublari quyidagilar:
1.Jamoaning jamoat fikriga tayanishi.
2.O’quvchilar jamoasida tanqid va o’z-o’zini, tanqidni rivojlantirish.
3.O’quvchilarning sinf majlisi.
4.Sinf devoriy gazetasi.
5.Makro va -mikro guruhda liderning o’rni.

«Men guruh sardori bo’lganimda. . .» mavzusida 5 minutlik esse yozing.

Seminar mashg’uloti.
2 -mavzu: Oilada tarbiya asoslari.

Reja
1.Oilaning turlari va vazifalari
2.Oila bolani kamolatga yetkazuvchi dargoh.
Umumiy tushuncha.

44 Мунавваров А.Қ. Оила педагогикаси. Тошкент: «Ўқитувчи». 1994. 7- бет.

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi.
Oila tor maishiy tushuncha emas, balki u ijtimoiy jamoadir. Shu sababli oilalar birlashib jamiyatni tashkil qiladi. Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi.
Bu muqaddas dargohda kelajak kishisi kamolga yetadi. Keksalar ko'pincha «Bug'doy eksang bug'doy olasan, arpa eksang- arpa olasan» deyishadi. Shuning uchun ham kelajagimizning qanday bo'lishi bugun qanday hayot kechirayotganimizga, bolalarimizga qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyg'ular, orzular bilan to'ldirayotganimizga bog'liq.
Oilaviy tarbiya doimo o'zining murakkab va ko'p qirraliligi, ajoyib va serjiloligi bilan ajralib turadi. Bu shu bilan izohlanadiki, har bir oila o'ziga xos bir olam, olam ichidagi olam, shu bilan birga olamga sig'magan olam, u tarbiya ishida o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o'zida namoyon qiladi.
Biz oila haqida gapirar ekanmiz, unga qanday vazifa (funksiya)lar yuklatilganligini bilishga qiziqishimiz ham shubhasiz.
Oilaning asosiy vazifalari, funksiyalari quyidagilardan iborat:



Oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy tarbiyaviy funksiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi.
Oilaning kommunnikativ funksiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turli ijtimoiy oriyentatsiyalar, «ustanovka»lar, hissiy madaniyat, odamning axloqiy, ma'naviy va psixologik salomatligi- oilada o'zaro, ichki muloqot xarakteri, xonadondagi yoshi kattalarning o'zaro, munosabatlarida psixologik «ustanovka»larni namoyon qilishlari oiladagi axloqiy psixologik iqlimga to'g'ridan- to'g'ri bog'liqdir.
Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida fan texnika taraqqiyotining yuksalib, odamlarning kundalik hayotning urbanizatsiya-lashuvining (radio,televideniye, video, kompyuter va boshqalar) ortib borishi, oilalarning tobora nuklearlashib45 borayotganligi bilan oilaning kommunikativ funksiyasining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

45 Нуклеар (nucleus)- ядро деган маънони англатиб, нуклеар оила- ота-она ва болалардан иборат бўлиши тушунилади.

Oilaning rekreativ funksiyasi nimadan iborat? Nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelgan dastlabki, ibtidoiy zamonlardan buyon unga xarakterli bo'lgan xususiyatlardan biri, oila a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalanishini ta'minlash, yosh bolalarga va mehnatga yaroqsiz kishilar yoki keksa qarindoshlarga moddiy-ma'naviy va jismoniy yordam ko'rsatish kabilardan iborat bo'lib kelgan46.
Bu holat oilaning rekreativ funksiyasini- tashkil qiladi. Oilaning rekreativ funksiyasi- o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish funksiyalaridan biri hisoblanadi.Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish, bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejamli ro'zg'or yuritish er-xotinning katta tajriba, malakaga ega bo'lishiga bog'liq. Shuningdek, oilada o'sayotgan farzand ham mana shu malaka va ko'nikmalarga ega bo'lib borishi zarurligini unutmagan holda o'g'il-qizga iqtisodiy masalalarni hal etishni o'rgata borish lozim. Keyingi yillarda ro'zg'orda yuzaga kelayotgan iqtisodiy muommalar oiladagi shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir etishi bilan saviyasining pasayishiga ham olib kelmoqda. Bunday noxush holatlarning oldini olish maqsadida moddiy qiyinchiliklar tufayli hosil bo'ladigan muammolarni bartaraf etishda odamlarga psixologik yordam ko'rsatish lozim.
Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi vaqtda oilaning rekreativ funksiyasini ko'p hollarda davlat va ijtimoiy tashkilotlar o'z zimmasiga olmoqda. Jamiyat a'zolarining xavfsizligini ta'minlash, qariyalarga bepul tibbiy yordam ko'rsatish odamlar dam olishlari va o'z sog'liqlarini tiklab olish imkoniyatlarini beradigan dam olish uylari va sanatoriylarning ochilishi shular jumlasidandir.
Oilaning muhim bo'lgan funksiyalaridan yana biri- bu uning reproduktiv (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funksiyaning asosiy mohiyati inson naslini davom ettirishdan iboratdir. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir. Tabiatan berilgan avlod qoldirish instinkti insonda farzand ko'rishga ularni o'stirishga va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyojlarni qondirmasdan turib, kishi odatda o'zini baxtiyor his eta olmaydi.
Oilaning jamiyat oldidagi reprokduktiv funksiyasi va uning bajarilishi deyilganda aholi sonining qayta tiklanishi uchun har bir oilada nechtadan farzand bo'lishi lozimligi nazarda tutiladi.
Statistik ma'lumotlarga ko'ra, agar har bir oilada bittadan farzand bo'ladigan bo'lsa, bunday xalq sakkizinchi avloddan keyin yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan.
Albatta, faqat oilagina jamiyat oldidagi funksiyalarini bajarib qolmasdan, balki jamiyat ham oilalarga funksiyalarini muvaffaqiyatli uddalashlari uchun zarur bo'lgan shart- sharoitlarni yaratib berishi lozim. Bu o'rinda hukumatimiz tomonidan yuritilayotgan demografik siyosat, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy tadbirlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.
Oilaning felitsitologik funksiyasi nima? Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funksiyalaridan biri uning felitsitologik funksiyasidir (italyancha «felitsite»- baxt degani). «Shaxsiy farovonlikka erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi omil bo'lib bormoqda. Oilada er-xotining bir-birini to'liq tushunishi- ularning o'zlarini baxtli his qilishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, o'zidagi mavjud tabiiy-ijodiy imkoniyatlar (iqtidorni) ro'yobga chiqarish, jamiyat va oila doirasida sarflash ham insonga o'zini baxtli his qilish imkonini beradi»47. Keyingi vaqtlarda insonning imkoniyatlari ortgan sari uning baxtga intilish darajasi ham ortib bormoqda.
Oilaning regulyativ funksiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni ifodalaydi.

---

46 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби.Ғ.Б. Шоумаров таҳрири остида. –Тошкент: «Меҳнат», 2000. 38-39-бетлар.

47 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби.Ғ.Б. Шоумаров таҳрири остида.-Т.: «Меҳнат», 2000. 40-41 бетлар.

Bunda kattalar tomonidan yosh avlodi nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma’naviy tomondan qo’llab- quvvatlash nazarda tutiladi.
Oilaning relaksatsiya funksiyasi uning eng asosiy funksiyalaridan biridir. Bu degani oila a’zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir48.
Oila funksiyalarining muvaffaqiyatli bajarilishi har qanday oila baxtini ta’minlovchi mezon hisoblanadi. Shuning uchun oilaning o’z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog’lomligiga ham ta’sir etadi.
(Har bir funksiya mohiyati tushuntirilgandan so’ng kichik munozara tashkil etiladi)
O’qituvchi: Mening qo’limda uch dona konvert bor. Har birida muayyan mavzu mavjud. Marhamat, bitta mavzuni tanlab, mini-munozara tashkil eting.

Munozara mavzulari:
Kamolotli farzand tarbiyasining sarchashmasi oiladan boshlanadi.
Qush uyasida ko’rganini qiladi...
Jamiyat farovonligi - oila farovonligidir.
(mavzulardan biri tanlanadi va mini-munozara qatnashchilari belgilanadi)

Auditoriyadagi talabalar diqqatiga savol:
Ushbu mini-munozarada oilaning qaysi funksiyasi to’g’risida fikr bayon qilinyapti?
Munozarani diqqat bilan tinglang va mushohada qiling. Bildirilgan fikrlarga munosabatingizni tarqatilgan rangli kartochkalar orqali izhor eting.

(Ko’k rangli kartochkalar - tasdiq ma’nosini,
Sariq rangli kartochkalar - inkor ma’nosini,
Qizil rangli kartochkalar -savol va jumboq, e’tiroz ma’nosini bildiradi)
Mini-munozara boshlanishidan oldin mavzuga taaluqli videofilm namoyish etiladi.

Savol: Videofilmda ko’rsatilgan kadrlarga e’tibor bering. U sizga qanday ta’sir qildi? O’z fikringizni bayon qiling.
Munozaradan so’ng videokasseta orqali ekspert xulosasi tinglanadi.
Xo’sh jamiyatdagi o’zgarishlar oilaga o’z ta’sirini ko’rsatadimi? Jamiyatdagi o’zgarishlar, yangiliklar va rivojlanish albatta oilaga ham o’z ta’sirini o’tkazadi. Mustaqil diyorimizda esa oila taraqqiyoti va farovonligi yo’lida tinimsiz ishlar olib borilmoqda. Bunga misol tariqasida qator yillarning «Oila yili», «Ona va bola yili», «Ayollar yili», «Soglom avlod yili», «Obod mahalla yili», yangi 2004 yilning «Mexr va Muruvvat yili» deb e’lon qilinganligini ham e’tirof etishimiz joiz.
Xuddi shuningdek, oiladagi o’zgarishlar ham jamiyatga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Shu munosabat bilan hukumatimiz ishlab chiqqan tadbirlar oilani ijtimoiy muhofaza qilish, oilada yoshlar tarbiyasiga e’tibor kuchaytirish, oilaning huquqiy tamoyillarini kengaytirish va oilalarni mustahkamlash bilan bog’liq masalalarga karatildi.
Talabalar diqqati doskadagi birinchi Prezident I.A.Karimovning «Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Oila ahil va totuv bo’lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi». «Oila farovonligi - milliy farovonlik asosidir» degan so’zlariga qaratiladi.
Shunday qilib, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun qulay imkoniyatlar yaratilsagina oila tarbiyasi muvaffaqiyatli bo’ladi.

48 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби.Ғ.Б. Шоумаров таҳрири остида. -Т., «Меҳнат», 2000. 42-бет.

Qadimdan ham, bugun va ertaga ham, bundan keyin ham aqlli, farosatli, tafakkuri chuqur bir so'z bilan aytganda, kamolotli farzand tarbiyalash masalasi dolzarbdir. Bunday tafakkurga boy kamolotli farzand tarbiyasining sarchashmasi oiladan boshlanadi. Oila tabarruk qal'adir.

A.Munavvarov fikricha «Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'ini sifatida murakkab tarkibga ega bo'lib, u o'z faoliyatida oila a'zolarining ehtiyoji va qobiliyati, turli faoliyatning maqsad va vazifalarinigina emas, balki tarbiyaviy faoliyatni ham aks ettiradi»49

Oilashunos olimlar: G'.B.Shoumarov, N. Sog'inov,E. Sattorovlar oilaning maqsadi: barkamol avlodni voyaga yetkazish va jamiyat ravnaqiga hissa qo'shish, deb ta'kidlaydilar.

Demak, oilaning asosiy maqsadi ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan oilaviy ahvolni rivojlantirish, jamiyatga sog'lom, aqlli, har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash. Jamiyatdagi barcha yutuqlardan foydalangan holda, undagi illatlarni tag-tomiri bilan yo'q qilishda faol ishtirok etish. Oila qal'a ekan, bu qal'ada bekinmachoq o'ynamaslikni, yoshlikdan o'yinqaroqlik, beboshlik, erkalik, beparvolik o'rnini sezgirlik, mas'uliyat, andisha, javobgarlikni sezish kabi fazilatlar egallashi lozimligini tushunish kerak. Buning uchun o'zimizda ma'suliyat hissi ko'nikmasini his qilishimiz zarur.

Yosh avlodning hayotdagi ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar.

Oiladagi mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusmlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida yigit-qizlar asta-sekin kamol topib boradilar. An'ana va marosimlar tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi.

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlashi mumkin. Oila tarbiyasidagi yutuqlar ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajribalar almashish, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona o'z farzandini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashiga bog'liq.

Bundan tashqari normal oilaviy muhit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik rejim, bolani kitobga va o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb qilishlari ham muvoffaqqiyat garovidir.

Shunday qilib, oilaning jamoatchilik bilan hamkorligining o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi (3-bo'lim, 14-bob, 63-modda)50 qayd etilgan. Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lugatida «Oila- kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizm»51 ekanligi qayd etilgan.

Mustaqillik munosabati bilan o'zbeklarning oilaviy hayotida urf-odatlar, an'analar qayta tiklandi(beshik to'ylari, to'y-aza munosabatlari va h.k). Bunday urf-odatlar oilani mustahkamlashning qo'shimcha yo'llaridan biridir. O'zbekiston hukumati va shaxsan prezident I.A.Karimov oila masalalariga doim diqqat-e'tibor berib kelmoqdalar. (Masalan, «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, maxsus Respublika bolalar jamg'armasining bunyod etilishi, ko'p bolali onalar uchun qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatish va shu kabi tadbirlar). Davlatning oilaga bunday munosabati tushunarlidir. Chunki, oilalarning serfarzandligi jihatidan O'zbekiston MDH davlatlari ichida Tojikistondan keyin ikkinchi o'rindadir.

Oilaning jamoatchilik bilan hamkorligi yaqin bo'lgandagina sog'lom g'oyalar, siyosiy ong va huquqiy madaniyat, mustaqil fikrlash, iymon, e'tiqod kabi tushunchalar ravnaqiga yetishadi. Bunda mahalla, bobolar va momolar tarbiyasi I.Karimov ta'kidlaganlaridek demokratiya darsxonasi bo'lishi kerak.

Topshiriq va savollar.

1.Oila nima? Uni o'z fikringiz bilan izohlab bering.

---

49. Мунавваров А. Қ. Оила педагогикаси. Тошкент: «Ўқитувчи». 1994. 53- бет.

50 Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент: 1992 . 63- модда, 14 бет.

51 .Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. Тошкент: «Шарқ».177- бет.

2.Oila tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
3.Oila tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etiladi?
4.Oila va ta’lim muassasalari o’rtasidagi hamkorlik mazmunidan nimalar aks etadi?
5.Sharq mutafakkirlarining oila va farzand tarbiyasini yo’lga qo’yish borasidagi qarashlarida qanday g’oyalar ilgari suriladi?
6O’zbekiston Respublikasida oilalarning mustahkamligini ta’minlash, ularning moddiy farovonligini oshirish yo’lida qanday qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
7.Oila tarbiyasi borasidagi mavjud muammolar nimalardan iborat?

Test topshiriqlari:
1.Quyidagi satrlar qanday tushuncha mohiyatini yoritishga xizmat qiladi: «Ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas’ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog’lom etib tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon»?
a) oila tarbiyasi tushunchasining;
v) oilaviy munosabatlar tushunchasining;
s) oila tushunchasining;
d) oila tarbiyasi maqsadining;
e).oila tarbiyasi vazifalarining.

2. Oila tarbiyasi samaradorligini ta’minlovchi sub’ektiv omillar qaysi javob variantida to’g’ri ko’rsatilgan?
a) oilaning moddiy ta’minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila byudjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog’lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar;
v) oila tarbiyasining maqsadi, mazifalari, mazmuni;
s) oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a’zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma’lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o’rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o’zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish va boshqalar;
d) samarali shakl, metod va vositalar;
e) oila tarbiyasining tamoyillari, oila tarbiyasini tashkil etish jarayoni, mazkur jarayon mohiyati.

Seminar mashg’uloti.
3 -mavzu: Ilmiy dunyoqarashni va o’quvchilarni aqliy tarbiyalash.
Reja:

1.Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g’oyani shakllantirish o’quv- tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari.
2.O’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari.
3.Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari.
4.Aqliy tarbiya vositalari.

Tayanch iboralar: arxaik, qadimgi, avestiy, yunon, dogmatik, sxolastik, tushuntirish, tushuntirish-namoyish, muammoli o'qitish, dasturlashtirilgan ta'lim, komputerli o'qitish, innovatsio, masofaviy ta'lim, individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli, sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari, ommaviy, guruhli, asosiy, qo'shimcha va yordamchi ta'lim, aralash (kombinatsiyalashgan), o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish, nostandart darslar, tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (reialashtirish).

Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va

e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, subyektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek. O'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunvoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan. Insoniyat boshidan kechirgan barcha tuzumlarda davrning o'qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm faniga umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo'shganlar. Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi bo'lib hisoblanadi. Bilim olish, albatta, yoshlikdan boshlanadi. «Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqshdir", - deydi dono xalqimiz. Bilimli kishi hech qachon tarix sahifalaridan, xalqimizning qalbidan o'chmaydi. Shunday kishilar qatorida Sharq musulmon dunyosi mutafakkirlaridan al-Kindiy, G'azzoliy, Beruniy, Xorazmiy, Naqshbandiy, Yassaviylarni, G'arb allomalari I. Kant, F. Gegel, L. Feyerbax, A.Shopengauerlarning nomlarini tilga olmasdan bo'lmaydi. Eng buyuk allomalaru donishmandlar, o'zlarining noyob asarlari, ta'limotlari bilan insoniyat rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Ular umrlarim ilmu fanga bag'ishlab, bu yorug' olamdan ketar chog'i «hayot ilmini chuqur egalladingizmi?», degan savolga «hech narsa bilmay ketyapman», - degan ekanlar. Ne ajab, hayot ilmi sirli va murakkabki, anglab yetmoqqa butun insoniyat umri ham etmaydi.

Dunyoqarash, uning shakllari. Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi. Dunyoqarash - faqat insongagina xos xususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi boshqa narsa, buyumlar va mavjudodlar uchun bu hol yotdir. Ularda dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik diniy, qarashlari va tasavvurlari tizimidan iborat. Demak, dunyoqarash bu olam haqidagi yaxlit umumiylashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotlarga, bilimga ega bo'lsa, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi. Avvalo ta'kidlash lozimki ilmiy dunyoqarash turlicha bo'ladi. Turli kasb egalari turli xil dunyoqarashga ega bo'ladi.

Dunyoqarashning ikkita darajasi mavjuddir. Birinchisi, kishilarning kundalik hayotiy amaliy tajribasi hamda kasbiy faoliyati asosida to'plangan bilimlar, tasavvurlar, qarashlar tashkil qilsa, ikkinchisini ilm-fan tufayli to'plangan nazariy bilimlar, g'oyalar yig'indisi tashkil etadi. Ularning ikkalasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Dunyoqarash ijtimoiy borliqning in'ikosidir. Unda ijtimoiy turmush aks etadi va u ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Dunyoqarashning doimo o'zgarib, rivojlanib turishi uning tarixiy turlarining almashuvida yaqqol namoyon bo'ladi.

Mifologik (yunoncha - mifos-naql, rivoyat, logos-tushuncha, ta'limot) dunyoqarash - ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavdalantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir. “Olam qanday paydo bo'lgan? Quyosh, oy va yulduzlarni kim yaratgan? Bu sir-sinoatga to'la borliqning so'ngi qayerda?” degan savollar odamzotni azaldan qiziqtirib kelgan. Ushbu savollarga odamzot topgan dastlabki javoblar miflarda ifodalangan va ular butun bir mifologik tizimni hosil etgan. Qadimiy turkiy xalqlarda ham shunday mifologik tizim mavjud bo'lgan. Misol tariqasida yer, osmon, yulduzlarning paydo bo'lishi, tuzilishi va o'zaro munosabati haqidagi mifologik naqllarni keltiramiz:

Yer(ning) ustidan osmon do'ppiday yopib turadi. Eng balandda, o'rtada Temir qoziq yulduzi turadi. Jami yulduz yer bilan temir qoziqning atrofida chir aylanadi. Yerning ostida ham bir temir qoziq yulduzi bor. Ikki temir qoziq tortishib, yer qimirlamay turadi.

Hulkar avval yetti yulduz bo'lgan. Birovini yetti qaroqchi olib, oltitasi qolgan. Yetti qaroqchi Hulkar bilan Qambarning o'rtasi tushib, ularni yuz ko'rmas qilib qo'ygan. Avval ular bir-birini yaxshi ko'rishgan. Hozir Hulkar botsa, Qambar chiqadi. Qambar botsa, Hulkar tug'adi. Hulkar-qiz, Qambar-yigit deyishadi. Oxiri qiyomatda Hulkar bilan Qambar ko'risharmish.

Osmon qavat-qavat bo'lar ekan. Nechanchidir qavatida bir daraxt bor ekan. Har bir odamning oti yozilgan barg shu daraxtda bo'lar ekan. Odam o'lsa, barg so'lib, uzilib tushar ekan. Barg yerga tushayotganda, biror odamga tegib ketsa, shu odamning qulog'i chimirlar ekan. Shunday vaqtda kalima qaytarishi kerak ekan.

Diniy dunyoqarash mifologiya (afsona) negizida shakllangan va rivojlangan, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini xayoliy obrazlar, tasavvurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi dunyoqarashdir. Diniy dunyoqarashning xalq ongiga singib, qalbida chuqur ildiz otib ketishining boisi shundan iboratki, ular oddiy kishilarning ruhiyatiga moslab, ularning hissiyoti, tafakkuriga ta'sir etadigan va ko'p vaqtgacha esda saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsona va rivoyatlar shaklida izhor qilinishidadir.

Islom ta'limotidagi har bir afsona va rivoyatlarda katta hikmat, falsafiy fikr, ma'no mavjuddir. Shuning uchun ham ular barhayot bo'lib, avloddan-avlodga o'tib, bizning davrimizgacha yetib keldi. Bunday ma'naviy boylikni ehtiyot qilishimiz lozim.

Falsafiy dunyoqarash - bu olam haqidagi yaxlit va tizimlashtirilgan bilimlar yig'indisidir. Mifologik va diniy dunyoqarash hissiy a'zolarimiz orqali erishilgan ma'lumotlar asosida shakllansa, falsafiy dunyoqarash hissiy va aqliy a'zolarimiz tufayli ilm-fan yordamida to'plagan bilimlar yig'indisidir. Falsafiy dunyoqarash kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga u insonni qurshab turgan olamni, dunyoni va uning taraqqiyot qonunlarini bilish mumkinligini, bilish esa murakkab, ziddiyatli jarayondan iboratligini ta'kidlaydi.

Milliy ong va mafkurani shakllantirish xozirgi kun talabi ekan, bu tushunchalar mohiyatini ham chuqur bilishimiz zarur.

Milliy ong va mafkura. Ongni arabcha «aql» so'zidan olingan, deb ta'kidlaydi bir qator olimlar. Lekin ong va aql iboralari o'rtasida farqlar ham bor.

Odamning fikrlash qobiliyati nazarda tutilganda, ong va aql atamalari bildirgan ma'nolar bir-biriga mos keladi, ong ham, aql ham odam miyasining mahsulidir. «Odam onglaydi (anglaydi), aql yuritadi, fikrlaydi. Ong, shuningdek, kishining ruhiy, ruhoniy, siyosiy, falsafiy nuqtayi nazarlari, diniy, badiiy qarashlarining ham -majmuyi hisoblanadi.

Milliy ong - bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning o'zaro ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarda faollik darajasi.

«Milliy ong - O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning samarali omillaridan biridir». Milliy ongni davr talabi darajasiga ko'tarish uchun davlatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda ta'lim-tarbiya muassasalarining roli ayniqsa muhimdir.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarnii berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati,

tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Mental training and education unit based thinking (reflecting the full exoskeleton, social events, the human form of higher mental activity) can develop. To determine the level of intellectual thinking is so complex, can be determined according to the following criteria: 1. The existence of a system of scientific knowledge. 2. The current scientific knowledge in the process of mastering. 3. Thinking skills. 4. The occurrence of knowledge, which qziqish and demand.Intellectual thought for a long time and the result of tireless research, his scientific views and beliefs on the basis of lies. Look (from the Greek "ideal" idea, the sum of the imagination and concepts), a specific case, covering the nature of the process, scientifically based idea, an idea, a person, he is one of a thorough knowledge of the assimilation of scientific knowledge to compare, compare, subject , the accident occurred or will occur as a result of the analysis of the nature of the process. Help them teach students in creative thinking, inventive skills	Aqliy ta’lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to’laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo’lib, quyidagi belgilarga ko’ra aniqlanishi mumkin: 1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi. 2. Mavjud ilmiy bilimlarni o’zlashtirib olish jarayoni. 3. Fikrlash ko’nikmasiga egalik. 4. Bilimlarni egallashga bo’lgan qziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi. Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga kelib, uning negizida ilmiy qarash va e’tiqod yotadi. Ilmiy qarash (yunoncha “idea” – g’oya, tasavvur va tushunchalar yig’indisi) muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g’oya bo’lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o’zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O’quvchilarni ijodiy fikrlashga o’rgatish ularda ixtirochilik ko’nikmalarini shakllantirishga zamin yaratadi52

Ma’lumki, tarbiyaning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol inson etib shakllantirishdan iborat. Barkamol inson o‘zida ma’naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi.
Tarbiyaning oliy maqsadiga erishish uchun ma’lum vazifalarni bajarishimiz lozim bo‘ladi. Bu vazifalarni tarbiyaning tarkibiy qismlari deb atash ham mumkin: milliy-mafkuraviy, g‘oyaviy, xuquqiy, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy va boshqa tarbiyalar. Tarbiyaning har bir tarkibiy qismi oliy maqsadga xizmat qilishi bilan bir qatorda o‘z mazmun va vazifalariga ega. Mana shu vazifalar va ularga qo‘yiladigan talablar tarbiya mazmunini tashkil etadi.53
Dunyoqarash – tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi. SHaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga

52 Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).
53 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 2007. 47-77 стр.

qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. YOsh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi.

Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi. SHaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e’tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, mustaqil fikrlovchi, intellektual qobiliyatga ega yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligiga urg‘u berilgan. YUksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar bo‘lib etishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Aqliy tarbiya o‘quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidgi vazifalar hal etiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Bilimlarini muntazam boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish.
5. Bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o‘z fikrini asoslash, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish. Aqliy ta’lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to‘laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi.54

Manbalarning ko‘rsatishcha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo‘lib, quyidagi belgilarga ko‘ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o‘zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko‘nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo‘lgan qziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e’tiqod o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea» - g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi) – muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya bo‘lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o‘zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ixtirochilik ko‘nikmalarini shakllantirish ular

54 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 2007. 97-113 стр.

tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma’lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.
Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta’minlaydi. Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi. E’tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko‘rinishi; muayyan g‘oyaga cheksiz ishonch bo‘lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi.
Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko‘ra o‘zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi.
Ikkinchi bosqichda ma’naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko‘rish taqozo etiladi.
Uchinchi bosqichda, e’tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma’naviy-axloqiy tamoyil bo‘lib qoladi. O‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo‘llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e’tiqodga aylanadi.
O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo‘lish borasidagi qarashlar muhim o‘rin egallagan bo‘lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi omil ekanligiga alohida urg‘u beriladi. Chunonchi, «... ilmu ma’rifat insonni yuksaklikka ko‘taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma’rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo‘yadigan yangi avlod paydo bo‘ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz.
Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan. Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikrcha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta’sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning e’tirofcha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o‘zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixgacha bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.
Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayxon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko‘radi, o‘z bilimlarining chinligini aniqlaydi» Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko‘pdir. Ular zamoni iqbolli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa, ko‘payadi. Odamlarning ilmlarga rag‘bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o‘sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi».
Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o‘zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo‘ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo‘ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo‘lsayu, isbotlar chinakamiga bo‘lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi».
Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta’bir joiz bo‘lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta’minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikrcha, bilimli bo‘lish ezgu ishlar tantanasini ta’minlovchi garov bo‘lib, uning yordamida hatto osmon sari yo‘l ochiladi:

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma’rifatni rivojlantirishga yo‘naltirish etakchi o‘rin tutadi. Binobarin, ilm ma’rifat zulm va bid’atdan forig‘ bo‘lish yo‘lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g‘oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o‘zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo‘lgan ilm puxta va mustahkam bo‘ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o‘zlashtirish zarurligini uqtiradi. shuningdek, ilm o‘rganish mashaqqatli yumush bo‘lib, uni o‘rganishda ayrim qiyinchiliklarni engib o‘tishga to‘g‘ri kelishi, bu yo‘lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo‘lish orqaligina mukammal bilimga ega bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi. Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to‘xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, ohiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilch kabi o‘tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur».

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

-Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

-Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.

-Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

-Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.

Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

-Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.

-Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.

-Fikrlash ko'nikmasiga egalik.

Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea» - g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma'lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Ilmiy tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo'lish borasidagi qarashlar muhim o'rin egallagan bo'lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omil ekanligiga alohida urg'u beriladi. Chunonchi, «... ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz. Biz ana shu olijanob maqsadlarni odamlar ongiga singdirish uchun harakat qilayapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta boylik deb bilsa, hayotini shunga baxshida etsa, bilingki, odamzod yorug' kunlarga erishishi muqarrar». O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar,

muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari yanada samarali sanaladi.
Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o'rin tutgan mafkuraviy g'oyalar va ularning mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lish o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan ta'lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e'tirof etilgan milliy istiqlol g'oyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma'lumotlar berib borish, ularga nisbatan o'quvchilarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yo'l hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Ilmiy dunyoqarash tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Sharq mutafakkirlarining shaxs dunyoqarashini shakllantirish borasida qarashlar-dan namunalar keltiring.
3. Aqliy tarbiya mohiyati nimalardan iborat?
5. O‘quvchi dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta’sir ko‘rsatadi?
9. Davlat ramzlarini bilish va ularning mohiyatidan xabardor bo‘lish fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda qanday ahamiyatga ega?
14. Ma’naviyat tushunchasiga ta’rif bering.
15. O‘quvchilarda yuksak ma’naviyatni tarbilash omil, vosita va usullarini sanab o‘ting.
16. Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifalarini izohlang.
17. Axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyalarini tavsiflang.
18. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning shakl, vosita va usullarini tavsiflang.

Test topshiriqlari:

1.Bolalar (o’quvchilar) jamoasining shakllanishi qanday bosqichlarda kechadi?

a) uch bosqichda;
v) ikki bosqichda;
s) to’rt bosqichda;
d) bir bosqichli bo’ladi;
5)besh bosqichda.

2. Bolalar (o’quvchilar) jamoasi shakllanishining qaysi bosqichida guruh (sinf) faollari shaxsga nisbatan talablar qo’yadi?

a) ikkinchi bosqichda;
v) to’rtinchi bosqichda;
s) beshinchi bosqichda;
d) birinchi bosqichda;
e) uchinchi bosqichda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T., «Ma’naviyat», 2008.
2. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. – T., «O‘qituvchi», 1993.
3. Mavlonova R., To‘raeva O. Pedagogika. – T., «O‘qituvchi», 2010, 52 b.
4. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. – T., «O‘qituvchi», 1996.
5. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. A.Munavvarov tahriri ostida. – T., «O‘qituvchi», 1996.
6. Podlaso’y I.P. Pedagogika. V. 3-x kn., kn. 3. – Moskva, VLADOS, 2007
7.R.Movlonova . Umumiy pedagogika. “Fan va texnologiya” 2018 yil.
8.R.Movlonova.Umumiy pedagogika - Fan va texnologiya Toshkent- 2018.

Seminar mashg'uloti.
4 -mavzu: Ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxs dunyoqarashini shakillantirishning muhim omili.
Reja:

1.Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
2.Ma'naviy-axloqiy tarbiya shakl va metodlari.

Umumiy tushuncha. Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asarida o'zbek xalqining boy yuksak ma'naviyatini o'sib kelayotgan yosh avlodda shakllantirish omillari, vosita va usullarini batafsil ochib berganlar. Bugungi kunda yoshlarimizni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmunini milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida boyitishimiz, uni amalga oshirishda xalqimizning boy merosi, samarali vosita va usullaridan foydalanish zarurati mamlakatimizda olib borilayotgan davlat ta'lim siyosatining dolzarb muammolardan biriga aylandi.
"Ma'naviyat" keng qamrovli tushuncha bo'lib, u o'z ichiga insonning barcha qarashlari, g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy, axloqiy, badiiy-estetik qarashlarini qamrab oladi. Birinchi prizidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "ma'naviyat- insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir". 55
O'quvchi-yoshlarda yuksak ma'naviyatni tarbiyalash faqat uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshiriladi. Bunday tarbiya bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.
Tarbiya ijtimoiy xayotning uzluksiz tushunchasi bo'lib, u tarixiy xarakterga egadir. Qadimgi Gretsiyada va Rimda tarbiyaning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi fazilatlarga o'rgatish, unda fuqarolik, vatanparvarlik, ja'surlik, sadoqat, do'stlik kabi sifatlarni rivojlantirish bo'lgan.
O'rta asrlarga kelib yosh avlodda diniy e'tiqod, iymon, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish zarurati to'g'ilgan. Markaziy Osiyo xalqlari bu yo'nalishda katta muvafaqqiyatlarga erishgan. Bu davr buyuk mutafakkirlarni dunyoga keltirdi. Siyosiy-ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi muammosi ham yangilanib bordi. Ma'lum muddat bizning hayotimizga yod bo'lgan siyosiy-mafkura kirib kelib, o'z hukmini o'tkazishga harakat qildi va yoshlarimiz ongiga uni singdirish o'sha davr tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda uning ruhiy asoratlaridan to'liq qutildik. Ushbu mafkura 70 yildan ortiq hukmronlik qilib keldi. Bu davrda ta'lim sohasida bir qancha yutuqlarga erishgan bo'lsakda, lekin juda ko'plab ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizdan yiroqlashtirish tarbiyaning bosh vazifalaridan biri bo'ldi. Jumladan, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy-ma'rifiy boyliklarimiz, diniy e'tiqod va iymonimiz kabi ko'plab tarbiyaviy ozuqa vositalarimizdan foydalanishga izm berilmadi.
Mustaqillik sharofati bilan erkinlikka erishdik, boy ma'naviy qadriyat va an'analarimiz qayta tiklandi. Hammamiz azaldan orzu qilgan kunlarga etishdik. O'zbekistonning ertangi kuni, ravnaqi, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishi albatta o'sib kelayotgan barkamol yosh avlodga bog'liq. Buning uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida zamonaviy bilimlar berish, ularni har tomonlama etuk shaxs etib tarbiyalash ustuvor masalalar qatoriga kirdi.
Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, Prezident Sh.M.Mirziyoevning bir qancha Qarorlari, asarlari va chiqishlarida, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa manbalarda respublikamiz yoshlarini har tamonlama etuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalash vazifalari aniq belgilab berilgan.
Bugungi kunda tarbiyaning asosiy maqsadi - yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol insonlar etib shakllantirishdan iborat. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi.

55 И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., «Маънавият», 2008. 9-14 б.

Yoshlarimizni ma’naviy jihatdan tarbiyalash uchun birinchi galda SHarq mutafakkir-larining meroslari dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Al-Farobiy, A.YAssaviy, B.Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Firdavsiy, A.Temur, A. Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli bir necha mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, pedagogik, axloqiy qarashlariga tayanib ish ko‘rilsa tarbiya ta’sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

Yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish - bizning muqaddas burchimiz, or-nomusimiz. Lekin, barkamol insonni tarbiyalab etishtirish oddiy, oson ish emas. U ko‘plab, oylab, yillab mehnat qilishni, sabr-toqatni, chidam va qat’iyatlilikni, irodani talab etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim to‘g‘risidagi davlat xujjatlarida ta’lim tizimini tubdan isloh etib, Respublikamiz istiqbolini belgilovchi yoshlarni har tomonlama etuk, barkamol shaxs, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida raqobatbardosh kadrlar etib tayyorlashni oliy maqsad qilib qo‘ydi. Bunday inson, kasb-hunar egasi oilada, maktabda va boshqa ta’lim tizimi jabhalarida ta’lim-tarbiya oladi.

Tarbiyaning oliy maqsadiga erishish uchun ma’lum vazifalarni bajarishimiz lozim bo‘ladi. Bu vazifalarni esa tarbiyaning tarkibiy qismlari deb atash ham mumkin: milliy-mafkuraviy, g‘oyaviy-siyosiy, xuquqiy, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy tarbiya. Tarbiyaning har bir tarkibiy qismi oliy maqsadga xizmat qilishi bilan bir qatorda o‘z vazifalariga ham ega.

Milliy-mafkuraviy tarbiya - o‘quvchilarda milliy istiqlol g‘oyasiga, umumbashariy va milliy qadriyatlarga sodoqat, vatanparvarlik his-to‘yg‘ularini shakllantirishga qaratilgan jarayondir.

Huquqiy tarbiya- o‘z haq-huquqlarini biladigan, ularni himoya qila oladigan, mustaqil fikrlaydigan, siyosat va inson xuquqini chuqur biladigan, konstitutsiya qonunlariga amal qiladigan, o‘z fuqarolik burchlarini yaxshi his etadigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Aqliy tarbiya - barkamol inson tarbiyasining etakchi tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg‘ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglilik hislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o‘stirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Axloqiy tarbiya. Axloq- ijtmoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, insonning jamiyatga, mehnatga, boshqalarga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi hulq-odob qonun-qoidalari, me’yorlari majmuidir. Ana shu xulq-odob qonun-qoidalarini o‘quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko‘rsatilayotgan ta’sirga axloqiy tarbiya deyiladi.

Musulmon axloqining asoslari mazmunan boy va rang-barang ko‘rinishlarda o‘zligini namoyon etadi. Markaziy Osiyo xalqlari axloqshunoslik sohasida eng boy tajribaga egadirlar. Qur’oni Karim va Hadisu shariflardagi axloqqa oid ibratli ko‘rsatmalar, maslahatlar, ota-bobolarimiz yaratgan ma’naviy meroslar, mutafakkirlarimizning axloq haqidagi yaratgan ma’naviy meroslari bugunga qadar ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Axloqiy tarbiya eng muhim insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan jarayondir.

Axloq, xulq va atvor so‘zlari arabcha so‘z bo‘lib, ular o‘zbek tilida ham o‘z ma’nosida ishlatiladi.

Axloq nima o‘zi?

Axloq - ijtimoiy ong shakli bo‘lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida insonning xulq-atvorini yo‘lga solib turadigan qoidalar, talablar, va me’yorlar majmuidan iborat. Axloqda jamiyatda tarkib topgan «yaxshilik», «sharaf», «vijdon», «adolat», «to‘g‘rilik», «halollik», «poklik» singari tushunchalari mustaxkamlangan odamlarning xulq-atvorlari, me’yorlari aks etadi. Bu axloqiy tushunchalarning hammasi ham baholanuvchi harakterga ega.

Yosh avlodning axloqiy tarbiyasida axloqiy ong va axloqiy tuyg‘ularni shakllantirishgina emas, balki eng muhimi – ularning ma’naviy-axloqiy munosabatlarida namoyon bo‘ladigan faoliyatning har xil turlariga jalb etish mumkin. Maktab o‘quvchilarining faoliyati jarayonidagi axloqiy munosabatlarida ularning odobli bo‘lib tarbiyalanish darajasi aks etadi. A.S.Makarenko o‘z vaqtida bunday deb ta’kidlagan edi: «Biz doimo munosabatlar bilan ish ko‘ramiz, chunki xuddi munosabat pedogogik ishimizning xaqiqiy ob’ekti bo‘lganligi sababli, bizning oldimizda doimo ikkita ob’ekt: shaxs va jamiyat turadi. SHaxsni jamiyatdan ajratib qo‘yishning, uni munosabatlardan holi qilishning mutlaqo iloji yo‘q».

Axloqiy munosabatlar o‘z ichiga kishining jamiyatga, mehnatga, boshqalarga va o‘z-o‘ziga axloqiy munosabatlarini oladi. Jamiyat taraqqiyoti tarix shuni ko‘rsatadiki, faqat ma’naviy keng quloch yoygan, ilm taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga, ezgulikka intilishi kuchli bo‘ladi.

Axloq insoniyat ma’naviy madaniyatining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u kishilarning tarixiy tarkib topgan xulq-atvori va yurish turishini ifodalaydigan, ularning bir-biriga va jamiyatga munosabatini aks ettiradigan muayyon qoidalar yig‘indisidir.

Axloq tushunchasi irodalilik, jasurlik, qa’tiylik, vijdoniylik, kamtarlik, adolatlilik, sharm-xayolilik, shirinzabonlik kabi tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi.

Iroda – maqsadga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdir. Kamtarlik kishining o‘ziga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Kishining o‘z qobiliyati, mehnati va muvofaqkiyatlarini qanday baholashiga, boshqa odamlarning qadr-qimmati va yutuqlariga qanday munosabatlarda bo‘lishiga qarab uning kamtarinlik hislatlari aniqlanadi.

O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash ta’lim bilan uzviy ravishda bog‘lab olib boriladi. Ularda ijtimoiy ong va xulq birga shakllantiriladi.

O‘quvchilarda jamiyat va Vatanga, mehnatga, kishilarga bo‘lgan axloqiy munosabatlarini shakllantirish vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro etukligi, baynalminallik kabi fazilatlarida aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini ko‘paytirish, ularni himoya qilish va mustaxkamlashga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi.

2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash – shaxsning butun ma’naviy yunalishini belgilaydi. Chunki kishi ishlamay, ko‘rashmay yashashi mumkin emas. Mehnat – yashash manbai. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo‘ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va ijtimoiy foydali mehnatga tayyorligida, mehnatni xurmat qilish va mehnatsevarligida ifodalanadi.

3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat – shaxsning jamoatchilik, ko‘pchilik ma’nfaatini o‘z shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishidir.

4. Shaxsning o‘ziga, o‘z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi – bu o‘quvchini o‘z-o‘ziga nisbatan ongli intizom ruhida tarbiyalashga o‘rgatishdan iboratdir.56

Shaxsni har tomonlama kamol toptirishdagi umumiy tizimning asosi axloqiy tarbiya hisoblanadi. Axloqiy munosabatlar muayyan fazilatlarni o‘z ichiga oladi, chunki ma’naviy fazilatlar axloqiy ong, axloqiy his-tuyg‘u va odob birligidan iboratdir. Demak, axloqiy munosabatlar – bu jamiyatga, mehnatga, boshqa odamlarga, o‘z-o‘ziga munosabatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qo‘yidagi axloqiy munosabatlarni shakllantirish lozim:

1.Insonning jamiyatga munosabatini belgilovchi axloqiy fazilatlar ichida vatanparvarlik va baynalminallik axloqiy tarbiyada alohida o‘rin tutadi. Hadisu sharifda “Vatanni sevmoq iymondandur”, deb bejiz aytmagan.

2.Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat shaxsning jamoatchilik, ko‘pchilik manfatini o‘z shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishdir.

3.Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash shaxsning butun ma’naviy yo‘nalishini belgilaydi.

4.SHaxsning o‘ziga, o‘z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash – bu o‘quvchining o‘z-o‘zini ongli intizom ruhida tarbiyalashga o‘rgatishdan iboratdir.

Inson – tabiatning eng buyuk ne’mati. Unga aql-idrok, ong, farosat kabi buyuk fazilatlar ato etilganki, u o‘z insoniy fazilatlariga sayqal berib, rivojlantirib olamni, insoniyatni kamolotga etaklab boradi.

56 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 2007. 113-126 стр.

Odamning inson sifatida shakllana borishida uning kamolot darajasi odob, axloq, madaniyat, ma’naviyat kabi hislatlarning unda qanchalik mujassamlashgani bilan belgilanadi. SHu o‘rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to‘xtalib o‘tishimiz joizdir.
Odob – har bir insonning boshqa bir inson yoki jamoa bilan bo‘lgan muloqotida, yurish-turishida o‘zini tuta bilishidir.
Xulq – odobning ichki tuyg‘u, ko‘nikmaga aylangan ko‘rinishidir.
Axloq – jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan xulq-odob me’yorlari majmuidir.
Madaniyat – jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to‘plangan barcha ijobiy yutuqlar majmui hisoblanadi
Ma’naviyat – insonning barcha qarashlarini aks ettiruvchi mezon, barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuidir.
Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi, ong esa moddiy va ma’naviy manbaaga aylanadi. shu tarzda inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi.
Inson ma’naviyatli bo‘lishi uchun juda ko‘p insoniylik bilimlari sarchashmasidan bahramand bo‘lishi, o‘z ustida tinmay ishlashi va hayotni kuzatib, undan saboq chiqarib borishi lozim.
Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli asarida komil insonlar haqida shunday deydi: «Yaxshi fazilatlarni o‘ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur». Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, saxiy, mehnatkash, mehr-shafqatli, bilimdon, o‘zgalar uchun qayg‘uradigan mard insonlarni ko‘zda tutadi, «yomon insonlar deb, yomonlik fazilatlari yaxshilik fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytiladi», - deydi. Avloniy kishilarni o‘zida yaxshi fazilatlarni to‘plagan, el nazariga tushgan, yaxshilikka intiluvchi, o‘zini tarbiyalab borishga o‘rgangan insonlar bo‘lishga undaydi.
Moziyga bir nazar tashlaylik. Biz xohlaymizmi yo‘qmi, sharqona erkaklarimizga xos mardlik, jasurlik, g‘urur kabi, momolarimizdan or-nomus, iffatlilik, nazokatlilik, sharm-xayo, shirinzabonlik kabi hislatlar asrdan-asrga meros bo‘lib o‘tib kelmoqda.
Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyati, asosiy tushunchalari. Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:
umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
vatanparvarlik.
Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi. Har qanday mafkura kabi O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri ham jamiyatda ma'naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi. Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviv-axloqiy tarbiva asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.
Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.
Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» — ma'nolar majmui) mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasawur, tushuncha va g'oyalar majmui hisoblanadi. Jamiyat ma'naviyati uch muhim soha yo'nalishida amaliy faoliyatni tashkil etish asosida shakllantiriladi:



1-rasm. Jamiyat ma 'naviyatini shakllantiruvchi omillar

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Ma'rifat shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Mafkura (arabcha «mafkura» - nuqtayi nazarva e'tiqodlar tizimi, majmui) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy yuksaklish, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar tizimi.

Har uchala sohaning uzviy birligi asosida jamiyat ma'naviyati yuksaladi.

Ma'naviyat sohasida ijobiy yechimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz - milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi - iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat».

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos o'rin tutadi.

«Axloq» (lotincha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

What are the religious and moral assessment? Religious and moral education of children and young people's knowledge and assessment of the outlook. Readers as part of a research study to collect evidence and to practice their traditions, beliefs and values, through the use of a specific assessment vazifalarnidan skills. In addition, since the early years of the evaluation of the knowledge and skills of children and young people to discuss the further development of news, skills, beliefs,	Diniy va ma'naviy-axloqiy baholashning xususiyatlari qanday? Diniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya bolalar va yoshlarning bilim va dunyoqarashni baholashga qaratilgan. O'quvchilarning bir qismi tadqiqotchi sifatida dalil to'plashi o'rganishi va ularning amaliyotga tadbiq etish va an'ana va e'tiqod va qadriyatlar, uchun o'ziga xos baholash vazifalarnidan foydalanish orqali ko'nikmaga ega bo'ladi. Bundan tashqari, bilim va ko'nikmalarini baholashda dastlabki yillaridan boshlab bolalar va yoshlar tobora taraqqiyot yangliklarini muhokama qilishi, ularning ko'nikmalarini

values, and respect for other traditions	e’tiqodlar, qadriyatlar, va boshqa an’analariga xurmat kasb etmoqda.57

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlami shakllantirish maqsadida o'quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etishdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
3. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliligi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlami shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi. Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgalar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud.

Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega boiib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzi yanada yaqqol namoyon etmoqda.

Tekinxo'rlik, narkomaniya, tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklami iste'mol qilish, fahsh, johillik kabi salbiy illatlar ham hayotda uchrab turadi. Bu illatlar insonning axloqiy qiyofasinigina emas, balki o'zini ham yemirib boradi. Inson ham ma'naviy, ham jisman halok bo’ladi. Shu bois insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo'nalishlaridan ustun qo'yilishi zarur. Binobarin, ma'naviy-axloqiy tarbiya yosh avlod tarbiyasi bilan bog’liqdir. Agar tarbiyaning boshqa yo'nalishlarida muayyan tarbiya (masalan, jismoniy, huquqiy va boshqalar) u yoki bu tarbiyaviy tadbirlar tizimiga asoslansa, ma'naviy-axloqiy tarbiyada esa har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, tarbiyaviy vaziyatni inobatga olgan holda, yaxlit tarbiyaviy ishlar rejalashtiriladi va unga mos metod hamda usullar tanlanadi.

Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyat, axloq inson ongining shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunchaga ega bo'lish nazarda tutiladi. Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi. Natijada ular o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtayi nazardan baholaydilar. Ma'naviy-axloqiy

57Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).

tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, o'quvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo'lgandagina shakllangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, o'quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Xatti-harakatlar tizimi ma'naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

— ma'naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;

o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarni tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarning o'z nuqtayi nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;

shaxsda o'z idealiga intilishiga bo'lgan his-tuyg'ularini uyg'otishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko'nikmalarni tarbiyalash;

ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar - insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda o'quvchilar xatti-harakatlarida ko'zga tashlanadigan salbiy odatlar-jamoa joylarida qattiq gapirish, qo'pol so'zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o'ylamay gapirish, ishonchli bo'lmagan hamda, dalillar bilan tasdiqlanmagan voqea-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo'lish, qo'lini silkitib gapirish kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Arzimas bo'lib ko'ringan, lekin shaxsning kelajak hayot va kasbiy faoliyatni tashkil etishda, muvaffaqiyatga ega bo'lish yo'lida, zarurli bo'lgan bu kabi odatlardan holi bo'lishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish o'qituvchilarning muhim vazifalaridan sanaladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida axloq «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur», - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'xtalib o'tadi. Allomaning nuqtayi nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (e'tiqod), nazofat (poklik va tozalik), g'ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat) intizom, nafs me'yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g'urur)., muhabbat, avf (kechirimli bo'lish). Bu xislatlar ma'naviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o'z atrofidagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o'quvchining o'zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi.

Abdulla Avloniy yomon xulqlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: g'azab, aysh-ishrat, jaholat, safohat (umri va molini bekorchi narsalarga sarf etish), hamoqat (o'zbilarmonlik, manmanlik), adolat

(dangasa, yalqov), hasosat (ta'ma, hirs), rahovat (g'ayratsizlik), anoniyyat (xudbin, mutakabbir, manman), adovat (keksaqlash), namimat (chaqimchilik), g'iybat, haqorat, jibonat (qo'rqoqlik), hasad, kizb (yolg'on), nifoq, ta'ma, zulm va boshqalar.
Hozirgi davrda yoshlar o'rtasida tobora ommaviylashib borayotgan «Zakovat», «Intellektual ring», «Qizlar davrasi», «O'yla, izla, top!» kabi o'yinlar ham mazmun, ham mohiyati, ham metodik jihatdan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish boy milliy madaniy, tarixiy va pedagogik an'analar, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Bu borada tarbiya jarayonida o'quvchining axloqiy, ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihatdan shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlar samarali natijalar beradi. Bunday tarbiya o'quvchilarda voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, o'zini real voqelikda anglash, kelgusi hayot yo'lini to'g'ri belgilash, axloq, e'tiqod, ishonch, axloqiy qadriyatlarni to'g'ri anglash, ijtimoiy hayotda turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga yo'llaydi.

Savol va topshiriqlar.

1.«Odob-axloq inson ko'rki» mavzusida qisqa (10 minutlik) munozara o'tkazing.

Munozara davrida qator insoniy sifatlarni ham ko'rib chiqamiz. Eng avvalo inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va o'rnini aniqlab olmog'imiz lozim. Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi.

2.Sifat alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi kategoriyadir.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifat majmui.
Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamolat darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir.
Odob - har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish - turishida o'zini tuta bilishidir.
Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq - odob normalari majmui.
Madaniyat - jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.
Ma'naviyat - inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.
Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson sekin - asta takomillashib, komillikka erishib boradi.
Musulmon axloqining asoslari mazmunan boy va rang - barang ko'rinishlarda namoyon etadi. Qur'oni Karimdagi, Hadisi Sharifdagi asrlar davomida ota - bobolarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf - odatlar, ma'naviyatimiz sarchashmalari Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa olimu yozuvchilarning axloq haqidagi fikr-mulohazalari hozirgacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan.
Milliy istiqlol mafkurasining ma'naviy, madaniy va yuksak axloqiy - ruhiy qadriyati shundaki, u hamma vaqt har qanday sharoitda kishini halollikka da'vat etadi. Zotan, uning siyosiy ahamiyati va ma'naviy qadriyati ham xuddi shu bilan belgilanadi.
Ma'naviy-axloqiy tarbiyada vijdonning o'rnini qanday tushunasiz?
Tarbiyada vijdon eng oliy ma'naviy - insoniy sifatdir. Vijdon tushunchasi, insonning vijdoniy sifati, uning ongi, qalbi, aqli va irodasiga bog'liqdir. Chunki insonning ichki ruhiy kechinmalarida yaxshilik va yomonlik doimo kurashda bo'ladi. Agar inson biror ma'naviy vaziyatda o'z qalbiga quloq solib, irodasini ishga solsa, g'arazgo'ylik, mansabparastlik, molparastlik kabi g'ayri insoniy illatlardan ustun chiqib oqilona ish ko'rsa uning vijdoniy sifati yuqoriligini ko'rsatadi. Inson qalbida g'ayri insoniy illatlarning ustun bo'lishi aslida ma'naviy kasallikdir. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida shunday deyiladi: «Milliy mafkura insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql - zakovat, iymon - e'tiqod

tufayli yuksak ma’naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo’lini yoritadigan mayoqdir»58.
Har bir kishi o’z - o’ziga, kasbiga, davlatiga, xalqiga, insoniyatga, olamga vijdoniy munosabatda bo’lishi lozim.

Nazorat savollari

1 Aqliy tarbiya mohiyati nimalardan iborat?
2. O‘quvchi dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Davlat ramzlarini bilish va ularning mohiyatidan xabardor bo‘lish fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda qanday ahamiyatga ega?
4. Ma’naviyat tushunchasiga ta’rif bering.
5. O‘quvchilarda yuksak ma’naviyatni tarbilash omil, vosita va usullarini sanab o‘ting.
6. Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifalarini izohlang.
7. Axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyalarini tavsiflang.
8. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning shakl, vosita va usullarini tavsiflang.

Seminar mashg’uloti.

5 -mavzu: Fuqoralik tarbiyasining mazmuni va vazifalar.

Reja:

1.Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari.
2.O’quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish.
3.Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari.
4.Huquqiy tarbiya.
5.Yosh avlodning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish - fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi.

Tayanch iboralar: fuqaro, fuqarolik tarbiyasi, bayrog'i, gerbi (tamg'asi) hamda madhiyasi, Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi, Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi, Huquqiy tarbiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy faoliyat.

Umumiy tushuncha

Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish — fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi. Jamiyat tomonidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini tahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlar yoki odatlar ma'qullanadi yoki qoralanadi.
O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining maqsadi erkin, demokratik, insonparvar huquqiy davlat va jamiyatni qurishdir. Bu jamiyatni bunyod etish jarayonida yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasini tashkil etish vazifalarini yanada murakkablashtiradi. Zero, demokratik, huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy onglilik darajasi, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligi va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlariga bog'liq. Fuqarolikning ijtimoiy asosi yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo'lib, unda fuqarolarning shaxsiy manfaati jamiyat manfaati bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunida aks etgan g'oyalar,

58 Миллий истиқлол ғ’ояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Тошкент: «Ўзбекистон», 2000. 6-бет.

demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me'yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi.
Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy obyekti fuqaro sanaladi. Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:
1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.
2. O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.
3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.
O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.
Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.
Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish.
O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitutsiyasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.
O'quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma'lumot berish, bu xususida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish ko'zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo'ladi.
Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko'zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lash; O'zbekiston Respublikasini himoya qilish. Yuqorida qayd etilgan burchlarni bajarish O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir.
Fuqaro. Fuqarolik va uning mohiyati. Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish: jamiyat va shaxs (fuqaro) manfaatlariga toia mos keladi. Shu sababli Respublika mustaqilligi sharoitida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keldi. Fuqarolik tarbiyasini keng ko'lamli (komplekd) tarzda tashkil etish - bugungi kun da'vati va talabi bo'lib qolmoqda. Ushbu talabni ijobiy ravishda hal etish oila - ta'lim muassasalari, jamoatchilik- davlat -jamiyat o'rtasidagi mustahkam hamkorlik muhim ahamiyatga ega.
Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs. O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo'lmay, muayyan mexanizmga ega subyekt sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o'rni qonun yo'li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir davlatga qarashliligi holati fuqarolik deyiladi. O'zbekiston fuqarosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan tegishli qoidalar, belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko'rsatilib o'tilgan burchlarni bajaradi.

Fuqarolik huquqiy va axloqiy me'yoriarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublikdir. Demak, «fuqarolik o'z davlatiga nisbatan huquq va burchlar bilan bog'langan, huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni nazarda tutadi».
Fuqarolikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir:
- muayyan davlat (jamiyat) a'zosi ekanligini his etish, shaxs taqdiri davlat va jamiyat hayoti bilan uzviy, chambarchas bog'liq ekanligini tushunib yetish;
- xalq, davlat oldidagi fuqarolik huquq va burchlarini qonunchilik asosida bilish, ularga so'zsiz, qat'iy amal qilish;
- o'z xalqi, davlati o'tmishiga hurmat tuyg'usini qaror toptirish, shaxsiy manfaatlaridan Respublika (Vatan) manfaatlarini ustun qo'ya bilish, xalq va Vatan ravnaqi, istiqboli uchun kurashishga tayyorlik, yurt tinchligini himoya qilish, asrab-avaylash;
- davlat ramzlariga nisbatan cheksiz muhabbatni qaror toptirish, ularning muhofazasi uchun tayyorlik, davlat ramzlarining millat, xalq or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmati ekanligini anglash;
- ijtimoiy-siyosiy onglilik, ijtimoiy faollik, davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilish;
- milliy va umuminsoniy axloq hamda huquq me'yorlarini buzilishiga nisbatan murosasiz kurashish.
O'quvchilarni fuqarolik ruhida, tarbiyalashda davlat ramzlarining ahamiyati. Davlat ramzlari muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuidir. Muayyan davlatning bayrog'i, gerbi (tamg'asi) hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuini ifodalaydi.
Davlat ramzlari o'zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy-g'oyaviy mazmunni ifoda etadi. Davlat ramzlari (bayroq, gerb)da tasvirlangan ranglar, tasvirlar muayyan xalq, millat o'tmishi, qadim an'analari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, hayotiy intilishlarini ifoda etishga xizmat qiladi. Davlat madhiyasida esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi g'oyalari tarannum etiladi.
Davlat ramzlari davlatning mavjudligini ko'rsatuvchi belgilar sanaladi. Ramzlar - bu shartli belgilar bo'lib, ular qadim davrlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan.
O'zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligining e'lon qilinishi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni ifoda etuvchi ramzlarni yaratishni taqozo etdi. Shu munosabat bilan 1990-yil 30-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qaror qabul qilindi va bu borada amaliy ishlar boshlab yuborildi.
O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi qabul qilindi. Ushbu madhiya mualliflari O'zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov va taniqli bastakor Mutal Burxonovdir.
Ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilarga davlat ramzlari, ularning mohiyati borasidagi ma'lumotlarni berish, ularning ongiga davlat ramzlarining xalq, millat or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatining timsoli ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni singdirish maqsadga muvofiqdir.
Xususan, O'zbekiston Respublikasi davlat Madhiyasining quyidagi matni o'quvchilar tomonidan nafaqat yod olinishi, balki madhiya mazmunida ifoda etilgan g'oyalar mohiyatini chuqur tahlil eta olish layoqatini shakllantirish uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratib berish ta'lim muassasalari jamoasi, ularning rahbariyati oldida turgan asosiy vazifalardan biridir:

Serquyosh, hur o'Ikam, elga baxt, najot,
Sen o 'zing do'stlarga yo'Idosh, mehribon,
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki borjahon!
Naqorat:

Oltin bu vodiylar -jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!
Bag'ri keng o 'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Xalqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!
Naqorat:
Oltin bu vodiylar -jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «O'zbekiston SSRning davlat ramzlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilinib, unga muvofiq 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasining bayrog'i, 1991-yil 2-iyulda esa O'zbekiston Respublikasining gerbi (tamg'asi) qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bayrog'ida oq, ko'k, yashil va qizil ranglar o'z ifodasini topgan bo'lib, ularning har biri muayyan ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Oq rang qizil rang bilan hoshiyalangan. Respublika bayrog'ida yurt tarixi, o'zbek xalqining milliy ruhi va yurt tabiatining jamoli aks ettirilgan. Bayroqning chap tomoni yuqori qismida yarim oy va o'n ikki yulduzning tasviri tushirilgan. Ko'k rang va yulduzlar tasviri tiniq, moviy osmon belgisidir. O'rtadagi oq rang esa yorug' kun va pokiza, oq ko'ngilli o'zbek xalqining tilagi, qizil hoshiyalar esa tomirlarda jo'sh urayotgan qon kabi tiriklik va hayot ramzidir. Yashil rang esa qadim-qadimdan tabiat belgisi, oy (yangi oy) ramzining berilishi mustaqillik sharoitida hayot kechirish xalqimiz uchun o'ziga xos yangi davr ekanligining ifodasidir. Yulduzlar sonining o'n ikkitaligi yil oylari, muchal hisobiga nisbatdir. Umuman, yulduzlar qadimdanoq abadiyat timsoli sifatida qadrlanib kelingan. XVIII asrdan boshlab esa, buyuk intilish hamda ulug' g'oyalarning ifodasi sifatida talqin etila boshlangan.

Respublika milliy bayrog'ining huquqiy maqomi «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonunda belgilab berilgan. Milliy bayroq va uning mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish sinf soatlarida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish chog'ida amalga oshiriladi.

Bayroq davlat mustaqilligining belgisigina bo'lmay, u O'zbekiston Respublikasi nomini xalqaro maydonda ramziy ravishda ifoda etish uchun xizmat qiladi. Davlat bayrog'i Prezidentlik apparati, Respublika Oliy Majlisi va hukumati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorig'i Kengeshi va hukumati, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, turli davlatlarda Respublika nomidan ish olib boruvchi O'zbekiston Respublikasining doimiy vakolatxonalari binolarida ko'tariladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellik mehmonlar Respublika bayrog'ini hurmat qilishlari shart. Davlat bayrog'iga nisbatan hurmatsizlik qonun yo'li bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbida tog'lar, daryolar, bug'doy boshoqlari (chap tomonda), ochilgan g'o'za shohlarining (o'ng tomonda) gulchambar holidagi tasviri aks ettirilgan. Gerb o'rtasida serquyosh yurt ramzi bo'lgan quyosh o'zining zarrin nurlarini sochib turibdi. Gerbning yuqoridagi qismida Respublika mustaqilligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo'lib, uning ichida yarim oy (yangi oy - yangi tuzum) va yulduzlar (abadiyat timsoli) joylashtirilgandir. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi bo'lgan kumush rangli Xumo qushi qanotlarini yozib turgan holda tasvirlangan. Xumo qushi insonga baxt keltiruvchi, uni turli ofatlardan himoya qiluvchi, mehribon jonzot sifatida o'zbek xalq og'zaki ijodida keng talqin etib kelingan. Gerbning pastki markaziy qismida Davlat bayrog'i ranglaridagi chambar lenta o'zagida «O'zbekiston» so'zi yozilgan. Gerbda ifoda etilgan sakkiz qirrali burchak - masammandir. Ushbu belgi ijtimoiy hayotning ma'lum bir g'oya, kuch birlashtiradi degan g'oyani anglatishga xizmat qiladi. Paxta va bug'doy boshoqlarining tasviri rizqu-ro'zning nishonasidir.

Davlat gerbining huquqiy maqomi ham maxsus Qonun bilan himoyalanadi. Davlat gerbidan foydalanish huquqi maxsus davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralariga berilgan bo'lib, ularga O'zbekiston Prezidenti devoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, davlat hokimiyati va boshqaruvning mahalliy idoralari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, barcha toifadagi sudlar, prokuratura, diplomatik va konsullik vakolatxonalari kiradi.
Davlat gerbining tasviri tushirilgan muhrlar, huijatlarning blankalari va ulardan foydalanish, saqlash hamda yo'qotish tartibi Respublika Vazirlar Mahkamasining maxsus hujjati asosida tartibga solingan.
Davlat gerbining tasviri, shuningdek, fuqarolik pasporti, korxona, tashkilot, muassasalarning ish qog'ozlari, muxrlarida o'z aksini topgan. Respublika fuqarosi shaxs sifatida o'z sha'ni, or-nomusini qanchalik muqaddas bilsa, fuqaro sifatida davlat ramzlarini shu qadar muqaddas bilishi, uni asrash, muhofaza qilish uchun o'zida mas'ullik tuyg'usini qaror toptirishi lozim. Fuqarolik tarbiyasini yo'lga qo'yish jarayonida davlat ramzlaridan noqonuniy hamda, axloqsiz ravishda foydalanayotgan kimsalarga nisbatan murosasiz bo'lish lozimligini uqtirib borish maqsadga muvoflqdir.
O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida shunday yozadi: «O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:
- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik»'.
Fuqarolik tarbiyasining asoslaridan biri millat, xalq o'tmishini o'rganish orqali milliy o'zlikni anglash tuyg'usini qaror toptirish sanaladi.
Shaxs ham, jamiyat ham o'tmishni o'rganish, uning har bir bosqichini tahlil qilish asosida kelgusi hayot rejasini ishlab chiqadi.
O'tmish mutafakkirlarining qarashlari, boy ma'naviy meros g'oyalari bugungi avlod uchun dasturilamal bo'lishi lozim.
Allomalar, xalq qahramonlari hayotini o'rganish, millat va shaxsga inson sifatida kim ekanligini anglab yetishga yordam beradi.
Fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish murakkab jarayon. Bunda dastlab o'quvchilarga fuqarolikning mohiyati va me'yoriy qoidalar mazmuniga oid bilimlar beriladi. Avvalo, o'quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushunchalar beriladi, bu xildagi xatti-harakatlarga oid namunalar keltiriladi, so'ngra faoliyat uyushtiriladi. Ana shu asosida ularda fuqarolik tushunchasi shakllanadi va fuqarolik xulqiy odatlari hosil qilinadi.
Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi taqozo etiladi. Bular:o'quv yurtida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;
fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonining muvaffaqiyati o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining saviyasiga bog'liq;
Tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo'lishiga erishish;
oila, maktab va mahalla o'rtasida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi;
O'quvchilarning axloqiy va huquqiy me'yorlar, umumiy tartibga qat'iy rioya etishga o'rgatish, zimmasidagi burchni to'laqonli ado etishlariga e'tiborni qaratish.
Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollarga javoblar olish kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi.
Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadda diagnostik (tashhis qo'yish), statistik va qiyosiy tahlilni olib borish lozim.
Yoshlarda vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish - fuqarolik tarbiyasining asosi. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida shaxsda vatanparvarlik (lotincha «patriotes» - vatandosh, «patris» - vatan, yurt) tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Binobarin,

fuqaro muayyan davlatning a'zosi sifatida uning sha'ni, obro'-e'tiborini ta'minlashi, uning manfaatlari uchun kurasha olishi zarur.
«Vatan atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi, Vatan tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir»'.
Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.
Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'tibori ham shu millat kishilar vatanparvarlik tuyg'usining darajasi bilan bog'liqdir». Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi:
Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat.
O'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik.
Vatan va millat tarixidan g'ururlanish.
Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish.
Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish.
Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish.
Vatan va millat obro'yi, sha'ni, or-nomusini himoya qilish.
Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi.
O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida vatanparvarlik, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga keng o'rin berilgan. Xususan: «O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi bu qayta o'zgarish yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli kompasdir. O'zbekistonga, uning yeriga, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi».
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.
Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, mazkur jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:
o'quvchilarga fuqaro mudofaasi hamda harbiy bilim asoslari bo'yicha dastlabki nazariy bilimlarni berish va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish;
-o'quvchilarni milliy mustaqillik, O'zbekiston Respublikasining davlat qurilishi hamda konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriluvchi tahdidlarning oldini olishga tayyorlash;
-o'quvchilarda g'oyaviy onglilikni tarbiyalash asosida, ularda terrorizm va diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi nafrat tuyg'usini tarbiyalash;
-o'quvchilarning Vatan himoyasini ta'minlash borasidagi harbiy-texnik tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
-o'quvchilarda favqulotda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko'ra olish, shuningdek, qurolli hurujlardan himoyalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- ularda hushyorlikni oshirish va hokazolar.
Huquqiy tarbiya. Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida, fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. 1993-yil mart oyida e'lon qilingan «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi»da qayd etilganidek: «Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni

egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va hokazo) faoliyati haqida o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir.

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlami qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonining muhim bosqichidir. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

O'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;

o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;

O'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;

O'quvchilar huquqiy madaniyati (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

Duties of Citizens consists of the following: compliance with the requirements stipulated by the Constitution and laws, and other people's rights, freedoms, honor and dignity; Historical, spiritual and cultural heritage protection; civil nature and the environment; payment of local taxes and duties prescribed by law;	Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko’zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O’zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo’lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig’imlarni to’lash;

Huquqiy madaniyat - shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

-keng ko'lamli ijtimoiy - huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;

-shaxs huquqiy ongini shakllantirish;

-shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Shaxsda huquqiy sifatlarni qaror topishi uning ijtimoiy - huquqiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki darajasi va sifatiga bog'liq. Doimiy ravishda, maqsadli tarzda huquqiy munosabatlarga kirishish shaxsda huquqiy madaniyat unsurlarining shakllanishiga olib keladi. Shu bois jamiyat mafkurasi, ijtimoiy tuzumda qaror topgan huquqiy munosabatlar mazmuni, uning g'oyalari o'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida o'quvchilar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatlarini real baholashga o'rgatib borish talab etiladi. O'quvchilar «O'zbekiston davlat va huquqi asoslari», «Konstitutsiyaviy huquq» o'quv predmetlari asoslarini o'rganish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari tizimi, vakillik hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va davlat qo'mitalari, mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi kabi organlar faoliyatini

o'rganish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosati mohiyatini o'zlashtirish, xalqaro huquqiy munosabatlarni yoiga qo'yilishi tartibi bilan tanishib borar ekanlar, ayni vaqtda ularda nafaqat huquqiy ong balki siyosiy ong ham shakllanadi.
Shaxs huquqiy madaniyatini quyidagi ikki asosiy qismga ajratish mumkin;
-huquqiy ong;
-huquqiy faoliyat.
Huquqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida - davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo'lishi, aholining keskin sur'atda tabaqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlar tushunchalarining paydo bo'lish jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo'llanilgan hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog'ida ko'zga tashlanadi.
Huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.
Huquqiy faoliyat huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui. Shaxs huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy faollik, huquqiy mas'ullik, huquqiy e'tiqod, huquqiy salohiyat.

Nazorat savollari
1.Fuqoro deb kimga aytiladi?
2.Fuqarolik tushunchasining mazmunini sharhlang.
3.. Fuqarolik tarbiyasini tashkil qilishdan ko‘zlangan maqsadni shaxsiy mulohazala-ringiz asosida bayon eting.
4. Davlat ramzlarini bilish va ularning mohiyatidan xabardor bo‘lish fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda qanday ahamiyatga ega?
5. Sizning fikringizcha, fuqarolik tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishi kerak?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:
1. «Tarbiya jarayonida davlat ramzlaridan foydalanish» mavzusida kichik ma’ruza tayyorlang.
2. Vatanparvarlik his-tuyg’usini baholashga oid test-so’rovnomalariga javob bering.

Quyidagi testlarni yeching.
1.O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan va necha bob, bo’lim, moddadan iborat?.
A. 1991 yil 31 avgustda, XXU bob, 6 bo’lim, 125 moddadan
V. 1992 yil 2 iyulda. XXU1 bob, 5 bo’lim, 127 moddadan
S. 1992 yil 8 dekabrda. XXU1 bob, 6 bo’lim, 128 moddadan
D. 1992 yil 18 noyabrda. XXU1 bob, 4 bo’lim, 125 moddadan.
2. «Har kim bilim olish huquqiga ega» degan gap Konstitutsiyaning nechanchi bob va moddasida yozilgan?
A. 1X bob, 41 modda. S. 1X bob. 31 modda.
V. 1X bob. 40 modda. D. X bob, 43 modda.
3.Huqiqiy tarbiyaga oid eng yirik asar «Al-hidoya» kimning qalamiga mansub?
A. At-Termiziy. S. Al-Marg’inoniy
V. Al- Buxoriy, D. Ahmad Yassaviy.
.**4.Konstitutsiyamizning 31 moddasida nima haqida so’z boradi?**
A. Fikr yuritish erkinligi haqida.
V. Bir joydan ikkinchi joyga ko’chish haqida.
S. Ilm olish huquqi haqida.

D. Vijdon erkinligi haqida.
5. O’zbekistonning davlat ramzlariga nimalar kiradi?
A. O’zbekiston bayrog’i va gerbi.
V. O’zbekiston madhiyasi.
S. O’zbekiston Konstitutsiyasi
D. Yuqoridagilarning barchasi.
6.Mustaqil O’zbekistonni rivojlanti-rishning ma’naviy-axloqiy negizlari Prezident I.A.Karimovning qaysi asarida o’z aksini topgan?
A. O’zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo’nalishlari.
V. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li.
S. O’zbekiston XX1 asrga intilmoqda.
D. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q.
7. «Men nechun sevaman O’zbekistonni» she’rining muallifi kim?
A. Abdulla Oripov. S. Muhammad Yusuf.

Seminar mashg’uloti.
6 -mavzu: Mehnat va iqtisod tarbiyasining mohiyati, maqsadi va vazifalari.

Reja:
1.Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari.
2.Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari.
3.Iqtisodiy tarbiyaning mohiyati
4.Maktabda iqtisodiy tarbiya va uni berish yo`llari.

Mavzuga oid tayanch iboralar: iqtisod, iqtisodiy ta’lim, iqtisod alifbosi, iqtisodiy bilim asoslari, iqtisodiy islohotlar, ekologiya, ekologik tarbiya.

Umumiy tushuncha.
Mehnat tarbiyasi. Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko‘zlangan maqsad avvalo mehnatning mohiyatiga, mazmuniga teran nigoh tashlamoq, muayyan xulosa chiqarishga o‘rgatishdan iborat. Mehnat qilayotgan kishi o‘zi bajarayotgan ishning natijalarini ko‘rsa, his qilsa, o‘sha natijalardan ayniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.
Dono xalqimiz, allomalarimiz mehnat haqida juda ko‘plab fikrlar aytishgan. Haqiqatda ham mehnatsevarlik doimo ulug‘langan, dangasalik, mehnatsiz boylik orttirish qoralangan. Mehnat muhtojlikdan, bekorchilikdan, yurak siqilishdan, axloqiy buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o‘zini, o‘z qadrini biladi, uni el-yurt ulug‘laydi.
Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh vazifalaridan biri ham yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ularni aniq bir kasb-hunar egasi qilib tarbiyalashdan iboratdir.
Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatlarni kamol toptirishdir.
Iqtisodiy tarbiya maktabda asosan tabiiy-matematik fanlar asosida beriladi. Unda o‘quvchilar ishlab chiqarishning turli sohalari, bozor, oila byudjeti, iqtisodiy geografiya, marketing kabi ko‘plab zamonaviy tushunchalar bilan qurollanadilar.
Mehnat tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari. Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini

tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir.
O'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda mehnat tarbiyasi muhim shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.
O'zbekistonda, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosi sanaladi. Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamda komputerlashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo'lga qo'yish talab etiimoqda. Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo'lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to'laqonli xabardor bo'lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo'yadi.
Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:
yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
-o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;
ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;
O'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;
o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga boigan qiziqishni oshirish;
o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.
Mazkur vazifalar tizimida o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.
Mehnat tarbiyasi o'quvchilarning aqliy, ma'naviv-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o'zaro bog'liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:
Aqliy tarbiya o'quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat - nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o'z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.
Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.
Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o'quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go'zallik va o'z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.
«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida fikr yuritilar ekan: «Milliy istiqlol mafkurasi o'z mohiyatiga ko'ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta'minlaydigan farovon hayot kechirishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va vatan manfaati bilan o'zaro uyg'unlashtirib yashashga undaydi. ... Har

bir fuqaroning farovonligi ~ butun jamiyatning farovonligidir, g'oyasini ilgari suradi», - deb ta'kidlanishi ham bejiz emas.
Yuqoridagilarga asoslanib, o'quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvofiq. Bular: o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatining tushunilishi;
ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg'otish;
o'quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg'ularini qaror toptirish;
ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg'usini tarbiyalash;
ularning mehnatga ongli munosabatda bo'lishlariga erishish;
mehnatda ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash;
O'quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko'z qorachig'iday asrash tuyg'ularini shakllantirish;
mehnatda do'stlik, o'rtoqlik va hamkorlikka erishish;
Yuqoridagi mezonlar asosida o'quvchilarni bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta'lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi.
Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Ta'lim-tarbiya tarixiga nazartashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta'kidlanadi.
Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.
Alisher Navoiy mehnatning insonni go'zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir. Farhod Armaniston o'lkasiga qadam qo'yganda, o'z yurtida Qorandan o'rgangan tosh yo'nish hunarini ishlatib, og'ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O'z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og'ir mehnatini yengillashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo'ladi. Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o'z dostonining ikkinchi nomini «Mehmonnoma» deb ataydi.
Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida esa turli ijtimoiy guruhlarning hayotidagi o'rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko'rsatadi. Dehqonlar to'g'risida fikr yuritar ekan, «Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. ... Olam ma'murlig'i alardin va olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut yetkurur, ham barakot», - deb dehqonlarni, ya'ni, mehnatkash insonni ulug'laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo'rlarni, nojo'ya ish tutuvchi kishilarni, ochko'z va ta'magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.
Ma'rifatparvar shoir Furqat ham o'zining ma'rifiy she'rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritar ekan, har bir sog'lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da'vat etadi, hunarga mehr qo'ygan, uni o'rganishni da'vat etgan kishining jahonda qadri baland bo'lajagini uqtiradi.
Mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari. Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.
Mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq, tizimli, izchil tashkil etiladi. Mehnat ta'limi sinf xonalari, o'quv-tajriba maydoni, mashina-traktor saroyi, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayoni, ishlab chiqarish korxonalari va xo'jaliklarning dalalarida olib boriladi. Natijada ma'lum qiymatga ega bo'lgan ijtimoiy-foydali mahsulotlar yaratiladi hamda ilg'or kasb sohiblariga xos bo'lgan shaxslik fazilatlari

shakllanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, bugungi kunda mehnat ta’limining mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgardi, texnologik ta'lim ustuvorlik kasb etdi, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimi yangilandi. Mehnatni ilmiy tashkil etishning birinchi darsini ham o'quvchi ta'lim jarayonida oladi. Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta'limi bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Mehnat faoliyati ma'lum bilimga ega bo'lishni talab etadi. Zero, bilim va ko'nikmalar o'quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi. Ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'radilar, umumiy mehnat jarayonida o'quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo'jaliklari, korxona, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo'ladilar.
So'nggi yillarda o'quvchilar mehnat tarbiyasiga jamoatchilik katta e'tibor bermoqda. Yirik fermer xo'jaliklari, qo'shma korxonalarning jamoalari maktablarni otaliqqa olmoqda, ularning moddiy bazasini yaratish, o'quvchilarning bilim olishlari, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etishda yordam bermoqdalar.

Mehnat faoliyatining asosiy turlari



Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir:
O'quv mehnati o'quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyati turidir.
Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.
Hozirgi davrda ta'lim muassasalarida o'z-o'ziga xizmat keng yo’lga qo'yilmoqda. O'z-o'ziga xizmat o'quvchilarning ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o'zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O'quvchilarning navbatchiligi o'z-o'ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.
Unumli mehnat turlari xilma-xildir. Masalan, o'quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga yem-xashak tayyorlash va shirkat xo'jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat - o'quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.
O'quvchilar hozirgi davrda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatida ishtirok etadilar, Dorivor o'simliklar, urug'larni yig'ish, maktab binolarini ta'minlashda qatnashmoqdalar, fermer, shirkat va jamoa xo'jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etishda ishtirok etmoqdalar. Ayni vaqtda, juda ko'plab maktablarda yordamchi xo'jalik mavjud. Korxona va xo'jaliklar ta'lim muassasasiga majmuaviy yondashuv asosida mehnat tarbiyasini tashkil etishga ko'maklashmoqdalar. O'quvchilar ishlab chiqarish subyektlarining iqtisodiy rivojlanishi bilan tanishadilar, Bu jarayon ularni turli kasblarni egallash shartlari va sharoitlari bilan tanishtirishga yordam beradi.
Mehnat tarbiyasi o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo'ymoqda. Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma'lum faoliyatni bajarishda mas'uliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdek, mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko'rsatish, o'z aqliy va jismoniy qobiliyatini to'liq namoyon etishga boigan ichki ehtiyoj, mehnatni ilmiy tashkil etish yo'lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir.
Mehnatga psixologik jihatdan tayyor bo'lish esa tarbiyaviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab yetilishiga erishish;
- ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag'bat uyg'otish;
- o'quvchilarda mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantinsh va hokazolar.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, mulkka egalik, xususiy mulkni yaratish yo'lida qonun doirasida olib borilayotgan amaliy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakatlar mehnat tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Mehnat tarbiyasining yangi texnologiyalar asosida o'quv dasturlari, ta'lim metodlarining variativligi tamoyili yotadi. Dasturlar kasb-hunar kollejlari ixtisoslashgan turli kasblar bo'yicha yaratiladi. Ularda kasbiy taiimni o'zlashtirishga nisbatan qo'yilgan davlat talablari o'z ifodasini topadi.

Mehnat tarbiyasining texnologiyalari o'quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, mehnat ta'limi mazmunini ham takomillashtiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o'quvchilarda o'quv texnika va texnologiyalari haqida tasawur hosil qilishi, amaliy masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta'minlashi lozim. Ayniqsa, o'quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy ko'rsatkichlarini yuqoriga ko'tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat tarbiyasining tashkiliy shakllari

mehnat bayrami, o’quvchilar yasagan buyumlar ko’rgazmasi, hasharlar uyushtirish

qarovchisi yo’q, bemor, keksa va nogiron kishilarga ko’rsatiluvchi insonparvarlik yordami

ko’kalamzorlashtirish,ta’mirlash(maktab binosini)“Mohir qo’llar” to’garagining faoliyati

Iqtisodiy tarbiya .Bolalarga maktab va oila sharoitida iqtisodiy tarbiya berish muammosi ko’pdan buyon pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo’lib kelmokda. Bozor iqtisodi sharoitida yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa muhimdir.

Mamlakatimizda bozor iqtisodi o’ziga xos va o’ziga mos yo’l bilan bosqichma-bosqich shakllanmoqda. Shu bois hozirgi davrda xalqimizning iqtisodiy madaniyatini ko’tarish va jumladan yosh avlodning iqtisodiy savodxonlik darajasini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi iqtisodiy islohatlar, tadbirkorlik va xorijiy sarmoyalar bo’yicha idoralar kengashining, O’zbekiston Respublikasida Iqtisodiy ta’limni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy yunalishlari to’g’risida 1996 YIL MAY OYIDA qabul qilingan qarori ham ana shu maqsadni ko’zda tutgan.

Maktabda o’quvchilarga iqtisodiy ta’lim va tarbiya berish ta’lim jarayonining muhim tomonidir. Avval iqtisodiy tarbiya haqida mukammal tushunchaga ega bo’lmoq darkor.Iqtisodiy tarbiya o’quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob kitob kabi qobiliyatlarni tarkib toptirishdir. Iqtisodiy tarbiya mazmuni. SHarq mutafakkirlari tomonidan muntazam boyitib kelindi. Chunonchi, Muhammad Ibn Muso Al-Xorazmiy matematika fani inson xayotida asosiy o’rin tutishini takidlab, kishi hisob ilmini bilsagina u o’z mehnatining natijalarini o’lchovlar orqali aniqlay olishi mumkin- deydi.

Bolalarga iqtisodiy tarbiya berish oiladan boshlanadi. Abu Ali Ibn Sino o’z asarlarida shunday yozadi:

«Oila a’zolarini kunlik oziq- ovqatlar uchun yetarli maxsulotlarni oldindan tejamkorlik bilan sarf qiladi.Har bir kishi bug’doy, guruch, mevalarni saqlash yo’llarini bilishi kerak. Ehtiyojga yaroqli narsalarga tejamkorlik bilan munosabatda bo’lishi lozim. Ota-ona uvol qilish gunoxligini farzandlariga yoshligidan nasixat yo’li bilan o’rgatadi.»

Iqtisodiy tarbiya - jamiyatning shaxsga mustaqil faoliyatida samarali ko’rsatkichlarni ta’minlovchi aniq iqtisodiy tushunchalar iqtisodga bog’langan. Siyosat, qonunlar, qonuniyat asoslari va va ularning amalda foydalanishi yo’l- yo’riqlarning yig’indisini o’zlashtirishga imkon beruvchi izchil maqsadga muvofiq ta’siridir.

Iqtisodiy ta’lim - ijodkor shaxsining shaxsining shakllanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy bilimlar, ko’nikma, malaka yig’indisi, uzluksiz izchil maqsadga ko’ra shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, turli uslub, aniq dasturlar, metodikalar bilan yetkazish jarayonidir.

Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mehnat darslarida amalga oshiriladi. Bu darslar nechog'lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, bolalar «mendan ketguncha egasiga yetguncha», «Moling sara bo'lmasa, bozoring sara bo'lmas» maqollar ma'nosini tushinib oladilar.Ular o'zlari bajarayetgan ishning chiroyli ,ozoda qilib bajarilishiga e'tibor berishadi.
Boshlang'ich sinflarga "Iqtisod alifbosi " fani o'qitilmokda. Kitob rasmlardan iborat, chunki o'quvchi xali harf tanimaydi.
Yuqori sinflarda "Iqtisodiy bilim asoslari" degan dars o'tilmokda. "Bozor", "Ishlab chiqarish texnologiyasini o'stirish" ,"Maxsulotlarni tan- narxi", "tovarlarni chet ellar bilan turli yo'llar orqali ayriboshlash" kabi mavzulardagi mashg'ulotlar xayotiy tusda o'tkazilsa o'quvchi ongida chuqur iz qoldiradi.

Test topshiriqlari:

1.Iqtisodiy tarbiya bu-

a). O'quvchilarni ishbilarmonlik, tejamkorlik, har bir buyumning kadriga yetishga o'rgatishdir.
v) O'quvchilarni mehnatsevarlikka, tashabbuskorlikka, ishbilarmonlikka, hisob-kitobga, xalqaro aloqalar faoliyati bilan shug'ullanishga o'rgatishdir.
s). O'quvchilarni ishbilarmonlik, tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, iqtisodiy hisob-kitob kabi qobiliyatlarni tarkib toptirishdir.
d). O'quvchilarni ishbilarmonlik, iqtisodiy bilim ko'nikma va malakalarini egallashlariga o'rgatishdan iborat
ye). O'quvchilarni iqtisodiy bilim ko'nikma va malakalarini egallashlariga o'rgatishdan ib

2.Maktablarda iqtisodiy tarbiya berishda qanday fanlar kiritilgan.

a). «Iqtisodiy bilimlar tizimi», «Iqtisodchi».
v). «Iqtisodiy bilim asoslari».
s). «Iqtisod alifbosi», «Iqtisodchi».
d). «Iqtisodiy bilim asoslari », «Iqtisod alifbosi».
ye). «Iqtisod alifbosi», «Iqtisodiy islohatlar».

3.Iqtisodiy tarbiyaning mohiyatini tushuntirib bering?

Maktabda iqtisodiy tarbiya berish mohiyatini yozma ravishda izohlab bering?
Iqtisodiy tarbiyaning mazmunini sharxlab bering?
Maktabda iqtisodiy tarbiya berishning mazmunini asoslab bering?

4.Ekologik tarbiya bu-

a). O'quvchilarda tabiatga ongli ravishda munosabatda bo'lishni shakllantirish jarayonidir.
v). O'quvchilarda atrof-muxitga, olamga, xayvonot va o'simlik dunyosiga muxabbat va extiyotkorona munosabatlarni shakllantirish jarayonidir.
s). O'quvchilarda tabiatga ongli ravishda munosabatda bo'lishni, ularga muxabbat uyg'otishni shakllantirish jarayonidir.
d). O'quvchining tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirish jarayonidir.
ye). Atrof muxit tozaligi va turmush tarzini, tabiat muvozanatini shakllantirish jarayonidir.

Nazorat savollari

1.Ekologik tarbiyaning mohiyatini tushuntirib bering.
2.Ekologik ta'lim tarbiyaning asosli bo'limlarini yozma ravishda izohlang.
3.Darsda va darsdan tashqari ishlarda Ekologik tarbiyaning mohiyatini sharxlab bering.
4.Darsda va darsdan tashqari ishlarda Ekologik tarbiyaning taqqoslab bering.
5.Ekologik tarbiyaning mohiyatini asoslab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
2. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. – T., «O'qituvchi», 1993.
3. Mavlonova R., To'raeva O. Pedagogika. – T., «O'qituvchi», 2010, 52 b.
4. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. – T., «O'qituvchi», 1996.
5. Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahriri ostida. – T., «O'qituvchi», 1996.
6. Podlaso'y I.P. Pedagogika. V. 3-x kn., kn. 3. – Moskva, VLADOS, 2007

7.R.Movlonova . Umumiy pedagogika. “Fan va texnologiya” 2018 yil.

Seminar mashg’uloti.
7-mavzu: Nafosat va ekologik tarbiya haqida tushuncha.
Reja:

1.Nafosat tarbiyasi haqida tushuncha.
2.O'quvchilarda nafosatni shakllantirish.

Umumiy tushuncha

Nafosat tarbiyasi haqida tushuncha. Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya - lotincha «estezio» go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Nafosat tarbiyasi «badiiy tarbiya» sifatida ham qo'llaniladi. Umuman, nafosat tarbiyasi keng ma'noga ega bo'lib, faqat san'at vositasidagina emas, balki, hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat va boshqalar vositasida go'zallikni his qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni o'z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa san'at (adabiyot, musiqa, qo'shiq, tasviriy san'atning boshqa yo'nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg'ularni shakllantirishni nazarda tutadi.

Nafosat tarbiyasi insonda go'zallikni his qilish tuyg'usini shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o'z hayotini go'zallik asosida qurishga intiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she'riyat, tasviriy san'at va boshqalarga bo'lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega.

O'smirlarda go'zallik ijodkorligiga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Bunday holat ilk yoshlik davrida ham saqlanib qoladi. Biroq, bu davrda badiiy qobiliyat, aksariyat o'quvchilarda o'zgacha bo'ladi. Ular ko'pincha musiqa va raqsga qiziqa boshlaydilar. Demak, o'quvchilarning nafosat bilan oshnoligi turli yosh davrlarida o'g'il va qiz bolalarda o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Nafosat tarbiyasi - shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda nafosat faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. Nafosat tarbiyasi shaxsning nafosat madaniyatini egallashiga yo'naltirilgan bo'lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Nafosat madaniyati. Jamiyat va ayrim shaxsning nafosat madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning nafosat madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to'plangan moddiy va ma'naviy qadriyatlari mazmuni tushuniladi. O'quvchi shaxsining nafosat madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o'zlashtirishi natijasida hosil bo'ladi. Shaxsning go'zallik bilan o'zaro munosabati, shuningdek, shaxsning ayrim sifatlarini o'zaro ta'siri natijasida nafosat madaniyati doimo o'zgarib turadi. Shaxs nafosat madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari bu nafosat ongi, nafosatni his etishga bo'lgan ehtiyoj, uni qondirish yo'lida tashkil etilgan munosabatlardir.

Nafosat ongi go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

Nafosat ongning tarkibiy qismlari o'ziga xos murakkab tuzilishiga egadir:



Nafosatning asosiy xususiyatlari. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda nafosat idrokining psixologik qonuniyatlarini hisobga olish lozim. Bu xususiyatlar ilk yoshdagi bolalarga xos hamda rivojlanish, nafosat tajribasi, tasavvurlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq. Atrof-olam hodisalari dastlab nafosat sifatida namoyon bo'lmaydi. Bunday bo'lishdan oldin ular idrok etiluvchan, mazmunli, tushunarli bo'lishi lozim. Demak, tarbiyachi, o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifalaridan biri o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, eng murakkab hodisalar hamda go'zallik shakllari, nafosat muammolarini anglab yetishi lozim. Nafosatni idrok etishning muhim unsuri - hissiyotlilik. San'at, borliqni yorqin aks ettiruvchi yuqori badiiy asar mazmunini idrok etishda o'quvchilar quvonch yoki g'azab, qo'rqinch yoki ishonchni his etadilar. Bu tuyg'u go'zallik qonuniyatlari g'oyasi bilan yashashga undaydi.

Aesthetic system. If educational tools, methods and techniques stand the idea behind the leading technological system of psychological and social relations are not targeted educational system. Teacher's every movement, the formation of aesthetic culture of students. Educational activities should be conducted on the basis of the principles and values of life, then, ensured the process of education of the student. Outlook is still full for students in the form of teacher's life experiences, personal design aesthetic and educational impact of his ownership should not be forgotten. Therefore, before the formation of the teacher's attention toward the motivation for the aesthetics of the teacher schools plays an important role. Establishing a high level of aesthetic system tarbiyalanganlikning means he needs to continually absorb the reader, each student, class, school team. Aesthetic system is great for the achievement of educational goals teachers are very familiar with the firmness required to achieve the unity of the means of the positive impact of: - Raising the students' environment unit; - The students' independence and self-education unit; - Civil and unity of humanity; - Firmness and unity; Student personality cautious attitude;	Estetik tizim. Agar tarbiyaviy vosita, usul va metodlar orqasida yetakchi g’oya turmasa, texnologik tizim va ijtimoiy psixologik munosabatlar tizimi maqsadli tarbiyaviy natijalar bermaydi. O’qituvchining har bir harakati, o’quvchilarning estetik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi faoliyati hayotiy me’yor va qadriyatlar asosida olib borilishi kerak, shundagina, o’quvchining tarbiya jarayonidagi faolligi ta’minlanadi. Dunyoqarashi hali to’la-to’kis shakllanmagan o’quvchilar uchun o’qituvchining hayotiy tajribalari, shaxsiy namunalari ham estetik tarbiyaviy ta’sir kuchiga egaligini unutmaslik kerak. SHuning uchun o’qituvchining jamoaga nisbatan diqqat motivlarini shakllantirishda avvalo tarbiyachining estetik jihatdan tarbiyalanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik tizim tarbiyalanganlikning yuqori darajasini belgilovchi vosita bo’lib, uning talablarini bir maromda o’quvchi ongiga singdirib borish uchun har bir o’quvchi, sinf, maktab jamoasi harakat qiladi. Estetik tizimda ulkan tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun o’qituvchidan nihoyatda mohirona talabchanlik, ijobiy ta’sir etish vositalarining birligiga erishish talab etiladi: - tarbiyada o’quvchilar jamoasi muhitining birligi; - o’quvchilar mustaqilligi va o’z-o’zini tarbiyalashning birligi; - fuqarolik va insoniylikning birligi; - talabchanlik va ishonch birligi; - o’quvchi shaxsiga ehtiyotkorona munosabat; - jinsiy tafovutlarni hisobga olish; - bolalarning axloqiy va jismoniy sog’ligi haqida

- Take into account gender differences; - Moral and physical health care; - Adhere to the norms of morality	qayg'urish; - axloq me'yorlariga amal qilish59.

Bundan tashqari nafosat vositalari xilma xildir. Tabiat mehnat, insoniy munosabatlar, san'at nafosat tarbiyasi vositasidir. Tabiat nafosat tarbiyasining muhim manbayidir. K.D.Ushinskiy tabiatni yosh avlod nafosat tuyg'ularining rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Sayohat, sayr, yurish, tabiatga bag'ishlangan san'at asarlarini o'rganish mazkur yo'nalishdagi an'anaviy ishdir. Biroq tabiat ichida bo'lishning o'zi yetarli emas. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilish, his etish lozim. Bunday qobiliyat asta-sekin rivojlanib boradi. Sayr, ekskursiya hamda maktab uchastkasida ishlash paytida tarbiyachilar e'tiborini tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratishi, bolalarga nafosat, tabiatni sevish ehtiyojigina boimay, shuningdek, uni ehtiyotlashdan ham iboratligini tushuntirib borishi lozim.

Nafosat tarbiyasining vositalari. Nafosat tarbiyasining vositalari o'quvchilarning go'zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'llaniluvchi omillar sanaladi.

Oila go'zallikning birinchi maktabidir. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, uy jihozlari, ularning yagona birligi, uyg'unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik, maktabning bezatilishi, maktabdagi yodgorlik va a'lochilar burchagi kabilarning barchasi bevosita bolalarda go'zallikni tarbiyalashda katta ta'sir ko'rsatadi.

Turmush go'zalligining asosini tozalik va tartiblilik tashkil etadi. Sinf xonalarida tozalik saqlanishi, tabiat burchagining tashkil etilishi, o'quvchilar ijodiy ishlari ko'rgazmasi, a'lochilar taxtasi tizimining yangilatib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Badiiy adabiyot nafosat tarbiyasida cheksiz imkoniyatlarga ega. U o'quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o'rgatadi. O'quvchilarga o'zbek va chet el adabiyoti haqida ko'proq ma'lumot beriladi. O'quvchilar she'rlar, hikoyalar, xalq og'zaki ijodi namunalari - maqol, matal, ertak, doston, qo'shiq, qissa va romanlarni qanchalik ko'p o'qisa ularda go'zallikka bo'lgan intilish shunchalik kuchli bo'ladi. Shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishish tahlil qilish o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, his-tuyg'ulari va til boyligini takomillashtiradi. Shuningdek, adabiyot darslari o'quvchilarda go'zallikni idrok etishni ta'minlaydi. O'quvchilar nasriy asarlar, she'rlardan parchalar yod oladilar, buning natijasida o'quvchilarning badiiy nutq madaniyati ham shakllanadi

O'quvchilarning go'zallik bilan bevosita muloqotda bo'lishlari ularga ko'proq hissiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida o'quvchilarni badiiy jihatdan yuksak bo'lgan asarlar va tabiat manzaralari bilan tanishtirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'moriy asarlar namunalari bilan o'quvchilarni tanishtirish ularda simmetriya, mutanosiblik, chiziqlar, rang va kolorit uyg'unligini idrok etish tuyg'ulariga ega bo'lishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchilar e'tiboriga ezgu g'oyalarni tarannum etuvchi musiqiy asarlarning havola etilishi, ulardan olinayotgan taassurotlar bilan o'rtoqlashish ularda musiqiy ohang, ritm, tovushlarning ifodaviyligi va sur'atini his etish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Adabiy asarlar esa o'quvchilarning nutq boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish, shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga imkon beradi.

O'quvchilarda nafosatni shakllantirish. Nafosat ongi ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida o'quvchilarni turli nazariya, qarashlar mohiyati bilan tanishtirish, ular o'rtasida nafosat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish hisobiga shakllantiriladi. Nafosat ongi asosini nafosat idroki tashkil etadi. Nafosat idroki - bu ijtimoiy voqelik, buyum va hodisalarning go'zalligini ongda yaxlit aks etishi bo'lib, u go'zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

59 Peter Menck. Looking Into Classrooms: Papers on Didactics.

Nafosat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iboratdir: o'quvchilarda nafosat his-tuyg'usi, fikr-mulohaza. didni tarbivalash, ularning iiodiy qobilivatlari. go'zallikni sevishga bo'lgan havotiy ehtiyojini o'stirishdan iborat. Kishilar go'zallikni idrok qilish qobiliyatiga ega bo'lganliklari uchun hayajonlanish, qayg'urish, darg'azab bo'lish, quvonish, zavqlanish kabi his-tuyg'ularni boshdan kechiradilar. Bundan tashqari kishi yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan obrazni yoki tabiat, hayotdagi go'zal hodisani idrok qilganidan zavq-shavqqa to'ladi.

O'quvchilarda kuzatish madaniyatini tarbiyalash ularning go'zallikka bo'lgan intilishlarini o'stirish uchun juda muhim. Ko'p hollarda bolalar biror narsaga qarab turadilar-u, uning o'zini ko'rmaydilar, quloq soladilar-u, eshitmaydilar.

Immonuil Kant aytganidek: “Nafosat – bu manaviy ezgulik ramzidir”. Estetika lotincha «Ectetikos», ya’ni «his etaman» degan ma’noni bildiradi. Aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va boshqa tarbiyalarni estetik his-tuyg‘usiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Estetik tarbiyaning maqsadi – o‘quvchilarni tabiat, jamiyat va san’atdagi go‘zalliklarni idrok etish, ularni to‘g‘ri tushunib etish, qadriga etish, hayotga qayta go‘zalliklar olib kira olish qobiliyat, ko‘nikma va malakalar majmuasini shakllantirishdan iboratdir. Maktabda tasviriy san’at, musiqa, adabiyot, tabiatshunoslik darslari estetik tarbiyaning asosiy shakl va vositalari hisoblanadi. Biz nafaqat narsa va xodisalar, balki insoniy xulq-atvor, fazilatlarni ham estetik jihatdan baholashimiz mumkin. Insoniy go‘zallik aql, burch, iymon, insof, kamtarlik, latofat, lafz, mehmondo‘stlik, mehr, muloyimlik, poklik, yaxshilik va hakozo sifatlarni o‘zida namoyon qiladi.

Estetik tarbiya go‘zallikdan zavqlanishga, xuniklikdan nafratlanishga, kulgilikdan kulishga, fojealikdan istirobga tushishga o‘rgatadi. Bu holatlarni kishi hayot va san’at voqealiqlarida uchratishi mumkin. Estetika haqidagi tushunchalar Qadimgi SHarq va O‘rta Osiyoda ham o‘z taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan va rivojlangan. Biz buni qadimiy yozma va og‘zaki yodgorliklar, memoriy obidalar orqali yaxshi bilami.

Nafosat va go‘zallik dunyosi shu qadar xilma-xil, rango-rang, ehtirosli va sehirliki, unda moddiy va mannaviy joziba uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Insonning nafosat olamiga intilishi atrof-voqelikni aniqlashga intilishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Estetik his-tuyg‘u – kishilarning go‘zal va xunik, jozibali va kulguli voqealarni idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Taraqqiy topgan G‘arb mamlakatlari nafosatshunoslari Tomos Morgo va Eten Suriolarning fikricha, ”...etika-estetikasi yo‘q davlat – qoloq davlat, etika-estetikasi yo‘q millat qashshoq millatdir”.

Demak, go‘zallik insonning estetik va badiiy didini o‘stiradi. Estetik did esa go‘zal narsalardan zavq olish qobiliyatidir. Estetik madaniyati yuksak kishi manaviy, ruhiy jihatdan barkamol, etiqotli, ishonchli va albatda diyonatli bo‘ladi, desak hato bo‘lmaydi. Estetika, ya’ni nafosatshunoslikning boy va murakkab kategoriyalar tizimi borki, biz bu tushunchalarga atroflicha to‘xtalib o‘tamiz. Bular: go‘zallik, ulug‘vorlik, olijanoblik, fojiyaviylik va kulgililik. Bu kategoriyalar ijtimoiy borliq, inson hayoti sohalarining har birida – ishlab chiqarish, mehnat va ijtimoiy-siyosiy, tabiatga munosabatda, madaniyat, turmush va va hokozolarda olamni estetik o‘zlashtirishning o‘ziga xos ko‘rinishidir.60

Go‘zallik zohiriy va botiniy manoga ega. Voqea-hodisa, buyum zohiran go‘zal, botinan xunik bo‘lsa, bu erda go‘zallik tushunchasi kemtikdir. Oltin taqinchoq tashqi tomondan go‘zal bo‘lsa, uning oltin sifatida ichki mohiyati haqiqiy qiymatga egadir. Bu esa chin manodagi go‘zallikdir.

Yana, insonning chehrasi, qomatidagi go‘zallik muayyan ahamiyatga ega, ammo bu to‘la ma’nodagi go‘zallik emas. Insonning tashqi qiyofasi uning botiniy olami, hulqi, fe’l-atvori, mehnatsevarligi, ezgulikga intilishi kabi sifatlar bilan uyg‘unlashsagina, bu – mukammal go‘zallik sanaladi.

Taniqli shoirimiz E.Vohidov yozganidek:

Mulki borliq ichra bir mahal
Ko‘rksizgina olam yaralgan.

60ПодласыйИ.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 2007. 134-167 стр.

Bermoq uchun olamga sayqal
Olam aro odam yaralgan.
SHundan beri inson tinmayin
SHu er uzra ter to‘kar hamon
Erni go‘zal qilgani sayin,
Go‘zal bo‘lur o‘zi ham inson

Go‘zallik quyidagi tamoyillarni o‘zida mujassamlashtiradi: me’yor, uyg‘unlik, estetik shakl, yaxlitlik, maqsadga muvofiqlik.

Malumki, go‘zallikning eng qadimiy va boy manbai tabiatdir. Tabiatning eng go‘zal mahsuli, aql-zakovat va iroda egasi – insondir.

Shunday qilib, go‘zalik turli hil ko‘rinish va shakllarda, voqea-hodisalarda namoyon bo‘ladi, shu tufayli unga faqat bir xilda ta’rif berish qiyin. Tabiatdagi, jamiyatdagi kishilarning ijodiy faoliyatidagi, odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlaridagi, jamiki ijobiy voqealarni – quvonch, his-tuyg‘u paydo qiluvchi, kuch-quvvat beruvchi, kayfiyatni ko‘taruvchi barcha omillarni biz go‘zallik deb atashimiz mumkin.

Fojiaviylik – ijtimoiy hususiyatga molik tushuncha sifatida yolg‘iz insonga hos his-tuyg‘u ekanligi, faqat ijtimoiy munosabatlar jarayonidagina namoyoon bo‘lishi bilan izohlanadi. Sanat asarlarida fojiaviylik yahlit namoyon bo‘ladi.

Fojia birinchi navbatda adolatsizlikka, kishini-kishi ezishiga qarshi, umuman insonlarni ho‘rlash va haq-huquqlaridan mahrum etishlariga qarshi fidokorona, oliyjanoblarcha kurashni ifodalaydi. Masalan, Go‘ro‘g‘li fojiyali sharoitda tug‘uladi, ammo u ko‘p jasoratlar, qahramonliklar ko‘rsatadi. Fojia qahramoni hayotni sevadi, aks holda, u bu hayot uchun shunchalik shiddat bilan qurashmagan bo‘lar edi. U huddi shu hayot yo‘lida jon fido qiladi, bu o‘lim bekor ketmaydi.

Estetik kategoriyalarning navbatdagisi – kulgulilikdir. Kulguli voqea-xodisalar, ko‘pincha munofiqlik, tekinxo‘rlik, yolg‘onchilik, johillik, engil tabiatlilik kabi kamchiliklar, nuqsonlardan kulish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Voqelikdagi kulgulilik xolatiga faqat insongina kulgu bilan javob beradigan qobilyatga ega bo‘lib, boshqa jonzotlar bunday qobilyatlardan maxrumdirlar.

Satira xayotidagi yaramas xodisalarni, yovuzliklarni fosh etadi. A.Qodiriy va A.Qaxxor ijodlarida ham bir qator satira janridagi asarlarni ko‘rish mumkun. Qodiriyning “Og‘zingga qarab gapir”, Qaxxorning “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush” kamediyalarida goho kulguli to‘qnashuvlar mohiyati yangilik bilan eskilik rasidagi kurashda ko‘rinadi.

Estetik ulug‘vorlik – bu so‘zsiz buyuk, salmog‘i bo‘yicha ulkan xodisadir. Ulug‘vorlikning namoyon bo‘lish shakllari hilma-hildir. U behad ulkan shaklning butun ulug‘vorligini bevosita ifoda etishi mumkun bo‘lgan, osmonning butun rang-baangligini, okean va dengizlarni sokin sathi va bepayonligini, qudratli to‘lqinlarning, tog‘larning yuksakligini, vulqonlarni qaynashi manzarasini ko‘rsatish mumkun. Ulkan arxitektura inshoatlari Misr ehrom (peramida)lari, Gotika uslubida qurulgan ibodotxonalar, O‘rta Osiyo va Xindistondagi tarixiy yodgorliklar ulug‘vorlikka misol bo‘ladi.

Ulug‘vorlik sifatiga ega bo‘lgan narsalardan lazzatlanish o‘sha narsalarning sifatiga bog‘liq bo‘lmay balki ulardan lazzatlanayotgan insonning tarbiyasiga xam bog‘liqdir.

Demak, turli estetik xodisalar bir vaqtning o‘zida jamiyatda mavjud bo‘ladi va bu hilma-hillik insonning ruxiy xolatiga ta’sir ko‘rsatadi, uning ma’naviy-ruhiy kamoloti ko‘rsatkichi bo‘lib boraveradi. Hayotning o‘zi go‘zallik manbaidir. Ong esa uni aks ettiradi. Estetik ong xayotning xamma sohalarini – tabiatni ham, kishining olamini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ham qamrab oladi.

Yoshlarni tarbiyalashda estetik ongning quyidagi jihatlariga asosiy e’tibor berish zarur:

1. Estetik his-tuyg‘u - insonning voqelikka, kishilarga, o‘z faoliyatiga nisbatan munosabatidir. Bu tuyg‘u bizni o‘rab turgan voqelikni estetik jihatidan his etish qobiliyatidir, uning go‘zalligini, uyg‘unligini sezishdir.

Estetik his-tuyg‘u - bu chuqur ma’naviy tuyg‘udir. O‘z ishini vijdonan bajaradigan kishida mehnatdan faxrlanish, xayotidan mamnunlik tuyg‘usi kuchli bo‘ladi. SHunday tuyg‘u bilan yashash insonga estetik zavq beradi.
Estetik his-tuyg‘ular bilan ahloqiy va aqliy bilish his-tuyg‘ularni tarbiyalash jarayoni yaxlit bo‘lib, yakka insonning, ayniqsa bolalarning axloqiy tarbiyasi va aqliy ravnaqi ularning estetik his-tuyg‘ularini rivojlantirish bilan qo‘shib boriladi. SHu asosida esa estetik did tarbiyalanadi.
2. Estetik did -murakkab va ko‘p qirralidir. Estetik did insonning fikr-mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma’naviy ijodkorligi orqali namoyon bo‘ladi. Estetik did - voqea-xodisalarning estetik sifatlarini inson tomonidan idrok etmoq va baxolamoq jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg‘usi orqali ifoda topadi. Estetik did zamirida go‘zallikni xunuklikdan ajrata bilish va undan beg‘araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did his-tuyg‘ular bilan ish ko‘radi.
Estetik did - go‘zallik yoki xunuklik to‘g‘risida xukm chiqarish qobilyatimizdir. U bir o‘rinda estetik baholash xamdir, masalan biron tomoshadan so‘ng kishida “yoqdi”, “yoqmadi”, “maroqli”, “zerikarli” deb xukm chiqaradilar. Bu xukm didning sof bahosi xisoblanadi.
Estetik baho predmet yoki xodisaning qiymati va kamchilik nuqsoni haqida xukm chiqara bilishdir. Biz voqelikka estetik baho berar ekanmiz, ematsional jixatdan o‘sha narsa bizga uyg‘otgan tuyg‘uni ifodalaymiz. Masalan, osuda tun, ajoyib inson, porloq yulduz...
3.Estetik baho - bu go‘zallikning xodisa va faktlarning estetik qiymatini bevosita emas, balki ma’nosiga to‘la tushungan xolda bilishdir. Estetik did bilan estetik baxolash o‘rtasida farqli va umumiy tomonlari mavjud. Estetik baxolash – didning aynan o‘zi emas, balki uning fikr-mulohazalari og‘zaki ifodasidir. Uning fikr-mulohazalarida aqliy tomon ko‘proq o‘rin egallaydi: did fikr-mulohazalari doimo baholanayotgan narsaning voqea hodisaning anglab o‘zlashtirishi bilan bog‘liq bo‘lib, boshqalarga mo‘ljallangan holda dalillarning mantiqiy isbotlanishini taqoza etadi.
Ta’lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o‘z diqqat-e’tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatni qaror topdirishda xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e’tiqodiga, dunyoqarashiga, hatti-xarakatlariga, xulq-atvoriga ta’sir o‘tkazishni o‘z oldiga maqsad va vazifa qilib qo‘ygan.
Shu qatori estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifalarning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, tarixiy-ijtimoiy jixatidan axamiyatga molik xodisani anglatadi. SHuni takidlash joizki, qadimda umuman tarbiya maqsadi estetik asosda namoyon bo‘lgan. Masalan, qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqorolarning har tomonlama rivojlanishiga, “ruh va badan” hamohangnligini qaror toptirishga yo‘naltirilgan edi: Yunon mutafakkirlari Aflotun va Arastu kabi zabardast olimlar ta’limotlarida estetik tarbiya tizimining bir-biridan farqli tomonlari bo‘lgani xolda umumiy o‘xshashlik xam mavjud bo‘lib, u yagona estetik orzuni qaror topdirishga, yagona ahloqiy xulq-atvor va fuqorolik hislat va fazilatlarini shakllantirshga xizmat qilgan edi.
O‘rta asrlar Sharq va Ovropada estetik tarbiya ilohiy kuch- qudrat manbayi bo‘lgan Ollohga etiqod qilish va “bu dunyo” ning o‘tkinchi arzimas ekanligini inson shaxsiga singdirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Estetik tarbiya g‘oyalarining ilohiy va dunyoviy mohiyatini kuchaytirishga intilish hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas, zero estetik tarbiyada ilohiylik odamlar mehnati va maishiy xayoti bilan chambarchas bog‘lanib, ya’ni dunyoviylik bilan qo‘shilib ketgan edi.
Ma’lum bir jamiyatda ijtimoiy qaramma-qarshiliklar zaiflashib, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat qaror topib borgani sari odamlarning estetik tarbiya olishlari uchun zarur bo‘lgan muayyan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy, ahloqiy-estetik shart-sharoitlar vujudga keldi. Moddiy-iqtisodiy va umumma’naviy imkoniyatlar kengayib, qoshshoqlik va savodsizlik batomom tugatilsagina, jamiyat xayotida estetik tarbiya muxim omil bo‘lib xizmat qiladi.
Estetik tarbiya muommolariga doimiy va jiddiy e’tibor, insonni qurshab olgan borliqdagi go‘zallikka, yoshlar va barcha jamiyat a’zolarini adabiyot va san’at olamiga jalb qilish shaxsni tarbiyalash sistemasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Mustaqillik yillarida barcha sohalar

kabi tarbiya sohasiga ham, xususan estetik, go‘zallik tarbiyasiga ahamiyat toboro ortib, maktabgacha va matab ta’limi, oliy o‘quv yurti dasturlarida ham chuqur o‘rgatilib kelinmoqda.
Yuqorida takidlaganimizdek, O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topayotgan hozirgi payida estetik tarbiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda.
Birinchidan, mustaqillik sharoitida inson omilining ortib borishi uchun shart-sharoitlar vujudga kelayapti, hayotning barcha jabhalarida faoliyat ko‘rsatayotgan odamlarning ezgu hislat-fazilatlari, ongliligi, faolligi, ijodiy yaratuvchi qobilyatlari sezilib turibdi.
Ikkinchidan, O‘zbekiston aholisining aksariyat ko‘pchiligini umumiy madaniyati yuksalib borish jarayonida yangi texnika va texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil qilish ishi toboro takomillashib borayotganligini aytish mumkun.
Uchunchidan, yangi ishlab chiqarish munosabatlarining, bozor iqtisodiyotining keng o‘rin egallab borayotganligi qonunchilikni keng tarzda rivojlanib, amal qilayotganligi, fuqorolarning umumiy ma’daniyati, ayniqsa estetik madaniyati darajasining ham yuksalib borishini anglatadi.
To‘rtinchidan, xozirgi davr ilmiy-texnik inqilobi sharoitida elektronika, avtommatika, kibernetika, informatika kabi fanlar ishlab chiqarish sahasini tubdan qayta qurishga imkoniyatlar yaratilib berilyapti. Bu xol ishlab chiqarishda band bo‘lgan odamlarning ruhiy xolatini ham tubdan o‘zgarishini kasb-korlik, ijtimoiy-ruhiy, ahloqiy-estetik xolatining vujudga kelishini taqoza etadi.
Beshinchidan, radio, kino ayniqsa “oynai jahon” kabi ommoviy-axborot vositalari-ning turmushdan keng o‘rin olishi natijasida badiiy axborot hajmining ham keskin ortib borishi estetik tarbiya ahamiyatining tez sur’atlarda o‘sishini ta’minlaydi.
Estetik tarbiya- insonni voqelikdagi, san’atdagi go‘zallikni idrok etish, tushunish va qadriga etish qobilyatini o‘stiradi. Estetik tarbiya, shuningdek insoniyat faoliyatining xar qanday sohasida estetik boyliklar yaratish, ya’ni go‘zallik qonuni bo‘yicha ijod qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Estetik tarbiya ijtimoiy sharoidlarga bog‘liq.
Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi – jamiyat azolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go‘zallikni to‘laqonli his etishga ko‘maklashishdan iboratdir.
Etetik tarbiyaning asosiy vazifalarini quydagicha belgilash mumkin:
- insonlarda dunyo go‘zalligi to‘g‘risida his-tuyg‘ular, tassavurlar va fikrlarni tarbiyalash va takomillashtirish orqali inson shaxsining har tomonlama uyg‘un rivojlanishiga ko‘maklashish;
- sanatga bo‘lgan ehtiyoj, uni tushunish, badiiy ijodda faol qatnashishga intilishni tarbiyalash;
- rivojlangan estetik didni shakllantirish;
- o‘quvchi-yoshlarda estetik ongni shakllantirish jarayonida, uni ahloqiy, mehnat, ekologik jihatlardan ham tarbiyalash.61
Estetik tarbiyaning hayotiy omillari faqat estetika, madaniyat, sanat va adabiyotdan-gina iborat emas, ijtimoiy ong ko‘rinishlari va iqtisodiy-siyosiy munosabatlar, turmush va tehnika, sport va milliy urf-odatlar ham nafosat tarbiyasining muhim omillaridandir.
Estetik tarbiyani to‘la amalga oshirmay turib, ahloqiy, g‘oyaviy-siyosiy tarbiya asosida rivojlangan barkamol shaxsni voyaga etkazib bo‘lmaydi.
Estetik tarbiya eng avvalo, tabiat va jamiyatda hamda sanat asarlarida go‘zallikni ko‘ra bilish, uni tug‘ri tushunish va qadrlash qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. U hayot va mehnatning barcha tomonlariga go‘zallik ato etish qobiliyatini tarbiyalash, hayot va sanatda bemanilikka, xuniklikka qarshi kurash hamda qobiliyatiga qarab sanatda o‘zining ijodiy komolotini ko‘rsatishni nazarda tutadi.
Estetik tarbiyaning asl mohiyati insonni real dunyoda mavjud bo‘lgan go‘zallikni to‘g‘ri idrok qilishga va hayotda haqiqiy go‘zallik uchun kurashni ko‘rsatishdan iborat.
Yuqoridagilardan quydagi hulosalarni chiqarish mumkin:
Birinchidan, inson o‘zining mehnat faoliyati natijasida voqelikni estetik o‘zlashtiradi. Undagi go‘zallikni kashf etadi va idrok qiladi.

61 Подласый И.П. Педагогика. В 3-х кн., кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 2007. 127-143 стр.

Ikkinchidan, estetik tarbiya ishining barcha usul va vositalari kishida to‘g‘ri estetik fikr va idrok qilishni rivojlanishiga qaratilmog‘i zarur. YAni, kishining estetik bahosi, mulohazasi va idroki voqelikda mavjud bo‘lgan go‘zallikni yoki huniklilni to‘g‘ri aks ettirishi kerak bo‘ladi.
Uchinchidan, estetik tarbiya kishida har tomonlama va keng estetik did va manfaatlarni rivojlanishiga qaratilmog‘i lozim. YA’ni, kishining estetik bahosi, mulohazasi va idroki voqelikda mavjud bo‘lgan go‘zallikni yoki xunuklikni to‘g‘ri aks ettirishi kerak.
Biz estetik jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs deb, o‘z mexnati bilan xayot go‘zalligiga go‘zallik qo‘shuvchi, mexnat va ijtimoiy faoliyatini estetik kamolot darajasiga ko‘taruvchi komil insonni tushunishimiz kerak bo‘ladi. “Agar kishini turmush uztozi dono qilmasa, hech dono unga so‘z o‘rgatmoq uchun ovvoro bo‘lmasinki, mehnati zoe ketadi”, - deydi Kaykavus. Demak kishini tarbiyalashda xayotiy ta’sirning roli Kaykavusning diqqatidan chetda qolmagan. Ya’ni, u tarbiyani inson aqlini shaxsiy hayotini shakllantiruvchi omillardan deb biladi: uning fikricha dunyoni bilishdan maqsad undan foydalanishdir.
Oddiy musiqa kuyi, chiroyli gullar, su’ratlar dastlabki estetik kechinmalarni keltirib chiqaradi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi avvalo, ularning “eshitish”, ”ko‘rish“, tabiat ko‘rinishlari, atrof-muhitdagi go‘zallikni ajrata bilish va baholash ko‘nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Buning uchun ashula, musiqali o‘yin, rasm solish, xaykalchalar yasash mashg‘ulotlari keng qo‘llaniladi. Estetik tarbiya aqliy, ahloqiy va jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi.
Shuni alohida takidlash joizki, estetik tarbiya yosh avlodning ahloqiy ma’daniyati shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. San’atdagi ehtiyojni, uni tushunishni, badiiy ijodda faol qatnashishga intilishni tarbiyalash estetik tarbiyaning birinchi navbatdagi vazifasidir. O‘z navbatida san’at ham biron maqsadga qaratilgan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Estetik hissiyot xayot xodisalarini yoki san’at asarlarini estetik idrok etish jarayonida paydo bo‘la boshlaydi.
Estetik hissiyot shu idrok yuzaga keltiradigan o‘ziga xos kechinmalardan iborot bo‘lib, go‘zallikni va yuksaklikni, fojiaviylik yoki kulgulilikni his qilish sifatida yuz beradi. Insonning xayotga estetik munosabati nozik hissiyot tarixiy taraqqiyot maqsulidir. U jamiyat estetik ongining darajasini aks ettiradi.
Estetik didni turli estetik xodisalarga nozik baho berish, avvalo chiroylilikni, go‘zallikni xunuklikdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatidir. San’at asarlariga baho beradigan xollarda estetik did badiiy did ham deb ataladi. Yaxshi estetik did chinakam go‘zallikdan lazzat ola bilish, mehnatda, turmushda, yurush-turishda, san’atda go‘zallikni idrok etish va yaratishga ehtiyoj sezish demakdir. Yoki, aksincha yomon estetik did insonning voqoelikka estetik munosabatini buzadi, chinakam go‘zallikka uni loqayd qilib qo‘yadi, bazan esa hattoki shunga ham orlib keladiki, inson xunik narsalardan lazzat oladigan bo‘ladi. Rivojlangan estetik didni shakllantirish – estetik tarbiyaning muhim vazifalaridan biridir.
Estetik tarbiya insonning estetik ongini shakllantirish jaroyonida uni ahloqiy mehnat, ekologik jihatdan ham tarbiyalash vazifalarin qamrab oladi.
Estetik tarbiyaning ahloqiy tarbiyaga ta’siri shundaki, nafasot olami ezgulik va yaxshilikdan, beg‘arazlikdan ajralmagan xolda amal qilinadi. Estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishi, mehnat jarayoni shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o‘z ifodasini topadi.
Estetik tarbiya bilan ekologik tarbiya bog‘liqligi esa tabiatga beg‘araz, insoniy munosabatda bo‘lishda, jamiyat bilan tabiat o‘rtasida hamohong aloqadorlik munosabat-larini o‘rnatishda namoyon bo‘ladi.
Estetik tarbiyaning estetik ongni shakllantirish maqsadi va vazifasi ko‘proq yosh avlodga ta’aluqli estetik ongni shakllantirish demakdir. Estetik tomonsiz dunyoqarash chala, biryoqlama bo‘lib qolishi turgan gap, estetik dunyoqarash falsafiy, ahloqiy va boshqa dunyoqarash sohalaridan bahramand bo‘lib, o‘z navbatida ularni ham boyitib turadi.
Estetik tarbiya eng avvalo, shaxsning estetik didining shakllantirishga ta’sir o‘tkazadi. SHaxs o‘zligi esa uning estetik didi orqali namoyon bo‘ladi. Estetik didda inson aqliy va hissiy dunyosi,

orzu-umidlari, talab-extiyojlari, maqsad-manfaatlari ro‘yobga chiqishi ifodalanadi. Did faqat kayfiyat baxolarigina emas, balki inson faoliyati samaralari vositasida ham ifoda topadi. Inson faoliyatinig barcha samaralarida uning didi aks etadi.

Estetik tarbiya o‘z diqqat-e’tiborini shaxs estetik ehtiyojlarini shakllantirishga qaratadi. Hilma-hil o‘ta murakkab talab-ehtiyojlarini birlashtiradi, uyg‘unlashtiradi va hamohang tarzda amal qilinishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Estetik tarbiyaning inson talab-extiyojlari, madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni ham beqiyosdir, zero insonning talab-extiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg‘usi shaxsiy extiyojni jamiyat extiyoji bilan munosib tarzda qo‘shib olib borishni taqozo etadi. Ana shu mezon tuyg‘usida etuklikka erishish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Shunday qilib estetik tarbiya - bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo‘lgan inson shaxsini shakllantirish demakdir. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzu mos keladigan voqoelikni idrok etish, baholash, nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo‘lgan inson shaxsini shakllantirishga mo‘ljallangan ta’lim-tarbiya sohasidir.

Estetik tarbiya shaxsning estetik kamolotiga ta’sir o‘tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog‘liqdir. Estetik tarbiya vositalari shaxsning voqeylikka estetik munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat shakllariga aytamiz.

Yosh avlodni go‘zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to‘g‘ri tushunish, olijanob his-tuyg‘ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilarda go‘zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, do‘stlarining hursandchiliklariga sherik bo‘lish, qayg‘usini birga baham ko‘rish kabi hususiyatlar shakllantiriladi.

Xalq pedagogikasi estetikaning “go‘zallik hayot demakdir“ degan qoidasidan kelib chiqib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi, kishilar munosabatidagi go‘zallikda ishtirok etishini, uning hayotini, sanatni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o‘zining bosh vazifasi deb hisoblaydi.

Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan bo‘lsa, u har qanday qiyin ishda ham go‘zallikni ko‘ra oladi va uni zavq-shavq bilan bajaradi.

Estetik tarbiya – o‘quvchilarning estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko‘nikmalarni, estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalarni tarbiyalashni o‘z ichiga oladi. Bular o‘yin, mehnat jarayoni, maishiy faoliyatda, ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali, sanat asarlari, yani badiiy tarbiya vositalaridan estetik tarbiya berishdan iborat.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalariga quydagilarni kiritish mumkin:

-sanat asarlari;

-tabiat manzaralaridan olinadigan taassurotlar;

-insonlarni o‘rab turgan muhit;

-o‘quvchilarning tasviriy faoliyatlari;

-bvdiiy adabiyot, tabiat, mehnat va boshqalar.

Bunday talim-tarbiya va go‘zallik muhiti insonlarni har tomonlama komol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi.

Tarbiyaning yuqorida qayd etilgan tarkibiy qismlari o‘z vazifalarini bajarishi bilan bir qatorda, oliy maqsadga – barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular bir-birlari bilan chamabarchas bog‘liq bo‘lib, ta’lim muassasalarining o‘quv fanlarini o‘qitish, sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda, muayyan tarbiyaviy tizimda amalga oshiriladi.

Maktabda bolalarni tarbiyalash o‘quv jarayoni, sinfdan va maktabdan tashqari turli tuman ishlarda olib boriladi. O‘quvchilarga bilim, malaka va odatlar shakllantiriladi. Bolalar odob va odobsizlik haqida tushuncha oladilar. Ular axloqiy tushunchalarni badiiy va ilmiy adabiyotlar, hayot, kinofilm va spektakllar orqali anglaydilar.

Maktabda o‘quvchilarga tarbiya berishda ma’lum bir tamoyillarga amal qilinadi:

1. Tarbiya o‘quv jarayoni bilan qo‘shib olib boriladi.

2. Tarbiya jarayonining muvafaqqiyati o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasining saviya-siga bog‘liq. Buning uchun jamoa ahil va inoq, bolalar intizomli bo‘lishlari kerak.

3. Tarbiyaviy ishlarning rejali bo‘lishi va hamjihatlik bilan amalga oshirilishi tarbiyaning muvafaqqiyatini ta’minlaydi. A.S.Makarenkoning «o‘nta yuqori malakali, o‘z holicha ishlaydigan o‘qituvchidan, malakasi past, bir yoqadan bosh chiqaradigan beshta o‘qituvchi afzal» deganini unutmaslik kerak.
4. Maktabda ijobiy-emotsional muhitni yaratish tarbiya jarayoniga foydali ta’sir etadi. Masalan, Respublika mustaqilligi kuni, Navro‘z bayrami kabilar.
Tarbiya turlariga bulardan tashqari g‘oyaviy-mafkuraviy, ekologik, iqtisodiy va boshqa tarbiyalar ham kiradi. Tarbiyaning barcha turlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, asosiy maqsad – barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.
Ekologik tarbiya. Ekologik tarbiyaning mohiyati, darsda va darsdan tashqari ishlarda ekologik tarbiya.
Tabiat bilan inson o’rtasidagi o’zaro munosabatlar ma’lum qoidalarga bo’ysungan holda boradi.Bu qonunlarni buzilishi ertami kechmi ekologik xalokatga olib keladi. Mustaqil respublikamizdagi ekologik muammolar umumijtimoiy masalalarning ajralmas qismi hisoblanib,keng jamoatchilik oldidagi xal etilishi zarur bo’lgan masalalardan biridir.Ekologiya tushunchasi fanga birinchi bo’lib ,1866 yilda nemis biologi E.Gekkel tomonidan kiritilgan. Ekologiya yunoncha so’z bo’lib ,uning ma’nosi tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muxit bilan o’zaro munosabatini bildiradi. Ekologik ta’lim va tarbiyani bog’chadan hamda umumta’lim maktablarining 1- sinfidan boshlash kerak. Ekologik tarbiya insonning tabiatiga, biosferaga bo’lgan yangicha munosabatlarni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi.Ekologik tarbiya atrof muhitga ,olamga ,xayvonot va o’simlik dunyosiga muxabbat va extiyotkorona munosabatlarni shakllantirish jarayonidir.
Ajdodlarimiz bu masalaga aloxida e’tibor bilan qaraganlar . Bolalar go’daklik chog’laridanoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muxabbat atrof muxitga xurmat, obodonchilik va ko’kalamzorlashtirish hissi shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga "Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib baxra oladi", "Birni kessang, o’nni ek" kabi o’git, nasixat qilganlar. Hozirda umumta’lim maktablarining 5 - sinflaridan boshlab, e k o l o g i ya fani o’qitila boshlanadi.
Ekologik ta’lim tarbiya quyidagi asosli bo’limlarni o’z ichiga oladi:
1. O’quvchilarni tabiat go’zalliklarini sevish,ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.
2. Jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatlari , tabiat bilan jamiyat o’rtasidagi murakkab o’zaro munosabatlar,inson xo’jalik faoliyatining tabiatga ta’siri oqibatlari haqida bilim berish .
3. O’quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash.Tabiatni sevish ,undan to’g’ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash kishilarda tabiat oldida masuliyatni anglash malakasini xosil qiladi.Tabiatning normal holati uchun fuqoralik masuliyatini anglash malakasini xosil qiladi.Tabiatning normal holati uchun fuqarolik masuliyatini to’la anglash ekologik ta’lim va tarbiyaning ifodasidir.
Kishilarda tabiat qonunlariga to’la rioya etish to’g’risida va bu sohada vatan ,xalq ,davlat va kelajak avlod oldidagi burch tuyg’usi va masuliyat hisi xosil etilsa, ularda ekologik ong va tafakkur xosil bo’lmaydi. Ekologik ong va tafakurga ega bo’lgan kishi o’z mehnat faoliyatida tabiatga ta’sir etish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko’rib, ongli ravishda ish tutadi.
Bolalarda ekologik xususiyatdagi tasavvurlarini kengaytirishda tarix va geografiya fanlarining imkoniyati katta. Bundan 500 yil,1000 yil avval o’lkamiz tabiati qanday bo’lgan , o’simlik va xayvonot olami qanday bo’lgani kabi savollarga javob topish mumkin.Ona tili darslaridagi ko’plab mashqlar o’quvchilarda tabiatga mexr uyg’otishi qo’l keladi.
Matematika fanida beriladigan ekologik ta’lim tarbiya jarayonida o’quvchilar tabiatidagi salbiy yoki ijobiy o’zgarishlar inson sog’ligiga qanday ta’sir qilishi haqida aniq tasavvurga ega bo’lishadi. Masalan: Respublikamizda 1200 ga yaqin sanoat korxonasi borligi, ular xavoga 1500 tonnaga yaqin zaharli moddalarni chiqarayotganligi, bunday holat 10 yil, 20 yildan keyin shu maromda ketaversa nimalarga olib kelishi mumkinligini misollar vositasida ekologik falokat oqibatlari yoshlarga tushuntiriladi.

Ekologik yo'nalishdagi to'garaklarda bolalar tabiatga zarar yetkazmaslikka, tabiat go'zalliklaridan zavqlanishga, atrof muxitni sevishga o'rgatilib boriladi.
To'garak mashg'ulotlarida o'tiladigan "Tabiatni e'zozlaylik", "Tabiat va inson", "Ekologiya va inson", "Orol madad so'raydi", "Kushlar bizning do'stimiz" kabi mavzularda tabiatga qiziqishni yanada oshiradi. O'qituvchining bolalarga ekologik ta'lim tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydaanishi yaxshi samara beradi.
Masalan, "Soyasidan xalq foydalanib to'rgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do'zaxga maxkum etur ", "Qaysi musulmon ekin eksa, yoki biror daraxt o'tkazsa, so'ng uning mevasidan kush yeki xayvon yesa, uning ekinidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi" kabi hodisalarda ekologiyaga oid tushunchalar bordir.
Kovun sayli, suv sayli, uzum sayli, hosil bayrami, navro'z bayrami, xirmon to'yi kabi bayramlar ham o'quvchilarga ekologik tarbiya berishda katta ahamiyatga ega.

Test topshiriqlari:
1.Ekologik tarbiya bu-
a). O'quvchilarda tabiatga ongli ravishda munosabatda bo'lishni shakllantirish jarayonidir.
v). O'quvchilarda atrof-muxitga, olamga, xayvonot va o'simlik dunyosiga muxabbat va extiyotkorona munosabatlarni shakllantirish jarayonidir.
s). O'quvchilarda tabiatga ongli ravishda munosabatda bo'lishni, ularga muxabbat uyg'otishni shakllantirish jarayonidir.
d). O'quvchining tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirish jarayonidir.
ye). Atrof muxit tozaligi va turmush tarzini, tabiat muvozanatini shakllantirish jarayonidir.
2.Ekologik tarbiyaning mohiyatini tushuntirib bering.
Ekologik ta'lim tarbiyaning asosli bo'limlarini yozma ravishda izohlang.
Darsda va darsdan tashqari ishlarda Ekologik tarbiyaning mohiyatini sharxlab bering.
Darsda va darsdan tashqari ishlarda Ekologik tarbiyaning taqqoslab bering.
Ekologik tarbiyaning mohiyatini asoslab bering.

1. masala: Ko'p bolali oilaning otasi mamnun bo'lib hikoya qiladi: Yer ag'darish biz uchun hech gap emas. 1-2 kg konfet, pechene sotib olib kelamanda, qani bolalar bu sizlarga, lekin oldin yerni chopib beringlar, deyman.
- Bolalar konfetsiz yer ag'darishmaydimi?- so'radik biz.
-Uncha tirishib ishlashmaydi-da,- tushuntirdi ota.
Ota qo'llagan rag'batlantirish usuliga qanday baho berasiz?
2. masala:
3-sinf o'quvchisining onasi hikoya qiladi: Avvallari o'g'limning hamma ishi joyida edi. Men ishlamasdim, unga ko'p vaqt ajratardim. Ishga kirganimdan so'ng «ikki baholar» ola boshladi. Kechqurun darsini tekshirsam, topshiriqlarning bir qismi bajarilmagan, bajarilgani esa iflos, tushunarsiz bo'lgani uchun uni qayta ko'chirish kerak. Lekin qachon ulgurardi? Uxlash vaqti bo'lib qolardi. Ota-onaning xatosi nimada? Siz qanday yo'l tutardingiz?
Quyidagi satrlarni o'qing va mushohada qiling:
Turli qo'shiqlar orqali go'zallik, orzu-umid va boshqalar tarannum etilib, insonda cheksiz muhabbatni tarkib toptiradi. Ertaklar orqali yaxshilikka mehr, yomonlikka nafrat tarbiyalanadi. Yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashimizda ayniqsa, qahramonlik dostonlarining ahamiyati ham kattadir.
Umumiy ta'lim fanlarining nafosat tarbiyasi berishdagi imkoniyatlarini yozma bayon eting.
Maktabda badiy xavaskorlik to'garaklarining ishini o'rganish va ularni yanadi yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqing.
Maktabda badiy xavaskorlik ko'rik tanlovi o'tkazishning rejasini tuzing Ijodiy ishlarning ko'rgazmasi qanday tashkil etiladi.Tartibini yozma bayon qiling

Seminar mashg'uloti.

8-mavzu: Tarbiyaning va uning metodlari.
Asosiy savollar.

1. Tarbiya metodlari va vositalari haqida tushuncha
2. Tarbiya metodlari tasnifi va tavsifi

1-asosiy savolning bayoni:
Har bir o‘qituvchi-tarbiyachi bolalar nimalar ta’sirida, qaysi sharoitlarda, muhitlarda kamolga etishishi, uni amalga oshirishda qanday qoidalarga amal qilish lozimligini, qanday ta’sir ko‘rsatish vosita va yo‘llarini yaxshi bilmog‘i lozim.
O‘zbek xalqi bola tarbiyasi sohasida ulkan boy tajribaga ega. Shu bilan birga ilmiy pedagogikamiz undagi va fandagi yutuqlarga tayangan holda tarbiya usullari xaqida ma’lum to‘xtamlarga kelgan. Unga ko‘ra «metod» so‘zi grekchadan olingan bo‘lib, yo‘l, usul, ma’nosini anglatadi. Shuning uchun ham ilmiy adabiyotlarda «tarbiya metodlari», «tarbiya usullari» kabi tushunchalar tez-tez uchrab turadi.
Tarbiya usullariga pedagog olimlar (R. Mavlonova, A. Munavvarov, M. Quronov, K. Xoshimov, O. Hasanboeva, M. Inomova, U. Nishonaliev, R. Hasanov va boshqalar) turlicha ta’rif berishgan.
Ayrimlarida, tarbiya usullari deb, barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida, uning ongiga, xulqiga, irodasiga, his-tuyg‘ulariga ta’sir etish yo‘llariga aytiladi. Boshqalarida «tarbiya usuli – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati va o‘zaro ta’sir ko‘rsatish usullaridir», - deyiladi. Birinchi ta’rif aniq ma’no kasb etsada, ammo unda faoliyat bir tomonlama ta’sir kuchiga ega. Ya’ni, tarbiyachining ta’sirigina ko‘zda tutilganday. Ikkinchisi esa hamkorlikdagi faoliyat va o‘zaro ta’sirni nazarda tutadi.
Ta’lim metodlari kabi tarbiya usullari ham alohida tarkibiy qismlarga bo‘linadi, masalan, usul va uslub tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda pedagogik jarayon mohiyatiga ko‘ra bir-biriga o‘tib turishi mumkin.
Pedagogikada tarbiya shakllari degan tushuncha ham yo‘q emas. Masalan, o‘quvchilarning jamoa individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalaniladi: sinf majlisi, yig‘ilishlar, ertalabki yig‘inlar, klub va to‘garak ishlari kabilar.
Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalalarni maqsadga muvofiq yo‘l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi: ko‘rsatmali qurollar, kitoblar, radio, televideniya, san’at asari va boshqalar. Ammo, bu predmetlarni harakatga keltirgandagina, ulardan foydalanib, muhokama etganimizdagina tarbiya vositasi bo‘la oladi. Tarbiya vositalari sifatida o‘quvchilarning turli faoliyatlari ham xizmat qilishi mumkin: kinofilmlar, san’at asarlari, suhbat, bolalar o‘yini, sport, badiiy havaskorlik to‘garaklari va boshqalar.
Har qanday tarbiyaning natijasi tarbiyaviy jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog‘liq.
Tarbiyachilar ta’sir etishning bola shaxsiyatiga mos usulni, eng ma’qul usulni tanlab olishlari, uning shaxsini o‘zgartirish uchun kerakli sharoit yaratishlari darkor. Tarbiya usullari har bir bolaga, har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo‘lishini nazarda tutadi.
Tarbiya g‘oyatda murakkab jarayon bo‘lib, har davrning ijtimoiy siyosiy hayotini o‘zida aks ettiradi. Uning usullari, vositalari va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi. Tarbiya har bir xalqning o‘z udumi, usuli, tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi, tarbiya vositalari bo‘ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi lozim.
Yuqorida qayd etganimizdek, xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalanish ko‘zda tutiladi. Ularning rang-barangligi ilmiy pedagogikani ham boyitadi.
Bola tarbiyasida xalqimiz qo‘llab kelgan milliy usullarni quyidagicha guruhlarga umumlashtirish mumkin:
1.Tushuntirish: o‘rgatish, odatlantirish, mashq qildirish va h.k.
2. Namuna: maslaxat berish, uzr so‘rash, yaxshiliklar haqida so‘zlash, o‘rnak bo‘lish.
3. Nasihat berish, o‘git: undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma’qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo‘l tilash va h. k.

4.Qoralash va jazo: ta’qiqlash, tana, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo‘rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish-kaltaklash va h. k.62

Agar sinchiklab e’tibor berilsa, ushbu milliy tarbiya usullari ketma-ketligida yaxlitlik bor. Masalan, bolaga avval tushuntiriladi, keyin namuna sifatida ko‘rsatiladi, bunda ham tushunmasa, nasihat beriladi, bunga ham ko‘nmasa, tushinishni istamasa jazo beriladi. Bu so‘ngi chora ekanligini xalqimiz yaxshi bilgan.

Xalqimizning milliy usullari muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Tarbiya vositasi vazifasini quyidagilar o‘tagan: mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar, musobaqalar, turli marosim va boshqalar ham shular jumlasiga kiradi. Bugungi kunda o‘quvchilarni tarbiyalashda milliy an’analar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi zarur. Bular o‘z navbatida, yangi tarbiyaning o‘zgacha muvofiq uslub va shakllarini taqoza etadi.

2-asosiy savolning bayoni:

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda tarbiya usullari o‘z xarakter va xususiyatlaridan, qanday maqsadga qaratilganidan kelib chiqib to‘rtta guruhga ajratiladi: ijtimoiy ongni shakllantirish usullari; ijtimoiy hulqni shakllantirish usullari; rag‘batlantirish va jazolash usullari; o‘z-o‘zini tarbiyalash usullari.

1. Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari: suhbat, hikoya, pand-nasihat, tushintirish va boshqalar.

2. Ijtimoiy xulqni shakllantirish usullari: namuna, ibrat, taqlid, mashq, o‘rgatish, topshiriq, pedagogik talab, odatlantirish, o‘rgatish, o‘yin va boshqalar.

3. Rag‘batlantirish va jazolash usullari: ishonch bildirish, maqtash, sovg‘a berish, maqtov yorlig‘i, moddiy taqdirlash, hurmat taxtasiga chiqarish, qo‘llab-quvvatlash, mas’uliyat va minnatdorchilik, musobaqa, matbuotda e’lon qilish kabi rag‘batlantiruvchi; tanbeh berish, ogohlantirish, hayfsan berish, uyaltirish, koyish kabi jazolash usullari. Ammo, jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, balki qo‘rqitish, g‘azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o‘quvchi qo‘rqqanidan yolg‘on gapirishga o‘rganadi, ikki yuzlamachi bo‘lib qoladi.

4. O‘z-o‘zini tarbiyalash: shaxsiy majburiyat olish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va boshqalar.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar guruhiga o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e’tiqod, tushuncha, ma’naviy va siyosiy g‘oyalarni shakllantirish maqsadida ularning ongi, hislat va irodasiga ta’sir ko‘rsatish usullari kiradi. Bu usullar orasida o‘quvchilar ongiga ta’sir etuvchi va eng ko‘p qo‘llaniladigan usul – tushuntirishdir. Tushuntirishning vazifasi o‘quvchilarni yuksak ma’naviyatli, madaniyatli, milliy g‘ururi yuksak qilib tarbiyalashda yordam berishdir. Masalan, o‘quvchilarga bayroq, gerb, madhiya, Konstitutsiyaning mohiyatini tushuntirish mumkin.

Suhbat usuli. O‘quvchi shaxsini ma’naviy axloqiy jihatdan shakllantirishda O‘qituvchining jonli so‘zi eng ta’sirli usuldir.

Suhbat usuli savol-javob negizida ko‘rinadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning dolzarbligi, qiziqarli va kutilayotgan natijani hisobga olish kerak. Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: ahloqiy mavzular, estetik mavzular, siyosiy mavzular, ta’lim va bilimga oid mavzular va h. k. Suhbat davomida o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish va javob berish imkoniyatlari tug‘iladi.

Hikoya usuli. Kichik yoshdagi o‘quvchilar odatda hayotiy va badiiy adabiyotdan olingan hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga ahloq me’zonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib, mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san’at haqida hikoya qilib berishi mumkin. Suhbat va hikoyalar o‘quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushinadigan tilda o‘tkazilishi zarur. Suhbat va hikoya mavzusini o‘quvchilarning o‘zlari tanlagani yaxshi.

O‘quvchilarda ijtimoiy xulqni shakllantirish usuli. Psixologiyadan bizga ma’lumki, shaxs faoliyatda rivojlanadi. Qolaversa, o‘quvchi uchun faqat tushunchaning o‘zi etarli emas. U o‘zlashtirgan, anglab etgan axloqiy-qonun qoidalariga rioya qilishi, ularga amal qilishi lozim. shuning uchun ham jamiyat talab etuvchi xulq atvorlarni o‘quvchilarda shakllantirish usullari mavjud.

Namuna. Ma’lumki, yosh bolalar kattalarga taqlid qiladilar, ularga o‘xshashga harakat qiladilar. shuning uchun ham eng avvalo O‘qituvchining o‘zi har tomonlama namunali bo‘lishi, o‘z xatti-

harakatlarini to‘g‘ri boshqarishi lozim. Aks xolda o‘quvchilarga faqat ijobiy fazilatlar emas, balki salbiy xatti-harakatlar ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.
Bolalar ongiga ilg‘or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan ma’lumotlar, badiiy asarlardagi, kinofilmdagi va spektakldagi qahramonlar xatti-harakatlaridagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta’sir qiladi.
Namunadan milliy tarbiya usuli sifatida ota-bobolarimiz usuli keng foydalanilgan. Zero, ular o‘z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug‘ kishilardan ibrat olishga da’vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» degan dono xalqimiz.
Mashq. Bu usul bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil etish ularni ahloq mezonlari va hulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi. Ota-onalar, O‘qituvchilar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari zarur va shart.
Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotoba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o‘quvchi uchun ongli va ijobiy jarayondir. Mashq natijasida ko‘nikma, yangi bilimlar hosil qilinadi, o‘quvchilarda aqliy qobiliyat va axloqiy fazilatlar rivojlanadi. Odat muntazam mashq orqali mustaxkamlanadi.
O‘rgatish – ijtimoiy hulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar amaliy ishlardir. O‘rgatish bir necha izchil harakatlar yig‘indisidir, O‘qituvchi bu harakatlarni ko‘rsatib berish, tushintirish, kuzatishi mumkin. Tarbiyada mashq qilishning turli xillari majud: faoliyatida mashq olish, kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar.
Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘yin viziyatlari ham muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarda xulq-atvor me’yorlarini shakllantirishda azaldan bolalar xalq o‘yinlari kuchli tarbiya vosita va usuli bo‘lib kelgan. Masalan, xola-xola o‘yini, mehmon kutish va h.k.
Topshiriq. Mehnat topshiriqlarini jamoa bo‘lib bajarish o‘quvchilarda o‘z kuchlarini umum ishga sarflashga, jamoa uchun mas’uliyatni his etishga o‘rganidilar. Aqliy va jismoniy mehnat qilish bolani xarakterini shakllantiradi, mustaxkamlaydi.
Talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab – bu o‘quvchining oldiga biron bir vazifani bajarishni qo‘yishdir. Bu o‘quvchining ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib borilishi zarur bo‘lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.
Rag‘batlantirish va jazolash usullari. Bu usullar o‘quvchilarni harakatga keltiradi, o‘z kuchiga ishonch uyg‘otadi. Rag‘batlantirish usullaridan foydalinish natijasida bola o‘rnining olg‘a siljib borayotganini ko‘ra boshlaydi, xurmat qilayotganini, ishonmayotganliklarini jamoaga kerakligini, o‘qituvchisini qiziqtirayotganligini anglab etadi. Rag‘batlantirish bola ishonchiga, unda bo‘lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarning kuchini e’tirof etishiga asoslangan. Rag‘batlantirish o‘quvchining ko‘nglini ko‘taradi, unga quvonch keltiradi, o‘quvchining yanada yaxshiroq bo‘lishiga intilishga yordam beradi.
Maktablar tajribasida rag‘batlantirishning quyidagi turlari qo‘llaniladi: topshiriq berish, maqtash, sovg‘a berish, maqtov yorlig‘i berish, moddiy taqdirlash, xurmat taxtasi, qo‘llab-quvvatlash, mas’uliyat va jamoaning minnatdorligi, safarda birinchi o‘rinda turish, musobaqa, gazeta va radiolarda e’lon, reja qo‘yish va h. k. Bu usullarning barchasi pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanilishi mumkin. Har qanday rag‘batlantirishning to‘g‘ri xizmat qilishi, ketma-ket bo‘lmasligi qadrini oshirib maqtashga, boshqa o‘quvchilarga taqqoslab ularni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslikka rag‘batlantirishga bo‘lgan talabchanlikni bo‘shashtirmaslik zarur.
Jazolash. Bu o‘z harakatiga ko‘ra tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo o‘quvchining va butun sinf manfaati uchun qo‘llanilgan eng ohirgi tarbiya usulidir. Jazo choralarini qo‘llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo‘rqitish g‘azablantirish ham yaxshi natija bermaydi.
Maktab amaliyotida qo‘llash mumkin bo‘lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi: tanbeh berish, ogohlantirish, qoniqarsiz baho qo‘yish, maktabdan chetlashish va va h. k.

Jazo yaxshi qo‘llanishi lozim, qiziq ustida tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar bitta bo‘lgani yaxshi, o‘quvchilarning aybiga mos muvofiq bo‘lsin, tez-tez qo‘llanmasin, jazolovchi jazoni haqqoniyligini aniq bilsin va ular o‘z ayblarini sezsinlar. Jazo jamoada muhokama etilsa, ular tomonidan shu jazo usuli qo‘llab-quvvatlansa uning ta’sir kuchi yanada oshadi. Har qanday jazo ham tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqibatlarga solmasligi, uni taxqirlamasligi, sha’nini bulg‘amasligi kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash usullari. Bu usullar o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tarbiyalash ehtiyoji tug‘ilgan degan samara berishi mumkin. Ammo, o‘quvchilarni o‘z ustilarida mustaxkam ishlashga yo‘llashimiz lozim.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga o‘rgatishning bir qancha usullari bor. Masalan, o‘quvchiga ota-ona yoki O‘qituvchi shaxsiy majburiyat berishi mumkin.

Azaldan xalqimiz o‘z farzandlariga majburiyatlar bo‘lib bergan. Masalan, bir farzandli uy ro‘zg‘or ishlaridan, yana biriga chorva ishlari, boshqasiga ovqat pishirish, ukalariga qarash majburiyatlarini bo‘lib berishgan. Bugungi kunda ham O‘qituvchining undovi bilan bolalarga uy-ro‘zg‘or vazifalari, sinf majburiyatlarini berish mumkin. YOshi ulg‘ayib borishi bilan bolaning majburiyati murakkablashib boradi, unga ko‘proq e’tibor qaratilib boradi.

O‘z-o‘ziga hisobot berish. Biz ko‘pchilik oldida, ya’ni sinf jamoasi, ota-ona va boshqalar oldida yuz berishi mumkin o‘ziga-o‘zi hisobot berish bolada o‘z ishi uchun mas’uliyatni oshiradi, o‘z xatti-harakatlari uchun o‘zi javob berishga o‘rgatadi, o‘z-o‘zini tarbiyalash bo‘yicha tajriba almashishga yordam beradi.

O‘z-o‘zini tahlil etish. Bu o‘z shaxsiy fazilatlari ustida mulohaza yuritish. Masalan, men nima qila olaman, men qanday odam, men qanday o‘rtoq? O‘z-o‘zini tahlil etish o‘z xatti-harakatlari va xulq atvorlari ustida o‘ylashga, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga o‘rgatadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish. Bu xarakterdagi, ya’ni sifatlarini aniqlash va kamchiliklar bilan kurashish maqsadida o‘z xulqini doimiy yozib (nazorat qilib) borishidir.

O‘z-o‘ziga baho berish. Bu usul o‘z imkoniyatlarini chamalab ko‘rish va baholashga, chetdan o‘ziga qarashga shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga ob’ektiv baho berish, o‘zining hulq-atvoridan ko‘nikma hosil qilmasliklari tug‘ilishiga yordam beradi

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya metodlarilariga ta’rif bering.
2. Tarbiyada hikoya, suhbat, namuna, ibrat hamda ma’ruza metodlari qanday hollarda qo‘llaniladi?
3. Xalq pedagogikasida qanday tarbiya metodlari uchraydi?
4. Zamonaviy pedagogikada tarbiya metodlari qanday guruhlarga ajratiladi?
5. Tarbiyaning har bir guruh metodlariga misollar keltirib, ularni asoslang.

Muammoli pedagogik vaziyatlarni yeching.

1. 2- sinfda har xil buyumlar: qalam ruchka, rezinka va boshqalar yo’qola boshladi. Bir kuni sinfdagi qizchaning bosh kiyimi yo’qoldi. O’qituvchi topilmalar byurosining faoliyati haqida gapirib berdi. Bolalar topib olingan narsalar qaytarib berilishi to’g’risidagi kattalardan eshitgan misollarni aytishdi.

O’qituvchi qanday tarbiya metodini qo’llagan. Bu metodning samaradorligi nimalarga bog’liq. Har doim ham ushbu metod samara beradimi?

2. Muallim quyidagicha hikoya qiladi: «O’g’lim (9 yosh) qorong’idan va balandlikdan qo’rqadi. Men imkon boricha uni ko’proq ana shu qo’rquvni yenga oladigan sharoitga qo’yaman: Goho ob-havo qandayligini bilib kelish uchun kechqurun hovliga, goho go’yo esdan chiqqan narsani olib kelish uchun qorong’i xonaga yuboraman.

O’yin paytida ayrim paytlari chuqurlikka sakraymanda, «Daraxtning hov anavi novdasini menga olib ber. Uni emas, narigi, yuqoridagisini» deyman.

O’qituvchi to’g’ri qiladimi? Bu qanday tarbiya metodi.? U nima uchun samarali?

3. Dars boshlanishidan oldin o’qituvchi yerda g’ijimlangan qog’oz parchasi yotganini ko’rib, bir o’quvchiga «qog’ozni ol», deb murojaat qildi. O’sha o’quvchi sekin partadan turib «men tashlamaganman, nega olarkanman» deb, yana joyiga o’tirdi.
O’qituvchi nima qilishi kerak? Sinfning ta’sirlanishi qanday bo’ladi va bu nimaga bog’liq?
4.O’qituvchi o’zini-o’zi darsdan chiqarib yuborgan holni eshitganmisiz? Bunga quyidagi voqea sabab bo’lgan edi: o’qituvchi dars o’tish uchun sinfga kirsa, tanaffusda navbatchilar sinfni darsga tayyorlamagan, doska o’chirilmagan, latta yo’q, bo’r yo’q. O’qituvchi : «Shunday oddiy masalani hal qila olmagan yomon o’qituvchi dars o’tishi mumkin emas»,- deb sinfdan chiqib o’qituvchilar xonasiga ketdi. Uch minutdan keyin esa sinf o’quvchilaridan vakillar borib, o’qituvchidan kechirim so’rab, uni sinfga qaytishini iltimos qilishdi.
Vaziyatni tahlil qiling. O’qituvchi to’g’ri yo’l tutdimi? O’quvchilarda ongli intizomni tarbiyalash usullari qaysi hollarda samara beradi?

4 –MODUL. PEDAGOGIKA TARIXI FAN SIFATIDA.

MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI

1-mavzu: Pedagogika tarixi fan sifatida. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar

Asosiy savollar
1. Pedagogika tarixi fan sifatida
2. Qadimgi yozma yodgorliklarda ta’lim-tarbiya masalalari
3. «Avesto» – eng qadimgi yozma ma’rifiy yodgorlik
4. Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga doir fikrlar

1-asosiy savolning bayoni.
Pedagogika tarixi fan sifatida insoniyat, jamiyat, muayyan bir millat, xalqning asrlar davomida, o‘z tarixiy rivojlanish bosqichlarida inson tarbiyasi sohasida to‘plagan tajribalari, buyuk mutafakkirlarning pedagogik fikr, ta’limot, qarash va g‘oyalari, bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda ularni metodologik asos sifatida o‘rganadi. Hozirgi o‘zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo‘lib, ular yuksak va o‘ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tgan. Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanish, ancha takomillashgan mehnat qurollarini yasash, urug‘chilik davriga kelib, xo‘jalik hayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o‘z ichiga olgan davrgacha bo‘lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiy madaniyatga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Parfiya hamda Parkana kabi davlatlarida turli qabila va elatlar yashagan. Ular saklar, massagetlar, so‘g‘diyonalar, xorazmiylar, boxtarlar, chochliklar, parkanaliklar kabi qabila va urug‘lardan iborat bo‘lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadilar.
Eramizdan oldingi IX-VII asrlarda paydo bo‘lgan Ahmoniylar, eramizdan avvalgi III asr o‘rtalarida tashkil topgan Grek-Baqtriya, eramizning I asrida tashkil topgan Kushonlar, eramizning V- asrda yuzaga kelgan Eftalitlar, so‘ngra Somoniylar va nihoyat Turk hoqonligi davlatlarida ijtimoiy madaniyat yuksala bordi. Ajdolarimiz tomonidan qo‘lga kiritilgan qadimiy madaniyati tarkibidan ta’lim-tarbiyaga oid merosi ham alohida o‘rin olgan. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha etib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san’at namoyandalarining ijodiy merosi, san’at va adabiy asarlarning namunalari buning dalilidir.
Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita etib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san’ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo‘lishning namunasi tarzida e’tirof etilgan ma’naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” hamda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” kabi asarlari, shuningdek, Urxun-Enisey bitiklari kabi

adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha etib kelgan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o‘rganish insonning shakllanishida moddiy va ma’naviy madaniyat qay darajada katta rol o‘yinaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta’sir etgan bo‘lsa, insonning shakllana borishi ham o‘z navbatida kishilik jamiyatining qaror topa borishiga yordam bergan.

Ma’lumki, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham ijtimoiy jihatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy e’tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlar inson ongining ham shakllanib borishiga turtki bo‘ldi. Bu jarayon minglab yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan.Ushbu talablar muayyan davrda yaratilgan yodgorliklarining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi.

2-asosiy savolning bayoni

Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o‘rganishda quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz:

1. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko‘rgazmali ashyolar.
2. Xalq og‘zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.
3. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.

Ma’lumki, ibtidoiy kishilar mehnat faoliyati jarayonida o‘z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodda ham mehnat qilish, amaliy faoliyatni yo‘lga qo‘ya olish borasidagi nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga zamin hozirlagan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayoni dastlabki paytlarda butun ijtimoiy hayotni yo‘lga qo‘yish negizida amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik tarbiya inson faoliyati asosiy jihati, ijtimoiy ongni shakllantirishning muhim omiliga aylandi. Dastlabki urug‘chilik jamiyatidan oldin ham inson yashash uchun kurashgan, mazkur davrda urug‘ning barcha a’zolari jamoa bo‘lib harakat qilganlar. Keyinroq kishilar mehnat faoliyatini jamoa a’zolarining yosh jihatlariga ko‘ra quyidagi uch guruh asosida tashkil etganlar.

a) bolalar va o‘smirlar;
v) ijtimoiy hayot va mehnatda to‘la ishtirok etuvchilar;
s) keksalar.

Ibtidoiy jamiyatda bola o‘zi uddalay oladigan faoliyatning tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, hayot kechirish va mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirgan. Bu holat og‘ir sharoitda kechgan, o‘g‘il bolalar erkaklar bilan ov qilish, qurol yasash kabi yumushlarni bajarsalar, qizlar ayollar tomonidan bajariladigan mehnat sirlarini o‘zlashtirar edilar. Hech qaerda yozilmagan odat va an’analarga ko‘ra, yosh bolalar keksalar nazorati ostida ma’lum tajribalarga ega bo‘lardilar. Bola ma’lum tayyorgarliklardan so‘ng maxsus sinovlardan o‘tib, amaliy faoliyatda faol ishtirok eta olish huquqini qo‘lga kiritar edi. Ushbu an’ana, ya’ni, bolalarni ma’lum yoshgacha enaga yoki murabbiyga topshirish yaqin davrlargacha saqlanib qolgan, hatto hozirgi kunda ham ko‘zga tashlanadi.

Jamiyatning ijtimoiy jihatdan taraqqiy eta borishi bolalarga dalalarni o‘lchash, suv toshqinlarining oldini olish, kishilarni turli kasalliklardan davolash usullariga oid bilimlarni berishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Mazkur ehtiyojni qondirish yo‘lidagi harakatning tashkil etilishi natijasida turli maktablar faoliyat yurita boshladi. Maktablarda asosiy e’tibor bolalarga ogzaki bilimlar berish bilan birga ularda yozuv ko‘nikmalarining shakllantirilishiga qaratildi. Dastlab suratkashlik rivojlanib, piktografik xat paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik qo‘shni mamlakatlardan kirib kelgan harflar yordamida yozish usuli paydo bo‘ladi va bu usul tez tarqala boshlaydi.

Eramizdan oldingi ming yillik o‘rtalarida oromiy, Aleksandr Makedonskiy istilo-sidan so‘ng esa yunon, shuningdek, forsiy mixxat yozuvlari ham ma’lum vaqtlarda qo‘llanilib kelgan. Eramizdan oldingi birinchi ming yillik o‘rtalariga kelib, oromiy yozuvi negizida Avesto, Xorazm, So‘g‘d, Kushon, Run (Urxun-Enisey), uyg‘ur va boshqa yozuvlar paydo bo‘ladi va ta’lim-tarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu davrga kelib, ibtidoiy jamoa bo‘lib yashash an’anasi asta-sekin rivojlana bordi, jahon madaniyatida imkoniyat, tarixda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kashfiyotlar yaratildi. Xitoyda qog‘ozning ixtiro etilishi, Hindistonda hisoblash, o‘nlik

sonlar tizimining paydo bo‘lishi, Mesopotamiyada er kurrasining graduslarga, sutkani soatlarga, minut va sekund-larga bo‘lishning o‘ylab topilishi, Markaziy Osiyoda O‘rta dengiz bilan Hindistonni o‘zaro bog‘lovchi karvon yo‘lining vujudga kelishi, keyinchalik Xitoydan Markaziy Osiyo orqali O‘rta dengizga “Buyuk ipak yo‘li”ning ochilishi kabi voqealar mazkur hududlarda yashovchi xalqlar madaniyatining rivojlanishi va yozuvning tarqalishiga sabab bo‘ladi.

Eramizdan oldin taxminan 484(480) - 431(425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta’lim-tarbiya tarziga oid muhim ma’lumotlar berilgan. “Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir”, - deydi olim. Shunga ko‘ra ular ko‘proq o‘g‘il bolalardan faxrlanganlar. Podshoh ham kimning o‘g‘li ko‘p bo‘lsa, unga har yili sovg‘a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari bolalarning yoshiga ham e’tibor berishgan. O‘g‘il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshigacha faqat uch narsaga: otda yurish, kamondan otish, to‘g‘ri so‘zlikka o‘rgatilgan. Bolani besh yoshgacha otasiga ko‘rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo‘lgan. Mabodo o‘g‘il bola vafot etsa, otasining qayg‘urmasligi uchun shunday qilganlar. O‘g‘illar hech qachon ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qilmaganlar. Ular bunday holatni faqat nikohsiz tug‘ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin, deb hisoblaganlar.

So‘g‘d yozma yodgorliklari orasida V.B.Xen tomonidan aniqlangan va “Eski xatlar” nomi bilan yuritiladigan qimmatli manbalar eramizning boshlarida shakllangan so‘g‘d yozuvi haqida ma’lumot beradi. Ushbu manbalarni Dunxuan shahri (SHarqiy Turkiston) yaqinidagi savdo qishlog‘ida yashagan so‘g‘dlik tijoratchi (savdogar)larning o‘z ona yurtlari Samarqandga yozgan va shaxsiy xarakterga ega bo‘lgan xatlar63 tashkil qiladi.

Syuan-Szin nomli boshqa bir Xitoy tarixchisi esa Samarqand aholisining axloq va xulq-odob qoidalariga rioya etishi boshqalarga o‘rnak bo‘lganligini aytib o‘tgan. Bularning barchasi qadimgi davrlarda bolalarning besh yoshidan o‘qitilgani, ta’lim jarayonida ularni amaliy hayotga tayyorlash asosiy maqsad qilib belgiligi to‘grisidagi ma’lumotlarni beradi. Bu ma’lumotlar qadimda bolalar o‘qitiladigan savod maktablari bo‘lganligi va maktab-lardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-jismoniy mashq-larni bajara olish va muayyan hunar sirlarini o‘zlashtirish ishiga jalb etilganligidan darak beradi.

Eposlar mazmunida bayon etilishicha, xotin-qizlar turli sharoitlarda erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko‘rsatganlar. Ular xo‘jalik ishlari bilan chegaralanib qolmay, urushlarda ham jasorat ko‘rsatganlar. Demak, xalqimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvoriga oid hislatlari eng qadimgi epik yodgorliklar -“Avesto”, “Shohnoma” kabi asarlar, mif va afsonalar orqali bizgacha etib kelgan. Qadimgi ajdodlarimiz insonga xos jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi hislatlarni qadrlaganlar. Bu hislatlar insonda o‘z-o‘zidan shakllan-magan. Tabiat va jamiyat hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlar, ibtidoiy urug‘chilik davrida qaror topgan turmush tarzi insonda ana shunday hislatlarning shakllanishini taqozo etgan.

“Devonu lug‘atit-turk” asarida qadimgi turkiy so‘zlarning arabcha izohli tarjimasi ham berilgan. Ushbu asarni qadimiy turkiy tilning izohli lug‘ati ham deyish mumkin. “Devonu lug‘atit-turk” 1928 yilda nemis olimi Brokelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilingan. 1939 yilda esa Bosim Atalay uni usmonli turk tiliga tarjima qilgan va mazkur tarjima Anqarada chop etilgan. O‘zbekistonda asar Solih Muttalibov tomonidan tarjima qilinib, 1960-1963 yillarda uch jilddan iborat “Turkiy so‘zlar lug‘ati” nomi bilan nashr qilingan. 1967 yilda indeks lug‘at ko‘rsatkichi ham chop etilgan.

Aziz Qayumovning “Qadimiyat obidalari” nomli asaridagi pand-nasihatga oid o‘gitlar bilan sug‘orilgan she’riy parchalar tarjimasi mazmuni orqali ularda ilgari surilgan ma’rifiy g‘oyalar asosida o‘sha davrda olib borilgan tarbiya mazmuni haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.64 Asarning mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi manbalarning aksariyatida Mahmud Qoshg‘ariyning qo‘shiqlarni xalq orasidan yiqqanligi ta’kidlanadi. Aziz Qayumov esa bu she’r parchalarining asl nusxasida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan badiiy ijodga nisbatan yuksak talabchanlik aniq sezilib turishi, she’rlarni yaratgan shoirlarning juda ma’lumotli ekani, chuqur

63 Исҳоқов М. Сўғдиёна тарих чорраҳасида. – Т., “Фан”, 1990. 6-7-бетлар

64 Қаюмов А. Қадимият обидалари. –Т., “Бадиий адабиёт”, 1992.

bilim va nafis badiiy didga ega ekani xususidagi fikrlarni qayd etadi va pand-nasihatga oid qo‘shiqlarni alohida guruhga ajratib, ularni tarjima qilib, mazmunini tahlil etadi.
“Devonu lug‘atit-turk” asarida xalqning ta’lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalan-gan maqollar ham mavjud. Maqollarda ham qo‘shiqlardagi kabi do‘stlik, o‘zaro hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olish va kasb-hunar egallashga nisbatan ishtiyoq va ehtiyoj, vatan-parvarlik va qon-qardoshlik tuyg‘usiga ega bo‘lish, tejamkorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, axloq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o‘gitlar o‘z ifodasini topgan.
Demak, inson xulq-atvorini mukammallashtirishga xizmat qiluvchi “Devon”dagi she’riy parcha va maqollar kishilar o‘rtasida ezgulikni targ‘ib qilib, insonning kamolga etishiga katta ta’sir etib kelgan.

3-asosiy savolning bayoni.
Eramizdan avvalgi minginchi yillarning o‘rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mavzusida juda ko‘plab afsona va rivoyatlar yaratilgan bo‘lib, ular avloddan avlodga og‘zaki va yozma ravishda o‘tib borgan. Agar ushbu afsonalar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” asari mundarijasidan o‘rin olmaganda edi, biz ular haqida hech qanday ma’lumotga ega bo‘lolmagan bo‘lardik. “Avesto” asari kim tomonidan yaratilgani borasida turli qarashlar mavjud bo‘lib, mashhur sharqshunos olim E.E. Bertelsning fikriga ko‘ra, ushbu asar 1278 yilda Rayd Zardusht ibn Bahrom ibn Pajdu degan kishi tomonidan yozilgan.
Mavjud manbalar, shuningdek, so‘nggi yillarda e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra zardushtiylik SHarq xalqlari sig‘ingan qadimgi dinlardan biri sanaladi. Mazkur dinning asoschisi Zardusht (Sariq to‘n egasi degan ma’noni anglatadi) bo‘lib, din ham uning nomi bilan atalgan. “Avesto” asari eramizdan avvalgi VI asrning ohiri va VII asrning boshlarida yaratilgan bo‘lib, u uzoq davrlar mahsuli sanaladi, davrlar o‘tishi bilan qayta-qayta ishlanadi. Asarning to‘liq kitob holida shakllanishi eramizdan avvalgi birinchi asrga to‘g‘ri kelishi barcha manbalarda alohida qayd etiladi.
G‘arb, rus va o‘zbek olimlari mazkur asar mazmunini har tomonlama tahlil etishga harakat qilishgan. Zero, “Avesto” asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid ma’rifiy fikrlar ma’lum bir tizimda ifoda etilgandir. Mazkur asar g‘oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma’rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. «Avesto» diniy xarakterga ega bo‘lish bilan birga o‘zida falsafiy, siyosiy, filologik, ta’limiy va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan asardir.
Abu Rayxon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida zardushtiylik dini qadimgi Xuroson, Fors, Iroq va Balxdan tortib Suriya erlarigacha tarqalganligini aytadi. Ozarbayjon olimi M. Rafiliy esa “Muxtasar Ozarbayjon adabiyoti tarixi” kitobida (1-jild, Baku, 1943, 2-3-betlar) “Avesto”ni faqat Ozarbayjon adabiyotining ma’naviy merosi deb e’tirof etadi. Tarixchi olim V.M.Avdievning fikriga ko‘ra, “Avesto” nomli qadimgi diniy to‘plamning dastlabki qismlari aynan O‘rta Osiyo hududida vujudga kelgan, deyish uchun barcha asoslar etarli. Zero, asarda keltirilgan ayrim rivoyatlar bu haqida dalolat beradi. Rivoyatlarda aytilishicha, zardushtiylik dinining birinchi “Muqaddas olovi” Xorazmda yoqilgan. “Avesto” asarida tasvirlangan “Ayriana Vayjo” mamlakati Xorazm bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Bu mamlakatda Axura-Mazda Zardushtga ko‘rinish bergan. “Ayriana Vayjo” degan afsonaviy mamlakatning “Avesto” asarida saqlanib qolgan tasviri Xorazmning geografik sharoitlariga to‘la muvofiq keladi.
Zardusht eramizdan avvalgi VI asrda yashagan. Xorazmda yashagan chorvadorlar oilasi Spitama urug‘idan bo‘lgan. Otasi Paurushasp, onasi Dugdova ot va tuya boqish bilan shug‘ullanganlar. Zardusht ko‘p xudolikka sig‘inish hamda ko‘plab qurbonliklar qilinishi natijasida mollar qirilib ketayotganligi, shuningdek, turli qabilalar o‘rtasida nizolar kelib chiqayotganligini ko‘rib, uning oldini olish choralarini izlaydi va ana shu maqsadda o‘z ta’limotini targ‘ib qila boshlaydi. Lekin qabila boshliqlariga uning ta’limoti va unda ilgari surilgan g‘oyalar yoqmaydi. Zardusht xudodan kelgan vahiy orqali ko‘p xudolikka qarshi yakka xudolikni targ‘ib qila boshlaydi, kuchli hokimiyat o‘rnatib, er yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezgulik xudosi Axura Mazdani himoya qiladi.

“Avesto”ning kitob holidagi matni eramizdan oldin o‘n ikki ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Bu nusxa Iskandar Makedonskiy istilosiga qadar Istahr shahrida saqlangan. Iskandar Istahrni bosib olgach, “Avesto” kitobida bayon etilgan tibbiyot, nujum, ilmi hikmat sohalariga oid g‘oyalarni yunon tiliga tarjima qilinib, qolgan fikrlar bitilgan sahifalar yoqib yuboriladi.

Zardushtning mazkur kitobi bizga qadar ikki nusxada etib kelgan. Mazkur nusxalarning birinchisi - duolar to‘plarnidan iborat bo‘lib, “Vendidatsede”, ya’ni, “Pok Vendidat” deb ataladi. Ushbu kitobga “Yasna” va “Vispered”lar kiritilgan. Ikkinchi kitobda ham birinchisi kitobdagi kabi “Vendidat”, “YAsna” va “Vispered”lar o‘rin olib, unda sharhlar ham beriladi. Izohli tarjima “Zand” (sharh ma’nosida) deb ataladi. SHuning uchun ham asarning sharhli nusxasi “Avesto va Zand” yoki “Zand Avesto” deb nomlangan. Ikkinchi variantiga binoan “Avesto” asari quyidagi qismlardan tashkil topgan:

1. “Vendidat”. Mazkur qism 22 bobdan iborat bo‘lib, asosan, Axura Mazda bilan Zardushtning o‘rtasida kechgan savol-javobi shaklida yozilgan. U yomon ruhlarni, devlarni engish voqealari, gunohlardan pok bo‘lish qoidalari hamda mifologik unsurlarni o‘z ichiga oladi. Xarakterli jiqati so‘z yuritilayotgan qismda devlarga qarshi yaratilgan qonun matni, ya’ni, qonunnoma mazmuni yoritilgan. Qonunnomada aytilishicha, yomonlik timsoli bo‘lgan devlarga nisbatan nafrat bilan qarash darkor. Axura Mazda yurtda yaxshilik, xayrli ishlarni yuzaga keltirsa, Anlira Manu (Axriman) o‘z yurtida yomonlikni qaror toptiradi.
2. “Vispered”. U 24 bobdan iborat bo‘lib, ibodat qo‘shiqlarini o‘z ichiga oladi.
3. “Yasna”. Yasnalar 72 bobdan iborat. Diniy ibodatlarni o‘tkazish chog‘ida, shuningdek, qurbonlik chiqarish marosimida aytiladigan qo‘shiqlar, xudolarga bag‘ishlangan madhiyalar va boshqalar yasnalarni tashkil etgan. Ushbu qismning 17 bobi Gotlar deb yuritiladi. Gotlar “Avesto”ning eng qadimgi qismlari sanaladi.
4. Yashtlar. Yashtlar zardushtiylik dinining xudolari va ma’budalari sharafiga aytilgan 22 qo‘shiq (gimn)larni o‘z ichiga oladi.
5. Kichik Avesto (Xurda Avesto, Xvartak-apastak). Quyosh, Oy, Ardvisura, Mitra, olov va boshqa xudo hamda ma’budalar sharafiga bag‘ishlangan kichik ibodat (gimn) matnlaridan iborat.

“Avesto” asarida insonning barkamol bo‘lib etishishida uning so‘zi, fikri hamda ishi ezgu bo‘lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e’tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g‘oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyoti-ning keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma’rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo‘lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma’naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo‘lgan muayyan talablar o‘z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq balki G‘arb xalqlarining ham muhim ma’naviy merosi bo‘lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht g‘oyalarining nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmati bugungi kunda ham yuqori bo‘lishiga olib kelgan.

4-asosiy savolning bayoni.

Turkiy xalqlarning yozma ma’rifiy yodgorliklari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, pedagogika tarixi, xususan, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular “Urxun-Enisey yodgorliklari”, “Irq yozuvlari” (“Ta’birnoma”) kabi manbalar bo‘lib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muhim vazifalardan sanaladi. Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-rumiy yozuvida bitilgan Urxun-Enisey bitiklarini “Toshlarga bitilgan kitoblar” ham deb ataydilar. O‘ziga xos xat (yozuv)da bitilgan bu bitiklar eramizning VI-VII asrlarda yozib qoldirilgan. Toshlarga bitilgan mazkur yodgor-liklar ta’lim-tarbiyaga oid qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Urxun-Enisey yodgorliklari dastlab Enisey havzasida, so‘ngra Mo‘g‘ilistonning Urxun daryosi bo‘yida topilib, ushbu yozuvlarni 1893 yilda birinchi bo‘lib daniyalik olim Vilgelm Tomson o‘qigan. V.Tomsondan so‘ng olimlar – N.M.YAdrinsev, V.V.Radlovlar mazkur manba-larni izlab topib, o‘qishga muvaffaq bo‘ldilar. Urxun-Enisey yodgorliklari S.E.Malov hamda I.V.Steblevalar tomonidan rus tiliga tarjima qilindi. O‘zbekistonda Oybek, O.SHarafuddinov, N.Mallaev, Aziz

Qayumov va N.Rahmonovlar Urxun-Enisey bitiklari ustida tadqiqot ishlarini olib bordilar va ushbu manbaning ta’lim va tarbiya ishlarini yo‘lga qo‘yishdagi ahamiyatini yoritib berdilar.
Markaziy Osiyo hududlarida yashovchi turk qabilalaridan iborat Turk hoqonligi davlati tarkib topdi. Bu hoqonlik g‘arbdan Vizantiya, janubdan Eron va Hindiston, sharqdan Xitoy bilan chegaradosh bo‘lgan. Turk hoqonligi Turkyut davlati deb ham atalgan. Hoqonlik 604 yilda SHarqiy va G‘arbiy hoqonlikka ajralgan. Eramizning 745 yiliga kelib esa Turk hoqonligi barham topgan.
Turk hoqonligi asosan uch kishi: Bilga hoqon (Mog‘iliyon), Kultegin, Tunyukuklar tomonidan boshqarilgan. Bilga hoqon (Mog‘iliyon) - hoqon, Kultegin - sarkarda, Tunyukuk esa - vazir bo‘lib, ularning hamkorligida boshqarilgan davlat ushbu davrda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan. Bitiktoshlarda turk hoqonlarining yurishlari, yurishlar davrida alp kishilar, sarkardalar tomonidan ko‘rsatgan jasoratlar, ularning bilimli, mard, xalqparvar ekanliklari bayon etiladi. O‘z vatanining mustaqilligi uchun kurashish, xalqni asoratdan olib chiqish, ularning birdamligini ta’minlash hoqonlar Bo‘min, Istami, Eltarish, Eltarishning o‘g‘illari-Bilga hoqon, lashkarboshi Kultegin, ma’naviy otalari Tunyukuklarning zimmasiga tushgani hikoya qilinadi. Masalan, Kultegin bitigida uning ta’rifi berilgan. Kultegin xalqparvar, tadbirkor, xalqning kelgusi taqdirini ham o‘ylaydigan jonkuyar sarkarda sifatida ta’riflanadi. U o‘z jonidan vatan taqdiri, xalq manfaatini yuqori qo‘ygan shaxs. Kultegin Eltarish hoqonining kichik o‘g‘li. U 713 yil 27 fevralda qirq etti yoshida vafot etadi. Bitiktosh 732 yilda o‘rnatilgan. Ushbu bitiktoshda barcha voqealar Kulteginning akasi Bilga hoqon tilidan hikoya qilinadi. Uning asli ismi Mug‘iliyon bo‘lgan. Bitigni Kulteginning jiyani YOllug‘ tegin yozgan. Demak, bitigning muallifi ham ma’lum.
Bilga hoqon bitigida xalqning tinch-totuv yashagani, Bilga hoqon davrida tinchlik hukmron bo‘lgani, u davlatni adolat bilan boshqargani, turkiy xalqlarni birlashtirgani, o‘z yurtini boy-badavlat etib, iqtisodiy jihatdan mustahkamlagani mahorat bilan tasvirlangan. Bu bitigda xalq huquqidan, vatanidan ayrilmasa, betashvish hayot kechirishi ifodalanadi. O‘z navbatida davlat boshliqlarining hatti-harakatlari bayon etiladi. Keyin Bilga hoqon yurishlari haqida hikoya qilinadi. Bilga hoqon turk eli o‘rtasida elparvar hoqon deb tanilgan edi. “Bilga” so‘zining o‘zi ham “dono” degan ma’noni anglatadi. U turk xalqining vatani abadiy bo‘lishi uchun kurashadi. Xalqqa qarata shunday o‘git qilar edi: “Vatanni saqlab qolmoq, faqat hoqonga emas, xalqqa ham bog‘liq. Ajdodlarimizning xato va yutuqlari buning dalilidir. Xalq o‘z hoqonining yo‘l-yo‘riqlarini amalga oshirmasa, boshiga ko‘p kulfatlar tushadi. Hoqon o‘ta ishonuvchan bo‘lmasligi, boshqalarning gapini o‘ylab, mulohaza qilib amalga oshirishi lozim. Samimiy so‘z bilan yolg‘onni farqlay olishi kerak. Qattiqqo‘l hoqon o‘z xalqiga yomonlikni ravo ko‘rmaydi. Ishonuvchan bo‘lsa, yaxshi-yomonni ajrata olmasa, fojiaga yo‘l ochiladi, mamlakatda tartibsizlik yuzaga keladi”.
Tunyukuk bitigi 310 misradan iborat bo‘lib, 717-718 (ba’zi manbalarda 712-716-yillar ko‘rsatilgan) yillarda yozilganligi qayd etilgan. Tunyukuk o‘z bitigini tirikligida yozdirgan. Mazkur bitikda Tunyukuk vatanparvar shaxs sifatida ta’riflangan. Tunyukuk ega bo‘lgan insoniy fazilatlar – insonparvarlik, ezgulik va haqiqat tantanasi yo‘lida kurashish uning qo‘shni xalqlar o‘rtasidagi obro‘sini yanada oshirib yuboradi. Xususan, Tunyukuk tomonidan turkiy xalqlar qo‘liga tushgan asirlarni o‘z yurtlariga jo‘natib yuborishi dushman qabilalar a’zolarining bosh egib kelishi, ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi kurash chog‘ida ezgulikning g‘alabaga erishishi kabi holatlar shu asosida qon to‘kishning oldini olish mumkinligidan dalolat ekanligiga ishora qilinadi. U adolatsizlik qilmaydi, balki insonparvarlik namunasini ko‘rsatadi, ammo hoqonlik davlati qonunlarini ham qattiq himoya qiladi.
Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqi tomonidan eng qadimgi davrlardan eramizning IX asrigacha qaror toptirishrilgan ma’rifiy qarashlari inson shaxsining shakllanishida, uning kamolotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda turkiy xalqlarning inson xulq-odobi va uni tarbiyalashga oid dastlabki tasavvurlari ifodalangan. Muayyan turmush tarzini qaror toptirishruvchi ijtimoiy shart-sharoitga ko‘ra inson axloqiga nisbatan qo‘yilayotgan axloqiy talablar mohiyati ham o‘zgarib borgan. Biroq, har qanday zamon va makonda ham inson ezgulikning jaholat, yaxshilikninng yomonlik va ziyoning zulmat ustidan g‘olib kelishini istagan va ana shu istagi insonning ma’naviy kamolotini belgilovchi asosiy mezon bo‘lib, axloq-odobga oid qarashlar

mazmunida markaziy o‘rin egallagan. Mazkur holatni yuqorida so‘z yuritilgan eng qadimgi ma’rifiy meros namunalari misolida ham yaqqol ko‘rishga muyassar bo‘ldik.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Pedagogika tarixi fan sifatida nima bilan shug‘ullanadi?
2. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o‘ziga xosligi nimalarda namoyon bo‘lgan?
3. Qadimgi yozuvlar va ularning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
4. Halq og‘zaki ijodida insondagi qaysi hislatlar ulug‘langan?
5. M. Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit-turk» asaridagi o‘gitlardan misollar keltiring.
6. «Avesto»dagi axloqiy uchlik jadvalini tuzing.

2-mavzu: VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

Asosiy savollar

1. Islom dini g‘oyalarining ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Musulmon maktablarida ta’lim-tarbiya mazmuni
2. Hadis ilmining paydo bo‘lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy va Imom at-Termiziyning hadis ilmi rivojidagi xizmatlari
3. So‘fiylik ta’limoti

1-asosiy savolning bayoni

VII asr boshlarida Islom g‘oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o‘z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabt eta boshladi. Butun Arabiston yarim oroli, shuningdek, Eron, Suriya, Janubiy Ispaniya, Kavkaz orti hamda SHimoliy Afrikada joylashgan bir qator mamlakatlar xalifalik tarkibiga kiritildi.

VII asr o‘rtalaridan boshlab arablar Movarounnahrga ham hujum qilish rejasini tuza boshladilar. Arab istilochilarining Movarounnahrga bo‘lgan birinchi yurishi 651 yilda Ubaydullohi ibn Ziyod boshchiligida amalga oshirildi. 676 yilda esa Said ibn Usmon rahbarligida Buxoro, Sug‘diyona, Kesh hamda Nasaf kabi shaharlarga hujum uyushtirildi va bosib olindi. Movarounnahrni to‘la zabt etishga erishdilar. Arablar tomonidan bosib olingan erlarda xalqlar Islom dinini qabul qilishga majbur etildi. Arab istilochi-larining Movarounnahr xalqining Islom dinini qabul qilish jarayoni qiyin kechgan va bu jarayon bir necha yillar davomida amalga oshirilgan. CHunki Movarounnahr yurti arab istilosiga qadar ham ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan taraqqiy etgan bo‘lib, bu mamlakatda yashovchi xalqlar turmush tarziga ko‘ra ham arablarga nisbatan bir qadar ustunlikka ega edilar.

Movarounnahrda Islom ta’limoti g‘oyalarining yoyilishi, kishilar tomonidan SHariat qoidalari, Islom dini aqidalariga bo‘ysunish, yagona va qudratli Ollohga sig‘inish, shuningdek, Ollohning erdagi rasuli (elchisi) bo‘lgan Muhammad Alayhis-salom ko‘rsatmalariga rioya etish xalqning ongiga chuqur singib, ular tomonidan mazkur din asoslarining qabul qilinishiga zamin hozirladi. Natijada Movarounnahrda islomiy qadriyatlar tarkib topa boshladi.

Arablar o‘lkada Islom dini g‘oyalarini yoyishda turli usullardan foydalandilar. Ana shunday usullardan biri mazkur dinga e’tiqod qilgan kishilarning jon solig‘idan ozod etilishi bo‘ldi. Movarounnahr xalqlari o‘rtasida Islom ta’limoti asoslarini yoyishda arab istilochilari tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlarning mohiyati xususida tarixchi Abu Muhammad Narshaxiy o‘zining «Buxoro tarixi» nomli kitobida quyidagi fikrlarni bayon etadi: “Buxoro aholisi har safar (Islom lashkari kelganda) musulmon bo‘lar, arablar qaytib ketganida esa ular yana dindan qaytar edilar.

Qutayba ibn Muslim ularni uch marta musulmon qilgan, ular esa yana dindan qaytib, yana kofir bo‘lgan edilar. U to‘rtinchi marta (kelganida) Qutayba jang qilib, Buxoro shahrini oldi, ko‘p qiyinchiliklardan keyin (bu erda) Islom dinini yuzaga chiqardi va har turli yo‘llar bilan ularga qiyinchiliklar tug‘dirib, dillariga musulmonchilikni o‘rnashtirdi. Ular esa Islom dinini yuzakigina qabul etib, haqiqatda butparastlik qilar edilar. Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga turib,

ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo‘lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo‘ladilar, degan maqsadda Buxoro aholisini o‘z uylarining yarmini arablarga berishga undab buyruq chiqarishni to‘g‘ri deb topdi va shu yo‘l bilan u musulmonchilikni o‘rnatdi hamda shariat hukmlarini bajarishga majbur qildi. Qutayba masjidlar bino qildi, kofirlik va otashparastlik asarlarini yo‘qotdi. U ko‘p jiddu ahd qilib, kimda shariat hukmlarini bajarishda kamchilik sodir bo‘lsa, uni jazolar edi. U masjidi jome’ bino qildi va odamlarga juma namozini o‘qishga buyruq berdi”.65

Istilochilik yurishlari davrida arablar mahalliy xalqning boy madaniy merosini yo‘q qildilar. Bu haqida buyuk alloma Abu Rayxon Beruniy shunday yozadi: «Qutayba esa Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o‘rgangan va (bilimini) boshqalarga o‘rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo‘q qilib yuborgan edi. SHuning uchun u (xabar va rivoyatlar) Islom davridan keyin haqiqatni bilib bo‘lmaydigan darajada yashirin qoldi. Keyin: Qutayba ibn Muslim al-Vohishiy xorazmliklarning kotiblarini hazon etib, bilimdonlarini o‘ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz bo‘lib, o‘z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga tayanadigan bo‘ldilar».66

Mazkur davrlarda shakllangan yangi arab tili arab xalqlari yashagan hududlarda iste’molda bo‘lgan avvalgi tillar negizida shakllanib, takomiliga etdi va madaniy til bo‘lib qoldi.

Yunonlardan esa fanlar tasnifi (klassifikatsiya) olinib, fanlar nazariy va amaliy fanlar tarzida ikki guruhga ajratilgan. Birinchi guruhga quyidagi uchta fan kiritilgan: tabiyot to‘g‘risidagi fanlar, ollohiyot to‘g‘risidagi fanlar va matematika fani kiritilgan bo‘lib, ushbu fanlar tarkibidan arifmetika, handasa (geometriya), astronomiya va musiqa fanlari o‘rin olgan. Ikkinchi guruhga kiritilgan fanlar qatorida etika, iqtisod va siyosatga oid fanlar e’tirof etilgan. O‘sha davr nuqtai nazaridan bir muncha yuksak taraqqiy etgan hind fani arab madaniyatining umumiy rivoji, xususan, arifmetika, algebra va tibbiyot fanlari asoslarining boyishiga munosib hissa qo‘shdi. Sonlarning mohiyatini yoritib beruvchi hind nazariyasi mazmuni bilan evropaliklar Arab xalifaligi tasarrufiga kiruvchi hududlarda istiqomat qilgan mutafakkirlarning sa’i-harakatlari orqali tanishishga musharraf bo‘lganlar. Bu borada ma’lumot beruvchi muhim manba Muhammad al-Xorazmiy tomonidan asoslangan «Al-jabr» («Algebra») asari bo‘lib xizmat qildi.

Islom dini Arabiston yarim orolida uning ko‘p asrlik tarixi negizida shakllangan. U o‘ziga xos diniy-siyosiy oqim, shuningdek, umuminsoniy taraqqiyotni belgilab berishda muhim ahamiyatga ega ma’naviy omil sanaladi. Ayni vaqtda Islom dini kishilik jamiyatining ibtidoiy davri xususiyatlaridan voqif bo‘lish va O‘rta asr Uyg‘onish davrining ro‘y berishi uchun ma’naviy-g‘oyaviy poydevor qo‘ygan ijtimoiy ehtiyoj sifatida yuzaga keldi. Islom ta’limoti o‘zining insonparvar g‘oyalari va ularni insonlar ongida chuqur singdira olish imkoniyatlari tufayli o‘n to‘rt asrdan buyon borliqni ong yordamida mafkuraviy tarzda idrok etishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib kelmoqda. Islom ta’limotining bu qadar ulkan hududga yoyilishi va umuminsoniy qadriyat sifatida e’tirof etilishida Ollohning rasuli (erdagi vakili) bo‘lgan payg‘ambar Muhammad Alayhis-salomning o‘rni va shaxsiy roli beqiyosdir. Qur’on oyatlarini o‘rganish o‘zgalik bilan o‘zlikning Islomdagi uyg‘unlashuvini aniq belgilash, uning asoschisi shaxsini ko‘ra olish, his qilish imkonini beradi.

Arab istilochilarining Movarounnahrdagi g‘alabasidan so‘ng barcha mustamlaka mamlakatlar qatori u erda ham Islom dinning asoslari xususida ma’lumot beruvchi muqaddas kitob -“Qur’on” yaratilgan til - arab tilini o‘rganish joriy etildi. Diniy ulamolarning maxsus ko‘rsatmalariga muvofiq muqaddas kitobni boshqa tillarga tarjima qilish ta’qiqlandi. SHu bois musulmon maktablarida asosiy manbaning tili hamda fan sifatida arab tilining o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Mavjud fanlarning asoslari arab tilida o‘rganila boshlandi. Arab xalifaligi tasarrufiga olingan barcha mamlakatlarda masjidlar qoshida maxsus maktablar tashkil etildi. Biroq o‘g‘il bolalargina mazkur maktablarda savod o‘rganish huquqiga ega bo‘ldilar. Maktablar, shuningdek, keyinchalik bunyod etilgan va

65 Абу Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи. -Т.: “Фан”, 1966. 47-бет.

66 Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. -Т., “Фан”, 1968. 72-84-б.

maqomi jihatidan hozirgi oliy o‘quv yurtlariga teng bo‘lgan madrasalarda ta’lim va tarbiya ishlari Shariat qoidalariga muvofiq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ushbu o‘quv maskanlarida Islom ta’limoti xususida ma’lumotlar beruvchi ollohiyot fanlari bilan bir qatorda dunyoviy fanlarning asoslari ham o‘qitilgan. Maschitlar qoshida faoliyat yuritgan maktablarda imomlar, madrasalarda esa mudarrislar yoshlarga ta’lim va tarbiya berish ishi bilan shug‘ullanganlar.

Husnixat va arifmetika bilan yana xususiy muallimda shug‘ullanar edilar. Movarounnahrda arab bo‘lmagan bolalarga “Xaftiyak” VII asrda tuzilgan bo‘lib, “Qur’on” suralaridan ettidan biri tanlab olingan darslik sifatida o‘rganilgan. X-XII asrda islom dini rukunlari tojik tilida she’r va nasr bilan bayon qilingan “CHorkitob” o‘qitila boshlandi.

XII asrdan boshlab Ahmad YAssaviy, uning turkiy tilda yozilgan she’r va boshqa asarlari vositasida islom dini rukunlari turkiy tilda o‘rganila boshlandi. Maktablarda faqat o‘g‘il bolalar o‘qir, qizlar esa otinoyilar uyida o‘qitilar, ular yozuvni emas, faqat o‘qishni o‘rganar edilar.

X asr boshlarida madrasalar ham paydo bo‘la boshlaydi. “Madrasa” so‘zi “dars o‘qitiladigan joy”, “Ma’ruza tinglaydigan joy” ma’nosini anglatadi. Ma’lumki, madrasalarda musulmon diniy oqimlari arab tili grammatikasi va qoidachilik, ollohiyot, mantiq, notiqlik mahorati, kalom o‘rgatilgan. Asta-sekin madrasalarda astronomiya, matematika, geografiya, kimyo kabi dunyoviy fanlar o‘qitila boshlandi.

Madrasalarda 15-20, 30-40 va 100-150 tacha talaba o‘qigan. Madrasani bitirib chiqqanlar imom-xatib, qozixonalar va boshqa ma’muriy ishlarda ish olib borar edi.

Islomning shar’iy ma’nosi – bu Alloh yagona deb e’tiqod qilib, unga bo‘ysunmoqlik va butun qalb bilan unga ixlos qilmoqlik va Alloh buyurgan diniy e’tiqodga imon keltirmoqlik demakdir. Allohga itoat qilgan va Alloh yuborgan payg‘ambarlarga ergashgan kishi musulmon deyiladi. Ilohiyotda islom dini imon, islom va ehsondan iborat deb e’tirof etilgan. Imon talablari Allohning borligi va yagonaligi, farishtalar, muqaddas kitoblar va payg‘ambarlarning mavjudligi, ohirat kunining kelishi, taqdiri azalning haqligi va inson jismining o‘lgandan keyin tirilishiga ishonchdan iboratdir.

Islom dini ta’limotiga ko‘ra, har bir musulmon ushbu beshta asosiy ruknni bajarishi shart: Birinchisi, “La ilaaha illallohi va Muhammadur-rasululloh” deb Ollohning borligi, yagonaligi va uning qudratiga, shuningdek, Muhammad Allayhis-salomning Tangrining erdagi elchisi, rasuli ekanligiga shahodatlik berish; ikkinchisi, namoz o‘qish; uchinchisi, zakot berish; to‘rtinchisi, ramazon oyida ro‘za tutish; beshinchisi, imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holda haj safarini o‘tash. Islom dinining asoschisi va targ‘ibotchisi Muhammad ibn Abdulloh 570 yilda Makkada quraysh qabilasiga mansub Hoshimiylar xonadonida tug‘iladi. Otasi Abdulloh Shom safariga ketayotib Madina shahrida vafot etganda, yoshi 30 ga etmagan edi. YOsh Muhammad besh yoshida onasi Ominadan ham ajraladi. SHundan so‘ng uni bobosi Abdul Mutallib o‘z tarbiyasiga oladi. Bu chog‘da Abdul Mutallibning yoshi yuzdan oshgan edi. Ko‘p o‘tmay u ham vafot etadi. Bobosining vafotidan so‘ng uning vasiyatiga ko‘ra, hali voyaga etib ulgurmagan Muhammadni amakisi Abu Tolib tarbiyalaydi. Ushbu yillarda u savdogarlik kasbining sir-asrorlarini o‘rgana boshlaydi. Voyaga etgach Makka shahrining badavlat ayollaridan biri bo‘lgan Xadichaning xizmatiga ishga kiradi.

609-610 yillardan boshlab Muhammad payg‘ambar sifatida yagona ollohga e’tiqod qilish g‘oyasini targ‘ib eta boshladi. Islom dinining g‘oyalarini qurayish va boshqa qabilalarning a’zolari o‘rtasida targ‘ib etishda Muhammad Allayhis-salomga Xadicha har jihatdan ko‘mak beradi, ular bir umr maslakdosh, hamfikr bo‘lib qoladilar.

Islom dini g‘oyalari targ‘ibotining dastlabki yillari payg‘ambarimiz Muhammad Alayhis-salomning g‘oyaviy e’tiqodlariga qarshi kofirlar va Makka mushriklarining adovati tobora kuchayib boradi. Bir necha urushlar bo‘ldi. SHundan so‘ng Allohning izni bilan Makka shahridan Madina shahriga hijrat etishga ruxsat bo‘ldi. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhis-salom 622 yilda o‘z sahoba va tarafdorlari bilan Madina shahriga yo‘l oldilar. Musulmonlarning hijriy yil hisobi xuddi shu yildan boshlanadi.

Madinada qabilalar qo‘shilib, yangi ittifoq – jamoa tuziladi. Bora-bora Madina shahrida musulmon jamoalari kuchli davlatga aylanadi. 632 yilda Muhammad Alayhis-salom Makka shahriga yana bir bor haj qiladilar, oradan uch oy o‘tgach, Madina shahrida vafot etadilar. Bu paytda musulmon davlati Yamandan Sinay yarim oroligacha, qizil dengiz sohillaridan Markaziy qum sahrosigacha

bo‘lgan hududni o‘z tasarrufiga olib, mavqeini ancha mustahkamlab olgan edi. Muhammad Alayhis-salom vafotlaridan so‘ng davlatni quyidagi xalifalar boshqardilar: Abu Bakr as-Siddiq (632-634 yillar), Umar ibn al-Xattob (634-644 yillar), Usmon ibn Affon (644-656 yillar) va nihoyat Ali ibn Abu Tolib (Muhammad Alayhis-salom amakilarining o‘g‘illari va payg‘ambarimizning kuyovlari). Xalifalar davrida islom ta’limoti mustahkamlandi. Payg‘ambarimizga nozil bo‘lgan “Qur’oni Karim” g‘oyalari sahobalar tomonidan kitob holida jamlandi. G‘arb va SHarq tadqiqotchilari “Qur’on”ni jahon madaniyatining eng nodir asarlaridan biri deb hisoblaydilar.

Xat-savodi bo‘lgan Abu Bakr as-Siddiq, Umar ibn al-Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Koaablar “Qur’on” oyatlarini yigirma uch yil davomida yod olib borganlar va xat bilan bitganlar. Uchinchi xalifa Usmon ibn Affonning topshirig‘iga ko‘ra “Qur’on” suralari va oyatlari birinchi bo‘lib sahoba Zayd ibn Sobit tomonidan kiyik terisidan tayyorlangan sahifalarga bitilgan. So‘ngra ushbu manbadan 6 nusxa ko‘chirtirilib, markaziy shaharlarga bitta nusxadan yuborilgan hamda Qur’onning faqat ana shu nusxalaridan foydalanishga farmon berilgan. Shunday qilib, “Qur’on” musulmonlarning diniy, ijtimoiy va siyosiy hayotida asosiy qo‘llanma bo‘lib qoladi.

Ma’lumki, islom g‘oyalari, musulmonchilikning talablari, huquqiy va axloqiy me’yorlari “Qur’on” va uning tafsirlari, “Hadisi SHarif”, shariat qoidalari bitilgan qo‘llanmalar hamda ollohiyotga oid adabiyotlar mazmunida batafsil ifodalangan. “Qur’on” – dunyo madaniyatining ulkan boyligi, musulmonlarning muqaddas kitobi bo‘lib, arab tilida “qiroat” ma’nosini anglatadi. “Qur’on” 114 suradan iborat bo‘lib, ularning 90 tasi Muhammad Alayhis-salom Makka shahrida, 24 tasi esa Madina shahrida istiqomat qilgan davrlarda nozil bo‘linganligi to‘g‘risida manbalarda ma’lumotlar keltiriladi. “Qur’on” g‘oyalari kishilarni tenglik, birodarlik, tinch-totuv yashash va ezgulikka undaydi. SHunga ko‘ra, u katta axloqiy qimmatga ega. “Qur’on” g‘oyalarining ma’naviy-axloqiy xususiyatlari xususida so‘z yuritilar ekan, uning insonning ma’naviy kamolga etishida qay darajada muhim o‘ringa ega ekanligiga amin bo‘lamiz. SHuning uchun u mana necha asrlardan beri insoniyatning eng ulug‘ qadriyati sifatida e’zozlanib kelinmoqda.

Ma’lumki, inson kamoloti avvalo uning bilim va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Islom dini asrlar davomida insonlarni chuqur bilim olish, ilm-fan sirlarini puxta egallash, o‘zlashtirilgan bilimlar asosida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga undab kelgan. Ilm-fan, ma’rifat taraqqiy etgan jamiyatgina ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi. “Qur’on”ning “Zumar” surasi 9-oyatida kishilarni ilm o‘rganishga da’vat etuvchi shunday fikrlar bayon etiladi: “Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo‘lurmi? Darhaqiqat, faqat aql egalarigina pand-nasihat qila olurlar”67. Islomda insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantirishga katta e’tibor beriladi: bular ilm va haqiqatni dalillar yordamida isbotlash; so‘zlaganda va amaliy harakatni tashkil etganda aniqlikka e’tibor berish, fikr yuritishda va muayyan faoliyatni yo‘lga qo‘yishda o‘zgalarga taqlid qilishdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi qayta-qayta uqtiriladi.

2-asosiy savolning bayoni.

Islom dini ta’limoti asoslarini yorituvchi Qur’oni Karimdan keyingi asosiy manba hadis hisoblanadi. Hadislarni to‘plash va ularga muayyan tartib berish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, uni eng bilimdon, turli fan asoslarini mukammal o‘rgangan, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan kishi (muhaddis)lar tartib bergan. VIII-XI asrlarda to‘rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug‘ullangan. Mazkur bilimlarni o‘rganishning o‘ziga xos yo‘nalishi bo‘lib, «hadis ilmi» nomi bilan yuritilgan. Keyingi yillarda Muhammad Alayhis-salomning hayoti, faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” («Ishonarli to‘plam»), “Al-adab al-mufrad” («Adab durdonalari»), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning “Ash-SHamoil an-nabaviya” asarlari

67 Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1992. 339-бет. (Кейинги мисоллар ҳам шу манбадан олинди)

nashr etildi. “Hadis” yoki “Sunna” so‘zlari bir ma’noni anglatib, Rasulullohining hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko‘rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat.
Muhammad alayhissalomning ibratli ishlari, e’tiqod, poklik va insonga xos ma’naviy-axloqiy hislatlarni ifodalovchi so‘zlari, pand-nasihatlari uning nomi bilan bog‘liq hadislarda mujassamlangan.
Hadislar dastlab yozib borilmagan. Payg‘ambar Muhammad Alayhis-salom arab bo‘lmagan kishilarning hadislarni Qur’oni Karim oyatlari bilan adashtirib yuborishlaridan cho‘chib, hadislarning yozib borilishiga ruxsat etmaganlar. Biroq payg‘ambar Muhammad Alayhis-salom huzurida sahoblar bo‘lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarini yodlab borganlar. Jumladan, hazrati Abu Hurayra ana shunday mo‘‘tabar kishilardan biri bo‘lib, hadislarni mukammal yodlab borgan. Abu Hurayra tomonidan qayd etilgan hadislar to‘g‘ri, ishonarli (sahih) hadislar hisoblangan. Lekin hadislarni yod olgan kishilar sonining tobora kamayib borishi natijasida ularning asta-sekin unutilib ketishi borasidagi xavf yuzaga keladi. Ana shu xavfning oldini olish maqsadida xalifalar ishonarli hadislarni to‘plashga farmon berganlar. Hadislarni to‘plash xususidagi farmon dastlabki xalifa Umar ibn Abdulaziz tomonidan berilgan.
Movarounnahrda birinchi bo‘lib hadis to‘plagan muhaddis Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy sanaladi. Allomaning safdoshlari sifatida Imom Ahmad ibn Xanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayli al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn Qulayb ash- “Sahih” yo‘nalishining asoschisi eng etuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Ismoil al-Buxoriy hadis ilmida “Amir-ul-mo‘‘minin”, “Imom al-muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan. U 810 yilning 13 mayida (ba’zi manbalarda 810 yilning 20 iyulida), (hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tug‘ilgan. Go‘dakligida otadan etim qolgan. Dastlabki savodini maktabda chiqargan, 10 yoshidayoq arab tilida yaratilgan kitoblar yordamida hamda roviylardan og‘zaki ravishda eshitish asosida hadislarni yodlay boshlagan. Alloma hadis ilmini zo‘r ishtiyoq va katta qiziqish bilan o‘rgandi. Abdulloh ibn al-Muborak, Vaqi’ ibn Jarroli kabi olimlar tomonidan to‘plagan hadislarni yod olgan, shuningdek, hadis rivoyatchilari xususida so‘z yuritilgan bahslarda ishtirok etgan.
Imom Ismoil al-Buxoriy 825 yilda, o‘n olti yoshida onasi va akasi bilan Hijozga safar qiladi. Makkayu Mukarrama va Madinai Munavvarada bo‘lib, haj ibodatini ado etadi. Balx, Basra, Kufa, Bog‘dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madina kabi shaharlarda bo‘lib, safar jarayonida muhaddislar bilan bilan uchrashadi. Muhaddislar bilan uyushtirilgan suhbatlarda ular tomonidan aytilgan hadislarni yodlab borar edi. Olti yil Hijoz shahrida yashab, u erda etuk muhaddislardan hadis ilmi bo‘yicha, Damashq, Qohira, Basra va Bag‘dod shaharlarining mashhur olimlardan esa fikh ilmi bo‘yicha ta’lim oladi. SHuningdek, allomaning o‘zi ham turli bahs va munozaralarda ishtirok etib, toliblarga dars ham beradi.
Imom Ismoil al-Buxoriy iste’dodli, o‘tkir zehnli hamda ziyrak olim bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra, “Bag‘dod shahrida istiqomat qilgan vaqtda ko‘pincha qorong‘u kechalari sham yorug‘i va oyning nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib qolsa, shamni yoqib, darhol o‘sha fikrni qog‘ozga tushirar, shu tahlitda ba’zan shamni yigirma martagacha o‘chirib-yoqar ekan”.68
Imom Buxoriyning o‘tkir zehn egasi ekanligini quyidagi misoldan ham bilish mumkin. Imom Ismoil al-Buxoriyning o‘tkir zehni xususida yana shunday rivoyat keltiriladi: “Imom Buxoriy bilan Basrada hadis darsiga qatnashgan sheriklaridan biri Hoshid ibn Ismoil aytadi: “Imom Buxoriy bizlar bilan birga ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan hadislarini biz yozib olar edik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o‘tirardi. Shu tarzda qancha kunlar o‘tib, orada ustoz qariyb 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga: Sen nega hadislarni yozmaysan?, - deb ta’na qilgan vaqtimizda: Sizlar yozib borayotgan hadislarni men ustoz og‘zidan yodlab olayotirman, - dedi-da,

68 Уватов У. Ҳадис илмининг султони. Ўзбекистон адабиёти ва санъати.1993 йил. 29 октябр. № 43-44

ustoz rivoyat qilgan hamma hadislarni bir chekkadan yoddan o‘qib berdi. SHundan keyin biz yozib olgan hadislarimizdagi xatolarni uning yodlaganlaridan tuzatib oladigan bo‘ldik”.69

Imom Ismoil al-Buxoriy o‘ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, sahovatli inson ham bo‘lgan. U hadis ilmining etuk olimi sanalsada, zamondoshlari hamda shogirdlaridan ham ilm o‘rgangan. Alloma bir ming sakson nafar muhaddisdan hadis eshitgan. Allomaning o‘zidan esa to‘qson ming nafar kishi ishonarli hadislarini eshitgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Imom Ismoil al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to‘plagan., 100 ming “sahih” va 200 ming “g‘ayri sahih” hadislarni yod olgan. Imom Ismoil al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talaba va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va mazkur ilmning targ‘ibotchisiga aylanadi.

Rivoyatlarga ko‘ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xohd ibn Ahmad ibn Xohd az-Zuhaliy uni saroyga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo, Imom Ismoil al-Buxoriy bu taklifni qabul etadi va: “Men ilmni xorlab sultonu amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo‘lsa, bolalarni (ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin”, - deb javob beradi.70 Shu bois alloma bilan amir Xohd ibn Ahmad az-Zuhaliy o‘rtasidagi munosabatga bir oz putur etadi. Bunga ayrim hasadgo‘y shaxslarning ig‘volari ham sabab bo‘ladi. Amir allomaning shahardan chiqib ketishga farmon beradi. Samarqand ulamolari Imom Ismoil al-Buxoriyni o‘z yurtlariga taklif etadilar. Yo‘lga chiqqan Imom Ismoil al-Buxoriy Samarqand shahriga yaqin bo‘lgan Hartang qishlog‘i (hozirgi Poyariq tumanining hududi)da betob bo‘lib qoladi va shu erda hijriy 256 yili ramazon oyining ohirgi kuni (milodiy 872 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu erga dafn etiladi.

Islom dini insonni ma’naviy kamolot sari etaklovchi ta’limotdir. Shu sababli Qur’oni Karimda ham, hadislarda ham yaxshi xulq-odob qoidalari va ularga kishilarning qat’iy amal qilishlari lozimligi borasidagi qarashlar keng targ‘ib etilgan. Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” asarining bir jildiga odob-axloq masalalarini yorituvchi hadislar jamlangan bo‘lsa, “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) nomli asarda ham ijtimoiy turmushda hamda insonlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tashkil etish chog‘ida amal qilinishi lozim bo‘lgan odob-axloq qoidalari borasida yanada batafsil ma’lumotlar berilgan. Ushbu asar 644 bobda bayon etilgan 1322 ta hadisni o‘z ichiga olgan.

Muhammad ibn Iso at-Termiziy

Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Muhammad ibn Iso at-Termiziy bo‘lib, u 824 yilda Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘i (hozirgi Surxondaryo viloyatining SHerobod tumani)da tug‘ilgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida ma’lumotlar yo‘q. Ba’zi tadqiqotchilar uning otasi asli marvlik bo‘lgan deb qayd etadilar. Muhamad ibn Iso at-Termiziy bolaligidan ilm o‘rganishga qiziqqan, ayniqsa hadis ilmini chuqur egallagan.

Muhamad ibn Iso at-Termiziy 850 yildan qator mamlakatlarga safar qiladi. Hijoz shahrida bo‘lib, Makka va Madina shaharlarini ziyorat qiladi. Iroq hamda Xurosonda hadis, fikh, qiroat, bayon, tarix va boshqa ilmlarni o‘rganadi. Mazkur safarda Muhamad ibn Iso at-Termiziy ustozi Imom Ismoil al-Buxoriy bilan uchrashadi. Alloma ustoziga nisbatan alohida hurmatda bo‘lib, uning yordamida hadis ilmidan to‘laqonli ravishda xabardor bo‘ladi. Manbalarda e’tirof etilishicha, Imom Muhammad ibn Iso at-Termiziy ustozining vafoti tufayli ko‘p yig‘laganidan ko‘zi ko‘r bo‘lib qolgan. Muhammad ibn Iso at-Termiziyning zehnining o‘tkirligi, xotirasi va yod olish qobiliyatining kuchliligi tufayli Imom Ismoil al-Buxoriy ham uni faqatgina shogird sifatida emas, balki hamkor, hamfikr va do‘st sifatida ham hurmat qilgan.

Muhammad ibn Iso at-Termiziy uzoq safarda manbalardan o‘qigan yoki muhaddislardan eshitgan hadislarni to‘plab, kitoblar yozishga kirishadi. U 863 yilda o‘z vataniga qaytadi va o‘zi ham shogirdlariga ta’lim beradi, ayni vaqtda kitoblar ham yozadi. Alloma tomonidan o‘ndan ortiq asarlar yaratilganligi ma’lum. Bular qatoridan “Al-jome’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”), “Ash-shamoil

---

69 Ал-Бухорий ҳақида замондошларининг хотиралари. Имом Исмоил ал-Бухорийнинг “Ал-адаб ал-муфрад” (адаб дурдоналари) китоби таржимасидан олинди. Таржима, муқаддима ва изоҳлар муаллифи Шамсиддин Бобохонов. –Т., “Ўзбекистон”, 1990, 6-8 бетлар.

70 Бобохонов Шамсиддин. Кўрсатилган асарнинг 9-бети.

an-nabaviya” (“Payg‘ambarning alohida fazilatlari”), “Al-ilal fi-l-hadiys” (“Hadislardagi illatlar va og‘ishlar haqida”) kabi asarlari o‘rin olgan bo‘lib, ular juda mashhurdir.
Muhammad ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozib qoldirilgan asarlarda o‘z ifodasini topgan hadislar ham Imom Ismoil al-Buxoriy tomonidan bayon etilgan hadislari kabi insonni halollik, adolat, e’tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatlilik, mehr-shavqat, yoshi kattalar, ota-ona va qarindoshlarga hurmat g‘oyalarini ilgari surish xususiyatiga ko‘ra shaxs ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda katta ahamiyatga ega.
Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo‘lib, ushbu fazilatlar sirasiga o‘zgalarga mehr-oqibat ko‘rsatish, saxiylik, ochiq ko‘ngillik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo‘lish, ularga g‘amxo‘rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, do‘stlik, oliyjanoblik, rahmshafqatlilik, kamtarlik, rostgo‘ylik va vijdonlilik kabi hislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o‘zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o‘z aksini topganki, bularning barchasi Qur’oni Karimda qayd etilgan ko‘rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Islom ta’limoti g‘oyalariga ko‘ra har bir musulmon eng avvalo iymonli bo‘lishi kerak. Qur’oni Karimda ta’kidlanganidek, Islom dini ta’limotining yaratilishidan muddao, murod kishilarda iymon, e’tiqodni shakllantirishdir.
Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo‘lishi quyidagi uch shartga qat’iy amal qilinishiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan:
- to‘g‘ri e’tiqodli bo‘lmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lmoq;
- kishi o‘z ustida ishlamog‘i va o‘zini ibodat va itoatga chaqirmog‘i (Keyingi misollar ham ushbu kitobdan olindi).71
Imon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deya iymonning belgilari sanab o‘tiladi. Sanab o‘tilgan belgilarning har biri inson ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi va mukammallashtiruvchi hislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: “Qo‘li bilan va tili bilan o‘zgalarga ozor bermagan kishi musulmondir”, “O‘zingiz yaxshi ko‘rgan narsani birodaringizga ravo ko‘rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo‘min bo‘la olmaysiz” (3-4-boblar); “Uchta hislatni o‘zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo‘lgaydir:
- insofli va adolatli bo‘lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag‘alligida ham sadaqa berib turmoq” (20-bob).
“Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoe qilishdir”72 mazmunidagi hadis orqali o‘zlashtirilgan ilmni takrorlab borish, faqat chuqur va puxta bilimlargagina ega bo‘lgan kishilarning atrofdagilarga ilm berishining maqbul ekanligiga urg‘u beriladi. SHuningdek, hadislarda ilmning kishilarni fahm-farosatli, o‘tkir zehnli, zukko hamda xotirani kuchli qilishdagi ahamiyati ham ta’kidlanadi va “Ilmu hunarni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar”, - deya da’vat etiladi. “Olim bo‘l, ilm beruvchi bo‘l yoki ilm o‘rgatuvchi bo‘l yoki tinglovchi bo‘l. Beshinchisi bo‘lma, halok bo‘lasan” mazmunini ilgari suruvchi hadisning bayon etilishi orqali ham ilmli bo‘lish insonni falokat va uning yomon oqibatlaridan saqlovchi omil ekanligiga urg‘u beriladi (41-hadis).
Bir qator hadislarda ilmning ibodatdan ustun ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Xususan, “Ilm ibodatdan afzal va u taqvo dinining ustunidir” (268-hadis). Biroq ilmning manfaatsiz holda sarflashdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi aytiladi va ilm ahlini ana shunga da’vat etiladi (173-hadis), haqiqiy komil insonning bilimga boy, xushxulq, sog‘lom bo‘lishi (182-hadis), uni faqat foydali ishlar va insonlarning farovon hayot kechirishlari yo‘lida sarf etish kerakligi ham uqtiriladi:

71 Ал-Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ҳадис. 4 жилдли китоб. 1-китоб. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). Арабчадан 3. Исмоил таржимаси. – Т., Қомуслар бош таҳририяти, 1991. 14-бет
72 Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Т., “Камалак”, 1991, 60-бет.

“Boshliq bo‘lmasingizdan avval ilmni chuqur o‘rganing! Rasullohi sallallohu alayhi-vassalamning sahobalari yoshlari ulg‘ayganda ham ilm o‘rganganlar. Rasullohi sallollohu alayhi-vasallam: ikki narsadan o‘zgasiga hasad qilmoq joiz emas, biri – kishiga Olloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni Haq yo‘lida sarflayotgan bo‘lsa, ikkinchisi – kishiga Olloh taolo ilmu hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliy maqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o‘rgatayotgan bo‘lsa”, – deydilar»73.

Ma’lumki, islom ta’limotida eng yuksak hislatlardan biri sifatida ota-onaga g‘amxo‘rlik, ularni e’zozlash, ota-ona haqqini o‘z o‘rniga qo‘yish, farzandning ular oldidagi haqqi borasidagi masalalarning yoritilishiga alohida e’tibor beriladi. Hadislarda ham ana shu talablar o‘z ifodasini topgan. Ota-onani xafa qilib yig‘latish eng katta gunoh sifatida e’tirof etilgani quyidagi, ya’ni, Olloh Taoloning mavjudligiga shirk keltirish, odam o‘ldirish, urush maydonidan qochish, afifa (o‘zini pokiza saqlagan) xotinni fohisha deb tuhmat qilish, ribo (ijaraxo‘rlik), etimlar molini emoq, Olloh Taoloning qudrati va irodasini inkor qilish, odamlarni masxara qilish hamda ularni kamsitish kabi holatlar qatorida tilga olib o‘tiladi. Hadislarda ota-onaning dilini og‘ritib, ozor berish, ularni xafa qilib, buyruqlarini bajarmaslik ham qoralanadi: “Abdulloh ibn Amr (Roziyollohu anlih) aytadilar: bir kishi Rasulloh huzurlariga hijrat qilmoq uchun bay’at qilishga keldi. Ammo ota-onasi uning ketishiga rozi bo‘lmay, xafalikdan yig‘lab qolgan edilar. SHunda Rasulloh: “Sen hozir ota-onang oldiga bor! Hijrat qilaman deb ularni xafa qilganingdek, endi hijrat qilmaydigan bo‘ldim, deb ularni xursand qil”, - dedilar (13-hadis). Islomda eng katta gunoh Olloh Taologa shirk keltirish va ota-onaga oq bo‘lish hisoblanishi 15-hadisda alohida ta’kidlanadi. Ota-onaning ham o‘z navbatida farzandlarini tarbiyat etmog‘i, odob o‘rgatishi, yaxshilik qilishi lozimligi ta’kidlanadi: «Namir ibn Avs aytishlaricha, o‘tmish kishilari bolalarning solih-qobil bo‘lishlari Olloh Taoloning tavfiqi bilan bo‘ladi, ammo ularga odob-axloq o‘rgatish otalari vazifasidir, der edilar” (92-hadis)».74

3-asosiy savolning bayoni

So‘fiylik ta’limoti VIII asr ohiri va IX asr boshlarida paydo bo‘lib, butun musulmon mamlakatlari, shu jumladan, Movarounnahrda ham keng tarqalgan. So‘fiylik butun SHarq ma’naviy hayotida inson kamoloti xususidagi g‘oyalarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

So‘fiylik musulmon sharq xalqlarining ko‘p asrlik ma’naviy hayotining g‘oyaviy asosini belgilab bergan ta’limot bo‘lib maydonga chiqdi. U ollohiy poklik va insoniy go‘zallikni idrok etish yo‘li, haq va haqiqatni himoya qilish vositasi bo‘lib xizmat qildi. So‘fiylik ko‘p qirrali oqim bo‘lib, “sof”, “yagona” so‘fiylik hech qachon bo‘lmagan. U turli ko‘rinishlar, oqimlar tarzida namoyon bo‘lgan. Ammo, har biri ham inson takomili muammosiga turlicha yondoshib, uni o‘ziga xos yo‘l, qarash asosida talqin etgan. So‘fiylik ta’limoti g‘oyalariga e’tiqod va amal qiluvchi kishilar so‘fiylar deb nomlanadi.

Tavhid – Allohning yagonaligini e’tirof etish; adl – adolat, Allohning odilligi, ya’ni taqdir; nubuvvat – payg‘ambarlik; qiyomat yoki maod – qiyomatning sodir bo‘lishi, ohiratning mavjudligi, o‘lganlarning tirilishi kabi qarashlar mohiyatiga ko‘ra sunniylik yo‘nalishida ustuvor bo‘lgan g‘oyalarga mos keladi. SHialikda beshinchi aqida – imomat (imom tomonidan boshqariladigan hokimiyatning mavjud bo‘lishi) bo‘lib, mazkur g‘oya sunniylik va ushbu yo‘nalish tomonidan e’tirof etilgan xalifalik hokimiyatining mavjud bo‘lishi xususidagi aqidaga zid keladi. SHialik yo‘nalishining tarafdorlari Ali va uning avlodlari sanalgan o‘n ikki imom tomonidan boshqarilgan hokimiyatni tan oladi.

---

73 Ал-Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ҳадис. 4 жилдли китоб. 1-китоб. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). Арабчадан 3. Исмоил таржимаси. – Т., Қомуслар бош таҳририяти, 1991. 33-бет.

74 Ал-Бухорий , Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ал-адаб ал-муфрад (Араб дурдонлари). Таржимон, муқаддима ва изоҳлар муаллифи Ш.Бурхонов. – Тошкент, Ўзбекистон, 1990, 16-бет

Shialar ham muqaddas shaharlar Makka va Madinaga borib, Ka’bani ziyorat qilsalar-da, Karbalo va Najaf shaharlaridagi shialik imomlari qabrlarini ham muqaddas deb e’tirof etadilar. Shialik asosan Eronda ustuvor bo‘lgan e’tiqod hisoblanadi. Keyinchalik, sunniylik va bir qator progressiv oqimlar doirasida, VIII asr oxiri va IX asr boshlarida so‘fiylik ta’limoti paydo bo‘ldi. Mazkur oqim butun musulmon mamlakatlari, shu jumladan, Markaziy Osiyo hududida keng tarqaldi.

So‘fiylik ta’limoti butun SHarq ma’naviy hayotida komil inson va uni shakllantirish borasidagi g‘oyalarning shakllanishida muhim rol o‘yinadi. So‘fiylik ta’limoti va uning mohiyati xususida qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, mazkur manbalar so‘z yuritilayotgan ta’limotni o‘rganishda boy manba bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asari so‘fiylar silsilasi haqida qimmatli merosdir.

Mazkur oqim VII-VIIIasrda arab mamlakatlarida paydo bo‘lib, so‘ngra boshqa musulmon mamlakatlari, xususan, Movarounnahrda ham keng yoyildi. Lekin olimlar bu oqimning ba’zi ko‘rinishlari islomgacha ham mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydilar. So‘fiylik nazariyasiga ko‘ra, dunyo, mavjud borliq xudoning mujassamlanishi. Xudo barcha ko‘rinadigan narsalarda, narsalar esa xudoda mavjud. Borliq – dunyoviy ruh shaklida butun olamga tarqalgan va xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, shu bois ertami-kechmi u bilan qo‘shiladi.

Amaliy qism axloqiy me’yor va xulq-atvor qoidalarining muayyan tizimidan iborat bo‘lib, bu me’yor va qoidalar xudbinlik va shaxsiy manfaatlardan o‘zini tiyishni talab etadi. So‘fiylik musulmon Sharq xalqlarining ko‘p asrlik ma’naviy hayotining g‘oyaviy asosini belgilab bergan ta’limot bo‘lib maydonga chiqdi. U ollohiy poklik va insoniy go‘zallikni idrok etish yo‘li, haq va haqiqatni himoya etish vositasi bo‘lib xizmat qildi. So‘fiylik asosan uch oqimga mansub:

Birinchi oqim Mansur Xalloj, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiylar mansub bo‘lgan oqim. Ularning ta’lim berishicha, xudo har jihatdan komildir, eng oliy go‘zallik, shodlik, baxt uning vaslidadir, foniy bo‘lishidadir. Inson o‘zini haqiqatga, -xudoga nisbatan hech deb bilishi kerak. Inson yashayotgan hayot haqiqiy baxt-saodat bera olmasligi, asl, haqiqiy osudalik, baxt, saodat faqat xudoda, uning vaslida ekanligi, u bilan vahdat tashkil etish, ya’ni, uning vasliga etish kerakligi xususidagi qarashni ilgari suradilar. Lekin, ular taqvoni riyodan ajratib, oliy haqiqatga intilishni jannat va do‘zax haqidagi intilishlardan farq etib borishlari bilan ajralib turadilar. Insonning ichki kechinmalari holatiga ahamiyat berib, chin ixlos va sidqni birinchi o‘ringa qo‘yadilar. So‘fiylar qalbni har qanday xudbinlik, riyo, ta’magirlik, hasham va mol-dunyoga o‘chlikdan tozalab borish bilan oliy haqiqat ko‘zgusiga aylantirishni, ya’ni, poklikni asosiy maqsad qilib qo‘yadilar.

So‘fiylar inson ma’naviy-ruhiy komillikka erishish yo‘lida quyidagi to‘rt bosqichni o‘tishi kerak deb hisoblaydilar.

Birinchi bosqich – Shariat. Diniy marosim va shariat aqidalari (taqvolar)ni aynan, izchil bajarish. Chunki shariat – qonun bo‘lib, bu qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkinchi bosqich – Tariqat. Nafsni tiyish, xushnudlik, xilvat, ma’naviy muhabbatni takomillashtirib, xudo to‘g‘risida o‘ylash, ya’ni, o‘zidan kechish, ko‘ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi faoliyat shakli.

Uchinchi bosqich – Ma’rifat. Hamma narsa, butun borliqning asosi – xudo ekanini, o‘zlikning mohiyati xudoning mohiyati bilan uyg‘un ekanligini bilish va anglash. Mazkur holatda odam uchun kibru havo, manmanlik hamda shon-shuhrat be’mani bo‘lib ko‘rinadi. SHunda u orif, ya’ni, bilimli va xudoni tanigan inson bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqich – Haqiqat. Mazkur bosqichda so‘fiy xudoning dargohiga etishadi, vasliga vosil bo‘ladi, u bilan birlashadi, vahdat (tavahhud) tashkil etadi va shu asosida inson foniy, ya’ni “anal-haq” bo‘la oladi.

Mazkur oqim tarafdorlaridan birinchi so‘fiy Eronlik Abu YAzdit Tayfur al-Bistamiydir (875 yilda vafot etgan). So‘fiy Husayn ibn Mansur Halloj esa o‘zining xudo bilan “qo‘shilganini” isbotlash uchun “Anal-haq” (“Men haqman”, “Men xudoman”) deb da’vo qiladi hamda o‘z ta’limotini ilgari suradi. U Qur’onning muqaddasligi va Muhammad Alayhis-salomning payg‘ambar ekanligini inkor etishga uringanlikda ayblanib, xurofotchilar tomonidan qatl etildi. Zero, ushbu ta’limot saroy ahli va jaholat bilan yaqinlashgan ba’zi kalom va falsafa ilmi ulamolariga yoqmadi, oqibatda qalbni oliy haqiqatga erishish yo‘lida poklash maqsadini ilgari surgan ezgu ta’limot bid’at deya baholandi.

So‘fiylikning ikkinchi oqimiga mansub bo‘lgan so‘fiylar birinchi oqim namoyandalari tomonidan ilgari surilgan qarashlarni qabul qilganlar, biroq mazkur qarashlarni islom ta’limotida targ‘ib etilgan tartib-qoidalarga moslashtirganlar. Bu oqimning eng mashhur nazariyotchisi Zayniddin binni Muhammad Imom G‘azzoliy (1058-1111 yillar) hamda Ahmad YAssaviylar sanaladilar.

Ahmad Yassaviy

Ahmad YAssaviy 1041 yilda Saryom (Sayram) qishlog‘ida SHayx Ibrohim xonadonida tug‘iladi. Etti yoshida otasidan, so‘ng onasidan etim qoladi. U Arslonbob nomli inson qo‘lida hamda aksariyat tolibi ilmlar kabi Buxoroda tarbiya va tahsil oladi. U erda mashhur YUsuf Hamadoniydan suluk odoblarini o‘rganib, so‘ng Turkistonga qaytadi va o‘z tariqatiga asos soladi. U so‘fiylik g‘oyalari, shuningdek, o‘z tariqati asoslarini targ‘ib etishda she’rlaridan foydalanadi. Islom dini aqidalari va o‘zi asoslagan g‘oyalarni she’riy tarzda bayon etish asosida keng omma orasiga kirib boradi. Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ollohiy asoslari to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Qur’on” g‘oyalari va payg‘ambar Muhammad Alayhis-salom hadislari negizida shakllanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida payg‘ambar Muhammad Alayhis-salom ta’limotida ulug‘langan ma’naviy-axloqiy hislatlar muruvvat, saxovat, qanoat va rostgo‘ylik targ‘ib qilinadi, bildirilayotgan fikrlar kishilarni faqat Allohga tobe bo‘lishga undaydi. Uning hikmatlarida pand-nasihat asosiy o‘rin tutadi. Ularning barchasida so‘fiylik tariqatining amollari haqiqatni bilish. Haqni sevish, nafsu dunyodan chekinishga da’vat etuvchi g‘oyalar o‘z aksini topgandir. Inson ruhi va ongini har qanday illat, qabohatdan ozod etish kerak, ana shundagina inson axloqida ko‘zga tashlanuvchi ayrim nuqsonlar yuzaga kelmaydi, degan fikrlar komil insonni shakllantirishning asosiy yo‘llaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Zero, tasavvuf - nafs lazzatlaridan voz kechishdir. Nafs -ochko‘zlik, o‘g‘rilik, jaholat, xudbinlikni keltirib chiqaradi. SHuning uchun qanoat Ahmad YAssaviyning hayotiy shiori sanaladi. Oziga qanoat qilish, shukronalik, halol luqma eyish orqali inson Haq bilan “ko‘risha” oladi, nafsga mute bo‘lganlar esa xudbinlikdan qaytmaydi, nafs balosiga uchraydi.

Xususan:

Nafsdan kechib, qanoatni pesha qilg‘on,
Har kim topsa, rozi bo‘lib, bo‘yi sung‘on
YAxshilarga xizmat qilib duo olg‘on,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo‘q.

Jondin kechmay hu-hu degan bari yolg‘on,
Bu gumrohdin so‘rmang savol, yo‘lda qolgan,
Haqni topgan o‘zi pinhon, so‘zi pinhon
Ul sababdan oltmish uchda kirdim erga.

Banda bo‘lsang mehnat tortg‘il g‘ofil odam,
Oqil ersang g‘animatdur senga shul dam
Omonatdir aziz joning yurma beg‘am,
Eshitib o‘qib erga kirdi qul Xoja Ahmad.

Ahmad Yassaviy nodonlik tufayli hayotda savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma’naviy qashshoqlik, yovuzlik, takabburlik, nodon insonning eng tuban shaxs ekanligi, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma’rifat bo‘lmagan o‘lkada mamlakatning inqirozga yuz tutishini alohida qayd etib o‘tadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglanadiki, Ahmad YAssaviy tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar insonni yomon illat, nafs balosidan voz kechishga undaydi. YOmon illatlar va nafs balosidan xalos bo‘lish insonni ruhiy va jismoniy komillik sari etaklaydi.

Aslini olganda, Mansur Xalloj ham, Imom G‘azzoliy ham, Ahmad YAssaviy ham ruhiy kamolotga intilganlar. Zero, ular intilgan komillik – Haqqa etishish, unga muhabbat qo‘yish, shu ishq dardi bilan yashash, tavba-tazarru, sabru qanoat, shijoat, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, samimiyat, nafsni tiyish, undan g‘olib kelish, har bir inson qalbini chirkin illatlardan xalos etuvchi faqru fano kabi hislatlarning majmuidan iboratdir. Ular inson kamolotining ta’minlanishi uchun turli yo‘llarning samarali ekanligini asoslashga harakat qilganlar. SHu bilan birga, tadqiqotchilar Yassaviya

ta’limoti g‘oyalariga ko‘ra zolim hukmdor, nopok din peshvolari, nodon va johil kishilarga nisbatan muxohfot mavjudligi ta’kidlanganligidan guvohlik beradilar.

Bahouddin Naqshband

Muhammad ibn Muhammad Fazl Buxoriy - Bahouddin Naqshband hijriy 718 (milodiy 1318) yilda Buxoro shahriga yaqin Ko‘shki Hinduvon (qasri Orifon) qishlog‘ida tug‘iladi. Naqshband uning laqabi bo‘lib, ota kasbi - kimxobboflik bilan shug‘ullanganligi uchun berilgan bo‘lsa kerak.

Muhammadning bobosi so‘fiylar bilan yaqindan munosabatda bo‘lganligi uchun ham, unda tasavvuf ilmiga qiziqish bolalikdan paydo bo‘ladi va shu yo‘lda tarbiyat topadi.

Muhammad ibn Muhammad tariqat sulukiga oid ilk saboqlarni Shayx Hoja Muhammad Boboyi Samosiy va Sayyid Amir Kuloldan oladi. Ammo Hazrat Hoja Bahouddin Hoja Abdulholiq G‘ijduvoniyni o‘ziga ustoz bilib, uning yo‘lini qabul qiladi.

Bahouddin Naqshband haqidagi “Maqolot”larda uning Sayyid Kulol bilan bir qatorda, Orif Dekkironiy, Kusam Shayx va Xalil otalardan ham tasavvuf ta’limoti bo‘yicha saboq olganligi qayd qilingan.

Muhammad ibn Muhammad Fazl Buxoriy ikki marta haj qiladi. Haj safaridan Buxoroga qaytgach, butun umrini shu erda o‘tkazadi. Amir Kulolning vasiyatiga ko‘ra uning xalifasi bo‘lib qoladi. Bahouddin Naqshband hijriy 791 (milodiy 1389) yilda vafot etib, qasri Orifon qishlog‘ida dafn etiladi.

Uning muridlaridan eng mashhurlari Hoja Alouddin Attor va Hoja Muhammad Porsodir. Bahouddin Naqshband va’z va pand-nasihatlarni o‘z ichiga olgan “Hayotnoma” nomli she’riy to‘plam va tasavvufga oid “Dalil al-oshiqin” nomli kitob yozgan. Biroq mazkur asarlar bugungi kunga qadar topilgan emas.

Bahouddin Naqshband Naqshbandiya tariqatining asoschisidir. Bahouddin Naqshband ta’limoti uning hayotlik chog‘idayoq Movarounnahrda faqat shahar hunarmandlari orasidagina emas, balki ko‘chmanchi turkiy qabilalar orasida ham keng tarqalgan.

Naqshbandiya tariqati Islom dinidagi sunniylik yo‘nalishi g‘oyalariga asoslangan bo‘lib, uning ma’naviy silsilasi bir tomondan, Abu Bakr Siddiq (632-634 yillar) hamda ikkinchi tomondan, Ali ibn Abu Tolibga borib taqaladigan 12 tariqatning biri sanaladi. Bu silsila «Silsilat az-zahab» («Oltin silsila») deb nomlanadi. Tariqat ma’naviy jihatdan Abu Bakr, jismoniy jihatdan esa Ali ibn Abu Tolib orqali payg‘ambar Muhammad Alayhis-salom faoliyati negizida shakllangan.

Naqshbandiya sulukining boshqa suluklardan farqi nimalardan iborat?

Avvalo, Naqshbandiya suluki halol mehnat qilish orqali kun kechirish g‘oyasini targ‘ib qiladi. Bahouddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan “Dil ba yoru, dast ba kor” (Dil yorda, qo‘l ish (mehnat)da) shiori fikrimizning yorqin isbotidir. SHuning uchun ham Naqshbandiya sulukiga kirgan kishilar mehnat qilish evaziga hayot kechirar edilar. Tunu kun toat-ibodat bilan shug‘ullanib, oila, jamiyat yumushlarini tark etish emas, balki oilani farovon, mamlakatni obod etish yo‘lida mehnat qilish talab etilar edi. Ushbu talab hadislar mazmunida olg‘a surilgan g‘oyalarga to‘la mos tushadi. Bahouddin Naqshbandning o‘zi ham oddiy, pok inson bo‘lib, mehnat qilish evaziga kun kechirgan.

Naqshbandiya tariqatining boshqa suluklardan yana bir farqi shu ediki, boshqa suluklarning tarafdorlari pir oldiga yig‘ilib, “Zikri aloniya”ni amalga oshiralar, ya’ni, ovoz chiqarib zikr tushsalar, Naqshbandiya tariqatining tarafdorlari “Zikri xufiya”ni amalga oshirganlar, ya’ni, ular tomonidan Ollohga qilinayotgan toat-ibodat ovoz chiqarmasdan bajarilar edi. “Zikri aloniya”ning mohiyatiga ko‘ra Alloh ismi yoki “Lo iloha illolloh” kalimasi bor ovozda ohang yordamida aytilib, raqsu samo asosida bajarilgan. Ahmad YAssaviy sulukida zikrning mazkur shakli “Zikri arra” deb yuritilar edi. Mazkur amalni ado etish chog‘ida zikr qilayotganlarning ovozi yog‘och kesayotgan vaqtda arradan chiqadigan ovozga o‘xshar edi. “Maqomati Naqshbandiy” asarida keltirilishicha, Jaloliddin Rumiy asos solgan Mavlaviya sulukidagilar ham ana shu odatga amal qilganlar.

“Zikri xufiya” amalini bajarish vaqtida esa muridlar bir joyga to‘planishlari shart emas, har kim o‘z uyida tinch, osuda, shovqin-suronsiz, raqsu samosiz Allohning ismi va muqaddas so‘zlarni dilda yod etib, kunduzlari o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘laveradi. “Zikri xufiya” amalini Hazrati Hoja

Bahovuddin Naqshbandiy yuqorida qayd etib o‘tilganidek, Abdulholiq G‘ijduvoniydan o‘zlashtirgan. Mutafakkirlar - Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ham shu suluk vakillari sanalganlar.

Uchinchi farq shundan iborat ediki, Naqshbandiya sulukining valiylari bemordan o‘zlariga kasallikni tortib olib, so‘ngra kasallikni o‘z vujudlaridan chiqarib tashlash hislatiga ega bo‘lganlar.

To‘rtinchi farqi, Naqshbandiya sulukidagi avliyolar boshqa ba’zi avliyolardek, karomatfurushlikka yo‘l qo‘ymagan. Har bir muridning Allohga etishishi hamda vahdat hosil qilishi uchun ma’naviy va ruhiy poklanish maqsadi yo‘lida uning har qanday bid’atga qarshi kurashishi talab etilgan. Avliyolik kuch-quvvatini esa faqat ezgu ishlar: ilm-ma’rifatni rivojlantirish, shuningdek, xalqning ma’naviy jihatdan poklanishini ta’minlash yo‘lida har qanday zulm va bid’atga qarshi kurashishga sarflagan. Ushbu suluk valiylari shu kabi ezgu amallari bilan xalq orasida bevosita obro‘ qozongan. Buni biz “Maqomati Hoja Naqshband” asarida bayon etilgan voqealar va Hazrati Hoja Bahovuddin Naqshbandiy tomonidan ifoda etilgan hikoyatlar mazmunidan ham anglash mumkin. Xususan, Bahouddin Naqshband musulmonlikning mohiyatini quyidagicha yoritgan edi: “Musulmonlik - bu iloji boricha hukmlarga bo‘ysunish, taqvoga rioya qilish, amalni bajarishga intilish va bekorlikdan uzoq bo‘lib, bularning hammasi nuri safo va rahmat hamda valoyat darajasiga etishish vositasidir. Avliyolarning aziz manzili va maqomlariga mana shu sifat va parvarish orqali etiladi”.75

Ushbu fikrning mantiqiy davomi sifatida o‘z tariqatining maqsadini Hazrati Hoja Bahovuddin Naqshband yana shunday bayon etadi: “Bizning tariqamiz jahriya zikri-yu, raqs emas, bizning tariqamiz, anjumanda xilvat (xilvat dar anjuman), vatanda safar (safar dar vatandir). Xilvatda shuhrat bor, shuhrat esa ofatdir. Jamiyatda xayriyat bo‘ladi, jamiyat esa suhbatda bo‘ladi. Agar bu yo‘l toliblaridan bir guruhi bir-birovlari bilan hamsuhbat bo‘lsalar, bu suhbatda xayru baraka ko‘p bo‘ladi. Umid borki, bu ishga doimo amal qilinsa, ohiri haqiqiy iymon bilan yakunlanadi”.76

Demak, Bahouddin Naqshband inson barkamol bo‘lishi uchun, avvalo, iymonli bo‘lishi zarur deb biladi.

Xulosa qilib aytganda, Naqshbandiya tariqati ikki muhim tariqat: Abdulxohq G‘ijduvoniy hamda Ahmad Yassaviylarning yo‘lini birlashtirdi va hayotga moslashtirdi.

Naqshbandiya suluki (Xudoga yaqinlashish yo‘li) o‘n bitta axloqiy qoidani ishlab chiqdi va amaliyotga tadbiq etdi.

So‘fiyning poklanish va xudoga etishish darajasi ma’naviy murabbiy-shayx, murshid yoki pir tomonidan amalga oshiriladi.

Va nihoyat, murshid bilan murid o‘rtasidagi ma’naviy-ruhiy aloqaning paydo bo‘lishi muridning kamolotga etishganligini ko‘rsatadi va murshid muridga o‘z hirqasini echib beradi. Bu yo‘l muroqaba, mushohada, musohaba kabi uch bosqichdan iborat bo‘ladi. Naqshbandiya sulukiga kirgan inson o‘zini ham ruhan, ham jismonan chiniqtirishi, ma’naviy poklashi va qalbga sayqal berishi lozim.

Naqshbandiyaning asosiy yo‘li Haqqa etishga intilish, xufiya zikr qilish bo‘lib, ba’zi bid’atlarni rad etadi. Masalan, darbadarlik, qashshoqlik, musiqa chalib, ashula va raqs tushib, zikr tushish (samo) va ovoz chiqarib (jahr) zikr qilish va boshqalar. Aziz-avliyolar, ularning mozorlariga sig‘inish man etilib, har qanday madadni faqat Allohdan so‘rash kerakligi ta’kidlanadi. Ruhan poklanib, manmanlik, kibru havodan voz kechib, oddiy o‘z mehnati bilan kun kechirishga da’vat etadi.

Demak, Naqshbandiya tariqatining asosini insonning ham ruhan, ham jismonan poklanishi tashkil etib, bu jarayon hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Bugungi kunda yosh avlodni etuk inson etib tarbiyalashda Naqshbandiya tariqatining axloqiy tizimi, yo‘l va usullari qo‘l keladi. Zero, aqliy, axloqiy, jismoniy kamol topgan shaxsni shakllantirishda mazkur tariqat g‘oyalari muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

---

75 Абул Муҳсин Муҳаммад Ботир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон. –Т., “Ёзувчи”, 1993. 75-78-бетлар

76 Ўша китоб, 78-бет

Nazorat savollari va topshiriqlar
1. Musulmon maktablarida ta’lim tizimi va mazmuni qanday edi?
2. Qur’oni Karimda ilgari surilgan axloqiy tamoyillar haqida so‘zlang.
3. Hadis ilmida qaysi davr «Oltin davr» deb nom oldi?
4. «Hadim» va «Sunna» tushunchalari mazmunini izohlang.
5. Hadislarda ilgari surilgan axloqiy tamoyillarni daftaringizga yozib chiqing.
6. So‘fiylik ta’limoti jadvalini tuzing va uning asosiy suluklari ma’nosini tushuntirib bering.
7. So‘fiylik ta’limoti namoyondalari kimlar va ular qanday tarbiyaviy g‘oyalarni ilgari surganlar?

3-mavzu: Sharq uyg‘onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi

Asosiy savollar

1. Sharq uyg‘onish davrida ilm-fan va madaniyat rivoji
2. Sharq allomalarining ilmiy merosi va didaktik qarashlari
3. Sharq pedagogik ta’limotida ta’limiy-axloqiy qarashlar

1-asosiy savolning bayoni
Arab xalifaligi yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy hayotga ham ta’sir etdi. Madaniy hayotda yuz bergan ko‘tarinkilik ma’naviy hayotda ham o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi.
Ana shu ko‘tarilish butun Arab xalifaligini, Yaqin va o‘rta Sharqni qamrab olganligi uchun ham Sharq uyg‘onish davri deb ataldi. Bu uyg‘onish jarayoni IX asrdan boshlab XV-XVI asrlargacha davom etdi.
Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan Uyg‘onish davri xalifalikning Bag‘dod, Damashq, Xalab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishga zamin tayyorlagan. Xalifalik emirilishi jarayonida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi edi.
Xalifa Xorun ar-Rashid davrida (786-833 y.y.) va uning o‘g‘li al-Ma’mun davrida Bag‘dodda “Bayt–ul-hikma” (“Donishmandlik uyi”) (hozir Akademiya ma’nosida) tashkil etiladi. Mazkur Akademiya barcha ilm sohiblarining ilmiy markaziga aylanadi. Uning qoshida jahon kutubxonasi tashkil etilgan. Akademiya 813-833 yillarda yanada rivojlangan. Akademiya qoshida rasadxona ham bo‘lgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog‘doddagi mazkur ilm markazi, o‘z navbatida Sharq va g‘arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma’naviy hayotning rivojlanishiga ta’sir etgan. Bu o‘rinda xalifa al-Ma’munning ilm-fan ravnaqida ko‘rsatgan homiyligini alohida ta’kidlash joiz.
Zero, xalifa al-Ma’mun ilm fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlaridan xalifalikning Xurosondagi noibi bo‘lib turganda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to‘plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Farg‘oniy, al-Marazviy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo‘lgan. Al-Ma’mun xalifalik taxtiga o‘tirgach u olimlarning barchasini Bag‘dodga chaqirib oladi va “Bayt-ul-hikma” - donishmandlik uyi (“Ma’mun akademiyasi”)da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.
Shuningdek, qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Movarounnahr va Xuroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniyati bo‘lsin, Uyg‘onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.
Agar arablar Markaziy Osiyoni bosib olib, bu erda ilgari mavjud bo‘lgan fan va madaniyat o‘choqlarini yo‘qotgan bo‘lsalar, ko‘p o‘tmay qadimiy ilmiy an’ana asta-sekin tiklanib, natijada ilm-fanning etuk siymolari etishib chiqa boshlaydi. Bularning barchasining bir-biriga qo‘shiluvi natijasida SHarqda bir butun madaniyat tarkib topadi va rivojlana boshlaydi.
Shuningdek, SHarq uyg‘onish davrida sof 194edagogic asarlar ham yaratilib, ta’lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlari haqida o‘lmas ta’limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

2-asosiy savolning bayoni

Qomusiy olimlar o‘z ilmiy merosida insonning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik takomili masalalariga katta e’tibor berganlar. Masalan, Muhammad Al-Xorazmiy (783-850) insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda ilm-fanning muhim ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o‘rin egallaydi.

Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o‘z davrigacha bo‘lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar Vavilion (Bobil), YUnoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o‘rgandi va o‘zi hayotiy talablar nuqtai nazarida ulardan farq etuvchi yangi kashfiyot yaratdi.

Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi. “Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr va -l muqobala” asarida (“aljabr va -l muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”) sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar va ularni echish yo‘llarini bayon etadi. Bu asar uch qismdan iboratdir. Birinchisi algebraik qism. Uning ohirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo‘lim kiritiladi; ikkinchsi, geometrik qism – algebraik usul qo‘llab o‘lchashlar haqida; uchinchi qism vasiyatlar haqida bo‘lib, muallif uni “Vasiyatlar kitobi” deb ataydi.

Muhammad al-Xorazmiy o‘zining falakiyotga doir ishlarida hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, “Xorazmiy ziji” nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi. 827 yilda Xorazmiy rahbarligida er kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida er meridianining bir gradusi o‘lchab chiqildi. Bag‘dodda yozilgan trigonometriyaga oid dastlabki asar ham Xorazmiyga tegishli bo‘lib, unda sinus, tangenuslarning o‘zgarish qonuniyati ko‘rsatiladi. Uning trigonometrik jadvali o‘sha davr jadvalaridan farq qilgan. Muhammad al-Xorazmiyning tarix va musiqaga oid, quyosh soatlari to‘g‘risida ham asarlari bo‘lib, “Tarix kitobi” (“Kitob at-tarix”) xalifalik tarixga oid va xalifalikning birinchi tarixchilaridan sanaladi.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to‘plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushintira olish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala” asarida olimlarni uch guruhga bo‘lib shunday yozadi: Ulardan biri o‘zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi va uni o‘zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi.

Muhammad al-Xorazmiyning bu fikri bir tomondan, olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritsa, ikkinchi tomondan, o‘sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o‘qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko‘rsatadi.

Muhammad al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo‘shdi. U birinchilardan bo‘lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi (samoviy ob’ektlarning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarning algoritm metodida echishni ishlab chiqdi). U matematik g‘oyalar asosida odamlarning hayotiy zarurati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari asosida paydo bo‘lishini asosladi. Masalan, er ishlari, binolar qurish, kanallar ochish shunday paydo bo‘lgan, deydi. U birinchi marta insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.

Abu Nasr Forobiy

O‘rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning inson kamoloti haqidagi ta’limoti ta’lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faydasufi Arastudan keyin Sharqda o‘z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir – «Muallimiy soniy» – «Ikkinchi muallim» deb ataydilar.

Abu Nasr Forobiy (to‘liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarxon al-Forobiy) hijriy 260 yil (milodiy 873 yil)da Shosh-Toshkentga yaqin Forob (O‘tror) degan joyda harbiy hizmatchi oilasida tug‘ilgan. Forobda boshlang‘ich ta’limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqanda ta’lim olganligi haqida ma’lumotlar bor. Lekin arab xalifaligining yirik madaniy

markazi Bag‘dodga xalifalikning turli tomonlaridan kelgan olimlar yig‘ilganligi, uning yirik ilmiy markazga aylanganligi tuyfayli Forobiy ham ilm olish istagida Bag‘dodga jo‘naydi. Bag‘dodda Forobiy o‘rta asr fanini, turli fan sohalarini o‘rganadi. Masalan, unga Yunon tilida Abu Bashar Matta (Matta ibn Yunus), tibbiyot va mantiqdan Yuxanna ibn Haylon (Jilon) ta’lim bergan.

Umuman, Forobiy Bag‘dodda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiy, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug‘ullandi, turli tillarni o‘rgandi. Ba’zi manbalarda Forobiy 70 dan oshiq tilni bilganligi haqida gapiriladi. Abu nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligini qayd etadilar. Forobiy tahminan 941 yillardan boshlab Damashqda yashaydi. SHahar chekkasidagi bog‘da qorovul bo‘lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug‘ullanadi. 943-967 yillarda esa Halabda yashaydi. 949-950 yillarida Misrda ham bo‘lgan. So‘ng yana Damashqqa qaytib, shu erda 950 yilda vafot etgan. Damashqdagi «Bob as-sag‘ir» qabristoniga dafn qilingan. Rivoyatlarga ko‘ra Abu Nasrning hikmat falsafani o‘qishiga bir kishi sabab bo‘lgan ekan. O‘sha kishi unga Arastuning bir necha kitobini, shu erda tura tursin, keyin olib ketaman deb qo‘yib ketgani sabab bo‘lgan, deyishadi. Ittifoqo, kitoblarga ko‘zi tushib, ularning Abu Nasrning ko‘ngliga ma’qul bo‘lib qoladi va o‘qishga kirishadi natijada etuk faylusufga aylanadi.

Haqiqatdan ham Abu Nasr Forobiy o‘rta asr davri ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o‘zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt-saodatga erishuvi uchun ularni baxt-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan:

1 – sog‘-salomat bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmaligi;
2 – tabiati nozik, farosatli;
3 – xotirasi mustahkam;
4 – zehni o‘tkir;
5 – o‘z fikrini tushuntira oladigan notiq;
6 – bilim-ma’rifatga havasli;
7 – taom Eyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi, (qimor yoki boshqa o‘yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi;
8 – haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan;
9 – o‘z qadrini biluvchi va oriyatli bo‘lishi;
10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan;
11 – adolatparvar;
12 – qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi muhimligini qayd etadi.

Forobiy bu fazilatlarni har bir etuk insonda ko‘rishni istaydi.

Forobiy ta’lim tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhumligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida», «Ixso-al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma’nolari to‘g‘risida» kabi asrlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Forobiy o‘z ishlarida ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga etkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida» asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishi, shakli, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganishi lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi.

Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga etkazish maqsadini ko‘zlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Forobiy pedagogik ta’limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.
Insonning kamolga etishida ham aqli, ham axloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta’lim- tarbiya usullari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir.

Abu Rayxon Beruniy

Qomusiy olim Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida, g‘oyat murakkab tarixiy davrda yashadi va ijod etdi. Abu Rayxon Beruniy 362 yil 3-zulhiijjada (milodiy 973 yil 4-sentyabr) Xorazmning Qiyod (Kot) shahrida dunyoga keldi. Berun yoki birun so‘zi «tashqari» degan ma’noni anglatadi.
XIII asr boshlarida Xorazmda bo‘lgan mashhur sayoxatchi va geograf Yoqut Hamaviyning aytishicha, Vatanidan tashqariga ketgan har bir kishini xorazmiyliklar «Beruniy» laqabi bilan ataganlar. Keyinchalik bu laqab shu an’anaga ko‘ra uning nomiga qo‘shilib qolgan bo‘lsa ehtimol. Chunonchi, olimni shaxsan bilgan mashhur tarixchi Abul Fazil Bayhaqiy unga nisbatan «Beruniy laqabini qo‘llamay, faqat «Abu Rayxon» deb ataydi. «Abu Rayxon» esa «marhamatli», «rahmatli», «rahmdil» ma’nolarini bildiradi», - degan fikrlarni aytadilar.
Abu Rayxon Beruniy boshlang‘ich ta’limni olgach, o‘sha davrda fan – madaniyat taraqqiy etgan Xorazmning peshqadam olimlaridan saboq oladi.
Beruniy Xorzam tili bilan birga sug‘diy, forsiy, suryoniy, Yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto qadimgi hind tili sanskritni ham o‘rgangan. U Yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, falsafa va filologiyadan ham chuqur bilim oladi.
Beruniy yirik olim Abu Nasr Ibn Iroqdan Evklid geometriyasi, IlmolemEyning astronomik ta’limotlaridan dars olgan.
Bundan tashqari o‘zidan oldin o‘tgan matematik, munajjim va geografiya olimi Muhammad Xorazmiy, geografiya olimi Abul Abbos, Ahmad Farg‘oniy (IX asr), Marvaziy (IX asr), Javhariy (IX asr), faylasuf va tabiatshunos Abu Nasr Forobiy, Abul Vafo Juzjoniy (940-998), sEyistonlik Abu Said as-Sijiy (951-1024), Abu Muhammad Hamid Xo‘jandiy va boshqalarning asarlarini mustaqil o‘rganadi.
995 yilgacha Beruniy astronomiya, geografiya, geodeziyaning amaliy masalalrini hal etish bilan birga, Sharqda birinchi bo‘lib Er va Osmon globusini yasadi va astronomiyaga oid bir necha kitob yozdi («Kartografiya», «Globus yasash kitobi», «Erdagi joylarning uzunlama va kenglamalarini aniqlash haqida maqola» va boshqalar).
Beruniy hali juda yosh olim bo‘lishiga qaramay, Kot shahrida 994-995 yillarda astronomik kuzatishlar o‘tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o‘zi astronomik asboblar ixtiro etgan. 994-995 yillarda Qoraxoniylar samoniylar davlatiga qarshi hujum qiladilar. Urganch amiri Ma’mun I tomonidan Beruniy ijod etayotgan Kot shahri zabt etilib (bu shahar Janubiy Xorzamning poytaxti bo‘lgan), yagona Xorazm davlati tashkil topadi. Amir Abu Abdullo Muhammad xizmatida bo‘lgan Beruniy ham boshqa olimlar kabi Kot-Qiyotni tark etib, Jurjon (Kaspiy dengizining janubi-sharqi)da, so‘ng Rayda (Tehron yaqinida) yashaydi, Raydan yana Jurjonga qaytib, olim va kelajakdagi ustozi Abu Sahl Iso Masihiy bilan tanishadi va undan ta’lim oladi.
O‘sha davrda Xorazmda va Kaspiy oldi viloyatlarida Qobus ibn Vushmagir yosh olimga xayrixoxlik ko‘rsatadi. «Shams al-Maoliy» («Oliy martabalar quyoshi») laqabi bilan mashhur bo‘lgan bu podshohga bag‘ishlab Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini yozadi va unga taqdim etadi. Bu asar Beruniy nomini Yaqin va O‘rta Sharqqa mashhur qildi.
1004 yilda Beruniy Ma’mun II ibn Ma’mun tomonidan Xorazmga chaqirib olinadi va uning yaqin maslahatchisi bo‘lib qoladi.
Hunarmandchilikning bunday yakka holda o‘rgatilishi malakali kasb egalarining etishib chiqishiga yordam bergan, halol va vijdonan mehnat qilishga yo‘llaganki, bu insonning kamolga etishiga muhim pog‘ona bo‘lgan. Zero, qadimdan har bir etuk inson u shohmi, oddiy fuqaromi, hunarning

bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan. Shunga ko‘ra buyuk shoxlar ham, beklar ham, mol-mulk egalari bo‘lgan boylar ham, oddiy fuqaro ham o‘z farzandini bilimli bo‘lishi bilan birga, hunarli bo‘lishiga ham e’tibor bergan va bu yozilmagan qonunga barcha birdek amal qilgan. Chunki, kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan boshlab, kishilar o‘z mehnati va hunari bilan kun kechirishga majbur bo‘lgan va bu hayot taqozosi sifatida qabul qilingan.
Shuning uchun ham Beruniy inson har tomonlama kamolga etishi uchun u ilmli bo‘lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo‘lishi ham kerak deydi. Beruniy «Sharq Renessansi» davri qomusiy olimlaridan biri sifatida nom qozondi.
Mashhur Amriqo‘lik tarixchi olim J.Sarton jahon fani tarixda XI asrning birinchi yarmini Beruniy davri deb atadi. Shuningdek, uni o‘z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi. Beruniyning ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlarni qamrab olgan 150 dan ortiq yirik ilmiy asarlar yaratganligi ham bu fikrning o‘rinli ekanligini tasdiqlaydi.

Abu Ali ibn Sino

Sharq va Obro‘pada ma’rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligi tufayli, «Shayx – Ur - Rais» Sharqda «Olimlar boshlig‘i», Ovro‘pada «Olimlar podshosi» nomi bilan mashhur bo‘lgan allomalardan biri o‘rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, rulishunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta’lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim.
Abu Ali ibn Sino 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida kichik amaldor oilasida tug‘iladi. Uning to‘la ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir. Abu Ali uning kuniyasidir. Oti Husan, otasining ismi Abdulloh edi. Keyinroq uning oilasi Buxoroga ko‘chib o‘tgach, u boshlang‘ich maktabda o‘qiy boshlaydi. Ibn Sinoning muto‘lasi zo‘r, mehnatsevar edi. Undagi tug‘ma qobiliyat, o‘tkir zehn, kuchli xotira o‘zaro birikib ketgan edi. Ibn Sinoning otasi Abdulloh hamda uning do‘stlari bilimdon kishilar bo‘lib, ularning ilmiy munozaralari o‘tadigan oilaviy muhit yosh ibn Sinoga ham ta’sir etadi. Shu bilan birga uning bolalik va o‘smirlik yillari o‘tgan Buxoro shahri somoniylar davrining yirik madaniy markazi bo‘lib hisoblanar edi. Buxoroda ko‘plab maktab, madrasa, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxona bo‘lgan. Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning ilmiy munozaralarida yosh ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarga oid bilimlarini chuqurlashtirib borgan. U ustozlaridan hind hisobi, fiqlidan bilim olgan. Keyin esa faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, handasa va boshqa fanlardan ta’lim oladi. Shundan so‘ng ibn Sino o‘zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug‘ullana boshlaydi. U ayniqsa tib ilmini chuqur egallab oladi, bu sohada unga ta’lim bergan kishi buxorolik Abu Mansur Kamariy bo‘ldi. Ibn Sino so‘ngra falsafani o‘rganishga kirishadi. Ayniqsa, Aristotel falsafasi, uning «Metafizika» asari mohiyatini buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning yozgan sharhi tufayli to‘liq o‘zlashtirib oladi.
IX asr ohiri X asr boshlariga kelib, o‘lkada siyosiy-ijtimoiy vaziyat murakkablashdi. Shu tufayli ibn Sino Xorazmga Urganchga ko‘chib o‘tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayxon Beruniy boshqarayotgan «Ma’mun akademiyasi» da ilmiy ish bilan shug‘ullana boshlaydi. Xorazmda o‘zining yirik asarlari «Tib qonunlari», «Ash-Shifo» kitoblari ustida ish olib boradi.
Mahmud G‘aznaviy 1017 yilda Xorazmni o‘ziga qaram qilib olgach, nufuzli olimlarni ham o‘z saroyiga chaqirib ola boshlaydi. Ibn Sino Mahmud G‘aznaviy saroyiga bormay, boshqa yurtlarga ketishga majbur bo‘ladi. Gurganjda, Rayda, keyin esa Hamadonda va umrining so‘nggi yillari Isfaxonda yashaydi. Ibn Sino 1037 yilda vafot etdi.
Inson hissiy va ma’naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe’l-atvoriga xos hislatga aylana boradi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o‘rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida rol o‘ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof-dunyoni bilishigagina emas, balki uning hulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta’sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo‘lish kerakligini, bola yomon odatlarga o‘rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sinoning jahon fani va madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasini e’tiborga olib, Jordano Bruno Ibn Sinoni qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotel, (vrach) tabib Golenlar bilan teng qatorga qo‘ysa, A.Dante o‘zining «Ilohiy komediya»sida olimni IlmolomEy, Evklid, Gippokratlarga tenglashtiradi. Nemis faylasufi L.FEyirbax olimni «mashhur tabib va faylasuf»dir desa, Hindostonning buyuk davlat arbobi J.Neru o‘zining «Hindistonning ochilishi»degan asarida O‘rta Osiyo olimlarining tilga olar ekan, Ibn Sino nomini alohida ta’kidlab: «Ulardan eng mashhuri (vrachlar) tabiblar podshohi» degan nomni olgan buxorolik Ibn Sino (Avitsenna) dir, - deb hurmat bilan tilga oladi.
Demak, ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ilmlarni o‘rganish haqidagi ti’limotlari, ta’lim-tarbiya haqidagi mulohazalari, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi.

3-asosiy savolning bayoni.
Ma’lumki, Sharq Uyg‘onish davrida ma’naviy ma’rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo‘lgan. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgan. Didaktik asarlarda Sharqqa xos bo‘lgan insonning axloqiy, ruhiy kamoloti, oliy darajadagi yuksalish muammosi etakchi g‘oya bo‘lgan. Insoniylik, insonni ulug‘lash g‘oyasi ta’lim-tarbiyaga oid yaratilgan asarlarning asosiy o‘zagi sanalgan. Bu g‘oyani, ya’ni insonparvarlik g‘oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va hislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta’lim-tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qo‘yilgan. Zero, insoniylik g‘oyasida yuksak axloqiy hislatlar ifodalangani uchun ham Sharq Uyg‘onish davri falsafasi va pedagogika-sida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etdi. Axloq masalasi faylasuf-larning ham, buyuk mutafakkirlarning ham, tarixchiyu shoir hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo‘ldi. Ta’limiy axloqiy risolalar paydo bo‘lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi. «Qutadg‘u bilig», «Axloqi Nosiriy», «Qobusnoma», «Hibbat ul-haqoyiq», «Guliston», «Bo‘ston», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Muhsiniy», «Mahbub ul-qulub» kabi Yusuf Xos Hojib, Nasiriddin Tusiy, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta’limiy-axloqiy asarlari yuqorida ta’kidlaga-nimiz inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etish sohasida yaratilgan sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur ta’limiy-axloqiy asarlarda insonning ma’naviy kamolga etishida yuksak axloqqa ega bo‘lishi ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g‘oya ilgari surildi.
Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o‘rgatish «Qur’on» va «Hadis» larni o‘rganish va ulardagi ko‘rsatmalarni o‘zlashtirib olib bilan birga olib borilgan. Shunga ko‘ra, «Qur’on» va «Hadis»lardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga ta’sir etgan. Hadislarning ta’siriga sabab umuminsoniy fazilatlarga alohida urg‘u berilgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlikning muhim hislatlari: halollik, saxovat, himmat, mehru-oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari va boshqalar o‘z ifodasini topgan va Sharq adabiyotiga, jumladan, ta’limiy-axloqiy asarlarga ta’sir etgan. Ta’limiy-axloqiy asarlar bevosita Hadislarda ilgari surilgan g‘oyalar asosida yaratildi. Hadislar ta’siri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asaridan boshlanib, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq», Sa’diyning «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlar negizida ko‘rinadi. Ham g‘oya, ham mazmun, ham shakl buning dalilidir.
Masalan, «Qur’on»da ham, «Hadis»larda ham, ta’limiy-axloqiy dostonlarda ham ilm ta’rifi bilan birga, xulq-odob qoidalari, turmush odobi yoritiladi.

Yusuf Xos Hojib
Tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra Yusuf Xos Hojibning tarjimai holini faqat uning o‘z asarida yozib qoldirgan ma’lumotlardan bilamiz, xolos:
Mo‘nuqi tarug‘laq Qo‘z o‘rdu eli,
Tub – asli nasabdin yurishish tili
Bu tug‘mish elindin chiqib borgoni,

Kitobni qo‘shubon tugal qilg‘oni.
Barusin bitimish, eturmish nizom,
Bu Qoshg‘ar elinda qo‘shulmish tamom.
Qo‘z o‘rdu o‘lkasi aslida eli,
Tub asli nasabdan so‘z ochdi tili,
Tug‘ilgan elidan chiqib borgani
Kitobni jam etib tugal qilgani.
Borini bitibdir ne esa kalom,
Bu Qashqar elida tugadi tamom.77

Yuqoridagi misralardan Yusuf Xos Hojibning tug‘ilgan joyi Qo‘z O‘rdu (ya’ni Bolasog‘un) ekanini, ammo uni yozishda turli o‘lkalarga safar qilgani, va nihoyat uni vatani Qashqarda tugatgani taxmin qilinadi.
Demak, Yusuf Xos Hojib Bolasog‘unda tug‘ilgan, o‘z asarini yoshi ellikdan o‘tganda yozgan. Asarning hijriy 462 (1069—1070) yozib tugallanganligi, uni o‘n sakkiz oyda, ya’ni 461 yilning birinchi yarmida boshlab, 462 yilning o‘rtalarida tugatganligi, agar bu davrda Yusuf Xos Hojib 50 yoshlar atrofida bo‘lsa, 410 (1019 milodiy) yillarda tug‘ilganligi taxmin etiladi.
Tegurdi menga elchi ellik yoshim,
Qug‘u qildi uzg‘un tusi-teg bashim
(Ellik yoshim menga qo‘l tegizdi,
Qora (quzg‘un) tusidek boshimni oq (qush) qildi
(ya’ni, sochim oqardi).78
Yil altmish eki erdi to‘rt yuz bila
Bu so‘z so‘zladim man tutib jan sura,
Tugal o‘n sakkiz ayda aydim bu so‘z,
O‘qurdum, adirdim so‘z evdib tera.79
Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat. Buyuk mutafakkir asarni yozib tugatgach, qoraxoniylar hukmdori Tavg‘achxon (kitobda Tavg‘och Ulug‘ Bug‘ra Qoraxon (xoqon), Abo Ali Hasan binni Sulaymon Arslon Qoraxon (xoqon) nomlari bilan zikr etilgan) huzuriga kelib, unga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bo‘lib, uning muallifiga Xos Hojiblik unvonini beradi. «Qutadg‘u bilig» asari katta shuhrat qozonadi. SHuning uchun ham «Qutadg‘u bilig»ni chinliklar (Xitoy) «Adab ul-muluk» («Hukmdorlar odobi»), mochinliklar (Sharqiy Turkiston) «Anis ul-mamo‘lik» («Mamlakat-ning tartib usuli»), eronliklar «Shohnomai turkiy», Sharq elida «Ziynal ul-umaro» («Amirlar ziynati»), turonliklar «Qutadg‘u bilig», ba’zilar esa «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar nasihatnomasi») deb atagani kitob muqaddimasida keltiriladi.
Demak, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarini ilmiy jihatdan o‘rganishga juda ko‘p olimlar hissa qo‘shgan. V.V.Radlov, H.Vamberi, S.E.Malovlar uni tarjima etib, nashr qilgan bo‘lsalar, V.V.Bartold, E.E.Bertels, I.V.Stebleva, O.A.Valitovalar har tomonlama tadqiq etdilar.
Asarning mukammal nashrini tayyorlashda hamda uni tadqiq etishda o‘zbek olimlari-ning xizmati ayniqsa diqqatga sazovor.Birinchi bo‘lib professor Fitrat 1924 yilda Namangan nusxasini olib, kutubxonaga keltiradi va u haqda maqola e’lon qiladi. «Qutadg‘u bilig»ning mukammal nashri o‘zbek olimi Q.Karimov tomonidan amalga oshirildi va tadqiq etildi. Uni tahlil etishda S.M.Mutalliboev, N.M.Mallaevlarning xizmati katta. «Qutadg‘u bilig»ning hozirgi o‘zbek tilidagi bolalarbop bayoni esa Boqijon To‘xliev tomonidan nashr etildi. Yusuf Xos Hojibning axloqiy

77. Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. –Т., «Фан», 1971, 57-бет.
78. Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. –Т., «Фан», 1971, 115-бет.
79.Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. –Т., «Фан», 1971, 32-бет.

didaktikasi Q.Karimov, Y.Jumaboev tomonidan har tomonlama tadqiq etildi. Qoraqalpog‘istonlik Axmetova A.K. esa «Yusuf Xos Hojibning pedagogik qarashlari» to‘g‘risida ilmiy ish olib bordi

Unsurul Maoliy Kaykovus «Qobusnoma»

Kaykovus 412 hijriy yilda (milodiy 1021-1022) tug‘ilgan. Uning avlodlari gilon qabilasidan bo‘lib, Tabaristonda (hozirda Kaspiy dengizining janubidagi hudud) yashaganlar. Ammo biz Kaykovus haqida batafsil ma’lumotlarga ega emasmiz.Kaykovus o‘z hayoti davomida ko‘rgan-bilganlari asosida o‘zining buyuk «Qobusnoma» asarini yaratdi. Kitobni u o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlagan. Bu paytda Kaykovus taxminan oltmish yoshlarda edi.«Qobusnoma» Sharqda, xususan Eronning o‘zida ham saqlanib kelayotgan an’anaga ko‘ra pand-nasihat tarzida yozilgan bo‘lib, mana bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda, ularni har tomonlama etuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo‘llanma bo‘lib kelmoqda.

Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligini ta’kidlaydi: «Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo‘lsa-yu, ammo hunari bo‘lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo‘lur. Ulug‘lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bila emas. Otni senga ota va onang qo‘ymishlar, sen unga g‘urra bo‘lmag‘il ... Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo‘lg‘il».80

Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug‘lanadi. Kasb-hunar o‘rganishni bilim olish bilan qo‘shib olib borishni tavsiya etadi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada qaraydi. Kaykovusning bu qarashlari o‘sha davrning ilg‘or qarashlari-dan sanaladi.

Asarda munajjimlik, er o‘lchash, musiqa, tibbiyot sohasidagi kasb egalarining faoliyati ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Ayniqsa, tibbiyot ilmiga oid qarashlari Kaykovusning zukko, donishmand, har tomonlama etuk bilimga ega kishi bo‘lganligidan dalolat beradi.

Ahmad Yugnakiy «Hibat ul-haqoyiq»

Qoraxoniylar hukmronligi davrida yaratilgan ta’limiy-ahloqiy asarlardan yana biri Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar armug‘oni”) asaridir. Asar mazmunini ham mazkur davrning ijtimoiy-siyosiy, diniy, axloqiy hamda iqtisodiy masalalar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mohiyati borasidagi qarashlar tashkil etadi.

“Hibat ul-haqoyiq” asari To‘g‘rul qilich Sipolisolorbekning nomiga atab yozilgan. Asarning yozilgan vaqti taxminan XII asr boshlariga to‘g‘ri kelishi alohida ta’kidlanadi.81 Ahmad Yugnakiyning hayoti va faoliyati borasida ma’lumot beruvchi manbalar juda kam. Mavjud ma’lumotlar ham asar mazmunidan keltirilgan dalillardangina iborat.

Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul-haqoyiq” asarida boshqa ta’limiy-axloqiy asarlar kabi insonning barkamol ekanligidan dalolat beruvchi ikkinchi belgi – bu uning xushxulqliligidir, degan g‘oya ilgari suriladi. Shuning uchun adib asarda axloqlilikning asosiy mezonlari bo‘lgan ijobiy hislatlar va inson qiyofasida ularning qay darajada aks etishi yuzasidan fikr yuritar ekan, tilni tiyish, mol-dunyoga muhabbat qo‘yish salbiy fazilat ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi. SHuningdek, insonda ushbu hislatlarni shakllanishiga ta’sir etuvchi muhit, shart-sharoitlar, baxillik, jamiyat va atrofdagi kishilarning manfaatlariga zarar etkazishdan saqlanish, harom va halolni bir-biridan farqlay olish, ularning farzlari haqida to‘xtalib o‘tadi.

Ahmad Yugnakiyning ushbu asari o‘ziga xos pedagogik qiymatga ega bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur asarda ilgari surilgan g‘oyalar kishilar, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy-axloqiy kamolotga yo‘llaydi, ijtimoiy munosabatlar jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatlarni ahillik, saxovat hamda hamjihatlik asosida bartaraf etib, adolat o‘rnatishga chorlaydi.

Muslihiddin Sa’diy. «Guliston»

Bu buyuk allomaning to‘liq ismi Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa’diy Sheroziy bo‘lib, SHarq va G‘arbda Shayx Sa’diy degan nom bilan ulug‘lanadi. Donishmand shoir

---

80 Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. –Т., «Фан», 1971, 115-бет.

81 Аҳмад Югнакий. Ҳибат-ул-ҳақойиқ (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Қ.Маҳмудов). –Т., Бадиий адабиёт, 1971, 3-28-бетлар; Қадимий ҳикматлар (Тузувчи Н.Раҳмонов). –Т., Адабиёт ва санъат, 1987, 414-428 б.

Muslihiddin Sa’diy ijodining dovrug‘i Sherozdan Qashqargacha, Xitoy, Hindiston va Misrdan Shimoliy Afrikagacha yoyilgani bois unga “Shayx”, ya’ni, ustoz nomi berilgandir. Olim va tarjimon Sh.Shomuhammedovning ta’kidlashicha, mutafakkirning nomi, tug‘ilgan yili, taxallusi turli manbalarda turlicha ko‘rsatilgan. Xususan, ayrim manbalarda allomaning nomi Mushrifiddin ibn Muslihiddin Abdulloh, boshqa manbalarda esa Muslihiddin Sa’diy Sheroziy deya keltirilgan.Alloma tavallud topgan yil ham turlicha ko‘rsatiladi. Chunonchi, mazkur sana ba’zi manbalarda hijriy 580 (milodiy 1184), hijriy 589 (milodiy 1193) hamda milodiy 1204 yil tarzida qayd etiladi.

Adibning o‘ziga “Sa’diy” taxallusini tanlashiga ham tadqiqotchilar turlicha yondoshadilar. Ana shunday yondoshuvlarning birida mutafakkir mazkur taxallusni forslar orasida mashhur bo‘lgan hamda Otabek hokimlari sulolasini boshlab bergan Sa’d binni Zangi nomi asosida tanlaganligi qayd etilsa, yana bir boshqa o‘rinda esa ushbu sulolaning vakili hisoblangan Sa’diy, ya’ni, Sa’d ibn Abubakr nomiga nisbat berish tarzida qabul qilganligi e’tirof etiladi.

Muslihiddin Sa’diyning umumiy yoshi xususida ham turlicha fikrlar mavjud, Ayrim tadqiqotchilar allomaning 102 yoshga kirib vafot etganligiga urg‘u bersalar, boshqa bir tadqiqot natijasi adibning 120 yil umr kechirganligidan dalolat beradi. Aksariyat manbalarda mutafakkirning vafoti yili hijriy 691 (milodiy 1291-1292) yil deb belgilangan.82

Muslihiddin Sa’diy ko‘hna Eronning qadimiy shahri sanalgan Sherozda tug‘iladi. Uning otasi Sheroz hokimi Otabek Sa’diyning mulozimlaridan biri bo‘lgan. Yosh Muslihiddin otasidan erta ajraladi. Shu bois unga saroy nafaqasi belgilanadi. Muslihiddin boshlang‘ich ma’lumotni Sheroz shahrida oladi, so‘ngra Bag‘dod shahriga borib, u erda mashhur “Nizomiya” madrasasida tahsilni davom ettiradi. U madrasada ta’lim olish chog‘ida arab va fors tillari grammatikasi hamda adabiyotlari asoslarini chuqur o‘zlashtiradi. Sharq falsafasi asoslarini katta qiziqish bilan o‘rganadi. Madrasada tahsil muddatini tamomlagach, Sharqning eng mashhur, shu bilan birga ilm-fan va madaniyat o‘choqlariga aylangan shaharlar bo‘ylab sayohatga chiqadi.

Muslihiddin Sa’diy 1255 yilda sayohatdan Sheroz shahriga qaytib “dunyo g‘ovg‘alaridan” chetda, shahar chekkasida joylashgan Shayx Abu Abdulloh Xafif xonaqosida faqirona hayot kechiradi.

Muslihiddin Sa’diy tomonidan yaratilgan barcha asarlar 19 bo‘limdan iborat kulliyotida to‘plangan. Bu to‘plam uning vafotidan 37 yil o‘tgandan so‘ng Abubakr Besutun degan kishi tomonidan to‘plangan. Biroq keyinchalik nomi qayd etilgan ana shu muallif kulliyotni qaytadan tuzib, g‘azal va boshqa mayda she’rlarni radifi va qofiyasiga muvofiq alfavit tarzida joylashtirib chiqqan, ushbu kulliyotga allomaning to‘rtta devoni (g‘azallar to‘plarni) kiritilgan. Kulliyotning tarkibiy tuzilmasidan joy olgan hamda mutafakkir nomini mashhur qilgan uchinchi devon “Havotim” deb nomlanadi.

Tadqiqotchilar Sharqda muayyan muallifga tegishli bo‘lgan asarlarni ularning radif va qofiyasiga ko‘ra alfavit tarzida devon holatiga keltirish an’anasi Ali binni Abubakr Besutun boshlab bergan harakat asosida yuzaga kelgan bo‘lsa kerak, degan taxminni ilgari suradilar.

Muslihiddin Sa’diyning jahonshumul ahamiyatga ega bo‘lgan “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarida allomaning ta’limiy-axloqiy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Manbalarda ta’kidlab o‘tilishicha, muallif “Bo‘ston” nomli asarini 1257, “Guliston” deb nomlanuvchi asarini esa 1258 yillarda yaratgandir.

Mutafakkirning komil insonni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi “Guliston” asari Sharq xalqlarining pedagogik fikrlari tarixda o‘ziga xos uslubga ega didaktik asar sifatida tan olingan. Ushbu asar muallifning boy hayotiy tajribasi asosida yaratilganligi bilan ham qimmatlidir.

---

82 Шоислом. Форс-тожик адабиёти классиклари (Шарқ адабиёти классиклари ҳақида - Шомуҳамедов билан суҳбатлар). Т., Ўзадабийнашр, 1963. 114-115 бетлар; Мушрифиддин Саади. Гулистан (Подготовка текста, вступительная статья и примечания Рустама Алиева). - М.: 1957, 45 с. Орифи М. Аз таърихи афкори педагоги халқи точик. - Душанбе, Нашриёти давлати адабиёти таълимий-педагогии РСС Точикистон, 1962.

Taniqli sharqshunos olim SH.Shomuhamedovning ta’kidlashicha, “Guliston” asari XVII asrdayoq fransuz, nemis va lotin tillarga tarjima etilgan va G‘arb mamlakatlarida katta shuhrat qozongan. Asarning rus tilidagi birinchi tarjimasi XVII asrda Adam Olearіy tomonidan qilingan nemischa tarjimasiga muvofiq yaratilgan. XIX asrga kelib, A.Kozimbek (1829 yil), S.Nazaryans (1857 yil), K.Lombars (1862 yil), I.Xolmogorov (1882 yil) kabi tadqiqotchilar ham mazkur asarning rus tilidagi tarjimasini tayyorlaganlar. 1922 yilda esa mashhur sharqshunos olim E.E.Bertals tomonidan tayyorlangan ruscha varianti nashr etilgan.
1957 hamda 1959 yillarda asarning badiiy va akademik tarjimalari SSSR Fanlar Akademiyasining SHarqshunoslik institutida sharqshunos olim R.Aliev tomonidan tayyorlanib, nashr etildi.
“Guliston” asarining o‘zbek tilidagi tarjimalari 1390-1391 yillarda Sayfi Saroyi, XIX asrda mashhur shoir Muhammad Rizo Ogahiy hamda 1909 yilda Murodxo‘ja Soliqxo‘ja o‘g‘li tomonidan tayyorlangan. Fors-tojik adabiyotining bilimdoni, sharqshunos olim Sh.Shomuhamedov 1968 yilda 1959 yilda Moskva shahri hamda 1966 yilda Tehron shahrida chop etilgan nashrlar asosida mazkur asarning o‘zbek tilidagi variantini chop etishga muvaffaq bo‘ldi.
Asar sakkiz bobdan iborat bo‘lib, ularning har birida axloqiy tarbiyaning u yoki bu jihatlari borasida so‘z yuritiladi. Asarning tarkibiy tuzilmasidan o‘rin olgan boblar quyidagicha nomlangan: «Podshohlar odati bayoni» (I-bob), «Darveshlar axloqi bayoni» (II-bob), «g‘anoatning fazilati bayoni» (III-bob), «Sukut saqlashning foydalari bayoni» (IV-bob), «Zaiflik va keksalik bayoni» (V -bob), «Ishq va yoshlik bayoni» (VI-bob), «Suhbat qoidalari bayoni» (VII -bob).
“Guliston”ning mundarijasidan ham anglanadiki, asar mazmun va mohiyatiga ko‘ra insonni etuklik, kamolotga etaklovchi omillar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritishga xizmat qiladi. Asarda Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib hamda Nizom ul-Mulk kabi mutafakkirlarning asarlarida bayon etilgani kabi insonning baxtli, saodatli bo‘lishini ta’minlay oluvchi jamiyat, fozil, odil va adolatli hukmdor hamda uning fazilatlari, saroy a’yonlari va ularning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, davlatni adolatli boshqarish shartlari, shuningdek, mavjud jamiyatda ustuvor o‘ringa ega bo‘lgan axloqiy me’yorlar xususida so‘z yuritiladi. Mutafakkirning nuqtai nazariga ko‘ra, tabiatan olib qaraganda hukmdor ham oddiy inson sanaladi, u ham shaxsiy manfaatlari yo‘lida harakat qilish huquqiga ega, biroq zimmasiga yuklangan ijtimoiy vazifaga ko‘ra u el-yurt manfaatini shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo‘yishi shart. Hukmdor, eng avvalo, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta’minlash yo‘lida sabot bilan kurashar ekan jamiyat taraqqiy etadi.
Muslihiddin Sa’diy podshohlarning yuksak insoniy sifatlarga ega bo‘lishlarini orzu qiladi. Elu yurt hukmdori sifatida e’tirof etilgan inson quyidagi fazilatlarni o‘z qiyofasida namoyon eta olishi maqsadga muvofiqdir: adolatli, tadbirli, g‘ayratli, shijoatli, fahm-farosatli, bilimdon, dono, ziyrak, oliyjanob, saxovatli, jasur, mard hamda fuqarolariga nisbatan g‘amxo‘r bo‘la, shuningdek, do‘st bilan dushmanning farqiga bora olish. Muayyan mamlakat fuqarolariga etakchilik, boshchilik qilayotgan podshohlarning yuqorida qayd etilgan fazilatlar egasi bo‘lishlari hayotiy zaruriyatligini muallif ibratli hikoyatlar misolida ochib beradi.
Aqllilar ulug‘lamas shundaylar zotin,
Ulug‘larning yomonlik-la, yodlasa otin,
Taxtu baxt farmonlar, ta’qiq va zo‘rlik,
Barchasi bekorchi, o‘tib ketadi.
Siylasang o‘tganlar aziz nomini,
Sening nomingga ham hurmat etadi».83

Xulosa qilib aytganda, Muslihiddin Sa’diy o‘zining “Guliston” asarida inson kamolotining asosiy omillari sanalgan ma’naviy-axloqiy hamda jismoniy kamolotga erishishning inson hayotidagi

83 Шоислом. Форс-тожик адабиёти классиклари (Шарқ адабиёти классиклари ҳақида - Шомуҳамедов билан суҳбатлар). Т., Ўзадабийнашр, 1963. 114-115 бетлар; Мушрифиддин Саади. Гулистан (Подготовка текста, вступительная статья и примечания Рустама Алиева). - М.: 1957, 45 с. Орифи М. Аз таърихи афкори педагоги халқи точик. - Душанбе, Нашриёти давлати адабиёти таълимий-педагогии РСС Точикистон, 1962., 64-бет.

ahamiyati, ilm o‘rganishning o‘ziga xos afzalliklari, muayyan kasb yoki hunar o‘rganishning o‘ziga jihatlari, shuningdek, insonda axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalalari xususida so‘z yuritadi. Allomaning fikricha, quyidagi fazilatlarni o‘z qiyofasida mujassam eta olgan insongina haqiqiy ma’noda komil, etuk inson sanaladi: bilimli, mehnatsevar, kamtar, oliyjanob, himatli, saxovatli, saxiy, shijoatli, g‘ayratli, qat’iyatli, mard, jasur, jismonan kuchli, to‘g‘ri so‘z, bergan va’dasiga vafodor, adolatli, do‘stga sodiq, o‘z kuchi va mehnatiga tayanib ish ko‘ruvchi va hokazolar. Mutafakkir tomonidan ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlab yaratilgan asarlar hamda ularning mazmunida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular pedagogik fikr taraqqiyotida o‘ziga munosib o‘ringa egadir.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. IX-XII asrlarda qanday ta’limiy-axloqiy asarlar yuzaga keldi?
2. Ta’limiy-axloqiy asarlar mazmunidagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlang.
3. Ta’limiy-axloqiy asarlarda ifodalangan komil insonga xos hislatlar jadvalini tuzing.
4. Javonmardlik tarbiyasi haqida gapiring. Uning asosiy talablari qaysi asarlarda o‘z ifodasini topgan?

4-mavzu: Sharq pedagogik ta’limotida ta’limiy-axloqiy qarashlar

Asosiy savollar

1.Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya
2.Mirzo Ulug‘bekning ilmiy qarashlari
3.Abdurahmon Jomiyning ta’limiy- axloqiy qarashlari

1-asosiy savolning bayoni

Qariyb bir yarim asr davomida mo‘g‘ullar istibdodi ostida xonavayron bo‘lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib mo‘g‘ul istilochilari zulmidan qutula boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo‘lgan intilish g‘olib keldi. Mo‘g‘ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo‘zg‘oldi, Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo‘zg‘olonlari ro‘y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo‘g‘ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning ohiri va XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixda alohida o‘rin egallaydi. Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. Shuning uchun ham XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixda Sharq Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataladi. Chunki, bu davr madaniyati o‘z tamoyillari, yo‘nalishi, iqtisodiy asosi jihatidan IX-XII asr madaniyatining davomi sanaladi.

Shu bois XIV asr ohiri va XV asrlarda Movarounnahrdagi SHarq Uyg‘onish davri madaniy ravnaqini IX-XII asrlardagi madaniy rivojlanishidan ajratib olib ko‘rsatish mumkin emas. XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat o‘sdi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko‘plab shaharlarida Samarqandga hunarmandlar, olimu fozillar, san’atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm-ma’rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotda madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o‘rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa’diy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o‘rganishga havas kuchaydi.

Amir Temur saltanatni bino qilish va uni mustahkamlash uchun juda katta xizmat qildi. Ana shunday buyuk xizmatlaridan eng muhimi mamlakatda ta’lim tizimini rivojlantirish sohasiga qaratilganligi edi. Chunki uning e’tiqodiga ko‘ra bilimdon va tadbirkor insongina mamlkatning rivojlanishiga hissa qo‘sha oladi.

Shuning uchun ham sohibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirkor kishilarni tarbiyalashga katta e’tibor beradi. Bu borada ta’lim tizimining o‘ziga xos o‘rni bo‘lishi kerakligini anglagan holda maktab va madrasalar qurdiradi. Saltanat poytaxti Samarqand atrofida o‘n ikki bog‘ va qasr yaratadi, shahar arki Ko‘ksaroy, uning atrofida esa Bo‘stonsaroylar bino etadi. Jome’ masjidi, maqbaralar, me’moriy yodgorliklar qurdiradi. Bu ishlarga faqat Amirning o‘zi emas, uning atrofidagi yaqinlari ham turli madrasalar qurishga bosh-qosh bo‘ladilar. Bulardan Amir Temurning amirlaridan Idigu Temur, mavlono Qutbiddin, umr yo‘ldoshi Saroymulkxonim, nabirasi Muhammad Sultonlar ham madrasalar qurdiradilar.

Madrasalarda darslar arab, fors, turkiy (o‘zbek) tillarida olib borilgan. Arab tili grammatikasini o‘rgatishga ko‘proq vaqt ajratilgan. Shuning uchun Sa’diy Sheroziyning «Guliston», «Bo‘ston», Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» va boshqalar o‘qitilgan.

Har bir madrasaning vaqfnomasida tolibi ilmlar, mudarrislar va boshqa xodimlarni qabul qilish, o‘quv ishlarini yuritish belgilangan.84

Ulug‘bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan barobar diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e’tibor berildi. Oliy maktab – madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G‘ijduvonda qurilgan uch madrasada fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo‘lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha ko‘zga yaqqol tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir».

Ulug‘bek 1428-1429 yillarda Samarqandda rasadxona qurdiradi. 1437 yilda ana shu rasadxonada «Ko‘ragoniy jadvali»ni, ya’ni yulduzlar jadvalini tuzadi. U yaratgan kutubxonada esa fanning turli sohalariga oid 1500 jild kitob mavjud edi.

Samarqand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo‘lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo‘lsa, XIV-XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san’at ham rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ilmiy matn ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning «SHohnoma» asarining shu davrda to‘liq matni tuzilib, miniatyuralar bilan bezatilgan.

Bular XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixda uyg‘onish davri bo‘lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo‘la oladi.

Ulug‘bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403-1474) o‘sha davrda Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol o‘yinadi. Astronomiya to‘g‘risida «Risolai dar falakiyot» degan kitob yozgan Ali Qushchini o‘z davrining Ilmolomeyi deyishardi. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziq, yuza, aylana va shu kabi tushunchalar to‘la ta’riflab berildi, tabiiy fanlari va shuning singarilar sohasida boshlang‘ich bilimlar bayon qilindi. Bu asar hamma narsa oddiy va murakkab narsalarga bo‘linib ta’riflanadi.

Sulton Husayn Boyqaro davrida olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko‘chib o‘tdilar. Hirot ilmiy-madaniy markazga aylandi. Alisher Navoiy Hirotda fan, madaniyat, ma’rifat ishlarini yo‘lga qo‘yishda, u erni obodonlashtirishda katta xizmatlar qildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da Hirot to‘g‘risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaharni ko‘rmaganligini aytadi.

---

84 Валихўжаев Ботурхон. Самарқандда олий таълим – мадрасаи олия – Университет тарихидан лавҳалар. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, Самарқанд, 2001. 38-47-бетлар

Alisher Navoiy ham masjidlar, madrasalar, hammomlar, kasalxonalar, hovuz va ko‘priklar, rabotlar qurdirgan. U shaharning eng xushliavo joyida barpo etgan Xalosiya va Ixlosiya binolari guruhi fan, adabiyot, san’atga xizmat qiladigan madaniy markazga aylangan.
Hirotda Alisher Navoiy bilan birga Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, xattotlar Sulton Ali Mashhadiy, kotib Mir Ali, sozanda Qulmuhammad, tarixchilar Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir va boshqalar yashab ijod etgan.
Hirotda xattotlik san’ati rivojlangan. Hatto Buxoroda «Hirot yozuvi» mirzalar, xattotlar tomonidan 1920 yilgacha qo‘llanilganini tarixchilar manbalarda keltiradilar.
Bu davrda Movarounnahrda ham san’at, arxitektura, binokorlik texnikasi ancha ravnaq topdi. Musiqa, tasviriy san’at, madaniyat, adabiyot, ta’lim-tarbiyaga oid qator asarlar yaratildi. Hasan Buxoriy Nisoriyning (1556) «Muzakkir al-alibob» tazkirasi, Mutribiyning «Tazkira-tush shuaro» (1604-1605) to‘plamlari, tarixiy va adabiy yodgorlik bo‘lgan «Boburnoma» o‘sha davrda yaratilgan asarlar orasida o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi. Amin Ahmad Roziy «Haft iqlim» («Etti iqlim») degan geografik bibliografik lug‘at tuzdi.
XVI asrda xattotlik san’ati yuksak darajaga etdi. Sulton Ali Mashhadiy, Mirali Halaviy, Mahmud ibn Ishoq ash-SHixaybiy va boshqalar ustoz xattot bo‘lib nom qozondilar. Darvesh Muhammad ibn Do‘stmuhammad Buxoriy xattotlik san’atining nazariyasi to‘g‘risida asar yozdi.
Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi.
Amir Temur Ko‘ragon ibn Amir Tarag‘ay Kesh (SHahrisabz)ning Xo‘jailg‘or (hozirgi paytda bu qishloq YAkkabog‘ tumaniga qarashli) qishlog‘ida 1336 yilning 9 aprelida tavallud topgan. Uning otasi Amir Tarag‘ay o‘ziga to‘q, badavlat kishi bo‘lgan. Onasi Tegina Begim esa buxorolik taniqli olim Ubaydullohining qizi bo‘lgan.
Temur 7 yoshidan bilim olishni boshlaydi. U yosh bolalik davridan boshlab mard, dovyurak, jasur bo‘lib o‘sadi. Harbiy san’atni mukammal egallaydi. Qur’oni Karimni yod oladi, hadis ilmini o‘rganadi. Dunyoviy bilimlarga ham ega bo‘ladi. Shuning uchun hamiymon-e’tiqodli, halol pok, aql-zakovatli, o‘z e’tiqodiga mustahkam rioya qiladigan, adolatli inson bo‘lib etishadi.
Amir Temur o‘z davlati qudratini yuqori ko‘tarib dunyoga tanitadi.
Amir Temur johillik, yovuzlikni, zo‘ravonlikni yoqtirmas. Insonparvar, adolatli hukmdor edi. Masalan, «Temur tuzuklari» hukmdorning hokimiyatni boshqarish qoidalari hamda odob-axloq me’yorini belgilab beruvchi yo‘riqnomadir. Taniqli olim Bo‘riboy Ahmedov «Temur tuzuklari» podsholarning turish-turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir, deb ta’riflaydi.
Haqiqatan ham, mazkur asarni turmush odobi, hulq-odob qoidalari tartib berilgan an’anaviy asarlar qatoriga qo‘ysak bo‘ladi. Zero, tarixan ta’limiy-axloqiy asarlarning barchasida ham dastlab davlatni boshqarishga oid qarashlar, so‘ng axloq me’yorlari bayon etiladi. SHunga ko‘ra bu asardan ta’limiy-axloqiy asar sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.
Amir Temur bu asarida insonparvarlik, mehnatsevarlik, adolatlilik, vatanga sadoqat, jasorat, to‘g‘rilik, do‘stlik va hamkorlik, mehr va muruvvat ko‘rsatish, sabr-qanoat, yaxshilik kabi hislatlarni ulug‘laydi va hiyonat, bevafo‘lik, sotqinlikni qoralaydi. Hayotda «rosti-rusti» qoidasiga rioya etgan Amir Temurning o‘zi naqshbandiylik tariqatidagi «Dil ba yoru, dast ba kor» tamoyiliga ko‘ra ish tutib, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Davoniy va boshqalar tomonidan targ‘ib etilgan va haqiqiy komil inson, adolatli g‘ukmdor uchun zarur bo‘lgan quyidagi o‘n ikki qoidani o‘ziga yo‘riq qilib olganini ko‘ramiz:
Ko‘rinib turibdiki, Amir Temur mazkur talablarga rioya etgani tufayli uning saltanati rivoj topdi, fan va madaniyat taraqqiy etdi, davlatining nufuzi oshib, nafaqat Sharqda, balki G‘arbda ham mashhur bo‘ldi.
Bu o‘n ikki qoidaga rioya qilishdan tashqari, Amir Temur o‘zining hayotiy tamoyillari haqida shunday degan:
«Men o‘z hayotim mobaynida besh narsaga qat’iy e’tiqod qo‘ydim va hamishalig‘ ularga amal qildim, ular ushbulardir:
Olloh ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig‘insang, istagan murodu maqsadingga etkazadi;
Tafakkur fikrlash va mushohada qobiliyati;

Qilich ul yigitning yo‘ldoshi, el yurt osoyishtaliginining posboni, har qanday dushmanning mahv etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni dinga solmoq mumkin;
imon ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turuvchi xususiyatdir. Imonli odam hiyonat qilmaydi, qarindosh-urug‘lari, elu-xalqning or nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat biladi;
kitob (bitik) – barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir».
Demak, Amir Temur hayoti va faoliyatida o‘zi qat’iy rioya etgan, haqiqiy etuklik belgisi sanalgan din, imon, aql bilan ish yuritish va ilmga e’tiqodni boshqalarga ham tavsiya etgan hamda avlodlarni ham shu ruhda tarbiyalashga e’tibor bergan.
Amir Temur zamonida musiqa, badiiy adabiyot, rassomlik san’ati rivoj topib, yoshlarga she’r yozish, rasm chizish, musiqa asboblarini chalish, kitobxonlik, lison ilmi, husnixat o‘rgatilar edi. Bu san’at turlari o‘sha davr tarbiyasi tarkibiga kiritilgan edi. Sohibqironning buyuk saltanatida ijod qilgan shoirlar, rassomlar, mashshoqlar va boshqalar buning yaqqol dalilidir. Bu davrda katta shahar hunarmandlari ham ashula, raqs, suxandonlik bilan shug‘ullanganlari haqida Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida qayd etilgan.
Amir Temur jismoniy tarbiyaga ham katta e’tibor bergan. SHarqda dilovarlik tarbiyasi, ya’ni yoshlarda mardlik, jasurlikni tarbiyalash asosiy masalalardan sanalgan. Yigitlar bolalikdan merganlik, chavandozlik, suvda suzish, ovchilik, qilichbozlik, shaxmat o‘yini kabilarni mohir murabbiylardan o‘rganib, bu borada mashq qilar edilar. Amir temurning o‘zi kuchli lashkarboshi sifatida harbiy ilmning «Ming askar» uslubi asoschilaridan biri bo‘lgan. Buyuk sohibqiron shunday ta’kidlaydi:
Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning buyuk davlatchilik siyosati – mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish bilan birga tarix oldida ma’rifiy xizmatlari ham beqiyos. Uning ta’lim-tarbiyaga oid o‘gitlari, tutgan siyosati hozir ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan.
Amir Temurning ta’lim-tarbiyaga oid ishlari, qarashlari hozirgi barkamol insonni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi.

2-asosiy savolning bayoni.
Ulug‘bek 1394 yilning 22 martida Eronning g‘arbidagi Sultoniya shahrida bobosi Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishi paytida tavallud topdi. U Shohruh Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, unga Muhammad Tarag‘ay ismi berildi. Lekin uni bobosi alohida mehr bilan «Ulug‘bek» deb atayvergani uchun uning asosiy ismi Ulug‘bek bo‘lib qoladi va jahonga ana shu nom bilan shuhrat tarqatadi.
Ulug‘bekning otasi Shohruh Amir Temurning uchinchi o‘g‘li bo‘lib, Xuroson hukmdori, ma’rifatli, ilm-fanga qiziqqon shoh edi. Onasi Gavharshodbegim ham o‘z davrining oqila, bilimdon ayollaridan hisoblanardi.
...«Taqdir bu ulug‘ zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo‘lishdek mislsiz sinov aynan unga nasib etdi».85
Ulug‘bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlarida o‘tdi. Garchi Ulug‘bek tug‘ilganda bir oz zaif bo‘lgan bo‘lsa-da, harbiy yurishlar davrida chiniqdi.
Amir Temur nabirasi Ulug‘bekning o‘tkir zehnli, aqlu farosatli bo‘lganligi uchun juda sevardi. «Ko‘zimning nuri, saltanatimning umidli niholi», deb erkalatardi. Biroq, Ulug‘bek Mirzo nozik bo‘lib o‘sdi. Buning ustiga ko‘p vaqtini kitob muto‘laa qilish bilan o‘tkazar, davlat ishlariga rag‘bati yo‘q ko‘rinar edi.
Ulug‘bekning tarbiyasi bilan buvisi Saroy Mulk xonim shug‘ullanib, sevimli nabirasiga o‘quv-yozuvni o‘rgatgani, tarixiy mavzularda hikoya va ertaklarni so‘ylab bergani uning hayotida o‘ziga xos maktab bo‘ldi.

85 И.А.Каримов. Истиқлол ва маънавият. –Т., «Ўзбекистон», 1994. 96-бет

1405-1411 yillarda, o‘sha davrning qonun-qoidalariga binoan amir shoh Mahk yosh mirzoga otabegi bo‘lib tayinlangan. Otabegi Ulug‘bekka asosan harbiy va siyosiy tarbiyadan ilm o‘rgatgan.
O‘rta asrlardan saqlanib qolgan kitoblarda ma’lum bo‘lishicha, saltanatga vorislar davlatni boshqarishda muayyan tartib-qoidalar bayon qilingan qo‘llanmalar asosida tayyorlangan. SHulardan biri Shahzodalar va Xonzodalar bilishi zarur bo‘lgan «Suluk ul-muluk» (Podshohlarga qo‘llanma) kitobidir.
Ulug‘bek ham an’anaga ko‘ra mazkur kitobni mukammal o‘rganar va unda ko‘rsatilgan davlatni idora qilish san’ati turli lavozim egalarini tayinlash, soliq to‘plash, ruhoniylar, mansabdorlar hamda boshqa yurtlardan kelgan elchilarni qabul qilish, xayru sadaqa berish kabi tartib-qoidalar bo‘yicha ko‘nikmalarni egallaydi.
Ulug‘bek yoshligidan ko‘p kitoblarni muto‘laa qiladigan bo‘lib, u ayniqsa, matematika, astronomiya ilmlariga qiziqdi.
U bobsining xos munajjimi mavlono Badriddin bilan ko‘p vaqtini o‘tkazar, undan hisob va taqvimdan dars olar, ba’zi kechalari, qor tinib osmon yorishgan paytlarda yulduzlarning o‘rni va harakatini kuzatish bilan mashg‘ul bo‘lar edi.
Taniqli olim Bo‘riboy Ahmedovning ma’lumotlariga ko‘ra mavlono Badriddin Samarqandda bo‘lgan vaqtda Ulug‘bekni Ko‘ksaroydagi xos kutubxonasiga boshlab borib, kutubxonaga yangi kelib tushgan Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»sini ko‘rsatadi. Shu erda mavlono Badriddin Ulug‘bekka alloma al-Farg‘oniy tarafidan bitilgan «Kitob fi javomi ilm an-nujum va usul al harakat as-samoviya» («Yulduzlar haqidagi ilm bilan osmon yoritkichlari harakatining asosini (bir-biriga) qo‘shuvchi kitob»)ni ko‘rsatadilar.
Shunday qilib, Ulug‘bek bolalik yillaridayoq mavlono Badriddin Tusiy, Abu Rayxon Beruniy, Umar Hayyom kitoblari bilan hamda Oqsulot va O‘trorda «Ziji Mahkshohi» bilan tanishdi.
1411 yilda 17 yoshli Ulug‘bek Mirzo Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanishi Temuriylar xonadonida Ulug‘bekning mavqei naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ulug‘bek hokim bo‘lgach, bobosidan farqli o‘laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmadi. Aksincha, u o‘rta asrlardagi boshqa hokimlardan o‘zgacha yo‘l tutdi, ko‘proq ilm-fanga moyil edi.
Haqiqatan ham Qozizoda 1360 yillarda tug‘ilgan bo‘lib, 20-25 yoshlarida, ya’ni Ulug‘bek tug‘ilmasdanoq Temur saroyiga o‘tadi. Natijada Ulug‘bek umrining ilk davridanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy – falakiyotshunos va riyoziyotchilar ta’sirida ulg‘ayadi. SHu sababli uning hayotida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yigirma yoshlarida u o‘z davrining yirik olimlaridan biri bo‘lib shakllandi. U hokim bo‘lgan paytidagi olamshumul o‘zgarishlar butun o‘rta asr madaniyati tarixda betakror voqea bo‘lib qoldi.
Ulug‘bek ixlosmandlaridan G‘yosiddin Jamshid Koshiy 1417 yili Samarqanddan Koshondagi o‘z otasiga yozgan maktubida Ulug‘bekning faoliyati va bilimini quyidagicha ta’riflaydi:
«Allohga va uning ne’matlariga shukronalar bo‘lsinkim, etti iqlimning farmon-bardori, islom podshohi Ulug‘bek donishmand kishidurlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo‘q. Haqiqat shuki, avvalo u kishim Qur’oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlarni va mufassirlarning har bir oyat haqidagi so‘zlarini aqlda saqlaydilar va yoddan biladilar, arabchada g‘oyat yaxshi yozadilar. SHuningdek, u kishim fiqlidan habardorlar: mantiq ma’nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar».86
Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417 yili boshlanib, uch yilda qurib bitkaziladi. Tez orada Ulug‘bek madrasaga mudarris va olimlarni to‘play boshlaydi va shu tariqa uning falakiyotshunoslik maktabi shakllanadi. Bu maktabning asosiy mudarrislari ilmiy ishlarga qulay sharoit va panoh izlab Temur davridayoq Samarqandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi olimlar edi. Qozizodaning maslahati bilan Ulug‘bek otasining mulki Xurosonning Koshon shahridan G‘yosiddin Jamshid Koshiyni chaqirtirdi. Shunday qilib, Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosondan to‘plangan olimlar soni 1417 yilga kelib 100 dan ortib ketdi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, rassomlar, me’morlar bor edi. Lekin yulduzshunoslik va

86 А.Аҳмедов. Улуғбек. – Т., «Фан», 1991. 50-бет.

riyoziyot sohasidagi olimlar sharafliroq va obro‘liroq edi. Ular orasida Qozizoda va Koshiy eng katta yutuqlarnqo‘lga kiritishgan.
Bu erda tilga olingan Qozizoda Rumiy (Salohiddin Musa bin Mahmud) mashhur matematik va astronomdir. U Ulug‘bek madrasasining dastlabki mudarrislaridan biri edi. G‘oyat bilimli bu olimni zamondoshlari «O‘z davrining Aflotuni» deb ataganlar.
Ulug‘bek asarlarining sharhchisi, Qozizoda va Ulug‘bekning iste’dodli shogirdi, samarqandlik matematik va astronom Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchidir. U «O‘z davrining Ilmolomeyi» deb nom olgan. Ali Qushchi ilmiy ishda Ulug‘bekning eng yaqin yordamchilaridan biri edi. Ulug‘bek maktabi namoyandasi sifatida Ulug‘bek asarining sharxchisi, astronom CHalabiy nomi ham diqqatga sazovordir.
Madrasada boshqa mudarrislar bilan bir qatorda, Ulug‘bekning o‘zi ham astronomiya bo‘yicha ma’ruzalar o‘qir edi. Uchinchi darajali algebraik tenglamaga olib kelgan bir gradus yoyning sinusini aniqlash – Ulug‘bek va uning maktabi erishgan ajoyib va eng muhim muvaffaqiyatlardan biri bo‘ldi.
Ulug‘bek “Ziji”, ayniqsa, Hindiston olimlariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Samarqand olimlarining ilmiy an’analarini Hindistonga Boburning o‘zi etgazgan degan ma’lumot bor. Boburning vorislari o‘tmishdagi shohlarga o‘xshab atrofiga olimlarni to‘playdilar va ularning ilmiy izlanishlariga sharoit yaratadilar.
“Zij”ning G‘arbiy Ovro‘pa faniga ham ta’siri katta bo‘ldi. Umuman olganda, G‘arbiy Ovro‘pa Temur va uning farzandlarini, ayniqsa, Ulug‘bekni XV asrdanoq bilardi. Ali Qushchining Istambuldagi faoliyati tufayli Ulug‘bekning olimligi haqidagi xabar ham Ovro‘paga tarqaladi.
1638 yili Istambulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford dorifununining professori Jo‘n Grivs (1602-1652) keladi.
Qaytishida u o‘zi bilan Ulug‘bek “Ziji”ning bir nusxasini Angliyaga olib ketadi. 1648 yili avval “Zij”dagi 98 yulduz jadvalini chop etadi. O‘sha yilning o‘zida Grivs “Zij”dagi jo‘g‘rofiy jadvalni ham nashr etadi. 1650 yili esa u “Zij” birinchi maqolasining lotincha tarjimasini nashr etadi.
Mirzo Ulug‘bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qildi. Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal harita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan mukammal astronomik jadvalini yaratdi.
Uning hayoti va ijodi o‘zbek xalqi ma’naviyati poydevoriga qo‘yilgan tamal toshlaridan biri bo‘lib, xalqimizning o‘rta asrlarda fundamental fanga nechog‘lik buyuk ahamiyat berganini ko‘rsatadi.
Mirzo Ulug‘bek o‘z umrini kelajak uchun, bugungi hayot uchun fido etdi. O‘sha uzoq zamonlarda bashariyat taraqqiyotini o‘ylab yashadi, o‘z avlodlari asrlar osha tartib etajak ma’rifatli bir jamiyatni orzu qildi. Har qanday millat ham Ulug‘bekday farzandni tarbiya etgani uchun g‘ururlanishi tabiiy holdir, chunki bunday insonlar faqat o‘z xalqiga emas, balki umubashariy gullab-yashnash uchun xizmat qiladi va jahonning e’tiborini qozonadi. “Mirzo Ulug‘bekning umumbashariy qadriyatlarga qo‘shgan hissasi beqiyos bo‘lib, u bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va O‘zbekistonning xalqaro obro‘sini oshirish yo‘lida katta xizmat qilmoqda. Buyuk ajdodimiz Ulug‘bek nomi berilgan ma’naviyat maskanlari, mahallalar, ko‘chalar va shaharlar juda ko‘p. Yurtimizda dunyoga kelib ko‘z ochayotgan har o‘n chaqaloqning biriga ezgu niyat bilan Ulug‘bekning muborak ismi berilgan deb aytsak, mubolag‘a bo‘lmaydi.
Bularning barchasi millatimizning buyuk allomaga bo‘lgan cheksiz hurmati va ehtiromlaridan darak beradi”.87
Ulug‘bek ta’lim-tarbiyada mudarrislarning odil va halol bo‘lishiga, o‘z pedagogik mahoratlarini, bilimlarini oshirib borishga, har bir mashg‘ulotni yuksak saviyada o‘tkazishga da’vat qiladi.Ulug‘bek bolalarni tarbiyalashda uy sharoiti va ota-onalarning faoliyatiga yuqori baho beradi, ularni hayotda chidamli, mehnatsevar qilib tarbiyalash juda zarur deydi. Buning dalili sifatida “Zij” ustida ishlash paytidagi qiyinchiliklar haqida shunday deydi: “Yulduzlar jadvalini tuzish maqsadida biz kechayu kunduz ishladik, o‘z mo‘ljallagan maqsadimizga etguncha biz o‘zimizga qadar

87 И.А.Каримов. Истиқлол ва маънавият. - Т., «Ўзбекистон», 1994. 97-98-бетлар.

yaratilgan jadvallarni taqqosladik, qayta tuzdik va shu tariqa yuz qaytalab tuzatishlar kiritgach, o‘n sakkiz yildan so‘nggina o‘z ko‘zlagan niyatimizga etdik”.88

Ulug‘bek axloqiy tarbiya haqida gapirar ekan, bu masalada insonlar orasidagi o‘zaro munosabat, do‘stlik va birodarlik alohida ahamiyat kasb etish kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, haqiqiy va soxta do‘stlarni ajrata bilish lozim, g‘arazli kishi hech vaqt do‘st bo‘lmaydi, kishilarni u to‘g‘ri yo‘ldan ozdiradi. SHu bois g‘arazli kishilardan har qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, yiroq bo‘lish, kasbi va xulq-atvori yaxshi, hamma hurmat qiladigan, xushfe’l kishi bilan do‘stlashish lozimligini tavsiya etadi.

Har bir kishi do‘stona hamkorlik bilan hayotiy muammolarni hal etishi mumkin, kishi yo‘lg‘iz o‘zi, do‘stlarsiz hech narsa qila olmaydi. Uning ta’kidlashicha, har bir insonning axloqiy shakllanishi olimlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham bog‘liqdir, ular o‘rtasidagi yaxshi hamkorlik talabalarning axloqiy tarbiyasida g‘oyat muhimdir. Bunday do‘stona va beg‘araz hamkorlik mohiyatini biz Ulug‘bek faoliyati misolida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Ali Qushchi umrining ohirigacha unga sodiq qoldi. Ulug‘bek o‘zining ko‘p yillik mehnati evaziga yaratilgan “Ziji Ko‘ragoniy” asarini unga ishonib topshirdi va u o‘z navbatida ustozining ishonchini oqladi.

3-asosiy savolning bayoni

Abdurahmon Jomiy XV asrda yashagan mutafakkirlar kabi inson va uning yuksak axloqiy hislatlari, go‘zal fazilatlarini tarannum etish orqali kishilarning baxt-saodatini ta’minlash yo‘llari xususidagi g‘oyalarni ifoda etadi.

Yosh Nuriddin Abdurahmon maktabga juda erta qatnay boshlagan. Uning otasi o‘z davrining ziyoli kishilaridan biri bo‘lganligi uchun o‘g‘lining bolalikdan bilim olishiga katta e’tibor bergan.Abdurahmon Jomiy maktabni tamomlagach, «Nizomiya» madarasida tahsilni davom ettirdi. Madrasada tahsil olish davrida u arab tili grammatikasini puxta o‘rgandi, shuningdek, arab tilida yaratilgan hamda aruz vazni va uning o‘ziga xos jihatlari hamda qofiya ilmidan saboq beruvchi asarlar mazmuni bilan tanishib chiqdi. Ko‘plab badiiy asarlarning sharhlari bilan tanishishga musharraf bo‘ldi. Ayni vaqtda Sa’diddin Qoshg‘ariy, Shayx Bahoviddin Umar va Mavlono Muhammad Asad kabi allomalarning qo‘lida tahsil oldi. Abdurahmon Jomiy badiiy asarlarni yaratishga oid ilmlarni puxta o‘zlashtirganligi hamda nasriy va nazmiy asarlarni birdek muvaffaqiyatli yarata olish qobiliyati bilan ustozlarining tahsiniga sazovor bo‘ldi.

Biroq Abdurahmon Jomiyda o‘zi egallagan bilimlari darajasidan qoniqmaslik hissi ustun edi. Shu bois bilimlarini yanada oshirish maqsadida Samarqand shahriga yo‘l oladi. Mazkur davrda Samarqand shahri ulug‘ mutafakkir Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning boshqaruvi ostida bo‘lib, u madaniyat va ma’rifat o‘chog‘iga aylangan edi. Mirzo Ulug‘bekning rahbarligi ostida matematika, fizika va astronomiya kabi fanlarning rivoji yo‘lida samarali tadqiqotlar olib borilayotgan edi. Samarqand shahrida bo‘lgan vaqtda Abdurahmon Jomiy o‘z zamonasining etuk olimi g‘ozizoda Rumiy tomonidan o‘qilgan ma’ruzalarni tinglashga muvaffaq bo‘ldi. Hirot shahriga qaytgach, mashhur olim, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning sevimli shogirdlaridan biri Ali Qushchi tomonidan sinovdan o‘tkazildi.

Abdurahmon Jomiy 1472 yilda haj safari bilan Makka shahriga otlanadi, ushbu safar jarayonida turli shaharlarda bo‘lib, mashhur shoir, olim va mutafakkirlar bilan muloqotda bo‘ladi, adabiy jarayon, uning o‘ziga xos yo‘nalishlari va mazmuni bilan yaqindan tanishadi. Ikki yillik safardan so‘ng Hirot shahriga qaytadi va o‘zi orttirgan boy tajribaga tayangan holda ijod qiladi.Abdurahmon Jomiy ham o‘z asarlarida yuksak insoniy hislatlarni ta’rif etadi. Tadqiqotchi SH.SHomuhamedov Abdurahmon Jomiyning shaxsi xususida so‘z yuritar ekan, quyidagilarni qayd etib o‘tadi: «Uning shaxsan o‘zi bunga namuna bo‘ldi, poklik shamlaridan biri bo‘lib porladi».

Alloma uchta lirik devoni, ta’lim-tarbiya masalalariga oid «Bahoriston», shuningdek, ettita dostonni o‘z ichiga olgan «Haft avrang» («Etti taxt») nomli asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib o‘ringa ega bo‘ldi.Abdurahmon Jomiyning ta’limiy-axloqiy qarashlarida tarbiya mazmuni,

88 Улугбек. Новые Гураганова астрономические таблицы. Т., Идз. «Фан» АН. РУз, 1994. 31-32-стр.

shakl va uslublari
Abdurahmon Jomiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari «Bahoriston» asari hamda «Haft avrang» («Etti taxt») asarining tarkibidan o‘rin olgan «Tuhfatul ahror» va «Silsilatuz zahab» («Oltin tizmalar») dostonlarida aks etadi. Allomaning “Bahoriston” asari Muslihiddin Sa’diy tomonidan yaratilgan «Guliston» asari yaratilgan uslubda yozilgan bo‘lib, unda Abdurahmon Jomiy haqiqiy kamolotga erishgan inson va uning ma’naviy-axloqiy qiyofasi borasida to‘xtalib o‘tadi.Abdurahmon Jomiy ham boshqa allomalar kabi inson kamolotining birinchi mezoni uning bilimlilik darajasi deya ta’kidlaydi.«Haft avrang» asarining birinchi dostoni bo‘lgan «Tuhfatul-ahror»da ham Abdurahmon Jomiy ilmning inson hayotidagi ahamiyati ko‘rsatib berar ekan, ilm har qanday muammolarni echishda insonga yordam berishini ko‘rsatib o‘tadi.
Alloma o‘zining mashhur «Silsilatuz zahab» («Oltin tizmalar») dostonining «Sevimli aziz farzandga nasihat»” nomli bobida, har bir yoshning bilim olishi zaruriyat ekanligini ta’kidlaydi. Zero, inson umri juda qisqa bo‘lib, u umrni behuda o‘tkazmasligi, shuningdek, muayyan darajada bilimlarni egallagandan so‘ng unga amal qilish lozim, amaliyotda qo‘llanilmaydigan ilm ham behudadir degan fikrlarni ilgari suradi.
Mutafakkir bilim hamda hunarsiz kishini o‘tindan boshqa narsaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o‘xshatadi. U har bir yoshni ilmu hunar sirlarini o‘rganishga, bu yo‘lda sabrli, matonatli bo‘lishga undaydi. Ilmu hunar kishi mushkul ahvolga tushib qolgan damlarda ham asqotuvchi vosita, aksariyat hollarda esa kishi nomini abadiylashtirilishini ta’minlovchi omil ekanligini qayta-qayta uqtirar ekan, har bir inson xoh yosh, xoh keksa, xoh shohu xoh gadoy bo‘lsin hunar o‘rganishi farz ekanligini ta’kidlaydi. Abdurahmon Jomiy insonni shaxs sifatida tarbiyalashda moddiy omillar bilan bir qatorda ma’naviy omillarning roli ham beqiyos ekanligini ta’kidlagan holda, mazkur omillar sirasida musiqaning alohida o‘rni va roli borligini ko‘rsatib beradi. Alloma «Musiqa haqida risola» nomli asarida musiqa ilmining shakllanishi, ohanglarning turlari, maqom kuylarining mazmuni, musiqa asboblari hamda ularning vazifalari borasidagi ma’lumotlarni bayon etar ekan, musiqaning inson ruhiga turlicha ta’sir ko‘rsatishini aytib o‘tadi. Xususan, ayrim musiqiy asarlar insonning ruhiyatiga ijobiy ta’sir etib, uning kayfiyatini ko‘tarsa, ayrim kuy yoki qo‘shiqlar kishida tushkun kayfiyatni hosil qilishiga alohida urg‘u beradi.
Alloma dono hamda nodon odamlarni bir-birlariga qarama-qarshi qo‘yadi. Bilimli, dono insonlar bilan bilimsiz, nodon insonlar o‘rtasida hamkorlik, hamfikrlilik yuzaga kelmaydi, zero, nodon odam hamisha ma’lum xatti-harakatlarning asl mohiyatini to‘g‘ri baholay olmaydi. Abdurahmon Jomiy o‘zining «Bahoriston» asarida mazkur fikrning nechog‘lik haqiqat ekanligini quyidagi misollar orqali ochib beradi:
«Bir bo‘zchi bir olimga pulini omonat qo‘ygan edi. Bir necha kundan keyin o‘ziga kerak bo‘lib qoldi va olimning uyiga keldi. Olim eshigi tagidagi supada o‘tirib mudarrislik qilar, oldida shogirdlari saf tortib o‘tirishar edi.
- Ey, ustod, kechagi omonatni bersang, kerak bo‘lib qoldi, - dedi bo‘zchi olimga.
- Birpas o‘tir, darsim tamom bo‘lsin.
Bo‘zchi kutib o‘tirdi, ammo dars cho‘zilib ketdi, domlaning dars paytida boshini chayqab qo‘yish odati bor edi. SHoshib turgan kosib buni ko‘rib, dars berish bosh qimirlatishdan iborat ekan, deb o‘yladi-da, ustodga:
- Sen kirib omonatni olib chiq, sening o‘rningga men bosh irg‘ab turay, ishim zarur, - dedi.

Nazorat savollari va topshiriqlar
1.Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya sohasiga qanday e’tibor berilgan?
2.A.Temur davrida madrasalarda turli fanlar qanday tillarda o‘qitilgan?
3.«Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir» degan fikr qaerda bitilgan?
4.A.Temur davrida nashr etilgan Firdavsiyning «Shoxnoma» asari haqida nimalarni bilasiz?
5.A.Temurning «Temur tuzuklari» qanday qoidalar haqidagi asar?
6.Amir Temurning hayotiy tamoyillariga izoh bering.
7.A.Temur davrida qanday san’at turlari rivoj topgan?

8.Mirzo Ulug‘bek ta’lim-tarbiya va fan sohasiga qanday hissa qo‘shgan?
9.Abdurahmon Jomiyning ta’limiy-axloqiy g‘oyalariga misollar keltiring.

5-mavzu: XIV asrning ikkinchi yarmi XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

Asosiy savollar
1.Alisher Navoiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari
2. Jaloliddin Davoniyning pedagogik qarashlari

1-asosiy savolning bayoni.
O‘zbek adabiyotining asoschisi, she’riyat mulkining sultoni, ma’rifatparvar shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida tug‘ilgan. Yosh Alisher favqulodda iste’dod egasi bo‘lib, iste’dodining dastlabki ko‘rinishlari u uch-to‘rt yoshga to‘lgan vaqtlardayoq namoyon bo‘la boshlagan. Shu vaqtda u Fariddin Attorning «Mantiq-ut-tayr» asarini yod oladi. Alisherdagi ilm o‘rganishga bo‘lgan kuchli qiziqish hamda ishtiyoqni o‘z vaqtida anglagan ota-onasi uni 1445 yilda maktabga beradilar. Maktabda tahsil olayotgan chog‘larida o‘tmish mutafakkirlari va o‘z zamonasining zabardast shoirlarining ijodlari bilan yaqindan tanishadi. Mazkur davrda badiiy mavjud asarlar mazmunini o‘qib-o‘rganish bilan kifoyalanib qolmay, 10-12 yoshidayoq mustaqil ravishda she’rlar yoza boshlaydi. Yosh Alisher tomonidan yaratilgan she’riy misralar o‘zida yuksak badiiy va falsafiy g‘oyalarni aks ettirar edi. Chunonchi, uning ustozi Lutfiyga o‘qib bergan quyidagi misralari bugungi kunga qadar she’riyat ixlosmandlarining hayratiga sazovor bo‘lib kelmoqda:

Orazin yopqoch ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lgach quyosh.

Qomusiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirgan Alisher Navoiy xalq orasida hurmat-e’tibor qozonadi. Bolalikda birga ulg‘aygan do‘sti sulton Husayn Boyqaro Alisher Navoiyning iste’dodi, bilimi hamda hayotiy qarashlarini yuksak qadrlagan holda uni o‘ziga vazir etib tayinlaydi. Davlat arbobi sifatida faoliyat olib borgan Alisher Navoiy fan va san’atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san’at hamda me’morchilikning rivoji yo‘lida amaliy harakatlarni olib borish bilan birga yoshlarga ta’lim va tarbiya berish masalalariga ham alohida diqqat-e’tibor qaratdi. Ulug‘ mutafakkir o‘zining «Xamsa», «Mahbub-ul-qulub», «Munojot», «Vaqfiya», «Majolis-un-nafois», «Muhokamat-ul-lug‘atayin», shuningdek, Abdurahmon Jomiyning «Arba’in» nomli asarining tarjimasi sifatida yaratilgan «Chihil hadis» («g‘irq hadis») kabi asarlarida ta’lim-tarbiya masalalariga oid qarashlarini ifoda etadi.
Alisher Navoiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari, shu jumladan, komil insonni shakllantirish konsepsiyasining mazmunini o‘rganish muayyan davrlarda dolzarblik kasb etgan. SHu bois bu yo‘lda bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, navoiyshunos olimlar O.SHarafiddinov, I.Sultonov, A.Hayitmetov, N.Mallaev, T.Jalolov, V.Zohidov va S.G‘anieva va boshqalar tomonidan samarali ravishda olib borilgan tadqiqotlar shular jumlasidan sanaladi.
Alloma tomonidan yaratilgan asarlar mazmunidan anglanadiki, ularda ilgari surilgan qarashlarning markazida inson va uning kamolotini ta’minlash g‘oyasi turadi. Mazkur o‘rinda navoiyshunos olim V.Zohidov quyidagi fikrni ifoda etadi: «Navoiy ijodi hamda amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo‘nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir.

Kim olim esa nuqtasida barhaq de oni,
Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki yo‘q ilm axmaq de oni,

Majlisdaki ilm bo‘lsa uchmaq de oni.89

Mazkur to‘rtlikning mazmunida ilmli, oqil odam o‘z maqsadiga erishish yo‘lida uchraydigan har qanday qiyinchilikni engib o‘tadi, kim ilmni o‘ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, zero, ilm insonning baxt-saodatini ta’minlashga xizmat qiladi degan g‘oya o‘z aksini topgan.

«Hayrat ul-abror» dostonining o‘n birinchi maqolatida esa mutafakkir ilmni quyosh, oy hamda kunduz sifatida quyidagicha ta’riflanadi: «Ilm sipehrning baland axtarligidakim, jahl tunin yoritmoq uchun «ayn»i, quyoshdan va «lom», oydin va «mim» kunduzdin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzaraligo‘dakim, g‘aflat chohini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada shahovatdin fasona aytur. Va olimning bovujudi ganju mol tufroq aro najandligi» («ilm osmonning yulduzlaridek baland martaba, mavqega ega, bilimsizlik tunini yoritish uchun arab alifbosidagi «ayn» quyosh, «lom» oy, «mim» esa kunduz belgilarini ifoda etadi; bilimsizlik shomining qorong‘i ko‘rinishi g‘aflat chohini pastlik kechasida zohir bo‘lib, bu kechada olimning butun baxtsiz vujudi quyoshdek yuksak, johilning esa butun borlig‘i boylik, mol bo‘lsa ham tuproqdek xordir”). Ushbu o‘rinda arab tilida aynning ma’nosi quyosh, lomning ma’nosi oy (shaklan oyga o‘xshaydi va abjid hisobida “o‘ttiz”ni bildiradi, mimning ma’nosi esa kunduz ekanligiga alohida urg‘u beriladi90. Alisher Navoiy ilmni quyosh, oy hamda kunduzga o‘xshatish orqali, u insonni baxt-saodatga eltuvchi vosita ekanligiga e’tiborni qaratadi.

Mutafakkir «Mahbub-ul-qulub» asarini yozishdan ko‘zlagan asosiy maqsadini asar muqaddimasida quyidagi tarzda ochib bergan: «Har ko‘cha-ko‘yda yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o‘zimni etkazibman. YAxshi va yomonning fe’l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi hislatlarini tajriba qilibman. Yaxshilik va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tortib ko‘rdim. Xasislar va karamlar etkazgan yara va bergan malliamni ko‘nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon ahlidan ba’zi hamsuhbatlar va davr kishilaridan ayrim do‘stlar bu hollardan xabarsiz va ko‘ngillari bu yaxshilik va yomonliklardan asarsizdir...

Bu xildagi hamsuhbat va do‘stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko‘rinadiki, har toifaning hislatlaridan ma’lumotlari va har tabaqaning ahvolidin bilimlari bo‘lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so‘z ochmasinlar. SHayton sifatlar hiyla va aldovlariga o‘yinchoq bo‘lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu borada kaminaning tajribasi yoshlar uchun etarlidir”.91

Bizga yaxshi ma’lumki, ajdodlarimiz har bir yigitning harbiy-jismoniy mahoratni puxta o‘zlashtirishiga alohida e’tibor berib kelganlar. Merganlik, suvda suzish, qilichbozlik, shuningdek, kurash tusha olish sirlari yosh, o‘ktam yigitlarga bu borada chuqur bilim hamda katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan murabbiylar tomonidan o‘rgatilgan. Yuqorida qayd etilgan fazilatlarni o‘zida namoyon eta olgan yigitlarda mardlik, jasurlik va qahramonlik kabi hislatlar qaror topgan. Mavjud an’anaga muvofiq Alisher Navoiy ham o‘zining badiiy hamda ta’limiy-axloqiy asarlarida yoshlarda ushbu hislatlarni tarbiyalash katta ijtimoiy ahamiyatga ham ega ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Alisher Navoiy asarlarida zamonaviy pedagogika fani asoslari qatorida muhim o‘rin tutuvchi omil o‘z-o‘zini tarbiyalash masalasining mohiyati ham yoritiladi. Bu borada bildirilgan fikr mazmuniga ko‘ra, bolaning o‘zi yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarini o‘zi anglab olishi hamda ularni bartaraf etish uchun imkoniyat yaratish zarur. Mutafakkirning e’tirof etishicha, kimki bu borada yaratilgan imkoniyatdan to‘g‘ri foydalansa, o‘z xatosini anglay oladi va uni bartaraf etishga harakat qiladi, kimki yo‘l qo‘yilgan xatoni anglash va uni to‘g‘rilashga harakat qilish o‘rniga turli bahonalarni ro‘kach qilaversa, xatolari sonining yana bittaga oshishi uchun shaxsan o‘zi sharoit yaratadi. Keltirayotgan bahonasi qancha ko‘p bo‘lsa, uning yanglishishi, xatosi shunchalik katta ko‘rinadi,

89 Алишер Навоий. Назм-ул жавоҳир. Арбаъин. Насойим-ул муҳаббат. Асарлар. Ўн беш томлик. 15-том. – Т., Бадиий адабиёт нашриёти, 1968, 45-бет.

90Алишер Навоий, Хамса (нашрга тайёрловчи П.Шамсиев). – Т., “Фан”, 1960, 94-бет.)

91 Алишер Навоий. Маҳбуб-ул-қулуб. Асарлар. 15 томлик. 13-том. – Т., Бадиий адабиёт, 1966, 192-193-бетлар.

kamchilikning mavjud ekanligini ko‘rsatgan kishi bilan tortishish qancha kuchli bo‘lsa, el oldida uning obro‘si shunchalik pasayadi. Quyida keltiruvchi to‘rtlik ana shu mazmunni ifoda etadi:

Xatog‘a tadorik nedur bexilof,
Ayon qilmoq o‘z sahviga e’tirof.
Vagar qilsa sahvig‘a ijro dail,
Ki yaxshidur aylar iki ancha bil.92

Mutafakkir o‘qituvchining hurmatini qay darajada yuqori baholasa, uning shaxsi va faoliyatiga nisbatan talabni shu darajada oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil, dono, kamtar va ma’naviy jihatdan pok bo‘lishlarini talab etadi. Bu boradagi qarashlarini quyidagicha ifoda etadi: «Mudarris (dars beruvchi) kerakki, g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko‘rgizmasa va olg‘irlik uchun gap-so‘z va g‘avg‘o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo‘lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o‘rin bo‘lmasa. YAramasliklardan qo‘rqsa va nodonlikdan qochsa, nainki: o‘zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa: ishlarni qilmoq undan sodir bo‘lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo‘lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir».

2 asosiy savolning bayoni.
XV asrda faqat Eronda emas, balki Xuroson va Movarounnahrda ham ijtimoiy-falsafiy, ma’rifiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri Jaloliddin Davoniydir. Davoniyning ta’limiy-axloqiy qarashlari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiylarning ijtimoiy fikrlari bilan ko‘p jihatdan tutash keladi. Ular dunyoqarashining mag‘zini komil inson tarbiyalash uchun yuksak insoniy fazilatlarni tarkib toptirish tashkil etadi.
Jaloliddin Davoniy boshlang‘ich ma’lumotni qishlog‘ida olgach, Sherozga keladi va u erda Dorul ay-tom madrasasida tahsil ko‘radi. Madrasada u musulmon qonunshunosligi (fiqli) bilan maxsus shug‘ullanadi hamda ilm-fan sirlarini mashhur odamlardan o‘rgana boshlaydi.Uning otasi Sa’diddin ham o‘z zamonining fozil kishilaridan bo‘lib, o‘g‘lining ham ilm-fanni chuqur egallashiga yordam beradi. Madrasani tamomlagach, Davoniyning ilmiy qobiliyatidan xabardor bo‘lgan eron hukmdori Sulton Yoqub Oq qo‘yinli tomonidan Sheroz shahriga qozi etib tayinlanadi. U madrasada ham mudarrislik, ham qozilik vazifalari bilan shug‘ullana boshlaydi. Davoniy faqat o‘z yurtida emas, balki o‘zga mamlakatlarda ham shuhrat qozonadi. Turli shaharlardan talabalar kelib, unda tahsil oladilar va ular orasidan ham etuk fozilu fuzalolar etishib chiqadi.Davoniy keyinchalik Eron, Iroq, Hindistonda, Koshon, G‘ilon, Tabriz, Hirot shaharlarida sayohatlarda bo‘lib, ko‘plab olimlar bilan hamsuhbat bo‘lib, o‘zining bilimi, dunyoqarashini yanada boyitgan.
Demak, Davoniyning etuk olim bo‘lib etishishida Yaqin va O‘rta Sharq, Movarounnahrdagi etuk olimlar bilan hamkorlik qilishi muhim omil bo‘lgan. Davoniyning madrasadagi uzoq vaqt mudarrislik faoliyati uning ta’lim-tarbiya to‘g‘risida o‘z qarashlariga ega ekanligini ko‘rsatadi.
H.Aliqulov tadqiqotlarida keltirilishicha, Davoniyning hayoti va faoliyati, ilmiy-pedagogik merosini Sharq va G‘arb olimlari Xondamirning «Habib us-siyar» kitobiga tayangan holda tadqiq etganlar. Samarqandlik olim Abu Tohir Xo‘janing «Axloqi Muzaffariy», SHamsiddin Somiyning «Qomus ul-allom» asarlarida alloma haqida ma’lumotlar berilgan. Lekin H.Aliqulov Jaloliddin Davoniy haqida batafsil ma’lumot Ali Davoniyning «Jaloliddin Davoniy» nomli kitobida, A.M.Shastrining «Islom madaniyati haqida lavhalar» nomli asarida, ingliz tilida chop etilgan «Islom qomusi», M.Duayt va D.D. Donaldsonlarning kitoblarida ancha batafsil aytib o‘tilganini ta’kidlaydi.
H.Aliqulovning tadqiqotlaridan ma’lum bo‘lishicha, Davoniydan quyidagi ilmiy meros qolgan: «Risolai isboti vojib» (Zaruriyatning isboti haqida risola), «Risolat ul-mufradot» (Moddalar haqida

92 Ўша асар, 232-бет.

risola), «Risolat ul-huruf» (Harflar haqida risola), «Risolati fi tavjix ul-tashbix» (Majoz talqini haqida risola), «tariqati tarbiyat ul-avlod» (Bolalarni tarbiyalash usuli), «Arznoma» (Armiyani boshqarish qoidalari) kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, Davoniyning she'rlari ham «Foniy» taxallusi bilan chop etilgan. Lekin dunyoga mashhur bo‘lgan, fors tilida yozilgan «Aliloqi Jaloliy» asari dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilingan va shuhrat qozongan. Mazkur asar 1470-1478 yillarda yaratilib, G‘arbiy Eron Hokimi Uzun Hasan Oq qo‘yinliga bag‘ishlangan. Bu asar1839 yilda V.F.Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. 1911 yilda Kalkuttada nashr qilingan. 1948 yilda Eshonjon Ibn Muhammadxo‘ja tomonidan o‘zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan. Mazkur asarni rus sharqshunosi A.A.Semyonov, Re va Braunlar fikriga tayangan holda uni musulmon SHarqidagi mashhur kitoblar qatoriga qo‘shadi, deydi tadqiqotchi.93

Haqiqatan ham ushbu asar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy va boshqalarning axloq mavzuidagi asarlari qatorida turadi va axloqiy tarbiyada o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan asar sanaladi.

«Axloqi Jaloliy»da ham inson kamoloti uchun eng zarur bo‘lgan axloqiy fazilatlar yo‘llari va usullari bayon etiladi.«Axloqi Jaloliy» uch qismdan iborat. Birinchi qism – axloq faniga, ikkinchi qism - «Odamning ichki holati» oilaviy hayotiga, uchinchi qism - «Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati», deb atalib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko‘tariladi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo‘lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, xalqning farovon hayot kechirishida podsholarning o‘rni, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o‘rni bayon etiladi.

Davoniy «Axloqi Jaloliy»da ijtimoiy-siyosiy masalalarga qayta-qayta murojaat etadi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo‘lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, adolatli va adolatsiz podsholar, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o‘rni, aqliy va axloqiy tarbiya, insonda ijobiy hislatlarni tarkib toptirish masalallari va boshqalar shular jumlasidan.

Davoniy o‘z asarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. U o‘tmish olimlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridagi an'analarni rivojlan-tirgan holda o‘z qarashlarini o‘tkir rulishunos olim sifatida ham talqin etadi, uning fikricha bola yaxshi fazilatlarni ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada his-tuyg‘u juda erta shakllana boradi, u ulg‘aya borgan sari ayrim juziy narsalarni ham ajrata boshlaydi, tana a'zolari mustahkamlanadi, narsa va hodisalarni bir-biridan ajrata boshlaydi, yaxshilik va yomonlik to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘la boshlaydi, aqli to‘lishib, ongi o‘sadi, deydi olim. Ana shu paydo bo‘lgan sezgi va aql orqali tashqi dunyoni bilishi mumkin deydi.

O‘rta o‘ta ta'sirchan va taqlidchan bo‘lishini ta'kidlar ekan, olim yaxshi fazilatni ham, yomon fazilatni ham u tezda qabul qilaverishi mumkinligini alohida uqtirib o‘tadi. Bola qalbini naqsh solinadigan, suratlarni osonlikcha tushirish mumkin bo‘lgan taxtaga o‘xshatadi.

Davoniy ayniqsa, dehqonchilik kasbini ulug‘laydi. Davoniy ham barcha mutafakkirlar kabi dehqonning mehnatiga yuqori baho beradi. Zero, dehqon odamlarni oziq-ovqat, moddiy boylik bilan ta'minlaydi. Olim agar dehqon bo‘lmasa, inson zoti mayda savdogarlardek yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lur edi, chunki boshqa toifadagi kishilar inson hayot kechirishi uchun ulardek moddiy ne'mat yarata olmaydilar, balki bunyod qilingan narsalarni boshqa kishilarga beradilar, joydan-joyga olib boradilar, shaklini o‘zgartiradilar, deydi. Demak, Davoniy dehqon mehnatini boshqa kishilarning mehnatidan yuqori qo‘yadi. Ko‘rinib turibdiki, uning dehqon mehnati haqidagi fikrlari boshqa Sharq mutafakkirlarining fikri bilan hamohangdir. Masalan, Navoiy dehqon mehnatidan hatto qurt-qumursqalar, hasharotlar, hayvon va parrandalar ham bahramand bo‘lishini o‘z vaqtida haqqoniy baholagan.

Davoniyning tarbiya tizimida odamlarda uchraydigan nuqson va yaramas odatlarni bartaraf etish haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovor. Masalan, Davoniy salbiy ruhiy quvvatlar: jahl, g‘azab, hasad, g‘amginlik, dangasalik va boshqalar haqida gapirib, bular ruhiy jarayon bo‘lib, ularni davolash yo‘llari, usullari haqida gapiradi. Chunki bu ruhiy kasalliklar ham inson tanasidagi

93Аликулов Ҳ. Жалолиддин Давоний. – Т., “Ўзбекистон”, 1992, 20-бет.

kasalliklarga o‘xshab, davoga muhtoj deydi, uning fikriga ko‘ra kishi tanidagi kasalliklarni tibbiyot yo‘li bilan davolansa, kishilarning yaramas odatlarini ruhiy ta’sir natijasida davolash mumkin. Jismoniy davo ovqat yoki dori-darmon vositasida amalga oshadi, ruhiy kasalliklarni davolash esa, yuqoridagi usullardan birmuncha farq qiladi. Ruhiy kasalga chalingan odam eng avvalo yaxshi xatti-harakatlar qilishga odatlanishi zarur. Shundagina u yomon odatlardan xalos bo‘ladi, deydi.
Davoniy insoniy hislatlar: mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, insoniylik, yaxshilik, xushmuomalalik, odillik, donolik va boshqa hislatlarni ijobiy baholaydi. U insondagi barcha hislatlarni aqliy faoliyat bilan bog‘laydi.
Demak, Davoniyning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya va axloq to‘g‘risidagi fikrlari ta’lim-tarbiya tarixda muhim ahamiyatga ega. CHunki u yuksak axloqiy fazilatlarni tarannum etadi, kishilarning baxt-saodatli bo‘lishi uchun tavsiyalari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Davoniyning aqliy tarbiya, insoniy fazilatlarni tarkib toptirish borasidagi tarbiya usullari Sharq pedagogikasining qimmatli xazinasi bo‘lib hisobla-nadiki, bu tavsiyalardan biz ta’lim-tarbiya jarayonida foydalansak, milliy qadriyatlari-mizga murojaat etgan bo‘lamiz va u ta’lim-tarbiyani takomillashtirishda eng munosib yo‘l bo‘ladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar
1.Alisher Navoiy qanday ta’limiy-axloqiy fikrlarni ilgari surgan?
2.Alisher Navoiy ustoz-murabbiy fazilatlari haqida nima degan?
3.Jaloliddin Davoniyning ta’limiy-axloqiy qarashlari qanday bo‘lgan?
4.Jaloliddin Davoniyning qanday asarlarini bilasiz?
5. Jaloliddin Davoniyning «Axloqi Jaloliy» asari haqida nimalarni bilasiz?

6-mavzu: XVII asrdan XX asrning birinchi yarimigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji

Asosiy savollar
1.Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy ta’limiy-tarbiyaviy qarashlari.
2.Turkistonda diniy-islomiy tarbiyaviy muassasalar va pedagogik fikr taraqqiyoti
3. Turkistonda jadidchilik harakati va ta’lim-tarbiya taraqqiyoti
4. Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Rus-tuzem maktablari
5. 1917-1991- yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar

1- asosiy savolning bayoni.
Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy haqida bizgacha juda oz ma’lumot etib kelgan. Lekin hozirgi paytda bizga ma’lum bo‘lgan “Odob as-solihin” asarining o‘ziyoq bizga uni mashhur pedagog olim sifatida tanitadi.
Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy 1740 yilda Qoshg‘arda kambag‘al dehqon oilasida tug‘ilgan va 1843 yilda u shu erda vafot etgan. Biz olimning qay darajada tarbiyashunos ekanligini u tomonidan yaratilgan asarlarning mazmunidan bilamiz. Bizgacha uning “Odob as-solihin”, “YAxshi kishilar odobi”, “Zubdat al-masoyil”,“Masalalarning qaymog‘i”, “Dur al-muzohir” “Ko‘makdoshlarning durdonasi”, “Tazkirai xojagon” “Xojalar tazkirasi” nomli asarlari etib kelgan.
Sharqning buyuk allomalari – Yu suf Xos Hojib, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Sa’diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuksak ahloqiylikni shakllantirishga oid yirik asarlar, hikmatlar yaratganlar. Shu bilan birga hulq-odob tarbiyasiga oid “Axloqi Muhsiniy”, “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Nosiriy”, “Qobusnoma” kabi asarlar yaratilgan.
O‘zida shaxs va uning tarbiyasini yo‘lga qo‘yish masalalarini aks ettiruvchi asarlarni yaratish an’anasi mavjud bo‘lgan davrda Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy tomonidan turkiy tilda “Odob as-solihin”, “YAxshi kishilar odobi”, “Zubdat as-masoyil”, “Masalalarning qaymog‘i” nomli asarlar yaratildi. “Odob as-solihin” asari 5 marta, 1889 hamda 1901 yillarda Toshkent shahrida va 1891, 1892 hamda 1986 yillarda Istambul shahrida qayta nashr etilgan. Mazkur asarning nomi va

mazmunidan ham anglanib turganidek, unda ilgari surilgan g‘oyalar insonning hayoti davomida zarur ahamiyat kasb etuvchi hulq-odob qoidalari xususida kishilar, shu jumladan, yoshlarga muayyan darajada ma’lumotlar berishga xizmat qiladi. “Odob as-solihin” asarida ijtimoiy hayot hamda kundalik turmushda har bir inson tomonidan qat’iy amal qilinishi zarur bo‘lgan zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) odob va ahloq qoidalari, ularning ijtimoiy ahamiyati, yoshlar tarbiyasini yo‘lga qo‘yishdagi o‘rni va roli borasida batafsil so‘z yuritiladi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy tomonidan yaratilgan “Odob as-solihin” asari muallifning o‘zi ta’kidlab o‘tganidek, muqaddima va 7 bobdan iborat bo‘lib, har bir bob o‘zida 4 faslni aks ettiradi.
Muqaddimada asarning maqsadi ochib beriladi. Asarning yozilishidan ko‘zda tutilgan maqsad borasida so‘z yuritilar ekan, insonning ijobiy hulq-atvorga ega bo‘lishini taqozo etuvchi ijtimoiy zaruriyat mohiyati batafsil ochib beriladi. Asarda ilgari surilgan asosiy g‘oya – insonlarning ijobiy xulq-atvorga ega bo‘lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy farovonlikni qaror toptirishruvchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iboratdir. Alloma mazkur g‘oya mohiyatini sharhlar ekan, inson odob-axloq qoidalarini egallay olmasa hamda ijobiy hulq-atvori bilan muaddab (odobli) va muzazzab (toza) bo‘lmasa, nafaqat o‘zi, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi degan qarashni ilgari suradi. Ayi o‘rinda quyidagi masnaviyni keltiradi:

Beadab tanho va xudro dosht bad,
Balki otash dar xama ofoq zar.

(Adabsiz nafaqat o‘zi uchun yomonlik qiladi,Balki butun dunyoga o‘t qo‘yadi).
Shunday ekan, har bir inson ichki hamda tashqi odob qoidalarining mohiyatini to‘laqonli ravishda anglab, ularga qat’iy amal qilishi zarur. Inson odob-axloq qoidalarining mohiyatidan qanday yo‘l va usullar orqali boxabar bo‘lishi mumkin degan savolga javob berar ekan, alloma ular etuk mutafakkirlar tomonidan qimmatli, mo‘o‘tabar kitoblarda jam etganligi, mazkur kitoblarning mazmuni bilan tanishish orqali odob-axloq qoidalari va ularga amal qilish shartlari xususida muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati mavjudligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Asarda komil inson bo‘lib etishishda kundalik hayot hamda amaliy turmushda o‘ziga xos ahamiyat kasb etuvchi botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) odob-axloq qoidalari: salomlashish, ruxsat so‘rash, muloqot, uxlash, yo‘l yurish, mehmon kutish, ziyofat, ovqatlanish, shuningdek, er-xotin munosabatlarini yo‘lga qo‘yish odobi va ularga amal qilish shartlari borasida so‘z yuritiladi. Suhbat ahlining o‘zini tutishi, tozalik, ozodalik hamda safarga chiqish qoidalari ham asar mazmunining markaziy qismidan o‘rin olgan.
Birinchi bob salomlashish, ko‘rishish, qo‘l olishish hamda ruxsat so‘rash qoidalari to‘g‘risida ma’lumotlar berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mazkur bob to‘rt fasldan tashkil topgan.
Ma’lumki, Sharq xalqlari tomonidan tan olingan axloqiy qoidalarga ko‘ra biror kimsa o‘zgalar xonadoniga tashrif buyursa, eshikdan xonadon sohiblarining ruxsatsiz kirib boravermay, ma’lum qoidalarga rioya qilishi shart. Ana shu qoidalarning eng muhimlari deb, Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy tashrif buyuruvchi kimsa o‘zining kelganligidan xonadon sohiblarini ogoh etishi (eshikni qoqishi yoki yo‘talishi), ushbu choraga nisbatan ichkaridan javob berilgach kirishga ruxsat so‘rashi, so‘ngra ichkariga kirishi kerakligi lozimligini bayon etadi.
Ikkinchi faslda esa salomlashish odobining o‘n ikki qoidasi borasida fikr yuritiladi. Mazkur o‘rinda salom berish va alik olish masalasida bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan munozaraga nuqta qo‘yilgan. Muallifning fikriga ko‘ra, salom bermak sunnat, javobi farzu ayyondir. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning e’tirof etishicha, salom quyidagi holatlarda quyidagi kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiqdir: ulug‘ kichikka, otliq piyodaga, yuruvchi o‘ltirguvchiga, ozchilik ko‘pchilikka, xonaga kirib keluvchi, xona ichkarisida o‘tirgan kishilarga salom bergay”, deb ta’kidlar ekan, bir kishi ko‘pchilik oldiga kirib kelganda, birinchi bo‘lib salom berishi, ko‘pchilik esa baravar ovoz chiqarmasdan salomga alik olishi joizligiga alohida e’tiborni qaratadi. Allomaning salomlashish odobi xususidagi fikrlari bilan tanishar ekanmiz, ta’lim muassasalarida muallim sinf xonasi yoki auditoriyaga kirib kelganda, “Kim oldin salom berishi kerak?”, degan muammoning echimini topgandek bo‘lamiz.

Mazkur bobda yana salomlashishdagi hatti-harakatlar, jismonan zaif yoki bemor kishilar tomonidan amal qilinishi lozim bo‘lgan, shuningdek, erkak va xotin-qizlar o‘rtasida kechuvchi salomlashish qoidalari, salom bermaslik va javob qaytarmaslik joiz deb topilgan holatlar borasida ham muhim tavsiyalar bayon etilganki, ushbu tavsiyalar bugungi kun uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir.

Birinchi bobning uchinchi faslida berilgan muloqot (uchrashuv) odobiga oid tavsiyalar ham diqqatga sazovor. Bunda uchrashganda qo‘l berib ko‘rishish, ekin qo‘l uchi bilan emas, astoydil, biroq qo‘lni silamay, ochiq yuz bilan ko‘rishish odobi bayon etiladi. Quchoqlashib ko‘rishish, safardan qaytgan kishi hamda yosh bolalar bilan ko‘rishish, o‘pib ko‘rishish odoblari bayon etiladi.94

Ikkinchi bobda uxlamoq, kiyim kiyish, yo‘l yurish odoblari haqida fikr yuritiladi. Masalan, uxlash oldidan eshiklarni mahkamlab yopish, idishlarning og‘zini berkitish, o‘rnidagi ko‘rpa-to‘shaklarni bir bora qoqib yozish, o‘choqdagi olovni hamda chiroqni o‘chirish, uxlaydigan o‘rnini yumshoq qilmaslik, o‘ng qo‘lga bir oz suyanib yotish tavsiya etiladiki, ushbu qoidalarning ahamiyati ularga rioya qilmaslik natijasida ro‘y bergan noxush voqealar misolida ochib beriladi.

Libos kiyish qoidalari ham xulq-odob me’yorlarining tarkibiy qismi sanaladi. Bizga yaxshi ma’lumki, libos kiyish borasida ham ma’lum mezonlar qabul qilingan bo‘lib, ularga amal qilish kishini noqulay vaziyatga tushib qolishdan saqlaydi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy ushbu bobda libos kiyish qoidalari va ularga amal qilish shartlari yuzasidan mulohazalarni ilgari suradi. Bu borada muallif kishilar tomonidan amal qilinishi o‘ta muhim sanalgan mezonlar quyidagilar ekanligiga alohida urg‘u beradi: libos tanlashda kishining imkon darajasi, moddiy holati, mavqei, nasl-nasabi, yoshi, jinsi, shuningdek, joyi (geografik mintaqa, shahar yoki qishloq, faoliyat turi va hokazolar) inobatga olinishi lozim. Tanlangan libosning qulayligi, faslga mos bo‘lishi ham maqsadga muvofiqdir. Libosni toza tutish, o‘ta darajada hashamdor bo‘lgan liboslarni kiymaslik, yaxshi libos kiyganda manmanlik qilmaslik, kiymaydigan ortiqcha liboslarni muhtojlarga ino‘om qilish xususida berilgan tavsiyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Yo‘l yurish qoidalari ham har bir inson bilishi zarur bo‘lgan qoidalardan biri bo‘lib, muallif mazkur masalaga ham o‘z e’tiborini qaratadi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning tavsiyalariga ko‘ra, yo‘l yurganda atrofga alanglamaslik, jamoat joylarida esa boshqalarga xalal bermaslik, ularning hurmatini saqlash, hamrolilar ishtirokida yo‘l yurilayotgan bo‘lsa, ularning yoshi, mavqei, salomatlik darajasini inobatga olish, yo‘lda tanish kishi uchrab qolsa, u bilan salomlashib, tez o‘tib ketish, agar zarur bo‘lsa, yo‘l chetiga chiqib so‘zlashish, yo‘lda og‘iz suvi yoki balg‘amni tupursa yuzini berkitish, uni o‘ng tomonga yoki oldiga emas, chap tomoniga yoki orqaga tashlash, muhtojlarga duch kelib qo‘linsa, ularga yordam berish, kishilarga aziyat etkazadigan narsalarni yo‘ldan olib tashlash, mazlumlarning g‘am-anduhlariga sherik bo‘lib, ularga yordam ko‘rsatish, kishilarning yaxshi amallarini ma’qullab, ularni yomon ishlardan qaytarish maqsadga muvofiq ekanligi bayon etiladiki, ushbu qoidalarni bilish katta-yu kichikka birdek zarurdir.

Uchinchi bobda suhbatlashish odobi borasida so‘z yuritiladi. Bizga yaxshi ma’lumki, suhbatlashish odobi va uning shartlariga amal qilish ijtimoiy munosabatlarning mo‘o‘tadil kechishini ta’minlovchi asosiy va o‘ta muhim omillardan biri bo‘lib, aksariyat mualliflar tomonidan yaratilgan hamda axloq-odob muammolariga bag‘ishlangan asarlar mazmunidan alohida o‘rin olgan. «Odob as-solihin» asarida ham muallif suhbatlashish odobi va uning o‘ziga xos jihatlari borasida batafsil so‘z yuritadi.

Suhbatning yaxshi niyatlarga boy hamda beg‘araz bo‘lishi muhim sanaladi. Muayyan mavzularda tashkil etilayotgan suhbat (bahs-munozara)ga tanning tozaligiga erishgan, shuningdek, og‘iz va tishlarni tozalagan holda pokiza libos bilan tashrif buyurish, suhbat ahlining bir-birlariga hurmat va iltifot ko‘rsatishlariga erishish, ulug‘larga e’tiborini qaratish, o‘tirish qoidalariga rioya etish, ahli suhbat kirganda va chiqqanda o‘rindan turish va ulug‘larni yuqoriga o‘tkazish, beadab so‘zlar,

94 Мисоллар “Шарқ юлдузи” журналининг 1990 йил 5-сонида эълон қилинган Муҳаммад Содиқ Қошғарийнинг “Одоб ас-солиҳин” асаридан олинди. Кейинги ўринларда ҳам мазкур манбага таянилади. Нашрга тайёрловчи-лар: М.Хасанов, У.Содиқов.

yomon hatti-harakatlar hamda noo‘rin jimlikdan saqlanish, barchaga yaxshi muomalada bo‘lish, ularni izzat qilish, aksa kelsa og‘zini to‘sib, past ovozda, engil aksa urish, suhbat ahliga ish buyurmaslik, ularga beminnat xizmat ko‘rsatish, do‘st va notanishlarga bir xil ochiq chehra, go‘zal hulq va odob bilan muomalada bo‘lish, aka-ukalar, opa-singillarning xatosini kechirish hamda ularning aybini yuzlariga solmaslik, agar joiz bo‘lsa ularga boshqalarning e’tiboridan chetda nasihat qilish, suhbat jarayonida ishtirok etayotgan biror kishining yomon qilig‘i yoki qabih fe’liga baho bermaslik, zaruriyat yuzaga kelgan holda uni suhbatdan chetlatish chora-tadbirini ko‘rish va hokazo kabi odob-axloq qoidalariga rioya etish har bir kishining insoniy burchi ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Ahli suhbatga noloyiq hatti-harakatlardan qochish maqsadida suhbat ishtirokchi-larining xotirjamligini buzgan kimsaga o‘z xatti-harakatlarining noo‘rinligini imo-ishora bilan tushuntirish, u o‘zini o‘nglab ololmasa zarur holatda uni davradan chetlatish, mazkur chora-tadbirni ortiqcha shov-shuvsiz amalga oshirish, suhbat chog‘ida pinakka ketmaslik, o‘zini o‘zgalardan yuqori tutmaslik, suhbatdoshning so‘zini bo‘lmaslik, sukut saqlashda ham ma’lum me’yorlarga amal qilish, ortiqcha takallufga yo‘l qo‘ymaslik, hamsuhbati bilan bahs qilmaslik, ammo tortishish mumkinligi, g‘azab kelganda uni to‘xtata olish, ortiqcha qiziqchilik, hazil-mutoyiba, xushomadgo‘ylik qilmaslik, bu borada me’yordan chetga chiqmaslik, o‘zgalarning shaxsiyatini kamsituvchi laqablarni tilga olmaslik, davra ishtirokchilari orasida bir-biri bilan pinhona va boshqalar tushunmaydigan tilda pichirmaslik, pinhona so‘zlashayotgan hamrolilarning so‘zlariga quloq solmaslik kabi qoidalarning mohiyati asar mazmuni orqali to‘laqonli yoritilib beriladiki, ulardan xabardor bo‘lish har bir kishi uchun o‘ta muhimdir. Asarda ilgari surilgan er va xotin o‘rtasida tashkil etiluvchi munosabatlar odobiga oid qarashlar ham alohida diqqatga sazovordir.

Asarda, shuningdek, ayol kishining oiladagi o‘rni va burchlari yuzasidan ham bir qator fikr-mulohazalar bayon etiladi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning nuqtai nazariga ko‘ra, ayol kishining oiladagi eng muhim burchi quyidagilardan iboratdir: xotin erining ruxsatisiz hech joyga bormasligi va hech kimni uyiga keltirmasligi, erining mol-dunyosini sarf etmasligi, o‘z zimmasidagi mas’uliyatlarni oqilona bajarishi, eri xursand bo‘lsa - xursand, g‘amgin bo‘lsa - g‘amgin bo‘lishi, erining topish-tutishiga qanoat qilishi, er vafot etganda motam tutib, marliumning ruhini pok saqlashi va hokazolar. Yuqorida tilga olingan pandlar bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy “Odob as-solihin” asarida, kasal holini so‘rash, ta’ziya va musibat odoblari haqida ham fikr yuritadi. Ushbu holatlarda amal qilinadigan qoidalar mohiyatidan xabardor bo‘lish ham har bir kishi uchun foydadan holi bo‘lmaydi. Bemor holini so‘rash qarindosh-urug‘, qo‘ni - qo‘shni, yoru birodar, shuningdek, do‘st uchun farz ekanligi, bemorning millati va diniy e’tiqodidan qat’iy nazar, uning yoniga ochiq yuz bilan kirish, unga ko‘nglini ko‘taruvchi so‘zlar bilan murojaat qilish, bemor oldiga bashang kiyinib yoki kir libosda bormaslik, bemor yotgan xonaga kulib kirib, uning bosh tomoniga yaqin o‘tirish, ko‘p so‘zlanishib bemorni toliqtirib qo‘ymaslik, qo‘lni pEshonasiga qo‘yib hol so‘rash, bemorni kun yoki kunora kelib toliqtirib qo‘ymaslik, bemorning ko‘ngli tilaydigan narsalarni so‘rab-surishtirib, ularni topib kelish, ammo bemorning muolajasida uni harom narsalardan saqlash, bemor oldida ko‘p o‘tirmaslik, agar bemor oldida uzoq vaqt qolish zaruriyati yuzaga kelsa, uning ko‘ngliga yoqadigan, xush keladigan so‘zlar yoki hikoyatlardan so‘zlab o‘tirish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg‘u beradi.

O‘z navbatida bemorning kasalidan nolishi mumkin emasligi, og‘ir dardga chalinganda o‘ziga o‘lim tilamasdan umr tilashi, dardi og‘irlasha boshlaganini sezganda gunohlaridan tavba qilib, o‘zgalar hamda qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, yoru birodar hamda farzandlar oldidagi qarzlarini ado etib, farzandlari, qarindosh-urug‘i va do‘stlaridan rozi-rizo‘lik so‘rashi, vasiyat qilish, shuningdek, ularga sabr-qanoat tilashi eng muhim qoidalar ekanligi ta’kidlanadi.

Asarda musibat odoblari xususida ham bir qator fikrlar bayon etilganki, ushbu qoidalardan xabardor bo‘lish, kishilar, shu jumladan, yoshlar uchun ham zarurdir.Biron mo‘minning vafoti haqidagi xabarni eshitilganda boshiga musibat tushgan kishilarga ta’ziya izhor etiladi. Ushbu tadbir dafn marosimidan oldin yoki keyin amalga oshirilishi mumkin. Ta’ziya bildirish uch kungacha joiz, undan so‘ng makruh deyiladi. Tobutni olib chiqib ketayotganlar sukut saqlashlari lozimligi, ayollar tobut ko‘targan erkaklarga hamroli bo‘lib, eshikka chiqmasliklari, boshiga musibat tushgan kishilar

yig‘ilganlarida ovozni baland qilib, fig‘on chekmasliklari, mayit dafn etilgach, har kim o‘z ishiga ketishi, bir erda yig‘ilib o‘tirmasliklari kerakligi, yig‘ilish uyushtirish uchun turli tadbirlarni izlab topish va ularni o‘tkazish bid’at ekanligi, biroq qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘, yoru do‘stlarning turli taomlarni tayyorlab, boshiga musibat tushgan kishilarning xonadonlariga yuborish odamgarchilikning muhim ko‘rinishlaridan biri ekanligi ta’kidlab o‘tiladi.

Shu o‘rinda muallif qabrlarni ziyorat etish odobiga ham to‘xtalib o‘tadi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning e’tirof etishicha, qabrlarni ziyorat etish odobi quyidagilardan iboratdir: qabristonni tonggi ziyorat qilish ko‘proq erkaklarga mansub, ota-onaning qabrlarini ziyorat qilish xotinlarga ham ijozat etiladi. Qabrlarni oyoq osti qilmaslik, qabr ustida o‘tirmaslik kabi holatlar ham qabristonlarni ziyorat qilish odobining muhim unsurlari ekanligi ko‘rsatilib o‘tiladi.

Asarda ziyofat uyushtirish va mehmon kutish odobi borasida ham ko‘pgina ibratli fikrlar bayon etiladi. Xususan, mehmondorchilik odobi yuzasidan quyidagi fikrlar ifoda etiladi: mehmondorchilikka kishining boyligi, mavqei yoki mansabiga qaramay, hammaning baravar chaqirish, oila a’zolarini ham ajratmaslik, mehmonning izzat-hurmatini joyiga qo‘yish, Lekin uch kundan so‘ng ortiqcha takalluf ko‘rsatmaslik, dabdaba qilmaslik, mehmon uchun uyni ortiqcha bezamaslik, lekin, ozoda va toza ko‘rpa-to‘shaklardan foydalanish, dasturxon tuzashda isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, dasturxonga taom qo‘yilganda avval mezbonning taomga qo‘l uzatishi, mehmondan oldin taomdan qo‘l tortmasligi, mehmonga nisbatan ortiqcha takalluf qilavermaslik, imkoni bo‘lsa lazzatli va latif taomlar tayyorlab mehmonning ko‘nglini olish kabi qoidalarning mohiyati ochib beriladi.

Mazkur bobda emak-ichmak odoblari xususida ham so‘z yuritiladi. Unda taomni mumkin qadar oz iste’mol qilish, shubhali tuyulgan taomlarni iste’mol qilmaslik, faqirona ovqatlarga qanoat qilish, g‘shtli taomlarni kam tanavvul etish, ovqatlarni tanavvul qilishda ularning pishirilish holatiga ko‘ra bir-biri bilan aralashtirib yubormaslik, ya’ni, baliqni sut bilan, sutni nordon meva yoki taom bilan, sutni tuxum bilan, qovurilgan g‘shtni qaynatilgan g‘sht bilan, qotgan g‘shtni yangi g‘sht bilan, issiq taom yoki ichimlikni sovuq taom yoki ichimlik bilan, ichni qotiruvchi taom yoki mevalarni ichni suruvchi taom yoki mevalar bilan birga iste’mol qilish sog‘likka ziyon etkazuvchi holatlar ekanligi alohida uqtirib o‘tiladi. Alloma taom iste’mol qilish odoblari borasida so‘z yuritar ekan, taomni o‘tirgan holda eyish maqsadga muvofiq ekanligiga e’tiborni qaratadi.

Bu boradagi odob qoidalari sirasiga quyidagi holatlar qam kirishiga: alohida urg‘u beradi: katta yoshli kishilar taomga qo‘l urmagunlaricha, taomga qo‘l uzatmaslik, taom iste’mol qilishda ozodalikka qat’iy rioya etish, shuningdek, uning turiga ko‘ra qulay idishlardan foydalanish, mevalarni ko‘zga surib (bizning fikrimizcha, mazkur harakat muayyan meva pishib etiladigan mavsum (davr)ga etib kelinganlik, yana bir yil sog‘-salomatlikda umr kechirganlik uchun shukuronalik belgisi sifatida ado etiladi), keyin Eyish, taomni iste’mol qilishdan avval va keyin qo‘l yuvish, yuvilgan qo‘lning suvini silqitmaslik, qo‘lni toza sochiqqa artish, taomdan so‘ng sohibi xonadon sharafiga duo qilish, mazkur mehmondorchilikda yoshi katta kishilar ham ishtirok etayotgan bo‘lsalar, ularning duo qilishlarini kutish kabi qoidalarining mohiyatini batafsil ochib beradi.

Mazkur bobda suv ichish odobi xususida ham fikr yuritiladiki, ushbu qoidalari mohiyatini bilish hamda ularga qat’iy amal qilish gigienik jihatdan ham muhim ahamiyatga egadir. Suv ichish (turli ko‘rinishdagi ichimliklarni iste’mol qilish) qoidalari quyidagilardan iboratdir: suvni birdaniga simirmay, balki bo‘lib-bo‘lib ichish, unga nafas urilmaslik maqsadga muvofiqdir, suv o‘ta ehtiyotkorlik bilan, unga biror narsa tushgan tushmaganligiga ishonch hosil qilingach ichiladi, kechasi esa suv solingan idishning og‘ziga latta tutib ichish tavsiya etadi.

Agar og‘iz va qo‘l yog‘liq bo‘lsa, suvli idishning dastasini ushlamaslik, jimjiloq va nomsiz barmoq yordamida yoki qo‘l yuvilgandan so‘ng ushlash, kosa yoki suv idishning singan eri bo‘lsa, u eridan suv ichmaslik (chunki u erda kir to‘planib qolishi mumkin), ariq yoki hovuz (har qanday ochiq suv havzasi)dan boshni egib, suv ichmaslik (zero, bunday holatda turli zararli hasharotlarning inson organizmiga tushish ehtimolining mavjud) kabi holatlar qat’iy ta’kidlab o‘tiladi. SHu bilan birga suvni avval o‘zi ichmay yonidagilarga uzatish, bunda suvning o‘ng tomonga uzatilishiga alohida

aqamiyat berish, suv uzatgan kishini duo etish qoidalari ham eng zarurva muhim sanalgan odob qoidalaridan biri ekanligi uqtirib o‘tiladi.
Ettinchi bobda safar qoidalari va ularning mohiyati yoritib beriladi. Allomaning fikriga ko‘ra, safarga chiqishdan ko‘zlangan maqsad quyidagi uch ko‘rinishda ifodalanadi: farz, fazilat, muboli (ruxsat etiladigan). Ayni o‘rinda safar farzining o‘zi quyidagi besh ko‘rinishni namoyon etadi: jihod, haj, ota va onaning chaqirig‘iga muvofiq, raddi mazolim (zulmni qaytarish) hamda ilm olish maqsadida uyushtirilgan safar.
Muboli safarining uyushtirilishidan ko‘zlangan maqsad ham ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: 1) o‘z manfaati yo‘lida, o‘zgalardan biror narsani ta’ma qilmagan holda uyushtirilgan tijorat safari. Muboli safarining mohiyatini yoritar ekan, Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy tijorat safarini uyushtirishdan asosiy maqsad faqat mol-dunyo orttirish bo‘lsa, u holda bunday tijorat safari unga ziyon etkazishini alohida uqtirib o‘tadi;
2) navi-navo‘ tafarruj (ko‘ngil ochish) maqsadida safar uyushtirish. Alloma vaqti-vaqti bilan bunday safarlarni ham uyushtirib turish maqsadga muvofiq ekanligini aytib o‘tadi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning ta’kidlashiga ko‘ra, har qanday maqsad yoki ko‘rinishdagi safarlarni uyushtirish chog‘ida ayollarga albatta ularning turmush o‘rtoqlari (mahrami) hamrolilik qilishlari zarur.
Asar mazmuni orqali safar va ularning foydalari xususida ham so‘z yuritiladi. Allomaning fikricha, safar qilishning foydali jihatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, g‘am-anduhdan forig‘ bo‘lish, ikkinchidan, tirikchilik uchun sarmoya yig‘ish, uchinchidan, ilm olish, to‘rtinchidan, odob va axloq o‘rganish, beshinchidan, ulug‘ kishilarning suhbatlaridan bahramand bo‘lish. Olim safar uyushtirilgan vaqtda turli mashaqqatlarga ham duch kelish mumkinligini ta’kidlagan holda, chaqimchi va hasadchilar orasida tirik yurgandan ko‘ra, safar mashaqqatlari afzalroqdir, degan g‘oyani ilgari suradi. Safarga chiqishda quyidagi qoidalarga amal qilish foydadan holi bo‘lmaydi: avvalo, safar qilish uchun ma’lum bir kori-hayor (yaxshi niyat), ya’ni, yo haj, yo tijorat, yo jihod, yo ilm olish, yoki aziz joylarni ziyorat qilishni maqsad qilib olish. Safarga chiqish oldidan biror dono kishi bilan maslahatlashish tavsiya etiladi. Safarga chiqish oldidan ota-ona yoki safarga chiquvchi kishida kimning haqqi bo‘lsa, haq egalaridan ruxsat so‘rash, ularning fikrlarini inobatga olish, ota-ona yoki qarindosh-urug‘, yor-birodarlar bilan vidolashib, ularning duosini olish sunnat sanalishi muallif tomonidan alohida qayd etib o‘tiladi.
Safarga hech vaqt tanho chiqmaslik, eng kamida uch kishi bilan safar qilish, safarga chiquvchilar soni ko‘pchilikni tashkil etsa, bir-birlariga yaqin manzilga tushish, guruh bo‘lib safarga chiqqanda o‘rtalaridan bir kishini boshliq etib tayinlash, uning ko‘rsatmalari asosida ish tutish, boshliqning ham o‘z navbatida boshqalardan xizmatini ayamasligi, guruh safida zaifu notavonlar ham bo‘lsalar, ularga madadkor bo‘lish kabi holatlar eng muhim safar odoblari sifatida e’tirof etiladi.
Safarga chiqishda o‘zi bilan birga eng zarur ashyolar, ya’ni, libos, oyoq kiyim, soqoltarosh, misvak (tish tozalagich), qaychi va boshqalarni olib chiqish, borilayotgan shaharda biror yuqumli kasallik tarqalsa, u erdan chiqib ketmaslik, aks holda kasallik tarqatuvchi o‘zi bo‘lib qolishi mumkinligiga alohida urg‘u berib o‘tiladi.
Safardan qaytganda to‘satdan uyiga kirib bormay, avval uydagilarni xabardor etish maqsadga muvofiq bo‘lib, uyga kechasi kirib borish noloyiq hisoblanadi. Safardan qaytganda xonadon ahli, shuningdek, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni hamda yor-do‘stlarga sovg‘alar ulashish, safar qiluvchi kishini ko‘rgani kelgan insonlarni turli lazzatli taomlar bilan siylash ham odamiylikning yorqin ifodasi ekanligini uqtirib o‘tadi.

2-asosiy savolning bayoni
Markaziy Osiyo zaminida Temuriylar hukmronligi inqirozga yuz tutgandan keyin, bu o‘lkani qo‘lga kiritish uchun jahonning ko‘pgina mamlakatlari harakat qildilar. Ana shulardan biri chor Rossiyasi edi. Markaziy Osiyoni Rossiyaga qaram qilish g‘oyasi Petr I dan boshlanib, uning vafotidan so‘ng Ekaterina hukumati tomonidan davom ettirildi. Nikolay II taxtga o‘tirgach, tezlik bilan Markaziy Osiyoni o‘ziga bo‘ysundirishga intildi.Rossiyaning bosqinchilik yurishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Chunki bu davrda sobiq imperiya o‘rnida 3 ta xonlik – Buxoro amirligi,

Xiva hamda Qo‘qon xonliklari bo‘lib, bular o‘rtasida nizo kuchaygan edi. Bundan foydalangan chor hukumati o‘zining yovuz niyatlarini amalga oshirishga kirishib dastlab Qozog‘istonni o‘zlariga tobe qildilar. So‘ngra Qozog‘iston orqali 1864 yilda Turkmaniston, CHimkent, Avliyo otani, 1865 yilda Toshkentni zabt etdilar. 1867 yilda Ettisuv viloyati, 1868 yilda Samarqand, 1876 yilda Farg‘ona viloyati Rossiya qo‘liga o‘tdi.1876 yil 19 fevralda podsho Aleksandr II Qo‘qon xonligi tugatilganligi to‘g‘risida buyruqqa imzo chekdi. 1885 yilga kelib Markaziy Osiyoning hamma erlari Russiya tasarrufiga o‘tdi va o‘lkada Turkiston general gubernatorligi tashkil etiladi.

Turkiston general gubernatori fon Kaufman imperatorga yo‘llagan bir maktubida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ijtimoiy taraqqiyoti uch yuz yil orqaga surib yuborilganini maqtanib yozgan edi. Inqilobdan oldin masjid va madrasalardagi kitoblar, noyob qo‘llanmalar yondirib tashlandi, bir qismi Peterburgga olib ketildi. Bunday hatti-harakatlardan g‘azablangan Abdurauf Fitrat xalqqa qarata: «Ey ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi? Holing qalaydur! Ey Temurlarning, O‘g‘uzlarning oilalarining shonli bolalari! Qulliq chuqurlariga nedan tushding!» qabilidagi jangovar shiorlari bilan xitob qilgandi.

O‘lkada yuz bergan bu voqiliklar ilg‘or ziyolilarning faoliyatida ham o‘z ifodasini topdi. Ular o‘lkada chor ma’murlari qo‘llagan jabr-zulmlariga qaramay ilm-fan va madaniyatning umumiy rivojiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ular o‘zlaridan oldin o‘tgan ulug‘ mutafakkirlarning insonparvarlik, pedagogik fikr, g‘oyalarini davom ettirdilar. Buni Anbar otin, Ahmad donish, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Furqat, Muqimiy, Avaz O‘tar, Zavqiy, Saidahmad Siddiqiylarning ijodida ko‘rish mumkin.

XIX asrning o‘rtalarida Turkiston o‘lkasida boshlang‘ich ma’lumot beradigan maktab hamda o‘rta va oliy diniy ta’lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko‘pchiligi diniy ta’lim beruvchi eng oddiy boshlang‘ich maktablar edi. Bu maktabda machitlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar. Bunday maktablarda o‘qitish eng oddiy diniy vazifalarni o‘rgatish bilan, ya’ni arab tilida yozilgan Qur’onni o‘qishni o‘rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo‘lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanardi.

«Chor kitob» 4 bo‘limdan iborat bo‘lib, 1-bo‘lim – haq-xudoning nomlari tushuntirilardi, din qoidalari, tahorat, namoz bayon etiladi, ikkinchisida bidon-e’tiqodni anglash, uchinchi bo‘limda kalomi nabi-rivoyatlar bahs etilgan. SHuningdek, xalq orasida mashhur shoirlarning she’r va g‘azallari o‘qitilar edi. Odatda, bunday maktablarning o‘quvchilari badavlat oilalarning bolalari bo‘lar edi. Ular o‘qishni tamomlab, olgan bilimlarini savdo-sotiq ishlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida qo‘llar edilar, ba’zilari qo‘shimcha ta’lim olib, xattotlik kasbi bilan shug‘ullanar, ba’zilari madrasaga kirib o‘qishni davom ettirardilar.

Oliy diniy maktab bo‘lgan madrasada o‘rta asrga oid diniy falsafa va musulmon huquqlari, arab tilining grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars o‘tilardi. Uning o‘quv rejalari vaqt va sharoitga qarab o‘zgarib turgan. Masalan: XV asrning 30-40 yillarida Samarqand va Hirot madrasalarida dunyoviy bilimlar: matematika, astronomiya, musiqa kabi fanlar ham o‘qitilgan.

Madrasa uch bo‘limdan iborat bo‘lgan: birinchi bo‘limda musulmon diniy aqidalari bayon qilingan kitob arab tili va qonunchilik o‘rgatilar edi. Bu bo‘lim talabasi 9-10 yil o‘qigan.

Ikkinchi bo‘limda qonunchilik, ollohiyot, (qonunchilik), mushkulot, mantiq, arab tili grammatikasi, notiqlik mahorati kalom o‘qitilgan. Unda 7-8 yil o‘qishgan.

Uchinchi bo‘limda ollohiyot, qonunchilik, kalom o‘qitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan ba’zi ma’lumotlar berilgan. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shug‘ullanish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo‘lar edi. Maktab va madrasalarda asosan o‘g‘il bolalar o‘qitilar edi. Shaharlardagi diniy maktablarda ba’zi domlalarning xotinlari otinoyilar qizlarni ham o‘qitish bilan shug‘ullanar edilar. Maktab va madrasalarda dars o‘zbek, arab va fors-tojik tillarida olib borilardi.

Musulmon maktablarida ta’lim tizimi 5 toifaga bo‘lingan edi:

-Quyi maktab – bu maktablarda o‘g‘il bolalarga savod o‘rgatishgan (4 yil).

-Xalilxona maktabi – (namoz) yod oldirib o‘rgatilgan.

-Qorixona – Qur’on yod olingan.

-Madrasa.

-Maktab internat – o‘rta madrasa. Bu maktabda ham diniy, ham dunyoviy fanlar o‘qitilib, o‘rta ma’lumot berilgan.
Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin maktab va madrasalarda ba’zi o‘zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablari uchun bosmaxonaga chop qilingan darsliklar paydo bo‘ldi. Qozondan bosmaxonada nashr qilingan quro‘on va haftiyaklar, Hindiston va Erondan shoirlarning litografiyada chop qilingan to‘plamlari keltirildi, Toshkentning o‘zida ham maktablar uchun darsliklarni litografiya usulida nashr qilish yo‘lga qo‘yildi.
Eski maktablarda ham ba’zi o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Rus tuzem maktablari hamda yangi xil maktablarning ta’siri ostida ba’zi eski usul maktablarda birmuncha yangiliklar joriy qilindi, - litografiyada bosilgan alifbelar yordamida tovush metodi asosida savod o‘rgatish joriy qilindi, qizlarga o‘qishni o‘rgatish bilan birga yozishni ham o‘rgatishga kirishildi. Bu yangiliklarga ko‘ra o‘zbek maktablari hayotida katta siljish ro‘y berdi.
Bu davrga kelib mahalliy fuqaro bolalaridan ilmli kishilar tayyorlash maqsadida Xiva xoni Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxoni soniy Feruz (1844-1910 y.) katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabbusi bilan 1884 yili o‘z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o‘qituvchisi va Mirzo Rahmonquli qori kabi mahoratli ta’lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish ishi bilan shug‘ullandilar.
Feruz farmoniga muvofiq 1904 yilning 10 noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayn Qo‘shaev degan Turkiyadan kelgan o‘qituvchi yoshlarga ta’lim-tarbiya bera boshladi.
Husayn Qo‘shaev 1906-1907 o‘quv yilida xonlikdagi ilg‘or ma’rifatparvar kishilarning istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabini ham tashkil etdi. Feruz unga homiylik qilib, Xazina hisobidan maktab uchun alohida mablag‘ ajratib berdi.
Feruz homiyligidagi bu maktabda Husayn Qo‘shaevning turmush o‘rtog‘i Komila Qo‘shaeva qizlarga bilim bera boshladi.
1909 yilga kelib Feruz qo’li ostidagi madrasalar soni 130 taga etib, undagi mullavachchalar 2300 kishidan ortib ketdi.
Feruz Xiva ziyolilari orasida nufuzli o‘rinni egallagan ma’rifatparvar Komil Xorazmiyni Toshkent shahrida gimnaziya va maktablardagi o‘qitish usulini o‘rganib kelishi maqsadida safarga jo‘natadi. Safardan qaytgach Komil Xorazmiy bu sohadagi ishlarni anchagina jonlantirib yubordi.
Mazkur maktab o‘quv dasturi hamda rejasiga; riyoziyot, tarix, jo‘g‘rofiya, tabiat, rus tili, mahalliy savod (ona tili) va islomshunoslik fanlarini o‘qitish belgilanadi. Mashg‘ulot jarayonida Sharq mutafakkirlari Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sa’diy Sheroziy, Mashrab, So‘fi Olloyor kabilar bilan bir qatorda rus shoir, yozuvchilarining asarlari ham o‘rganildi. Shuningdek, u, vohada san’at, maorif va madaniyat rivojiga rahnamo‘lik qilib, saroyda «Podshohi zamon tipolitografiyasi»ni tashkil qildi.
«Litografiya» - yunoncha so‘z bo‘lib «Litos» - tosh va «grafos» yozaman degan ma’noni bildiradi. Bu atama o‘zbek tilida toshbosma tarzida qo‘llanib kelingan.
Feruz saroyidagi bu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Forobiyning «Nisobus sibiyon» (Bolalar nasibasi), Alisher Navoyning «Xamsa» asaridan parcha, «Hayrat ul-abror» dostoni, Shermuhammad Munisning «Munis ul ushshoq» devoni, Yoqubxo‘ja ibn Ibrohimxo‘janing «Devoni Xohs» to‘plarni, Feruzning «Devoni Feruz» va boshqa o‘nlab asarlar nashr etilgan.
Turkiston o‘lkasi Rossiya tomonidan bosib olingach, chor ma’murlari ming-minglab rus oilalarini Markaziy Osiyoga ko‘chirib keltiradi. Farg‘ona viloyati, Sirdaryo, Samarqand va boshqa viloyatdagi (shaharlar) mahalliy dehqonlarning serunum erlari tortib olinib, ularga beriladi. Ularning bunday hatti-harakatlaridan g‘azablangan atoqli shoir Cho‘lpon «Hazon» sarlavhali she’rida qahr ila yozgandi:

Ay, savuq ellardan muz kiyib kelganlar,
U qo‘pol tovushingiz qirlarda yo‘q bo‘lsun!
Ey, manim bog‘imdan mevamni terganlar,
Qop-qora boshingiz erlarga ko‘mulsun!

3-asosiy savolning bayoni

Rus muhojirlari Turkiston general gubernatorining farmoniga binoan o‘lkada rus maktablari, rus tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, maktab madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini o‘tkaza boshladilar.

Bu bilan go‘yoki, ular Markaziy Osiyo aholisining savodxonlik darajasini oshirmoqchi bo‘ldilar va har bir qilingan ishni bo‘rttirib ko‘rsatishga urindilar.

1917 yilgi to‘ntarishgacha 21 foiz savodxon bo‘lgan o‘lka aholisini, yoppasiga savodsiz edi, deya kamsitishga urindilar, quruq bo‘liton yog‘dirdilar.

O‘lka aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus tuzem, gimnaziya kabi o‘quv maskanlari kerak, madrasa va «usuli qadimiya» eski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo‘lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar.

Bunga biz 1897 yildagi Rossiya tomonidan o‘tkazilgan aholini ro‘yxati ma’lumotlarini ko‘rsatishimiz mumkin. Masalan, o‘sha aholi ro‘yxatida qayd etilishicha, Markaziy (O‘rta) Osiyo aholisining savodxonlik darajasi quyidagicha belgilangan:

Tojiklar – 99,5 % savodsiz;

Qirg‘izlar – 99,4 % savodsiz;

Turkmanlar – 99,3 % savodsiz;

O‘zbeklar – 98,4 % savodsiz;

Qozoqlar – 97,9 % savodsiz deb hisoblangan.

Bu ko‘rsatkichlarning barchasi uydurma edi. Aslida Turkiston o‘lkasi xalqlarining savodxonlik darajasi chor Rossiyasi aholisininng savodxonlik darajasidan past emas edi. Chunki, Turkiston o‘lkasi xalqlari 1917 yilgi to‘ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, yuksak ilm egasi bo‘lganlar.

Zero, yuqorida qayd etilgan aholi ro‘yxati ma’lumotnomasida rus xalqidan, rus millatidan boshqa millatga mansub fuqarolarni ataylab kamsitish chor Rossiyasining asosiy mafkuraviy kurashi natijasidir. Chunki ular rus va rus-tuzem maktablarini bitirganlarnigina savodli deb hisoblanganlar. Hatto, ular dunyoviy maktablar ochish, ona tilidagi darsliklar, gazeta va jurnallar nashr qilish va hokazolarni qat’iy ta’qib qilar edilar.

Ayni vaqtda chor hukumati rus bo‘lmagan aholi yashaydigan joylarda maktablar ochar, bu maktablar esa o‘z oldiga ruslashtirish maqsadini qo‘yar edi.

Chor hukumati tomonidan XX asrning 60 yillarida maktab ustavlari tasdiqlanib, shular asosida boshlang‘ich hamda o‘rta maktablar qayta tuzilib, rus bo‘lmagan xalqlar uchun maktablar tashkil etishga doir davlat hujjatlarini ishlab chiqishga kirishdilar.

Maktab ishiga taalluqli asosiy siyosiy va idealogiya sohasidagi ko‘rsatmalar 1870 yilda chor Rossiyasi xalq maorifi noziri D.A.Tolstoy tomonidan ifodalab berilgan edi. «Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona (rus bo‘lmagan) xalqlarning ma’lumotli bo‘lishining ohirgi maqsadi, deb ma’lum qilgan edi, u, - shubhasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirishdan iborat bo‘lishi kerak». Ruslashtirish ko‘rsatmasi 1870 yilda e’lon qilingan bo‘lib, unga binoan rus millatiga mansub bo‘lmagan barcha xalqlar uchta toifaga bo‘lingan edi.

«Juda kam ruslashgan xalqlar», bularga SHarqiy Sibir va Povolje xalqlari kirar edi. Bu xalqlar uchun ochilgan maktablarda o‘qishni ona tilida boshlash va keyinchalik rus tilida o‘qitishga o‘tish tavsiya qilinar edi.

«Ruslar ham yashaydigan rayonlarda yashovchi xalqlar». Bu joylardagi maktablarda o‘qitishning dastlab rus tilida olib borish ayrim hollarda ona tilining yordamiga tayanish va mumkin qadar tezroq faqat rus tilida o‘qitishga o‘tish taklif qilinar edi (masalan, gruzin bolalari o‘qitiladigan maktablarda o‘qitish shunday olib boriladi).

«Etarli darajada ruslashgan xalqlar». Ukrainlar, bellarus va boshqalar, bularning maktablarida o‘qitishni faqat rus tilida olib borish tayinlangan edi. Mazkur «Qoida»larni mana shu toifaga kiritilgan xalqlarga qo‘llanishnish 60 yillarda ijtimoiy harakat jarayonida vujudga kelgan ona tilida o‘qitish tajribasini batamom siqib chiqarishga olib keladi.

Mana shu umumiy direktiv hujjat asosida ulkan Rossiya imperiyasining ayrim hududlardagi maktablarning ta'lim-tarbiyaviy ishi prinsiplarini belgilab beradigan yo'l-yo'riqlar yaratiladi va e'lon qilinadi.
1776 yilda Markaziy Osiyo tumanining general-gubernatori huzurida Turkiston o'quv yurtlarining maxsus boshqarmasi tashkil etilgan bo'lib, avvalo, ruslashtirish siyosatini amalga oshirish vazifasi uning zimmasiga yuklatilgan edi.
Tegishli davlat hujjatlari bilan maktablarning ish tartibini belgilab va maktab idorasi organlari o'z maqsadlarida mustahkamlanib olgach, chorizm o'qituvchilarning faoliyatini injiqlik bilan sinchiklab nazorat qilish tizimini to'xtovsiz oshirib bordi.
General Rozenbax esa shunday degan edi: «O'lkani ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat kasb etishi lozim». Haqiqatdan ham mustamlaka davrida rus-tuzem maktablari vujudga keldi. Bu maktablarning asl maqsadi, o'lkani ruslashtirish edi. Afsuski bu o'rinda boshqa tilga tegadigan nozik bir holat ham bor. «Tuzemets» degan ruscha o'zbekcha lug'atda «mahalliy xalq», «tub aholi» deb tarjima qilingan. Rus olimi Vladimir Dalning «Velikorus jonli tilining izohli lug'ati» kitobida mana shunday jumlalar yoziladi: «Tuzemets. Mestno'y otnosyatsya do izvestnoy strano'...Tuzemno'e jiteli chasti Okeana stoyat na nizshey stupeni chelovechestva».
Musulmon aholisi yashaydigan joylarda qadimdan maktab-madrasa va hokazolar mavjud bo'lib, bularga qarshi chor hukumati Rossiyadagi ko'p sonli xalqlar uchun maxsus hukumat maktablari barpo qilar edi. Bu maktablarning ko'pchiligida o'qitish rus tilida olib borilar edi. Ularning biri to'rt yillik, ikkinchisi ikki yillik edi. Ba'zi bir to'rt yillik maktablarda internatlar ham bo'lib, ularda ko'proq feodallarning va mahalliy aholining boy qatlarni bolalari ta'lim olardi. Turkistonning 1880 yilda Rossiya tasarrufiga o'tganidan keyin Markaziy Osiyodagi rus-tuzem maktablari ancha mashhur bo'ldi. Ammo mehnatkashlarning bolalari uchun yaxshi yo'lga qo'yilmagan ikki yillik savod chiqarish maktablari ochilgan edi. O'qish muddati ikki yil bo'lgan milliy maktablardan, masalan, qozoqlarda ovul maktablari, deb atalgan maktablar tipik maktab sanalar edi.
Dastlabki ovul maktablari 1892 yilda To'rg'ay oblastining ovullarida tashkil topgan bo'lib, aholini ko'chmanchilik turmushiga moslashtirilgan edi. Ovul maktablarida rus tili, arifmetika qozoq alifbosi va islom dini o'qitilar edi. Bu maktablarda o'qitish o'quvchilarning ona tilida olib borilardi, Lekin ularning saviyasi juda past edi. 1916 yilda 169 ta ovul maktabi bo'lib, ularda 5 ming o'quvchi o'qirdi, bu maktab yoshidagi barcha qozoq bolalarining faqat bir foizga yaqininigina tashkil etardi, xolos.
Markaziy Osiyo va Shimoliy Kavkazning musulmon aholisi uchun ularni ruslashtirish maqsadini ko'zda tutgan rus-tuzem maktablari XIX asrning 80-yillaridan boshlab ochila boshladi. Bu maktablar o'z dasturlariga ko'ra rus ministerlik maktablaridan islom dinining o'qitilishi bilangina farq qilar edi. Rus-tuzem maktablarida o'qitish rus tilida, diniy ta'limot esa o'quvchilarning ona tilida olib borilardi.
Markaziy Osiyo xonliklarida islom dini davlat dini hisoblanar edi. Musulmon ruhoniylari Markaziy Osiyoning feodal hukmronlari bilan mahkam bog'langan edi; shu hukmronlarning yordami tufayli bu erda musulmonlarning juda ko'p diniy o'quv yurtlari, chunonchi: masjidlar huzurida maktablar, madrasalar va shunga o'xshagan o'quv yurtlari bor edi. Turkistonda birinchi general-gubernatori bo'lgan Kaufman barcha musulmon muassasalariga nisbatan «aralashmaslik» (betaraflik) siyosatini tutdi.
O'rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan chorizm, ruslar o'rnashgan erlarda ochilgan rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o'z siyosatining quroli qilib olishga harakat qildi. (Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866 yilda ochilgan edi). Rus maktablariga ruslar bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinar edi. Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Evropa qismidagiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatilar edi; bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi.
Chorizmning Turkistonda ruslashtirishdan iborat maktab tizimi uning Povolje (Volga bo'ylari) uchun maqullangan «Ilminskiy sistemasi»dan farq qilar edi. Qozon pedagogi Ilminskiy Volgabo'yidagi chuvashlar, mariylar va boshqa xalqlar uchun alohida rus va mahalliy aholi maktablari ochgan edi. Bu maktablarda o'qish dastlab bolalarning ona tillarida olib borilar, rus tili

esa alohida fan sifatida o‘qitilar edi, shu bilan birga, hamma darsliklar xristian (pravoslavie) dinini targ‘ib qilish ruhida tuzilgan edi. Bulardan farqli o‘laroq, islom dini ta’siri kuchli bo‘lgan Turkistonning mahalliy aholisi o‘rtasida xristianlar missionerligiga ruxsat etilmas edi; buning ustiga rus maktablarida musulmon dinini o‘qitish ham man etilgan edi; rus maktablariga o‘qishga kirgan erli aholi bolalari dastlabki kundanoq rus tilida o‘qitilar edi.

Turkistonda dastlabki rus o‘rta o‘quv yurtlari 1870 yillardan ochila boshladi: 1876 yili Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va Xotin-qizlar gimnaziyalari. 1879 yili esa Toshkentda o‘qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga ham erli aholining bolalari qabul qilinar edi. O‘qituvchilar seminariyalarida esa mahalliy aholi bolalariga o‘rin ajratilgan edi.

Turkistonda dastlab ochilgani ba’zi bir rus maktablarida o‘quvchilarning va undan ko‘prog‘ini mahalliy aholi bolalari tashkil etgan bo‘lsa-da, lekin butun Turkiston o‘lkasi bo‘yicha hisoblaganda bunday maktablarda o‘quvchi mahalliy aholi bolalari 200 tadan oshmas edi. Bularning ham ko‘pi qozoq bolalari bo‘lib, o‘zbek va tojik bolalari juda oz edi, chunki musulmon ruhoniylari «kofirlar» maktablariga qarshi targ‘ibot yurgizar edilar. Rus maktablarida, ayniqsa o‘rta maktablarda o‘quvchilar o‘rtasida o‘z ijtimoiy ahvoliga ko‘ra boylar va oq suyaklarning bolalari ko‘pchilikni tashkil etar edi.

Chorizmning maktab sohasidagi siyosati ruslashtirishdan iborat bo‘lsa ham, lekin rus bolalari bilan mahalliy aholi bolalarining birgalikda o‘qishlari, ular o‘rtasida o‘zaro do‘stlikni tarbiyalar edi.

Rus maktabiga o‘qishga kirgan bolalar rus tilini mutlaqo bilmas edilar, natijada ancha qiyinchilik tug‘ilar edi. Shuning uchun rus maktabiga kirgan, lekin rus tilini mutlaqo bilmaydigan o‘quvchi rus tilida so‘zlashishni o‘rganib olmaguncha odatda quyi bo‘limda o‘qir, rus tilida so‘zlashishni o‘rganib olgandan keyingina yuqori bo‘limga o‘tkazilardi. Yuqori bo‘limlarga o‘quv yilining o‘rtalarida ham o‘tkazilar edi, chunki maktablar kichkina bo‘lib, bir vaqtning o‘zida mashg‘ulotlar bir necha bo‘limlar bilan olib borilar edi.

Rus maktablarida o‘qiydigan qozoq bolalarning ko‘pchiligi internatlarda yashar edilar, xudi shu internatlarda rus tili yanada tezroq va puxtaroq o‘rganib olinar edi.

Toshkentdagi gimnaziyada dastlabki yillarda, mahalliy aholining bolalarini rus tili bilan ko‘proq shug‘ullantirish uchun lotin tilini o‘rgatishdan ozod qilinar edi.

1880 yillarning boshlariga kelib rus maktablarida o‘qiydigan o‘zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o‘qitish kerak, toki ota-onalari bu maktablardan qo‘rqmasinlar, degan fikr tarqalgan edi. Turkiston ma’murlari bu fikrning qanchalik to‘g‘ri ekanligini tekshirishga qaror qildilar. 1884 yil 19 dekabrda Toshkentda, «eski shahar» qismida sinab ko‘rish uchun birinchi rus-tuzem maktabi ochilgan edi. 10 yillardan keyin Toshkentda bunday maktablar soni to‘rttaga ko‘paydi. Bu tipdagi maktablar o‘lkadagi yirik shaharlar hamda qishloqlarda ham tashkil etila boshladi. O‘lkada rus, rus-tuzem maktablari ilk bor XIX asrning 70 – yillarida yuzaga kelgan bo‘lsa, 1904 yilga kelib ularning soni 57 taga etdi.

Rus-tuzem maktablarida o‘quvchilarga rus muallimi rus tilini hamda arifmetikani va boshqa fanlarni o‘rgatar, buning uchun o‘qish vaqtining yarmi ajratib qo‘yilgan edi. O‘qish vaqtining qolgan yarmi «Musulmon domla» ixtiyoriga berib qo‘yilgan bo‘lib, u eski usul maktablaridagidek bolalarga diniy darslar o‘qitish bilan shug‘ullanardi.

Rus-tuzem maktablarida faqat o‘g‘il bolalar o‘qitilar edi. Ota-onalar qizlarini bunday maktablarga bermas edilar. 1903 yilda Turkiston pedagogika to‘garagi, Toshkentda qizlar uchun rus-tuzem maktabi ochildi. Lekin bu maktabning faoliyati uzoqqa cho‘zilmay, ikki yildan keyin yopilib qoldi.

Rus-tuzem maktablarida rus tilini o‘qitish dasturi va uslubi rus bo‘lmagan o‘quvchilar uchun mo‘ljallab tuzilar edi. (bu maktablarda ba’zan rus bolalar ham uchrab qolar edi).

1884 yili, sinash uchun ochilgan rus-tuzem maktabida (Turkiston o‘qituvchilar seminariyasining rus qismida) tarbiyalanuvchilar uchun o‘zbek tili kiritildi. Namangan yaqinida bir qishloqda 6 yil yashagan va o‘zbek tilini yaxshi o‘rganib olgan V.P.Nalivkin, bu maktabda birinchi bo‘lib o‘zbek tilini o‘qitgan edi. U sinash uchun ochilgan rus-tuzem maktabining birinchi o‘qituvchisi edi. Nalivkin V.P. seminariyada 1890 yilgacha dars berdi. Dars chog‘ida Nalivkin bo‘lajak cho‘qituvchilarga faqat o‘zbek tilinigina o‘rgatib qolmasdan, balki ularda o‘lkani o‘rganishga ham

havas uyg‘otgan edi. Seminariyada o‘qib chiqqanlar orasida rus-tuzem maktablarida ishlashga tayyor bo‘lgan va bu ishni sevib qolganlar anchagina edi.
Turkistonning rus aholisi maktab ta’limi bilan erli aholiga qaraganda ancha yaxshiroq ta’minlangan edi. Turkiston o‘lkasida birinchi bo‘lib rus maktabi Toshkentda 1866 yilda, Samarqandda 1870 yilda, oradan 1-2 yil o‘tgach, Turkiston o‘lkasining boshqa shaharlarida ham paydo bo‘ldi.
Bu rus maktablarida mahalliy aholi bolalari juda kam sonni tashkil etardi. 1876 yilda Toshkentda erkaklar progimnaziyasi va qizlar progimnaziyasi ochiladi. 1894 yilda real bilim yurti ochildi. Bu o‘quv yurtlarida boshqa shaharlardan kelgan o‘quvchilar uchun pansion (yotoqxona) h
1879 yilda Toshkentda Turkiston muallimlar seminariyasi ochildi. Bu seminariya maktablari rus boshlang‘ich sinflari uchun o‘quvchilarga ona tilidan muallimlar tayyorlab berishi lozim edi. XIX asrning 80-yillari o‘rtalaridan boshlab seminariya rus-tuzem maktablari uchun ham muallimlar tayyorlashga ham kirishdi. Mahalliy tilni o‘rganish majburiy qilib qo‘yilganligi Toshkentdagi bu seminariyaning xususiyatlaridan biri bo‘ldi. Seminariyada V.P.Nalivkin o‘zbek tilida dars bera boshlagan birinchi o‘qituvchi bo‘ldi. 1887 yilda Nalivkin tuzgan lug‘at va grammatika risolasi nashr etildi. Bular tilshunoslik tarixda o‘zbek tiliga doir birinchi qo‘llanma bo‘ldi.
Maktablar uchun ajratilgan mablag‘larning kattagina qismi o‘rta o‘quv yurtlariga sarflanardi. Toshkentdagi kodetlar korpusiga ayniqsa ko‘p mablag‘ sarf bo‘lar edi. Ishlab turgan to‘rtta o‘quv yurtidan tashqari 1900 yildan boshlab yana beshta o‘quv yurti ochildi. Samarqandda va yangi Marg‘ilonda qizlar va erkaklar gimnaziyalari ishga tushdi; 1905-1916 yillar ichida o‘rta maktablar soni ikki baravardan ziyodroq ko‘paydi; uezd markazlarining deyarli hammasida o‘rta maktablar paydo bo‘ldi.
Iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan Qo‘qon va Toshkent shaharlarida 1905-1907 yillarda yangi tipdagi o‘rta maktablar – o‘g‘il va qiz bolalar birga o‘qiydigan kommersiya bilim yurtlari ochildi.
Turkistonning iqtisodiy rivojlanishi hunar-texnika tipidagi maktablarning ochilishiga olib keldi. Chunonchi, 1896 yildayoq Toshkentda paxta zavodlari va boshqa zavodlarni ta’mirlash uchun kadrlar tayyorlaydigan bilim yurti ochildi; 1897 yilda irrigatsiya nazoratchilari tayyorlaydigan kurs tashkil etildi. 1902 yilda Toshkent yaqinida qishloq xo‘jalik gidrotexnika maktabi ochildi: 1904 yilda Samarqandda bog‘dorchilik va shu yilning o‘zida Toshkentda temir yo‘l texnika bilim yurti ochildi. 1908 yilda A.M.Maxnovskaya Toshkentda qo‘l-hunar ustalari hamda hisobchilar tayyorlaydigan xususiy qizlar hunar maktabini ochdi. Shu tariqa Turkistonda madaniy iqtisodiy rivojlanish anchak pog‘onaga ko‘tarildi.

4-asosiy savolning bayoni

Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo‘lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyotlar maxsuldir.
Jadidchilik oqimini ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy tomonlarini professor B.Qosimov o‘z tadqiqotida batafsil bayon etgan.
XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma’rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid’atlarni isloh qilish fikri paydo bo‘la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya’ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. Jadidizm (arabcha «jadid» so‘zidan olingan bo‘lib «yangi» degan ma’noni bildiradi). O‘sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya’ni feodal-o‘rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo‘lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr boshlarida bir qancha ma’rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g‘oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr Al Kursaviy turgan edi. Qadimistlar esa ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Haydar esa Kursaviyni zindonga tashlatib, o‘lim jazosiga hukm qiladi. Ammo uning tarafdorlari uni zindondan qochiradilar. Kursaviy Qozonda o‘z faoliyatini davom ettirib, 1813 yilda vafot etadi. XIX asrning 50-60 – yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. endi bu harakat boshida buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889), g‘ijduvonlik domla Fozil, Mo‘minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turar edilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori ekanliklarini

yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjoniy o‘zining dasturida quyidagi olti asosiy masalalarni qo‘yadi:
-Qur’ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o‘zlari erkin fikr yuritsinlar.
-Birovning birovga ko‘r-ko‘rona ergashishi qat’iy mann qilinsin.
-Madrasalarda o‘qitiladigan hoshiya va shrq kabi quruq mazmunga ega bo‘lgan va madrasa o‘quvchilari uchun foydasiz bo‘lgan hamda ularning 8-10 daqiqa vaqtini bekorga oluvchi darslar dars jadvallaridan olib tashlansin.
-Madrasalarda Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari va islom tarix kabi darslar o‘tilsin. Arifmetika, tarix, jo‘g‘rofiya, tabobat, xandasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o‘qishga qarshilik ko‘rsatilmasin.
Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayhissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko‘zda tutilsin.
Marjoniy va uning tarafdorlari bo‘lgan o‘sha davrning jadidlari musulmon taraqqiyparvarlaridan edilar, ular madrasalarda diniy darslar bilan bir qatorda qadimiy islom madaniyati davridagidek dunyoviy darslarni o‘qitishni shart qilib qo‘ydilar. Biroq, qadimistlar va amirning reaksion siyosati natijasida ta’qibga uchragan Marjoniy Buxorodan chiqib ketishga majbur bo‘ldi. Uning maslakdoshlaridan ko‘pchiligi zindonga tashlanib, orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va’da berdilar.
XIX asr ohiri – XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko‘p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo‘lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Yangi asrning boshlanishi bilan avvalgidek ijtimoiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashash mumkin emasligi ular uchun oydek ravshan edi. Nafaqat Markaziy Osiyo, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o‘z taqdirlarini o‘zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo‘yishlari mumkin edi. Oq podsho idora qilgan mamlakatdagi ana shu og‘ir vaziyat tufayli 1905 yil to‘ntarishi sodir bo‘ldi. Bu to‘ntarishdan maqsad jamiyatni demakratlashtirish, sakkiz soatlik ish kunini joriy etish, dvoryanlar ixtiyoridagi katta er-mulkni olib, dehqonlarga bo‘lib berish va hokazolar edi. Birinchi rus to‘ntarishining bu dasturi bilan tanishgan Markaziy Osiyo‘lik taraqqiyparvar ziyolilar tatar qardoshlari ortidan borib, jadidchilik harakatiga kelib qo‘shildilar. 1907 yil Eron burjua to‘ntarishi, 1908 yil Turkiya burjua to‘ntarishi, Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining rasmiylashuvi va kuchga kirishida katta ahamiyat kasb etdi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo‘li bilan xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturni bajarishga kirishdilar. Ular ta’sirida o‘zbek zaminining boshqa o‘lkalarida ham jadidchilik harakati avj oldi.
Jadidchilik jamiyati to‘ntarish yo‘li bilan emas, islohotlar yo‘li bilan rivojlantirishni o‘zining asosiy vazifasi deb belgiladi. U o‘zining bu vazifasini ado etishda, faqat bir sinfga proletariatgagina tayanmadi. Umuman jadidchilik insoniyatni sinflarga bo‘lib tashlash tarafdori emas. Jadidlar hatto qadimchilar bilan ham ittifoq tuzib, xalq va kelajak manfaati yo‘lida baqamti ishlash, bugungi ifoda bilan aytganimizda turli siyosiy qarashlarga ega bo‘lgan xalq qatlamlarining tinch-totuv yashashi va ishlashi g‘oyasini ko‘tarib chiqdilar. Behbudiy ana shu «muttahid» front tuzish g‘oyasini bayon qilar ekan, «ulamo yoki ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz boy va avomimiz birlashib, din va millat va vatanning rivoji uchun xizmat etsak», deb yozgan. Jadidlarning bunday muttahid frontni tuzishga intilganlarining boisi turli sharoit bilan belgilangandi. Avom ham, boylar ham, ulamo ham, ziyolilar ham chor hukumati qaramog‘ida bo‘lgan mustamlakaning biri oz, ikkinchisi ko‘p siquvda bo‘lgan kishilar edilar. Markaziy Osiyo bozorlarida rus savdo va sanoat burjuaziyasi hukmron bo‘lib, mahalliy burjuaziya vakillari sina boshlagan edilar. Boshqacha aytganda, mustamlakachilik azobini mahalliy boylar va savdogarlar ham seza boshladilar. Ana shunday tarixiy sharoitda, jadidlarning fikr-mulohazalariga ko‘ra, oddiy xalqning iqtisodiy-madaniy hayotini yaxshilash qanday zarur

bo‘lsa, chet el kapitali iskanjasidan, mustamlakachilik kishanlaridan qutilish ham shunchalik kechiktirib bo‘lmas vazifa edi.
Jadidlar 1906 yildayoq «Taraqqiy» deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o‘z g‘oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko‘p o‘tmay, «Xurshid», «Shuhrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko‘rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari bodroqdek ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ‘ib qilindi. «Jadidlar nima haqida gapirishmasin, hammasi yangi nafas, yangi g‘oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchilar sinfi ham yo‘q edi, tabiat birlamchi deguvchilarning mafkurasini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Shuning uchun jadidchilikning yangi g‘oyalar bilan paydo bo‘lib, ruhoniylarga, hukmron sinflarga qarshi turishi, madaniyatni yaratishi, bir so‘z bilan aytganda, yangilik edi, «jadid» jumlasining ma’nosi ham «yangi» demakdir».
Agar lo‘nda qilib aytsak, jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan:
Diniy taassuf va fanatizmga qarshi kurash.
Diniy aqidalarga asoslangan o‘rta asr maktablari o‘rniga Ovro‘po qabiladagi dunyoviy ilmlarni ona tilida o‘qitishga moslangan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini isloh qilish.
Jadidchilik g‘oyalarini keng xalq ommasiga etkazish niyatida yangi o‘zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun kurash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish.
Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga qatnashlarini ta’minlash yo‘li bilan ular taqdirini o‘zgartirish va oilada islohot o‘tkazish.
Mahalliy boylar va savdogar ahlining siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir huquqda bo‘lishi, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvga olishiga qarshi kurash. Shu yo‘l bilan mustamlakachilik siyosatini isloh qilish.
Asosiy talabalari ana shundan iborat bo‘lgan jadidlar uchun ilm va ma’rifat yagona qurol bo‘lib, ular shu qurol yordami bilan o‘lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo‘ldilar.

5-asosiy savolning bayoni

1917 yil to‘ntarishidan keyin Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy va xalq maorifi sohalarida keskin o‘zgarish yuz berdi.
Turkiston o‘lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma’rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog‘ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.
Bu davrda milliy ziyolilar faoliyati keng tus oldi, jumladan: jadidchi ziyolilar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G‘ozi Yunus, Xurshid va boshqa ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar va yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish sohasida faoliyat ko‘rsatdilar.
1917 yil fevralidan oktyabr orasida Turkistonning yirik shaharlarida turli tillarda dars beriladigan xususiy maktablar ochildi. Turkiston o‘lkasining markazi – Toshkentda 1917 yil 9-14 may kunlari o‘qituvchilarning 1-o‘lka qurultoyi bo‘lib, bunda «Turkiston o‘qituvchilar ittifoqi» tashkil etildi.
1918 yilning 23 martida RSFSR Maorif Xalq Komissarligi Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarligi Kengashi o‘lka xalq ta’limi kengashini tashkil etish haqida buyruq chiqardi. Mazkur Kengash Turkiston hududida xalq ta’limi tizimiga rahbarlik qilishi lozim edi. Joylarda ularning viloyat, shahar, uezd kengashlari huzurida xalq ta’limi kengashlari tashkil etildi.
1918 yilning yozida Samarqandda “musulmon o‘qituvchilari uchun pedagogik kurslar” ochildi. O‘sha yilning kuzida Toshkentda - Toshkent uezdining tub erli aholisi uchun maktab o‘qituvchilari kurslari ochildi. 1918 yil 9 aprelda Munavvar Qori uyida to‘plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo‘limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo‘limi dasturlarini tuzadilar. O‘sha yilning 3 mayida dorilfununning musulmon bo‘limi rahbariyatiga saylov bo‘lib, unda Munavvar Qori rais (rektor), Iso To‘xtaboev birinchi muovin, Burxon Habib ikkinchi muovin, Abdusamad Qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bokir sarkotib bo‘lib saylandi. 13 may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shahar qismida Vikula Morozovning sobiq do‘koni binosi (hozirgi o‘zbek yosh tomoshabinlar

teatri)da musulmon aholi uchun “Xalq dorilfununi” ochiladi. Bu bo‘lim tez orada o‘ziga xos yirik bilim maskaniga aylanadi.
Universitet tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq xo‘jaligi va texnika fakulteti bor edi. 1919 yil fevraldan universitet qoshida ishchi fakulteti ham faoliyat ko‘rsata boshladi.
1918 yil noyabrda Toshkentda maxsus sharqshunoslik ixtisosligidagi oliy ta’limning to‘ng‘ichi – Turkiston sharq instituti tashkil qilindi. Institut haqidagi Nizomda uning asosiy vazifalari qilib Turkiston mahalliy aholisi va qo‘shni mamlakatlar aholisi tilini yaxshi biladigan sharqshunos olimlar va amaliyotchi xodimlar tayyorlashdir, deb belgilab qo‘yilgan edi.
1920 yilda Turkiston xalq universitetiga muqobil Turkiston davlat universiteti (keyin O‘rta Osiyo, hozirgi M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti) tashkil qilindi.95 Universitet faoliyatining birinchi yili ohiriga kelib unda 6 ta fakultet: ijtimoiy-iqtisodiy, tarix-filologiya, fizika-matematika, texnika, tibbiyot, qishloq xo‘jalik fakultetlari ish olib bordi.
Vaqt o‘tishi bilan universitet faqat eng yirik o‘quv yurtigina emas, balki ilmiy-nazariy va amaliy tafakkurning, tabiiy va amaliy fanlarning juda xilma-xil sohalari bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlarning eng muhim markazi ham bo‘lib qoldi.
Bolsheviklarning aksil milliy, umuminsoniy ilg‘or ma’rifatchilikka dushmanlik qilishlariga qaramasdan 1917-1924 yillarda O‘zbekistonning hozirgi hududida madaniy-ma’rifiy turmush vujudga keldi, xalq ma’naviyatida o‘z aksini topdi.
Xalq ta’limining iste’dodli tashkilotchilari Abdulqodir Shakuriy, Ismatulla Rahmatullaev, Ishoqxon Ibrat, Munavvar Qori, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar.
Uzoq tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi, ijtimoiy-siyosiy, diniy to‘siqlarga qaramay, Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlar kabi ilg‘or fikr egalarini, buyuk olimlarni etkazdi, insoniyatga ilm-fan, ma’naviyat sohasida o‘lmas durdona asarlar, fikrlar qoldirdi.
Bunday ilg‘or fikrli mutafakkir olimlarning asarlari Turkiston o‘lkasi maktablarida to 1917 yil oktyabr to‘ntarishiga qadar asosiy manba sifatida foydalanib kelingan. Jumladan, «Haftiyak» kitobi bo‘lib, unda Qur’on suralaridan ettitadan biri tanlab olingan. Taxminan, VIII asrlarda yozilgan. X-XII asrlarda fors-tojik tilida islom dini ruknlari bayon etilgan “Chorkitob”, XII asrlardan boshlab esa Ahmad Yassaviyning hikmatlari asosida bilimlar berilgan.
Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Abulqosim Mahmud bin Umar Zamaxshariy, Alisher Navoiy asarlaridan ham keng foydalanilgan. Zero, bunday nodir asarlar va sharq mutafakkirlarining oliyjanob hikmatlari, g‘oyalari XIX asrning ohiri va XX asrning boshlarida Turkiston o‘lkasida pedagogik va uslubiy fikrlarning taraqqiy etishida muhim rol o‘yinadi. Ayniqsa Turkiston xalqlarining ma’rifatparvarlik pedagogikasi taraqqiyotida asosiy zamin bo‘ldi.
Bu davr ijtimoiy-madaniy hayotidagi kuchlar o‘rtasida yuz berayotgan sinfiy kurashning murakkabligi maktab-maorif masalalarida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Demak, endi turli vositalarni ishga solib yangi mazmundagi ma’rifatni tashviq qilish, tarbiya usullarini zamonaviylashtirish ta’limda qulay usullarni topish muammolari turar edi. Bu borada Turkiston o‘lkasidagi dastlabki maktablarda ilg‘or-ma’rifatparvar pedagoglar toshkentlik Saidrasul Saidazizov, Abdulla Avloniy, namanganlik Ishoqjon Junaydullaev Ibrat, samarqandlik Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, Ismatulla Rahmatullaev, qo‘qonlik Hamza Hakimzoda Niyoziylar muhim rol o‘yinashdi.
Ular XIX asrning II yarmida maydonga kelgan ma’rifatchilik harakatining merosxo‘rlari sifatida butun o‘lkada katta obro‘ga ega bo‘lib, rus, ozarbayjon, tatar va boshqa qardosh xalq pedagoglarining ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlarini hamda darsliklarini o‘rganib o‘lka maktablarida keng yoyishda jonbozlik ko‘rsatdilar. Turkistonda ochilgan rus va tatar muallimlari boshchilik qilgan o‘zbek maktablarida qo‘llangan usullardan foydalanib o‘zlari tashkil qilgan maktablarda uzoq vaqt davom etgan “hijo” usuli o‘rniga “usuli savtiya”da ta’limni tashkil qildilar va darsliklar yaratdilar.

95 Ўзбекистоннинг янги тарихи. (туз. Н.Жўраев ва бошқ.). 2-китоб, -Т., «Шарқ», 2000 , 48-бет.

1924 yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa qartasi qaytadan tuzildi.
Sobiq Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya rahbarligida respublikada adolatsiz milliy siyosat amalga oshirildi.
To‘ntarishning dastlabki kunlaridan boshlaboq mamlakatda bir tomonlama madaniy inqilobning amalga oshirilishiga alohida ahamiyat berildi, maktablarda o‘quv-tarbiya ishlari mazmuni tuzumning maqsadi asosida o‘zgardi. Din va «Quroni Karim»ga e’tibor umuman taqiqlandi. Tarix darslarida voqealar buzib talqin etildi. Adabiyot darslariga esa ko‘proq rus yozuchilarining asarlari bilan tanishtirishga katta ahamiyat berildi.
Sho‘rolar tuzumi davrida kommunistik firqa qarorlari asosida pedagogika fanini shakllantirishda rus pedagoglari asarlaridan unumli foydalanib asarlar yozishga zo‘r berildi. Aksariyat hollarda esa rus pedagog olimlari yozgan darsliklardan foydalanildi. Natijada o‘zbek pedagogikasi markscha-lenincha nazariya doirasida shakllangan soxta fanga aylanib ketdi. Bu davrda nafaqat pedagogika, balki boshqa fanlarning ham rivojlanishi sust kechdi. Masalan, «O‘zbekiston tarix» aslida «SSSR tarix» darsligining ilovasi edi. «SSSR tarix» esa Rossiya tarixdan iborat bo‘lganligi ma’lum. Xuddi shu kabi o‘zbek pedagogikasi ham sovet pedagogikasining tarkibiy qismiga aylandi. O‘sha davrlarda yozilgan ko‘pgina pedagogik asarlar bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Chunki o‘zbek pedagogikasi nihoyatda siyosiylashgan edi. Pedagog olimlar tadqiqotlarida Marks, Engels, Lenin asarlaridan ko‘chirmalar asosiy o‘rinni ishg‘ol qilardi.
Bolalar va o‘smirlarga umumiy ta’lim berishni tezlashtirish hamda kattalar o‘rtasida savodsizlikni tugatish harakati boshlandi. 1930 yil 14 avgustda sobiq SSSR Ittifoqi Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti tomonidan qaror qabul qilindi. Bu qaror umumiy boshlang‘ich ta’limni joriy etish va savodsizlikni qisqartirishga yordam berdi.
30-yillarning ohirlariga kelib, umumiy etti yillik ta’limni amalga oshirishga kirishildi.
Biroq bu borada jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yildi. Jumladan, maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o‘qishga tortilmadi. Mahalliy millat bolalari orasida o‘qishni tashlab ketish ortib bordi. Ko‘pgina maktablarda muallimlarning bilim darajasi etarli bo‘lmaganligi tufayli o‘qish saviyasi talabga javob bermas edi. SHuningdek, maktablar soni muttasil ortib borayotgan bo‘lsada, ularning o‘quv moddiy bazasi nochor ahvolda qolayotgan edi.
Ma’lumki, bolsheviklar mafkurasi negizida sinfiy kurash g‘oyasi ustivorlik qildi. O‘zgacha fikrlashni «sinfiy dushman» deb baholandi.
Ta’lim sohasini «sinfiy dushman»dan tozalash maqsadida hatto maxsus qarorlar ham qabul qilindi. Masalan, VKP (B) MQ O‘rta Osiyo byurosi 1933 yil 27 martda o‘qituvchi kadrlar safini tozalash haqida qaror qabul qiladi va uning natijalari shu yilning 25 aprelida bo‘lib o‘tgan O‘rta osiyo bo‘yicha partiyaning madaniy sohaga bag‘ishlangan kengashida muhokama qilinadi. Bunda mavjud 700 o‘qituvchidan faqat 120 tasi maktablarda ishlashga loyiq deb topildi.
Bunday «tozalash»dan maqsad saviyasi past bo‘lsada mehnatkash tabaqalaridan chiqqan kishilarni tanlab olib, eng zakovatli omilkor kishilarni siqib chiqarib, «shaklan milliy, mazmunan proletar madaniyati»ni vujudga keltirishdan iborat edi. «Tozalash»da kishining qobiliyati, madaniy saviyasi va ma’lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi.
Sobiq SSSR MK va XKKning 1929 yil 7 avgust qaroriga asosan arab alifbesi o‘rniga lotin alifbosi qabul qilindi. Arab yozuvining lotinlashtirilishi dinga qarshi tashviqotning bir shakli edi. Bu islohotning oqibatida Sharq xalqlari tarix va madaniyatini o‘zida mujassam qilgan minglab arab yozuvidagi qimmatbaho manbalardan O‘zbekiston xalqlarini mahrum qildilar. O‘sha davrning taniqli tilshunos olimi G‘ozi Olim Yunusov va ilg‘or pedagoglar bu islohotni madaniy bilimsizlik deb baholadilar.
1940 yilning may oyida O‘zbekistonda «O‘zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitidan rus grafikasi asosidagi yangi o‘zbek alfavitiga ko‘chirish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi.
Mazkur siyosatlar tufayli o‘zbek xalqi o‘z tarixi, milliy urf-odatu an’ana, umuminsoniy qadriyatlarini bilish va o‘rganish imkoniyatlaridan mahrum bo‘ldi. Millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun jon fido qilgan, erkin, hur fikrli alloma ma’rifatparvarlar Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori

Abdurashidxonov, Elbek, Otajon Hoshimov, Shokir Sulaymon, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriylar qatl etildi. Usmon Nosir, Botu va boshqalar Sibirga surgun qilindi.
Yuqorida aytilgan fikrlardan xulosa shuki, guyo to‘ntarish Turkiston o‘lkasida ma’rifatning, ijtimoiy tuzumning, ishlab chiqarishning sezilarli darajada rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. O‘lkada juda ko‘plab ziyolilar etishib chiqdi, zavod va fabrikalar qurildi, lotincha savodsizlikka barham berildi. Lekin kezi kelganda shu narsani ham qayd etish kerakki, Oktyabr to‘ntarishi o‘lkada, yuqorida ta’kidlanganidek, sobiq sovet ishlarini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etish bilan birga, o‘zbek milliy qadriyatlariga putur etkazishga, milliy xalqni ruslashtirishga harakat qilingani, ma’naviyatimizning yo‘qolayotganligiga, tarixmizning toptalishiga urinishlar bo‘lganligini hech kim inkor etolmaydi, albatta. Chunki har qanday xalq o‘z milliyligi, qadriyatlari va madaniyati bilan buyukdir. O‘zbek xalqining ana shu buyukligi ruslar istilosi ostida ko‘p yillar davomida toptalib, oyoq osti qilindi. endilikda shukrlar bo‘lsinki, mustaqillik sharofati bilan yo‘qotayozgan barcha milliy va ma’naviy boyliklarimiz, qadriyatlarimiz tiklanmoqda.
Bu albatta, shu bugungi o‘zbek maktabini, uning ta’lim-tarbiyasini sharqona uslubda, jahon redagogikasining ilg‘or tamoyillari asosida qayta qurishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.
Tarixdan ma’lumki, sobiq Sovet davlati, xalqi o‘z boshidan kechirgan og‘ir davrlardan biri ikkinchi jahon urushi yillaridir. O‘sha davrda mamlakatimiz yoshlarini, xususan respublikamiz yoshlarini yuqori axloq ruhida, ayniqsa vatanparvarlik, do‘stlik, mehnatsevarlik, ongli intizom, fidokorlik, birdamlik ruhida tarbiyalash avj olib ketdi. Bu tarixiy sharoit taqozosi edi.
1941 yil 22 iyunda fashistlar Germaniyasi hujum qilmaslik haqidagi bitimni buzib, urush e’lon qilmay turib sobiq Sovet Ittifoqiga bostirib kirdi.
Sobiq Sovet Ittifoqi hamma xalqlarni Vatanni yakdillik bilan mudofaa qilish uchun otlantirdi. Sharqda mash’al – O‘zbekiston ham himoyaga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.
Kishilar fabrika va zavodlarda, shaxta va temir yo‘llarda, kolxoz, sovxoz va MTS larda – hamma joyda “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun” degan shior ostida fidokorona ishladilar. Butun kuch, vosita va imkoniyatlar Vatan mudofaasiga, dushman ustidan g‘alaba qilishga safarbar etildi. Mudofaa fondi tuzish, tanklar, samolyotlar hamda boshqa jangovar texnikalar qurish uchun mablag‘ yig‘ishda umumxalq harakatining avj olishi xalqlarning vatanparvarligini yana bir bor isbot etdi.
Mamlakatlar mudofaa fondiga pul, qimmatbaho narsalar, davlat obligatsiyalari, xullas kimda nima bo‘lsa, hammasini topshirdilar. Urushning dastlabki kunlaridayoq birgina Toshkent shahrining o‘zida mudofaa fondiga 5,5 million so‘mdan ortiq pul yig‘ildi. Vatan uchun belgilangan shanbaliklar vatanparvalik ruhi ostida o‘tdi.
Dushman vaqtinchalik bosib olgan erlardagi anchagina zavodlar, fabrikalar, ishlab chiqarish korxonalari, turli muassasalar O‘zbekistonga ko‘chirildi. O‘zbekiston ularni joy, ishchi kuchi bilan ta’minladi. Buning ustiga frontdagi armiyani oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlash asosan o‘zbek xalqi zimmasiga tushdi. Ishchi kuchi etishmaganidan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yig‘ib-terib olish ancha orqaga cho‘zilib ketmoqda edi. Sobiq SSSR Oliy Sovet Prezidiumining 1942 yil 13 fevralda chiqargan “Urush yillarida mehnatga qobiliyatli bo‘lgan barcha kishilarni ishlab chiqarish sohasiga va qurilishga jalb qilish to‘g‘risida”gi farmoni mamlakat ichkarisidagi ishlarni birmuncha izga soldi.
Ikkinchi jahon urushi davrida maktablarning o‘quv dasturlari sharoitga moslashtirildi.
Sobiq SSSR Xalq Komissarlari Soveti 1943 yil iyul oyida bir qator yirik shaharlarda o‘g‘il bolalar bilan qiz bolalarni alohida o‘qitishni joriy etdi. Masalan: O‘zbekistonda alohida o‘qitish 1943 yil sentyabrdan boshlab Toshkent shahrida amalga oshirildi. 1 dekabrdan boshlab yana 4 ta yirik shaharlarda: Buxoro, Urganch, Farg‘ona va Marg‘ilonda amalga oshirildi.
Urush yillarida harbiy-fizkultura darslari soati ko‘paydi. Harbiy o‘qish 1-sinfdan boshlab o‘tila boshlandi, harbiy ta’lim faqat o‘g‘il bolalarga emas, qiz bolalarga ham o‘rgatila boshlandi. O‘quvchilar BGTO, GTO, VS normalarini juda yaxshi o‘zlashtirib, havo harbiy hujumiga qarshi kurashish malakalarini egalladilar.

Yuqorida eslatib o‘tganimizdek, urushning dastlabki kunlaridan boshlab urushli ketayotgan joylardan O‘zbekistonga ko‘plab yosh bolalar va kattalar evakuatsiya qilingan edi. 1942 yilda evakuatsiya qilinganlar soni 716 mingga etdi.
1943 yilda O‘zbekiston hududida 154 ta bolalar uyi bor edi. Bolalar uyining soni 1945 yilga kelib 242 taga, undagi tarbiyalanuvchilar soni esa 31.500 ga etdi.
Urush davrida o‘qituvchilar sonini ko‘paytirishga alohida e’tibor berildi. Chunki ko‘pchilik pedagoglar frontga safarbar qilinganligi uchun Respublika bo‘yicha 1940—1941 o‘quv yilida 36267 nafar o‘qituvchidan 30616 kishi qoldi. Frontga ketgan o‘qituvchilar o‘rnini to‘ldirish uchun qisqa muddatli o‘qituvchilar tayyorlash kurslari ochildi. 1941 yildan 1943 yilgacha bu kurslarni 16 ming o‘qituvchi bitirib chiqdi. Boshqa sohada ishlayotgan o‘qituvchilar ham maktabga qaytarildi.
Mahalliy maktablar uchun o‘qituvchilar tayyorlash ishiga, ayniqsa, o‘zbek xotin-qizlaridan ko‘proq jalb etish zarurligi alohida qayd etildi.
Shaharlardagi maktablarda o‘qish uch smenada olib borilar edi. Bu hol esa tabiiy holatda ta’lim-tarbiya jarayonini qiyinlashtirishga olib kelgan edi. Darslar 40 minutga qisqargan. Ashula va rasm darslari umuman o‘tilmagan.
Kitoblarning etishmasligi tufayli o‘qituvchilar og‘zaki tushuntirishga katta e’tibor berdilar. Yangi o‘tiladigan dars o‘qituvchi tomonidan doskaga yozilar, o‘quvchilar uni daftarga ko‘chirib olishar edi.
Sharoit taqozosi bilan ko‘pchilik o‘quvchilar ham maktabda o‘qib, ham qishloq xo‘jalik ishlarida faol qatnashdilar. Barcha ishlab chiqarish muassasalarida, zavod va fabrikalar qoshida kurslar ochilib, o‘quvchilar o‘qishdan ajralmagan holda mehnat qildilar.
O‘zbekiston mahalliy Sovetlari, sobiq SSSR XKS ko‘rsatmasiga binoan, 1943 yilning 1-yanvaridan boshlab 8-10-sinf o‘quvchilarini hamda katta yoshdagi o‘zbek o‘qituvchilarini o‘qish haqi to‘lashdan ozod etdi. Qozoq, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq, turkman va boshqa mahalliy xalqlar bolalari ham o‘qish haqi to‘lashdan ozod bo‘lishdi.
1942 yilning boshida sobiq SSSR Xalq Komissarlari Soveti qishloq xo‘jalik asoslarini maktabda o‘qitiladigan fanlardan biri sifatida kiritish haqida buyruq chiqardi. Davlatning maxsus ko‘rsatmasiga binoan 1943 yildan boshlab ba’zi maktablarda o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalari ochila boshlandi.
Ikkinchi jahon urushi g‘alaba bilan tamom bo‘lgach respublika xalq ta’limi urushdan keyingi yillarda bir qator jiddiy qiyinchiliklarni engib o‘tishga to‘g‘ri keldi.
Urush davrida maktablar tarmog‘i birmuncha qisqargan, o‘quvchilar soni ham shunga yarasha kamaygan edi. Ko‘pchilik o‘quvchilar turli sinflardan o‘qishni tashlab, frontga, front uchun qurol-aslaha ishlab chiqaradigan zavod va fabrikalarga ishga ketib qolishdi.
O‘sha yillarda yangi maktab binolari qurilmaganligi va eski maktablarni o‘z vaqtida ta’mirlanmaganligi sababli ko‘p maktab binolari o‘quv jarayonini maromida tashkil etish va gigiena talablariga javob bermas edi.
Urushdan keyingi dastlabki yillarda o‘quvchilarning maktabni tashlab ketishi garchi birmuncha kamaygan bo‘lsa ham, har holda davom etaverdi: 1945-46 o‘quv yilida O‘zbekiston maktablaridagi o‘quvchilar soni rejadagi 1 mln. 10 ming kishi o‘rniga 823 ming kishidan iborat bo‘ldi. Sinfda qolgan o‘quvchilar soni ham ko‘p bo‘lib, 1946 yilda u barcha o‘quvchilarning 37% ini tashkil etardi. Ayniqsa qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o‘qishni tugaguncha ushlab turish alohida muammo sifatida ko‘ndalang bo‘lib turardi.
O‘qituvchi xodimlar masalasi urushdan keyingi yillardagi eng jiddiy muammolardan biri edi. Chunki malakali o‘qituvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko‘pchiligi halok bo‘lgandi. Xususan, 1947 yilda respublika bo‘yicha 4 ming o‘qituvchi etishmasdi. Tuman xalq maorif bo‘limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta’lim bo‘yicha direktor muovinlarining 60% dan ko‘prog‘i tegishli ma’lumotga ega emasdi. 1950 yilda 7125 maktab o‘qituvchilarga muhtojlik sezardi.
Rasmiy Hokimiyat soxta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o‘qitishga urg‘u berdi. Natijada 60-yillarda O‘zbekiston tarix, o‘zbek tili va adabiyoti, chet tili, musiqa va ashula darslari hajmi keskin qisqardi va ular o‘quv rejasida

belgilanganidan haftasiga 16,5 soat kamayib ketdi. Ulardan bo‘shagan soatlarga esa rus tili va adabiyoti fani o‘qitildi. Masalan, o‘qituvchilar «XIX asrni ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida o‘zbek adabiy muhiti», «Milliy madaniy jarayonlar» to‘g‘risidagi mavzularda dars o‘tishi lozim bo‘lgan soatlarda rus madaniyatining «progressiv» ahamiyatini ko‘rsatib berishga majbur bo‘ldilar. Natijada boy va ko‘hna o‘zbek xalqi tarixni o‘rganishga 52 soat ajratilgan holda boshlang‘ich maktablarda rus tili va adabiyoti fanlari uchun 1600 soat ajratilgan.96

Xalq xo‘jaligini tiklash hamda rivojlantirish sohasida urushdan keyingi birinchi besh yillikda o‘ziga xos jiddiy kamchiliklarga duch kelindi. Birinchidan, aholi o‘zi tug‘ilib o‘sgan shaharlariga qaytib ko‘chib o‘tayotganligi sababli aholi sonida keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ikkinchidan, majburiy ta’lim maktablarida o‘qitiladigan bolalarni hisobga olishning aniq va tezkor tizimi belgilanmagan edi.

Shuning uchun ham maorif xodimlari tezlik bilan maktab shoxobchalarini tiklash va kengaytirish hamda ota-onalari bilan birga evakuatsiyadan qaytib kelayotgan bolalarni yo urush vaqtida maktabni tashlab ketgan bolalarni maktablarga tortish sohasida juda katta ishlar qilish kerak edi. Bunday mas’uliyatni bajarishda ular dastlab boshlang‘ich maktablarni tamomlagan bolalarning hammasini to‘la ravishda o‘qishga tortishga ayniqsa katta e’tibor berishlari lozim edi. Va bu ish ancha muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu esa bolalarni va o‘smirlarni umumiy-majburiy o‘qitishni kengaytirish uchun zarur shart-sharoit yaratib berdi.

Bu davrga kelib o‘rta maktabni bitirib chiqayotganlarning soni oliy o‘quv yurtlariga qabul qilinayotganlarning soniga qaraganda ancha ortib ketdi. O‘rta maktablarni tamomlab chiqqanlarning ko‘plari sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ishlashlariga to‘g‘ri keldi. Biroq ular bu amaliy faoliyatga etarli sur’atda tayyorlanmagan edilar: maktablarda o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan edi.

O‘rta maktablarni tamomlaganlarni maxsus kasbiy tayyorlarligini oshirish maqsadida texnikumlar soni ko‘paytirildi va shu texnikumlar qoshida to‘liq o‘rta ma’lumotli kishilarni qabul qiladigan bo‘limlar ochildi. Bu bo‘limlarga o‘qish muddati 2-3 yil qilib belgilandi. Mehnat zahiralari tizimida o‘rta maktab negizidagi texnika bilim yurtlari ochila boshladi. Bu texnika bilim yurtlari 1-2 yillik o‘qish muddati bilan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlab berishi kerak edi.

Urushdan keyingi yillarda 1943 yilda ochilgan ishchi va dehqon yoshlari maktablari (kechki va smenali) tarmog‘i birmuncha kengaytirildi.

1951-1955 yillarga mo‘ljallangan beshinchi besh yillik rejada politexnika ta’limiga katta o‘rin berildi. SHu munosabat bilan ittifoqdosh respublikalarning Ta’lim vazirliklari o‘quv rejalari va dasturlarini qayta qurib, politexnika ta’limini oshirish to‘g‘risida maktablarga ko‘rsatmalar berdilar.

1957-58 o‘quv yilidan boshlab ba’zi pedagogika oliy o‘quv yurtlarida boshlang‘ich maktab uchun oliy pedagogika ma’lumotiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar tayyorlashga kirishildi va buning uchun maxsus fakultetlar tashkil etildi. Lekin urushdan keyingi yillarda hamda mavjud jamiyatni rivojlantirish jarayonida respublika maktablarida hamma narsa risoladagidek olib borildi deyish xato bo‘lar edi. Chunki o‘tgan davrlar chuqur tahlil qilinganda qator kamchiliklar borligini ko‘rish mumkin. Chunonchi, ko‘pgina maktablarda o‘quv-tarbiya ishlarining sifati davlat standarti talablariga etarlicha javob bera olmas, bir sinfda ikki yil qolgan o‘quvchilar soni hamon ko‘p, o‘quvchilarning maktabni tashlab ketishlari esa tobora ko‘payayotgan edi. Ko‘pgina maktablarning moddiy-texnika bazasi tipovoy talablariga javob berolmasdi, maktablarda matematika, fizika, rus tili va chet tili fanlarida dars beradigan malakali o‘qituvchilar etishmas edi, etti yillik umumiy majburiy ta’limni amalga oshirish va o‘rta ta’limni rivojlantirish borasidagi ishlarda ham muayyan nuqsonlar yo‘q emas edi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish o‘sha kunning birinchi galdagi vazifasi edi.

Boshlang‘ich maktabda to‘rt yillik boshlang‘ich ta’limdan uch yillik boshlang‘ich ta’limga o‘tish amalga oshirildi.

---

96 Насыров Р. Социальное развитие сел Узбекистана. (1965-1983) -Т., 1994, с.27-28.

To‘liqsiz etti yillik o‘rta maktab tashkil etilib, umumiy majburiy sakkiz yillik ta’lim maktabiga aylantirildi.
Sakkiz yillik maktabni tamomlagan o‘quvchilar quyidagi o‘quv yurtlarida o‘qishlari mumkin edi. Ular: 1) To‘liq umumiy ta’lim o‘rta maktablarida (IX-X sinflarda); 2) o‘qish muddati uch-to‘rt yillik bo‘lgan texnikumlarda; 3) hunar va umumiy ta’lim bilimlarini birgalikda beradigan hunar-texnika bilim yurtlarida hamda 4) ishchi va qishloq yoshlari maktablarida.
1959-1975-yillarda respublikada internat-maktablar, maxsus maktablar va kuni uzaytirilgan guruhlar tarmog‘i rivojlandi va ularda tarbiyalanuvchilarning soni o‘sdi; jismonan nuqsonli bolalar uchun maxsus maktablar tashkil qilindi; pedagog xodimlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmog‘i kengaytirildi.
70-80- yillarda O‘zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o‘zgarmay qolaverdi. Ularning moddiy-texnik bazasi yaxshilanmadi. Ammo maktablar, o‘quvchilar soni yildan-yilga ortib boraverdi. Masalan, O‘zbekistonda 1945-46- o‘quv yilida jami 4525 maktab bo‘lib, ularda qariyb 998 ming o‘quvchi o‘qigan bo‘lsa, 1970-71-o‘quv yilida respublikaning umumiy ta’lim maktablari soni 7072 taga, o‘quvchilar soni esa 3 mln.164 ming kishiga etdi... 1970-1980-yillarda xalq ta’limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag‘ 11% dan 8% ga kamayib ketdi, 5% dan ortiq maktablarda issiq ovqat bufetlari tashkil etilmadi.97
Umuman xulosa qilib aytganda urushdan keyingi va tinch qurilish davridan to mustaqillik davrigacha respublika sobiq Ittifoq ta’sirida rivojlandi, takomillashib bordi. Lekin shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston maorifi, fan va madaniyati rus va Evropa madaniyati ta’sirida rivojlandi, ammo bu albatta o‘zbek xalqining milliyligidan, asrlardan beri avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlardan ajralgan holda rivojlanish edi.
Siddiq Rajabov Respublikamizda xalq maorifining rivojlanishiga pedagogika ilmining taraqqiyotiga, ixtisosli pedagogik kadrlar tayyorlash ishiga katta hissa qo‘shgan, dastlabki pedagogika fanlari nomzodi, dastlabki pedagogika fanlari doktori, professor va dastlabki akademikdir.
Siddiq Rajabov 1910 yil 1 aprelda Qozog‘istonning Avliyo-ota (hozirgi Jambul) shahrida kambag‘al-kosib oilasida tug‘ildi. Uning otasi Rajab aka yamoqchilik bilan kun ko‘rar, lekin shunday bo‘lsa ham oilaning bosh farzandi Siddiqning o‘qib, ilm olishini orzu qilar edi. Rajab aka o‘g‘lini yangi maktabga o‘qishga berdi. Lekin ko‘p o‘tmay ota vafot etdi. Ota vasiyati va ilmga bo‘lgan ishtiyoq unga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib berdi.
1926 yilda o‘n olti yoshli Siddiq Rajabov g‘ayrat bilan o‘qishga, mehnat qilishga kirishdi. Shahar yoshlarining xalq o‘rtasida olib borgan madaniy-oqartuv ishlarida faol qatnashdi. 1927 yilda Farg‘ona pedagogika bilim yurtiga o‘qishga kirdi. 1930 yilda bu bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomladi. Bilim yurtini tugatgandan so‘ng Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumaniga ishga yuborildi. U shu tumandagi Avg‘onbog‘ qishlog‘ida boshlang‘ich maktab ochadi, shu maktabda ham muallimlik, ham mudirlik vazifasini bajaradi.
1930 yilda Farg‘ona pedagogika institutiga kirgan S.Rajabov 1933 yilda institutning ijtimoiy-adabiyot fakultetini imtiyozli tugatdi. S.Rajabovni institut Ilmiy kengashi pedagogika kafedrasiga assistent vazifasiga tavsiya etdi.
Ana shu davrda bo‘lajak olim Farg‘ona shahridagi «O‘zbekiston besh yilligi» ishchi fakultetida, ayni paytda Hamza nomidagi pedagogika bilim yurtida direktorlik vazifasini bajardi.
S.Rajabov pedagoglar jamoasi va talabalar e’tibori hamda faoliyatini bilim yurti oldida turgan eng muhim masalalarga maktablarga hamma fanlardan dars bera oladigan, pedagogikaning ilmiy asoslarini, ta’lim mazmuni, tamoyillari va metodlarini puxta egallab olgan yosh mutaxassislarni tayyorlash ishiga qarata olgan edi.
Ana shu davrlarda YA.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, H.H.Niyoziy, A.Avloniy kabi atoqli pedagoglarning asarlarini qunt bilan o‘rgandi. Egallangan bilimlar va to‘plangan tajribalar

97 Эргашев К. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане. 70-е-90-е г. и проблемы и тенденции. - Т., 1996. С.20.

asosida mahalliy matbuotda S.Rajabovning dastlabki pedagogik maqolalari chiqa boshladi. Maqolalarda maktablar istiqboli, tarbiya masalalari, yosh pedagog mutaxassislar tayyorlash haqida bahs yuritilar edi.

Ilmga bo‘lgan ishtiyoq S.Rajabovni O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi aspiranturaga etakladi. U 1934-37 yillarda aspiranturada tahsil ko‘rdi va pedagogika fanining eng muhim muammolari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Uni respublikamiz xalq maorifining taraqqiyoti va bu taraqqiyotning ob’ektiv qonuniyatlari, xalq maorifining rivojlanish istiqbollari, yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar qiziqtirar edi.

U aspiranturani tamomlagach, O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutiga ilmiy xodim va Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasiga o‘qituvchi qilib tayinlandi. Yosh olim ilmiy tadqiqot ishini pedagogik faoliyati bilan qo‘shib olib bordi. SHu yillarda S.Rajabov kechki pedagogika instituti direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida hamda yosh o‘qituvchi sifatida mutaxassislar tayyorlashda katta faoliyat ko‘rsatdi, o‘z ishini puxta bilgan rahbar, etuk ilmiy xodim va mahoratli o‘qituvchi sifatida elga tanildi. Yosh olim matbuotda tez-tez ilmiy, pedagogik, publitsistik maqolalari bilan chiqa boshladi. Shu yillarda u «XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti ocherki» asarini yozib tamomladi. 1941 yilda ana shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini respublikada birinchi bo‘lib muvaffaqiyatli himoya qildi. S.Rajabov 1942 yilda «Qizil O‘zbekiston» gazetasiga muharrir o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi. Bu ishda o‘zining ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatini ko‘rsata oldi.

Shunisi muhimki, S.Rajabov qaerda ishlamasin xalq ta’limi va pedagogik masalalardan uzoqlashmadi, aksincha, yosh avlodni yuksak vatanparvarlik va baynalmilallik ruhida tarbiyalash masalalari bilan qiziqib, qator ilmiy maqolalar nashr etdi, pedagogika tarixga, xalq maorifi taraqqiyotiga, shuningdek, yirik pedagoglarning merosini o‘rganishga oid risolalar yaratdi.

S.Rajabov 1947 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasiga mudir qilib tayinlangandan keyin uning o‘z ilimiy pedagogik faoliyatini yanada rivojlantirishga keng imkoniyat yaratildi. U o‘z atrofiga pedagogika ilmi muxlislarini to‘plab, yirik pedagogik muammolarni hal qilish va o‘rganishga boshchilik qila boshladi, respublikamizda pedagogika fanini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarishda jonbozlik qildi.

Olimning 1958 yilgacha bo‘lgan davrdagi ijodiy faoliyati yanada salmoqli bo‘ldi. Bu yillarda uning «Pedagogikani o‘qitishni hozirgi zamon fani talabi darajasiga ko‘taraylik», «O‘qituvchilar kasbi haqida», «O‘zbekistonda 25 yil ichida maktablarning taraqqiyotiga doir», «Pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari haqida», «O‘zbekiston maktablarining 30 yil ichidagi tarixdan», «O‘zbekistonda umumiy ta’lim uchun kurash va maktablarda o‘quv-tarbiya ishlari», “40 yil ichida O‘zbekistonda xalq maorifi” kabi jami 26 ta ilmiy, ilmiy-ommaviy ishlari nashr qilindi.

1958 yilda Siddiq Rajabovning ilmiy faoliyatida unutilmas voqea sodir bo‘ldi. Maktablar tarixga doir doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Haqiqatan ham olimning mazkur ilmiy tadqiqoti respublikamiz xalq maorifi taraqqiyotini, maktablarimiz tarixni o‘rganish yo‘lidagi dastlabki muhim qadam edi.

1959 yilda pedagogika fani doktori Siddiq Rajabov sobiq RSFSR Pedagogika fanlari Akademiyasiga muxbir a’zo qilib saylandi va 1960 yilda unga professor ilmiy unvoni berildi. S.Rajabovga nisbatan bildirilgan bu katta ishonch olim oldiga yanada mas’uliyatli vazifalar yukladi. U respublikamizda pedagogika fanini yanada rivojlan-tirish, yuqori malakali ilmiy pedagog xodimlar tayyorlash masalasiga diqqat-e’tiborni qaratdi. O‘z atrofiga qobiliyatli yoshlarni to‘plab ular e’tiborini pedagogika fanining dolzarb masalalariga qaratdi, maktab-maorif uchun zarur bo‘lgan mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borishga illiomlantirdi.

1961 yilda Siddiq Rajabov O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutiga direktor qilib tayinlandi. Olim mazkur institutga olti yil rahbarlik qildi. Institutni yuqori malakali mutaxassis xodimlar bilan ta’minlash, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini hayotga – maktab amaliyotiga yaqinlashtirishga boshchilik qildi hamda tadqiqot natijalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirdi.

Ta’kidlash joizki, S.R.Rajabov faqat rahbarlik faoliyati bilan cheklanib qolmadi, aksincha, 1958-1966 yillarda 50 dan ortiq ilmiy va o‘quv-metodik ishlar muallifi bo‘ldi. CHunonchi, “L.N.Tolstoyning pedagogik faoliyati haqida”, “Pedagogika fanining yangi vazifalari”, “Pedagogika nazariyasi va tarixiga oid ilmiy-ommabop maqolalar to‘plarni”, “Darsda o‘quvchilar aktivligini oshirish yo‘llari”, “Tadqiqotchilarning kuchini birlashti-raylik”, “Ta’lim berib tarbiyalaylik, tarbiyalab ta’lim beraylik”, “Eng sharafli burchimiz”, “Maktab haqida g‘amxo‘rlik – umumxalq ishi”, “O‘zbekistonda xalq maorifi”, “Pedagogika fanining ravnaqi uchun” kabi ishlari, shuningdek, 1962, 1966 yillarda nashr qilingan “Pedagogika” darsliklariga hammuallif bo‘ldi.

Bu davrda olim pedagogika fanini chin qalbdan sevgan mutaxassislarni, ko‘pgina iqtidorli yoshlarni o‘z atrofiga chorladi. Yosh olimlarga hamisha yordam berib keldi. Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uning hayotiy e’tiqodi va turmushining mazmuniga aylanib ketdi. Shu bois M.Ochilov (1962 yil), F.Abdullaev (1962 yil), K.X.Hoshimov (1964 yil), S.R.Rahimov (1964 yil), A.Ahmedov (1965 yil), B.Nurlibekov (1965 yil), M.Ahmedova (1965 yil), T.Mo‘minjonov (1966 yil), S.N.Nurmatov (1966 yil), A.K.Tyulenov (1966 yil), D.A.Urumbaev (1966 yil), S.X.Fayzulina (1966 yil) kabi ilm-fanda o‘z yo‘lini topib olgan iqtidorli yoshlar olim rahbarligida nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Shuningdek, professor S.Rajabov ilmiy maslahatchiligida doktorlik dissertatsiyalari tayyorlana boshlandi va bu sohadagi dastlabki ish himoya qilindi.

Umuman Siddiq Rajabovning O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutidagi faoliyati mazkur institut tarixda katta iz qoldirgan. Olim rahbarligida, u bilan hamkorlikda ishlagan ko‘plab ilmiy xodimlar o‘sha yillarni eslar ekanlar. S.Rajabov haqida, uning rahbarlik faoliyatini mamnuniyat bilan tilga oladilar.

1964 yilda S.Rajabovning ilmiy pedagogik faoliyatiga yuksak baho berilib, unga “Respublikada xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni berildi.

S.Rajabov 1966-1990 yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti “Umumiy pedagogika” kafedrasining katta jamoasiga boshchilik qildi. U kafedra a’zolarining har biriga murabbiy, ustoz edi. Bugina emas, olim o‘qituvchi mutaxassislar tayyorlash sohasida fidokorona mehnat qilayotgan hamkasblari institutning etuk olimlari bilan bir qatorda o‘rta va oliy ta’limga aloqador juda ko‘p muammolarni hal qilishda faoliyat ko‘rsatdi.

Professor S.Rajabovning ushbu institutdagi chorak asrlik uzluksiz ilmiy-pedagogik faoliyati alohida muhim davr bo‘ldi:

Ilmiy-pedagogik muammolarni hal qilishga alohida birinchi navbatda kafedrani yuqori malakali ilmiy-pedagogik xodimlar bilan ta’minlash, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar sifati va samaradorligini oshirish, qolaversa, kafedra jamoasining ilmiy va metodik saviyasini yuqori ko‘tarish kabi masalalar hal qilina bordi.

S.Rajabov bu davrda juda ko‘plab metodik muammolarni kafedra a’zolari va ilmiy jamoatchilik tomonidan muvaffaqiyatli hal qilinishiga boshchilik qildi. Xususan, didaktik- ta’lim nazariyasi, xususiy metodika, tarbiya nazariyasi va metodikasi, shuningdek maktabshunoslikning dolzarb muammolariga aloqador asarlar yaratdi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, olim bu davrda o‘z ilmiy faoliyatini bir necha yo‘nalishlarda olib bordi. Jumladan, pedagogika fanining metodologik muammolari, odob-axloq va tarbiya masalalari, oliy ta’lim didaktikasi, pedagogika tarixni o‘rganish va uning rivojlanish istiqbollarini tahlil etish masalalari ilmiy faoliyatida markaziy o‘rin tutdi.

Amalga oshirilgan ilmiy-ijodiy ishlar natijasi sifatida olimning 300 ga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari, risolalari, qo‘llanmalari, darslik va monografiyalari e’lon qilindi.

S.Rajabov SHarq mutafakkirlari pedagogik merosini o‘rganish masalalariga o‘z faoliyatida katta o‘rin berdi. Uning A.Navoiy, Z.M.Bobur singari mutafakkirlarning pedagogik qarashlari haqidagi maqolalari muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, U.K.Hoshimov bilan “O‘zbekistonda pedagogik fikrlar antologiyasi” (Moskva: Pedagogika nashriyoti 1986 yil)ning tuzuvchilaridan hisoblanadi. Bu antologiya O‘zbekiston va sobiq Ittifoqdagi barcha millatlarga, ayniqsa, rusiy zabon millatlarga O‘rta Osiyo qomusiy olimlarining hayoti, ta’lim-tarbiya sohasidagi g‘oyalaridan ma’lumot beruvchi muhim manba sifatida qimmatlidir.

S.Rajabov o‘zining asosiy ishini jamoat ishlari bilan muntazam bog‘lagan holda olib bordi. U 1961-1988 yillarda O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligining hay’at a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. U vazirlik tomonidan xalq ta’limi tarmog‘ini yanada kengaytirish, maktablarda o‘quv-tarbiya ishlarini davr talablari darajasiga ko‘tarish borasida amalga oshirilayotgan hamma tadbirlarda bevosita qatnashib keldi.
S.Rajabov pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi bir necha ixtisos-lashgan Ilmiy kengashlarning raisi hamda Dushanbe Davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengash a’zosi sifatida katta faoliyat ko‘rsatdi. Siddiq Rajabovning ko‘p qirrali jamoatchilik faoliyatida uning respublika pedagogika jamiyati markaziy Kengashi Prezidiumiga raisligi asosiy o‘rin egallaydi. Siddiq Rajabovning pedagogika fani va xalq ta’limi ravnaqi yo‘lidagi mehnatlari hukumat va xalqimiz tomonidan yuksak baholandi.
Xalq ta’limi tizimida muhim o‘rinni egallagan umumiy ta’lim maktablari respublikamiz hayoti bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, davlatning mafkuraviy, madaniy vazifalariga xizmat qiladi. SHuning uchun ham respublikamizda hukumati, xalq ta’limi vazirligi joylardagi hokimiyatlar va jamoatchilik xalq ta’limi tizimini, jumladan, umumiy ta’lim maktablarini rivojlantirish, ularning tarmoqlarini kengaytirish va yangi binolar bilan ta’minlash, o‘quv moddiy va texnika bazasini mustahkamlash hamda ularni yuqori bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchilar bilan ta’minlash borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi.
Jamiyatimizdagi mavjud maorif tizimining barcha bo‘g‘inlarida jamiyat taraqqiyoti talablari asosida yosh avlodning kamolotga etishi, bir butun shaxs sifatida shakllanishiga nihoyatda kam e’tibor berilar edi. Natijada umumiy ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya tizimi, mazmuni, shakl va metodlari, yosh avlodni har tomonlama shakllangan yaxlit shaxs sifatida shakllantirishga mos kelmay qoldi.
Bu esa umumiy ta’lim va hunar maktablarni isloh qilishni taqozo etdi.
Islohotda umumiy o‘rta ta’lim o‘n bir yillik bo‘lib, I-IV sinflar – boshlang‘ich maktab, V-IX sinflar esa to‘liqsiz o‘rta va X-XI sinflar – barchasi umumta’lim maktabini tashkil qiladi. SHuningdek, o‘rta hunar-texnika bilim yurtlari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari kabi nomlangan. Mazkur tuzilishga binoan o‘rta umumiy ta’lim maktablarida bolalarni olti yoshdan boshlab o‘qitish nazarda tutiladi.
Hunar-texnika ta’limi esa qayta tubdan o‘zagrtirilib, “O‘rta hunar-texnika bilim yurtlari”ga aylantirildi.
O‘rta ma’lumotga ega bo‘lmagan, ishlab chiqarishdagi faol yoshlar uchun kechki (smenali) va sirtqi maktablar saqlanib qo‘lindi.
Umumiy o‘rta va hunar ta’limi tizimining o‘zgarishi bilan, oliy o‘quv yurtlari, bilim dargohlariga qabul qilishning yangi qoidalari, talablari ishlab chiqiladi.
Umumiy o‘rta va hunar ta’limi bilan unda beriladigan ta’limning mazmuni, shakllari, metodlari va usullarini ham tashkil etilishini o‘zgartirishni taqozo etadi. Buning uchun islohot taqozo etganidek, ta’limning mazmunini takomillashtirish zarur. Ta’limning mazmunini takomillashtirishning muhim shartlari o‘quv dasturlari va darsliklari materiallarini o‘quvchilarning yoshiga mos holda soddalashtirish, ortiqcha ikkinchi darajali materiallardan xalos etish zarur edi.
O‘quv fanlarining amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish, ta’lim mazmunining politexnik yo‘nalishini ta’minlash masalasi asosan amalga oshiriladi.
O‘quv darsliklari, metodik qo‘llanmalar yaratildi; o‘quv rejasiga “Atrof muhit bilan tanishish” (I-II sinflarda), “Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” (X-XI sinflarda), “Oila etikasi va psixologiyasi” (X-XI sinflarda), “Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash” (VII-X sinflarda) kabi fan asoslari kiritildi va o‘qitilmoqda, o‘qituvchilar mehnatiga tabaqalashtirib haq to‘lash joriy etildi, o‘qituvchilar malakasini oshirish va qaytadan tayyorlash masalasida ijobiy siljishlar ro‘y berdi, o‘quvchilarni mehnat ta’limi va tarbiyasining mazmuni takomillashtirildi; hunar-texnika ta’limi tizimida ishchi xodimlar tayyorlash kengaytirildi; maorifning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalasiga nisbatan jamoat tashkilotlarining munosabatlari birmuncha o‘zgargandek tuyuldi. Biroq, bu o‘zgarishlar ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, uyushtirish uchun etarli emas edi, albatta. Islohot birinchidan, “qayta qurish” sharoitida, maktab

islohotining evolyusion xarakterga egaligi, maktab ishining mazmuni, ilmiy-pedagogik kadrlar, moddiy-texnikaviy ta’minlanish, boshqarishning tubdan o‘zgartirilmaganligi ta’lim-tarbiyaning rivojlanishiga to‘siq bo‘ldi. Islohni amalga oshirishdagi tashkilot-chilik ishlarining etarli bo‘lmayotganligi, boshqarishdagi byurokratik metodga asoslani-layotganligi, xalq xo‘jaligining ehtiyojiga mos ravishda kadrlar tayyorlash mo‘ljallan-maganligi ham islohot talablarini qiyinchilik bilan ham etilayotganligiga sabab bo‘ldi. Bular esa o‘z navbatida ta’lim-tarbiya saviyasini oshirishga salbiy ta’sir etdi.

Shuni qayd etish zarurki, o‘zbek maktablari sobiq ittifoq davrida milliy zamindan batamom uzilib qolgan edi. O‘qish-o‘qitishda Ovro‘po, xususan o‘rus tizimi qabul qilindi. YAngi davrdagi zamonaviylashtirishning “bilimdon” va “zukko” tashkilotchilari ming yillik yozuvimizni ham qayta-qayta almashtirib, natijada maktablarimiz o‘quv-tarbiyaviy ishlar va xalq ruhiyatidan deyarli ajralib qoldi, avlod-ajdodlarimizning dunyoviy, ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy merosi esa umuman o‘qitilmay, o‘rgatilmay tashlab qo‘yildi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Jadidchilik harakatining kelib chiqish omillari nimalardan iborat?
2. Jadidchilar qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
3. Turkistonning rivojlanishida jadidchilik harakati qanday ahamiyat kasb etdi?
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’lim tizimini rivojlantirishga qanday hissa qo‘shdi?
5. Munavvar Qori qanday g‘oyalar bilan maydonga chiqdi?
6. Abdurauf Fitrat Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy rivojlanishiga qanday hissa qo‘shdi?
7. Usha davrda ayollar maktabida ta’lim tizimi va mazmuni qanday bo‘lgan?
8. Jahon otin Uvaysiyning qizlar maktabida ta’lim mazmuni qanday bo‘lgan?
9. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asari mazmunini so‘zlang.
10. “Odob as-solihin” asaridan o‘zingiz uchun qanday saboq oldingiz?
11. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonda xalq maorifi va pedagogika qanday bo‘lgan?
12. XX asrning 70-80- yillarida O‘zbekistonda xalq ta’limi haqida so‘zlab bering.

7-mavzu: Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji

Asosiy savollar

1.Amerika Qo‘shma Shtatlarida ta’lim tizimi
2. Yaponiya va Janubiy Koreyada ta’lim tizimi
3. Germaniya va Fransiyada ta’lim tizimi

1-asosiy savolning bayoni

Amerika Qo‘shma Shtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o‘qiydilar. Ta’lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

1. 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida.
2. Boshlang‘ich maktab. Bu bosqich 1-5-sinflarni o‘z ichiga oladi.
3. To‘liq bo‘lmagan o‘rta maktab. Bu bosqich 6-8-sinflardan iborat.
4. Yuqori maktab. Bu bosqich 9-11-sinflar bo‘ladi. Mazkur Yuqori maktab bilan Oliy ta’limni aralashtirmaslik kerak.

Amerika maktablarida 9-sinfgacha asosiy e’tibor matematikaga emas, balki tabiiy fanlarga qaratiladi, yuqorida tasdiqlangan yagona dasturlar bo‘lmaydi. O‘quvchilar uchun yagona, majburiy darsliklar, qo‘llanmalar yo‘q. Amerika maktablarida texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlangan, sinflar kompyuterlashtirilgan. Har bir maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tashiydigan maxsus avtobuslar, stadionlar, turli laboratoriyalar bor. Amerika maktablarining aksariyati davlat ixtiyorida bo‘lib, davlat mablag‘i bilan ta’minlanadi. Lekin shaxsiy maktablar ham anchagina. Katta

shaharlarda yashovchi o‘ziga to‘q ota-onalar farzandlarini shaxsiy maktablarga berishga harakat qilishadi. Davlat maktablarida tekin, shaxsiy maktablar esa pullik o‘qitiladi. Vashington shahridagi shaxsiy maktabda bolani o‘qitish uchun bir yilga taxminan o‘n ming dollar to‘lash kerak. Bunday maktablarda boy oila farzandlari ta’lim oladilar. Shaxsiy maktablarning har biri o‘zi xos xususiyatlarga, maxsus dasturlarga, maxsus o‘qituvchilarga ega. Bunday maktablarda sinfda o‘qiydigan o‘quvchilar soni kam bo‘ladi. Shaxsiy maktablarda boshlang‘ich sinflardan boshlab estetik tarbiyaga, san’atga alohida e’tibor beriladi.

Amerika davlat maktablarining yuqori sinflaridagi o‘qish-o‘qitish tizimi biznikidan tubdan farq qiladi. Yuqori sinflardagi har bir o‘quvchiga alohida o‘qituvchi-murabbiy biriktiriladi. U shu o‘quvchining qobiliyati, qiziqishlarini sinchiklab o‘rganib, faqat shu o‘quvchiga mos alohida reja tuzadi, uning o‘qishiga rahbarlik qiladi. U o‘rganishi lozim bo‘lgan majburiy fanlar ro‘yxatini tuzib chiqadi. Masalan, 9-sinf o‘quvchisi bir fandan, deylik, kimyodan kuchli bo‘lsa-yu, chet tilidan oqsasa, bu o‘quvchiga 9-sinfda o‘ninchi sinf rejasi bo‘yicha kimyoni o‘rganishga ruxsat etiladi. U chet tilini 9-sinf hajmida yoki engillashtirilgan reja bo‘yicha o‘rganishi mumkin. Kimyodan yoki matematika, biologiya, fizika va boshqa tabiiy fanlardan maktab rejasini muddatidan oldin tugatgan, barcha nazorat ishlarini topshirgan o‘quvchiga maktabda o‘qib yurgan vaqtidayoq shu fanlar bo‘yicha o‘zi kirmoqchi bo‘lgan kollejning birinchi kursi imtihonlarini ham topshirishiga imkoniyat yaratiladi.

Amerikaning Yuqori maktablarida shunday o‘qituvchilar borki, ular kollejlarning birinchi kurslarida o‘qitiladigan ma’lum fanlardan dars berishlari hamda imtihon olishlari shart. Amerika maktablarida bitirish imtihonlari yo‘q. Oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun bizdagidek kirish imtihonlari olinmaydi. Biroq har bir abiturient oliy o‘quv yurtiga kirish uchun matematika va ingliz tilidan sinov (test) topshiradi. Bunday testlar Amerikada har yili 3-4 marta o‘tkaziladi. Sinov savollari kitob shaklida har yili chop etiladi. Ularda mingga yaqin mashqlar, masalalar va ularning echimlari ko‘rsatiladi. Sinflarda qanday savollar bo‘lishi bizga o‘xshab sir tutilmaydi, balki ochiq-oydin «matematika va ingliz tilidan bu yil mana shu savollarga javob berish lozim» deb ko‘rsatiladi. O‘quvchilar bu kitobni olib, kirish sinovlariga tayyorlanadi.

Amerikada talabalar matematika va ingliz tilidan kirish sinovlarini 10-12 sinflarda o‘qib yurgan vaqtlarida, o‘zlariga qulay paytda topshira oladilar.

Amerika oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun belgilangan sinov (test)lar ikki xil bo‘ladi:

SAT (Sxolastik ailmityud test);

AKT (Amerikan kollej test) sinovlari.

SAT sinovlari murakkabroq bo‘ladi. Mashhur universitetlarga kirish uchun SAT sinovlarini topshirish shart bo‘ladi.

Bulardan tashqari murakkablashtirilgan sinov ham bor. Bu sinovni oliy maktablarga kirayotgan barcha talabalar ham topshirishlari shart emas. Mabodo biror talaba shu murakkablashtirilgan sinovlarni topshirib universitetga kirsa, u talabaga maxsus stipendiya beriladi. Amerikaning eng katta boyligi bu aql. Aql bu mamlakatda qadrlanadi, aqlli talabalar alohida taqdirlanadi. Aqlli, a’lochi talabalar o‘quv yurtlarining faxri sanalgani sababli ham, ularga turli yo‘llar bilan yordam berish, stipendiyalar tayinlash orqali ularni o‘quv yurtlarida saqlashga harakat qiladilar. O‘zi tanlagan sohada yutuqlarga erishayotgan talabalar ro‘yxati har yili alohida kitobda nashr etilib turiladi. Bundan maqsad mazkur soha bilan qiziquvchi kompaniyalarning e’tiborini bo‘lajak olimlarga qaratishdir.

Yuqorida sanab o‘tilgan sinovlarning natijalari va yuqori sinflarda barcha fanlardan olgan baholarining o‘rtacha miqdori talabani universitetga qabul qilish yoki qilmaslik uchun asos hisoblanadi. Amerika kollejlari ikki yillik va to‘rt yillik bo‘ladi. Ikki yillik kollejlarni bitirgan talaba oliy ta’lim pog‘onasidagi eng birlamchi darajaga ega bo‘ladi. To‘rt yillik kollejlarni tugatgan talabalar bakalavr darajasini olib, oliy ma’lumotning birinchi pog‘onasiga erishadilar. To‘rt yillik kollejlar bizning to‘rt yillik institut va ayrim universitetlarga mos keladi. Amerika universitetlari tarkibiga ikki va to‘rt yillik kollejlar, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda ikkinchi bosqich oliy ma’lumot beruvchi o‘quv yurtlari kiradi.

Ikkinchi bosqich oliy ma’lumot beruvchi o‘quv yurtlari bizning aspiranturaga to‘g‘ri keladi. Bu o‘quv yurtiga kirish uchun ikki fandan imtihon topshirilishi shart. O‘qishni muvaffaqiyatli bitirgan talaba magistrlik darajasini oladi. Magistrlik ilmiy darajasini olgan talaba doktoranturaga kirishi mumkin. Amerikada doktoranturaga kirish uchun faqat mutaxassislikdan jiddiy imtihon topshiriladi. Imtihon komissiyasi tarkibida talabaning bo‘lajak ilmiy rahbari ham ishtirok etadi. O‘qishni muvaffaqiyatli bitirib, dissertatsiya yoqlagan talaba doktorlik ilmiy darajasini oladi. Ijtimoiy fanlardan doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan talabalarning hammasiga «falsafa doktori» ilmiy unvoni beriladi. AQSH maktablari – oliy maktabgacha mana shunday bosqichlarga ega.

2-asosiy savolning bayoni.

Yaponiya ta’limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o‘z oldiga ikki vazifani: 1- boyish, 2 -G‘arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo‘yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish kerakligi aytiladi.

1872 yili «Ta’lim haqida Qonun» qabul qilindi. Bunda yapon ta’limi G‘arb ta’limi bilan uyg‘unlashtiriladi. 1908 yil Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893 yili kasb yo‘nalishidagi dastlabki kollej paydo bo‘ldi.

1946 yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta’lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta’lim olishlari shart ekanligi belgilab qo‘yilgan. Hozirgi zamon yapon ta’lim tizimlarining tarkibi quyidagicha: bog‘chalar, boshlang‘ich maktab, kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab, oliy ta’lim tizimlariga kiruvchi o‘quv yurtlari. Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3,2,1 yillik ta’lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta’lim muassasalarining 59,9% xususiy, 40,8% munitsipal, 0,3% davlatnikidir.

Majburiy ta’lim. Ta’limning pog‘onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘z ichiga oladi. 6 yillik boshlang‘ich ta’lim va 3 yillik kichik o‘rta maktab, 9 yillik majburiy ta’limni tashkil etadi va u bepuldir, tekin darsliklar bilan ta’minlangan. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o‘quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta’minlanadi. Zarur bo‘lgan taqdirda ularning oilalariga moddiy yordam ko‘rsatiladi. Shu qatorda xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori bosqich o‘rta maktab 10,11,12-sinflarni o‘z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo‘limlari mavjud. O‘quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o‘qiydilar.

Yaponiyada o‘quv yili 240 kun (AQSH da 180 kun). O‘quv yili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o‘tiladi.

Dorilfununlarga katta o‘rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o‘quvchilar qabul qilinadi. U erda 460 ta universitet bo‘lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiy, 1- toifadagi universitetlarda har bir o‘qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to‘g‘ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo‘linadi: 1-bosqichi turar joyda o‘tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo‘yicha test sinovlaridan o‘tadilar.

Bu sinovlardan o‘tgan o‘quvchilar universitetlarga yo‘llanma oladilar va yana sinovdan o‘tadilar. Xususiy universitetlarga esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o‘zining uzluksiz shaxobchasiga esa (bog‘chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi). Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o‘qish muddatini cho‘zish mumkin (4 yillik o‘qish 5-6 yilgacha cho‘zilib ketishi mumkin).

Kollejlar:

1 - kichik kollej;

2 - texnik kollej

3 - maxsus kollejlarga bo‘linadi.

Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3 yoki 4 kurslariga qabul qilinadi.

Janubiy Koreyada ta’lim haqidagi Qonun 1948 yilda qabul qilingan. Ta’lim tizimiga asos qilib an’anaviy g‘arb modeli olingan: 6 yil – quyi maktab, 3 yil – o‘rta, yana 3 yil – oliy maktab; so‘ngra to‘rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o‘rganilgandan so‘ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo‘lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Mamlakatda oliy o‘quv yurtlarining ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Koreyada 104 ta oliy o‘quv yurti bor, ularning 80 % xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o‘quv yurtlarida o‘qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 % o‘qishga kiradi. Talabalar soni bo‘yicha Koreya dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Lekin maktabgacha ta’lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojni qondira olmayapti. SHuning uchun 1982 yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu erda tarbiyaga bolalar bog‘chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir.

Boshlang‘ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig‘izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o‘qiydi. Dars yuklamalari ham ko‘proq. Lekin o‘yinlar dam olish o‘quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor.

Boshlang‘ich maktabda dars 40 daqiqa davom etadi. O‘rta maktabda esa darslar – 45 daqiqa.

Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 daqiqaga teng. Bu erda ikki muhim jihatga to‘xtalib o‘tish zarur. Oliy maktabga, albatta, kirish imtihonlari topshirib kiriladi, o‘qishlar pullik.

Boshlang‘ich maktabda 9 ta fan o‘qitiladi. Koreys tilini o‘rganishga alohida e’tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o‘qitiladi.

O‘rta maktabda fanlar yana 4 taga ko‘paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o‘rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e’tibor kuchli. Ko‘pchilik bu tilda bemalol gaplasha oladi. Chet tillarni o‘qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni klassik xitoy tilini majburiy ravishda o‘rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o‘rganiladi.

Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo‘lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari etishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo‘jalik ixtisoslari o‘zlashtiriladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta’lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir.

Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e’tibor kuchli. So‘nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktablar ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta’sir ko‘rsatgan.

Koreyada nogironlarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikni har qadamda kuzatish mumkin. Aytaylik, bu erda aravachalar yordamida harakatlanuvchilar uchun er osti liftlari mavjud, maxsus jihozlangan, past qilib qurilgan telefon-avtomatlardan nogironlar bemalol foydalanadilar, rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag‘lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din o‘qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o‘qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan.

Bu fan o‘z ichiga dinni ham qabul qiladi. U qotib qolgan bir narsa sifatida emas, qadriyat sifatida o‘qitiladi. Bu butun tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma’naviy tarixni o‘rganish maktab fanining majburiy davomi hisoblanadi.

Maktablar uchun o‘qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e’tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo‘lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o‘qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provinsiya o‘z kollejiga ega. Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi bo‘lish uchun 2 yil o‘qish kerak. Fan o‘qituvchisi birmuncha ko‘proq o‘qiydi.

Koreyada o‘qituvchining ish haqi 700 dollarga teng. Agar bunga pedagogika oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishdagi yuqori tanlovni ham qo‘shadigan bo‘lsak, bu mamlakatda o‘qituvchi kasbining e’zozlanishi sabablari ayondir.

Janubiy Koreyada ta’limning obro‘si naqadar kattalagini quyidagi misoldan ham ko‘rsak bo‘ladi:

- soliqlar tizimida ta’limiy soliq joriy qilingan;
- ishlab chiqaruvchilar foydaning ma’lum foizini maorifga yuboradilar;
- davlat byudjetining 24 foizi ta’limga sarflanadi.

Mamlakat prezidenti (u xalq ta’limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provinsiyalar ta’lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta’limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda maorifga qanchalar zo‘r ahamiyat berilishini ko‘rsatib turibdi

3-asosiy savolning bayoni.

Fransiya ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda «Ta’lim haqida»gi Qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga qator o‘zgartirishlar kiritilgan.
Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta’lim haqida»gi Qonuni 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo‘lib, uning o‘zgartirilishiga ta’lim strategiyasida ro‘y bergan o‘zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatdagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg‘or tajribalarning mamlakat ta’lim tizimlariga kirib kelishi, o‘quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo‘ldi.
Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Fransiyada:
-davlat maktablari;
-xususiy maktablar;
-oraliq maktablari mavjud.
O‘qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o‘qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo‘lib hisoblanadi. Ular uchun dars vaqtining 30% ajratiladi. O‘rtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi esa 60 minut. O‘quv yili 5 chorakka bo‘linadi. Fransuz maktablari boshlang‘ich sinflarida o‘qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo‘linadi. Ertalab o‘quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti baza predmeti, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.
Fransiya ta’limida bolalarning go‘daklik chog‘idanoq maktabda o‘qitish uchun tayyor holda olib kelish g‘oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o‘rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo‘lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.
Fransiyada boshlang‘ich ta’lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang‘ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o‘qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O‘quv mashg‘ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha, hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish uch bosqichda amalga oshiriladi:
-tayyorlov bosqichi;
-elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
-chuqurlashtirilgan bosqich.
Dasturlarda o‘quv predmetlarning barchasiga uch bosqich bo‘yicha aniq, alohida-alohida talablar qo‘yiladi.
1990 yildagi hukumat qarorida bolalarni bilimi, qobiliyatiga qarab dars jadvalini tabaqalashtirgan holda tuzish huquqi berildi.
O‘quvchilar 11 yoshda boshlang‘ich maktabni tugallab o‘rta maktabga o‘tadilar. O‘rta ta’lim esa kollejlar va litseylarda amalga oshiriladi. O‘rta ta’lim ikki bosqichda beriladi. Birinchi bosqich (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo‘lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5-4 o‘rta sinf, 3-sinf esa katta sinf hisoblanadi. Demak sinflarni raqamlash yuqoridan pastga qarab amalga oshiriladi. 6-5 sinflar umumiy o‘rta ta’lim, 4-3 sinflar esa o‘quvchilarning moyilligiga qarab beriladi. Bu birinchi bosqichni tugatgach, o‘quvchilar kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha guvohnoma oladilar. So‘ngra ikkinchi bosqich boshlanadi. Bu bosqichda 15-18 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta’lim oladilar. Ular uch yil o‘qib bakalavr unvoni va diplomi uchun imtihon topshiradilar. Ana shunda diplom olgan o‘quvchilargina oliy o‘quv yurtlarga qabul qilinish huquqiga ega bo‘ladilar. Fransiyada talabalar pedagogika, politexnika instituti, oliy ma’muriy maktablarga kirish uchungina imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko‘riladi. Boshqa oliygohlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo‘lgan yoshlar imtihonsiz qabul qilinaveradi.
Oliy ta’lim universitetlarda uch turkumda amalga oshiriladi.
-Birinchi turkum: umumiy bo‘lib, o‘qish muddati ikki yil davom etadi.

-Ikkinchi turkum: o‘qish bir yil davom etadi. Talabalar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi.
-Uchinchi turkum: o‘qish 1-2 yil davom etadi. Bu siklda biron bir predmetni chuqurlashtirib o‘rganilganligi haqida diplom 1 yil , ixtisoslashtirilgan oliy ma’lumot to‘g‘risida diplom 1-yil, uchinchi turkum doktorlik dissertatsiyasi 1-2 yil, davlat doktorlik dissertatsiyasi biron-bir sohani mukammal o‘rganib dissertatsiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.
Fransiyada oliy ma’lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko‘rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O‘qish muddati 2 yil bo‘lib, sakkiz xaftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko‘zda tutadi.
Sirtqi ta’lim shoxobchalari juda keng bo‘lib, u 500 turdagi o‘rta, oliy professional ma’lumot berishni tavsiya eta oladi.
Fransiyada maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta’limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o‘qiydilar. Bunday markazlarda ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta’limdagi yuridik masalalar, qonunchilik, ota-onalar bilan ishlash, madaniy oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi psixologik muhitni barpo etish kabi jihatlarni o‘rganadi. O‘qishni yakunlagach, suhbatdan, test imtihonlaridan o‘tadilar. Direktor dars bermaydi. Uning ish faoliyatini ikki yil davomida diqqat bilan kuzatib boriladi. Shu ikki yil davomida maktab direktori talantli tashkilotchi, etuk rahbar sifatida faoliyat ko‘rsata olmasa, u bu lavozimidan olib tashlanadi. Maktab o‘quvchilariga qo‘yilgan talab Fransiyada o‘ta yuqori. Ayniqsa, boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchi o‘z kasbini ustasi, ajoyib notiq, san’atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq-atvor egasi bo‘lmog‘i lozim.
O‘qituvchilar o‘z nazariy uslubiy malakalarini oshirishga ahamiyat beradilar. Malaka oshirish kurslaridan o‘tish uchun aniq muddat belgilab qo‘yilmagan. O‘qituvchilar o‘z ixtiyorlari bilan test markazlarida imtihon topshiradilar.
Shu imtihonlar davrida o‘qituvchi faoliyatida ayrim nuqsonlar sezilib, malaka oshirishga ehtiyoj aniqlansa, o‘z vaqti va mablag‘lari hisobiga malaka oshiriladi.
2000 yilda Fransiya maktablaridagi ahvol sinchiklab o‘rganilib, o‘quvchilarning ko‘pchilik darslarga kirmay boshqa ishlar bilan mashg‘ul bo‘lib yurishi aniqlangach, bu kamchilikni tuzatish uchun jiddiy choralar ko‘rilmoqda. Politsiyani bu ishga jalb etib, dars vaqtida boshqa joylarda yurgan bolalarni tutish, ularga jarima solish va maktabga eltib qo‘yish yuklatiladi. O‘z farzandlarini maktabga yubormogan ota-onalarni esa sud hukmi bilan jazolanadi. Unda hatto qamoq jazosi ham belgilab qo‘yilgan. Chunki aynan darsga qatnashmay yurgan bolalar o‘rtasida narkomaniya va huquqbuzarlik kabi holatlar ko‘p uchraydi. Umuman Fransiyada ta’lim tizimini rivojlantirish uchun bu yil juda katta mablag‘ ajratilgan.
Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta’lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarix bor. Bolalar bog‘chalari ta’limning quyi bosqichi hisoblansada, Lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog‘chalarni mablag‘ bilan ta’minlash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog‘chalariga o‘z farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to‘laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog‘chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog‘chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo‘ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog‘chalar ham bor.
Majburiy ta’lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga tegishli, ya’ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba’zi joylarda 10 yil) maktabda to‘la haftalik o‘qishda o‘qiydi. O‘qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ozroq. O‘qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang‘ich maktabdan so‘ng o‘quvchilar yo‘nalish bosqichidagi maktabga o‘tadilar. Bu erda 5-6 sinf bosqichidagi yo‘nalish maktablarda maxsus dastur asosida o‘qiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga ko‘chadilar: bular – asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o‘tadi. 9 yoki 10 yillik o‘qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o‘tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo‘lgan bolalar o‘qiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o‘rtasida turadi. Qoidaga ko‘ra bu erda o‘qish 6 yil davom etadi (5-10 sinfgacha) va to‘la o‘rta ma’lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini

tugatganlar o‘rta maxsus o‘quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o‘qish huquqiga ega bo‘ladi.
Germaniyada gimnaziyalar ham mavjud. Ular 5-13 sinflarni o‘z ichiga oladi. 11-13 sinflar oliy o‘quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Gimnaziyani bitirganlik haqidagi etuklik attestati oliy o‘quv yurtida o‘qish imkonini beradi. Germaniya ta’lim tizimida hunar ta’limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talab kuchlidir. To‘liqsiz o‘rta maktabni bitiruvchilarning esa 20% hunar ta’limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o‘qish muddati 3—3,5 yilni tashkil etadi. O‘qish uch bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi yili asosiy hunar ta’limi beriladi. Bunga o‘qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta’limi beriladi. O‘quvchining birinchi yilda ikkinchi yilga o‘tishi sinov imtihonlari o‘tkazilib o‘qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta’limi yanada chuqurlashtirilib boriladi.. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a’zolari korxonalarning etakchi mutaxassislari, federal erlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O‘qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta’limi to‘g‘risidagi hujjatga asosan oshiriladi.
Oliy maktab o‘z-o‘zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o‘quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O‘z-o‘zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o‘qishi erkin tashkil etilgan. Ko‘p sonli o‘quv bosqichlari bilan birga o‘quv rejalari taklif etiladi. O‘qishga haq to‘lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat harajatlarini ko‘tara olmasa o‘qish uchun moliyaviy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi federal qonunga ko‘ra ular moliya yordamida oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo‘shib berilsa, ikkinchi yarimi qarz tariqasida beriladi. Mamlakatda ta’limning isloh qilish masalasi ko‘pdan buyon muhokama qilinmoqda, bunda o‘quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Hozir universitetlarda talabalar 7 yil o‘qiydi. Ular o‘qishga kirganlariga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni hisobga olsak, talabalar haqiqiy mehnat faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz.
Germaniyada Xalq universitetlari mavjud bo‘lib, ular partiya va dindan tashqari muassasa. Ularning ko‘pchiligi kechki bo‘lib, faqat 1989 yilda universitetlarda 400000 kurslar tashkil etilgan va bu kurslarda, 5,5 mln. tinglovchi malaka oshirgan. Davlat malaka oshirganlarni rag‘batlantiradi va bu uchun har yili 5,5 mln. marka mablag‘ ajratadi. Malaka oshirish kurslarida o‘qish davrida tinglovchilarga mablag‘ bilan moliyaviy yordam beradilar. Asosan ishsizlar o‘z malakasini oshirish imkoniyatlaridan ko‘proq foydalanadilar va bu bilan ish topishlari tezlashadi. YArim yil davomida malaka oshirgan ishchilarning 75% ish bilan ta’minlanadi. CHerkovlar ham fuqarolarning bilim darajalarini oshirishda faol ishtirok etadi. Evangel cherkovi o‘zining 15 akademiyasida dolzarb mavzular bo‘yicha konferensiyalar tashkil etadi.
Katoliklar malaka oshirishda nikoh, oila masalalariga, teologiya va madaniyat sohalariga katta ahamiyat beradilar.
Oliy o‘quv yurtlarida tadqiqot bilan shug‘ullanish ularning qadimiy an’analaridan biri. O‘tgan asr boshlarida Vilgelm fon Gumboldt pruss universitetlarini isloh qildi, o‘shandan beri «Tadqiqot va o‘qitish birligi» ularning hayotiy prinsiplariga aylanib qolgan. Oliy o‘quv yurtlari tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishi-fundamental amaliy tadqiqot bo‘lib, ularga boshqa ilmiy-tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi. Germaniya ta’limi o‘ziga xos yo‘nalishga, juda murakkab tizimga ega. Shu bilan bir qatorda hozirda Germaniyada ta’lim tizimini isloh etish yo‘lida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlar
1. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’lim yo‘nalishlari qanday belgilangan?
2. AQSHda ta’lim tizimi qanday tashkil etilgan?

3. YAponiya ta’lim tizimi haqida gapirib bering.
4. Janubiy Koreyada ta’lim tizimi qanday tashkil etilgan?
5. Fransiyadagi ta’lim tizimini so‘zlab bering.
6. Germaniya ta’lim tizimi qanday tashkil etilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

I.A.Karimov. Ijobiy ishlarimizni oxiriga etkazaylik.-T., O‘zbekiston, 1994. 8-9b
2.Rahimov S. Abu Ali ibn Sino. Ta’lim va tarbiya haqida. - T., O‘qituvchi, 1967, 75-b.
3. Mavlonova R., To‘raeva O., Xohqberdiev K. Pedagogika. –T., O‘qituvchi, 2007
4. Zununnov A. Pedagogika tarixi. – T., “FAN”, 2010
5.R.Movlonova.Umumiy pedagogika - Fan va texnologiya Toshkent- 2018.

4-MODUL.
IV-SEMESTR SEMINAR MASHG’ULOTI MATERIALLARI
Seminar mashg’uloti -1.
Mavzu: Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
Reja:

1. Xalq pedagogikasi mazmuni va tarbiya metodlari tizimi.
2. O’rxun-Enasoy obida-larining tarbiyaviy ahamiyati.
3. “Avesto”da ta’limiy-axloqiy masalalar.
4. Hadis ilmining paydo bo’lishi va muhaddislarning hadis ilmining yaratilishdagi xizmatlari.
5. Al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” va “As-sahih” asarlari hamda ularning mazmuni.
6. Hadislarning ta’lim-tarbiya uslublari.
7. Imom at-Termiziyning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari. Hadislarning tarbiya-viy ahamiyati.

O`quv mashg`ulotining maqsad: Biz pedagogika tarixi fanini o’rganish va tahlil qilishda: qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo’lyozma yodgorliklari, sharq mutafakkirlarining ilmiy – ma’naviy me’rosi, xalq og’zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, dasturlar, o’quv qullanmalari va darsliklar, xalq maorifi masalalariga oid materiallar orqali o’rganadilar.
O`quv faoliyatining natijalari: Eng qadimgi yozma yodgorliklardagi ta’lim-tarbiya haqida so`zlab beradi.
Hadis lilmining paydo bo’lishi va ularga hissa qo’shgan muhaddis olimlar haqida ma`lumot o`rganiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:
Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o’ziga xosligi nimalarda namoyon bo’ladi?
Qadimgi yozuvlar va ularning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
Halq og’zaki ijodida insondagi qaysi xislatlar ulug’langan?
Hadis ilmining tarbiyaviy ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?

1-keys topshirig’i. Quyida berilgan mavzularga mos hadislarni toping va mazmunini yoritib bering.
1) ona-onani e’zozlash;
2) yetim-esirlar, ehtiyojmand kishilarga yordam ko’rsatish;
3) nafsni tiyish;
4) halollik, poklik, rostgo’ylik;
5) sabr-bardoshlilik, chidamlilik;
6) oilaparvarlik;
7) bunyodkorlik.

Nazorat savollari:
1. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o’ziga xosligi nimalarda namoyon bo’ladi?

2. Qadimgi yozuvlar va ularning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Halq og’zaki ijodida insondagi qaysi xislatlar ulug’langan?
keltiring.
4. “Avesto”dagi axloqiy uchlik jadvalini tuzing.
5. Qadimgi turkiy bitiglarda ulug’langan xislatlarni yozib chiqing va mazmunini izohlang.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Eng qadimgi davrlarda ta`lim-tarbiya mazmuni qanday bo’lganini tavsiflang.
2. Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga doir fikrlar.
3. Halq og’zaki ijodida insondagi qaysi xislatlar ulug’langan?

Mavzu bo’yicha ilmiy xulosalar:

1.Talabalar eng qadimgi yozma manbalardagi ta’ilm-tarbiya oid fikrlarni mazmun mohiyatini izohlashi.
2.Hadis ilmining paydo bo’lishi va hadisshunos olimlarning ilmiy ijodini o’rganish.

Umumiy tushunchalat.

Ibtidoiy jamoa tuzumida tarbiyaIbtidoiy jamiyat insoniyat tarixining dastlabki davri bo’lib, mazkur davrda yozma manbalarning saqlanib qolmaganligi ushbu davrda tarbiyaning amalga oshirilishini arxeologik manbalarga asoslangan holda tahlil etishni talab etadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi ikki davrga bo’linadi: 1) ibtidoiy to’da; 2) o’rug’chilik jamoasi.

Qadimgi tosh asri	Peleolit: ilk o’rta so’nggi	 mil. av. 700G’500-100 ming yilliklar. mil. av. 100-40 ming yilliklar. mil. av. 40-12 ming yilliklar.
O’rta tosh asri	Mezolit	mil. av.12 – 7 ming yilliklar.
Yangi tosh asri	Neolit	mil. av. 6-4 ming yilliklar.
Mis-tosh asri	Eneolit	mil. av. 4-3 ming yilliklar.
Bronza davri	Bronza davri	mil. av. 3-1 ming yilliklar.
Temir asri	Ilk temir asri	mil. av. X-VIII asrlar.
	So’nggi temir asri	VII–IV asrlar

Insoniyat faoliyatining asosiy turi sifatida tarbiyaning yuzaga kelishi mil.av. 40-35 ming yilliklarda zamonaviy qiyofadagi odamlar (“homo sapiens”- “ongli odam”)ning paydo bo’lishi bilan bog’liq. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida mehnat tarbiyasi yetakchi o’rin tutgan. Ana shu asosga ko’ra mehnat bilan bog’liqlikda kishilar uch guruhga bo’lingan: 1) bolalar va o’smirlar; 2) ijtimoiy hayot va mehnatda to’la ishtirok etuvchilar; 3) keksalar.

Co’nggi paleolitda insoniyat o’z taraqqiyotida yana bir bosqich yuqori ko’tarildi. Odamlar ilk to’da tarzida yashamay qo’ydilar va qarindosh-urug’chilik jamoalariga bo’lindilar. Jamiyatda juft oilalar paydo bo’ldi, ular ayrim urug’larni birlashtirib, urug’ jamoasini tashkil etdilar. Odamlar g’orlardan tashqari erto’la va chaylasimon uylarda ham yashashga o’rgandilar. Juft oilalarning paydo bo’lishi haqida kichik uy-joylarning tarqalishi darak beradi.

O’sha zamon jamoasida ona-ayolning ijtimoiy o’rni baland bo’lib, urug’ uning nomi bilan boshlangan. Ayollar uy, o’choq va muqaddas olovning egasi sifatida uy xo’jaligida hamda bolalarni tarbiyalash jarayonida, o’choqda o’tni saqlashda, ovqat pishirishda, ro’zg’or buyumlarini, mehnat qurollarini qo’riqlash, uy-boshpanani asrash paytida muhim vazifalarni bajarganlar.

Mezolit davrida O’zbekistonda qoyatosh suratlari kashf etilgan. Ularning ba’zisi rang berib cheqilgan, ba’zilari o’yib ishlangan. Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy qoya tasvirlari mezolit davriga oid. Ular qadimgi odamning fikru o’ylari, atrof-muhit haqidagi tasavvuri, qanday hayvonlarni ovlagani, qaysi mehnat va ov qurollarini qo’llagani haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Neolit davrida ona urug'i matriarxat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tadi. Urug' jamoalari kattalashadi va ularni bir joyda boqish amri mahol bo'lib qoladi. Oqibatda urug' jamoasidan mayda guruxlar-kichik oilalar ajralib chiqa boshlaydi.
O'rta Osiyo hududida bronza davri miloddan avvalgi 3-mingyillik o'rtalaridan boshlanadi va miloddan avvalgi 2-mingyillikka kelib o'z rivojining yuksak darajasiga etadi.
Patriarxat urug'chilikka o'tish patriarxal oilaning vujudga kelishiga olib keladi. Sunday oila bir-biriga qarindosh ota urug'i bo'yicha yuritiladigan bir necha avlodlardan iborat bo'ladi.
Xalq pedagogikasi – empirik bilimlar sohasi sifatida
Xalq pedagogikasi xalq ommasi orasida hukmronlik qiluvchi tarbiyaning maqsadi va vazifalariga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi amaliy pedagogik bilimlar va tajribasining sohasidir.
Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tajribasidan joy olgan empirik pedagogik bilimlar, ma'lumotlar, malakalar va ko'nikmalarning zamonaviy maktab va oila tarbiyaviy sistemasida bolalar va o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun zarurligi(qulay shart-sharoiat yaratishi) tushuniladi.
Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda xalq ommasining yoshlarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o'stirish va axloqiy nafosat g'oyalarini egallashlarida qo'llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy maktab o'qitash jarayonida qo'llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san'atga o'rgatishning xalq orasida tarkib topgan uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin. Xususan, ganch va yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, musiqa asboblari yasash, kulolchilik va boshqa ko'plab amaliy can'at turlarini egallashning xalq ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o'z usullari, uslub va vositalari mavjud. Ulardan milliy maktabdagi mehnat ta'limi darslarlda yoki to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berishda foydalanish mumkin.
O'zbek xalq poetik ijodida bolalarni oilada va bola yashab turgan muhitda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan o'ziga xos xilma-xil metod va vositalari mavjud ekanligi ko'rinadi.
Yuqorida aytib o'tilganidek, xalq ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida qo'llaniladigan: tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish (o'rganish, mashq qildirish), iltimos qilish, tilak-istak bildirish, yolvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, olqish (oq yo'l tilash), taqiq qilish, ta'na (gina, o'pka) qilish, mashara - mazax qilish, majbur qilish, tanbeh berish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, uzr so'rash, ont - qasam ichirish, la'natlash, so'kish, urish, kaltaklash metodlari bo'lsa-da, yoshlarning insoniy fazilatlarini tarbiyalashda asosan: o'git-nasihat, ibrat ko'rsatish, ma'qullash va maqtash, alqash, mukofotlash, qoralash - qarg'ish, jismoniy jazo berish kabi metodlardan foydalanilgani ko'zga tashlanadi.
Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi
"Avesto"dagi ta'limiy-axloqiy g'oyalar. "Avesto"- zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insonni kamolotga erishuvida mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag'rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan.
Zardushtiylik dinining nomi ushbu din asoschisi Zardusht (turli tillarda Zaratushtra, Zoroastr) ismidan olingan. Uning tug'ilgan joyi noma'lum. Zardusht miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi choragida yashagan.
Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi - mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi.
Zardushtiylik yoyilayotgan davrda ibodatxona ham, maxsus ilohiy kitoblar ham bo'lmagan. Diniy marosimlar ochiq havoda, gulxan yonida ado etilgan. Keyinchalik kohinlar Zardusht va'zlarini yozib borganlar. Zardusht dini kohinlari bunday diniy matnlarni yod bilganlar va ibodat paytida o'qiganlar. Zardusht vafotidan bir necha asr o'tgach barcha diniy marosimlar, madhiya va duolar kitob holiga keltirildi. Bu zardushtiylar muqaddas kitobi «Avesto» edi. «Avesto» so'zi «qat'iy qonunlar» ma'nosini bildiradi.

Zardushtiylar hayotining asosiy mazmuni xayrli ish, shirin so’z, olijanob o’y-fikrdan iborat bo’lgan. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo’lmog’i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g’alaba qilishini ko’zlab yashash kerak: yolg’on gapirmaslik, so’zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq.
Zardusht dini bo’yicha har bir inson hayot yo’lini o’zi belgilaydi; kimga yon bosmoqlik, kimni himoya qilishni o’zi hal qiladi.
Zardushtiylikda olov, er, suv va havo muqaddas sanaladi. Ularni yomon, yovuz narsalar bilan aralashtirmaslik lozim.
Zardusht diniga ko’ra, atrofdagi dunyo ikki qismdan tashkil topgan: yaxshilik va yomonlik. Bular o’rtasida azaldan kurash ketadi. Masalan, nur bilan qorong’ulik, hayot bilan o’lim, ezgulik bilan yomonlik, qonun bilan qonunsizlik o’rtasida.
“Avesto”dagi ta’limiy-axloqiy g’oyalar
Zardushtiylar hayotining asosiy mazmuni xayrli ish, shirin so’z, olijanob o’y-fikrdan iborat bo’lgan. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo’lmog’i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g’alaba qilishini ko’zlab yashash kerak: yolg’on gapirmaslik, so’zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq.
Zardusht dini bo’yicha har bir inson hayot yo’lini o’zi belgilaydi; kimga yon bosmoqlik, kimni himoya qilishni o’zi hal qiladi.
Zardushtiylikda olov, er, suv va havo muqaddas sanaladi. Ularni yomon, yovuz narsalar bilan aralashtirmaslik lozim.

Zardo’shtiylik axloqining asosiy uchligi



O’rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida ta’lim-tarbiya masalalari. VII – VIII asrlarda qabr toshlariga turk-runiy yozuvida o’yib bitilgan «Urxun-Enasoy» bitiglarida ham bolalarni vatanparvar, xalqparvar, tadbirkor, uddaburon, oqil qilib tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Qultegin bitigida turk xalqini uzoqni ko’ra olmaganligi natijasida Tabg’ach eliga qaram bo’lib qolganligi, kelgusi avlodlar bunday xatoliklarni takrorlamasliklari zarurligi quyidagicha uqtiriladi: «So’zimni tugal eshitgil, keyindagi inim, urug’im, xalqi bu so’zlarni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla, Tabg’ach xalqining so’zi shirin, ipak kiyimi nafi ekan. Shirin so’zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu holda birlashtirar ekan . Yaxshi dono kishini, yaxshi alp kishini yo’latmas ekan. Biror kishi adashsa, urug’i, xalqi, uyi, yopinchig’igacha qo’ymas ekan. Shirin so’ziga, nafis ipagiga aldanib, ey turk xalqi, o’lding».
Pedagog olima A.S.Kaldibekovaning fikricha, bu bitigtoshlarda bolalarni baynalmilallik ruhida tarbiyalash masalasiga ham e’tibor qaratilgan. Bitigtoshlarda turk xalqining Tabg’ach xonligiga qarshi olib borgan urushlari ham ifoda etilgan. Biroq turk xonlari (To’nyuquq, Qultegin, Bilga hoqon, Eltarish hoqon) Tabg’ach xonlarining botirligi, siyosatdonligi, ishbilarmonligi, vatanparvar hamda elsevarligini inkor etmaydi. Ayni shu jihatlarni turk xalqida mujassam bo’lishini chin dildan istaydi.

Seminar mashg’uloti -2.

Mavzu:VII –asrdan XIV – asrning birinchi yarmigacha O’rta Osiyo tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar
Reja:
1. Islom dinining tarqalishi va uning ta’lim-tarbiyaga ta’siri.
2. Musulmon maktablari va unda ta’lim-tarbiya mazmuni.

3. Qur’oni Karim – axloqiy-falsafiy ta’limotlar manbai.
4. Hadis ilmining paydo bo’lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo’shgan hissasi.

Umumiy tushunchalar

Islom dinining tarqalishi va uning ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Ma’lumki, jahon madaniyati xazinasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan arab tilidagi adabiyot faqatgina arablar emas, balki ko’pgina xalqlar namoyandalari tomonidan yaratilgan o’lmas yodgorlik bo’lib, u o’z taraqqiyotida uzoq va murakkab yo’lni bosib o’tdi. Abbosiy xalifalar G’750-1258G’ davrida, ayniqsa dastlabki, uch asrda fan va adabiyot, shuningdek, tarixnavislik ham ravnaq topdi. Xalifalikning poytaxti Bag’dod shahri adabiyot va ilmiy tafakkurning markazlaridan biriga aylanib, arab tili esa ilm va fan ahllari uchun asosiy vosita rolini o’ynadi.

Islom dini 8 asrning boshlaridaMarkaziy Osiyoniarablartomonidan istilo qilinishi oqibatida kirib kelgan. Keyinchalik Temuriylar imperiyasi va Mongol imperiyasi, shu jumladan, Markaziy Oiyo va bir necha yirik musulmon davlatlarda faoliyat olib borgan ko'plab taniqli islomiy olim va faylasuflar Markaziy Osiyodanetishib chiqdilar.

Chunonchi, G.N.Sharbatov ta’kidlaganidek, “arablar hamda madaniyat va ilmu fanda arab tilini xalqaro til tariqasida qo’llagan O’rta Osiyo, Eron, Kavkaz va Sharqning boshqa xalqlari tomonidan yaratilgan ko’pdan-ko’p badiiy, tarixiy, jug’rofiy, ilmiy va diniy asarlar ham mana shu davrning mahsulidir”.

Musulmon maktablari va unda ta’lim-tarbiya mazmuni. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O’rta Osiyoda bir nechta turdagi ta’lim muassasalari (maktab, madrasa, qorixona, daloilxona) mavjud edi.

Maktablar boshlang’ich ta’lim muassasasi hisoblanib, unda bolalarga yozish va o’qish o’rgatilgan, din haqida dastlabki ma’lumotlar berilgan. Madrasalar yuqori turuvchi o’quv muassasasi hisoblangan, qorixona va daloilxona («Daloil al-xayrot») quyi diniy xizmatchilarni tayyorlagan.

Maktablardagi ta’lim tizimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etilgani bois savod o’rganish ko’p vaqtni olar edi. Chunonchi, faqatgina alifboni o’rganishga 3-4 oydan bir yilgacha, ba’zida undan ham ko’p vaqt sarflanar edi. O’quvchilar dastlabki o’qish ko’nikmalarini egallaganlaridan so’ng «Haftiyak»ni (fors. “Qur’onning ettidan bir qismi”) o’qishni boshlaganlar

Maktabni tamomlagan o’quvchilar ta’limni davom ettirish uchun madrasalarga kirganlar.

Madrasa odatda ikki bo’limdan, ya’ni: quyi (ibvdat al-’islvm) va yuqori (mas’ola) bo’limlardan iborat bo’lgan. Lekin barcha madrasalarda ham bo’limlar shunday nomlanmaganini qayd etish lozim. Masalan, Buxoro madrasalarida quyi bo’lim «mushkulvt» deb yuritilgan.

Qur’oni Karim – axloqiy-falsafiy ta’limotlar manbai. «Qur’on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo’lib, arab tilida «qiroat» ma’nosini anglatadi. Qur’on 114 suradan iborat. Qur’on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. «Qur’on»ning axloqiy qimmati haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma’naviy kamolga etishida qay darajada muhim o’ringa ega ekanligiga amin bo’lamiz.

Yuqorida ta’kidlanganidek, «Quron»da uylanish, er-xotin, ota-ona va farzandalar munosabatlari, farzand tarbiyasi masalalariga katta ahamiyat berilgan. Jumladan, har bir muslim va muslimaning oila qurishi Ollohning farzi ekanligi ta’kidlanib, «Qur’oni Karim»ning «Baqara» surasi 223-oyatida shunday bayon etiladi: «Hotinlaringiz sizlarning ekinzor yerlaringiz bo’ladi. Ziroat yerlari urug’ sepganda Samara beradi. Xotin ham ekinzordir va hosili farzand. Bas o’z xotinlaringiz farzand niyatida aloqa qiling va kelajakda o’zlaringiz uchun farzand tarbiyalang. Xudodan qo’rqing, uning nazariga ilinmangiz. Bas, tug’ilish va visol uchun berilgan quvvatni bekor qoldirmang va zoe qilmang. Ey, Muhammad saodat mujdasini iymonlilarga bergin».

Hadis ilmining paydo bo’lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo’shgan hissasi. Islom olamida Qur’ondan keyingi o’rinda turuvchi hadislar ishonchli axloqiy manba hisoblanadi. Haqiqiyligi puxta o’rganib chiqilgan

ishonchli hadislar sahih deyiladi. Sahih so’zining ma’nosi sog’lom, to’g’ri, xatosiz degani. Hadisni rivoyat qiluvchi kishi isnod, hadislarni to’plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi.
Hadislarni to’plash ishlari VIII asrdan boshlangan. Payg’ambar alayhissalomni ko’rgan va bilganlardan yozib olingan ma’lumotlarga qaraganda, dastlabki hadis to’plovchilar ibn Shahob az-Zuhriy, Yahyo ibn Sa’d al-Ansoriy, Ibn Jurayj kabilar bo’lgan. Dunyoga mashhur muhaddislar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, imom Nisoiy, imom ibn Majj’ Kazviniy, Abu Iso Muhammad as- Samarqandiy, imom at-Termiziylardir. Yuqorida nomlari zikr qilingan muhaddislarning hadis to’plashdagi xizmatlari juda katta. Bu ulug’ alloma birgina "Al jome’ as-sahih" "Ishonchli majmua" asari ustida o’n olti yil ish olib borgan. Va olti yuz ming hadisni to’plab, 7275 tasini tanlab olgan. Shuningdek, "Al-jome’ as-sahih" asaridan odob-axloq mavzuiga bag’ishlangan hadislarni tanlab olib, alohida kitob holiga keltirgan. Bu kitob Al-adab al-mufrad "Adab durdonalari" deb nomlangan bo’lib, bu asar 1322 ta hadisni o’z ichiga olgan.
At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratgan asarlari ichida, “Al-Jomi’ as-sahiyh” “Ishonchli to’plam” eng asosiy o’rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek “al-Jomi’ al-kabiyr” “Katta to’plam”, “Sahiyh at-Termiziy”, “Sunan at-Termiziy”, “Termiziy sunnatlari” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi ibn Hojar al-Asqaloniyning yozishicha at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya’ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.
Abu Iso at-Termiziy yozib qoldirgan “al-Jome’ as-sahiyh”, “ash-Shamoil an-nabaviya” kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lib insonlarni halol, adolatli, e’tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona, ayollarga nisbatan hurmatda va e’tiborli bo’lishga chorlaydi.

Seminar mashg’uloti -3.

Mavzu:Sharq uyg’onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi.
Reja:

1.Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit-turk” asarida ta’lim-tarbiya masalalari.
2.Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u bilik” asari – pandno-ma asar sifatida.
3.Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida didaktik qarashlar.
4.Kaykovusning “Qobusnoma” asarining tarbiyaviy ahamiyati.
5.Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari.
6.Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning asarlaridagi pedagogik fikrlari ilmiy-pedagogik qarashlari.

Tayanch tushunchalar: “Devonu lug’otit-turk” , “Qobusnoma”, maqollar,pandnoma,nasriy, til odobi,

Umumiy tushunchalar
«Odamning olasi ichida – yilqiniki tashqi(sirti)da».
«Ho’kizning ortin oyog’i bo’lguncha, buzoqning boshi bo’lgan yaxshiroq»
«Tirishqoqning labi yog’liq, erinchoqning boshi qonlik».
«Odobning boshi – til»
«Ilon o’zining egriligini bilmay, tuyaning bo’ynini egri deydi»
«Ko’kka suzsa yuzga tushun».
«Bir qarg’a bilan qish kelmas».
«Keng to’n to’zimas, kengashli bilig artamas”.
«Kichikda qatiqlansa ulg’adu sevinur».
«Erdamsizdan qurt chertilur»
Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u bilik” asari – pandnoma asar sifatida.

«Qutadg'u bilig» - baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak asar nomidan ham uning pand-nasixat, ta'lim-tarbiyaga oid etuk didaktik asar, xar tomonlama etuk insonni tarbiyalaydigan darslik ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. «Qutadg'u bilig» asari Sharqda pandnoma turkumidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya kilingan xolda tuzilgan.

Avval nasriy muqadddima, so'ng 73 bobdan iborat kitobning mundarijasi beriladi. Dastlabki o'n bir fasli debocha bo'lib, xamda, na't va Qoraxonni madh etish, ta'lim maqsadi, o'n ikki burj, tilning axamiyati, muallifning uzri, ezgulik xaqida, bilim olishning axamiyati, kitobga nom berilishi, keksalikdan afsuslanish kabi fasllardan iboratdir.

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar. Asar o'n to'rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki to'rt bobi an'anaga ko'ra muqaddima bo'lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlangan. Bu boblarda, asosan, bilimning axamiyati, jaxolatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqlilikning eng muxim xususiyatlari tarannum etiladi.

Asarda boshqa ta'limiy-axloqning asarlar kabi insonni barkamol etishning asosiy belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axlokiy tarkibiy kismi sanalgan tilni tiyish, mol dunyoga muxabbat qo'iishning oqibatlari, saxovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo'lidan saklanish xaqida, xarom va xalollikning farzlari, ularni bir-biridan farklay olish, e'tiqod va sadoqat kabi muxyam masalalar ustida fikr yuritadi.

Ulug'likka etsang unutma o'zing,
Agar atlas kiysang, unutma bo'zing.
Qora bosh yag'isi qizil til turur,
Necha bosh edi u, yana ham eyur.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati. Kaykovusning o'zi ta'kidlaganidek, butun bir asar oxirgi bobda ta'rif berilgan javonmardlar tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus «... barcha fikr va tushunchalarim sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim», deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'langan holda kamolga etkazish yo'llari va usullarini bayon etgan. Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3.Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy etuklik haqida.

Chunki har bir javonmard uchun tan, jon, havas va maoni, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan.

Kaykovus Pifagor aytgan quyidagi o'n xislatni har bir kishi o'zida tarkib toptirishini ta'kidlaydi. Bular:

-o'zidan zo'r kishi bilan urishmaslik;
-hasadchi kishi bilan birga jamoat o'rtasida o'tirmaslik:
-riyokor, ikki yuzlamachi kishi bilan do'st bo'lmaslik:
- yolg'onchi kishi bilan muomala qilmaslik:
-baxil bilan suhbatda bo'lmaslik; g'ayr, dushman kishi bilan sharob ichmaslik;
- xotinlar bilan bir erda o'tirmaslik; kishilarga sir aytmaslik;
-biror kishi aybingni aytsa, shu aybni yo'qotishga harakat qilish;
-biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik;
-muxtoj bo'lgan odamni gina, qahr bilan qo'rqitmaslik;
-gunohkorning gunohini avf etish; kichiklarga mehribon bo'lish;
-bir ishni ikki kishiga buyurmaslik kabi hayotiy tavsiyalarni keltiradiki, inson o'z hayotida har bir - daqiqada bunday hatti harakatlarga duch keladi.

Xorazmiyning didaktik qarashlari. Asarlari: «Al jabr va al-muqobala», «Hind arifmetikasi xaqida kitob», «Yer satxini o'lchash», «Quyosh soatlari to'g'risida», «Yaxudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash» va boshqalar.

Al-Xorazmiy va uning hamkasbi Banu Muso Bag'dodda Baytul xikmadaolimlar bo'lganlar. Ularmavjud yunon ilmiy qo'lyozmalarini tarjima qilidilar,ularni o'rgandilar va algebra, geometriya, astronomiya oid asarlar yozdilar. Albatta, al-Xorazmiy Al-Ma'mun rahnamoligida ishlagan va xalifaga bag'ishlab ikki asar yozgan. Bu uning algebra haqidagi va astronomiya haqidagi risolalalari edi. al-Xorazmiy asarlari ichida eng mashhur va muxim ahamiyatga ega bolgani "Aljabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"edi. Shu asar "algebra" tushunchasini yoritilgan eng birinchi kitob edi.

Didaktik qarashlari:

Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muxim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, induktsiya, deduktsiya, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi.

U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.

Hindlarning o'nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan butun dunyoga yoyildi.

Xorazmiy xindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashxur astronomik jadvallar tuzdi.

Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar. Asarlari: «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Fozil odamlar shahri», «Aql ma'nolari haqida», «Shaharni o'rganish haqida» va boshqalar.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarhan ibn Aalagh al-Forobiy tahminan hijriy 257(milodiy 870 yilda) tug'ilgan. U haqli ravishda hamma zamonlarda ham islom olamining buyuk faylasuflaridan biri sifatida tan olinadi.Al Forobiy falsafa, mantiq sohalarida izlanishlar olb borgan, shu bilan birga musiqa nazariyasiga oid Kitab al-musiqa al-kabir (Buyuk musiqa kitobi)ni yozgan. Biroq uning eng mashhur asari "Madina al-fadila" (Fozil odamlar shahri)ni gayriplaton yo'nalishi vakillari tomonidan Platon davlatchiligi bilan taqqoslaganlar. Farobiyning ko'p tomli asarlari "Baxtsaodatgaerishuvto'g'risida", "Ixso – al - ulum", "Ilmlarningkelibchiqishi", "Aqlma'nolarito'g'risida"asarlarni o'z ichiga olgan.

Didaktik qarashlari: Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muxim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, induktsiya, deduktsiya, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi.

U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.

Hindlarning o'nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan butun dunyoga yoyildi.

Xorazmiy xindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashxur astronomik jadvallar tuzdi.

Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar. Asarlari: «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Fozil odamlar shahri», «Aql ma'nolari haqida», «Shaharni o'rganish haqida» va boshqalar.

Pedagogik qarashlari:Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir: Ta'lim so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi.Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilxomlantiruvchi so'zlar va majbur etish.Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari. Asarlari: «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» va boshqalar.

Ilmiy-pedagogik qarashlari:Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi. Beruniy ta'limotiga ko'ra inson kamolotida uch narsa muxim rol' o'ynaydi: 1.Irsiyat. 2.Muhit. 3.Tarbiya.Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari xakidagi fikrlari xozirgi davr uchun ham dolzarbdir.

Abu Ali ibn Sinoning tarbiya 254ori ’lim haqida. Asarlari: «Tadbir al-Manozil», «Tib qonunlari» «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Al-konun», «Ishq hakida risola», «Xay ibn-Yakzon», «Donishnoma» va boshqalar.
Ibn Sinoning ikki eng muhim ishlari “Kitobush shifo” va “Tib qonunlari”hisoblanadi. “Kitobush shifo”da mantiq, tabiiy fanlar, psixologiya, geometriya, astronomiya, arifmetika va musiqa fanlari qamrab olingan ilmiy ensiklopediyadir. “Tib qonunlari” tibbiyot tarixidagi eng mashhurligi bilan yagona kitob hisoblanadi. U bu o’z asarlarini Hamadondayasahagan yillarida yoza boshlagandi.
Ibn Sino 450 ga yaqin asarlar yozgan ulardan 240 tasi bizgacha yetib kelgan. Ulardan 40 tasi tibbiyotgabag'ishlangan, 150 tasifalsafiy asarlar, Ibn Sino mazkur asarlari bilan ilmiy rivojlanishga katta hissa qo’shgan. U, shuningdek, psixologiya, geologiya, matematika, astronomiya, mantiq fanlariga oid asarlar yozdi. Uning eng muhim ish sifatida matematika bilan bog'liq bo'lib, shu bilan birga, uning ulkan qomusiy ishi, “Kitab al-Shifo”(shifolash Kitob)dir. Bu asarningchorak qismi matematikaga bag'ishlangan va ibn Sino qomusiy asarida astronomiya va musiqa haqida ma’lumotlarni o'z ichiga oladi. Aslida u matematikani geometriya, astronomiya, arifmetik va musiqa ichiga olgan to’rt qkismga bo'ladi. Geometriyani u geodeziya, statika, kinematika, gidrostatika va optika kabi qismlarga ajratadi; astronomiyani u astronomik va geografik jadvallar va taqvimlarga bo'ladi; U algebrani arifmetik va Hindcha qo'shish va ayirishga; musiqani u musiqa asboblari turlariga bo'ladi.
Ta’lim-tarbiyaga doir qarashlari:Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o’ch olish, adovat, bo’xton, irodasizlik kabilardir.
U fanlar tavsifi xakida ham fikr bildirgan. Olim birinchi o’ringa tibbiyot fanlarini ko’yadi. Falsafani esa ikki guruhga-nazariy va amaliy guruhga bo’ladi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruxga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini o’rganuvchi barcha fanlarni kiritgan.
Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo’lib maktabda o’kitish zarurligini ko’rsatadi va ta’limda kuyidagilarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi: 1) bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band kilib ko’ymaslik; 2) ta’limda engildan qiyinga 254ori shorkali bilim berish; 3) olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo’lishi; 4) o’qitishda jamoa bo’lib maktabda o’qitishga e’tibor berish; 5) bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; 6) o’qitishni jismoniy mashqlar bilan ko’shib olib borish.

Seminar mashg’uloti -4.

Mavzu:Sharq pedagogik ta’limotida, ta’limiy-axloqiy qarashlar
Reja:

Mavzu: XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab
Reja:
1.Ijtimoiy hayotning ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta’siri.
2.So’fiylik ta’limotining ma’naviy hayotga ta’siri.
3.Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma’rifat rivojiga qo’shgan hissasi.
4Mirzo Ulug’bekning pedagogik g’oyalari va ma’rifatparvarlik xizmatlari.
5.Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

Umumiy tushunchalar
Ijtimoiy hayotning ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta’siri. Movarounnahr mo’g’ul urug’lari va qabilalarining ijtimoiy hayotida yuz bergan katta o’zgarish, ularning mahalliy ijtimoiy tuzumini qabul qilishlari, xo’jalik va madaniy hayotdagi o’zgarishlar mo’g’ullarning etnik xususiyatlarini ham o’zgartirib yuboradi. Mamlakat aholisining ijtimoiy hayotida sodir bo’lgan jiddiy o’zgarishlar, shubhasiz uning iqtisodiy jihatdan jonlanishiga turtki ham bo’ldi.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida shahar va qishloqlarda xo'jalik hayotining jonlanishi bilan shubhasiz mo'g'ullar istilosi va bosqini davrida kuchli zarbaga uchrab inqirozga yuz tutgan fan, adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi.
Garchi yozma manbalarda bizgacha aniq ma'lumotlar etarli darajada etib kelmagan bo'lsa-da, har qalay bu davrda ilm va ma'rifat ham ayrim yirik hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlarida jonlanadi. Buxoroda bino qilingan «Mas'udiya» va «Xoniya» kabi madrasalarning har birida mingtagacha tolibi ilm ahli tahsil ko'radi.
So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. So'fiylar inson ma'naviy-ruhiy komillikka erishish yo'llarida to'rt bosqichni o'tishi kerak, deydi.
Birinchi bosqich – shariat. Diniy marosimlar va shariat aqidalarini, taqvolarini aynan, izchil bajarish, chunki shariat qonun bo'lib, bu qonun vujudni va qalbni tarbiyalaydi.
Ikkinchi bosqich – tariqat: nafsni tiyish, xushnudlik, xudoni o'ylash, xilvat, ma'naviy muhabbatni chuqurlashtirib, xudo to'g'risida o'ylash, ya'ni tariqat fano, o'zdan kechish, ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi yo'l, faoliyat shakli.
Uchinchi bosqich – ma'rifat: hamma narsaning, butun borliqning asosi xudo ekanini, o'zining mohiyati xudo mohiyati bilan birgaligini bilish va anglash. Bunda odam uchun barcha kibr-u havo, manmanlik, shon-shuhrat bema'ni bo'lib ko'rinadi, shunda u orif, ya'ni bilimli, xudoni tanigan bo'ladi.
To'rtinchi bosqich – haqiqat. Bunda so'fiy xudoning dargohiga erishadi, vasliga vosil bo'ladi, u bilan birlashadi, shu orqali inson foniy, ya'ni «analhaq» bo'la oladi.
Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi. Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u «Temur tuzuklari» nomi ostida shuhrat topadi. Bu asar shaxsan Temurning og'zidan yozib olingan deb hisoblanadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi (yo'nalishi) va vazifalari, (vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi) mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi.
Amir Temur umr bo'yi quyidagi o'n ikki tamoyilga amal qilgan:
-Har erda va har vaqtda islom dinini qo'llab-quvvatlagan.
-Davlat ishlarini kengash asosida boshqargan.
-Salatanat ishlarini murosayu madora orqali yurgizgan.
-Davlat ishlarini qonun-qoida va tuzuklarga asoslanib boshqargan.
-Amirlar va sipohiylarga hurmat ko'rgazgan.
-Adolat va insofga tayangan.
-Fuqarolarga izzat-hurmat ko'rgazgan.
-Azmu jazm bilan ish tutgan.
-Raiyat ahvolidan doimiy ogoh bo'lgan.
-Turku tojik, arabu ajamning turli toifalariga hurmat ko'rsatgan.
-Do'stlarni unutmagan va ularga yordam bergan.
-Har joyda sipohiylarni hurmat qilgan.

"TEMUR TUZUKLARI"DAGI O'GITLARNI MOHIYATI VA VAZIFASIGA KO'RA QUYIDAGI GURUHLARGA AJRATISH MUMKIN:	"TEMUR TUZUKLARI"DAGI O'GITLARNING AXLOQ VA ODOBGA DOIR TURLARI:

1. Din va shariatga doir. 2. Davlat va uni idora etishga doir. 3. Kengash o’tkazishga oid. 4. Podsho va vazirlarga doir.	Adolat va adolatsizlik. 2. So’z va ishonch birligi. 3. Do’st va dushmanlik. 4. Botirlik va qo’rqoqlik. 5. So’z va shirin-suxanlik.

“Temur tuzuklari”dagi hikmatlardan namunalar:
-Adovat emas, adolat yengadi.
-So’zlaguvchi gar nodon erur, tinglaguvchi dono o’lsin.
-Ota bo’lmagan, ota qadrini bilmas.
-Do’shmandan qo’rqma, munofiqdan qo’rq.
-Ishon. Ammo shubha qil.
-Kuch – adolatdadir.
-Do’stlik sinovda chiniqadi.
-Filning dumi bo’lguncha, chumolining boshi bo’l.
-Toy mingan – ot ham minadi.
-Botir jangda bilinar, dono – mashvaratda.
-Birliksiz kuch bo’lmas.
Mirzo Ulug’bekning pedagogik g’oyalari va ma’rifatparvarlik xizmatlari. Samarqandda o’z atrofida to’plangan olimlarning bevosita ishtiroki va yordamida Ulug’bek 1424-1428-yillarda shahar yaqinida Qbirahmat anhori bo’yida rasadxona qurdirdi. Doira shaklida bino qilingan bu ulkan imoratning aylanasi 47 metr, balandligi 31 metr edi. Bobo’rning yozishicha, u uch qavatli bo’lgan. Binoning sirti koshin va sirli parchinlar bilan qoplangan. Binoning ichki sahni sudsi faxriy (sekstant) va koridorlar bilan to’rt qismlarga ajratilgan. Rasadxona ichki devorlarida koinot-u Er sharining umumiy manzarasi tasvirlangan bo’lib, shu tufayli bu mavzu aholi o’rtasida «Naqshi jahon» degan nom bilan shuhrat topadi.
Samarqandda Ulug’bek rahbarligida barpo etilgan bu ilmiy dargoh matematika, ayniqsa astronomiya sohasida ilmiy dunyoda olamshumul ahamiyat kasb etgan natijalarga erishadi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 sobita (qo’zg’almas) yulduzlarning o’rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. O’rta Osiyo, YAqin va O’rta SHarq mamlakatlari bo’ylab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqildi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida matematika va astronomiyaga oid qator nodir asarlar yaratildi.
«Ziji jadidi Ko’ragoniy» dan tashqari Ulug’bek «Tarixi arba’ ulus» (To’rt ulus tarixi) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag’ishlangan beshta risola yozadi.
Ulug'bek observatoriyasi.Samarqandning tarixiy va arxitektura yodgorliklari.Mirzo Ulug'bek tomonidan 1420-yillardaSamarqandda qurilgan rasadxonaMarkaziy Osiyodagi eng yirik rasadxonalardan biri hisoblanadi. Mazkurrasadxonaningbarpoetilishivauningo‘shadavrilmiymarkazigaaylanishi, o‘shadavrningmuhimvoqeasihisoblanadi.Ulug‘bekolimlargahomiylikqilib, fanahlinirag‘batlantirdi, uningo‘zi, ayniqsa, astronomiyavamatematikafanlaribo‘yichamuhimishlarniamalgaoshirdi. Bu rasadxonada, buyuk olimlar Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, JamshidbinMa’sudi, Mo‘yiddinvauningo‘g‘liMansurKoshiylar bir necha o'n yilliklar mobaynidailmiy izlanishlar olib borganlar. Ular samodagi yulduzlar harakatlarni kuzatganlar. Ularning ilmiy izlanishlari natijasida Samarqand rasadxonasida 1,018 yulduz harakatini tasvirlovchi joriy jadvallarini o'z ichiga olgan "Ulugbeg Zidj" dunyo yuzini ko`rgan.Observatoriya 20-asr boshida Samarqand arxeolog V. L. Vyatkin tomonidan topilgan. U Quyosh, Oy va boshqa samoviy jismlarnio‘lchashuchunqurilgan radiusi 40 myerostiyo‘linitopgan arxeologhisoblanadi. Ulug'bek rasadxonasi 17-asrda Gollandiyalik rassomlartomonidanchiroyli naqshlarbilan bezatilgan UndaUlug'bek astronomiya ma'budasisifatidatasvirlanib, undashundayso‘zlarbitilgan "Men o‘zimningjiddiyizlanishlarimnisizgataqdim qilmoqdaman".

Ulug’bek davrida maktab islohoti. Ulug’bek Movarounnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilm-u ma’rifat dargohiga aylantirishga intiladi. Uning farmoni bilan 1417-yilda Buxoroda, 1417-1420-yillarda Samarqandda va 1433-yilda G’ijduvonda madrasalar qad ko’taradi. Hatto Buxoro madrasasining darvozasiga «Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir» degan kalima o’yib yozib qo’yiladi.
Alloma o’z davlatida ta’lim sohasida jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta’minotiga o’tkazdi, mudarris (o’qituvchi)larga oylik ish haqi belgilagan, shogird (talaba)larga stipendiya ajratgan.
Muhammad Tarag’ay Ulug’bek madrasa o’quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur’on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikh (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.
Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o’zi bevosita ta’lim bergan madrasalarda o’qish quyidagi bosqichlardan iborat bo’lgan:
1. «Anda» (kichik) – o’qish muddati 2 yil.
2. «Aust» (o’rta) – o’qish muddati 3 yil.
3. «A’lo» (oliy) – o’qish muddati 3 yil.
Bunday yondashuvda, bugungi kun nuqtai nazaridan aytganda, bakalavriat va magistratura ko’zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o’rta asr Yevropa universitetlari uchun ham xos bo’lgan.
Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Bobur 1526-yilning 21-aprelida Dehli hukmdori Ibrohim Lo’diy qo’shinlarini tor-mor keltirdi. Bu g’alaba natijasida Bobur SHimoliy Hindistonni egalladi. 1526-yilning 27-aprelda Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba’ o’qildi. Shu tariqa, yangi saltanat Boburiylar saltanatiga asos solinadi.
Bobur podshoh Hindistonda bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo’lgan mayda mustaqil rojalarni (hukmdorlarni) ham qilich, ham siyosat yo’li bilan birlashtiradi va 1530 yilgacha markazlashgan yirik saltanatini barpo etadi. Bu saltanat 332 yil (1526-1858-yillar), ya’ni Hindistonni Buyuk Britaniya to’liq bosib olgunga qadar hukm surdi.
Bobur xayotiy esdaliklar yozish maktabini «Boburnoma» asari orkali boshlab berdi.
«Muxtasar», «Mubayyin», «Volidiya», «Xatti Boburiy» kabi asarlarida ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratgan.
Uning ijodiga mansub bo’lgan «Xatti Boburiy» uzoq yillar davomida maktablarda, madrasalarda savod o’rgatish kitobi sifatida foydalanilgan.
Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, shoir, bastakor, ayni paytda mashhur tarixchi olim hamdir. Bu borada uning nomini abadiylikka muhrlagan asar - “Boburnoma”dir.

6-Seminar mashg’uloti.
Mavzu.. XIX asrning 2-yarmi - XX asr boshida Turkiston o’lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.
Reja:
1.XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.
2.Chor Rossiyasining ta’lim siyosati.
3.Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.
4.Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi.
5.Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari.

Umumiy tushunchalar:
XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. O’lkani Rossiya imperiyasi bosib olgandan so’ng 1870 yillarda qizlar talimi bo’yicha bazi malumotlar mavjud. Turkistonda shahar va qisman qishloqlarda qizlar uchun boshlang’ich maktablar ham mavjud bo’lgan. Qishloq joylarda qizlar maktabi juda kam hollarda uchrar edi. Bazi hududlarda 100 ta maktabga bitta qizlar maktabi ham to’g’ri kelmas edi. Biroq bazi shaharlarda qizlar maktablarining soni o’g’il bolalar maktablarining

chorak qismiga teng kelgan. Toshkent rus qo’shinlari tomonidan egallangan paytda shaharning bazi qismlarida qizlar maktablari va o’quvchilari soni o’g’il bolalar maktablarining S qismiga to’g’ri kelgan va ularda o’quvchilar soni nisbatan kam bo’lgan.
Mustamlakachilik tizimini o’rnatlishi va o’lkada rus aholisi soni o’sib borishi bilan rus tlida so’zlashuvchi aholi qizlarini talimiga bo’lgan ehtyoj o’sib bordi. Qizlar uchun gimnaziya, Mariin bilim yurtlari kabi talim muassasalarini tashkil etldi va mazkur maskanlarda mahalliy aholi vakillarini talim olishlariga imkon berilishi kam miqdorda bo’lsada, qizlar talimiga ijobiy tasir o’tkazdi. XIX asr 70 yillarida Toshkent va Chimkentda qizlar uchun bo’lim hamda hunarmandchilik sinflari, Kazalinskda qizlar uchun yakshanba sinflari bo’lgan boshlang’ich bilim yurtlari tashkil etldi. Ushbu bilim yurtlarining barchasi muayyan rejalarsiz, asosan, o’lkadagi rus aholisining talim olishga bo’lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etlgan edi.
XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. The traditional education system was not the only option for Central Asian students, but it was far more popular than the alternative. Beginning in 1884, the tsarist government in Turkestan established "Russo-native" schools. They combined Russian language and history lessons with maktab-like instruction by native teachers. Many of the native teachers were Jadids, but the Russian schools did not reach a wide enough segment of the population to create the cultural reinvigoration the Jadids desired. Despite the Russian governor-general's assurances that students would learn all the same lessons they could expect from a maktab, very few children attended Russian schools. In 1916, for example, less than 300 Muslims attended Russian higher primary schools in Central Asia98
An'anaviy ta'lim tizimi Markaziy Osiyo aholisi uchun yagona ta’lim shakli emas edi, lekin u muqobillariga qaraganda ancha mashhur edi. 1884 yilda boshlab, Turkistonda chor hukumati tomonidan "Rus-tuzem" maktablari tashkil etilgan. Ularda o'qituvchilari tomonidan rus tili va tarixi fanlaridan saboq berilgan. Mahalliy o’qituvchilarning aksariyati usuli jadid ta’limi tarafdorlari edi. Rossiya General-gubernatorining "Rus-tuzem" maktablarida ham usuli jadid maktablaridagi ta’limning aynan o’qitilishi haqidagi iddaolariga qaramasdan, bu maktablarda juda kam sonli o’quvchilar o’qiganlar. Masalan, 1916 yili "Rus-tuzem" maktablarida 300 tadan kam musurmon bolalari ta’lim olgan.
Chor Rossiyasining ta’lim siyosati. Yerli xalqning aksariy qismi, ba'zi rusparast boy-zodagonlarni hisobga olmaganda, o'z bolalarini rus-tuzem maktablariga berishning oqibatlaridan cho'chir edi. Bu maktablarda birinchi navbatda pravoslav mahzabinig asoslari, rus tili, podshoni ulug'lovchi madhiyalar o'rgatilgani uchun mahalliy xalq bu ochiqdan-ochiq dinbuzarlikdan qochib o'z farzandlarini rus-tuzem maktablariga bermasdi. Buni o’z vaqtida Sirdaryo viloyatidagi rus maktablarini taftish etgan chor amaldori N.K. Smirnov ham qayd etgan edi. U ruslashtirishga yo'naltirilgan ta'lim siyosatining muvaffaqiyatsizligi sabablarini quyidagicha izohlaydi va yozadi:
- yerli aholining shaharlardagi rus maktablarining qabul qilmaganligi sababi ularning dasturlarida musulmoncha savod darslari yo'qligi, darslar bolalar uchun tushunarsiz bo'lgan rus tilida olib borilishi va o'qituvchilarning mahalliy tillarni bilmasligi;
- (rus) bolalariga pravoslav dini asoslarini musulmon bolalar huzurida o'rgatish.
Shuningdek, ruscha xat-savod oddiy turkistonlikka foyda keltirmas edi, chunki o'lkaning musulmon aholisi barcha narsani xatlar, hisob-kitoblar va boshqa yozishmalarni mahalliy tilllarda va arab yozuvida amalga oshirar, musulmoncha xat-savodli kishi bunda, tabiiy, ko'proq yutar edi.
Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. O’rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan chorizm, ruslar o’rnashgan erlarda ochilgan rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o’z siyosatning quroli qilib olishga harakat qildi (Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866 yilda ochilgan edi). Rus maktablariga ruslar bilan birga o’qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinar edi. Turkistondagi boshlang’ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismidagiga qaraganda, ancha ko’proq o’rgatlar edi; bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko’proq jalb qilish edi.

98 https://en.wikipedia.org/wiki/Jadid

Turkistonda dastlabki rus o’rta o’quv yurtlari 1870 yillardan ochila boshladi: 1876 yili Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va Xotn-qizlar gimnaziyalari. 1879 yili esa Toshkentda o’qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga ham erli aholining bolalari qabul qilinar edi. O’qituvchilar seminariyalarida esa mahalliy aholi bolalariga 1G’3 o’rin ajratlgan edi.
1880 yillarning boshlariga kelib rus maktablarida o’qiydigan o’zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o’qitsh kerak, toki ota-onalari bu maktablardan qo’rqmasinlar, degan fikr tarqalgan edi. Turkiston mamurlari bu fikrning qanchalik to’g’ri ekanligini tekshirishga qaror qildilar. 1884 yil 19 dekabrda Toshkentda, «eski shahar» qismida sinab ko’rish uchun birinchi rus-tuzem maktabi ochilgan edi. 10 yillardan keyin Toshkentda bunday maktablar soni to’rttaga ko’paydi. Bu tpdagi maktablar o’lkadagi yirik shaharlar hamda qishloqlarda ham tashkil etla boshladi. O’lkada rus, rus-tuzem maktablari ilk bor XIX asrning 70 – yillarida yuzaga kelgan bo’lsa, 1904 yilga kelib ularning soni 57 taga etdi.
Rus-tuzem maktablarida o’quvchilarga rus muallimi rus tlini hamda arifmetkani va boshqa fanlarni o’rgatar, buning uchun o’qish vaqtning yarmi ajratb qo’yilgan edi. O’qish vaqtning qolgan yarmi «Musulmon domla» ixtyoriga berib qo’yilgan bo’lib, u eski usul maktablaridagidek bolalarga diniy darslar o’qitsh bilan shug’ullanardi.
Rus-tuzem maktablarida faqat o’g’il bolalar o’qitlar edi. Ota-onalar qizlarini bunday maktablarga bermas edilar. 1903 yilda Turkiston pedagogika to’garagi, Toshkentda qizlar uchun rus-tuzem maktabi ochildi. Lekin bu maktabning faoliyat uzoqqa cho’zilmay, ikki yildan keyin yopilib qoldi.
Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi.Jadidlar harakat ijtmoiy-tarbiyashunoslik tafakkurining alohida bir oqimi sifatda Turkistonda yashovchi xalqlar orasida shakllandi. Turkistondagi jadid (jadid so’zi arabcha “yangi usul”, “yangilik”, demakdir) maktablarining yuzaga kelishi mashhur qrim-tatar arbobi Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bevosita bog’liqdir.
1851 yilda tavallud topgan Ismoilbek Gaspirali ilg’or demokratk g’oyalarni musulmonchilikning diniy asoslari bilan birlashtrish yo’lida qizg’in kurash olib bordi. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashgan Ismoilbek Gaspirali o’z navbatda jadidchilik oqimining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Ko’p yurtlarda safarda bo’lgan Ismoilbek Gaspirali xalq taraqqiyoti birinchi navbatda maorifga bog’liq ekanligini anglab etb, jamiyatdagi tub o’zgarishlarni amalga oshirishni yangi usuldagi maktab tuzishdan boshladi. Gaspirali tomonidan ochilgan yangi usuldagi maktab tez orada shuhrat qozondi. Jadid maktablarining ommaviy tus olishiga asosiy sabab I.Gaspirali tomonidan 1883 yildan boshlab nashr etla boshlangan “Tarjimon” gazetasi bo’ldi. Shu bilan birga Ismoilbek Gaspirali o’zi tashkil maktab uchun bir qator darsliklar va o’quv qo’llanmalari ham yaratdi. Uning yangi usuldagi maktab hayotga bag’ishlangan asarlari jumlasiga “Hujai Subyona”, “Qirsat turki”, “Rahbari muallimin” kabi darslik va o’quv qo’llanmalarini kiritsa bo’ladi. Gaspiralining ushbu asarlari o’quv jarayonini tashkil etsh, darsliklarga qo’yiladigan talablar, musulmon o’quv adabiyotda qo’llaniladigan didaktk va metodik ko’rsatmalar bilan jadid maktablari taraqqiyotga ulkan hissa qo’shdi.
I.Gaspirali boshqa turkiy xalqlar qatori o’zbek millatdagi ijtmoiy fikrlar taraqqiyoti va shu jumladan, haqiqiy vatanparvar o’zbek ziyolilari, pedagoglarining kamol topishida ham o’chmas iz qoldirdi.
1893 yili Ismoil Gaspirali Turkistonga kelib, chor huqumat amaldorlarini va Buxoro amiri Abdulahadni musulmon maktablarini isloh qildirishga ko’ndirmoqchi bo’ladi.
Ismoil Gaspirali Buxorodan so’ng poezdda Samarqandga borgan, undan Toshkentga kelib, Turkiston general-gubernatorligidagi, amaldorlar bilan o’z niyat-maqsadlarini o’rtoqlashgan. Biroq, Toshkentda uni yaxshi kutb olishmadi, loyihasi esa etborsiz qoldi rildi. 1893 yil 8 iyunda u yana Samarqand orqali Buxoroga qaytb borgan va amir bilan uchrashib, E.J.Laxzarining ko’rsatishicha, uni yangi usuldagi bir maktab ochishga ko’ndirgan. Ikkinchi usuli jadid maktabini 1898 yilda Qo’qonda Salohiddin domla ochdi. Shu yili To’qmoqda ham yangi usul maktabi paydo bo’ldi. 1899 yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori yangi usul maktabini ochdilar. 1903 yilda, umuman, Turkistonda 102 ta boshlang’ich va 2 ta o’rta jadid maktabi bor edi. Bulardan 6 tasi Buxoro amirligida va 8 tasi Xiva xonligi hududida edi.

Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari.
Bu davrga oid ma’lumotlar turlicha talqinga ega ba'zilar an'anaviy diniy ierarxik g’oyalar tarafdorlari bo’lgan bir paytda, boshqalar konservativ yondoshuvdagi ruhoniylarg’oyalari ustidan g'alaba qozonish uchun harakatqilardi. Ba'zilar Markaziy Osiyoga nisbatan Rossiya siyosatida Dumada orqali ishtirokini ahamiyatli deb qaragan bir vaqtda, boshqalar Qohira va Istanbul kabi shaharlar ziyolilari bilan birlashishni yoqladilar.Jadidlar xalqqa ta’sir ko’rsatishning G’arbda rivojlangan shakllari she’riyat va spektakllar vosatasidan foydalanganlar. Buxorolikma’rifatparvar Abdurauf Fitrat ma’rifatga to’sqinlik qilayotgan ruhoniylarni tanqid qildi. Uning fikricha,Markaziy Osiyoni Rossiya istibdodidan qutqarish asosiy masala edi.
Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari. XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg’ona vodiysi shaharlarida o’nlab “usuli jadid” maktablari ochildi. Uni bitrganlar orasidan Turkiston manaviy-marifiy dunyosini milliy uyg’onishiga kuchli ijobiy tasir qiladigan zabardast namoyandalar etshib chikdi. Ularning “birinchisi”, “Turkiston jadidlarining otasi” Mahmudxo’ja Behbudiydir. Mahmudxo’ja Behbudiy 1875 yilning 19 yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog’ida ruhoniy oilasida dunyoga keldi. Otasi Behbudxo’ja Solixo’ja o’g’li Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo’lib, onasi esa, asli xorazmlik bo’lgan. Otasi 1898 yil vafot etgach, u tog’asi, qozi Muhammad Siddiq tarbiyasida bo’lib, undan arab, forsiy tllarini chuqur o’rganadi. Behbudiy dastlab Samarqand, so’ngra Buxoro madrasalarida tahsil oladi. Tnimsiz va qunt bilan o’qib, imom-xatb, so’ngra qozi, muft darajasiga ko’tariladi. Bu mansablar shariatning yuqori maqomlari hisoblangan.
Safardan qaytb kelgach, yangi usul maktablarini ochish yo’lida g’ayrat ko’rsatadi. Shunday maktablardan birini Behbudiy Samarqandda birinchilardan bo’lib 1904 yilda o’z uyida tashkil qildi.
Mahmudxo’ja Behbudiy 1911 yilda “Padarkush” nomli drama yozdi. U bu asarida o’zining sevimli mavzusi barchani ilm-marifatli bo’lishga cha-qirish, ilmsizlik balosini daf qilish g’oyasini qalamga olgan.
Munavvar qori Abdurashidxonov Vatan va millat fidoyisi, mustamlakachilikning chorizm va sho’ro ko’rinishlarini ayovsiz fosh qiluvchi marifiy, siyosiy arbob, tolmas kurashchi, jadidchilik harakatning yirik namoyandasidir. Munavvar qori ham “usuli savtya” maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumat Turkiston o’lkasidagi aholini qanday manaviy-madaniy uzlatda saqlayotganini va undan qutulish choralari faqat maktab talim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog’liqligini to’g’ri tushuygan holda chor hukumatning mustamlakachilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko’rsatdi: mana shu maqsad yo’lida Toshkentda ilg’or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan iborat “Turon” jadidlar jamiyatni tashkil etdi, O’zi takidlaganidek: “Chor hukumatni yo’qotsh jadidlarning tlagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo’lishn yashirin emas”. Munavvar qori ochgan yangi usul «Namuna» maktabida bir necha yuz bola o’qigan. Bu maktabda tayyorgarligi ancha jiddiy bo’lgan istedodli yoshlar o’qituvchilik qilishgan. Munavvar qorining o’zi esa jadid maktablari uchun yangi tovush «usuli savtya» usulida darsliklar - «Adibi avval» «Birinchi adib», 1907 alifbosi va «Adibi soniy» «Ikkinchi adib», 1907, «Er yuzi» , «Jug’rofiya», «Havoyijon diniya» (1907) kitoblarini yozib chop ettrgan. Bular o’lkadagi jadid maktablari uchun asosiy darslik sifatda bir necha bor qayta nashr etldi.
Abduqodir Shakuriy (1875-1943) Samarqand shahri yaqinidagi Rajabamin qishlog’ida 1901 yilda yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi. Yangi usuldagi bu maktabda arifmetka, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o’qitlardi. Shakuriy o’zi ochgan yangi usuldagi maktabida arab tlining qoidalari va harflarni o’qitshga jiddiy etbor bergan holda, o’quvchilarni so’z bo’g’inlari bilan tanishtrar va shu bo’g’inlar asosida bolalar uchun tushunarli sodda so’zlarni tuzardi.
Shakuriy 1907 yilda bolalarning yosh xususiyatga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki malumot berish maqsadida «Jomeul – hikoyat» «Hikoyalar to’plami» nomli ikkinchi kitobini tuzadi. Bu kitob boshlang’ich maktabning II, III sinflari uchun terma kitobdir. Kitobdan 48 ta kichik-kichik odob-axloq mavzusidagi hikoyalar va 15 ta sheriy asarlar o’rin olgan. Uning uchinchi o’qish kitobi «Zubdatul ashor» deb ataladi. Muallifning bu o’qish kitobini tuzishdan

asosiy maqsadi o’quvchilarning olgan bilimlarini takomillashtrish va mustahkamlash bilan birga ularda sheriyatni o’rganishga havas uyg’otsh va ularni o’zbek, tojik, ozarbayjon klassik adabiyot namunalari bilan tanishtrishdan iborat edi.
Abdulla Avloniy (1878-1934) «Tarjimai holi»da yozadi: «1900 yilda uylanib, oila boshlig’i bo’lib qoldim. Shu yilda otam o’lib, o’gay onam bilan bir ukam meni qaramog’imda menga boqim bo’lib qoldi. Bu vaqtda butun oilani boqmoq uchun qish kunlarida ham ishlamoqqa to’g’ri kelganligidan quvvai muhofazam o’rta darajada bo’lg’on holda madrasani tashlab chiqib ketuvg’a to’g’ri keldi. Shu choqlarda o’zim mehnat ichida yashag’onlig’imdan boylarga va mullalarga qarshi sherlar yoza boshladim. Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim. Turli gazetalar o’qishga tutndim. Shul zamonlarda Rusiyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot gazeta va jurnallar bilan tanishib, o’qib, malumotmni orttra bordim. «Tarjimon» gazetasini o’qib, zamondan xabardor bo’ldim. Shul zamonda erli xalqlar orasida eskilik- yangilik («jadid-qadim») janjali boshlandi. Gazet o’quvchilari mullalarni «jadidchi» nomi bilan atar edilar. Men ham shul jadidchilar qatoriga kirdim. 1904 yildan jadidchilar to’dasida ishlay boshladim. «Jadid maktabi» ochib, o’qituvchilik ham qildim... Mulla va boylarg’a qarashli eski turmush bilan qatiy suratda kurasha boshladuk. O’z oramizdan mullalarga qarshi uyushmamiz ham vujudga chiqdi...».
A.Avloniy nashr etgan ro’znomalar ilg’or fikrlar targ’ibotchisi bo’lgani uchun ham uning faoliyat chorizm hukumat tomonidan tez-tez taqiqlanar edi. Shundan so’ng u ilg’or g’oyalarni marifat o’chog’i – maktab orqali xalqqa tarqatshga qaror qiladi va 1903 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi usulda maktab ochadi

7-seminar mashg’uloti

Mavzu: Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji
Reja:
1.Jahon mamlakatlari ta’lim tizimi.
2.Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi.
3.AQSh ta’lim tizimi.
4.Yaponiya ta’lim tizimi va uning o’ziga xosliklari.
5.Germaniya ta’lim tizimi.
6.Ta’lim modellari. XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendentsiyalar.
7.Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari.

Umumiy tushunchalar:
Jahon mamlakatlari ta’lim tizimi. Dunyo ta’lim makonining yuzaga kelishi, faol integratsion jarayonlar, ta’limni “inson kapitali” sifatida e’tirof etilishi, ma’lumot haqidagi diplomlarning dunyo bo’ylab tan olinishi chet el tajribasini o’rganish jarayonini tezlashtiradi.
1997 yilda XTSK (Xalqaro ta’lim standart klassifikatsiyasi) yangilandi. Unda yettita bosqich ko’rsatilgan. 0 – maktabgacha ta’lim; 1 – boshlang’ich ta’lim; 2 – o’rta ta’limning birinchi bosqichi; 3 – o’rta ta’limning ikkinchi bosqichi’ 4 – o’rta ta’limdan keyingi ta’lim (oliy ta’lim emas); 5 – oliy ta’limning birinchi bosqichi; 6 – oliy ta’limning ikkinchi bosqichi – oliy ta’limdan keyingi ta’lim.
Jahon ta’lim tizimining ko’p omilli ko’rinishga egaligi metablokli, makroregional va alohida davlatlardaga ta’lim tizimini tahlil etishga imkon beradi. Jahon ta’lim tizimining o’zaro aloqadorligi va o’zaro harakati belgilariga ko’ra regionlarni bir necha turga bo’lish mumkin:
Birinchi turga integrasion jarayon generatorlari hisoblangan regionlar kiradi. Bunday regionga eng yorqin misol sifatida G’arbiy Yevropani keltirish mumkin. Birlik g’oyasi 1990 yillardan G’arbiy Yevropa davlatlarida ta’lim islohotlarining asosiga aylandi. Birinchi turga mansub regionlarga shuningdek, AQSH va Kanada kabilarni ham kiritish mumkin. Jahonda integratsion jarayonlarning generatori sifatida yangi Osiyo-Tinchokeani regioni ham shakllanmoqda. Unga Koreya, Tayvan, Singapur va Gonkong, shuningdek, Malayziya, Tayland, Filippin va Indoneziya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

Ikkinchi turga integratsion jarayonlarga muvaffaqiyatli javob qaytarayotgan hududlar tegishli. Birinchi navbatda bu Lotin Amerikasi davlatlaridir. Tarixda bo'lgani singari bugungi kunda ham Lotin Amerikasiga integratsion o'choqlar zonasi sifatida AQSH va G'arbiy Yevropa tomonidan ta'sir ko'rsatilmoqda.

Uchinchi turga ta'lim jarayoni integratsiyasiga kam e'tibor qaratayotgan regionlar kiradi. Mazkur guruhga Saxara janubidan boshlab Afrika davlatlarining katta qismi, janubiy va janubiy-sharqiy Osiyoning qator davlatlari, Tinch va Atlantika okeani havzasidagi uncha katta bo'lmagan orol davlatlarini kiritish mumkin. Afrika davlatlarida maktab ta'limining davomiyligi minimal daraja - 4 yildan kam. Mazkur hududlarda aholining ko'pchiligi savodsiz. Masalan, janubiy Saxarada yashovchi 140 mln afrikalik savodsizligicha qolmoqda. Maktab ta'limi davomiyligining eng pastligi Nigeriyada – 2,1 yil, keyin Burkina-Fasoda – 2,4 yil, Gveniyada – 2,7 yil, Jibutida – 3,4 yil.

XX asrning oxiriga kelib qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sabablarga ko'ra ta'limning uzluksizligi va integratsion jarayonlarda og'ishlar kuzatilayotan hududlar ajratib ko'rsatildi. Bunday hududlarga arab davlatlari, Sharqiy Yevropa va Sobiq SSSR davlatlari kiradi. Arab davlatlarida ichki integratsiyaga tayanadigan to'rtta subregionni shakllantirisha intilish kuzatilmoqda. Bu hududlarga: Mag'rib (Liviya bilan birga), Yaqin Sharq (Misr, Iroq, Suriya, Livan, Iordaniya), Fors ko'rfazi (Saudiya Arabistoni, Quvayt, BAA, Qatar, Ummon, Baxrayn), Qizil dengiz bo'yi va Mavritaniya davlatlari.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol tasir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligining e'tirof qilingani haqiqatdir. Shu tufayli ham rivojlangan mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Masalan, yaponlarda "maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli"gina bo'lib qolmay, "u insonlarni barkamollashtiradi", degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni ikki mingdan ortiq. Frantsiya, AQSH, Yaponiyada ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSHda xalqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga qaratilgan.

XX asrning 80-yillaridan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSHdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv jadvalining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan o'quv fanlarini tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo»ning pedagogik g'oyalari Frantsiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir.

Germaniyada to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy o'quv fanlari bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari xam amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Frantsiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi o'quv fanlariga bo'linadi.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi

Janubiy Koreyada ta'lim.

Aholining savodxonlik darajasi:

Jami 99,9%

Erkak 99,9%

Ayol 99,9%

Ta'im muassasalariga jalb etilish:

Boshlang'ich 3,3 million

O'rta 4.0 million

O'rtadan keyingi ta’lim 3,6 million
O'rta diplom 97%
keyingi -o'rta diplom 65%
Janubiy Koreyada ta'lim Davlat maktablarida va xususiy maktablarda tashkil etiladi. Xususiy maktablar qabul miqdori davlat maktablaridanm kamroq bo'ladi.Oliy ta'limga ega bo’lish Janubiy Koreyada hayot fundamental qadriyatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Akademik muvaffaqiyat – juda jiddiy masala.bo’lib, oilalar va keng Janubiy Koreya jamiyatida g'urur manbai hisoblanadi. Nufuzli oliy o'quv yurtini tamomlash jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksak maqomga, nikoh istiqbollari, nufuzli va hurmatli ish istiqbollari uchun debocha hisoblanadi.Janubiy Koreyada oliy ilmiy muvaffaqiyatga erishish uchun bolalarni tayyorlash erta yoshdan boshlanadi. Kopeyadagibarchatinglovchilarning 6,5 foizibo‘lajakpedagoglardir. Mamlakatda 11tao‘qituvchilarkollejlarimavjud.Harbirprovinsiyao‘zkollejigaega.
Boshlang‘ichsinfo‘qituvchisibo‘lishuchun 2 yilo‘qishkerak1982 – yildamaktabgachatarbiyahaqidaqonunqabulqilindiva 80%gakengaydi.
Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinoq Amerika ta’limi yo’lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o’quv dasturida bir qator farqlar ko’zga tashlanadi. Yaponiyada o’quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy o’rta ta’lim maktablarining yangi musiqa ta’limi o’quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o’rganish ham kiritilgan.
Shuni ta’kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda XX asrning 60-80-yillarida tabiiy-ilmiy ta’lim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, ba’zi hollarda astronomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSh va Frantsiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o’qitiladi. O’kuv dasturlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo’la boshladi. Frantsiyada XX asrning 70-80-yillarda to’liqsiz o’rta maktablar o’kuv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy-gumanitar kurslar kiritiladi.
Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o’quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to’la amalga oshirildi: Frantsiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o’quv soatlari ajratildi.
Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi.
Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O’quvchilarni tabaqalashtirib o’qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang’ich ta’lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, frantsuz pedagoglari ta’lim jarayonida sinf o’quvchilarini uch tabaqaga ajratib o’qitishni afzal ko’radilar. Bular quyidagilar:
1. Gomogenlar – matematika va gumanitar yo’nalishda ish olib borsa bo’ladigan o’quvchilar.
2. Yarim gomogen – tabiiy turkumdagi fanlarni o’zlashtira olishga moyil o’quvchilar.
3. Gegeron – barcha fanlarni xar xil saviyada o’zlashtiradigan o’quvchilar va hokazo.
Tabaqalashtirish jarayonining yangi muhim yo’nalishi to’ldiruvchi ta’limni rivojlantirish bo’lib qolmoqda.
To’ldiruvchi maktablar paydo bo’lishining sababi AQSh va G’arbiy Yevropada o’zlashtirishi past o’quvchilarning ko’payib borayotganligi, funktsional savodsizlik avj olayotganligidir.
To’ldiruvchi ta’lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQShda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarinig imkoniyatlari xam safarbar etilgan. Milliy telekompaniya maxsus o’quv kanali orqali 130 soatlik o’quv ko’rsatuvlari tashkil etiladi.
O’quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo’yicha chet el mamlakatlarining ko’pchiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.
Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e’tibor tobora ortib bormoqda.
Keyingi davrlarda o’z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobor ilgarilab ketgan bolalar ko’plab topilmoqda. Ular o’qishni juda erta boshlab ta’lim kurslarini o’zlashtirishda katta shov-shuvlarga sabab bo’ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Shunday iqtidorlar maktabi G'arbda XX asrning 60-yillardayoq paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan.
Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturlari AQSHda keng quloch yoygan. Ayrim shaharlarda oliy toifali bolalar bog'chalari ochilgan bo'lib, ularda 4-5 yoshli o'quvchilar maktab dasturida o'qitiladilar. AQSHda "Merit" dasturi asosida har yili yuqori sinflar va kollejlardan eng qobiliyatli bolalardan 600 mingtasi tanlab olinadi. Ular o'rtasida test sinovlari o'tkazilib eng qobiliyatli 35 ming o'quvchi tanlab olinadi va o'qitiladi. Ularga turli imtiyozlar, stipendiyalar, yaxshi shart-sharoitga ega bo'lgan turarjoy, eng oliy darajadagi universitetlarga qabul va boshqalar amalga oshiriladi.
Lekin iqtidorli bolalarga qarama-qarshi qutbda turgan aqli zaif o'quvchilarning taqdiri ham chet ellik hamkasblarni tobora tashvishlantirmoqda, bunday holni kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Lekin statistik ma'lumotlar bunday bolalar soni tobora oshib borayotganligini ko'rsatayotir.
XX asrning 70-yillarida AQSHda kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o'qituvchi buyrug'i bilan ish tutish, ko'proq o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Ta'lim tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashg'ulot, o'qituvchi konsultatsiyasini o'z ichiga oladi.
Germaniya maktablarida sinfda o'quvchilar sonini qisqartirish sari yo'l tutilgan. Bunday o'quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u o'qituvchidan konsultatsiya oladi.
Yuqorida bayon qilinganlardan ko'zda tutilgan maqsadlar:
- maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish;
- o'quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish;
- tarbiyaning yangi shakllarda – o'quvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish;
- maktab o'quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish;
- maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yakinlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini qayta tashkil etish;
- tabaqalashtirib o'qitishni yo'lga ko'yish, maxsus o'kuv muassasalarini (xam iqtidorli, xam aqliy, jismoniy zaif o'quvchilar uchun) rivojlantirish;
- yangi, ya'ni o'quv texnik vositalarni ta'limdagi salmog'ini oshirish, o'kituvchilar uchun kompyuter ta'limini yo'lga ko'yish;
- pedagogik g'oyalarni amalga oshirishda keng kamrovli tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.
AQSh ta'lim tizimi. Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:
1) bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;
2) 1-8- sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);
3) 9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.
4) Amerika Qo'shma SHtatlarida navbatdagi ta'lim boskichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlar xamda dorilfununlar va boshka oliy o'kuv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.
AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiylar tasarrufida va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.
Amerikada 3 yoshgacha bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. Uch yoshdan besh yoshgacha xususiy yoki davlat bog'chalaridan foydalanish mumkin, lekin bolalar bog'chalari kichik va bu tizim kam rivojlangan. Enaga yonlash bir xaftada 200 dollarga tushadi. Bog'chalarda yagona bir dastur mavjud emas. Kerak bo'luvchi hamma jixozlar va ovqatni ota-onalarning o'zi olib keladi. Besh yoshdan esa «Kinder garde» deb

ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta’lim boshlanadi. Boshlang’ich maktab 6 yoshdan to 13-15 yoshgacha bo’lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang’ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yunaltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan-sinfga ko’chish o’quvchining o’zlashtirganlik darajasiga bog’liq. Boshlang’ich ta’lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to’garaklar, uchrashuvlar, sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga xaq to’lash lozim. O’rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9-sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida o’rta maktabga qabul qilinadi. Urta maktablarda to’rt yo’nalishda kasb-kor asoslari berib boriladi.

Yaponiya ta’lim tizimi va uning o’ziga xosliklari. Yaponiya juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehgatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog‘liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish – bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda.

Yaponiya davlati 6800ga yaqin orollardan tashkil topgan bo‘lib, mamlakat maydonining 99%ni asosan eng yirik 4ta orol – Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollari tashkil etadi. Aholisi 127ming kishidan iborat. Aholi umrining davomiyligi millatning sog‘lomligini va aholi xayotining sifatini belgilovchi muhim bir ko‘rsatkichdir. Yaponlar uchun oila asosiy hayotiy boylik hisoblanadi. Bu joyda ajrashish dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kam uchraydi. Yaponiya ta’lim tizimi ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yaponiya zamonaviy ta’lim tizimining tarixi quyidagi 5ta davrga bo‘linadi:

1. Asos solingan davr. 1867-1885 yillarni qamrab oladi. Zamonaviy ta’limning ilk tuzilishiga asos solingan.
2. Birlashuv (konsolidatsiya) davri. 1886-1916 yillarni o‘z ichiga oladi. Turli maktab qonunlari chiqarilgan, tizimli ta’lim yaratilgan.
3. Tarqalish (ekspansiya) davri. 1917-1936 yillarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim tizimi bo‘yicha favquloddagi kengash tavsiyalariga asosan rivojlantirildi.
4. Harbiy davr. 1937-1945 yillar. Militaristik ta’lim tizimi.
5. Zamonaviy davr. 1945dan hozirgi davrgacha ta’lim islohotlari.

Yaponiya ta’limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o‘z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g‘arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo‘ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish kerakligini angladi.

1872 yili “Ta’lim haqida” qonun qabul qilindi. Bunda yapon ta’limi g‘arb ta’limi bilan uyg‘unlashtirilgan. 1893 yilda kasb-ta’limi yo‘nalishidagi 1-kollej paydo bo‘lgan. 1908 yilda Yaponiya boshlang‘ich ta’limni majburiy 6 yillik qilib belgiladi. 1946-yili qabul qilingan Konstitusiya fuqarolarning ta’lim sohasidagi xuquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta’lim olishi shart ekanligi qayd etilgan. Hozirgi zamon yapon ta’lim tizimining tarkibi quyidagicha: bog‘chalar, boshlang‘ich maktab, kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab, oliy ta’lim tizimlariga kiruvchi oliy o‘quv yurtlari. Bolalar yoshlariga qarab 3,2,1 yillik ta’lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta’lim muassasalarining 59,9% - xususiy, 40,8% - davlatnikidir.

Maktabgacha ta’limga Yaponiyada katta e’tibor beriladi, chunki psixologlarning ta’kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o‘zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o‘rinda turadi. Ko‘pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi – ularning hayotlarining maqsadlaridir.

Yapon tarbiyachilarining bolalarni kichik guruhlarga “xan”larga bo‘lib o‘qitishlari tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu bolalarda qarorlar qabul qilishga, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, guruh a’zolarini barchasini tashabbuskor bo‘lishga o‘rgatadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, o‘rta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhlar o‘rtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshqarish juda yoqadi. Shuning uchun har kuni bolalarning o‘zlari boshqaruvchi tanlaydilar. Har bir bola bu vazifani bajarib ko‘radi.

Boshlang‘ich maktabda o‘qituvchilar bolalarni tanqidga, ya’ni xulqlarini yomon tomonlarini, maktabdagi kamchilikni tanqid qilishni o‘rgatadilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi faqat ta’lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta’sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o‘qituvchi kasbiga katta e’tibor beriladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o‘qituvchining maoshi davlat raxbarlari maoshidan ham yuqori bo‘lgan yagona davlatdir.
Majburiy ta’lim. Ta’limning bu pog‘onasi 6 yoshdan 15yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘z ichiga oladi. 6 yillik boshlang‘ich ta’lim va 3 yillik o‘rta maktab 9 yillik majburiy ta’limni tashkil etadi va u bepuldir. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o‘quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta’minlanadi. Zarur bo‘lgan hollarda ularning oilalariga moddiy yordam ko‘rsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mavjud.
Yuqori o‘rta maktab 10,11,12-sinflarni o‘z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo‘limlari mavjud. O‘quvchilarning 95%i kunduzgi maktablarda o‘qiydi.
Yaponiyada o‘quv yili – 240, AQShda – 180 kun. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan o‘tiladi.
Universitetlarga yuqori va o‘rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o‘quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo‘lib, 95tasi davlat tasarrufida, 34tasi munitsipal, 31tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda har bir o‘qituvchiga 3 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20tadan talaba to‘g‘ri keladi. Universitetlarga qabul qilish 2 bosqichga bo‘linadi: 1-bosqichi turar joyda o‘tkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo‘yicha test sinovlaridan o‘tiladi.
Yaponiyada oliy ta’lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta’limi bilan uzviy bog‘liqdir. Oliy ta’lim tizimi quyidagi turlarni o‘z ichiga oladi:
1. To‘liq sikldagi universitetlar (4 yil).
2. Tezlashtirilgan universitetlar sikli (2 yil).
3. Kasb ta’lim kollejlari.
4. Texnika institutlari.
Germaniya ta’lim tizimi. Germaniya Federativ Respublikasi 16ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo’lib, har biri shakliga ko’ra turlicha bo’lgan ta’lim tizimiga ega. Ta’lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo’lib, ular uchun ta’lim dasturiga tegishli bo’lgan davlat ko’rsatmalari mavjud.
Ta’limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) hukumatining konpetentsiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy raxbarlik ham bor: ta’lim vazirligi ta’lim siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqadi, OO’YUlarini kengaytirishga mablag’ ajratadi.
GFR konstitutsiyasiga ko’ra har bir Federal Yer o’z hududidagi maktab va oliy ta’limni rejalashtirish va amaliyotga tadbiq etish bo’yicha o’zi javob berishga qaramay, barcha Federal Yerlar va Federal hukumat umumta’lim va oliy ta’lim muassasalarida o’qitish kurslarida birlikni ta’minlash maqsadida xamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Yerlarning ta’lim sohasi bo’yicha siyosati kelishilgan: ta’limning davomiyligi, ta’tillar, o’quv dasturi, imtixonlarni o’zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir.
Har bir Federal Yerda ta’lim tizimi xaqida o’zining qonuni mavjud, lekin buning xammasi umumiy federal qonun asosida ishlab chiqilgan. Har bir Federal Yer maktabga qatnash vaqti, o’qish muddati va darsliklarni belgilashda mustaqildir. O’quv rejalar va ta’lim darajasi har bir Federal Yer uchun turlichadir. O’qitish dasturlari, darsliklar viloyat xukumati bosqichida tasdiqlanadi. Har bir fan bo’yicha tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlangan bir necha darsliklar mavjud bo’lib, o’qituvchi darslikni o’zi tanlash huquqiga ega. Shu tariqa ta’limnig ko’p variantliligiga erishiladi, fikrlar plyuralizmi ta’minlanadi.
Federal hukumatning xuquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta’limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:
birorta Federal Erlar davlat umumta’lim, kasbiy va oliy o’quv yurtlarida o’qish uchun pul olmaydi;
barcha Federal erlarda o’quvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o’z hisobidan beradi;

deyarli barcha o'quvchilarga davrslik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beradi; ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobillarning aprobatsiyasi o'tkazilib turiladi.

Sekin asta differentsiyalashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu erlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

2. Ta'limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'lim Ining ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. Ta'lim Ining ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) "yo'nalishli bosqich" deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarining kerakli turiga yo'naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O'quvchilar ta'lim xaqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi.

4. Ta'lim II ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim "dual tizim" deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rna ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziyada 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy shahodatnoma "yetuklik attestati" – abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta'limning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish o'quv muassasalari.

GFR ta'lim tizimi umumYevropa ta'lim tizimiga integratsiyalashgan: o'quv muassasalarining barcha turlari Yevropa Ittifoqi (ES) dasturini amalga oshirishga mo'ljallangan, EI davlatlari ta'lim standartlarini unifikatsiya (bir xillashtirish) qilinadi, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega.

Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. Shiller, Gyote, Shneger, Gumboldt, Kant, Gegel va boshqalar kabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o'rta asrlarda tashkil topgan 1-universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelberg universiteti bo'lib, 1386 yil tashkil topgan. 1388 yil tashkil topgan Kyoln universiteti qadimiy universitetlardan sanaladi. Bu o'quv muassasalari qadimiy an'analari va klassik ta'limi bilan mashhurdir.

Hozirgi kunda universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi, ta'lim tizimi ham o'zgardi. Avvalgiday gumanitar ta'lim an'analari muhim o'rinni egallaydi, lekin texnik ta'lim, nazariya bilan amaliyot birligi, fanlararo ta'lim ham birinchi o'ringa chiqmoqda. Oliy o'quv yurtlari fan va texnikaning oxirgi yutuqlari – yo'nalishlarni aks ettiruvchi dasturlarni kiritmoqdalar. Shu maqsadda o'quv rejalari qayta ko'rib chiqilmoqda.

Ta'lim modellari. XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar. Qiyosiy pedagogik tizim bu qiyosiy pedagogika metodologiyasi asosida pedagogikaning xalqaro, regional, milliy tajribalarini o'rganish va tatbiq qilish imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, pedagogik tizimni ma'lum davlat, region, aniq o'quv muassasida rivojlantirish bo'yicha qiyoslashga yo'naltirilgan dinamik pedagogik tizimdir.

Qiyoslash texnologiyasi ikkita bo'limdan iborat bo'lib, birinchisi "o'rganish va qayd qilish", ikkinchisi "tuzish va tatbiq qilish" deb nomlanadi.

"O'rganish va qayd qilish" bo'limida qiyosiy tadqiqotlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

- ta'lim tizimi va uning elementlarini rivojlanish holati va yo'nalishlarini aniqlash;

- ma’lumotlarni to’plash;
- aktlarni tahlil va tasnif qilish;
- qiyoslash mezonlarini tanlash.
“Tuzish va tadbiq qilish” bo’limidagi qiyosiy tadqiqotlar esa quyidagicha amalga oshiriladi:
- o’rganilayotgan obyektning prognostic modelini tuzish;
- a) tattbiq qilish shakli, metodi va chegaralari; b) xususiy va umumiylikni aniqlash;
- eng maqbul modelni tuzish;
- ta’lim muassasalariga tatbiq etish.
Qiyosiy pedagogikaning asosiy tarkibiy qismlari zamon va makon omillaridir. Zamon omili bir xil pedagogik tizimni turli tarixiy davrlar, asrlar, yillarda taqqoslashni nazarda tutadi. Bunda turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan pedagogik nazariyalar o’rganiladi.
Makon omili esa turli hududlarda joylashgan davlatlarning pedagogik tizimlarini taqqoslashni nazarda tutadi. Quyida makon omiliga ko’ra turli davlatlar ta’lim modelini taqqoslab ko’ramiz. Masalan:
Amerika modeli: kichik o’rta maktab → o’rta maktab → katta o’rta maktab → 2 yillik kollej → universitet tizimidagi 4 yillik kollej → magistratura → doktorantura.
Fransiya modeli: onalar maktabi → o’rta maktab → kollej → texnologik, kasbiy va umumta’lim litseyi → universitet → magistratura → doktorantura.
Germaniya modeli: umumiy maktab → real bilim yurti, gimnaziya va asosiy maktab → oliy o’quv yurti → magistratura → doktorantura.
Angliya modeli: birlashgan maktab → grammatik va zamonaviy maktab → kollej → universitet, magistratura, doktorantura.
Rossiya modeli: umumta’lim maktabi → to’liq o’rta maktab, gimnaziya va litsey-kollej → institut, universitet, akademiya → magistratura → doktorantura.
Qozog’iston modeli: to’liq umumta’lim o’rta maktab → kollej → universitet, akademiya (bakalavriat) → magistratura → doktorantura.
Demak, zamon va makon omillariga ko’ra pedagogik tizimlar modelini taqqoslashda yangi pedagogik bilimlar yuzaga keladi. Uning mazmunida quyidagilar aks etadi:
-ta’limning zamonaviy holatini qayd etish;
-ta’lim siyosatini takomillashtirish, muqobil ta’lim siyosatini taklif qilish;
-ta’lim jarayonlarida kutilayotgan holatlarni bashorat qilish;
-qiyosiy pedagogikaning nazariyasi va metodologiyasini boyitish.
XX asr oxirida jahon ta’lim tizimida quyidagi global tendentsiyalar ajratib ko’rsatildi:
1.ta’lim tizimini demokratlashtirishga intilish, ya’ni ta’limning hamma uchun ochiqligi, ta’lim tizimining uzluksizligi, ta’lim muassasalariga mustaqillikning taqdim etilishi;
2.shaxsga ta’lim olish huquqining to’liq ta’minlanishi (har bir insonga millati, irqi, kelib chiqishidan qat’iy nazar istalgan turdagi ta’lim muassasasida ta’lim olishi);
3.ma’lumot olishga ijtimoiy-iqtisodiy omillarning sezilarli ta’siri (pulli-shartnoma asosida tahcil olish);
4.xilma-xil qiziqish va o’quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan o’quv-tashkiliy tadbirlar ko’lamining ortib borishi;
5.ta’lim xizmatlari bozorining o’sishi;
6.oliy ta’lim tarmoqlarining kengayishi va talabalarning ijtimoiy tarkibining o’zgarishi;
7.ta’limni boshqarish sohasida o’ta markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan boshqaruv uyg’unligini ta’minlash;

5 – MODUL. IJTIMOIY PEDAGOGIKA.

1-mavzu. Ijtimoiy pedogogik faoliyat pedagogika fani sohasi sifatida.

Asosiy savollar

1.Ijtimoiy pedagogika fani haqida tushuncha .
2.Ijtimoiy pedagogikaning fanining maqsadi va vazifalari.

3.Ijtimoiy pedagogikning tamoyillari .
4.Ijtimoiy pedagogikaning paydo bo'lishitarixi va Ozbekistonda rivojlanish.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy, pedagogika, ijtimoiylashuv, ob'ekt, predmet, falsafa, etika, sotsiologiya, etnografiya, etnopsixologiya, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiylashuv kategoriya, ijtimoiy ta'lim, ijtimoiy pedagogik faoliyat, metod.

1-savolning bayoni.
Ijtimoiy pedagogika fani haqida tushuncha .
Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi tutgan o'rni, mohiyati haqida fikr yuritishdan ilgari «Ijtimoiy pedagogika» atamasiga e'tiborni qaratish zarur. Zero unda mustaqil "Ijtimoiy", "Pedagogika" yo'nalishdan iborat bo'lgan mustaqil fan mujassamlashgandir.
Bir necha fanlarning bunday birlashuvi tasodifiy xol bo'lmasdan balki, u ixtisoslashuv jarayonlari bilan bog'liqdir. Darhaqiqat fan olamida keyingi yillarda ixtisoslashuv jarayoni bir muncha rivojlandi. Buni birgina pedagogika fani misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, «Maktabgacha pedagogika», «Maktab pedagogikasi», «Maxsus pedagogika», «Kasb-xunar pedagogikasi», «Oila pedagogikasi», kabilar.
Fanlarni bu taxlitdagi o'zaro birlashuvining asosida ma'lum bir maqsadga qaratilganlik yotadi. Bu xolni «Ijtimoiy pedagogika» dan ham aniq ko'rish mumkin. Darxaqiqat ijtimoiy pedagogika ham pedagogika kabi ta'lim tarbiya jarayoni va xodisalarini o'rganadi Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, u ularni muayyan o'ziga xos yo'nalishda o'rganadi. Chunki, mazkur fanning o'ziga xos bo'lgan tomoni "Ijtimoiy" iborasida mujassamlashtirilganligidir.
"Ijtimoiy" (lotincha - socialis - umumiy) tushunchasining asosini shaxslar, shaxslararo munosabatlarning turli shakllari bilan bog'liq jarayonlar tashkil etadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agarda pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ta'lim-tarbiyasi haqidagi fan bo'lsa, ijtimoiy pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonlarida bolaning jamiyatdagi hayotga qo'shilishiga bog'liq qonuniyat va xodisalarni o'rganadi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, bolaning jamiyatga "kirish" jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qo'lga kiritishi (bilim, qadriyat, yurish-turish qoidalari) bilan bog'liqdir. Buni ijtimoiylashuv deyiladi.
Agarda biz ijtimoiy pedagogika mohiyatini uning ob'ekt va predmetini qiyoslash orqali aniqlamoqchi bo'lsak quyidagi holat kelib chiqadi. Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob'ekti- bu bola, biroq o'rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblansa, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlaridir.
Shu sababli ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, hamda insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, nima uchun bir guruhga birlashishlarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Shuningdek u bu muammolarni ijtimoiy pedagogika vazifalariga mos ravishda o'rganadi. Bugungi kunga kelganda ijtimoiy pedagogika mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.
Hozirda uning nazariy va amaliy faoliyati sohasiga maktab va maktabdan tashqari muassasalardagi tarbiya va qayta tarbiya, bolalar uylari, qariyalar uylarida yashovchilarga g'amxo'rlik, huquqbuzarlar bilan ishlash, kabilar kiradi. Ijtimoiy pedagogikaning o'ziga xos harakteri uning boshqa fanlar bilan munosabatida bevosita namoyon bo'ladi.
Falsafa va ijtimoiy pedagogika. Falsafa inson borlig'i masalalarini o'rtaga qo'yadi va ularga javob topishga harakat qilib, dunyoqarashning umumlashgan tizimini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagogikaning "ijtimoiy tarbiya falsafasi" bo'limi inson va uning tarbiyasiga muayan qarashlardan kelib chiqadi va bu qarashlarda har doim u yoki bu falsafiy asoslarga suyanadi.
Etika va ijtimoiy pedagogika. Etika axloqiy tasavvur va qarashlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek, u tartibga solayotgan axloqiy ong shakllarini va ularning axloqiy faoliyatini tahlil qiladi. Ijtimoiy pedagogika etika shakllantirgan tamoyillardan foydalanadi hamda tarbiya usullari va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Sotsiologiya va ijtimoiy pedagogika. Sotsiologiya-jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tarbiya uslubiyati rivoji, faoliyat yuritishi, shakllanish qonuniyatlari haqidagi fan. Ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi ijtimoiylashuv muammolarini o‘rganish jarayonida ijtimoiy bitim sohalarining bir qator ma’lumotlari (yosh, shahar va qishloq, dam olish, ommaviy aloqalar, yoshlar, axloq, ta’lim, jinoyatchilik, din, oila sotsiologiyasi)dan foydalanadi.
Etnografiya, etnopsixologiya va ijtimoiy pedagogika. Etnografiya halqlarning maishiy va madaniy xususiyatlarini o‘rganadi. Etnopsixologiya insonlar ruhiyatining etnik xususiyatlari, milliy harakteri, milliy o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi qonuniyatlari, etnik steriotiplarini o‘rganuvchi bilim sohasi. Ijtimoiy pedagogika o‘zining asosiy muammosi bo‘lgan ijtimoiylashuv jarayonini nazariy va amaliy jihatdan asoslashda etnografiya va etnopsixologiya fanlariga ham murojat qiladi va oziqlanadi. Jumladan, ijtimoiy pedagogikada umuminsoniy tarbiya tamoyillariga mos tushadigan va o‘z navbatida etnosda shakllangan tarbiya usullaridan shu halq doirasida ijtimoiy tarbiya tizimida foylanish tavsiya etiladi.
Ijtimoiy va yosh psixologiyasi hamda ijtimoiy pedagogika. “Ijtimoiy psixologiya” insonlarni ijtimoiy guruhlarga qo‘shilishlari xolatini keltirib chiquvchi inson faoliyati va yurish-turish qonuniyatlari, shuningdek bu guruhlarning psixologik ta’riflarini o‘rgansa. “Yosh psixologiyasi” esa inson ruhiyati dinamikasi va yosh xususiyatlari shuningdek shaxs rivojlanishining yoshga bog‘liq omillarini ham o‘rganadi. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv va viktimologiya (jinoyatshunoslik) muammolarini o‘rganishda va ijtimoiy tarbiyaning uslubiyotini tadqiq etishda ijtimoiy va yosh psixologiyasi ma’lumotlaridan foydalanadi.
Shu bilan birga ijtimoiylashuv muammolari sotsiologiya tomonidan o‘rganilganligi sababli ijtimoiy pedagogika ba’zi sotsiologik nazariya, usul va vositalardan ham foydalanadi.
Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqilgan holda ijtimoiy pedagogikaga quyidagicha ta’rif berish mumkin:
ijtimoiy pedagogika-shaxsni ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o‘rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo‘llashga qaratilgan pedagogika sohasi.
Bundan tashqari, ijtimoiy pedagogikaga bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o‘rganadigan va mutaxassislarni ijtimoiy tarbiya va ta’lim usullari va texnologiyasi bilan ta’minlaydigan fan sifatida ta’rif bersa ham bo‘ladi.
2-savol bayoni: Ijtimoiy pedagogikaning fanining maqsadi va vazifalari.
Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir qator vazifalarga ega bo‘lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:
Nazariy vazifa: ijtimoiy pedagogik bilimlarni to‘plab zamonaviy jamiyatda o‘rganayotgan jarayon va xodisalarning to‘liq tasvirini tuzishga intilishda namoyon bo‘ladi.
Amaliy vazifalarga: - ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yo‘nalishlardagi ta’sirini samarali takomillashtirish ishlarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar kiradi. Bunday ishlar qatoriga bolalar (yoshlarda) ongida, xatti-harakatida ijobiy fazilatlarning shakllanishiga yaqindan yordam beruvchi, yo‘l - yo‘riq, shakl, vositalarini aniqlash va ularni tadbiq etish, har qanday vaziyatdan mustaqil chiqib ketishning samarali yo‘llarini aniqlash, atrofdagi kishilar bilan muomala qilishni o‘rganish, hayot mazmuni va maqsadini aniklashga doir tavsiyalar berish; ularda jamiyatdagi xuquq va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish, hamda mustaqillik, o‘ziga ishonch xissini shakllantirish;
Insonparvarlik vazifasi - shaxsning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtirish uchun maqsadlarni ishlab chiqishda o‘z ifodasini topadi. Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning insoniyligi bola va pedagog o‘rtasidagi munosabatlarni qattiqqo‘llik bilan emas, o‘zaro tushunish orqali hal qilishga asoslanadi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi bolaning jismoniy, axloqiy va ma’naviy kuchlariga dalda berish, unda jamiyat qabul qilgan xislatlarni tarbiyalashga yordam berishdan iborat.
Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaning vazifalari kengayib bormokda.. Shunga ko‘ra bunday vazifalar qatoriga tarbiyaviy, ijtimoiy-xuquqiy, ijtimoiy reabilatatsiya ishlarini ko‘rsatish mumkin.

Tarbiyaviy vazifa bolani atrof muhitga qo‘shilish, uning ijtimoiylashuv jarayoni, o‘quv va tarbiya jarayoniga ko‘nikishini ko‘zda tutadi.
Ijtimoiy huquqiy vazifa davlatning bolalarga g‘amxo‘rligi, ularning huquqiy himoyasini bildiradi.
Ijtimoiy reabilitatsion vazifa nogiron, jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o‘quv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy ijtimoiy vazifalarni pedagog bajaradi. Shunday ekan, o‘zining pedagogik faoliyatida quyidagilarga o‘z e’tiborini qaratishi lozim:
-falokatga uchragan bola(o‘smir)larga yordam ko‘rsatish. Inqirozdan chiqish yo‘llarini topish, qiyin vaqtda qo‘llab - quvvatlash;
-bola(o‘smir)ni, uning holatini, oila va maktabdagi munosabatlarini o‘rganish;
-bolani o‘rab turgan va unga ta’sir qiluvchi turli ijtimoiy sohalardagi ijtimoiy tarbiya holatini tahlil qilish;
-ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish, o‘zlashtirish, ommalashtirish;
-u bola(o‘smir) faoliyatini o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini o‘qitish va o‘z hayotini mustaqil tashkil qilishni bilishga qaratishi ;
-bola (o‘smir) muammolarini hal qiluvchi, uning inqirozi, huquqlariga aloqador tashkilot, mutaxassislarni birlashtirish bilan ham shug‘ullanish;
ijtimoiy tarbiyaning turli muammolarini o‘rganishni tashkil qilish, bu borada takliflarni kiritish;
Ijtimoiy pedagogika bilim sohasi sifatida bir nechta bo‘limlardan iborat.
Ijtimoiy tarbiya falsafasi - falsafa, etika, ijtimoiy va pedagogikalarning uyg‘unlashuvidan kelib chiqadi. Unda amaliy, uslubiy va dunyoqarashga oid masalalar o‘rganiladi. Xususan ijtimoiy tarbiya va uning vazifalari ta’rifi beriladi; inson qiyofasini muayyan tushunish asosida rivojlanish, ijtimoiylashuv va tarbiya nisbatiga umumiy yondashuvlar ishlab chiqiladi; ijtimoiy tarbiyaning qadriyat va tamoyillari ishlab asoslaniladi va boshqalar.
Ijtimoiy tarbiya satsiologiyas ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o‘rganadi. Olingan bilimlar ularning tarbiya solohiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta’sir etish mumkin bo‘lgan ijobiy ta’sirlarni kuchaytirish va salbiy ta’sirni kamaytirishning usullari va yo‘llarini izlab topish imkonini beradi. Umuman olganda ijtimoiy tarbiya satsiologiyasi tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar jamiyat tarbiyaviy kuchlarini birlashtirish yo‘llarini qidirishga asos bo‘lishi mumkin.
Ijtimoiy tarbiya nazariyas ijtimoiy tarbiyaning faoliyat yuritishini tavsiflaydi, tushuntiradi va bashorat qiladi. Ijtimoiy tarbiya darajasidan kelib chiqib, ijtimoiy tarbiya ijtimoiyogiyasi ma’lumotlarini inobatga olib ijtimoiy tarbiya individual, guruh, ijtimoiy sub’ektlari nima ekanligini va ular o‘zaro qanday munosabatda bo‘lishlarini o‘rganadi.
Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi guruh va insonlarning ijtimoiy psixologik tavsiflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlari asosida ijtimoiy tarbiya sub’ektlarining o‘zaro munosabati samaradorligining psixologik sharoitlarini aniqlaydi.
Ijtimoiy tarbiya uslubiyati ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil qilishning yangi usullarini ishlab chiqadi.
Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti bir tomondan jamiyatning inson mablag‘iga ehtiyojini, boshqa tomondan ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo‘lgan jamiyatning iqtisodiy resurslarini tadqiq etadi. Bundan tashqari bu bo‘limda ijtimoiy tarbiya boshqaruvi ham ko‘rib chiqiladi.
Ma’lumki, har bir fanni mazkur fanning o‘rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida aks etadi. Tushuncha- voqey olamni bilish jarayonida yuzaga keladi. Voqeylik o‘zgaruvchan bo‘lganligi tufayli tushunchalar ham dinamik tarzda o‘zgarish va rivojlanish harakteriga ega. Boshqacha qilib aytganda tushunchalar tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi.
Har qanday fanning rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan kategoriyalariga birlashishadi. Fan kategoriyalari shu fanda qo‘llaniladigan yirik nazariy va amaliy tushunchalardir. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari “ijtimoiy pedagogik faoliyat” “ijtimoiy ta’lim” va “ijtimoiy tarbiya” bo‘lib hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq atvorning me’yor va qoidalari haqidagi bilimlar, tajribalarni o‘zlashtirib boradi.
Bolalar ijtimoiylashuvining o‘ziga xos xususiyati shuki, ular jamiyat ilgari surayotgan yurish- turish me’yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. Faqat ular bu darajani hayot davomida egallaydilar. Shuning uchun bolalar ijtimoiylashuviga ota-onalar, qarindoshlar, bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar (psixolog, shifokor, pedagoglar - “agent”lar) bu masalaga alohida e’tibor bermoqlari zarur. Chunki, bolalar hayotda zarur bo‘lgan ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o‘zlashtirishlari va ularni hayotda qo‘llashga intilishlari aynan ularga bog‘liqdir.
Buni ijtimoiy pedagogika bilan bog‘liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta’lim muassasida ta’lim olish jarayonida bolalar avvalo akademik bilimlarni o‘zlashtiradi. Biroq shu bilan bir vaqtda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko‘nikma va malakalarni ham qo‘lga kiritadi. Bular esa bolalarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega.
Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish va unda ijtimoiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni “ijtimoiy ta’lim” deyiladi.
Tarbiya pedagogikaning asosiy ob’ekti sifatida uning rivojlanish tarixi mobaynida o‘rganib kelingan. Chunki, bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni ifodalaydi.
Boshqa tomondan tarbiya-ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug‘aviy ma’nosiga qaraganda bir muncha kengdir.
Darhaqiqat, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo‘naltirishdir.
Bu sharoitlar individual va guruhiy sub’ektlarning uchta o‘zaro bog‘liq va shu paytning o‘zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo‘lgan jarayonlar (bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar)ni qamrab oladi. Ularning ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularga individual yordam ko‘rsatishning o‘zaro munosabati jarayonida yaratiladi. Guruh (jamoa)larda ijtimoiy tajribani tashkil qilish esa ularning hayotiy faoliyatini yo‘naltirish orqali amalga oshiriladi. Bunda guruh a’zolarining o‘zaro munosabatlarini tashkil qilish, guruhdagi faoliyatni rag‘batlantirish va norasmiy mikroguruhlarga ta’sir etish muhim ahamiyat kasb etadi.
Ijtimoiy tajriba keng ma’noda turli ko‘nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish- turish me’yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, ko‘nikish, shuningdek o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini aniqlab olish birligidir.
Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda ko‘maklashish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish, uning jamiyatdagi mavqei, o‘rnini yuksaltirishda namoyon bo‘ladi.
Individual yordam - boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo‘lgan bilim, malakalarni o‘zlashtirishda insonga ongli yordam berish, insonning o‘z qadriyatlarini anglashi, o‘z- o‘zini anglashini rivojlantirish, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir.
Bu o‘rinda shuni ham ta’kidlash joizki, ijtimoiy tajriba, ta’lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, harakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi, ularning ijtimoiy madaniy mansubligiga ham bog‘liq. Bu jihatlar turli ta’lim muassasalari va tashkilotlarda farqlanadi. Masalan pedagogik, texnikaviy, tibbiy, xuquqiy, iqtisodiy kabi.
Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o‘zaro munosabat esa uning sub’ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir.
Umuman olganda o‘zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib uning mazmuni, harakteri tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgandir.
Ijtimoiy pedagogika o‘zining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda quyidagi tadqiqot metodlaridan keng ko‘lamda foydalanadi;
-umummantiqiy metodlar (analiz, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, modellashtirish, loyihalash)
-umumpedagogik metodlar (kuzatish, suxbat; tajriba; manbalarni o‘rganish; qayta ishlash, umumlashtirish)xususiy pedagogik - psixologik metodlar (individual va guruhiy o‘rganish, xurmatlash, tushuntirish, ijobiy fazilatlarga tayanish, ijtimoiy fikrlarni hisobga olish, tashxislash ekspert xulosalarini hisobga olish);

-tarixiy metodlar tarixiy qiyoslsh, genetika, strukturaviy (alohida belgilar, shartli guruhlar) tarixiy manbalarni o‘rganish;
-sotsiologik metodlar (anketa, so’rovnoma, intervyu olish, sotsiometrik, biografik, monitoring, test topshiriqlari, modellashtirish);
-matematik - statistik (taxlil, natijalarni qayd etish, tekshirish).

2-savol bayoni:

Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari. .

«Printsip» so’z i lotincha «rrinsipial» so’zidan xosil bo’lgan «asos», «boshlanish» ni bildirali. Har qanday fan uchun ishlatilgan muayan kridalardan kelib chikaligan o’z Printsiplari mavjud



Tarbiyaning tabiatga uyg’un bo’lishi – ijtimoiy pedagogika printsipi, shunga ko’ra ijtimoiy pedagog o’z amaliy faoliyatida bolaning tabiiy holda rivojlanishi omillariga tayanadi. Sharq Uyg’onish davri mutafakkir qomusiy olimi Abu Nasr al-Farobi (873-950) pedagogikaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga qadar o’z asarlarida ediki, inson tabiatning eng ta’kidlagan oliy yutug’idir va o’z aqliga ko’ra atrof-muhitni har tomonlama idrok qilish mumkin.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o’z ishlarida tarbiyaning tabiatga uyg’un bo’lishi haqida gapirgan edi. Masalan, «Uy-ro’zg’or tutish» haqidagi asarida Ibn Sino yozgan ediki, inson aqlli mavjudot, shuning uchun tabiatda alohida o’rin tutadi va uning qonunlariga ko’ra rivojlanadi. «Yomon xislatlarni qayta tarbiyalash» asarida esa Ibn Sino yozadiki, kimki ahloqsiz insonni tarbiyalamoqchi (qayta tarbiyalamoqchi) bo’lsa, unda u uni har tomonlama o’rganishi (insonni), inson tabiati qoidalarini bilishi kerak.

Tarbiyaning tabiatga uyg’un bo’lishi printsipi ilk bor buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) bilan uning «Buyuk didaktika» (1632) degan eng asosiy ishida ta’riflangan Komenskiy, inson tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiy qonunlariga bo’ysunadi, deb hisobladi. Komenskiyning fikricha, tabiatning bu qonunlari o’simliklar va hayvonlar olamida ham, shuningdek, insonga nisbatan ham o’z ta’sirini o’tkazib turadi.

Ya.A.Komenskiy nafaqat tabiatning umumiy qonunlariga, balki bola shaxsi psixologiyasiga ham tayanardi. U bolalar, o’spirinlar va yosh yigitlarning yoshiga oid tavsifiga tayanga holda o’z bolalar ta’lim-tarbiyasi tizimini ilgari suradi, asoslaydi va quradi.

Shveytsar pedagogi Iogann Genrix Pestalotstsi (1746-1827) etim va qarovsiz bolalar uchun muassasalar va bolalar uyini yaratgan, u hisoblardiki, tabiat maqsadi – inson tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirishdir, bunda rivojlanish har tomonlama va uyg’un bo’lishi lozim.

Nemis olim-pedagogi Adolf Disterveg (1790-1866) ham I.G.Bestalotstsi ketidan bu printsipni eng muhim tarbiya printsipi deb hisoblagan. Uz ishlarida yozgan ediki, ta'lim va tarbiya jarayonida yosh va individual xususiyatlarni e'tiborga olish lozim.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lishi rus klassik pedagoglari ishlarida ham o'z aksini topgan. K.D.Ushinskiy (1824-1871) o'zining asosiy «Inson tarbiyaning mazusi sifatida» degan psixologik-pedagogik asarida yozgan ediki, bola tarbiyasi va ta'limi uchun tarbiya printsiplari va qoidalarini bilish, balki inson tabiati asosiy qonunlarini bilish, ularni har bir aniq holda tatbiq qila olish lozim. K.D.Ushinskiy fiziologiya, gigiena va psixologiya (diqqat, xotira, tasavvur, hislar, iroda) asoslarini oldindan o'rganish zaruriyatini asoslab berdi, buning asosida so'zlash qobiliyatini, ahloqiy, estetik va diniy hislarni, didaktikani o'rganishga o'tish mumkin.

Ijtimoiy pedagogikada tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lish printsipiga amal qilib, quyidagi qoidalarga tayanish lozim:

- Bolalar yoshi xususiyatlarini e'tiborga olish;
- Bolalar jinsiy xususiyatlarini e'tiborga olish;
- Me'yordan chetga chiqish bilan bog'liq bo'lgan bolalarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish;
- Bola shaxsidagi ijobiy, kuchli tomonlarga tayanish;
-Bola tashabbuskorligini va mustaqilligini rivojlantirish
- Madaniyat bilan uyg'un bo'lish printsipi.

Antik jamiyatdagi faysuflar va pedagoglar shaxs shakllanishi va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni tahlil qilganlar. Shu narsaga Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari va qomusiy olimlari bo'lgan Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, XII asr insonparvari Alisher Navoiy ham o'z asarlarida tayanganlar. Bunda ikkita muhim tezis belgilandi: shaxs madaniyat orqali shakllanadi, har qanday madaniyat asosiy boyligi esa insondir. O'tmish faylasufi va pedagoglari hisoblardiki, madaniyat yuqori ahloqiy insonni shakllantirishning zaruriy va eng muhim omilidir.

Madaniy uyg'un bo'lish printsipi pedagogikada A.Disterveg (XIX asr) bilan ilgari surilgan. U hisoblardiki, tarbiya qilishda joy va vaqt shart-sharoitlarini, ya'ni inson tug'ilgan vaqti va joyini, bir so'z bilan aytganda butun zamonaviy madaniyatni e'tiborga olish zarur. Butun insoniyat, har bir halq va har bir avlod madaniyat rivojlanishining ma'lum bir pog'onasida turadi – bu ajdodlar bilan ular tarixi natijasi sifatida qoldirilgan meros. Madaniy uyg'un bo'lish printsipi muayyan tashqi, ichki va ijtimoiy madaniyat asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishni bildiradi. Dister vegga ko'ra tashqi madaniyat - bu ahloq turmush, iste'mol qilish me'yorlari ichki madaniyat insonning ma'naviy hayoti. Ijtimoiy madaniyat ijtimoiy munosabatlar va milliy madaniyat.

Rossiya pedagogikasida madaniy uyg'un bo'lish g'oyasi K.D.Ushinskiy asarlarida berilgan edi. U shu haqida yozardiki, agar biz ziyoli inson va fuqaroni tarbiyalamoqchi bo'lsak, yozish, o'qish, sanash, malakasidan, o'z dini, o'z vatani, uning tabiati, georafiya, tarix, madaniyatni bilishidan boshlash kerak. K.D.Ushinskiy asarlarida bu g'oya xalqchilik g'oyasi sifatida aks ettiriladi.

Xalqchilik deganda K.D.Ushinskiy har bir xalqning o'ziga xosligini uning tarixiy rivojlanishi, geografik va tabiiy shart-sharoitlari bilan shartlanishi orqali tushungan.

Madaniy uyg'un bo'lish g'oyasi pedagogikamizda Abdulla Avloniy bilan berilgan. Bu g'oya uning «Turkiy guliston yohud ahloq» degan asarlarida Vatanga muhabbat sifatida aks ettiriladi.

«Inson tug'ilgan va o'sgan shaharni, yozadi A.Avloniy hamda shu shahar joylashgan mamlakatni shu inson Vatani deb ataydilar... biz, Turkistonliklar, hayotimizdan ham afzal o'z quyoshli o'lkamizni sevganimizdek, arablar ham o'z Arabistonini, uning issiq qumli cho'llarini, eskimoslar o'z Shimolini, abadiy muz va qorlar bilan qoplangan eng sovuq erlarini sevadi»99.

Madaniy uyg'un bo'lish printsipi umuminsoniy madaniyat qadriyatlari salohiyatini umuminsoniy va milliy madaniyati qadriyatlari va me'yorlarini tarbiyalashda hisobga olishni ko'zda tutadi.

Umuminsoniy qadriyatlarga eng katta bo'lgan qadriyat inson, inson yashaydigan tabiiy muhit oila, hayot faoliyati asosi mehnat, yashash sharti erdagi tinchlik, inson faoliyati asosi bilim, insoniyatning tarixiy tiklangan ijtimoiy tajribasi dunyoviy madaniyat kiradi.
Madaniy uyg'un bo'lish printsipini tatbiq etish bir qator qoidalarning bajarilishini talab etadi:
bolalarda har xil madaniyat turlarining shakllanishida me'yordan chetga chiqishini e'tiborga olish;
rivojlanishda nuqsonli bolalar ijodini rivojlantirish.
Gumanizm tamoyili - «Gumanizm» va «insoniylik» so'zlari lotincha «humanus» so'zidan kelib chiqib, «insoniy» degan ma'noni bildiradi.
Gumanizm – inson qadriyatini shaxs deb, erkinlikka, baxtga bo'lgan huquqini, qobiliyatlari rivojlanishi va namoyon bo'lishini tan oladigan qarashlar tizimi.
Gumanizm insonga nisbatan izzat-hurmatli munosabatni, uni erdagi eng oliy qadriyat deb tan olinishini ko'zda tutadi. Gumanizm asosan bolalarga bo'lgan muhabbat va bolalarda muhabbatni tarbiyalashda namoyon bo'ladi.
Gumanizm printsipi ijtimoiy pedagogikada bolaning shaxs deb, uning erkinlikka, baxtga, hayoti, sog'lig'ini himoya qilishga va qo'riqlashga bo'lgan huquqlarini tan olishni, bola, ijodiy imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni, hayotda o'z o'rnini topishda, jamiyatga «kirishi»da, shu jamiyatda o'zini to'la ko'rsata olishida yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi.
Pedagogika va ijtimoiy pedagogikada gumanizm g'oyalari rivojlanishi Sharq Uyg'onish davri va g'arb Uyg'onish davrida o'z cho'qqisiga etdi. Gumanistik tarbiya ideali bo'lib erkin har taraflama rivojlangan shaxs hisoblanadi. Farobiy (873-950), Beruniy (973-1050), Ibn Sino (980-1037), Alisher Navoiy (1441-1501), Tomas Mor (1478-1535), Fransua Rable (1483-1536), Mishel Monten (1533-1592), Jaloliddin Devoniy (1428-1502) va b. asarlarida tarbiya mazmuni ochib berilgan hamda gumanistik tarbiya mohiyati va vositalarini tahlil qilishga urinishlar bo'lgan edi. Matafakkir va pedagog-gumanistlar uchun insonga, tabiati va tarbiyasiga qarashi umumiy hisoblanardi.
Gumanizm printsipi quyidagi qoidalarga rioya qilishni talab qiladi:
- bolalarning jamiyatda qanday jismoniy, moddiy, ijtimoiy holda bo'lishiga qaramay ularga hurmatli munosabatda bo'lish;
- har bir bolaning o'zicha bo'lishi, ularga hurmatli munosabatda bo'lish huquqini tan olish; hurmat qilish demak boshqaning men istagandek bo'lish emas, balki o'zicha bo'lish huquqini tan olish;
- bolaga o'ziga va atrofdagilarga hurmatni shakllantirishda, «Men o'zim» tutgan o'rnini, o'z muammolarini o'zi hal etish istagini shakllantirishda vujudga keladigan muammolarda yordam ko'rsatish;
- shavqat qilish va achinishga emas, balki bolalarga jamiyatda rivojlanishiga yordam berish istagiga tayangan gumanizmning birinchi pogonasi bo'lgan rahmdillikni tushunish;
- muammoli bolalarni ayrim guruhlarga ajratishga va ularni normal bolalardan chetga olishga intilmaslik, agar biz nogiron bolalarni sog'lom kishilar orasida yashashga tayyorlashni istasak, shunday bolalarni kattalar va bolalar bilan muloqotda bo'lishi tizimi o'ylab chiqilishi lozim.
3-savol bayoni: Ijtimoiy pedagogikaning paydo bo'lishitarixi va Ozbekistonda rivojlanish
Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda rostgo`ylik, haqiqat, demokratiya, o`z huquqini bilish va talab etish doimo muhim ijtimoiy masalalardan biri bo`lib kelgan. Shu ma'noda «Avesto»dek nodir yodgorlik ayniqsa ijtimoiy-pedagogik masalalarni tarixiy nuqtai nazardan eritganligi bilan alohida axamiyat kasb etadi.
Grek tarixchisi Gerodotning ta'kidlashicha Markaziy Osiyoda haqiqatga, tartibga siginish zardushtiylik dini shakllangunga qadar ham mavjud bo`lgan. Haqiqatga sajda qilish - do`stga bo`yin egish buyuk qonun hisoblangan. «Avesto»da jamiyat bir butun ijtimoiy tuzum sifatida tasvirlanadi. Bunda davlat muassasalari bilan birga jamoat tashkilotlari bahamjihat faoliyat ko`rsatishlari kerakligi ta'kidlanadi. Ijtimoiy hayotda jamiyatni boshqarish masalasi aloxida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatni boshqarish uchun Ilohiy Nizom va Oliy Nizom zarurligi aytilib, davlat mahkamalari va jamiyat tashkilotlaridagi barcha yo`nalishlar shu Nizomlar doirasida faoliyat ko`rsatishlari kerak bo`ladi. Ilohiy Nizom talablari «Avesto»ning «Vandidod» va «Xot» qismlarida bayon etilgan.

Ilohiy Nizomga ko`ra inson faoliyatining barcha yo`nalishlari ezgulik ruxi bilan sug`orilgan bo`lishi kerak.
Podshoh va vazirlar muxim davlat ahamiyatiga molik ishlar bilan band bo`lganlar. Maxalliy o`z-o`zini boshkarish mahkamalari samarali ishlashi uchun unga yordam berganlar, ammo ularning ichki ishlariga bekordan bekorga aralashmaganlar. Bu hol maxalliy mahkamalar va «erkaklar uylari» kabi (xozirgi choyxonalar) jamoat muassasalari mas'uliyatini oshirishga imkon tug`dirgan. Xar bir odamning fe'l – atvori, hatti-xarakati, butun faoliyati jamoatchilik nazorati ostida bo`lib, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini belgilashning aniq mezonlari bo`lgan.
Atrof muhit tozaligi va jamoat joylari pokizaligini maxsus kishilar nazorat qilib borganlar. Kimda kim ozodalik va tozalikka rioya qilmasa ularni tartibga chaqirishgan, nojuya ishlari uchun javobgarlikka tortishgan. Daraxtning bir shoxini sindirgan ham, nopok ko`zani xovuzga solgan ham 25 qamchi kaltak bilan jazolangan.
Er-xotinning bir-biri bilan kelisha olmasligi, qaynona- kelin o`rtasida janjal, bir-biriga yoqmaslik, fitna, bo`xton, chaqimchilik tufayli oilalarning buzilib ketishiga mahalla - ko`y va jamoatchilik sira yo`l qo`ymagan. Zinokorlik qattiq jazolangan. Xar bir sog`lom inson diniy talab va Nizomni bekamu-kust bajarish bilan birga ijtimoiy foydali mexnat bilan shugullanishi shart bo`lgan.
«Avesto»da ana shu kabi ko'plagan ijtimoiy pedagogik muammolar o`z ifodasini topgan.
Jamiyat manfaati yo`lida o`zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini o`z Vatani uchun baxshida etishga tayyor turadigan etuk insonlar, uddaburon yoshlar, fidoiylar bulmasa, O`zbekistonni dunyodagi ilg`or davlatlar safiga qo`shish qiyin bo`ladi. YOshlarni tarbiyalashda birinchi navbatda SHarq va G`arb mutafakkirlarining ma'naviy va madaniy meroslari katta ahamiyat kasb etadi.
Forobiy, Beruniy, A. YAssaviy, B. Naqshband, Ismoil al-Buxoriy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Zamaxshariy, N. Kubro, Navoiy, Ulug`bek, Bobur kabi alloma va mutafakkirlarimizning, shuningdek, G`arb olimlarining xam ijtimoiy-siyosiy va falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko`rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada samaraliroq bo`ladi. Ular ijtimoiy hayotimizning barcha soxalariga doir o`z fikrlarini bayon etib o`tganlar. Ijtimoiy hayot, atrof-muxitning insonlarga, ularning ma'naviy dunyosiga katta ta'siri borligini atroflicha yoritib berganlar.
Masalan, Konfutsiy va uning izdoshlari shaxsning paydo bo`lishi, uning jamiyatdagi o`rni va mohiyati kabi muammolarni o`rganishgan. Jumladan, Syan-TSzi tug`ma xususiyatlar – bu samoviy munosabatlar hosili bo`lib, ularga ta'lim berish bilan erishib bo`lmasligini ta'kidlaydi. Inson tug`ilishidan boshlab xar bir narsadan foyda olishga intiladi. Bu esa kishilarning o`zaro raqobatlashishlariga olib keladi. SHuning uchun xam tarbiya yo`li bilan inson tabiatini o`zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida ularni adolatlilik va mas'uliyatlilik kabi qator fazilatlarga o`rgatish lozim. Xam Sharq ham G`arb mamlakatlari allomalarining faoliyatida shu kabi ijtimoiy pedagogika muammolariga doir juda ko`plab g`oyalarni uchratish mumkin. Buni biz Abu Nasr Forobiyning qarashlari misolida ham ko`rishimiz mumkin.
Forobiy (873-930 yy.) yunon olimlari falsafasining targ`ibotchisi, faylasuf, qomusiy olim, falsafada Aristoteldan keyingi «Ikkinchi muallim», o`z davrida ijtimoiy-siyosiy masalalar bo`yicha birinchi bo`lib yirik asarlar yaratgan buyuk allomadir. Olim ijtimoiy hayotning turli masalalariga oid o`z asarlarida insonlarning birgalikda yashashlarining sabablarini, ahil va xamjihatlikda yashashda ta'lim va tarbiyaning rolini tushuntirib berar ekan, quyidagi muammolarga xam oydinlik kiritadi, ya'ni:
Davlat tuzilishi va uni boshqarish.
Ijtimoiy nizolarning oldini olish.
Kamolotga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish, ya'ni etuk jamoaga erishish.
Hirs-xavaslardan tozalanish.
Ijtimoiy – pedagogik ish O`zbekistonda davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida aloxida urinni egallaydi. «Milliy g`oya – bizning g`oya», «Istikbolimiz – istiklolimiz», «Tafakkurimizni o`zgartirgan o'n yil» mavzularidagi tadbirlar bunga misol bula oladi. Jamoat tashkilotlari, madaniyat, maorif, san'at muassasalari faoliyatiga tegishli bo`lgan ma'naviy – ma'rifiy shakldagi ishlar xam shular jumlasiga kiradi. Ularning faoliyati targibot va tashqiliy ishlarning kulamini kengaytiradi, usayotgan yosh avlod tarbiyasida yangi imkoniyatlar ochadi.Ma'naviy muassasalar

yana bir muxim vazifa bajaradi. Gap odamlarning jamoa bo`lib ma'naviy xayot kechirishni tashkil etish ustida bormokda. Bu vazifa inson va jamiyatning bilish extiyojini kondirish, ularning faoliyatida uchraydigan xodisalarni, mexnatini, turmushini, bush vaktini chukur mushoxada qilish bilan uzviy boglikdir.

Qadim antik davrlardayok bolani ximoya qilish maqsadida o`zlarining ijtimoiy pedagogik tarbiyaga oid muammolarni oldinga surganlar. Eramizdan avvalgi 7-6 asrlar Markaziy Osiyo xududida jaxon dinlari orasida eng kadimgi din- zardushtiylik dini xukumronlik kildi.

Bu din insoniyatga katta ta'sir kildi, yani insonni birinchi uringa olib chikdi. Zardushtiylarning mukaddas kitobi "Avesto"ni (olovga siginish) o`z davrining o`ziga xos komusiy asari deb xisoblash mumkin. Zardushtiylar dinida axlokiy meyorlar asosi (axlokiy mezonlar) uchlikka tayangan edi. "Avesto"da- Inson yaxshi fikrlarga ega bulishi, faqat yaxshi so`zlar va savobli ishlar qilishi lozim,- deb yozilgan (xulk- atvor)1.

"Avesto"ning katta kismi bulgan «Yasna»larda inson kamolotini kursatuvchi axlok – odob mezoni ana shu uchlikda xumata (gumata) – yaxshi fikr, xukta (gukta) – yaxshi soz va xvarsha (gvarshta) – yaxshi ishlarda ifodalanadi. "Men yaxshi fikr, yaxshi so`z, yaxshi ishga shon shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat konunga shon- shavkat baxsh etaman" "yasna", deyiladi.

"Avesto"ning tadqiqot chisi A.O.Makovelskiy inson fikri, so`zlari va ishlariga ikki karama karshi kuch: Voxu Mana "Ezgu fijr" va Apo Mana "Yovo`z fikr" ta'sir kursatadi deydi. Barcha fikrlar, so`zlar va ishlar ichida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi. "Yaxshi fikr" deganda iloxiy-konun: kishiga mexribon bulish, muxtojlarga kumaklashishga, yovuzlikka karshi kurashishga tayyor turish, kishilarni baxt-saodati uchun xarakat qilish, axillik va dustlik, totuvlikda yashashga intilish ruxidagi niyatlar va fikrlarning musaffoligi tushunilgan. Inson o`z fikri xayolida boshkalarga xasad kilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi dargazab bulmaydi va boshka jixatlarga berilmaydi. Chunki bunday xolatda inson yaxshi niyatini yukotadi, burch va adolat xaqida unitadi va nojuya xaraktalar kiladi.

Zardushtiylik dinida uchlik asosiga tayangan xolda axlokiy meyorlar: YAXSHI SO 'Z, YAXSHI ISH, YAXSHI FIKR , XULQ ATVOR mavjud.

Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go'ro'g'li) manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etganini ko'ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni yuzaga keltirdi. Ular mintaqadagi oila va jamiyat tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyoning arab halifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashinuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o'zaro munosabatlarning shakllanishini yuzaga keltirdi. Moddiy barqarorlik, ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma'naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishga yordam berdi.

Ijtimoiy pedagogik g'oyalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg'onish davri olimlarining asarlari alohida o'rin tutadi. Ular faoliyatining mohiyati o'sha davrgacha mavjud bo'lgan ijtimoiylashtirish usullarini ilmiy asoslangan tizim holatiga keltirganliklaridadir. Etuk olimlarning faoliyatidagi o'ziga xoslik, ya'ni doimiy ilm bilan mashg'ul bo'lish, bilimga chanqoqlik ularning ijtimoiy pedagogik qarashlarining mazmunida o'z aksini topadi.

O'rta asrlar Sharq fani va madaniyati etakchilari orasida shubhasiz, o'z davrida zamondoshlari tomonidan "Muallim us-soniy" "Ikkinchi muallim" deb nom berilgan Abu Nasr Forobiy (870-950)ning bu boradagi xizmatlari bebahodir. Uning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, ideal davlat haqidagi qarashlari, ayniqsa, taraqqiyparvar tavsifga egadir.

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng o'qitila boshlagan bo'lsa-da, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat- ijtimoiy ximoya ko'rinishida qadimiy ildizlarga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go'ro'g'li) manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etishini ko'ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni olib keldi va ular mintaqada oila va jamiyat tarbiyasi tizimiga ta'sir ko'rsatdi.

Markaziy Osiyoning arab halifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o'zaro munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Moddiy barqarorlik va ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma'naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishga yordam berdi.

O'rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy pedagogik g'oyalari.

Ijtimoiy pedagogik g'oyalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg'onishi davri olimlarining asarlari beqiyos o'ringa ega. Ular faoliyatining mohiyati shuki avval mavjud bo'lgan o'sha davrni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asoslangan tizimi asosida to'planganligidadir. Etuk olimlarning faoliyat xarakteri-ilm bilan mashg'ul bo'lish ijtimoiy pedagogik qarashlarning mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Buyuk olim Al-Xorazmiy (783-850 y)ning asarlari yorqin didaktik xarakterga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qulgakiritilishini, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kiritilishini, jamiyatning faola'zosiga aylanishini ta'kidlagan.

Al-Xorazmiy-Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek-kabi olimlar o'z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini tushunishgan va buni tadbiq etishgan. Bu avvalambor ular ta'limning maqsadi hayotga tayyorlash, axloqiy norma va qoidalar, kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo'lishida deb bilganliklarida namoyon bo'lgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy (973-1050 y) ta'lim jarayoniga qo'llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U shuningdek ta'lim tamoyillarini ham tasniflagan. Uning pedagogik qarashlarining ijtimoiy yo'naltirilishi u axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o'z ifodasini topgan. Olimning tarbiya, shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy hayot uchun ilm va mehnatning ahamiyati haqidagi g'oyalari hozirgacha muhimligini saqlab qolgan.

Buyuq qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (980-1037 y) o'z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan. Uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar mavjud. Biz uning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof muhit ta'siri, axloqiy va mehnat tarbiyasi, muomala san'ati, bolalarni jamoada o'qitish haqidagi g'oyalari muhim hisoblanadi.

Forobiy, ibn Sino, Beruniy ta'lim muammolari bo'yicha bir xil fikrlar bildirgan va insonning jamiyatga sermahsul xizmat qilishi uchun o'z aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta'lim vazifasini ajratib ko'rsatganlar. Ta'limning rivojlatiruvchi vazifasini amalga oshirish maqsadida ular quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanishni maslahat berganlar:

-asta-sekin tushunchalarning murakkablashuvi;

-amaliyotni tajriba bilan bog'lash;

-qabul qila olishlik;

-ko'rgazmalilik.

Ibn Sinoning fikricha ijtimoiylashtirish ko'nikmalari jamoa bo'lib o'qitish shaklida yaxshi shakllanadi. Buning uchun u quyidagilarga asoslanishi lozim:

1.Ta'lim oluvchilar, o'qituvchi va o'quvchilar orasida tajriba, bilim, ma'naviy va .axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil qilish.

2.Musobaqalashuv elementidan foydalanish.

3.O'quvchining ijtimoiy axloqiy xususiyatlarini-muomala, o'zaro tushunish, o'zaro yordam, do'stlik hissini rivojlantirish.

Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganligi, ularning avvalambor hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta'lim maqsadini sharhlashlarida o'z ifodasini topgan. Shaxsning jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishini ta'minlab beruvchi eng muhim xususiyatlar deb, ular mehribonlik, yaqinlarga yordam, g'urur, vijdon, yaxshi niyatlilik, sabrni bilishgan. O'quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnat tayyorgarliklariga katta e'tibor qaratib, Forobiy va ibn Sino yoshlarning jamiyatga "kirish"larining

eng muhim omillari sifatida, faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, ijodiy qobiliyatni hisoblashgan.
Ijtimoiy tarbiyada o'qituvchiga etakchi o'rin ajratib, Forobiy uning faoliyatini, jamiyatning kelajagi unga bog'liq bo'lgan hukmdor faoliyatiga qiyoslaydi. Forobiy ham ibn Sino kabi pedagog o'quvchilarning bilimlarini hayotga tadbiq etishlariga e'tibor berish lozimligiga ishora qilgan.
Qomusiy olimlar shaxsiy namunaga nihoyatda katta e'tibor berishgan hamda o'zlari ham intiluvchanlik, yuqori ijtimoiy mavqe'ga erishganlik namunasi bo'lib xizmat qilishgan. Forobiy nihoyatda mehnatsevar, irodali, kamtar, sodda bo'lgan va doim yordamga intilgan. Forobiyning o'quvchilarning individual psixologik va aqliy xususiyatlariga mos tushuvchi ta'limni usuli, kasb tanlash muhimligi haqidagi fikrlari hozir ham katta ahamiyatga ega.
O'rta Osiyo olimlari tomonidan tarbiya va ta'limning ijtimoiy o'rnini tushunishlari shunda namoyon bo'ldiki, ular ijtimoiylashuvining mikroomillar-muhit, oila, o'quvchilar guruhiga e'tibor karatganlar va ota-onalar, pedagog va o'quvchining harakatlarini mujassamlashtirishni maslahat berganlar.
Shunday qilib, o'rta asr olimlari ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganlikga ega katta pedagogik meros qoldirganlar. Ularning ilmiy pedagogik asarlari zamonaviy ijtimoiy pedagogika ilmining rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi.
O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish shart sharoitlari 1991 yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinishi bilan pedagogikaning ko'pgina sohalari, shu jumladan, ijtimoiy pedagogikani ham rivojlantirish vazifasi qo'yildi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'isida"gi Qonun (1997 yil) qabul qilinishi bilan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samarali yo'llarini topish, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish, erkin fikrlaydigan barkamol shaxsni shakllantirishning eng samarali yo'llarini yaratish maqsadida pedagogika fani oldiga ta'lim tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish kabi vazifalar qo'yildi.
Bugungi kunda ijtimoiy pedagogika sohasida ko'plab empirik va nazariy bilimlar to'plangan. Ularni to'la anglamoq va tizimlashtirish davr talabidir. O'tmish allomalarimiz, olim-pedagoglarimiz asarlarini yangi nuqtai nazardan o'rganish, chet el tajribalarini o'zlashtirib, Respublikamizga moslashtirilgan holda maqsadga muvofiq qo'llash lozim.
O'zbekiston mustaqil davlat maqomini qo'lga kiritishi bilan jamiyatning ijtimoiy muammolari yanada ko'paydi va keskinlashdi. Buning sabablari, birinchidan, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo'nalishlarning almashishi, ikkinchidan esa, bu davrda ijtimoiy muammolarni hal etishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelish holatlari yuzaga keldi. Biroq demokratiya va oshkoralik tamoyillari, ajdodlarning boy tajribasi yordamida davlat tomonidan muhtojlarga real ijtimoiy-pedagogik yordam berilmoqla, ijtimoiy pedagogika fanini rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda.
Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:
1. Bozor munosabatlarini shakllantirish va jamiyatni demokratiyalashtirish sharoitida davlatning kuchli ijtimoiy siyosati. Bu siyosatning asosiy yo'nalishlari I.A.Karimov asarlarida va davlat dasturiy hujjatlarida ko'rsatilgan.
2. Aholining eng kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risidagi hukumat farmoyishlari, qonun, farmonlarni hayotga tatbiq etish.
3. O'zbekistan Respublikasining ijtimoiy-pedagogik kontseptsiyasi.
Ijtimoiy muammolarga nihoyatda katta e'tibor qaratilishining sababi milliy davlatchilikni shakllantirish jarayonidir. Bu davrda, ayniqsa, ijtimoiy muammolar nihoyatda keskinlashadi. Ijtimoiy qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi esa milliy havfsizlikka taxdid qiluvchi omil bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun vaqtida tegishli choralar qabul qilish nihoyatda muhim va mas'uliyatli vazifadir.
Iqtisodiyotning liberallashuvi turli ijtimoiy qiyinchiliklarni: ilmsizlar sonining ko'payishi, turli tengsizliklarning paydo bo'lishi, hayot tarzining buzilishi kabi oqibatlarni keltirib chiqardi. Shuning uchun O'zbekiston taraqqiyotining o'z yo'li, asoslanadigan etakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat olib borish hisoblanadi. Bu siyosatning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash.
2. Aholining turli qatlamlarini paydo qilmaslik orqali ijtimoiy kelishuvni ta’minlash.
Mustaqillik yillarida ko’rsatilgan maqsadlarga muvofiq aholi ijtimoiy himoyasining yangi mehanizmi shakllangan bo’lib, u quyidagilarda namoyon bo’ladi:
— ishlab chiqarishni barqarorlashtirish;
— davlat mablag’laridan tashqari, mehnat jamoalari, ijtimoiy hamda mehribonlik fond va tashkilotlarining mablag’larini yo’naltirish;
— aholi daromadlarining yuqori tabaqalashuviga yo’l qo’ymaslik;
— kambag’allikka qarshi kurashish, nogiron, etim va qariyalarni qo’llab-quvvatlashni kuchaytirish.
Mustaqillik yillarida, milliy mentalitet va hayot tarzining xususiyatlarini inobatga olib, eng kam ta’minlangan oilalarni aniqlash va ularga mahalla qo’mitalari orqali yordam ko’rsatish kabi ijtimoiy qo’llab-kuvvatlash shakli tarkalmoqda.
Bunday yondashuv bizning halqimizda ko’p asrli ildizlarga ega bo’lib, uning amaliy ahamiyati mablag’larning hayotda aniq tarqatilishini ta’minlaydi.
Respublikada olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning xukuqiy asosi sifatida quyidagi yo’nalishlarga oid xujjatlar xizmat qilmoqda:
1. Xayriyaga oid O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 4 martdagi «Sog’lom avlod uchun halqaro nohukumat xayriya fondining faoliyatini ta’minlash choralari to’g’risida»gi Farmoni. Unda fondning quyidagi asosiy vazifalari belgilangan:
— mablag’larni «Sog’lom avlod» davlat dasturiga qaratish;
— oila va jamiyatda sog’lom hayot tarzini targ’ib qilish;
— xorij va milliy homiylarning xayriya yordami va mablag’larini jalb qilish;
— ko’p farzandli oilalar, nogiron bolalar, bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga insonparvarlik yordami ko’rsatish.
2.Mehr-muruvvatga oid O’zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 27 yanvardagi «Mehr-muruvvat to’g’risida»gi Farmoyishi. Uning asosiy maqsadi jamiyatda do’stlik, bag’rikenglik, xalqlararo fuqarolar totuvligi, ayniqsa, yoshlarda milliy axloqiy fazilatlarni rivojlantirishdir.
3.Sog’lom avlod tarbiyasiga oid O’zbekistan Respublikasining «Fuqarolar sog’lig’ini saqlash to’g’risida»gi Qonuni hamda aholining malakali tibbiy yordam va ijtimoiy himoya olishdagi konstitutsiyaviy xuquqlarni amalga oshirish, sog’liqni saqlash tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga moslashtirish maqsadida quyidagi farmon va farmoyishlar qabul qilindi. O’zbekistan Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi «O’zbekistan Respublikasida sog’liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to’g’risida»gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 dekabrdagi «O’sib kelayotgan avlodni sog’lomlashtirish muammolarini kompleks hal qilish to’g’risida»gi Farmoyishi, 2000 yil 15 fevraldagi «Sog’lom avlod davlat dasturi to’g’risida»gi, 2002 yil 31 oktyabrdagi «O’zbekistan bolalar sportini rivojlantirish fondi faoliyatini tashkil qilish to’g’risida»gi hamda 2002 yil 25 yanvardagi «Ayollar va o’sib kelayotgan avlodning sog’lig’ini mustahkamlash to’g’risida»gi Farmonlari.
4. Ayollarning ijtimoiy himoyasiga oid O’zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining «Ayollarga qo’shimcha imtiyozlar to’g’risida»gi 1998 yil 14 apreldagi Konuni, O’zbekistan Respublikasi Prezidentining 1998 yil 17 martdagi «Ayollarning maxsus himoyasini kuchaytirish to’g’risida»gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 17 martdagi «Zararli va sharoiti og’ir ishlarda band ayollarning daromadlariga soliq solinayotganidagi imtiyozlar to’g’risida»gi Farmoni.
5. Oilani qo’llab-quvvatlashga oid O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi «Ko’p bolali oilalarga ijtimoiy yordam tizimini mukammallashtirish to’g’risida»gi Farmoni, Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 10 dekabrdagi «Ko’p bolali oilalarga yordam ko’rsatish to’g’risida»gi Farmoyishi. «Voyaga etmagan bolali oilalarga nafaqa to’lash to’g’risida»gi Nizomida bu nafakalarni olish huquqiga kimlar ega ekanligi aniq qilib belgilangan:
- nogiron bolali oilalar;
-ota-onasi yo’q bo’lgan va bolalarning tarbiyasi bilan qarindoshlari shug’ullanuvchi oilalar;

-ota-onadan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar;
-ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lsa.
6. Nogironlarga yordam berishga oid 1991 yil 18 noyabrdagi «O'zbekistan Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida», Vazirlar Mahkamasining «Yoshligidan nogiron bo'lganlarga, qariyalarga va mehnat qilishga layoqatsiz shaxslarga nafaqato'lash to'g'risida»gi 1994 yil 24 iyundagi № 319 Farmoyishi. Ushbu xujjatlarda nazarda tutilgan choralar nogironlarning individual rivojlanishlari, ularning ta'lim olishlari, ishlab chiqarishda qatnashishlari hamda sog'liqlarini saqlash dasturini amalga oshirishga qaratilgan.
7.Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini himoyalashga oid O'zbekistan Respublikasining aholining kam ta'minlangan oilalarini himoyasi to'g'risidagi farmon, farmoyishlari. Bu me'yoriy xujjatlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ishga joylashtirishda ish o'rinlarining minimal soni belgilanganligi ko'rsatilgan.
8.Mahallaning ijtimoiy maqomini mustahkamlashga oid Mahalla qo'mitalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organiga aylanishi munosabati bilan 1999 yil 14 apreldagi «Fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun, shuningdek, 1999 yil 13 yanvardagi «Aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashda o'z-o'zini boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida»gi Farmon qabul qilindi. Ushbu me'yoriy xujjatlarda shahar, qishloq, mahalla oqsoqollari yig'ilishlarining vakolatlari belgilab berilgan. Belgilangan vakolatlarning asosiylari: davlatning oilalarni ijtimoiy ta'minlash uchun ajratilgan mablag'larini to'g'ri taqsimlash, ayollar manfaatlarini himoya qilish, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish, ijtimoiy tartibni ta'minlashda ishtirok etish, huquqbuzarliklarning oldini olish, voyaga etmaganlarning xuquqlarini himoya qilish, aholi turar-joy markazlarining tozalik va ekologik holatini nazorat qilish.
Zamonaviy sharoitlarda ijtimoiy siyosatni o'tkazish, hayotning barcha sohalarini ijtimoiylashtirish uchun ijtimoiy ishlarning aniq belgilangan yangi shakllarini joriy qilish zaruratini tug'diradi. Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirildi: 1996 yil 23 fevralda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda tibbiy-ijtimoiy patronaj tizimini tuzish haqida»gi Qarori chikdi. Bu qarorda, «Sog'lom avlod uchun» fondining taklifi bilan viloyatlarda, Toshkent shahrida va Qoraqalpog'iston Respublikasida tez tibbiy yordam guruhlarining tuzilishiga mablag' ajratilganligi ta'kidlanadi. Bu qaror tibbiy-ijtimoiy yordamning ko'chma guruhlarini mutaxassislar bilan ta'minlash vazifasini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, unda tibbiy-ijtimoiy patronaj xodimlarini tayyorlashni tashkilqilish zarurligi ham aytilgan. Tibbiy-ijtimoiy patronaj funktsiyalari tarkibiga quyidagilar kiradi:
1. Tibbiy-ijtimoiy patronaj ijtimoiy sohada ish yurituvchi turli tashkilot, muassasalar faoliyatlarini integratsiyalaydi.
2. Tibbiy-ijtimoiy patronaj o'z faoliyatida O'zbekistonda yashovchi xalqlarning asriy an'analariga, fan va madaniyat sohasidagi yutuqlariga asoslanadi hamda O'zbekistonda yuritilayotgan samarali ijtimoiy siyosatni har bir oilaga etkazadi.
3. Tibbiy-ijtimoiy patronaj har bir oilaning tibbiy ijtimoiy holati monitoringini o'tkazadi.
4. Tibbiy-ijtimoiy patronajning maqsadlari quyidagilardan iborat:
- Sog'liqni saqlash vazirligi, Aholini ijtimoiy ta'minoti vazirligi va «Sog'lom avlod uchun» fondidan olinadigan ma'lumotlarga tayangan xolda, mahalliy organlar bilan yaqin aloqada bo'lib yashashning sanitar-gigienik sharoitlarini, oilaning psixologik iqlimini, oila a'zolarining salomatligi holatini aniqlash;
- tibbiy, ijtimoiy va psixologik yordamga muhtoj ayollar va bolalarni o'z vaqtida aniqlash;
- oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish.
5. Ko'rsatilgan maqsadlarga muvofiq tibbiy-ijtimoiy patronajga quyidagi vazifalar yuklatiladi:
- oilalarga tibbiy, ijtimoiy va xuquqiy yordam ko'rsatish;
- ayollar va bolalarni sog'lomlashtirishda yordam ko'rsatish, oilani rivojlantirish bo'yicha keng tushuntirish ishlarini olib borish.
1998 yil 1 aprelda Vazirlar Mahkamasining «Ona va bola skriningi dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoyishi chiqdi. Bu dastur homilador ayollarda nogiron bolalarning tug'ilishini

oldini olish uchun tug’ma va boshqa patalogiyasini aniqlashga qaratilgan. Bu farmoyishga binoan «Ona va bola skiringi» dasturini qo’llab-quvvatlash mas’uliyati «Sog’lom avlod uchun», «Mahalla» fonda hamda O’zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo’mitasiga yuklatildi.
1998-2001 yillardagi davrda, «Sog’lom avlod uchun» fondining «Villak» (Finlandiya) va «Bristol Monteds Skvibb» (AQSh) kompaniyalari bilan tuzilgan shartnomalariga muvofiq skrining markazlari texnik jihozlari bilan ta’minlandilar.
1997 yil 31 dekabrda Vazirlar Maxkamasining «S0S O’zbekistan bolalar mahallasi assotsiatsiyasini ta’sis etish to’g’risida»gi farmoyishi e’lon qilindi. Bu assotsiatsiya S0S Kinderford halqaro jamiyati (Avstriya) tomonidan ta’sis etildi.
Assosatsiya faoliyatining asosiy maqsad va yo’nalishlari quyidagilardan iborat:
- jamoatchilik va davlat tuzilmalari tomonidan etim bolalarning jismoniy, aqliy va axloqiy jihatdan rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishdagi harakatlarini tartibga solish;
- etim bolalarga yordam berishga qaratilgan loyiha va dasturlarni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko’rsatish;
- falokatga uchragan barcha bolalarga yordam berish;
-O’zbekistan Respublikasida S0S O’zbekistan bolalar mahallaarini tashkil qilish va ularni jihozlar bilan ta’minlash;
- S0S- Kinderford interneyshnl bilan hamkorlik qilish;
- assotsiatsiya faoliyatiga davlat, jamoat va xususiy tashkilotlarni jalb qilish;
- etim bolalar uchun insonparvarlik dasturlarini tarqatish va qo’llab-kuvvatlash uchun ko’rgazmalar, seminarlar uyushtirish, axborot materiallarini chop etish va OAVlari bilan hamkorlik qilish.
Yuqorida keltirilgan xujjatlardan ko’rinib turibdiki, 1996 yildan boshlab ijtimoiy muammolarga alohida e’tibor qaratilgan. 1995 yil O’zbekistonda shaxsni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik kontseptsiyasi ishlab chiqilgan edi. Uning tuzilishi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim tizimini to’g’ri isloh qilish bilan izohlanadi.
Kontseptsiyanint asosiy qoidalari:
- madaniy-axloqiy tarbiyaning ta’limdan ustuvorligi;
- insonda ijtimoiy faollik, o’z-o’zini boshqarish ko’nikmalari, muomala va axloq madaniyati, yuqori intizomga ega demokratik jamiyat fuqarosini tarbiyalash;
- ijtimoiy faol shaxsni jamiyat va ishlab chiqarish rivojining asosiy sharti sifatida shakllantirish, har bir fuqaroni hayotning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy sohalarida ishtirok etishi;
- shaxsni ijtimoiylashtirish vositalari sifatida demokratiyalashtirish, insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirish.
Ta’limni demokratiyalashtirish-faollik va tashabbusni, hamkorlik, birlik vositalarini rivojlantirishni nazarda tutsa, insoniylashtirish yosh avlodni milliy va ijtimoiy- madaniy qadriyatlar orqali umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarga, inson xuqukkarini ta’minlashga ko’nikishlari ma’nosini beradi. Bu kontseptsiya boy tarixiy, madaniy, ma’naviy, pedagogik, ijtimoiy an’analar bilan birgalikda, ijtimoiy pedagogika fanining amaliy faoliyati sohasi sifatidagi rivojida poydevor bo’lib xizmat qilishi mumkin.
Milliy mentalitet va uning ijtimoiylashuvda tutgan o’rni. Ijtimoiy pedagogikaning amaliyoti va nazariyasi halqning etnografik, tarixiy, madaniy an’analari va xususiyatlariga bog’liq bo’lib, inson, insoniy qadriyatlar haqidagi diniy va axloqiy qarashlarga tayanadi. Inson tsivilizatsiyasi davomida har qanday jamiyat o’zi mustaqil mavjud bo’lishiga qiynaladigan a’zolari: bolalar, qariyalar, kasallarga munosabat mavzusi bilan bir necha bor duch kelgan. Bunday odamlarga munosabat jamiyatning g’oyaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy va milliy xususiyatlariga bog’liq ravishda rivojlangan va ularning jismoniy yo’q kilinishidan tortib, jamiyatda to’liq integratsiyalashuvlarigacha bo’lgan ko’rinishlarda ifodalangan.
O’zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, davlat va jamiyat rivojining o’ziga xos yo’lini tanlashi milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarni qayta tiklash va hayotning barcha jabhalarida milliy xususiyatlarni inobatga olish vazifasini qo’ydi.
Bugun shaxs shakllanishiga bevosita va bilvosita ta’sir qiluvchi omillarni alohida inobatga olish kerak. Bunday omillarga nafaqat moddiy, g’oyaviy va psixologik sharoitlar, balki shaxsning

shakllanishi ro’y bergan muhit ham mansubdir. Bu jarayonga turli davlatlarda olib boriladigan millatlararo munosabatlar va milliy siyosat ham o’z ta’sirini o’tkazadi. Bu, ayniqsa, shaxsiy hislatlarning shakllanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Bunday hislatlarga milliy o’z-o’zini anglash, g’urur, iftixor kabi tushunchalar kirishini e’tiborga oladigan bo’lsak, shaxsning axloqiy shakllanishi umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog’liq holda kechadi, deb xulosa qilish mumkin.

O’zbek halqi o’ziga xos etnik muhitga egadir. Bunday muhitda bolalar yoshligidan o’z ona (milliy) tillarining va unda o’z aksini topgan ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ashulalarning ta’sirida bo’ladilar. Bolalar asta-sekin milliy an’analar, urf-odatlarning aniq me’yorlariga ko’nikishadi. O’quvchilar milliy tarixni, adabiyotni o’rganish va ona tillarida turli ma’lumotlarni olish orqali o’smirlik yoshidayoq o’z etnik va umummilliy mansubliklarini anglay boshlaydilar.

Etnomadaniy sharoitlarning ijtimoiylashuviga ta’siri mentalitet darajasida nisbatan yorkin namoyon bo’ladi. “Mentalitet” tushunchasi XX asr boshida frantsuz olimi L.Levi-Bryul tomonidan fanga kiritilgan. Mentalitet “etnos” (halq, elat) tushunchasi bilan chambarchas bog’liqdir.

Etnos - bu tarixan bir hududda shakllangan, til, madaniyat, ruhiyatning umumiy, nisbatan barqaror xususiyatlariga ega bo’lgan, shuningdek, boshqa shunday tuzilmalardan o’z-o’zini anglashi bilan ajralib turuvchi insonlar majmuasidir. Biron- bir etnosga mansublik tug’ilishdanoq bo’lmay, ijtimoiylashuv, shaxsning muayyan madaniy sohadagi shakllanishi, bolaning axloqiy steriotiplarni o’zlashtirishi davomida namoyon bo’ladi.

Etnosning muhim hususiyatlaridan biri etnik o’z-o’zini anglashning mavjudligidir. Etnosni boshqa etnoslardan ajratib turuvchi xususiyatlar (til, qadriyat, me’yor, din, milliy xarakter, san’at kabilar), asosan, shu etnos a’zosi bo’lgan kishilarga xos bo’ladi.

Insonlarning ijtimoiy-pedagogik birligi sifatida etnos har bir inson uchun muhim vazifalarni bajarishi mumkin: nisbatan keng ma’lumot berish orqali atrof-muhit umumhayotiy qadriyatlar bilan tanishtirish, nafaqat ijtimoiy, balki jismonan o’zini sog’lom his qilishi uchun himoya qilish. Etnik jamiyat vaqt mobaynida nisbatan muqim bo’lib, uning tarkibi barqarordir. Inson etnik maqomga ega va uni etnosdan ajratib bo’lmaydi. Shu xususiyatlar tufayli etnos inson uchun qo’llab- quvvatlash guruhi hisoblanadi.

Etnosning shaxsiy, faoliyat va ijtimoiy darajalaridagi xususiyatlari etnopsixologiya orqali ifodalanadi. Etnopsixologiya milliy hissiyot va qayfiyat, milliy madaniyat va manfaat, milliy an’analarni o’z ichiga oladi. So’nggi yillarda etnopsixologiyada “milliy xarakter” tushunchasi kam ishlatilmoqda. Etnik guruhlarning psixologik xususiyatlarini ifodalash uchun esa mentallik va mentalitet ushunchalari qo’llanilmoqda.

Mentallik insonning olam, o’zining bu olamda tutgan o’rni haqidagi tasavvurlari asosida yotgan obrazlar tizimi bo’lib, biron-bir davrdagi u yoki bu etnik guruhga xos bo’lgan dunyoqarashdir.

“Mentalitet” kategoriyasi hozirgi vaqtda gumanitar fanlarda an’analar va madaniyat orqali aniqlab beriluvchi ommaviy dunyoqarashning tarkibini ifodalash uchun ishlatilmoqda. Mentalitetning turli ta’riflari mavjud bo’lib, anglanmagan darajada jamoa tasavvurlari majmuasidir. Mentalitet muayyan tabiiy-iqlimiy va tarixiy-madaniy sharoitlarda shakllanadi.

Mentalitet - bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning dunyoni muayyan obrazda qabul qilish, his qilish va unda tafakkur yuritishini o’z ichiga oluvchi individual va jamoaning ong darajasi.

Mentalitet shu halqning uzoq tarixiy rivojlanishi natijasida shakllanadi va milliy xarakter, iqtisodiy va ijtimoiy xulq-atvorning milliy modelini belgilab beradi.

Mentalitet hatto bir mafkura boshqasiga o’zgarganda ham o’zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi mumkin. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mentalitet bir xil madaniyatga tegishli odamlarning u yoki boshqa masalani anglash va tushunishda umumiylik mavjudligi bilan aniqlanadi. Turli xalqlarning mentalitetlari quyidagi ijtimoiy hodisalar bilan farqlanadi: ijtimoiy tuzilmaga baho berish, huquq va odat haqidagi qarashlari, ozodlikka munosabati, ozodlikni tushunishlari, mehnat, mulkchilik, boylikka munosabatlari, zamon va makonni tushunishlarini qanday qabul qilishlari.

Mentalitet - bu halq madaniyatining keng maydondagi kvintessektsiyasidir. “Mentalitet” kategoriyasi, odatda, ijtimoiy psixologik kategoriya sifatida tushuniladi. Mentalitet tushunchasi

tarkibining psixologik taxlili mentalitet tushunchasini muayyan madaniyatda yashovchi odamlarning integral tasviri sifatida tushunish imkonini beradi. Bu tahlil I.G.Dubrov, V.I.Kukushkin, A.S.Pamarin, V.S.Barulinlar tomonidan o'tkazilgan. Boshqacha kilib aytganda, mentalitet jamiyatning ma'naviy-ruhiy qiyofasi, jamiyat dunyoqarashining asosiy o'lchovi sifatida tushuniladi.

Mentalitet ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki u ijtimoiy axborot tashuvchisi hisoblanadi.

Ijtimoiy axborot bu holatda 3 asosiy guruhga bo'linadi:

- ishlab chiqarish qurollari va mehnatning jamoaviy natijalari;
- ob'ektiv ijtimoiy munosabatlar;
- til va muloqot.

Mentalitet ijtimoiy axborotning o'ziga xos qismi sifatida o'zining uzatish kanallariga ega. Ular orasida eng asosiylari tabiiy muhit, mumtoz va boshqa keng tarqalgan matnlar, til tarkibi va kundalik yumushlar hisoblanadi. Hozirgi kunda "mentalitet" tushunchasi fanda tor va keng ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda mentalitet jamiyat, jamiyat ongini qabul qilishning o'ziga xosligini, tushunishning umumiy aqliy faoliyat vositasi (instrumentariyasi) sifatida, o'zining tabiiy va ijtimoiy muhitini hamda o'zligini muayyan tarzda anglash, olamga o'ziga xos munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Tor ma'noda esa mentalitet ijtimoiy ma'lumotning nisbatan chuqur va kam o'zgaradigan qismi bo'lib, milliy xarakter va dunyoni tushunishga asoslangan ajdodlar tajribasi sifatida qaraladi.



Mentalitet va uning tarkibiy qismlar

Ijtimoiy pedagogika, xuddi pedagogika kabi, tarbiyalanuvchilarning etnopsixologik xususiyatlarini inobatga olishi kerak. Milliy psixologiyani bilish tarbiya ishining sifatini oshirishning samarali yo'llarini topishga imkon beradi. Etnopsixologiya pedagogika faniga muayyan milliy guruhlar vakillari tomonidan tarbiyaviy ta'sir choralarini qabul qilishning o'ziga xosliklarini, turli xalqlarning tarixiy tajribasini inobatga olib tarbiyaviy tadbirlar mazmunini, u yoki bu millat vakillarining tarbiyaviy choralarga ko'nikish xususiyatlarini, aniq etnik guruh vakillarida milliy psixologiyaning ifodalanishini, turli xalqlarda tarbiyaviy ta'sir paytida intizomiy munosabatlarning ifodatanish xususiyatlarini, milliy mintaqalarda odamlarga nisbatan qo'llanilayotgan psixologik ta'sirga bog'liq ravishda tarbiya ishining mahsuldorligini, turli millat vakillarining muomalasi

jarayonida shaxslararo munosabatlarning shakllanishi kabilarni o'rganishga yordam beradi. Insonlarning milliy psixologik xususiyatlari ularning faoliyatiga quyidagi shakllarda ta'sir ko'rsatadi:
- faoliyatning milliy o'ziga xosligi;
- inson hislatlarining milliy xususiyati;
-milliy axloqiy muhitning o'ziga xosligi.
Milliy psixologik xususiyatlar nafaqat inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi, balki bu jarayonga muayyan tuzilish va mazmun ham beradi.
Psixologiyada ijtimoiy ong hodisasi sifatida to'rtta sohani ajratish mumkin:
Motivatsion soha milliy umumiylikning sabablari va g'oyalarining o'ziga xosligini tavsiflaydi.
Intellektual bilish sohasi esa millat tafakkuri bilan bog'liq dunyoqarashning o'ziga xosligini xarakterlaydi. Bu jihat ulardagi aqliy hislatlar bilan ifodalanadi.
Kommunikativ xulq-atvor sohasi esa har bir halqning o'rnatilib bo'lingan o'zaro munosabatlarining me'yorlari, o'z axloq stereotiplari, o'z rahbarlik shakllari mavjudligidan dalolat beradi.
Halqda shunday gipoteza mavjudki, unga asosan har bir halq nerv tizimi va aqlining tug'ma xususiyatlarining faoliyat yuritishidagi o'z xususiyatlariga ega. Bu esa milliy xarakterning emotsional-irodaviy sohalarining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi.
Milliy psixologik xususiyatlar ko'nikma va stereotiplar mexanizmlari orqali namoyon bo'ladi. Ko'rsatmalar insonning muayyan shaklda u yoki bu hodisani qabul qilishidir, ya'ni ko'rsatma muayyan faoliyat yuritishga tayyorlik, biror-bir milliy jamoa vakili o'z etnik sharoitlaridan kelib chiqib milliy mentaliteta, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida milliy axloqiy me'yorlar va qadriyatlar, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va mustahkamlash, atrof-muhitdagi odamlarga baho berish, o'z millati nuqtai nazariga mos kelmaydigan g'oyalarni qoralash vazifasini bajaradi.
Ijtimoiy va pedagogik amaliyot hamda bir qator tadqiqotlar insonning milliy majburiyatini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institut sifatida oilani e'tirof etadi. Oila:
-milliy axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish, milliy madaniy muhitga va uning qadriyatlariga ko'nikishning eng bevosita va abadiy manbasi hisoblanadi;
- millat psixologiyasini turli ta'sir etuvchi yo'llar orqali alohida shaxslar ongi va ruhiy olamiga kirishini ta'minlaydi;
- milliy qadriyatlarga amal qiladi va ularni asrab avaylaydi;
- o'zining milliy tarbiyaviy ahamiyatini inson hayoti davomida saqlab qoladi;
- milliy urf-odatlar va an'analarning asosiy tashuvchisi hisoblanadi.
Oilaning barcha sanab o'tilgan xususiyatlari o'zbek oilasida o'zining yorqin ifodasini topadi.
O'zbek halqi shaxsiy hislatlarida ifodalangan milliy xususiyatlari oilada milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib ta'lim-tarbiya, odat, marosimlar, qoidalar shaklida mustahkamlangan. Bunday qadriyatlarga, avvalo, o'z yurtining o'tmishiga hurmat, milliy an'analarga sodiqlik va ularni hayotga tadbiq etish kiradi. Milliy xususiyatlarning shakllanishiga mehnat faoliyatining xarakteri va yo'naltirilganligi, ijtimoiy jarayonlarda qatnashish va madaniy ta'lim darajalari ta'sir qiladi.
Milliy hislatlar shakllanishining asosi milliy, tarixiy, madaniy, diniy va axloqiy qadriyatlar hisoblanadi. Ularning shakllanishi, saqlanishi va avloddan-avloddarga o'zatilish vositasi milliy odat va an'analar hisoblanadi.
Axloqiy qadriyatlar asosida o'zbek oilasida rostgo'ylik, vazminlik kabi hislatlar shakllanadi. O'zbek oilasining pedagogik va psixologik xususiyatlari alohida etiborga loyiq. Chunki ular hayot tarzi, ma'naviy axloqiy muhit, tarbiyaviy tamoyillarni belgilab beradi. Bularga milliy qadriyatlarga sodiqlik, diniy an'analar va marosimlarga hurmat, bolalarni yaxshi va xayrli amallarni qilishga undash, o'z so'zida turish, kattalarning yoshlarga namuna bo'lishi, sabr-toqatli bo'lish, yosh xususiyatlarining inobatga olinishi, munosabatlarning hamkorlik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida ko'rilishi kabilar kiradi.

Bir qator tadqiqotlar va shaxsiy kuzatuvlar asosida biz tarbiyaviy ta’sirlarning natijalari o’zbek millatining o’ziga xos xususiyatlariga ta’sir ko’rsatadi, degan xulosaga keldik va ularni shartli ravishda ikki guruhga bo’ldik:
1. Xarakterologik: ishonuvchanlik, hissiyotlilik, sodiqlik, sabrlilik, bolalarni sevish.
2. Axloqiy: tarbiyalanganlik, rostgo’ylik, mehnatsevarlik, mehribonlik, insoniylik, insoflilik, g’amxo’rlik, saxiylik, vatanparvarlik.
An’analar, qaysidir ma’noda, iqtisodiy va ma’naviy borliqning tarkibiy unsuri sifatida bizning hayotimizni kelajak bilan bog’laydi. Har bir rivojlanish bosqichida an’analarning mazmuni va ahamiyati aniq ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va vazifalar bilan belgilanadi.
Halqda faqatgina insonlarni tashqi va ichki holatda birlashtiruvchi shu qadriyatlar qadrlanadi. An’analar qanchalik qadimiy bo’lsa, shunchalik ishonch bilan ularning ahamiyati va jamiyat institutlari tomonidan qabul qilinishiga e’tibor qaratish mumkin.
An’analar o’z ifodalarini namoyon qilish bo’yicha nihoyatda milliylik xususiyatiga egadirlar, biroq tarixiy rivojlanish mobaynida ular boshqa xalqlar tomonidan ham boyitilishi hamda shu paytning o’zidayoq umumhalq, halqaro qiyofaga ega bo’lishi mumkin.
An’ana va odatlarga ikki o’zaro bog’liq ijtimoiy vazifa xosdir:
a) shu jamiyatda o’rnatilgan munosabatlarni barqarorlashtirish vositalari;
b) bu munosabatlarni yangi avlod hayotiga tadbiq qilish. Bu vazifalar turli yo’llar bilan amalga oshiriladi: agar urf-odatlar bu hayotda qanday harakat qilish lozimligini aniq belgilab qo’ygan bo’lsa, u holda an’analar, yurish-turishning umumiy me’yorlari yoki tamoyillarini ilgari suradilar.
Hozirgi kunda o’zbek halqining mentaliteti milliy istiqlol g’oyasiga asoslanadi. Birinchi prezident I.A.Karimov ta’kidlab o’tganlaridek, quyidagilar milliy mentalitetning asosiy tushunchalari hisoblanadi:
—Vatanga muhabbat;
— ona tiliga muhabbat;
— milliy axloqiy, madaniy, ma’naviy qadriyatlar;
— oila;
— mahalla;
— islom dini;
— ta’lim va ma’rifatning o’rni;
— umuminsoniy qadriyatlarga tayanish.
Ijtimoiy hayotning barcha jabhalari maishiy, ijtimoiy, san’at sohasining zaruriy tarkibiy qismi bo’lish bilan birga, an’ana va odatlar odamlarning har bir davrdagi ko’p asrli qarashlarini mujassamlashtiradilar. Aksariyat hollarda an’analarning kelib chiqishi muhim tarixiy hodisalarga borib taqaladi.

Nazorat savollari:

1.Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot obektlarilari va pridmeti
2.Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari va kategoriyalari
3.Ijtimoiy pedagogikaning paydo bo’lishi va rivojlanish.
4.O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish shart sharoitlari
5.Zardushtiylik dinida uchlik asosiga tayangan xolda axlokiy meyorlar
6.Mustaqillik yillarida ishlab chiqilgan aholi ijtimoiy himoyasining yangi mexanizmi nimalardan iborat?
7..Respublikada olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning huquqiy asosi sifatida qaysi xujjatlar xizmat kilmoqda?
8. Tibbiy-ijtimoiy patronaj funktsiyalari tarkibiga nimalar kiradi?
9. 1997 yil 31 dekabrda Vazirlar Mahkamasining «SOS — O’zbekistan bolalar mahallalari assotsiatsiyasini ta’sis etish to’g’risida»gi Farmoyishi haqida nimalar bilasiz?
10. «Ta’limni demokratiyalashtirish» tushunchasini izohlang.
11.«Mentalitet» tushunchasini izohlang.

12.Mentalitetning tarkibiy kismlarini sanab chiqing.
13.«Insonlarning milliy psixologik xususiyati» deganda nimani tushunasiz?
14.«An'ana» tushunchasiga ta'rif bering va mohiyatini ochib bering.

2-mavzu: Ijtimoiylashuv omillari va mehanizmlari.
Asosiy savollar.

1 Ijtimoiylashuv haqida tushuncha.
2.Ta'lim tarbiya yordamida bola shaxsini ijtimoiylshuvi.
3.Bola shaxsining ijtimoiylashuv mexanizmlari va omillari.

Tayanch tushunchalar: Bostirish mexanizmi, Ajratish mexanizmi, Uz-o`zini cheklash mexanizmi, introektsiya, Ratsianallashuv, Imprinting, Eksiztentsial, Reflektsiya mexanizmi,
an'anaviy mexanizmi, instituttsional mexanizm

1-savol bayoni. Ijtimoiylashuv haqida tushuncha."Ijtimoiylashuv" so'zi dastlab siyosiy iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy iqtisodiyotda er, ishlab chiqarish vositalarining umumlashuvi ma'nosini anglatgan.
"Ijtimoiylashuv" atamasini birinchi bo'lib insonlarga nisbatan qo'llagan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings hisoblanadi. U "Ijtimoiylashuv nazariyasi" (1987) kitobida hozirgiga yaqin ma'noda "ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir" degan fikrni bildiradi.
XX asr o'rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida o'rganuvchi fanlararo bog'lanuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli kontseptsiyalarining tahlili uni shartli ravishda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:
Sub'ektiv-ob'ektiv. Unda insonga jamiyat ta'sirining passiv iste'molchisi sifatida qaraladi (E.Dyurkgeym, T.Parsons)
Sub'ektiv-sub'ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o'rni, uning hayotiy holatlarga ta'sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.
Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko'proq mos keladi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o'zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o'zgarishi bilan aniqlanadi.
Ijtimoiylashuv jarayoni. Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj -o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi. Shunday qilib, bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq ikki yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni tashkil etadi. Inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).
Ijtimoiylashuv vositalari. Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari, insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari-muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyati, sport bilan shug'ullanishi kiradi.
Ijtimoiylashuv agentlari. Insonning voyaga etishida, uning shakllanish jarayonida, u bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid

adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib, agentlar qatoriga turmush o'rtog'i, hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rinlariga, inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga qarab agentlar ham farqlanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko'rsatmaydigan.

Ijtimoiylashuv omillari. Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan. O'rganilgan omillar haqida bilimlar etarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari ikki guruhga bo'linadi: tashqi va ichki.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi.

1. Megaomillar (mega-eng katta)-kosmos, er shari, planetar jarayonlarni kiritsa bo'ladi.

2.Makroomillar (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ya'ni erning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadigan omillarni kiritiladi.

3. Mezoomillar (mezo-o'rta)-hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarning ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariga ta'sir qiladi.

4. Mikroomillar, ya'ni muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillarga -oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

"Ijtimoiylashuv" atamasining muammoli deb, bu atamani "Ijt. nazariyasi" (1987) kitobida xozirgiga yakin ma'noda ko`llagan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings xisoblanadi. Uning zamonaviy ma'nosi ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy xayotga tayyorlashdir.

XX asr o`rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini uning butun umri mobaynida o`rganuvchi mustaqil ilmiy soxaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli kontseptsiyalarining taxlili uni shartli raivshda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:

-sub'ektiv-ob'ektiv. Unda insonga jamiyat ta'sirining passiv iste'molchisi sifatida karaladi (E.Dyurkgeym, T.Parsons)

-sub'ektiv-sub'ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o`rni, uning xayotiy xolatlarga ta'sir etish kobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning xozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko`prok mos tushadi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o`zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o`zgarishi bilan aniklanadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni bolaning ijtimoiylashuvi, xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning xamma narsani egallashga bo`lgan ob'ektiv extiyoji jarayonida paydo bo`ladi. Birok bu bilan uzviy ravishda bola boshka bir ob'ektiv extiyoj -o`ziga xosligini namoyon qilish xissi xam shakllanadi. Bola uni yuzaga chikarish uchun turli usul va vositalarni kidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro`y beradi. Bu xodisa shunda namoyon bo`ladiki, shaxsning ijtimoiy axamiyatga ega xislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo`ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jixatlarga ega bo`ladi. Shunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o`zaro boglik yo`nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv ( ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o`zlashtirish) va individuallashuv (mustaqil lik, nisbiy o`ziga xoslikni ko`lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan boglik ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning anik bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. moslashuv sub'ekt va ijtimoiy muxit faolliklarining yakinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muxit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

Indivuallashuv insonning xali yoshligidayok paydo bo`ladigan ob'ektiv extiyojlari bilan boglik jamiyatdagi o`z-o`zini egallashdir. Bu extiyoj:

a) o`z karashlariga ega bo`lish;
b) o`ziga xosliklariga ega bo`lish;
v) unga tegishli bo`lgan masalalarni xal qilish, uning o`z darajasini aniklab olishiga xalakit beradigan xayotiy xolatlarga karshi turish xohishi sifatida namoyon bo`ladi.
Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuaalashuv jarayonlari o`rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yakinlashuvi ro`y beradi. SHu bilan birga bu erda shaxs va muxitning o`zaro ta'sir etish xam sodir bo`ladi. Shunday qilib, muvaffakkiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o`rtasida muvozanat saklangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon 3- asosiy soxada amalga oshadi:
- faoliyat-turlarning kengayishi, uning shakl va vositalarini ko`lga kiritish, erkin mo`ljal olish.
- muomala-muomala doirasini kengaytirish, uning mazmunini chukurlashtirish, xulk-atvor me'yorlarini o`zlashtirish
- anglash-shaxsiy men obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o`z ijtimoiy mansubligi va o`rnini anglash, o`ziga baxo berishni shakllantirish.

Ijtimoiylashuv vositalari.

Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy katlamlariga xos bo`lgan universal vositalar orkali amalga oshiriladi, ularga: go`dakni emizish va gamxo`rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish koidalari, insonni o`rab turuvchi moddiy madaniyat maxsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning xayotiy faoliyatidagi ko`p sonli munosabatlari-mulokot, o`yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shugullanish kiradi.
Xar bir jamiyat, davlat, ijtimoiy gurux ijobiy va salbiy ta'kiklar-man etish, ruxsat berish, majburlash chora-tadbirlarini ishlab chikishadi. Bu choralar yordamida inson xulk-atvori shu jamiyatda kabul qilingan me'yoriy kadriyatlarga moslashtiriladi.
Bola ijtimoiylashuvining etakchi vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshkalar bilan) xamda faoliyat (o`yin, o`kish, ijod, sport)dir. Psixologik-pedagogik tadqiqot lar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniklangan.
Bolaning me'yorida rivojlanishining eng muxim shartlaridan biri bu muomala.
Muomala va faoliyatning etakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo`llaniladi:
-go`daklik davri-bevosita xissiy-ruxiy;
-go`daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;
-maktabgacha davr-rolli o`yinlar;
-ilk maktab davri-o`quv faoliyati;
- o`smirlik davri-kasb ta'limi faoliyati;
-o`spirinlik davri-shaxsiy mulokot faoliyati.

Ijtimoiylashuv agentlari Insonning voyaga etishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo`lgan kishilar muxim o`rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb xam nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turlicha bo`ladi. Bolalar va o`smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, karindoshlari, tengdoshlari, ko`shnilar agent bo`lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib agentlar katoriga turmush o`rtogi, xamkasblari xam ko`shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o`rinlariga, inson uchun qanchalik axamiyatli ekanligiga karab agentlar xam farklanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko`rsatmaydigan.

2 savol bayoni: Bola shaxsining ijtimoiylashuv mexanizmlari

Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, agentlar bilan xamkorlikda va bir kator mexanizmlar asosida amalga oshadi. Frantsuz olimi Gabriel Tard, Amerikalik Uri Bronfenbrener, rus olimlari V.S.Muxina va A.V.Petrovskiylarning tadqiqot lari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondoshuvlarni keltirib chikardi. Mavjud ma'lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni aloxida ajratib ko`rsatish imkonini beradi: I.P.Podlasiy tasnifi bo`yicha:
Bostirish mexanizmi, uning mazmuni muayyan g`oya, fikr, xoxish, istaklarni ongdan chikarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashki va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm xam o`z o`rnida ixtiyoriy va gayri ixtiyoriyga bo`linadi. gayri ixtiyoriy mexanizm -unutishdir. Ixtiyoriy

bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashkili bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarkalgan usulidir;
Ajratish mexanizmi, bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o`zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bogliq. Ajratish mexanizmi odatda nizolarni hal qilishda kuzatiladi.
Uz-o`zini cheklash mexanizmi, bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o`rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do`stlarinikidan ko`ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o`z-o`ziga hurmati pasayadi, yomon o`qiy boshlaydi. Bu o`z menini cheklab qo`yish, qiyinchiliklar oldida ojiz qolishdir. Ba'zi hollarda o`z-o`zini cheklash mexanizmini qo`llashni qo'llasa bo`ladi. Chunki bu holatda moslashuv sodir bo`lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o`z-o`zini cheklash, o`z-o`ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o`z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so`ng boshlagan ishini tashlab qo`yadi, oqimda suza boshlaydi;
O'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash loyihalash mexanizmining mohiyatini tashkil qiladi. O`ziga, boshqalarga qarshi qaratilga qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o`ziga bo`lgan hurmatni saqlab qoladi. Shubhali inson hammadan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin hisoblaydi;
Ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmlaridan biri bu-identifikatsiyadir. Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o`zini o`rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya ob'ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo`lishi mumkin. Identifikatsiyaning to`liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud.
Identifikatsiya mexanizimi introektsiya mexanizimi bilan juda bogliq. Bunda boshqalarning xislatlari o`zgarmagan holda o`zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas;
Empatiya mexanizmi, ya'ni boshqa odamning hissiy xolatiga hamdard bo`lish. SHaxsning muammo, qiyinchiliklarini engishga yordam berish hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega;
Qiyin xolatlarda intellektuallashuv mexanizmi ishga tushadi. Katta yoshdagi tarbiyalanuvchi abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo`lini o`zi uchun emas, go`yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy muhim muammolarga (kasallik, boshqa maktabga o`tish, institutga kirish) duchor bo`lganda namoyon bo`ladi.
Ratsianallashuv mexanizmida tarbiyalanuvchi o`z xatti-harakatlarining mantiqiy xulosasini chiqaradi. Yosh ratsianalizatorlar odatda maqsadning diskreditatsiyasini qo`llashadi.
Fikr, xissiyot, harakatlarini susaytirish uchun harakatlarni bekor qilish mexanizmi qo`llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so`raganida, uning harakatlari kechirilishi va sof vijdon bilan harakat qila boshlashiga ishonadi. Ko`p shaxslar shu tarzda komillikka erishishadi.
I.V.Mudrikning fikricha psixologik va ijtimoiy- psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritsa bo`ladi:
Imprinting (xotirada saqlab qolish)-insonga ta'sir qiladigan hayotiy muhim ob'ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm odatda go`daklik davrida ko`p qo`llaniladi. Biroq keyingi yosh davrlarida ham imprintingni kuzatishimiz mumkin.
Eksiztentsial bosim mexanizmi-tilni o`zlashtirish va munosabatga kirishganda kerak bo`ladigan ijtimoiy xulq-atvor normalariga anglamagan xolda ega bo`lish.
Taqlid biror bir namunaga o`xshashga harakat qilish. Bu xolat insonning ijtimoiy tajriba to`plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo`llaridan biridir.
Reflektsiya mexanizmi ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro` e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko`rib chiqadi yoki inkor etadi. Reflektsiya insonning turli "men" obrazlari orasidagi real va hayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro`y beradi.
Bundan tashqari ijtimoiylashuvning ijtimoiy pedagogik mexanizmlariga quyidagilarni ham kiritsa bo`ladi:

1.Ijtimoiylashuvning an’anaviy mexanizmi inson tomonidan oila, atrof-muxit, qo`shnilar, o`rtoqlariga xos norma, qarash steriotiplarini o`zlashtirishni ko`zda tutadi. Bu o`zlashtirish ongsiz xolatda amalga oshib taasurotlar yordamida sodir bo`ladi.
2.Instituttsional mexanizm insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlari bilan o`zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to`plashi mumkin.
Ijtimoiylashuv omillari Ijtimoiylashuv bolalar, o`smirlar, yoshlarlarning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ko`p sonli shart-sharoitlar bilan o`zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta’sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan. O`rganilgan omillar xaqida bilimlar etarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari 4 guruxga bo`linadi;
1.Megaomillar (mega-eng katta)-kosmos, planeta, dunyo, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy siyosiy, ekologik, planetar jarayonlarni ham kiritsa bo`ladi. Ular boshqa omil guruxlari orqali erning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta’sir ko`rsatadi.
2.Makroomillar (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat. Bu omillar muayyan xududda yashovchi aholi ijtimoiylashuviga ta’sir qiladi.
3.Mezoomillar (mezo-o`rta)-xudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, auditoriya, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko`ra ajratilgan guruxlarning ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu xududning OAVlariga ta’sir qiladi.
4.Ijtimoiylashuvga mezoomillar mikroomillar orqali ta’sir qiladi.
Mikroomillarga muayyan shaxslarga ta’sir qiluvchi omillar-oila, qo`shnilar, tengdoshlar guruxlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.
Shaxs tugilganidan boshlab rivojlanadigan muxit sotsium yoki mikrosotsium deyiladi.
Tashki ijtimoiy omillardan tashkari ichki biologik omillar xam mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o`rganishning iloji yo`k. Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillarajratib ko`rsatiladi.
Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson kiluvchi umumiy jixatlarini aniklaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o`xshashlik, xususiyatlarning o`tishi tushuniladi. Irsiyatga ko`ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuygu organlari, shuningdek, komat tuzilishi, soch, teri rangi o`tadi. Bular insonni boshka insonlardan ajratib turuvchi tashki omillar xisoblanadi. SHuningdek irsiyat bo`yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xusuiyatlari xam o`tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat soxasida muayyan kobiliyatlarining shakllanishini ko`zda tutadi. Psixologik ma’lumotlarga ko`ra kobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo`la olmaydi. Bola kobiliyatlarining namoyon bo`lishi uning xayot, talim-tarbiya jarayonlariga boglik.
Ota-onadan bolaga o`tuvchi bir kator kasalliklar mavjud-kon kasalligi, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshkalar. Bu kasalliklarni genetika o`rganadi.
Xozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muxit, atmosferaning buzilishi kabi tashki omillar xam salbiy ta’sir ko`rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuksonli bo`lib tugilayogan bolalar soni ko`paymokda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nixoyatda ogir kechadi. SHuning uchun ularga o`kitishning yangi metodlari joriy qilinmokda va bu metodlar ularning akliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuksonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shugullanishadi. Bu bolalar o`z tengkurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini kiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashki olam bilan aloka qilish kanallarini ochishdir.
Ijtimoiy omillar. Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub’ektga aylanishi, uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo`ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy axamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan kadriyat, ijtimoiy norma, xulk-atvor namunasi orkali amalga oshadi.
Ijtimoiylashuv insonning butun xayoti davomida kechadigan ko`p kirrali jarayondir. U ayniksa bolalik va yoshlik davrida nixoyatda jadallik bilan kechadi. CHunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me’yorlar o`zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muxim axamiyatga ega. Bu ijtimoiy muxitni bola asta-sekinlik bilan o`zlashtiradi. Agar bola tugilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muxitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashkari tarbiya muassasalari, turli ko`ngilochar maskanlarda kechadi. YOsh ulgaygan sari ijtimoiy muxit "xududi" kengayib boradi. Bola kanchalik ko`p muxitlarni o`zlashtirsa, u shunchalik keng doira xududini egallashga xarakat kiladi. Bola doimo o`zi uchun kulay bo`lgan uni yaxshi tushunadigan, unga xurmat bilan munosabatda bo`ladigan muxitni izlashga urinadi. SHuning uchun u bir muxitdan boshka muxitga ko`chib yuradi. Muxit bolaning shakllantirishida, uning ijtimoiy tajriba to`plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muxim axamiyatga ega.

Muxit tushunchasi turli fan vakillari-sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning o`rganish ob'ekti xisoblanadi. Ular muxitning bunyodkorlik saloxiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o`rgandilar. Ijtimoiylashuv jarayonida muxitning o`rni. Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muxit avvalambor bolaning yangi muxitlarga integratsiyalashuvi nuktai nazaridan o`rganiladi. Shu nuktai nazardan inson va unga ta'sir kiluvchi tashki omillarning jamiyatdagi o`zaro munosabati xamkorlik xarakteriga ega ekanligi muximdir. Muxit inson kirishishi, o`zini kulay sezishi uchun joylashuvinigina etarli bilishi lozim bo`lgan ko`cha, uy va boshka narsalar emas. Balki, muxit bu aloxida o`zaro munosabatlar tizimi va koidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari xamdir. Shuning uchun inson muxitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir kiladi xamda o`zgartiradi va o`z o`rnida muxit xam inson oldiga o`z talablarini ko`yadi. U insonni, uning xatti-xarakatlarini kabul qilishi xam, inkor qilishi xam mumkin. Muxitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniklasa bo`ladi. Insonning xulk-atvori uning jamiyatda tutgan o`rni bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaktning o`zida bir kancha mavke'larni egallashi mumkin. Masalan, ayol xam rafiqa, xam ona, xam ustoz mavqe'larini egallashi mumkin. xar bir mavqe' insonga muayyan talablarni ko`yadi va shu bilan birga unga bir qancha xuquqlarni beradi. Insonning jamiyatdagi muayyan xukuk va majburiyatlar bilan xarakterlanadigan mavqe'I ijtimoiy makom deyiladi. Insonda tugma maqomlar bo`lishi mumkin. Insonning ijtimoiy maqomiga millati, tugilgan joyi, familiyasi va boshqa omillar ta'sir ko`rsatishi mumkin. Bunday maqomlarga odatda tugma maqom deyiladi. Boshqalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga karab belgilanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog makomiga shu soxadagi kasb tayyorlovchi o`quv muassasasida ta'lim olgan va bu soxa bo`yicha diplomga ega bo`lgan shaxs erishishi mumkin. Yukoridagi makomni ko`lga kiritilgan makom desak adashmagan bo`lamiz.

Maqom insonning jamiyatdagi xulk-atvorini muayyan vaziyatlarda o`zini shu maqomdagilar xolatiga ko`ra belgilaydi. Atrofdagilar u shaxsdan nima kutishlari xam muhimdir. Shuning uchun inson makomi bilan belgilanadigan xulq-atvor ijtimoiy rol deyiladi. Turli ijtimoiy rollarni o`zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismi xisoblanadi. Uning murakkabligi jixati shundaki, jamiyatda faqat jamiyat tomonidan ma'qullanadigan makomlar bo`lmasdan ijtimoiy norma va kadriyatlarga mos kelmaydigan makomlar xam mavjud. Shuning uchun bola shakllanishi va rivojlanishi jarayonida xam ijobiy xam salbiy rollarni o`zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rollarga avvalo oila a'zosining rolini kiritsak bo`ladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini o`zlashtiradi: o`gil yoki qiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek bobokalonlari bilan xam tanishishi mumkin.

Bola o`z rivojlanishi davomida o`zlashtiradigan yana bir muxim roli bu jamoa a'zosi rolidir. Bolalar bogchasi va maktabda sport to`garagida tengkurlari bilan muomala kilganda bola jamoa a'zosi, o`rtok, do`st, o`quvchi, etakchi kabi rollarni o`zlashtiradi. Xar bir inson iste'molchi rolini bajaradi. Chunki u xayoti mobaynida zarur bo`lgan narsalarga doim extiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak, kitob va boshqalar. Jamiyat insonga taqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayok o`zlashtirishi lozim.

Yana bir muxim ijtimoiy rol-o`z vatani fuqarosi bo`lish, uni sevish, u bilan faxrlanish, vatanparvar bo`lish bilan boglikdir. Shu bilan birga bola o`zlashtirishi mumkin bo`lgan boshqa rollar xam bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola maktab, litsey yoki boshlangich kasbiy bilim yurtlarida o`zlashtiradi. Salbiy rollarga daydi rolini misol qilsak bo`ladi. Katta shaxarlar ko`chalarida,

magazin, bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni xam uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko`nikishgan. O`tgan qaytganlardan moxirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o`girlik bilan shugullanadiganlari xam uchraydi. Ba'zi xollarda bo`lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o`zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffakkiyatli moslashuvini ta'minlaydi. ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muxit sharoitlariga ko`nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffakiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi xisoblanadi. Bu asosan uch yo`nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat soxasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini ko`lga kiritishi, muomala soxasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chukurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o`zlashtirish sodir bo`ladi. Anglash soxasida o`z "men"i obrazini shakllantirish, o`zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o`rnini anglash ro`y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida

So`nggi o`n yilliklar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o`zaro munosabati keng muxokama qilib kelinmokda. Davlat mafkurasining o`zgarishi sababli bu muammoga aloxida e'tibor qaratish lozim. Shqu bilan birga ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga xarakat qilishmokda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir kismi sifatida o`rganishadi. Ba'zi olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To`rtinchi gurux olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb xisoblashadi. Birok tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini xamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy xarakat bo`lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi. Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan Maks Veberg uni muammolarni echishga karatilgan xarakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini sub'ektiv anglash sifatida ta'riflagan.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo`ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. Chunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo`ladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. Shunga karamay tarbiyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko`p ma'noliligini sabab qilib ko`rsatsak bo`ladi. Tarbiyani ijtimoiy xodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o`zaro munosabat sifatida ko`rib chiksak bo`ladi. Bu tushunchalarning xech qaysisi tarbiya mazmunini to`liq ochib bera olmaydi.

Quyida ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo`lgan umumiyligini aks etishga xarakat qilingan tarbiyaning ta'rifi keltirilgan. Birok unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan. A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:

Tarbiya-insonning jamiyatga ko`nikishiga ko`maklashuvchi va bu ko`nikish sodir etiladigan gurux va tashkilotlarning xususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta'rif to`lik va to`gri xisoblanmaydi. Bu faqat muallifning nuqtai nazarini aks ettiradi.

Borgan sari tashki tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Birok boshqa bir jarayon-o`z-o`zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o`z shaxsini mukammallashtirish, o`z-o`zini rivojlantirish bo`yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o`z-o`zini tarbiyalashga extiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli xisoblanadi. Bizning modelga binoan insonning o`z-o`zini tarbiyalashi exrom bunyod etish bilan barobardir.. Shuning uchun o`z-o`zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho`ziladi.

Bolaga ta'sir etuvchi tarbiya tizimlarini A.V.Mudrik quyidagicha tasniflaydi

Bola ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruxiy rivojlanishining salbiy xususiyatlari bilan qiyinlashtirilishi mumkin. Bolaning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o`zlashtirishi muxitning salbiy ta'siri oqibatida noto`gri yo`nalishda ketib kolishi mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib ketib, maxsus yordamga muxtoj bo`lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni avvalo tarbiya orqali amalga oshadi. Biroq buning uchun xar bir

toifa bolalarning ijobiy jixatlarini faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.
Umuman olganda tarbiyachi va mutaxassislarning vazifasi kiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuvigaga qaratilgan, ya'ni jamiyatda kabul qilingan qonun va me'yorlarga faol ko`nikishi yoki salbiy omillarning oqibatlarini engishdir.
Agar shaxsda ijtimoiy muxit sifatlarining shakllanmagan darajasi bolaga ijtimoiy muxitga ko`nikishga xalakit beradigan xolat bo`lsa, bolaning ijtimoiy moslasha olmasligi sodir bo`ladi. Bu xolatda bola tomonidan yo`qotilgan ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tiklashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni qo`llash tavsiya etiladi.
Shunday qilib, bolaning jamiyatda rivojlanish jarayonida uning ijtimoiylashuvi sodir bo`ladi. Agar bu jarayon sodir bo`lmasa, uning aksi-dezadaptatsiya kuzatiladi. Bunday xolatda bolaning ijtimoiy reabilitatsiyasiga extiyoj tugiladi.

Nazorat savollari.
1.Ijtimoiylashuv nima? Bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi omillar qaysilar?
2.Bola rivojlanishiga muhitning ta'siri qanday?
3.Bola tarbiyasi va uning ijtimoiylashuvi orasidagi bog'liqlik nimada?
4.Ijtimoiy moslashuv nima?
5.Tarbiyaning ijtimoiy vazifalarini sanab bering.
6.Tarbiyaviy tamoyillarning mohiyati va mazmunini bayon etish?

3-mavzu. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy –pedagogik faoliyat .Vasiylik va homiylik

Asosiy savollar.

1.Ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra oilaning turlari
2.Vasiylik va homiylik tushunchasi va me`yoriy-huquqiy hujjatlarda aks ettirilishi.
3. Farzandlikka olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari va mazmuni

Tayanch tushuncha va iboralar: vasiylik, homiylik, ijtimoiy kelib chiqishi, oilaning turlari,reproduktiv,felistologik vazifasi, iqtisodiy vazifasi

Jamiyatda oilaning roli o'zining kuchi bo'yicha boshqa qech bir ijtimoiy institutlar bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Aynan olada insonning shaxsi shakllanadi va rivojlanadi; bola jamiyatda qiyinchiliksiz moslashib ketishi uchun u ijtimoiy vazifalarni egallaydi. Oila birinchi tarbiyaviy institut sifatida ishtirok etadi, u bilan boqliqlikni inson o'zining butun hayoti davomida qis etadi. Oilada insonning ma'naviyligiga asos solinadi, qulqiy qoidalari yuzaga keltiriladi, shaxsning ichki dunyosi va individual siftlari ochib beriladi. Statistika ko'rsatishicha xo'jalik yuritish bozor siyosatiga o'tish ijtimoiy institut sifatida oila qolatiga ancha salbiy ta'sir ko'rsatdi. Domograflar tuqilish kamayganini qayd etadilar. Sotsiologlar asotsial oilalar sonini o'sib borishini qayd etadilar va turmush darajasining pasayishini taxmin qiladilar hamma davrlarda qam oila o'zining bolalarni tarbiyalashda yordam olishga talabni xis etgan. Tarixning ko'rsatishicha odamlar katta oilalar bilan yashaganlarida oilaviy hayotning zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalari avloddan avlodga tabiiy ravishda va oddiy kundalik o'tib ketgan.
Zamonaviy rivojlangan jamiyatda avlodlar o'rtasidagi oilaviy aloqalar bo'z ilmoqda. Shuning uchun jamiyat oila tashkil etish va bolalarni tarbiyalash qaqidagi zarur bilimlarni etkazish bo'yicha ishlarni o'z zimmasiga oladi. qozirgi paytda ota onalarga mutaxassis psixologlar, ijtimoiy ishlar xodimlari, ijtimoiy pedagoglar va bolalarni tarbiyalash bo'yicha boshqa mutaxassislarning yordamlari zarur. Ana shu mutaxassislarning yordamiga faqat notinch, yomon sharoitdagi oilalar emas, bugungi kunda tinch, yaxshi oilalar qam muqtojlar.

Oila xaqidagi bir necha xil tushunchalar mavjud: birinchidan oila bu Nikoh va (yoki) qon qarindoshlikni asoslangan kichik ijtimoiy guruh, uning a'zolari birgalikda yashaydilar va uy ishlarini bajaradilar, bir birlariga nisbatan o'zaro majburiyatlar bilan birlashganlar. Ikkinchidan, oila bu itimoiy institut bo'lib unda odamlar o'rtasida o'zaro munosabatlar barqaror mustaxkam shaklda bo'ladi. Ana shu o'zaro munosabatlar doirasida odamlarning kundalik hayoti asosiy qismi amalga oshiriladi: intim munosabatlari, farzand ko'rish va bolalarning boshlang'ich ijtimoiylashishi, tarbiyalash, tibbiy xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Oila Nikoh munosabatlari insoniyatga qadim davrlardan ma'lum. Neolit davridayoq (15 20 ming yil ilgari) ongli Nikoh paydo bo'lganda, odamlar jamoasi paydo bo'lganidayoq ularning birgalikda xo'jalik yuritishdagi va birgalikdagi bola tarbyalashdagi vazifalari tabiiy jinsiyligi, yoshiga qarab (erkak, ayol) ajratishiga asoslangan. Tarixda qayd etilgan oilaviy munosabatlarda farqlar bo'lishiga qaramay qamma oilalarni birlashtiradigan qandaydir umumiylik bor. Bu oilaviy tarzda xayot kechirishdir, bunda insoniyat yashashning yagona imkoniyatini topgan. Olimlar oilaning turli vazifalarini ko'rsatadilar. Biz birinchi navbatda bolani tarbiyalash va rivojlantirishga taaluqlilarigagina to'xtalib o'tamiz.

Oilaning reproduktiv vazifasi(productio lotincha so'z-qayta ishlab chiqarish, ko'payish). Oilaning muhim bo'lgan vazifalaridan reproduktiv(jamiyatning biologik o'z luksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funktsiyasidir. Reproduktiv vazifani inson zotini davom ettirish zaruriyati sababini asoslaydi. qozirgi kunda 2 3 ta odamdan tashkil topgan oilalar soni ortib bormoqda. Bunday odamlarning aytishlaricha bolalar ota onalarning erkinliklarini cheklaydilar: ta'lim olishda, ishda, malakasini oishirishda, o'zining qobiliyatini amalga oshirishda.

Afsuski, bolaga ega bo'lmaslik faqat mavjud bo'lmay, ba'zilari farzand ko'rishga layoqatli bo'lganlarda, farzand orttirmay shunday o'tadiganlar soni Evropa mamlakatlari oilalarida ortib brmoqda. Buning sabablarini quyidagicha izoqlash mumkin: tuqilishning kamayishi, yosh oilalarning ota onalaridan aloqida yashashlari, ajralishlari o'sib borishi sababli bir ota yoki onalik oilalar soni ortib bormoqda, aqolining soqliqi sifati va mamlakatda soqliqni saqlash rivojlanishi darajasi. Ekspertlarning baqolashlari bo'yicha yomon, noqulay ekologik sharoit, aqloqsiz hayot kechirish, yomon ovqatlanish, kasalligi va boshqa va boshqa turli xil sababli yoshi katta aqolining 10 15% soqliqi qolati sababli bolaga ega bo'lishi mumkin emas.

Iqtisodiy va xo'jalik turmush vazifalariqadimdan oila qar doim jamiyatning boshlang'ich xo'jalik tashkiloti bo'lib kelgan. Ov qilish va don etishtirish, qunarmandchilik va savdo oilada qar doim vazifalari taqsimlangan bo'lgani uchun mavjud bo'la olgan. qadimdan ayollar butun uy ishlari bilan mashqul bo'lganlar, erkaklar kasb qunar bilan shuqullanganlar.

Ilmiy texnik revolyutsiya asriga kelib odamlar hayoti yumushlarining ko'plari(ovqat tayyorlash, kir yuvish, uy tozalash, kiyim tikish va boshqalar) qisman maishiy xizmat soqasiga yuklatildi.

Iqtisodiy vazifasi

Oila a'zolari uchun boylik to'plash bilan boqliq bo'lgan: kelin uchun sovqalar, kuyov uchun qalin, avlodlarga qoldiriladigan buyumlar, to'yga, voyaga etish yoshiga suqurta qilish, pul mablaqlari to'plash. Bizning jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar oilaning mol mulk to'plash, xususiy mulkka ega bo'lish, turar joyini xususiylshtirish, meros qilib qoldirish va shu kabilar masalalaridagi iqtisodiy vazifasi yanada faollashib bormoqda.

Boshlang'ich ijtimoiylashtirish vazifasi.

Oila – jamiyatning birlamchi bugini sifatida kup asrlik an'analar, urf odatlarga tayanib yashaydi. Oila xalkning tayanchi, ma'naviy va axloqiy meros makonidir.Oila tajribasini an'ana, urf odatlar, marosimlar zamirida ijtimoiy xayot tushunchasi va koidalarini avloddan avlodga utkazib keladi. Milliy istiklol g'oyasining kurtaklari, eng avvalo, oilada unib o'sadi. Bu jarayonga ota -onalar va bolalarning xamkorligi, karindoshlarning o'z aro yordami, kattalarga izzat ikrom kursatish, bolalar xaqida gamxurlik qilish kabi insoniy mexr okibat rishtalari ta'sir kursatadi.

Oiladagi soglom muxit yuksak ma'naviy - axloqiy xislatlarni shakllantirish kafolatidir. Oila, maktab va voyaga etmaganlar bilan ishlash inspekstiyasining ijtimoiy pedagogik imkoniyatlari, ularning konunga buysunuvchi fukarolarni tarbiyalash yuzasidan birgalikda olib borgan ishlari voyaga etmaganlar urtasida xuquqbo'z arlikning oldini olishni ta'minlaydi.

Oila bola shaxsining shakllanishiga faol ta’sir ko’rsatadigan birinchi va asosiy ijtimoiy guruhdir. Oila ijtimoiy mikromuqitdir va ijtimoiy ta’sir ko’rsati omillaridan biridir. U bolaning jismoniy, psixik va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi. Oilaning vazifasi bolani u dunyoga kelgan mamlakat madaniyatiga va bola tabiatiga mos ravishda rivojlanib borishi uchun uni asta sekin jamiyatga kirib borishidan iboratdir.

Insoniyat to’plagan ijtimoiy tajribalariga, u tuqilib o’sayotgan mamlakat madaniyatiga, uning ma’naviy aqloqiy qoidalariga, qalq an’analariga bolani o’rgatish ota onalarining majburiy vazifasidir.

Tarbiyaviy vazifasi.

Boshlang’ich ijtimoiylashtirish jarayonida bolani oilada tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo’ladi. Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachilari bo’lganlar va shunday bo’lib qoladilar. Bolani oilada tarbiyalash murakkab ijtimoiy pedagogik jarayondir. Oiladagi sharoit va muqit bola shaxsi shakllanishiga ta’sir ko’rsatadi. Ota va ona o’z bolasini ardoqlaydi, erkalaydi, tashvishini qiladi, hayot tashvish va qiyinchiliklaridan asraydi. Ota-onalarnig shaxsiy ibratlari bola tarbiyasiga ta’sir ko’rsatishning muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy ahamiyati bolaning taqlid etishga qiziqishi, qavas qilishga asoslangan. Bilim va tajribalarga ega bo’lmay bola kattalarning qilganlarini takrorlaydi, ularning qarakatlariga taqlid qiladilar. Ba’zan bolaning oilada olgan tajribasi bolaning atrof-dunyoga, odamlarga nisbatan yagona o’lchov belgisi bo’lib qolgadi. To’g’ri, ba’zan oilalarda ota-onalari bemor bo’lganida, bo’z uq hayot kechirganlarida, pedagogik madaniyatga ega bo’lmaganlarida va shu kabilarda tarbiya bo’z ilishi mumkin. Albatta bola shaxsi tarbiyasiga shunchaki o’zining borligi bilan ta’sir ko’rsatmaydi, balki qulay ma’naviy-psixologik muqiti, uning a’zolari o’rtasidagi soqlom munosabatlar bilan ta’sir ko’rsatadi.

Rekreativ va psixoterepevtik vazifasi.

Rekreativ funktsiyasi o’zaro jismoniy, moddiy, ma’naviy va psixologik yordam ko’rsatish, bir-birining salomatligini mustaqkamlash, oila a’zolarinig dam olishini tashkil etishdir. Buning mazmuni oilada inson o’zini to’la qimoyalangan deb qis etadiki, to’la qabul qilingan uning mavqei, tashqi ko’rinishi, hayotdagi muvaffaqiyatlaridan, moddiy aqvolidan qat’iy nazar, oila uni qabul qiladigan boshpana bo’lishidan iborat. «Mening uyim-mening qasrim» iborasi soqlom, tinch oila-dunyodagi qamma notinchliklardan vaqtinchalik bo’lsa qam yashirinnishga, dam olib o’z kuchlarni to’plab olishga eng ishonchli va eng yaxshi boshpana degan ma’noni yaxshi ifoda etib beradi.

Xotini o’z uyida o’zining xokimining xamma kamsitishlar va taxqirlashiga indamay chidab kelgan an’anaviy model endi o’tmishda qolib ketmoqda. Ko’pchilik ayollar qam endi ishga boradilar va uyga charchab, toliqib qaytadilar. Oilaviy sharoiti yaqinlari bilan munosabatlarda, bolalari bilan bo’lganda kuchlari ancha ancha yaxshi tiklanadi.

Oilaning ijtimoiy maqomi va uning turlari.

Oila yaxlit sistemali tashkilotdir. Xozirgi zamonda oila oldida turgan muammolardan biri –bu oilaning jamiyatda moslashishidir (adapto-moslashish) ya’ni oilaning zamonaviy muqitda (jamiyatda) hayot sharoitlariga moslashishi qisoblanadi. Moslashish jarayonining asosiy xarakteristikasi bo’lib ijtimoiy maqomi ishtirok etadi, ya’ni oilaning jamiyatda moslashish jarayonidagi qolati. Oilaning ijtimoiy maqomini aniqlash uchun uning bir qator to’z ilishi funktsional xarakteristikalarini qamda oila a’zolarining individual xususiyatlarini bilish kerak.

Oilaning to’z ilishi xarakteristikalari.

Nikohli sheriklarning mavjudligi (to’la, rasman to’la, to’la emas)

Oilaning hayotiy sikli bosqichi (yosh, etuk, qari)

Nikoh to’z ish tartibi (birinchi, takroriy.....)

Oiladagi avlodlar soni (bitta yoki bir necha avlodlar)

Bolalar soni (ko’p bolali va kam bolali...)

Oila a’zolarining individual xususiyatlari.

Bularga ijtimoiy demografik, fiziologik, psixologik, oila katta a’zolarining patologik odatlari kiradi, qamda bolaning qarakteristikalari kiradi: yoshi, bola yoshiga munosib nutqi rivojlnganligi, jismoniy psixologik rivojlanish darajasi; uning qiziqishlari va qobiliyatlari; u boradigan ta’lim tashkilotlari,

munosabat va o’qitish muvoffaqiyatlari: o’zini tutishidagi chetlashishlar, patologik odatlari, nutqiy va psixik bo’z ilishlar mavjudligi.
Oila a’zolarining individual xususiyatlari, uning to’z ilishi va funktsional ko’rsatkichlari bilan birgalikda kompleks xarakteristikalarini tashkil etadi-oila statusi (lotinchadan status-qolati va vaziyati)
Oilaning ijtimoiy moslashishi birligi tashkil etuvchisi-oilaning moddiy aqvoli.
Oilaning moddiy farovonligi, uning ta’minlanganligi bir necha miqdorli va sifatli ko’rsatkichlar bilan baqolanadi. Bular oilaning daromad darajasi, uning hayotiy sharoitlari , buyumlari mavjudligi (ya’ni oila ega bo’lgan buyumlar) qamda uning a’zolarining ijtimoiy-demografik xususiyatlaridan iborat, bu oilaning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini tashkil etadi. Oilaning daromadlari darajasi, qamda turar joyi sharoitlari belgilangan normadan past bo’lsa (tirikchilik minimumi va boshqalar) buning oqibatida oila eng kerakli qisoblangan egulik, kiyim, turar joyi uchun qaq to’lash talablarini qondira olmaydi bunda oila kambaqal qisoblanadi va uning ijtimoiy-iqtisodiy statusi (maqomi) past qisoblanadi. Agar oilaning moddiy ta’minlanishi ijtimoiy normalar minimumiga mos kelsa, ya’ni agarda ongli hayot kechirish uchun asosiy tartiblarni qondira olsa lekin moddiy mablaqi dam olish, ta’lim va boshqa talablarni qondirishga etmasa unda bunday oila kam ta’minlangan qisoblanadi. Daromadi darajasi va yashash yuqori bo’lib (ijtimoiy normadan ikki barobar ko’p va undan ortiq) faqatgina yashash asosiy talablarini qondirib qolmay yana turli xil xizmatlaridan foydalanish imkoniyati bo’lsa bu oila moddiy ta’minlangan qisoblanadi, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo’ladi. Oilaning ijtimoiy moslashishi ikkinchi tashkil etuvchisi uning psixologik muxiti oila-a’zolari kayfiyati ularning hayotiy kechinmalari, bir biriga munosabati, boshqa odamlarga ishga, atrofdagi xodimlarga qarashlari natijasi sifatida yuzaga keladigan barqaror, mustaqkam emotsional kayfiyatdir. Oilaning psixologik kayfiyati qolatini baqolash uchun er-xotinlar o’rtasidagi, bolalar va ota-onalar va yaqin qarindoshlari o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni qisobga olish kerak bo’ladi.
Oilaning psixologik kayfiyati qolati ko’rsatkichlari quyidagilar qisoblanadi: emotsional erkinligi darajasi, xavotirlanish darajasi, bir-birini tushunish, qurmat qilish.
Xozirgi kunda kundalik nutqda va nazariy tadqiqotlarda ikki tushunchadan keng qo’llaniladi. Etim (qech kimi yo’qlik) va ijtimoiy etim (ijtimoiy qech kimi yo’qlik). Etim bolalar bu 18 yoshgacha bo’lgan ota-onalari yoki birontasi vafot etgan shaxslardir. Ijtimoiy etim-bu biologik ota-onalari bor bola, lekin ular qandaydir sababga ko’ra bola tarbiyasi bilan shuqullanmaydilar va unga qamqo’rlik ko’rsatmaydilar. Bunday qollarda bu bolalarga gamho’rlik qilish vazifasini jamiyat va davlat o’z zimmasiga oladi. Shunday qilib ota-onalari qarovisiz qolgan bolalar kategoriyalariga quyidagilar kiradilar:
Ota-onalari vafot etgan;
Ota-onalik ququqidan maqrum etilgan;
Ota-onalik ququqlari chegaralangan;
Noma’lum, daraksiz yo’q hisoblangan;
Ishga (meqnatga)yaroqsiz (nosoglom, ish qobiliyati cheklangan);
Jazoni ijro etish koloniyalarida jazo olayotgan;
Jinoyat qilganlikda ayblanish va qamoqqa olingan;

Bola vaqtincha joylashtirilgan davolash ijtimoiy tashkilotlaridan bolani olib ketishdan bosh tortganlar.
Vasiylik va qaramog’iga olish-etim bolalarni va ota-onalari qarovisiz qolgan bolalarni boqish, tarbiyalash, ta’lim berish va ularning xuquq va qiziqishlarini qimoya qilish uchun joylashtirish shaklidir.
Vasiylik 14 yoshga etmagan bolalar ustidan o’rnatiladi, qaramog’iga olish 14 yoshdan 18 yoshgacha bolalar ustidan o’rnatiladi.
Etimlik jamiyat oldida turgan juda jiddiy muammolaridan biridir. Ota-onasini yo’qotgan bola-bu aloqida, juda qam fojiali dunyodir, ota va onalik bo’lish eqtiyoji bolaning eng kuchli talablaridan biridir.

Ijtimoiy etimlik bugungi kunda ko’plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun xosdir. Masalan: Amerikalik tadqiqodchilar butun dunyo bo’yicha kasalxonalar, tuquruhxonalar, ijtimoiy muassasalar tashlab ketilgan chaqaloqlar bilan to’lib ketganligini aytadilar. Ularni turlicha “Voz kechilgan bolalar”, “Davlat bolalari”, “Tashlab ketish uchun tuqilganlar” qam deb ataydilar.
BMT qalqaro ekspertlarining ma’lumotlari bo’yicha qarbiy va sharqiy Evropa mamlakatlarida tashlab ketilgan bolalar sonikeskin oshgani ko’rsatiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qam bunday bolalar soni ortib bormoqda.
Bolalarga muqabbat ularga e’tiborli bo’lish O’zbekiston qalqiga qadimdan odatiy bo’lib kelgan. O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov bu xususida shunday deydi: “Insonparvarlik-bu o’zbek qalqining milliy ruhi, ajralmas belgisidir. Baqritoshlik va zulm unga yotdir... Bugungi kunda qam o’zbek oilasi-ezgulik va qayoli bolalarga muqabbat, kattalarni qurmat qilish, yaqilariga nisbatan va birovlarning dardiga qam-tashvishiga qamxo’r, meqribonlik timsolidir” O’zbek qalqi eng yaxshi sharqona an’nalariga amal qilib qar doim meqmondo’st va do’stona munosabatda bo’lgan, urush qurbonlarini asrab boshpana berganlar va ularga qamqo’rlik qilganlar, farzandlarini o’zlarining tarbiyasiga olganlar(1941-1945 yil) 15 ta etim qolgan bolani asrab olgan Shomaxmudovlar oilasini eslash kifoya. Urush boshlanganiga Shomaxmudov Shoaxmad va uning rafiqasi Baxri Akromova artelda terimchi bo’lib ishlaganlar. 1966 yili zilzila oqibatida boshpanasiz qolganlarni bolalarni qam o’z oilasiga qabul qildilar. Shomaxmudov “qurmat belgisi ”ordeni, Baxri Akromova “qaqramon ona ordeni bilan mukofotlanganlar”. Ular Raqmat Fayzining “Ulug’ inson” romanida aytib o’tilganlar.
Bolalik. xozirgi zamon sharoitida bolalarni ximoya qilish.
Bolalik. xozirgi zamon sharoitida bolalarni ximoya qilish.
Bolalik. Etimlik.. jamiyat etimligi. qochoq bolalar . Ota-ona zulmidan azob chekuvchi bolalar, nogiron bolalar.
Bolalikni qanday ko’rib chiqishi kerakq Birinchidan, aloqida bolaning rivojlanish jarayoni, uning jamiyatdagi o’rni, aniqroqi jamiyatning bolalar qaqidagi gamho’rligi.
Bolalik, katta odamning hayotidan bu rivojlanish jarayoni, bolalikda nima qo’yilgan bo’lsa katta odamning oyoqqa turishida shu asos bo’ladi. Bolaning o’sishi asoslari shu bilan xarakterlanadi-ki , qar bir etapda boshqa fizik etishish bo’lib o’tadi., aniq bilish, sezish, rivojlanish, jamiyat hayotining tajribasi .
O’sish bilan birgalikda bolaning jamiyatdagi o’rni aniqlanib boradi, qaysiki avvaliga oiladan belgilanadi. Shuning uchun oilaning jamiyat oldidagi javobgarligi katta. Bolalar o’limini oshishi tuqilishning qisqarishi, nogiron bolalarning o’sishi buning qammasi-qozirgi zamon ekonomikasining va mamlakatdagi siyosiy krizisning yakunidir. Aqolining hayot tarzining pasayishi bolalarning ma’naviy, fizik, ruhiy soqliqida aytiladi. Bolalar va o’smirlar mamlakat aqoli orasida qimoyasiz qolishdi. Aniq davlat bolalarni va o’smirlarni qimoya qilish usullarining yo’qligi ularning qulqida, faoliyatida, muomalasida, jamiyat qulqiga qarshi olib keladi, qar xil yo’llar bilan pul topish....
Ilmning krizisga uchrashi, moliyaviy etishmovchilik pedagog kadrlarning etishmovchiligiga kelib taqaladi, maktabning jamiyat taraqqiyotidan o’z ilishi. Bu o’sib kelayotgan avlodni o’qitishi va tarbiyasida ko’rinadi. Eng avvalo qozirgi zamon sharoitida bolalarni qimoya qilish tajribasini ko’rib chiqishdan oldin “bolalik” tushunchasida to’xtalmoqchiman. “Bolalik” tushunchasi ko’rib chiqishini talab etadi. Buning uchun “ maktabga olti yoshdan ”kitobiga murojat qilish kerak. Ajoyib zamonaviy pedagog Sxaivi Aleksandrovichning kitobiga uning nomi qammaga tanish, qar bir o’qituvchiga tashish, uning tajribasi, uning o’qitish va tarbiyalash usuli, o’rganish va andoza olim predmeti bo’ldi. Bolalikning asosining analizi tarbiyada qarama qarshilik jamiyat pedagogika zarur.
Maktabga – olti yoshdan (parcha)
“Bolalik-nima” Bolalik tushunchasi –davriy va ruhiy layqatda o’zining aniqligini topmaydi. qisqasi galati, uning mazmunining aniq tasavvursiz bolalar, o’sishi, pedagogik ruhnaning asosiy o’rnini aniqlash mumkin emas, yana bolaning quqi va qarakatini qam. Bolalik insonning birlashishiga hayotdagi aniq davri lekin bu davr keyingilardan nima bilan farq qiladi. Bolalik tushunchasi kichki na odamning to’liq hayoti bilan boqliq, agar bola qech narsa qaqida o’ylamasa o’zining talablarini

qondirish boshqa agar boshqa qech narsa unga qoqlamasa , o'yindan boshqa, qoniqish va o'yin kulgidek demak u bolalik davrida!
Bolalik, o'smasisiz fikr qilish kerak emas., albatta bola kattalarning qamqo'rligiga va qimoyasiga muxtoj. Bu uning bilan bir paytda bizning bolalarga qamqo'rligimiz aniqlash zarur, kishilardan uni qimoya qilish va saqlash zarur.
Bolalikning to'kin sochinlik davriga, bundan chiqishga qarshi ko'mak yaxshi bo'ladimiq hayotga boshqacha qarashga majbur qilsak. Bu bolaga foyda beradimi, yasama sharoitda uni o'z oq ushlash. Bu bilan biz bolaga zarar etkazamiz, bu uni qimoyalash bo'lmaydi. Bu muloqaza aniqlikni talab qiladi.
Birinchidan bolalik to'kin sochinlik davri hayoti emas. Bu bizga, kattalarga , hayot muammolari tarafdan qarasak bolalarda qam yo'q, ular faqat o'ynaydi va quvonishadi. Bunday qarash noto'g'ri. Bolalar hayotida quddi kattalarnikidek, murakkab muammo, qiyin echiladigan, echib bo'lmaydigan, ular bolalarni o'ylashi, qiynashi , qiyinchilikni bartaraf qilish kurash, quvonish majbur qiladi. Bolalar orasida va kattalar orasida o'zaro murakkab muomala keoib chiqadi. Kattalar bolalarga qanchalik qiyin yashash, qanchalik hayot mazmunini ularning tarbiyasida xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Ikkinchidan qaqiqiy bolalik-bu oldinga intilishi bu to'xtamaydigan katta bo'lish, bola katta bo'lishni qoxlaydi. Ko'p o'yinlarda biz ko'z atamiz. Bolalar o'ziga dadasining, oyisining, shifokorning , quruvchining, soldatning, sotuvchining rolini oladi. Bolaning o'zidan kichkinaning rolini olishini topish qiyin. Bolalar hayotning mazmuni bolalikningt maqsadi tezroq katta bo'lishdir. Shu tarzda bolalikka boradigan bo'lsak bizning o'rnimizda bolalar boshqacha o'rin tutishlari kerak. Ular bilan muomalada, ularning katta bo'lish talabiga to'g'ri borish kerak. qar doim uning kichkinaligini aytish o'rinli emas.
Bola xaqida bizning gamqo'rligimiz pedagogik tushunchada shuni oladiki, biz bilan muomalada u sezsa, bu unga quddi kattalardek, kichkina boladek emas ishonsak, muhim ishlarni topshirsak, ular bilan qisoblashsak, unga katta bo'layotganini sezdirsak. Tarbiyaning vazifasi, bolalarga katta bo'lishda yordam berish eng kichik qarakatini qo'llab quvvatlashdir. Faqat shunday qilib unga qaqiqiy bolalikni berish mumkin. quvonchi va tasavvuri bolalikning faqat o'yinchoqda o'z talabini qondirishimiz emas, hayotda o'zini ochishi, o'z kelajakka yaqinlashishida. Mana nima uchun bolalar ishlar qiladi, qaychini o'z mustaqilligini isbotlay, o'yinlarda o'ynashadi. O'yinchoqlar olishadi, qaysini ulrni kattalar dunyosiga olib kiradigan. Bu sargo'z ashtlarga to'la qiyinchilikni va faoliyatni engish, kelajakka intilish bu bizning bolalarimizning qaqiqiy bolaligi.
O'n ming yilliklarning qonishchi yillaridagi qoxish, maktabga borish, yanayam ko'proq bilish, ko'rish, o'qishga o'rganish, yozishga, sanashga,yani do'stlar ortirishdir, bolalik bu natija bo'lishi mazmuni shundayki yanayam mazmunliroq, qiziqroq, aqlli, mustaqil hayotning zarurligi muqtojligidir. Tarbiyada kelishmovchilikning kelib chiqishi qaqida.
Kattalar va bolaning orasidagi kelishmovchilik, tarbiyachining va tarbiya oluvchining bo'lishi oz emas. Bu qo'pol formalarga o'tish mumkin, yashirin qam o'tadi, yoki tez o'chadi, kelishmovchilikning bartaraf etilishi kattalardan talab qilinadi.qarama qarshilik kelib chiqadi, uni qanday bartaraf etish mumkin. Uspadzening kontseptsiyasini bemalol aytmoqchiman tarbiyaning tragediyasi qaqida.Tarbiyaning maqsadi jamiyat orqali birikadi, tarbiyachi uning amalga oshishiga intilib, o'z tarbiyalanuvchilar qaqida qamqo'rlik qilib ularning qiziqishlari bilan to'qnash keladi. Xar bir insoning shaxsi ta'lim, ijtimoiy muxit ta'sirida shakllanadi. Natijada u ijtimoiy jixatdan axamiyatli bo'lgan vazifalarni bajaradi,ijtimoiy rolni o'z lashtirib oladi, o'z ining kizikishi, kobiliyatini ijodiy muloxaza kilib kuradi, jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustaqil munosabatga kirishadi va shu tariqa shaxsning ijtimoiylashuvi yuz beradi.Komil inson yetuk shaxsning shakllanishida Kadrlar tayyorlashning milliy modeli va dasturi xal qiluvchi rol uynaydi.Milliy model va dastur maksad va vazifalarini amalga oshirish o'z Vataniga fidokor, istiqlol va demokratiya g'oyalariga sadoqatli shaxsni shakllantirishga xizmat kiladi. Ijtimoiy siyosiy xayotda ongli ravishda qatnashadigan, ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir kursatadigan. O'z mamlakatni taqdiri uchun ma'sul bo'lgan shaxsni tarbiyalash. Kadrlarni tayyorlash milliy dasturining bosh maqsadlaridan biridir.Shaxsning ijtimoiylashuvini ifodalovchi muxim kursatkichlardan biri uning ijtimoiy faolligi va xarakatchanligidir.Ijtimoiy faollik – bu shaxsning jamiyat ishlarida ongli

ishtiroki, ularning borishiga ma’lum darajada ta’sir utkaza olmasdi, uni o’z gartirish, ularning borishiga ma’lum darajada ta’sir imkoniyati tushiniladi.Milliy dasturning amalga oshirilishi jarayonida xalqning milliy madaniy, tarixiy an’analari, urf – odatlari, umumbashariy kadriyatlarga asoslangan yoshlarni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik prinstiplari ishlab chikiladi. Ularning asosida yotgag ta’limiy – tarbiyaviy g’oyalarga kura shaxsni tarbiyalash va xar tomonlama kamol toptirish ustuvor kasb etadi.Bunday ustuvorlik qobiliyatli bolalarni qullab – quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Qobiliyatli bolalarni ukitishning zamonaviy psixologik va pedagogik tashkiliy sharoitlari vujudga keladi, ta’lim metodologiyasi ishlab chikiladi. Iqtidorli bolalar ta’lim – tarbiyaning monitoringi shakllanadi. Ilmiy – texnik innovastiya markazi kabi maxsus ta’lim muassasalari tashkil etadi. Bu erda ukuvchi yoshlar o’z qobiliyati, iste’dodini rivojlantiradi, ilmiy – texnika soxasidagi saloxiyatini kengaytiradilar.Xalqaro miqyosda axborot va tajriba almashuvi bilan bog’liq tadbirlar kulami oshmoqda. O’quvchi va mutaxassislarni dunyodagi etakchi ilm – fan va ta’lim muassalarida ukitish imkoniyatlari yaratilmokda.Qobiliyatli bolalar, iste’dodli yoshlarni xorijiy davlatlarda uqitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga xizmat qiluvchi «Umid», «Ustoz» kabi jamgarmalarning tashkil etilishi buning kafolatidir.O’quvchilarning tugma qobiliyatlari va iste’dodini xar tomanlama rivojlantirish, miliy va umumbashariy axamiyatga molik dunyoviy, ma’naviy boyliklardan baxramand etish, shaxs, jamiyat va atrof – muxit munosabatlarida uygunlikka erishish,«Ustoz – shogird»likning tarixiy an’analari asosida samimiy munosabatlarini o’rnatish – ta’limni insonparvarlashtirishning negizini tashkil etadi.Ta’limni insonparvarlashrirish jarayoni o’kituvchilvrning intellektual – axloqiy imkoniyatlarni ochishning uslub va mexanizmlarini beradi, unga tushungan xolda munosabatda bo’lishga va uni amalga oshirishga urgatadi. Insonparvarlashtirish ta’lim bilan ijtimoiy munosabatlar o’rtasidagi ziddiyatlarini bartaraf etadi. Bulajak mutaxassislarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida kamolga etkazadi.Bizning eng katta yutugimiz o’z boyligimizga o’z imiz ega bo’lganimizdadir. Binobarin, ularda minnatdorchilik, gurur va ishonch tuygularini tarbiyalashimiz kerak. Ma’naviy, axloqiy mukammallik, vijdonlilik, or – nomuslik, yaqinlarga gamxur bo’ling va boshqa insoniy tuygular o’z – o’zidan paydo bo’lib qolmaydi, ularning asosida tarbiya yotadi.

Milliy dasturning amalga oshirilishi jarayonida xalqning milliy madaniy, tarixiy an’analari, urf – odatlari, umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yoshlarni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik prinstiplari ishlab chikiladi. Ularning asosida yotgag ta’limiy – tarbiyaviy g’oyalarga ko’ra shaxsni tarbiyalash va xar tomonlama kamol toptirish ustuvor kasb etadi.Bunday ustuvorlik qobiliyatli bolalarni qullab – quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Qobiliyatli bolalarni o’kitishning zamonaviy psixologik va pedagogik tashkiliy sharoitlari vujudga keladi, ta’lim metodologiyasi ishlab chiqiladi. Iqtidorli bolalar ta’lim – tarbiyaning monitoringi shakllanadi. Ilmiy – texnik innovastiya markazi kabi maxsus ta’lim muassasalari tashkil etadi. Bu erda o’quvchi yoshlar o’z qobiliyati, iste’dodini rivojlantiradi, ilmiy – texnika soxasidagi saloxiyatini kengaytiradilar.Xalqaro miqyosda axborot va tajriba almashuvi bilan bog’liq tadbirlar ko’lami oshmoqda. O’quvchi va mutaxassislarni dunyodagi etakchi ilm – fan va ta’lim muassalarida o’qitish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Qobiliyatli bolalar, iste’dodli yoshlarni xorijiy davlatlarda oqitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga xizmat qiluvchi «Umid», «Ustoz» kabi jamgarmalarning tashkil etilishi buning kafolatidir.O’quvchilarning tugma qobiliyatlari va iste’dodini xar tomanlama rivojlantirish, miliy va umumbashariy axamiyatga molik dunyoviy, ma’naviy boyliklardan baxramand etish, shaxs, jamiyat va atrof – muxit munosabatlarida uygunlikka erishish, «Ustoz – shogird»likning tarixiy an’analari asosida samimiy munosabatlarini o’rnatish – ta’limni insonparvarlashtirishning negizini tashkil etadi.Ta’limni insonparvarlashrirish jarayoni o’qituvchilvrning intellektual – axloqiy imkoniyatlarni ochishning uslub va mexanizmlarini beradi, unga tushungan xolda munosabatda bo’lishga va uni amalga oshirishga o’rgatadi. Insonparvarlashtirish ta’lim bilan ijtimoiy munosabatlar o’rtasidagi ziddiyatlarini bartaraf etadi. Buo’ajak mutaxassislarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida kamolga etkazadi.

2-savol bayoni. Vasiylik va homiylik tushunchasi . Yetimlikning kelib chiqishi sabablari. Har qanday davlatda, har qanday jamiyatda ham ota-ona qaramog’isiz qolgan bolalar bo’lgan, hozir ham

mavjud. Bunday hollarda davlat bu bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishi mas'uliyatini ozimmasiga oladi.
Ota-onasini yo'qotgan bola bu, haqiqatan ham, fojia. Ota- onaga ega bo'lish ehtiyoji bolaning eng kuchli ehtiyojlaridan biridir. Ota-onasiz bolalar o'z-o'zidan "etim" degan maqomni oladilar. "Etim" va "ijtimoiy etim" degan tushunchalar bir- biridan farqlanadi.
Yetim bolalar bu 18 yoshgacha ota-onasining biri yoki ikkovi vafot etgan bolalardir. Ijtimoiy etim bolalar esa biologik ota-onalari bor-u, biroq ular turli sabablarga ko'ra uning tarbiyasi bilan shug'ullanmaydilar. Bunday holatlarda ham bolalarga g'amxo'rlik qilishni davlat o'z zimmasiga oladi. Ijtimoiy etimlik muammosi aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga xos muammo hisoblanadi.
Bola muammolarini o'rganish bilan shug'ullanayotgan pedagog va psixologlar, hayotining ilk davrlaridanoq yaqinlaridan ajralib qolish bolaning keyingi taqdirini belgilab berishini aniqlashgan. Ota-onasidan va, umuman, yaqinlaridan ayrilib qolish bolalarning har tomonlama rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.
Bolalik insonning ruhiy bardoshliligini, hayotga qiziqishini, maqsadga intiluvchanligini ta'minlovchi asosiy hislatlarning shakllanish davridir. Bu ma'naviy hislatlar betartib shakllanmasdan, ota-ona mehri ta'sirida, oilaning bola oldidagi har tomonlama mas'uliyat va majburiyatlaridan kelib chiqib shakllanishi kerak.
Etimlikning barcha sabablarini sanab o'tish mushkul, chunki bu turli fan sohalarning (tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va boshqalar) olimlari shug'ullanayotgan ko'p jihatli muammolardan biridir. Biroq etimlikning asosiy uchta sababni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:
1) ota-onalarning (odatda, onalarning) o'z voyaga etmagan bolasidan voz kechishi, asosan, go'daklik davridagi boladan voz kechishi;
2) uning ota-onasidan ota-onalik huquqini olib qo'yilgandan so'ng oiladan majburan ajratib olinishi;
3) turli sabablar bilan ota-onalarning vafoti.
Vasiylik — voyaga yetmagan yetim bolalarga ular voyaga yetguncha g'amxo'rlik qilish va ularga qolgan mol-mulkka qarab turish, ya'ni ma'naviy otalik. "Vasiy" deganda muomalaga layoqatsizlarni shaxsiy va mulkiy huquqlarini qo'riqlovchi shaxs tushuniladi. Yetim bolalarga vasiylik qilish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: farzandlikka olish yoki davlat qaramog'iga topshirish .
Homiylik — biror kimsani himoya etish, tarafini olish. Shuning uchun, "homiylik" deganda, bu kabi majburiyat zimmasiga yuklatilgan shaxs yoki muassasa tushuniladi. Homiylik yuklatilgan shaxs yoki korxona "homiy" deyiladi.
Bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.Ota-onalar qaramog'isiz qolgan bolalarga ota-onalari:
- vafot etgan;
- ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan;
- bedarak yo'qolgan;
- muomalaga layoqatsiz;
- axloq tuzatish muassasalarida jazo o'tayotgan;
- jinoyat sodir etishda ayblanib, hibsda bo'lgan;
- bola tarbiyasidan bo'yin tovlayotgan;
-bolalarini vaqtincha shifo yoki ijtimoiy maskanlarga joylashtirgan, biroq olib ketishni hoxlamayotganlar kiradi.
Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar farzandlikka olinishi, vasiylik, xomiylik belgilanishi yoki tutingan oilaga berilishi mumkin. Bunday imkoniyat bo'lmaganda esa etim bolalar yohud ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar davlat muassasalarida tarbiyalanadilar.
Farzandlikka oluvchi oila bolaning yuridik jihatdan yangi oilasi hisoblanadi. Bola shu oilaning familiyasini olishi, oila esa unga boshqa ism ham berishi mumkin. Oila bolalikka olingan bolaning barcha xuquq va majburiyatlarini o'z bolalarining xuquq va majburiyatlariga tenglashtiradi. Farzandlikka olish bir nechta bosqichda amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bunda avval bolaga shu

mintaqada yangi ota-ona topishga harakat qilinadi, agar buning imkoni topilmasa, u holda bolalikka oluvchilarni davlatdan tashqarida qidiriladi



Yetimlarga vasiylik qilish tizimi .Farzandlikka oluvchi ota-onalar bolali yoki bolasiz bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, to'liqsiz oilalar, yakka shaxslar ham farzandlikka olishi mumkin. Ularni bolani o'z oilasiga qabul qilishga undovchi bir qator sabablar mavjud bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

— fiziologik sabablarga ko'ra o'z bolasi bo'lmagan holatda bolali bo'lish xohishi;
— o'z bolasining vafot etishi;
— o'z bolalari ulg'aygach, yana bolali bo'lish xohishi;
— jamiyatda muhtoj bolalarga rahmdillik hissi;
— yolg'izlik hissi;
— diniy sabab va boshqalar.

Bolani oilaga berish, avvalambor, bunday oilalarni tanlab olish, ularni bu faoliyatga tayyorlashning samarali mexanizmini ta'minlaydigan me'yoriy-xuquqiy bazaning yaratilishini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasinig Oila kodeksining 151–moddasida farzandlikka olishning qonuniy asoslari ko'rsatib o'tilgan.

Farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarining ko'zlab yo'l qo'yiladi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik istagan homiylik organi tavsiyasiga ko'ra tuman, shahar xokimi qarori bilan amalga oshiriladi. Voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash uchun ularni farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi. Bolalarning manfaatlarini himoya qilish farzandlikka olishning asosiy shartidir. "Bola manfaatlari" deyilganda birinchi navbatda, uning jismoniy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishi uchun to'laqonli sharoit yaratish tushuniladi.

Farzandlikka olish(berish) masalasini hal qilishda qator muhim faktorlarni e'tiborga olish va har bir farzandlikka olishga individual yondashish kerak. Bolaga uning manfaatlarini mumkin qadar to'laroq ta'minlay oladigan oilani tashlash uchun uning ruhiy holati, shu bilan olinayotgan oiladagi moddiy va ma'naviy sharoit, qolaversa, yana boshqa qator holatlar etiborga olinishi lozim bo'ladi

Faqat voyaga etmagan bolalar, ya'ni 18 yoshga to'lmagan shaxslar farzandlikka olinishi mumkin. Voyaga etmagan bo'lsada, lekin Fuqarolik Kodeksining 28 – moddasi nazarda tutilgan tartibda emansipatsiya qilingan shaxslar farzandlikka olinishi mumkin emas. Chunki shaxs voyaga etish yoki emansipatsiya qilinish oqibatida to'liq muomala layoqatiga ega bo'ladi va uni tarbiyalashga, xuquq va manfaatlari o'zga shaxslar tomonidan himoya qilinishiga zaruriyat qolmaydi,ya'ni farzandlikka olishning asosiy maqsadi – bolaning oilada tarbiyalanishi ta'minlash zaruriyati o'z ahamiyatini yo'qatadi. Garchi bola voyaga etgunga qadar bolalikka olishni istagan shaxsning

oilasida tarbiyalangan bo’lsa ham, uni farzandlikka olishlariga yo’l qo’yilmaydi. Farzandlikka olish faktini sud tartibida aniqlash ham mumkin emas.
Farzandlikka berilayotgan bolani tibbiy ko’rikdan o’tkazish tartibi qonunda belgilanmagan. Qonun mazmuniga ko’ra, nafaqat sog’lom bolalar, balki biror bir kasalga chalingan yoki rivojlanishda kamchiliklari bo’lgan bolalar ham farzandlikka olinishi mumkin. Shubxasiz, kasal bolalarni tarbiyalanishi qiyin kechadi, bu qiyinchiliklarga ba’zan bolaning o’z ota – onalari xam chidash berolmasligi mumkin. Shuning uchun farzandlikka oluvchilar bolaning salomatligi darajasi, agar unda biror kasallik bo’lsa, bu kasalning xususiyatlari va tug’ilish mumkin bo’lgan oqibatlar haqida xabardor qilishlari lozim. Buning uchun farzandlikka berilayotgan bola tibbiy ekspert komissiyasi tomonidan ko’rikdan o’tkazilib, uning sog’lig’i shu jumladan jismoniy va aqliy rivojlanishi darajasi to’g’risida xulosa olinmog’i lozim. Farzandlikka oluvchilarning talabiga ko’ra mustaqil tibbiy ekspertlar ko’rigidan ham o’tkazish mumkin. Kasal bolani farzandlikka oluvchi uni tarbiyalash majburiyatini ixtiyoriy va to’liq ongli ravishda o’z zimmasiga olayotganligi aniqlangan holdagina uni farzandlikka olishga ruxsat berish mumkin.
Farzandlikka olish mutlaq ixtiyoriydir. Shuning uchun bolani farzandlikka olishga to’sqinlik qiluvchi holatlar bo’lmasa, qaysi bolani farzfndlikka olishni oluvchi shaxsning o’zi hal qiladi. Bolani farzandlikka berish haqidagi qarorni esa uning manfaatlarini e’tiborga olgan holda vakolatli organlar qabul qiladi. Qaror chiqqan kundan boshlab farzandlikka oluvchilar farzandlikka olinganga nisbatan bir umrga ota-ona, u esa ularga farzand hisoblanadi.
Bir paytning o’zida ikki yoki undan ortiq bolani farzandlikka olish mumkin. Bu holatlarda farzandlikka olinayotgan har bir bola haqida alohida-alohida qaror chiqariladi. Farzandlikka olish bolani nafaqat ota-onasi, balki yaqin qarindoshlari bilan ham huquqiy aloqalari buzulishini e’tiborga olib, aka-uka, opa-singillarning qarindoshlik aloqalarini uzmaslik uchun, ularni bir shaxsga farzandlikka berish maqsadga muvofiqdir.
Farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o’rtasida tuqqan ota-ona bilan bolalar o’rtasidagi kabi huquqiy munosabatlar vujudga keladi va farzandlikka olish sir saqlanadi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir shaxsning hayoti va sirlarining dahlsizligini kafolatlaydi (27- modda).
Farzandlikka oluvchi oilalar va ularda vazifalarning farqlanishiga qaramay, ijtimoiy pedagogning bu oilalar bilan ish yuritishini belgilab beruvchi bir qator umumiy qoidalarni keltirish mumkin. Bu faoliyatni bir qator bosqichlarga ajratsak bo’ladi: oilalarni tanlash, ota-onalarni o’qitish, bolalar ta’lim-tarbiyasi masalasi bo’yicha faoliyatlarining patronajini o’tkazish va boshqalar. Shuningdek, ijtimoiy pedagogning faoliyati doim boshqa mutaxassislar, ya’ni ijtimoiy xodimlar, shifokorlar, psixologlar, defektologlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.
Ijtimoiy pedagogik faoliyat, har qanday boshqa faoliyat kabi, faoliyat maqsadi, sub’ekti va ob’ekti, funktsiyalari, tashkil qilish metodlari va usullari bilan aniqlanadi. Farzandlikka oluvchi oila bilan ijtimoiy pedagogik ish yuritishning maqsadi oilada bola tarbiyasini to’g’ri ta’minlash va uni har tomonlama rivojlantirish va shu oilaga moslashib ketishini to’liq ta’minlash. Bu jarayonning sub’ektlari esa yuqorida sanab o’tilgan mutaxassislardir.
Faoliyat ob’ekti oila va bola hisoblanadi. Farzandlikka oluvchi oila bilan ijtimoiy pedagogik ish yuritishni bir nechta bosqichlarga ajratib, bu bosqichlarda ijtimoiy pedagog faoliyatining vazifalarini belgilash mumkin (1-jadval).

1-jadval
2-savol bayoni. Farzandlikka olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari va mazmuni

№	Ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari	Ijtimoiy-pedagogik faoliyat vazifalari	Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodlari
1	Farzandlikka oluvchi oilani qidirish.	Axborot berish	Anketa so’rovlari, suhbat, interv’yu o’tkazish

2	Bo'lg'usi qabul qiluvchi ota-onalarni o'rganish.	Tashhis qo'yish (ilk)	Anketa so'rovlari o'tkazish, suhbat
3	Bola bo'lgan muassasa va oilalarga tashrif buyurish (bolalar uyi, inqirozli oila) va boshqalar.	Vositachilik	Kuzatuv, suhbat
4	Bo'lg'usi bola qabul qiluvchi oilani o'rganish.	Tashhis qo'yish (guruhlashgan)	Test o'tkazish, suhbat, hujjatlarni o'rganish
5	Boshlang'ich ta'lim: ma'ruza qilish, hikoya, suhbat o'tkazish, video-fil'mlar ko'rsatish.	Ta'lim berish	Ma'ruza, suhbat, kuzatuv, mashg'ulotlar
6	Bolani oilaga oylashtirish, ota-onalarga chuqur ta'lim berish.	Patronaj	Kerakli metodlardan o'z o'rnida foydalanish

Birinchi bosqich farzandlikka oluvchi ota-onalarni qidirish bilan bog'liq. Berilgan arizalar o'rganib chiqilib, unda mas'uliyatni bo'ynilariga olmoqchi bo'lgan shaxslarning familiya, ismlari, yashash manzili, uy telefoni, bolalarining yoshi, qaysi jinsdagi va necha yoshli bola olmoqchiligi, bola bilan qancha muddat birga bo'lishlari va boshqalar aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu bosqichda ijtimoiy pedagog axborot berish funktsiyasini bajarib, boshqa mutaxassislar bilan birgalikda so'rovnoma o'tkazadi.

Ikkinchi bosqichda ariza topshirgan nomzodlarga anketa yoki boshqa hujjatlarni to'ldirish taklif qilinadi. Unda bo'lajak ota-onalar oila tarixini bayon etishadi: o'z turmush tarzlarini, oila a'zolarining diniy mansubligini, turmush o'rtoqlarining sog'lig'i holatini, moddiy holatlarini, oilaga bola qabul qilish sabablarini xarakterlab berishadi. Anketa yoki axborot xaritasini ijtimoiy pedagog yana o'sha mutaxassislar bilan birgalikda ishlab chiqadi. Shunday qilib, bola qabul qilishga tayyor bo'lgan oilaga o'ziga xos «tashhis» qo'yiladi.

Uchinchi bosqich oila bolalar uyi yoki bola joylashgan boshqa muassasaga ilk tashrifdan iborat bo'lib, bu bosqichda ijtimoiy pedagog bola hamda farzandlikka oluvchi oila o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. U bolani kuzatadi, uning tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan shaxslar bilan suhbatlar o'tkazadi.

Turtinchi bosqich oila va uning atrofdagilarini yaxshilab o'rganishni talab qiladi (chuqurlashgan tashhis). Ijtimoiy pedagog bo'lajak ota-onalar tomonidan to'ldirilgan anketa va ariza bilan tanishib chiqib, bevosita oila bilan tanishadi, oila a'zolari bilan suhbatlar o'tkazadi, undagi pedagogik iqlimni, oila a'zolaridagi odatlarni va boshqa jihatlarni aniqlaydi. So'ngra ijtimoiy pedagog boshqa mutaxassislar bilan birgalikda, oilaning yaqin atrofdagilarini (qo'shnilar, hamkasblar, do'stlar) o'rganib chiqadi. Bu vazifa suhbat yoki maxsus ishlab chiqilgan anketalar yordamida bajarilishi mumkin.

Beshinchi bosqich bo'lajak ota-onalarni boshlang'ich o'qitish bilan bog'liq bo'lib, bola joylashgan muassasada nazariy bilimlarga asoslangan amaliy malaka oshirish o'tkaziladi. Bunda ijtimoiy pedagog ta'lim beruvchi funktsiyasini bajaradi, kurs dasturini ishlab chiqadi.

Oltinchi bosqich farzandlikka oluvchi oilaga topshirish bilan bog'liq. Bu holatda asosiy faoliyat vasiylik va adliya organlari tomonidan bajariladi. Bolani oilaga topshirgan vaqtdan boshlab, ijtimoiy pedagog patronaj o'tkazish funktsiyasini bajaradi. Bolani qabul qilgan oilada ikki tomonlama moslashtirish (oilani bolaga, bolani oilaga) boshlanadi. Bu esa ham bola, ham ota-onalarga muammolar tug'dirishi mumkin. Shuning uchun, bu bosqich kirish kursining davomi bo'lib, ota-onalarni o'qitishning chuqurlashtirilgan kursi o'tiladi. Ijtimoiy pedagog, boshqa mutaxassislar bilan birgalikda yangi dasturni ishlab chiqadi. Qabul qiluvchi oilada ota-onalarni o'qitish mazmuni ko'p holatlarga bog'liq: bolani qanday oila bolalikka oldi (ko'p bolali, bolasiz va boshqalar), qabul qiluvchi ota-onaning yoshi, farzandlikka olishga undagan sabablar, oilaga qabul qilingan bolaning shaxsiyati (yoshi, jinsi, biologik ota-onalarining bor-yo'qligi).

179-moddada vasiy va homiy tayinlash tartibi ko’rsatib o’tilgan. Jumladan, vasiylik va homiylik majburiyatlarini bevosita amalga oshirish uchun vasiylik va homiylik organi vasiy yoki homiy tayinlaydi. Vasiy yoki homiy etib voyaga yetgan har ikki jinsdagi fuqarolar ularning roziligi bilangina tayinlanishi mumkin. Vasiylik va homiylik tayinlash lozimligi vasiylik va homiylik organlariga ma’lum bo’lgan vaqtdan boshlab bir oydan kechiktirmay vasiy yoki homiy tayinlanishi lozim. Vasiy yoki homiyni tayinlash vaqtida uning shaxsiy fazilatlari, tegishli majburiyatlarni bajarishga qobiliyati, mazkur shaxs bilan vasiylik yoki homiylikka muhtoj shaxs o’rtasidagi munosabatlar, shuningdek, vasiylik yoki homiylikka olinuvchining o’z xohishi e’tiborga olinishi lozim.

Vasiy oila sud qarori asosida aniqlanadi. Vasiy vazifalariga bolani har trmonlama tarbiyalash va rivojlantirish, uning huquqlarini himoya qilish kiradi. Vasiy bola tasarrufida bo’lgan ko’char va ko’chmas mulklardan foydalanish va ularni saqlab qolishni ta’minlaydi. Biroq vasiyning o’zi bu mulkdan foydalanish huquqiga ega emas.

Bolalikka oluvchi oilaning yana bir turi mavjud, ya’ni bolani vaqtinchalik qabul qiluvchi oila. Bunday oila bola to’satdan oilasidan ayrilsa (turli sabablarga ko’ra, ya’ni o’z oilasida fojiali vaziyat, o’lim va boshqalar) zarur bo’lib qoladi. Bolani vaqtinchalik qabul qiluvchi oila bolalikni himoya qilish shakllaridan biri sifatida bir qator rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan. Bizning davlatda bunday oila keng tarqalmaganligini sababi, aksariyat hollarda o’zbek millatida ota-onasidan to’satdan ayrilgan bolalarni qarindoshlari, yaqinlari vasiylikka oladilar. Agarda ota-ona vaqtincha biron joyga (xizmat safariga, davolanishga va boshqa sababalar bilan) ketib, o’z bolasi bilan birga yashash va uning tarbiyasi bilan shaxsan shug’ullanishga imkoni bo’lmay, bolasini qarindoshlari yoki boshqa yaqin kishilari qaramog’ida tarbiyalash va nazorat qilish uchun qoldirgan bo’lsalar, bunday bolalarga vasiylik va homiylik belgilanishi shar emas. Ammo bola qaramog’ida qoldirilgan shaxslar uning tarbiyasi bilan shug’ullanmayotganligi va uni nazoratsiz qoldirayotganliklari aniqlangan taqdirda, vasiylik va homiylik organi bolaga nisbatan uning manfaatlaridan kelib chiqib vasiy yoki homiy tayinlashga haqli.

Ayrim holatlarda vaqtincha o’z bolalari tarbiyasi bilan shug’ullanish imkoniga ega bo’lmagan (uzoq muddatli xizmat safariga yoki davolanishga ketayotgan) ota-onalar o’z bolalariga vasiy yoki homiy tayinlashni so’rab vasiylik va homiylik organiga murojaat qilishlari mumkin. OKning 194 moddasida oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar (patronat) haqida ko’rsatib o’tilgan.

Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar vasiylik va homiylik organlari tomonidan aniqlanadi va hisobga olinadi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish o’z mohiyatiga ko’ra, ota-ona qarmog’idan mahrum bo’lgan bolalarni joylashtirish shaklidir. Ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni tarbiga olishni xohlagan fuqarolar (er-xotin yoki erkak va ayollar) tutingan ota-ona, oilaga tarbiyaga berilayotgan bola-tutingan oila deb ataladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ota-ona qaramog’idan maxrum bo’lgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllaridan ancha farq qiladi. Bolani oilaga tarbiyaga berish farzandlikka olishdan o’zining shartnomaviy va vaqtinchalik ekanligini hamda o’zaro ta’minot berish majburiyati vujudga kelmasligi bilan, vasiylik va xomiylikdan esa, munosabatlarni rasmiylashtirish usuli bilan farq qiladi.

Bolalarning tutingan oilaga tarbiyaga berilishi tutingan ota-ona va tutingan farzandlar o’rtasida aliment va vorislik xuquqiy munosabatlarini vujudga keltirmaydi.

Bolani vaqtinchalik qabul qilgan oila vasiylik oilasidan farq qiladi. Agar xorij tajribasiga murojaat qilsak, uning bir nechta belgilarini aniqlash mumkin bo’ladi: bunday oilaning psixologik-pedagogik tayyorligiga mos tushuvchi malakaning mavjudligi; bu oila xizmatlariga haq to’lanishi; bolaning oilada bo’lish vaqti qabul qiluvchi ota-onaning ish staji muddati hisoblanishi va boshqalar.

Bola vaqtincha qabul qiluvchi oilada uning keyingi taqdiri hal bo’lgunga qadar yashaydi. U o’z oilasiga qaytishi, Mehribonlik uyi, internat yoki boshqa muassasaga yuborilishi mumkin. Bolaning o’z oilasiga qaytib kelishi, uni oiladan ajratib olinishi sabablarini bartaraf etilganini nazarda tutadi. Bular ota-onasining davolanishi, oila inqirozining tugashi va shu kabi holatlar.

Bolani bu oilada bo'lishi bir oydan bir necha yilgacha cho'zilishi ham mumkin. Bolani qabul qiluvchi oilada qisqa muddatli bo'lish o'z oilasida inqirozli holatda yoki to'satdan ota-onasidan judo bo'lganda, unga shoshilinch yordam ko'rsatilishini anglatadi. Bolani qabul qiluvchi oilada uzoq muddat bo'lishi bola o'z oilasining uzoq reabilitatsiya jarayoni yoki boshqa sabablar bilan izohlanishi mumkin.
Vaqtinchalik qabul oilasiga kelayotgan bolalar kontingentining murakkabligini (ijtimoiy qarovsiz, kasallik, jismoniy va ruhiy nuqsonlar) inobatga olib, oilalarda bu bolalarning normal rivojlanishi uchun alohida sharoitlar yaratilishi, g'amxo'rlik qilinishi lozim. Bular bolaga boshdan kechirgan qiyin vaziyat bilan bog'liq stress holatidan chiqishga yordam beradi. Bunday oilaning asosiy maqsadi biologik ota-onalar bilan aloqalarni uzmaslik va bolani o'z oilasiga qaytarib berish. Agar bolani o'z oilasiga qaytarishning imkoniyati bo'lmasa, u holda bolaning keyingi taqdiri borasida sud qarori chiqmaguncha, bola vaqtinchalik qabul oilasida bo'lib turadi. Aslida, bunday oila, biologik oilada biror-bir inqirozli vaziyat yuzaga kelganda, "tez tibbiy yordam" vazifasini bajaradi.

4-mavzu. Deviant xulq – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida

Asosiy savollar
1.Bolalarda deviatsiyaning yuzaga kelishi shart-sharoitlari.
2.Deviatsiya turlari. O'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqishi sabablari.
3.Deviatsiya konsepsiyalari.

Tayanch tushunchalar:
Deviant fe'l-atvor, «ijtimoiy normalar», sotsium, delikvent, preventiv pedagogika, Dyurkgeym, Merton Miller, ruhiy va jismoniy chetga og`ish, korrektsion ta'sir, o`smirlik, o`spirinlik yoshi 11-13, 14- 15 yosh, yigitlik davri, uchinchi dunyo, oilaviy muammolar, tashabbuskorlik, zo`ravonlik, papalab o`stirish, notinch oila, assotsial yo`nalishdagi birlashmalar, tasodifiy guruhlar, retrist guruhi, suitsid, «to`da», ekzekutsiya, umumta'lim muassasalari, maxsus muassasalar, viktimologiya, pedagogik korrektsiya markazlari

Umumiy tushuncha;Ijtimoiy-salbiy (deviant) fe'l-atvordagi shaxslar bilan pedagogik ishlarni olib borish muammosini ko`rib chiqish uchun avvalambor, ushbu toifaga kiruvchi kishilarning o`zi kim ekanligini, ularning deviant shaxs bo`lib shakllanishlarining aniq sabablarini aniqlab olmoq zarur.
Norma deganda (lotincha-norma) qonun tusiga kirgan, umumiy majburiy tartib, qoida, qat'iy belgilangan o`lcham, me'yor, marom tushuniladi.
«Ijtimoiy normalar» ifodasi –bu ramziy tarzda belgilangan yoki ijtimoiy amaliyot ta'siri ostida yuzaga kelgan ijtimoiy xulq- atvor qoidalari va kishining jamiyat hayotida, konkret – tarixiy sharoitlarda o`zini namayon etishidir. Bular shaxsning guruhda (ruxsat etilgan yoki majburiy) tashkil topgan, yoki belgilangan fe'l-atvor , yurish-turish standartlarni belgilaydi va ularga rioya etish individ uchun o`zaro xarakat qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.
Ijtimoiy fe'l-atvor normalari qonuniy aktlarda, xizmat vazifasi bilan bog`liq ko`rsatmalarda, qonun-qoidalarda, nizomlarda, boshqa tashqiliy xujjatlarda mustahkamlanadi va shu bilan birga muhitning yozilmagan shaklida namoyon bo`ladi. Ular huquqiy, ahloqiy, diniy va boshqalarga bo`linadi. Ushbu normalar odamning istalgan konkret daqiqada ijtimoiy roliga baho berish mezoni sifatida xizmat qiladi va shaxsning kundalik hayoti va faoliyatida o`zini ko`rsatadi.
Insonning hayotdagi ijtimoiy roli uni ma'lum bir ijtimoiy vazifani umumiy tarzda bajarishida (uni baholashida) ko`rinadi. U kishi shaxsini jamiyatdagi huquqiy xolati (statusi) bilan aniqlanadi va shu bilan birga u o`z navbatida kishining muhitdagi (sotsiumdagi) o`rni, huquqlari va majburiyatlari bilan aniqlab olinadi. Kishining ijtimoiy muhitdagi yurish-turishi, muomalasi, uni jamiyatda o`z rolini tushunishi, unga bo`lgan munosabati, unga bo`lgan intilishi va uni bajarishga bo`lgan xoxish –istagiga bog`liqdir.
Inson jamiyat hayotida bir vaqtning o`zida bir qator: fuqarolik, mutaxassis, o`g`il, ota, aka, o`zaro faoliyat ishtirokchisi, jamoa a'zosi va boshqa shu kabi ijtimoiy rollarni bajaradi. Ijtimoiy

rivojlanish va tarbiyalanish jarayonida inson o`zi bajarishi lozim bo`lgan va o`z-o`zini shaxs sifatida namoyon etish uchun lozim bo`lgan tajribalarni egallab oladi.
Salbiy tomonga o`zgarayotgan yurish-turish, muomala- bu jamiyatda qabul qilingan fe'l-atvor normalari va mo`ljallab qo`yilgan rollarga to`g`ri kelmaslikni anglatadi. Qabul qilingan normadan chetga chiqishni so`nggi paytlarda deviant – (lotincha –deviatio-chetga og`ish) deb, yoki delinkvent – (lotincha - delin-guens-qonunni buzuvchi) deb atashadi. Deviant yurish-turish, muomala deganda odamning ayrim xatti-xarakatlari eki xatti-xarakatlar tizimi, faoliyati tushunilib, ular jamiyatda qabul qilingan normalardan chetga og`ish xarakteriga egadir.
Ko`pincha deviant ahloq, xulq – bu kishining fe'l-atvori, yurish-turishi salbiy xarakter kasb etganini bildiradi. Ular jamiyatda hamma tomonidan qabul etilgan normalarga qarama - qarshidir. Odamning delikvent ahloqi, yurish-turishi shundan guvohlik beradiki - uni chetga og`ayotgan xatti-xarakatlari qonundan chetga chiqmoqda, uning xatti-xarakatlari jinoiy jazoga tortilishiga va unga ma'muriy ta'sirlar o`tkazilishiga loyiqdir.
Odamning va bir guruh odamlarning deviant fe'l-atvorini oldini olish va bartaraf etish bilan shug`ullanuvchi faoliyat bilan bog`liq muammolar bilan ijtimoiy pedagogikaning yana bir tarmog`i preventiv pedagogika (oldini oluvchi, ogohlantiruvchi) ish olib boradi.
Deviant fe'l-atvorli odam qanday sharoitlarda paydo bo`lishi (shakllanishi) haqida turli xil nazariyalar mavjud. Shulardan:
-biologik odamning o`ziga xos tashqi ko`rinishi uni jinoyat sodir etishga, qonunni buzishga moyil ekanligini oldindan bildirib turadi. (Lombrozo, Sheldon);
-psixologik odamning o`ziga xos psixik xususiyatlari uni janjal, nizo chiqarishga, qonunni buzishga tez chalinuvchan, moyil ekanligiga asos bo`lib hisoblanadi (Freyd);
- ijtimoiy odamning deviant fe'l-atvori, yurish – turishi uning olgan tarbiyasi va ijtimoiy muhit o`rtasida kelib chiqqan qarama-qarshilik, ziddiyat natijasida shakllanib bo`lgan, u shaxs tomonidan salbiy ijtimoiy tajribani o`zlashtirishning oqibatidir (Dyurkgeym, Merton Miller va boshq.).
Biologik hamda psixologik nazariyalar shaxsdagi shunday o`ziga xos xususiyatlarni alohida ajratib ko`rsatadiki, ular shaxsni deviant tarzda rivojlanishiga olib keladi, ya'ni odam tug`ilganidanoq ma'lum bir deviantlikka beriluvchan bo`ladi. Ammo, bunday salbiy ko`rinishlar faqat odam uchun nomuvofiq, yomon tarbiya va hayot sharoitlari mavjud bo`lsagina ro`yobga chiqadi va keyinchalik uning salbiy (deviant yoki delikvent) fe'l-atvorini belgilab beradi.
Odamning ijtimoiy salbiy jihatdan fe'l-atvorining chetga og`ishining asosida u tomonidan olingan ijtimoiy tarbiya oqibatlari, shaxsning salbiy ijtimoiy fe'l-atvor tajribalarni o`zlashtirib olganligi etadi. Bu shaxsning salbiy yo`nalganligida (qiziqishlari, extiyojlari, motivlari, maqsadlari, ideallari), salbiy odatlari va shular yuzaga keltiradigan, uning uchun ijobiy bo`lgan sezgilarda (ichki xuzur-xalovat) namoyon bo`ladi. Mana shunday salbiy odatlar shaxsni muntazam tarzda antisotsial, badahloq qiliqlarni takrorlashga undaydi.
Ijtimoiy salbiy (deviant) fe'l-atvorga ega bo`lgan shaxslar bilan bog`liq masalalarni samarali tarzda echish uchun ularning shakllanishiga olib keluvchi asosiy omillarni aniqlab olmok zarur. Turli xil tadqiqotlarning natijalari shuni ko`rsatadiki, bunday omillar etarli darajada ko`p va shu sababli har xil avtorlar ularning turlicha asoslarga binoan guruhlashtiradilar.
Mana shunday omillar guruhlariga quyidagilarni kiritish mumkin:
Ruhiy va jismoniy (fiziologik) rivojlanishda chetga og`ishlar:
A) Bola tug`ilishidan aqliy jihatdan juda past rivojlangan yoki bosh suyagi – miya jaroxatining oqibati;
B) Faol-irodaviy tomondan emotsionallik bilan bog`liq bo`lgan chetga og`ishlar. Bularga tez ta'sirlanish, jazava, qattiq xayajon, g`ayri ixtiyoriy xarakatlar, rohatlanish, huzur qilishga ishtiyoq, o`z atrofidagi odamlar ustidan kulish, mazax qilish, ichiqoralik, zulm o`tkazish, daydilik va boshqalar kiradi;
V) Shaxs sifatida shakllanish jarayonining tugallanmanganligi natijasida bolaning o`z tengdoshlari bilan o`zaro munosabatlari murakkablashadi, ziddiyatlar keltirib chiqaradi.
Bolaning rivojlanishidagi o`ziga xos xususiyatlar va shu bilan bog`liq tarzda kelib chiqish extimoli bo`lgan chetga og`ishlar quyidagi omillar guruhini keltirib chiqaradi.

Tanlab olingan tarbiya uslublari va sharoitining bolaning individual, o`ziga xos xususiyatlariga to`g`ri kelmasligi. Bolaning rivojlanish davridagi turli xildagi chetga og`ishlarni tarbiya jarayonida hisobga olib borishni talab etadi. Tarbiya jarayonida bolaning ba'zi bir salbiy xususiyatlarini oldini olish, tormozlantirish yoki ba'zi ijobiy imkoniyatlarini (bilish, sezgi va irodaviy sohadagi) rivojlantirib borish lozim.

Korrektsion ta'sir qilishning bolani (o`smirning) o`ziga xos rivojlanishiga to`g`ri kelmasligi. O`smirlik davridagi rivojlanishning murakkabligi va o`ziga xosligi maqsadga muvofiq keluvchi, eng maqbul va optimal tarbiyaviy ta'sirlarni xuddi shu yosh davridagi muammolar xarakterini hisobga olgan xolda qo`llashni talab etadi. Mana shu sababli ham tarbiya berishda eng murakkab davr bu - o`smirlik, o`spirinlik yoshi, ya'ni balog`atga o`tish davri (11-13, 14-15 yoshlar) hisoblanadi.

Ijtimoiy rejada o`smirlk, o`spirinlik fazasi – bu dastlabki ijtimoiylashuvning davomidir. Odatda bu yoshdagi o`smirlar maktabda o`qishadi va ota-onasi qaramog`ida (yoki davlat qaramog`ida) bo`lishadi. Bu davr bolalikning tugayotgan va undan "o`sib chiqib kelayotgan" eng murakkab davrdir.

Yoshlik (o`spirinlik, yigitlik) davri (14 yoshdan 18 yoshgacha) xech bir mubolag`asiz, bolalik va ulg`ayish, balog`atga etish oraligidagi "uchinchi dunyo" hisoblanadi.

Biologik jihatdan – bu jismoniy tomondan voyaga etishning tugallanish davridir. Ko`pchilik qizlar va o`spirinlarning aksariyat qismi bu davrga jinsiy tomondan to`la etilgan holda kirib keladi. Ammo ushbu davr yoshi davomida ko`plagan "chala qolgan" masalalar oxirigacha etkaziladi, balog`atga notekis etishish sababli yuzaga kelgan nomutanosiblik bartaraf etiladi.

O`smirlik, o`spirinlik yoshi muammolarini hisobga olmaslik quyidagicha chetga og`ish turlarini yuzaga keltirishi mumkin:

A) o`smirlik yoshidagi psixofiziologik rivojlanishning borishini xarakterlovchi krizisli ko`rinishlari;

- jinsiy etilish davrida juda tez eki notekis tarzda organizmning rivojlanishi;
- yurak-qon tizimining etarli darajada rivojlanmasligi natijasida o`smirning jismoniy va ruhiy ahvoliga ta'sir etishi;
- jinsiy etilish davrida endokrin tizimida "garmonal bo`ron"ning paydo bo`lishi oqibatida o`smirda ortiq darajada xayajonlanish, ta'sirlanish va o`zgaruvchan emotsionallikni vujudga kelishi

B) katta yoshdagilar, eng avvalo, ota-onalar, o`qituvchilar bilan o`zaro munosabatlarning keskinlashuvi. Bunday xolatlar kattalar va kichik yoshdagilar o`rtasidagi ahloqiy tuknashuv, ixtiloflarda namoyon bo`ladi, bola o`ziga qo`yilgan talabalarni qabul qilmaydi, ulg`ayganlik noadekvat tarzda his qilinadi.

V) munosabatlarni "ahloqiy bo`ysunish" pozitsiyasidan "ahloqiy tenglik" pozitsiyasiga o`zgartirishga intilish;

G) kattalar fe'l-atvori va ularning fikr-mulohazalariga nisbatan ortiq darajada tankidiy munosabatda bo`lish;

D) o`z tengdoshlari bilan bladigan o`zaro munosabatlar xarakterining o`zgarishi, muloqot qilishga extiyojning ko`chayishi, o`z shaxsiyatini namoyon qilish, ahamiyatini ko`rsatisha o`ta darajada intilishi ba'zan salbiy ko`rinishlar tusini olishi va boshqalar.

Shaxs shakllanayotgan muhitdagi salbiy omillar:

A) Oiladagi muammolar: to`liq bo`lmagan oilalar, faqat bir bolali oilalar, ko`p bolali oilalar, distant oilalar va boshqa shu kabi xolatlar bolaga etarlicha pedagogik ta'sir qilinmasligida, bola shaxsining shakllanishida faqatgina ota yoki onaning ta'siri bo`lishida yoki tarbiya jarayonida bir bolaga juda katta e'tibor berish va aksincha, tarbiya jarayoniga beparvo qarashda ko`rinadi.

B) Oiladagi salbiy omillar, salbiy vaziyatlar bolada, o`smirda o`z uyiga, oilasiga, ota-onasiga nisbatan salbiy munosabatda bo`lishi tuyg`usini shakllanishiga sabab bo`ladi. SHu sababli bola o`z uyidan, oilasidan bezadi va uyidan ketishga, ko`p vaqtini uyidan tashqarida o`tkazishga xarakat qiladi. Mana shunday xollarda «ko`cha bolalari», qarovsiz, boqimsiz, ko`chada qolgan bolalar kategoriyasi shakllanadi.

Shuningdek, bunday bolalarning paydo bo`lishiga yana:

-uydagi tajovuzkorona, zo`ravonlikka asoslangan sharoit, bolaga nisbatan juda qo`pol muomalada bo`lish;
-bolaning qiziqishlariga, muammolariga mutlaqo e'tibor bermaslik;
uzoq vaqt mobaynida ota-ona o`zlarining shaxsiy muammolari bilan bo`lib, bolaning o`z xoliga tashlab qo`yishi, tarbiyasi bilan shug`ullanmasligi;
-bola tarbiyasini buvasi va buvisining zimmasiga yuklashi va ularni qo`llab-quvvatlanmasligi. Yoshlari o`tib, qarib qolgan buva va buvilar o`z nabiralariga zarur tarbiyaviy ta'sirni o`tkazishga ojizlik qilishadi va natijada nabiradar nazoratsiz qoladilar. Ko`pincha, xali juda yosh paytlaridanoq qariyalar nabiralarning nojo`ya qiliqlariga beparvo qarab, salbiy odatlariga yo`l qo`yadilar. Natijada bora-bora o`sha nabiralar endi kattalarni «boshqara» boshlaydilar.
Tarbiyadagi kamchiliklar, bolada sog`lom qiziqishlar, ishtiyoq, sabr-toqat, serxafsala, sabotlilikning yo`qligi.
G) Bola shaxsining rivojlanish jarayonida muhitning salbiy ta'siri (uy sharoitida salbiy qiziqishlar, ko`chaning salbiy ta'siri, bola rivojlanishida o`yin imkoniyatlaridan pedagogikaga zid ravishda foydalanish va boshqalar).
D) Bolaga yaqin kishilarning bolaga nisbatan salbiy ta'siri. Eng avvalo kattalarning, ota-onasining antipedagogik fe'l-atvori, tengdoshlarining salbiy yurish-turishi, muomalasi va xakozo.
E) Ommaviy axborot vositalarining, ayniqsa televidenie va video mahsulotlarining salbiy ta'siri.
Bola, o`smir tarbiyasidagi kamchiliklar:
A) Oilaviy tarbiyada yo`l qo`yiladigan kamchiliklar.
B) Nozik nihol qilib, papalab o`stirish, bolani murakkab hayotiy muammolardan, xar qanday faol faoliyatidan chetlantirish. Oqibatda bola bag`ritosh, qahri qattiq, etilmagan, bachkana bo`lib o`sadi, hayotda qiyinchiliklarni engib o`tishda irodasizlik qiladi.
V) Umumta'lim muassasalarida, ayniqsa bolalar bog`chasida, maktabda ta'lim-tarbiya olish jarayonida yo`l qo`yilgan kamchilik va nuqsonlar.
G) Tarbiyada salbiy-ahloqiy yo`nalganlik.
D) Bola, o`smir ongiga ma'lum bir salbiy ko`rinishdagi hayot modelini va faoliyatini (hayotda o`z-o`zini namoyon qilishi, o`z shaxsini mavqeini amalga oshirishda) singdirish. Bunday xollarda shaxs o`zini turli xil sarguzasht kahramonlari bilan tenglashtiradi, o`zini ularning o`rniga qo`ya boshlaydi, kino kahramonlarini faoliyat turlarini, fe'l-atvorlarini «o`ziga o`lchab» ko`ra boshladi. Bunda ayniqsa, televidenie, video va kinoning salbiy roli juda katta.
E) Notinch oiladan chiqqan bola, o`smirdan (tartibni buzuvchi, yomon ahloqli odamlarga yaqin bo`lgan) salbiy odatlar, qonunbuzarlik qilinishini kutish, Ularga ishonchsizlik bilan qarash. Mana shunday «kutish», taxmin qilish aksariyat xollarda bolani to`g`ridan to`g`ri yoki bilvosita qonunni buzishga undaydi.
J) Bolani, o`smirni spirtli ichimliklarga, giyohvand moddalarga, chekishga, qimor o`yinlarga o`rgatish.
Z) Bolaga tarbiya berishda ota-ona o`rtasida birlik, hamfikrlikning yo`qligi, oilaning maktab bilan aloqasidagi nuqsonlar hamda oila, maktab va ma'muriy organlarning bolalar va o`smirlar bilan ish olib borishida o`zaro hamkorlikning yo`qligi va boshqalar.
I) Qayta tarbiyalash tizimida yo`l qo`yilgan kamchiliklar, qonunbuzarlarni to`g`ri yo`lga solish, tuzatish va keyinchalik ularni ijtimoiy muhit sharoitida adaptatsiya kildirishdagi nuqsonlar.
Bola, o`smir egallagan shaxsiy salbiy hayotiy pozitsiya:
A) O`smirning o`z-o`ziga baho berishida chetga chiqishi:
o`z shaxsiga yuqori baho berishi – o`zini-o`zi yuqori darajada safarbar etishga, odatlantirishga olib keladi va o`z fikrini badahloqlik bilan ifodalash bilan qo`shilgan xolda u qonunbuzarlikka yo`llaydi.
o`z shaxsiga past baho berishi - o`ziga ishonsizlikni, xardamxayollikni, ikkilanishni yuzaga keltiradi. Bu shaxs uchun jamoada muammolarni keltirib chiqaradi, o`z fikrini erkin ifoda etishiga to`sqinlik qiladi.
B) Shaxsiy da'vo, talablarini izhor etishda chetga og`ish. Bular odatda o`z-o`ziga baho berishda chetga og`ish oqibatida kelib chiqadi. Da'vo talablar xususan, o`smirning shaxsiy pozitsiyasini belgilab beradi, o`z maqsadiga erishishda ularning faolligini oldindan aniqlaydi.

V) Ahloqiy jihatdan o`z-o`zini shakllantirishga intilmaslik.
G) Fe'l-atvordagi chetga og`ishlar mavjud bo`lgan o`smirlarda o`z shaxsini ahamiyatini ko`rsatish, tan oldirishda salbiy yo`l to`tish, nosog`lom raqobat, baxslashish.
D) Bola, o`smir va o`spirinlarning shaxs sifatida shakllanishlarida murakkabliklar va o`z-o`zini tuzatishga bo`lgan extiyoj va unga faol ravishda intilish.
E) o`smirning muloqot qilishga, yoshlar davrasida qatnashishga intilishi, shu jumladan asotsial yo`nalishdagi birlashmalarda ishtirok etishga xarakat qilishi. Bunday birlashmalarda deviant fe'l-atvorli yoshlar bo`lib, ular jamiyat o`rnatgan tartib-qoidalarga zid harakat qiladilar.
Bular:
- Tasodifiy guruhlar. Masalan, diskotekalarda, stadionlarda va boshqa jamoat joylarida mushtlashuvlarni boshlaydigan yoshlar. Ular o`zlarining yozilmagan guruhiy norma va qadriyatlariga ega bo`lishadi. Bunda o`sha tasodifiy guruhga kirish xuddi ijtimoiy nazoratdan ozod etilganlik belgisi sifatida qabul qilinadi va ushbu o`smir uchun xuddi «tormozni bo`shatib yuborish» imkoniyati tug`ilgandek bo`lib tuyuladi. Bundan tashqari, individning olomon ichida sodir etgan xarakatlarini xech kim bilmagan, sezmagandek va bu beboshlikni hamma sodir etgandek bo`lib tuyulishi juda yaxshi ma'lum.
- Retrist guruhlar. (retrizm deganda sotsiologiya va psixologiyada odamning hayot qiyinchiliklaridan qochishi, real xaqiqat, voqelikdan ketishi, uzoqlashishi tushuniladi. Voqelikdan ketishning eng oxirgi varianti – bu suitsiddir). Retrist guruhlarning odatdagi mashg`uloti – ma'nisiz, maqsadsiz vaqt o`tkazish, shubhali ermaklar, o`yin – kulgilar, toksikomaniya va giyohvandlik(narkomaniya)dir.
-Tajovuzkor guruh – birovning boshqa birovga bo`ysunishi to`g`risidagi eng ibtidoiy tasavvurlarga asoslanadi va ularda madaniyat deyarlik bo`lmaydi. Bunday tipdagi guruhlar ibtidoiy jamoa davridan to xozirgi kungacha deyarlik xech o`zgarishsiz etib keldi. Bunda qattiq ierarxik tizim, guruh a'zolariga ko`pchilikning zo`ravonlik bilan o`z xukmini utkazish, guruh qoidalarini buzganligi uchun qattiq jazo choralarini ko`rilishi va shularning psixologik asosi, negizi bo`lib, «bizlar-ular» degan keskin qarama – qarshi shiorning qo`yilishi agressiv guruhning o`zga xos xarakterli xususiyatlari hisoblanadi. Bu «to`da» a'zolari asosan janjalkash, chalasavod va madaniyatsiz oilalardan chiqqani sababli ularda fikrlash darajasi ham juda ibtidoiy bo`ladi. O`smir guruhda o`ziga xos soxta jamoatchilik maktabini bosib o`tadi. Tavakkal qilish, «romantiqa», zolimlik, shafqatsizlik va razillik hamda pastkashlikni o`rganadi. Guruhda uni moddiy tomondan ta'minlashadi va u hamma narsani bajara olishi, qilishi mumkin ekanligi uqtiriladi. Bunday «to`dalar»ni asosli ravishda yoshlar bandalari (ugri va kotillar tudasi) deb ataladi.
Shuni alohida ta'kidlash joizki, kishini shakllanish jarayonida eng nozik, zaif davri, bu boshlang`ich va o`smirlik davri bo`lib, ushbu bosqichda salbiy fe'l - atvor stereotipi paydo bo`lishi mumkin. Bola, o`smirda deviantlikni shakllanishida oila eng muhim omil sifatida tan olinadi. Bolalar va o`smirlarning deviant fe'l-atvorining ijtimoiy-salbiy shakllarini oldini olish va bartaraf etishda pedagogik faoliyatning asosiy yo`nalishlaridan quyidagilari ajratib ko`rsatiladi:
Birinchidan:Bolalar fe'l-atvori, yurish-turishi, muomalasini ijtimoiy jihatdan chetga og`ishini oldini olishda oilaning rolini oshirish.
Barcha illat, kusurlarning ildizi oilada ekanligi qadim zamonlardan beri hammaga ma'lum. Oila hayoti uchun zarur bo`lgan qulay sharoitlar yaratib berilsa ko`pchilik muammolar, shu jumladan, oilada bola tarbiyasi ham muvaffaqiyatli xal qilingan bular edi. Ushbu yo`nalishdagi masalani amalga oshirish oiladan tashqari va oila ichidagi xarakterga ega bo`lgan bir qator muammolarni xal etishni talab etadi.
Eng avvalo, bo`lg`usi ota-onalarni oilaviy hayotga hamda o`z farzandlarini tarbiyalashga tayyorlash muammosini xal etish lozim.
Oilaviy tarbiya masalalari juda qadim davrlardan beri ¡zbek halqining diqqat markazida bo`lgan. SHarq mutaffakirlari Al- Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiylar ham yoshlarni bo`lg`usi ota-ona sifatida yoshligidan tarbiyalash haqida o`z fikrlarini bildirishgan. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur ham ushbu masalaga juda katta e'tibor bergan.

Xozirgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va bola tarbiyasiga o`rgatish quyidagi bo`limlarni o`rganishni lozim deb topadi:
Oilada o`zaro munosabatlarning asosi;
Sharq mutafakkirlarining oilaviy tarbiya haqidagi fikrlari;
Oila ichidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar, ularning kelib chiqish sabablari, kelishmovchiliklarning oldini olish va bartaraf etish;
Oila xo`jaligini yuritish asoslari, oila iqtisodi;
Bolani, o`smirni turli yosh davrlarida oilaviy tarbiyaning asoslari (ushbu yo`nalish ko`pincha maktab yoki bola o`sib borishi jarayonida oila bilan ish olib borish markazlari orqali hal etiladi) va boshq.
Bevosita, ota-onalarni bola tarbiyasiga o`rgatishga tayyorlash masalasi anchagina keng pedagogik muammodir. Bu xususda ham o`zbek halqi qadimdan boy tajriba to`plangan. Onalar o`z qizlarini doimo oilaviy hayotga, bolaga qanday tarbiya berishga ularning bo`yi etgan sari tarbiyalab borishgan. Qiz bolalarga alohida, o`g`il bolalarga alohida bo`lg`usi ota-ona sifatida pand-nasihatlar qilingan. Ular doimo o`z ota-onalaridan ham namuna olishgan. SHu sababli ham «onasini ko`rib qizini ol» maqoli bekordan aytilmagan.
Ikkinchidan: oilada va oila ichidagi o`zaro munosabatlarda eng maqbul ruhiy – ma’naviy vaziyatni yaratish.
Oiladagi sharoit-bu usib kelayotgan odamning dunyoqarash asoslari shakllanadigan muhitdir. Bola eng kichik paytlardan boshlab muhitda o`sadi, tarbiyalanadi, odamlar o`rtasida munosabatlar qanday bo`lishini o`zlashtiradi (erkakning ayolga, kattalarning bolalarga, bolalarning kattalarga nisbatan), madaniy fe’l-atvor va yurish-turishining, muloqotda bo`lishining, xordiq chiqarish va shu kabilar. Asoslari bilan tanishadi.
Shuning bilan birga oilada bo`lg`usi oila boshlig`i, oilani yaratuvchi, mustahkamlovchi va oila imkoniyatlarini amalga oshiruvchi odam shakllanib boradi.
Shuni ta’kidlash kerakki, oiladagi ahloq normalariga to`g`ri kelmaydigan sharoit (ichqilikbozlik, urush-to`polon, baqiriq-chaqiriqlar, qo`pollik va zo`ravonlik, so`kinishlar) bolaga salbiy ta’sir ko`rsatishi bilan birga, uni ruhiy jarohat olishiga ham olib keladiki, keyinchalik uni tuzatish juda og`ir kechadi. Oilaning asosiy muammolari yoki yomon tarbiya olish o`sib borayotgan odamning ma’naviy, ruhiy va jismoniy rivojlanishiga yomon ta’sir etadi.
Uchinchidan, oilaviy tarbiyada xatoga yo`l qo`yishni oldini olish. Odatda xar bir normal oilada o`z bolalarini to`g`ri tarbiyalashga intilishadi. Ammo ota-onalarning pedagogik jihatdan tayyor emasliklari ko`pincha bir xil xatoliklarga yo`l qo`yilishiga olib keladi. Ular ichida eng xarakterlilarini aytib o`tamiz. Masalan: ota-onaning antipedagogik xulq-atvori bolalarga namuna bo`lib xizmat etadi. SHuningdek, ota-onani oilada o`z xukmini zo`ravonlik bilan o`rnatishi, bo`ysundirish, gerdayish, maydakashlik, ezmalanish, tinmay nasihat qilish, pora berib o`z tomoniga og`dirib olish va shu kabilar «qalbaki obro`» orttirishga kiradi.
Ota-onalar bilan bolalar o`rtasidagi o`zaro aloqaning yo`qolganligi, bolalar bilan o`zaro normal munosabatlarni o`rnatishga hamma oilalar ham erishavermaydi. Oilada bolalar bilan ichki insoniy munosabatning yukolishi ota-onalarga o`z farzandlariga maqsadga muvofiq pedagogik ta’sir etish imkoniyatlarini pasaytiradi. Bu ayniqsa o`smirlik yoshidagi bolalar bilan bo`ladigan munosabatlarda juda katta ahamiyat kasb etadi.
Tarbiya jarayonida ota-onalar tomonidan yo`l qo`yiladigan tipik xatolar: beparvolik-takabburlik bilan, mensimasdan muomala qilish; to`rt tomondan ximoyaga o`tib olish, ya’ni «meni bolam hamma vaqt haq» - deydi; namoyishkorlik- bola xuzurida uning fazilatlarini faol maqtash; maydakashlik bilan doimo boladan shubhalanish; tarbiyada qattiq avtoritar usulni tanlash; tinmay pand-nasihat qilish, befarq bo`lish; «oila ko`rki, piri, sanami» tipida tarbiya berib, unga sig`inish; ota-ona o`rtasida tarbiya borasida birdamlik, hamjihatlikning yo`qligi, tuturuqsizlik va boshq.
To`rtinchidan, bolada mustahkam ahloqiy qadriyatlarni, ahloqiy pozitsiyani shakllantirish.
Gap bolani o`z shaxsini baholashida o`zining kelgusi pozitsiyasini aniqlab beruvchi bosh mohiyatini, negizni shakllantirish haqida boradi. SHunda bola o`z atrofidagi odamlarga, bo`laetgan xodisalarga, o`z xatti-xarakatlariga, fe’l-atvoriga to`g`ri baho beradi, o`z ustida faol va maqsadli

ravishda ishlaydi. Ahloqiy tarbiyani bola eng kichik paytlardayoq boshlamoq zarur. Bunga e'tibor bermaslik, o`zi bulariga tashlab qo`yish kelgusida yomon oqibatlarga olib keladi.
Beshinchidan, bolada eng kichik yoshlaridan boshlab irodaviy sifatlarini va o`z qadr qimmatini bilish sifatlarini tarbiyalash. Bu kishida ahloqiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishga yordam beradi.
Irodaviy sifatlar – bu shunday muhim vosita, qurolki, u yordamida kishi o`z imkoniyatlarini to`la ishga soladi, o`z nuqtai nazarini ximoya etadi, o`zligini saqlab qoladi. Irodaviy sifatlarni yo`qligi kishini podadagi ongsiz molga aylantiradi va ko`pincha ijtimoiy salbiy etakchi ta'sirga tushib kolishiga sababchi bo`ladi. Aksariyat xollarda u ijtimoiy havfli guruh xarakatlarining katnashchisiga aylanadi.
Oltinchidan, bolaning irodasini bukib qo`yuvchi zo`ravonlik, kuch, jabr-zulmni ishlatmaslik. Bunday qilish bola irodasini bukadi yoki aksincha, unda kuchga sig`inish hissini shakllantiradi. O`zidan kuchsizlarga, ojizlarga nisbatan tajovvuzkorlik, zo`ravonlik qilishga rag`batlantiradi.
Mutaxassis - psixologlar tarbiyada majbur qilish usulini amalga oshirishlarida juda ehtiyot bo`lishni maslahat qilib, quyidagilarni hisobga olishni ta'kidlashadi:
Uch yoshdan kichik bolalarga jismoniy jazo bermaslik kerak, chunki bu ularning faolligiga ta'sir etadi;
Bolalarni va ayniqsa o`smirlarni ularning tengdoshlari yonida jazolamaslik. Odamlar xuzurida bolani kamsitish, xo`rlash irodani bukadi, psixikani jaroxatlaydi.
10 yoshdan katta bo`lgan kizlar va 14 yoshdan katta o`g`il bolalarni, ular qanday ayb qilgan bo`lsalarda kuch ishlatib jazolash mumkin emas. O`tish yoshidagi davrda ayniqsa bunday qilish yaramaydi, chunki bunda bola jiddiy psixik jarohat oladi va uni o`z ota-onasidan bezishiga, begonalashuviga olib keladi.
Bolani sovuqqonlik bilan shafqatsiz jazolash, o`ziga xos ekzekutsiya uyushtirish mutlaqo to`g`ri kelmaydi.
Ota-onalar tomonidan doimo bolalarni jazolash bilan qo`rqizish ham tarbiyaga salbiy ta'sir etadi. Bolalar bunga o`rganib kolishadi va keyinchalik e'tibor berishmaydi. Ota-ona, tarbiyachi bolaga jazo berayotib uning shaxsini doimo xurmat qilish kerakligini esdan chiqarmasliklari kerak.
Ettinchidan, bolalar va o`smirlarni spirtli ichimliklarni iste'mol qilishlariga, chekishlariga, qimor o`yinlariga yo`l quymaslik.
Xozirgi zamon sharoitida o`smirlar va o`spirinlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ko`pchiligini ular mast xolda, narkotik moddalarni iste'mol etishlari natijasida sodir etayotganlari hammaga ma'lum. SHu sababli bola yosh paytidanoq unga oldin oilada, keyin esa bog`cha va maktabda alkogol va narkotik moddalarning kishi organizmi, psixikasi uchun o`ta havfli ekanligi tushuntirib borilishi kerak.
Sakkizinchidan, bolani o`zini o`zi tarbiyalashga, o`z ustida ishlash metodikasiga o`rgatish.
Tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri- odamni o`zini o`zi tarbiyalashiga tayyorlashdan iborat ekanligi kadim zamonlardan beri ma'lum.Odam ulg`aygan sari uni o`zini o`zi takomillashtirishdagi roli ortib boraveradi. Bu sohada ham oilaning ta'siri juda kuchlidir.
Bolalar va o`smirlarning deviant fe'l-atvorlarini oldini olish va bartaraf etishda umumta'lim muassasalarining tarbiyaviy rolini oshirish.
Maktabda maxsus tayyorlangan pedagoglar ishlamog`i kerak. Pedagogik faoliyatda yo`l qo`yiladigan xatolar tarbiya ishida qimmatga tushishi mumkin. Umumta'lim muassasida bola yana bir tarbiyachi – tarbiyachilar jamoasi bilan to`qnash keladi. U turli guruhlarga kiradi va ularning ta'sirini o`zida sezadi. O`qituvchi, tarbiyachi tarbiyalanuvchiga bevosita ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo`libgina qolmasdan, balki bevosita, ya'ni o`zi o`qiyotgan fani, sinf jamoasi, o`rtoqlari va mikroguruh orqali ham ta'sir o`tkazadi.
Umumta'lim muassasasining tarbiyaviy rolini oshirish yo`llari quyidagilardir:
o`qituvchi, tarbiyachilar tayyorlashning sifatini oshirish, ularda yuqori pedagogik madaniyatni shakllantirish;
umumta'lim muassasasi sharoitida pedagogik faoliyat uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish;
O`qituvchlar tarkibi o`z-o`zini takomillashtirishga intilishi, o`zining pedagogik mahoratini tinmay oshirib borishi;

Umumta’lim muassasalarida deviant fe’l-atvorli bolalar va o`smirlar bilan individual ish olib borish maqsadida ijtimoiy xizmat ko`rsatishni yo`lga qo`yish, ular o`qituvchilar va ota-onalarga deviant bola bilan yakkama – yakka ish olib borganda yordam beradi.
Umumta’lim muassasalari sharoitida o`qishdan tashqari bolalar va o`smirlar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish tizimini yaratish.
Oila va maktab o`rtasidagi maqsadga muvofiq o`zaro aloqani rivojlantirish.
Bu deviant bolalar va o`smirlar fe’l-avtorini oldini olish va bartarf etish uchun oila, maktab va ma’muriy organlar o`rtasida yo`lga qo`yiladi. Oila va maktabning o`zaro yaqin aloqasi, birligi bolalar va o`smirlarga tarbiyaviy ta’sir o`tkazishni yanada ko`chaytiradi, shu sababli:
ota-onalar uchun maktab koshida metodik seminarlarni (ota-onalar lektoriylari, seminarlari) tashkil etish;ota-onalar kumitalari rolini oshirish, ota-onalar va o`qituvchilar o`rtasida aloqani ko`chaytirish;
vasiylik qiluvchi ota-onalar tashkilotlarini tuzish;
ota-onalarni sinfda, maktabda o`tkaziladigan tadbirlarga faol qatnashishlarini ta’minlash;
o`qituvchilar tomonidan bolaning uyiga borib, o`qish, dam olish sharoiti bilan tanishishlarini yo`lga qo`yish va boshqa shu kabi tadbirlar juda katta ahamiyatga egadir.
Bolaning rivojlanishi, tarbiyalanishi jarayonida uning muloqot qilish doirasi, o`zaro xarakatiga maqsadga muvofiq tarzda ta’sir etish va boshqarib borish.
Bolaning rivojlanishi va tarbiya olishida uning bilan bevosita aloqada bo`ladigan kishilarning ta’siri juda kuchli bo`ladi. Bu kishilarning obro`si, ta’sir kuchi, inontirish mahorati, bola irodasini o`ziga bo`ysundirish qobiliyati, ularning bolaga, o`smirga qay darajada ta’sir etishlariga, bu ta’sirni qaysi yo`nalishda olib borishlari bilan belgilanadi. Afsuski hamma jamoalar, hamjamiyatlar ham tarbiyaviy jihatdan ijobiy xarakterda deb bo`lmaydi. Mana shu faktning o`zi ham ota-onalar, tarbiyachilardan bolaga tarbiyaviy ta’sir o`tkazishlarida, boshqalar orqali, guruh va jamoalar orqali ta’sir o`tkazishda ehtiyot bo`lishni talab etadi. Ular o`z tarbiyalanuvchisini deviant, kriminogen shaxslar, guruhlar, hamjamiyatlar ta’siriga tushib qolishdan saqlashlari va aksincha, unga ijobiy, progressiv shaxslar, guruh hamda jamoalar ko`prok ta’sir o`tkazishlariga erishmoklari kerak.
Maktabdan tashqari oilaga maslahat berish va unga yordam ko`rsatish tizimini rivojlantirish orqali boladagi deviant fe’l-atvorni bartaraf etish.
Xozirgi kunlarda ¡zbekistonda oila bilan ishlash, unga moddiy va ma’naviy yordam berish buyicha davlat hamda nodavlat markazlari tuzilgan va tuzilmoqda. Muhimi shundaki, bunday oilalar, deviant bolalar bilan ishlovchi kishilar maxsus tayyorlangan, malakali mutaxassislardan iborat bo`lmog`i kerak. Ular bolaning diagnostik ko`rikdan o`tkazishi va uy sharoitida ular bilan ish olib borishi uchun tavsiyalar bermoqlari lozim.
Bunday markazlarda bolalarni qaraydigan kunduzgi bo`limlar bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, bu bo`limda bolalar qulay sharoitda o`z shaxsiy imkoniyatlarini namoyish etishlari, maslahat olishlari, o`quv mashg`ulotlariga tayyorlanishlari, ya’ni do`stlar orttirishlari, madaniyatga oshno bo`lishlari mumkin.
Afsuski, xozircha bepul ishlovchi va kam ta’minlangan oilalarga mo`ljallangan markazlar va kunduzgi bo`limlar juda oz va ular ham ota-onalar va bolalar bilan ish olib borish tajribasini endi o`rgana boshladilar.
Deviant bolalar va o`smirlar fe’l-atvorining oldini olish va bartaraf qilish, ularni qayta tarbiyalash bo`yicha maxsus muassasalar rolini oshirish.
Dezadaptatsiyalashgan bolalar va o`smirlar uchun maxsus umumta’lim muassasalari bo`lib, unda qayta tarbiyalash va reabilitatsiyalash ishlari olib boriladi. Bunday muassasalar asosan yopiq yoki yarim yopik tipda bo`ladi. Bu muassasalarga bolalar sud xukmi bilan yoki balog`atga etmagan bolalar ishi bilan shug`ullanuvchi bo`lim yo`llanmasiga binoan topshiriladi. Ularni qayta tarbiyalash uchun turli imkoniyatlardan, xususan mehnat tarbiyasidan, o`qitish, ta’lim jarayonidan, madaniy dam olish faoliyatidan, jamoaning tarbiyaviy ta’sirlaridan va yakkama-yakka ish olib borish usullaridan foydalaniladi. Qayta tarbiyalovchi markazlarga bolalarni maxsus komissiyalar yuboradi eki markaz mutaxassislari maktab, balog`atga etmagan yoshlar bilan ish olib boruvchi bo`limlarning

tavsiyalari bilan shunday muammoli oilalarga kelib, bolalarni o`sha maxsus muassasalarga taklif etadilar.
Ijtimoiy pedagogik muammoli bolalar, o`smirlar va o`spirinlar deviant fe'l – atvorini tuzatish markazlari tarmog`ini rivojlantirish.
Bunday markazlarda bolalar: pedagogik korrektsiya, pedagogik reabilitatsiya qilinadi. Bolalar va o`smirlar alkogolizmi, giyohvandlik kasalliklari tibbiy-ijtimoiy, pedagogik tarzda tuzatiladi hamda zo`ravonlik va ijtimoiy viktimologiya qurbonlari reabilitatsiya qilinadi.
Viktimologiya- (lotincha – victima –qurbon Q logos-fan, ta'limot) ya'ni zo`ravonlik qurbonlarining xulq-atvori, yurish- turishi haqida ta'limot.
Pedagogik korrektsiya qilish markazlari yosh bolalar bilan ish olib boradi. Bolaning yosh paytidanok pedagogik korrektsiya qilish (to`g`rilash, tuzatish) uni to`laqonli rivojlanishiga, keyinchalik esa uni jamiyatda o`z o`rnini topib olishiga, rivojlanishida chetga og`ishlar sodir bo`lmasligiga yordam beradi.
Pedagogik reabilitatsiya markazlari. Bular pedagogik reabilitatsiyaga muhtoj bo`lgan turli toifadagi, yoshdagi odamlarga muljallangan. Bu erda ular yo`qotilgan muloqot qilish tajribasini, yurish-turishni, kasbiy faoliyatlari va boshqalarni qaytadan tiklab, egallab olinadi. Ayniqsa zo`ravonlik qurbonlari bilan ish olib borishning pedagogik muammolari alohida e'tibor berishni talab etadi. Xozirgi zamon sharoitida, afsuski, bunday kishilar soni tobora ko`payib bormokda. Halqaro amaliyotda zo`ravonlik qurbonlari bilan reabilitatsion ish olib borish tajribasi bor. Bizning mamlakatimizda esa bunday tajriba endi paydo bo`lmoqda. U maxsus nazariy ishlar olib borilishini va turli kategoriyadagi zo`ravonlik qurbonlari bilan amaliy ish olib borish tajribalarini tadqiq etishni talab qiladi.
Yoshlar o`rtasida alkogolizm va giyohvandlikning oshib borishi ham tibbiy-ijtimoiy-pedagogik xarakterdagi maxsus markazlarni tezroq ochishni talab etmoqda. Bunday markazlarda vrachlar, psixologlar va ijtimoiy pedagoglar o`z kuch va bilimlarini birlashtirib ishlashlariga to`g`ri keladi. Shuningdek maxsus umumta'lim muassasalari, qamoqxonalardan jazo muddatini o`tab, ozodlikka chiqqan shaxslar adaptatsiyalanishi uchun ham maxsus reabilitatsion markazlarni tashkil etish zarurligini zamonaviy amaliyotning o`zi ko`rsatib turibdi. Ular ham adaptatsiyadan o`tishi, ishga joylashishda yordam olishlari shart, aks xolda o`smir juda murakkab vaziyatga duchor bo`ladi va u avvalgi yurish-turishiga, qisqasi jinoyat yo`liga yana qaytadi.
Tarbiyasi «qiyin» usmirlar anomalligi o'kishda (o'kishi qiyin, yomon kechali, dangasa) va xulkida (intizom va tarbiyaga rioya kilmaydi) namoyon bo`ladi. «Kiyin bolalar» - jamiyatga zid yunalishdagi, bekaror axlokli, irodasi bush, pedagogik ta'siriga doim karshilik kursatib keluvchi yoshlardir. Maktab mikyosida ular kup uchramaydi (bir sinfda ikki – uchtadan). Ammo sinf, maktab xayotiga, uning axlokiy muxitiga jiddiy ta'sir kursatadi. «Kiyin» bolalar o`quvchilarning kam kismini tashkil etsa xam ular o`quv – tarbiyaviy ishlarda barqarorlikka jiddiy tusik bo`ladilar. Ular maktabda va undan tashkarida (oilada, kuchada, dam olish joylarida va x.k.) tartibsizlikni vujudga keltiruvchilar xisoblanadi. Shuning uchun xam «qiyin» bolalar maktabda xam, undan tashqarida xam o`qituvchi va barcha jamoatning e'tiborida turishi kerak.
Tarbiyasi qiyin bo`lganlarning kelib chiqishining ijtimoiy psixologik va psixologik pedagogik sabab va omillarni besh guruxga ajratish mumkin:
1. Nokulay oilaviy muxit, ota – onalari urtasidagi ziddiyatli vaziyatlar.
2. O'qishga bo`lgan qizikishning pasayib ketishi va shu munosabat bilan o'qishdan sovib ketishi (60 – 70 % voyaga etmagan jinoyatchilar bir sinfda ikki yil ukigan).
3. Ijtimoiy faolligi past va maktab jamoasida noqulay xolat mavjud.
4. Mikromuxitning salbiy ta'siri, salbiy referent gurux ta'siri.
5. Biror faoliyat yuzasidan o`z moyilligini, qizikishini namoyon qilish imkoniyati bo'lmasligi.
Psixolog – pedagogik nuqtai nazaridan o'smirlar bilan ishlaydigan katta yoshdagilar quyidagi qoidaga rioya qilishlari lozim: ko'p nasixat qilavermang; o'smir xis – tuygularini xurmat qiling; xayotda mustaqil bo'lishga o`rgating; ko'p dakki beravermang; do'q– pupisa qilmang.
Ijtimoiy – pedagogik boshqaruv va ijtimoiy jarayonlarni nazorat qilish ob'ekti sifatida yoshlar jinoyatchiligining oldini olish maktab, ichki ishlar bo'limi, voyaga etmaganlar jinoyatchiligiga

qarshi kurash organlarining birgalikdagi tadbirlari tizimi doirasida amalga oshirilishi kerak. Shundan kelib chiqib dastlabki talablar olga suriladi: mazkur faoliyat samaradorligi uchun xizmat qiladigan ob'ektiv jarayonlar va xodisalarni xisobga olib borish; tarbiyaning noqulay sharoitiga va shaxsni noto`gri yo'lga kirishning boshlanishiga o`z vaqtida e'tibor berish maqsadida ijtimoiy – pedagogik istiqbol metodlaridan foydalanish; usmir shaxsning individual – psixologik va ijtimoiy sifatlarini xisobga olish.

O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining 1994 yil 29 dekabrdagi 332 – sonli buyrugining ilovasida keltirilgan metodik tavsiyalar mazkur ishlarni amalga oshirishda muayyan yordam beradi.

Deviant xulq–atvorli bolalarni reabilitatsiya qilish yo`llari

Tarbiyalovchi funktsiya bolani atrof muxitga kirishishi ta'lim tarbiya jarayonida addaptatsiya, ijtimoiylashtirish jarayonini amalga oshrishni ko`z da tutudi.

Ijtimoiy reabilitatsiya bolalar uchun davlatni bolalarga ramxo'rligi

Ijtimoiy-reabilitatsion funktsiya. Ruxiy jismoniy nuqsonga ega bolalar ta'lim- tarbiya bolalarni tarbiyalash funktsiyasi pedagog tomonidan amalga oshiriladi.

1. Bola ongida barcha jonli mavjudotga muxabbat ijodiy tushunish, vijdoniylik tuygusipi tarbiyalash lozim
2. Atrofdagi odamlar bilan mulokotga kirishishga urganish xayot maqsadida va mazmunini anglatadi.

Ommaviy axborot vositalari ijobiy imkoniyatlaridan foydalanish va bolalar hamda o`smirlarni ularning salbiy ta'siridan muxofaza etish.

Ommaviy axborot vositalarining bolalar va o`smirlar dunyoqarashining shakllanishida roli juda katta. Zamonaviy OAV tinglovchilar tarkibini hisobga olmasdan turli-tuman axborotlarni efirga o`zatishadi. Xozirgi zamon oilalarining aksariyati, ayniqsa bolalar va o`smirlar videotexnika mahsulotlaridan nazoratsiz qolib juda ko`p foydalanadilar. Videomahsulotlari esa zo`ravonlikni, erkin seks va oson biznes qilish kabi yaramas, ahloqsiz ko`rsatuvlar namoyish qiladi. Bunday axborotlar ba'zi televidenie kanallarida ham tinmay ko`rsatiladi. Mana shularning barchasi mustahkam ahloqiy asoslarga ega bo`lmagan o`smirlarda asta-sekin noto`g`ri, o`zbek millatiga xos bo`lmagan fe'l-atvor normalarini, dunyoqarashni shakllantiradi. Albatta, o`zbek televideniesi, radio to`lqinlarida bunday salbiy va ko`rsatuv va axborotlar berilmasada, zamonaviy o`ziga to`q oilalarda ko`plab televizion stantsiyalarning kanallarini bemalol olib, tomosha qilayotgan yoshlarni hisobga olmay bo`lmaydi. Mana shunday xollarda ota-onalarning roli, nazoratlari juda kattadir. Maqsadga muvofiq bolalar tarbiyasiga rahbarlik qilish ularning xar tomonlama rivojlanishiga yordam berib, ahloqiy jihatdan buzilishlaridan saqlab qoladi. Shuningdek, zamonaviy bosma mahsulotlar (jurnallar, gazetalar, kitoblar va boshq.) ta'sirini ham hisobga olish zarur. Ular ham bir tomondan bolalar tarbiyasida faol foydalanishi mumkin bo`lsa, ota-ona, tarbiyachilar nazoratisiz o`qiladigan, xar xil fohishabozlik, qotillik, giyohvandlik, oson yo`l bilan pul topib, maishat qilib yashashga oid g`arb davlatlariga xos bo`lgan hayot tarzini targ`ib etuvchi kitob va jurnallar bizning millatimiz yoshlari tarbiyasiga juda katta zarar etkazadi.

Har bir odamning o`z axborot extiyojlari bo`ladi. Axborot olishga bo`lgan extiyoj odamning ijtimoiy yetuklik omili, uning faolligi, o`zini namoyon qilishi, o`z mavqeini, o`rnini belgilab olishi sifatida namoyon bo`ladi. Odamning informatsion-pedagogik madaniyati degan tushuncha mavjud. Bu kishining tarbiyalanganligining ko`rsatkichi, uning turli xildagi OAV ga, ularning mazmuni, sifati va axborotlar xajmiga, ulardan maqsadga muvofiq o`z bilimlarini oshirishda hamda o`zini-o`zi tarbiyalashda foydalanishiga bo`lgan munosabatidir. Demak, xar bir ota-ona o`z farzandlarini bosma nashrlardan ham eppasiga ukimasdan, aksincha, tanlab o`qishga, OAV taklif etayotgan ko`rsatuv va axborotlarga ham tanqidiy tarzda yondashib, ularni tanlab (saralab) ko`rishga va eshitishga o`rgatmoklari kerak.

Bolalar va o`smirlarni ijobiy (pozitiv) ijtimoiy markazlar, tashkilotlar (sport, madaniy xordik chiqarish, turistik, teatr va boshq.)da qatnashishga jalb etish.

Bunday markazlar ko`pincha katta shaxarlarda tashkil etiladi. Ular odatda ijtimoiy nodavlat eki tijorat xolida bo`ladi. Ularga yoshlar o`qishdan keyin jalb qilinib, sog`lom qiziqishlar targ`ib etiladi. Markazga turli toifadagi, shu jumladan, fe'l-atvori chetga og`uvchi yoshlar ham tortiladi. Ammo,

tijorat maqsadida tashkil etilgan markazlarda bolalar va o`smirlarning o`ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi tarbiyasiga mos keladigan tadbirlar tashkil etilishi ehtimol uzoqdir.
O`z-o`zini tarbiyalashni, o`zidagi salbiy sifatlar va odatlarni tuzatish va bartaraf etish buyicha mustaqil faoliyatini faollashtirish, yosh o`smirga o`zi ustida ishlashida yordam berishi.
Yoshlarni o`z-o`zini tarbiyalashlarini faollashtirish, faqatgina oilaning ishi bo`libgina qolmasdan, balki umumta'lim muassasalarining, ijtimoiy pedagoglarning, pedagogik korrektsiyasi bilan shug`ullanuvchi ixtisoslashtirilgan markazlarning pedagogik jihatdan reabilitatsiyalash, qayta tarbiyalash va tuzatish kabi muassasalarning ham kundalik ishi bo`lmog`i lozim. Ijtimoiy pedagogika ob'ekti o`z ustida maqsadli ravishda ishlashga jalb etish, o`sha shaxs tarbiyalanayotgan muassasadagi pedagogik muhitning ijobiyligidan darak beradi. Deviant shaxs bilan ish olib boruvchi tarbiyasi o`smirni o`z ustida ishlab, kamchilik va fe'l-atvordagi qusurlarni mustaqil tuzatishga ishontira olsa, ijtimoiy tarbiya ob'ekti endi o`z-o`zini takomillashtirish sub'ektiga aylanadi.
Odamning o`zidagi salbiy xulq-atvor ko`rinishlarini yo`qotish maqsadida o`zini o`zi tarbiyalay boshlashida eng muhimi - u o`ziga tankidiy ruxda bo`lishi, o`z xatti-xarakatlarini o`ylab ko`rib, taxlil etishida , o`z-o`zini bilish, o`zini boshqara bilish, o`z ustida maqsadli tarzda ishlay bilish metodikasidan xabardor bo`lishidadir. Bunda, ayniqsa kishi qaltis vaziyatlarda boshqa odamlar bilan o`zaro xarakatda bo`lgan xolda o`zini boshqara bilishi, o`ziga buyruq bera olishidadir.
Shunday qilib, deviant fe'l-atvorning mohiyati, mazmuni va ularning paydo bo`lish sabablari hamda bolalar va o`smirlar fe'l-atvorining chetga og`ishini oldini olish va yo`qotishdan ijtimoiy pedagog faoliyatining asosiy yo`nalishlari ko`rib chiqildi.
Ijtimoiy pedagogning tarbiyasi og'ir o'spirinlar bilan ish olib borish
Maktab ijtimoiy pedagogikasining asosiy muammosi tarbiyasi og'ir o'spirinlar hisoblanadi. 12-16 yoshli o'g'il-qizlar o'spirin hisoblanishadi. Bu davr shaxs shakllanishi jarayonida nihoyatda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga ham o'smirlar ham tarbiyachilar uchun qiyin davrdir.
O'spirinlik yoshida bolaning hayot sharoitlari va faoliyati ancha o'zgaradi, ruhiyatining qayta qurilishi ro'y beradi. Tengqurlari bilan muomala qilishning yangi shakllari paydo bo'ladi. Jamoada o'spirinning ijtimoiy maqomida o'zgarishlar ro'y beradi,ota-onalar va ustozlar tomonidan unga talablar kuchayadi
Bu yoshda o'spirinning vaqtinchalik oila va maktabda ruhiy ajralishi sodir bo'ladi. O'spirinning shakllanishida ota-onaning ahamiyati pasayadi. Odatda u rasmiy jamoa va norasmiy muomala guruhini tanlash bilan band bo'ladi va oxir oqibat o'zini qulay sezadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'linadigan guruhni tanlaydi. Bu sport, texnika to'garagi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga bu guruh o'smirlar yig'ilishib, ichib-chekib o'tirishadigan erto'la ham bo'lishi mumkin.
Bu yoshda o'spirinlarning kattalar xususan ota-onalar bilan muammolari paydo bo'ladi. Ota-ona o'z farzandiga yosh bolaga bo'lganday qarashadi, bola esa bu g'amxo'rlikdan chiqib ketmoqchi bo'ladi. Shuning uchun uning kattalar bilan munosabatida ko'p nizolar kelib chiqadi, bolada kattalar fikrlariga tanqid bilan qarash kuchayadi. Kattalar bilan munosabatlar xarakteri ham o'zgaradi: bo'ysunish pozitsiyasidan bola tenglik pozitsiyasiga o'tmoqchi bo'ladi. Bir vaqtning o'zida tengdoshlar bilan ham o'zaro munosabatlarning xarakteri o'zgaradi. O'zpirinda kattalik xissi tug'iladi va xissiyot mustaqil bo'lishga intilish, kattalarning xohish istaklariga qarshi chiqishda namoyon bo'ladi. Kichkina bolaga qaraganda o'spirinning qiziqishlari ham ancha o'zgaradi. Ijodiy faoliyatga intilish bilan bir qatorda o'spiringa qiziqishlarning beqarorligi ham xosdir.
Shunday qilib o'spirinlik yoshining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ajratsak bo'ladi: emotsional voyaga etmaganlik, o'z xulq-atvorini to'liq nazorat qila olmaslik, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyat va xohishlarini to'g'ri baholay olmaslik, katta bo'lishga intilish.
O'spirin etarlicha voyaga etgan shaxs emas. U insonning eng muhim xislatlari va jihatlari shakllanishi bosqichida bo'lgan shaxsdir. Bu bosqich bolalik va kattalik o'rtasidagi davrdir. Shaxs hali o'zini katta deb hisoblashi uchun etarli rivojlanmagan, biroq shu bilan birga atrofdagilar bilan munosabatga kirishishi va o'z harakatlarida ijtimoiy norma va qoidalar talablariga amal qilishi uchun etarli rivojlangan.

O’spirin aqlli qarorlar qabul qilishga ongli harakatlar sodir etishga va ular uchun axloqiy va huquqiy jihatdan mas’ul bo’lishga qodir. Shuni ta’kidlash joizki, o’spirin o’z xatti-harakatlari uchun huquqiy javobgarlikka tortiladigan shaxsdir. Garchi qonun voyaga etmaganlarning ijtimoiy psixologik rivojlanishini inobatga olib, ular uchun cheklangan javobgarlikni belgilasa ham katta o’spirinlik va o’smirlik davrini shaxsiy javobgarlik bilan xarakterlanadigan yosh deb qabul qilsak bo’ladi.

Tarbiyasi og’ir o’spirinlar jismoniy jihatdan sog’-salomatdirlar, biroq ularning ta’lim-tarbiyasi buzilgan. Ular o’z tengdoshlaridan o’qishda ortda qoladilar, chunki ularda xotira, tafakkur va tasavvur xislari yaxshi rivojlanmagan.

Garchi ular o’zlariga qiziqarli narsani bajarishsa ham ular mehnat qilishni yoqtirishmaydi, o’zlarini biror ishni bajarishga majbur qila olmaydi, ular tizimli shug’ullana olishmaydi. Tarbiyasi og’ir o’spirinlar maktab intizomi va tartibini buzishadi, o’qishni xohlashmaydi, o’qituvchilar, tengdoshlar, ota-ona bilan nizolashadilar. Maktabni tashlab ketishadi, o’zlarini omadsiz deb bilishadi, ular daydilik qilishadi, spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste’mol qilishadi, huquqbuzarliklar sodir etishadi. Aynan o’spirinlar jismoniy yoki jinsiy zo’rlik oqibatida o’z jonlariga qasd qilishadi.

O’spirinlarning pedagogik jihatdan tarbiyalanmaganliklari ijtimoiy pedagogik hodisa bo’lib, oilaviy va maktab tarbiyasining kamchiligidir, maktabdan tashqari tarbiya ishining qoniqarsiz yo’lga qo’yilganligi natijasidir. Amaliyotda isbotlanganidek o’spirinni o’rab turgan bu mihit shakllari odatda ijtimoiy pedagogik darajalari, yo’nalishlari, o’spiringa ta’sir qilish jihatidan turli bo’ladi. Agar oila, maktab, maktabdan tashqari muassasada bolani tarbiyalovchi omillarni boshqarsa, ko’cha-ko’yda ularni boshqarib bo’lmaydi. Bu tarbiya jarayonida aks etmasligi mumkin emas. Chunki o’spirinlar bo’sh vaqtlarining aksariyati aynan ko’chada o’tkazishadi. U erda ularning muomalasi, ya’ni eng muhim ijtimoiy ehtiyojlaridan biri shakllanadi. O’quvchi o’spirinlar uchun asosiy faoliyat bu o’qishdir. Biroq o’qish tarbiyasi og’ir o’spirinlar uchun o’qituvchilar va tengqurlarining hurmatini qozona olish vositasi emas. Shuning uchun ular o’zlariga muhim bo’lgan faoliyatni maktabdan tashqarida izlashadi. Aynan shu erda, o’zi kabi o’spirinlar davrasida ularga yomon xislatlar va qo’pollik uchun tanbeh berishmaydi, aksincha bu kamchiliklarni kattalik alomati deb bilishadi.

Biroq hozirgi kunda maktabda, yashash joylarida bolalar bilan birgalikda ijtimoiy ish olib borish amaliyoti paydo bo’lmoqda. Bu faoliyat mikrotuman va maktabda ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishning yagona rejasi bo’yicha maktab va barcha ijtimoiy xizmatlarni bolalar tarbiyasi va himoyasi muammosini echish uchun birlashtiradi. yagona reja buiycha ish yuritish maktab pedagogik jamoasining faoliyatini tubdan o’zgartiradi. Pedagoglar maktabdan tashqari bolalar muassasi, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari faoliyatiga qo’shilishadi va ular bilan yaqin hamkorlikda bo’lishadi.

Bu faoliyatda asosiysi bola hisoblanadi, shuning uchun pedagogik jamoa faoliyati maktab devorlari ichida qolib ketmaydi, ular bolaga, oilasiga, bolalar birlashmalariga, tengdoshlar muhitiga murojaat qilishadi.

Pedagogik tarbiyasi og’ir bolalar bilan ishlashda ijtimoiy pedagog maktab va maktabdan tashqari jamoaning ularning xulq-atvoriga ta’sirini o’rganadi. Ular bilan ish olib borishda yaxshi natijalarga erishish uchun bir qator shartlarni bajarishi lozim:

-O’spirin bilan aloqa o’rnatish;

-O’spirin bilan yaxshi o’zaro munosabatlarni o’rnatish;

Uning reaktsiyasi, fikri, intilishlari, qiziqishlari, kelajakdagi rejalarini o’rganish.

Psixolog A.B.Filonov tomonidan ishlab chiqarilgan pedagogik texnologiya ham samarali hisoblanadi. Unda ijtimoiy pedagogning o’spirin bilan aloqasining bir nechta bosqichlari ko’rsatilgan:

-Qarashlarida roziliklarning to’planishi;

-Uning qiziqishlarini bilib olish;

-O’smirlikning roziligi;

-Xususiyatlari va sabablarini tushunish;

-Uning shaxsiyatining salbiy xislatlarini o’rganish;
Yurish-turish va o’zaro munosabatning umumiy normalarini ishlab chiqish100.
Yu.V.Vasilkova tarbiyasi og’ir o’spirinning tarbiyasiga bosqichma-bosqich yondoshuvni ilgari suradi101:
-O’spirin bilan yaxshi munosabatlarni o’rnatish;
-O’spirinning shaxsiy ishi bilan tanishib chiqish;
-Pedagogik tarbiyasi og’irligining sabablarini aniqlash;
-Psixologik va ijtimoiy pedagogik xaritalarini tuzish;
-O’spirin shaxsiyatiga ijobiy ta’sir qiluvchi faoliyat turini tanlash;
Tarbiya va o’z-o’zini tarbiyalash jarayonining birlashishi, o’spirin faoliyatini o’z-o’zini mukammallashtirishga qaratish.
Tarbiya jarayoniga kompleks yondoshuv o’spirinlar guruhlari paydo bo’ladigan mikro muhitlarga faol ta’sir qilishni talab qiladi. Kriminologlarning ma’lumotiga ko’ra voyaga etmaganlar aksar jinoyatlarini guruh bo’lib sodir etishadi. Biroq voyaga etmaganlar orasida huquqbuzarlikni bartaraf etish bo’yicha ko’pgina tafsiyalar indevidual profilaktika tavsiyalari hisoblanadi. Amaliyotda isbotlanganidek ajratib olingan o’spirinning huquqbuzarliklarini bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat har doim ham kutilgan natijalarga olib kelmaydi. Bu holat huquqbuzar o’spirinning yashash joyidagi guruhning a’zosi bo’lganligi va uning xatti-harakatlari guruh kayfiyati, ularning hayot tarzi, fikrlashi, boshqa a’zolariga bog’liq bo’lishi bilan izohlanadi. Demak biz pedagogik tarbiyasi og’ir bolalar bilan individual faoliyat olib borishning muhimligini e’tirof etgan holda o’spirinlarni o’rab turgan mikro muhit bilan o’zaro aloqalarini o’rganish zarurligini ham ta’kidlab o’tamiz.
Pedagogik ta’sirlarning kompleks tizimi, tarbiya vositalari, shakl va mazmunini bildirib, bu faoliyatning maqsadi deb pedagogik tarbiyasi og’ir bolalarni sinf jamoasi, o’qituvchilar, sinfdoshlar bilan munosabatlarining normallashuvi natijasida o’smir guruhlarning rejali qayta to’g’irlash hisoblanadi. Bu munosabatlarning normallashuvi o’smir shaxsning shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko’rsatadi.
Tarbiyasi og’ir o’smirlar bilan ish olib borish ommaviy so’rovnoma va anketa to’ldirish bilan amalga oshiriladi. Bu usullar pedagogik qarovsiz o’smirlar guruhlarining qaerda paydo bo’lganligi haqida ma’lumot olish imkonini beradi.
Tarbiyasi og’ir o’smirlar bilan ish olib borishda pedagog quyidagi parametrlarni inobatga olishi lozim: guruh hajmi, ularning yosh va ijtimoiy tarkibi, muomala qilish joylar va vaqti, guruh faoliyatining mazmuni va yo’nalishi. Muomalaning bu parametrlarini bilsh tarbiyachiga tuman, shaharda o’smir guruhlari bilan ishlashning eng to’g’ri va samarali shakl-vositalarini qo’llashga yordam beradi. ijtimoiy pedagog o’smirlar guruhining ijtimoiy tarkibini bilish ham muhim. Ijtimoiy tarkibi turli bo’lgan o’smirlar guruhlarida o’zaro axborot almashuv va muomala qilish qiziqarli bo’ladi. Biroq bu guruhlarda hayot haqida yolg’on tasavvurlarga ega ma’lumotlar ham tarqatilishi mumkin. Tarbiyachining vazifasi:
Guruhdagi muomalaning mazmunini bilish;
Tarbiyaviy ta’sirni to’g’ri tashkil qilib, ma’lumotni to’g’ri tomonga yo’naltirish.
Guruhlarning o’rganilishi va taxlili qilinishi lozim bo’lgan mashg’ulotlarini ikki turga ajratsak bo’ladi-vaqt bo’yicha –doimiy va nodoimiy, yo’nalishi bo’yicha-ijobiy (mehnat, sport, san’at bilan mashg’ul bo’lish) va salbiy (chekish, alkogol mahsulotlarini iste’mol qilish, qimor o’ynash).
Tarbiyasi og’ir o’smirlar guruhlari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning uslublari va texnologiyalari quyidagilar:
Maktab yordamida:

100Л.П.ФилоновДезадаптивўспиринларбиланреабилитацияжараёнидаалоқаўрнатиштехнологияси. Замонавий шароитларда болалар ва ўсмирлар реабилитацияси муаммолари ва тажрибаси. М, 1994. 127-143 б.
101 Ю.В.Василкова, Т.А.Василкова Социал педагогика. М:Академия, 2003. 362-363 б.

-maktab va maktabdan tashqari o'smirlar jamoasi yordamida tarbiyaviy ta'sir (sektsiya, klub, to'garaklar);
-intizomli, a'lochi o'quvchilarning pedagogik qarovsiz sinfdoshlariga ta'siri. Bu yo'nalish bir-biri bilan do'stlashish xohishi, o'zaro muomalaga talab bo'lganda juda muvafaqqiyatli amalga oshib, uning asosida qiziqishlar umumiyligi (sevimli sport turi, texnika, musiqa va boshqalar bilan shug'ullanish) yotadi. Bu yo'nalishning amalga oshirishning muvafaqqiyati ko'p borada o'qituvchi, sinf rahbarining mohir rahbarligiga bog'liq.
-sinf jamoasining pedagogik qarovsiz o'smirlarga ta'siri. Bunaqa birgalikdagi faoliyat (sayohatga chiqish, spartakiadalar, san'at festivallari, ko'rgazmalar, jamoaviy harakatlar)ni talab qiladi. Sinfda jamoaviy ishlarga jalb qilingan pedagogik qarovsiz bolalar nafaqat o'zlari uchun balki jamoa uchun ham mehnat qilayotganlarini va ularning ishtirokiga ko'p narsa bog'liqligini anglab etishadi. Bunaqa faoliyatlarda og'aynichilik aloqalari vujudga keladi, boshqalarga nisbatan to'g'ri munosabat shakllanadi, yuksatilgan vazifa uchun mas'uliyat xissi ortadi;
-pedagogik qarovsiz bolalarga tarbiyaviy ta'sirning ko'rib chiqilgan yo'nalishlari mikrotuman tarbiyaviy ishida maktab jamoasi bilan birgalikda va bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.
Maktabdan tashqari o'smirlar jamoasi yordamida tarbiyaviy ta'sirni tashkil qilishda quyidagi holatlarni inobatga olish lozim:
-birinchidan to'garak, sektsiya, klubda o'smirlarda aniqlangan bitta qiziqish bilan cheklanmaslik lozim (akvariumistika yoki sport bilan shug'ullanish) balki mehnat, turli o'yinlar, ijodiy faoliyat orqali pedagogik o'smirlarni atrofdagilar bilan normal munosabatlarga tayyorlashga intilish lozim.
-ikkinchidan, norasmiy guruhga yoki uning aksariyat a'zolariga ta'sir ko'rsata turib ularni rasmiy guruhga o'tishlariga erishsa bo'ladi. Bu jarayonni shartli ravishda "rasmiylashtirish" deyishadi. Bu jarayon o'smirlar uchun sezilmaydigan holda tarbiyachi tomonidan norasmiy guruhning rasmiy guruhga aylanishidir.
Pedagogik qarovsiz bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishning yana bir xususiyati o'smirlarni o'zi tanlashgan, uning bajarilishidan qoniqish sezishadigan faoliyatni tanlashdir. Asta-sekin faoliyatdagi bunday ehtiyojni qondirish va rivojlanish, keyinchalik uni o'smirlarda bajarayotgan ishlari uchun mas'uliyat xissini oshiruvchi faoliyat turlari bilan to'ldirib borish lozim.
Tarbiyasi og'ir bolalar yoki o'smirlar bilan ish olib borish pedagogik qayta tarbiyalash jarayonini ko'zda tutadi.
Qayta tarbiyalash-bola yoki o'smir yurish-turishidagi turli cheklanishlarni engib o'tish yoki bartaraf etishdir. qayta tarbiya ham tarbiyachi ham tarbiyalanuvchilar uchun ham og'ir jarayondir. Tarbiyalanuvchi yangiyulning istiqboli bilan qiziqishi lozim. Tarbiyachi esa tarbiyalanuvchining o'tmishi, bugungi kunini tahlil qilib uning kelajagini tasavvur etishi lozim.
O'smirni qayta tarbiya yoki o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlash jarayoni bir necha bosqichdan iborat:
- Tarbiyalanuvchini o'rganib chiqish;
-O'smirning yurish-turishini o'zgartirish uchun uning ruhiy tayyor qilish;
-Ijobiy axloqiy xislatlarni to'plash;
Inqirozdan chiqish, o'z-o'zini tarbiyalashga o'tish.
Shuni ham inobatga olish kerakki, bu jarayonga tarbiyachidan tashqari o'smir mansub bo'lgan tarbiyalanuvchilar jamoasi ham qo'shiladi. Bunda tarbiyachi koordinator vazifasini bajarib, jamoani o'z o'rtoqlarini qayta tarbiyalashga yo'naltiradi. O'smirlar bilan reabilitatsion markazda ishlayotgan ijtimoiy pedagog metodlardan biridan foydalanib tarbiyalanuvchi oldida idealga o'xshash maqsadini qo'yadi. Bu axloqiy komil inson o'smirning ijobiy yurish-turishning shakllanishiga yordam beradi.

Nazorat uchun savollar.
1.Chetga og`ayotgan hamda salbiy (deviant) fe'l- atvorli odam deganda nimalar nazarda tutiladi?
2.Preventiv pedagogika nima bilan shug`ullanadi?
3.Deviant fe'l-atvorli odam qanday sharoitlarda paydo bo`ladi?
4.O`smirlik, o`spirinlik, yigitlik davriga qaysi yoshlar to`g`ri keladi?

5.SHaxs shakllanaetgan muhitdagi salbiy omillarni aytib bering?
6.Bola o`smirda deviantlikni shakllanishida oilaning roli qanday?
7.Deviant fe'l-atvorni oldini olish va yo`q qilishda umumta'lim muassasalarining tarbiyaviy roli qanday?
8.Ommaviy axborot vositalarining bolalar va o`smirlar tarbiyasiga ta'siri haqida nimalarni bilasiz?
9.Odamning o`zidagi salbiy xulq-atvor ko`rinishlarini yo`qotishda o`z-o`zini tarbiyalashning roli qanday?

5-mavzu:Jinoyatchilik bolalarda g'ayriqonuniy hatta-harakatning nomoyon bo'lishi shakli sifatida.

Asosiy savollar

1.Voyaga yetmagan bolalardagi jinoyatchilik muammosi.
2.Jinoyat sodir etishning muammolari
3.Voyaga yetmagan xuquq buzarlar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat

Tayanch tushunchalar: Delikvent, delinkventlik, individual profilaktik ta'sir, yuksak ma'naviyat, muhit, irsiyat, sog'lom turmush tarzi.

1-savolning bayoni: Voyaga etmaganlar bolalardagi jinoyatchilik muammosi.
Balog'at yoshiga etmaganlar va yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik butun dunyoda eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Bunday jinoyatchilikning o'sishi eng avval rivojlangan kapitalistik mamlakatlar uchun xosdir. Balog'at yoshiga etmaganlar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning asosiy sabablari deb g'arb mutaxassislari yoshlar o'rtasidagi ishsizlikni, yoshlarning kelajaklariga ishonmasliklari, jamiyatni boshqarish hozirgi zamon usullaridan qoniqmasliklarini ko'rsatadilar. Masalan, Germaniya politsiyasi ma'lumotlari bo'yicha 1996 yili hibsga olingan hamma huquqbuzarlardan 14 % doimiy ish joyiga ega emas edi. Aniq harakatlar bilan o'g'rilik qilgan jinoyatchilar orasida ishsizlar to'rtdan bir qismini tashkil etdilar, ular tomonidan shaxslarga nisbatan jinoyatlar 28 %, 34 % bosqinchiliklar amalga oshirilgan o'abr mutaxassislari balog'at yoshiga etmaganlar orasida jinoyatchilikning o'sib borishi sabablari haqida boshqa fikrlarni ham aytadilar. Masalan, balog'at yoshiga etmaganlar uchun odil sud va huquqbuzarlikni olidini olish AQSH federal byurosi rahbari A.Regneri o'smirlar orasida jinoyatchilikning asosiy sabablari oilalarning buzilishi, bolalar bilan beraxm munosabatlarda bo'lish, bolalarning ta'lim olish va tarbiyalanish huquqlarining buzilishi, yashash uchun qulay sharoitlarining bo'lmasligi va natijada bolalarning uydan ketib qolishlari deb hisoblaydi. Konnektikut shtatida balog'at yoshiga etmaganlarni tekshirish juda jiddiy zulm o'tkazgan jinoyatchilar orasida 75 % o'zlariga ham ota-onalari va boshqa shaxslar tomonidan shavqatsiz munosabat ko'rsatilganini aniqlab berdi. Ular kuch ishlatib jinoyat sodir etishlarning umumiy sonidan 33 % ni sodir etganlar.Yaponiyalik mutaxassislar o'z mamlakatlarida balog'at yoshiga etmaganlar jinoyatlari hozircha o'sib borishi sabablarini o'ziga xos baholaydilar. Ular jinoyatchilik o'sishi turmush sharoitlaring, farovonlikning o'sishi va o'qish bilan, oilada tarbiyaning etarli bo'lmasligi, oilaning an'anaviy qadriyatlari buzilishi, individualizmning namoyon bo'lishi bilan bog'liq oqibatlar-stresslar sababli deb hisoblaydilar. Yaponiyada o'tkazilgan tekshirishlar balog'atga etmagan huquqbuzarlar ko'pincha ota-onasiz o'sgarlar, hamda kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar bo'lib chiqishini ko'rsatdi. Rossiyalik mutaxassislar ham jinoyatchilikning o'sishini ko'rsatadilar. Hozirgi davrda o'smirlar Rossiyada aholining eng kriminogen zararlangan qismi hisoblanadilar. O'zbekiston Respublikasi jinoyat Kodeksiga binoan balog'at yoshiga etmagan huquqbuzar deb jinoyat sodir etish paytiga kelib 14 yoshga to'lgan, lekin hali 18 yoshga to'lmagan shaxslar hisoblanadilar. Balog'at yoshiga etmaganligi javobgarlikni yumshatuvchi holat sifatida qaraladi. Masalan, balog'at yoshiga etmaganlarga nisbatan ba'i bir jazolar ko'zda tutilmagan, xususan, o'lim jazosi.O'zbekiston Respublikasi sud amaliyotida xukmni ijro etishni kechiktirishdan keng foydalanishni alohida ta'kidlash kerak, bundan hozirgi kunda ozodlikdan

mahkum etiladigan hamma balog‘at yoshiga etmaganlarning taxminan yarmiga nisbatan qo‘llanilmoqda. Bundan tashqari, huquqbuzarlarning ma’lum qismi (20 % dan ortig‘i) jazo berilishdagi yoki jinoiy javobgarlikdan ozod etilmoqda. Bu ishlar bo‘yicha materiallar yoki balog‘atga etmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga yuboriladi yoki ularga nisbatan majburiy tarbiyalash choralari qo‘llaniladi, masalan, quyidagilar:

1) ogohlantirish;

2) ularni ota-onalari yoki ularni o‘rnini bosuvchi shaxslar, yoki maxsus davlat organlari nazoratiga topshiriladi.

3) keltirgan zararini qoplash majburiyati yuklatiladi.

4) bo‘sh vaqti cheklanadi va boshqalar.

Tarbiyaviy ta’sir choralarini muntazam bajarmay kelgan holatida sud jinoiy javobgarlikka tortishi mumkin.Shunday qilib, haqiqatda jinoiy jazolar jinoiy jazonadigan harakatlar amalga oshirgan o‘smirlarning yarmidan kamiga nisbatan qo‘llanilmoqda. Alohida balog‘at yoshiga etmaganlar uchun mumkin bo‘lgan jazo (amalga oshirish) asosiy turi ozodlikdan mahrum etish hisoblanadi, bu jazoni ular tarbiyalash koloniyalarida o‘taydilar. Agarda huquqbuzarlik sodir etgan o‘smir 14 yoshga to‘lmagan bo‘lsa (ya’ni jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga to‘lmagan bo‘lsa) uni maxsus o‘quv-tarbiyaviy tashkilotga yuboradilar.Ijtimoiy-pedagogikada delikvent hulqi deb o‘rnatilgan huquqiy qoidalarni buzish va xuquqbuzarlikka olib keladigan hulqi tushuniladi:

Delikvent (lotincha delingnens - huquqbuzar) - hulqi o‘zining keskin ko‘rinishlarida jinoiy jazolanadigan harakatlardan iborat xulqi yomon sub’ekt.

Delikventlik (lotincha delingnens – jinoiy harakat amalga oshiruvchi huquqbuzar) – sotsiologiyada va yurisprudensiyada militsiya ro‘yxatida turadigan yoki jinoiy jazoga olib kelishi mumkin bo‘lgan qoidabuzarliklarga muntazam amalga oshiruvchi tarbiyasi qiyin o‘smirning qonunga xilof harakatlarini ko‘rsatish. Shuni ham alohida aytish kerakki, balog‘atga etmaganlar va yoshlar ishlari bo‘yicha Komissiya, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, mahalla jamoyatchiliklari, maktab o‘qituvchilari va ota-onalar tomonidan birgalikda katta profilaktik ishlarni amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda balog‘atga etmaganlar orasida jinoyatchilik kamayib bormoqda. Ana shu haqida 7.03.04 ___ “Do‘stlik” kanalining radioeshittirishida Chirchiq shahrining prokurori yordamchisi Anora Ergasheva gapirdi. Lekin shular bilan birga Chirchiq shahridagi bezorilik qilmishlari holatlari haqida gapirib o‘tdi. 2003 yili 10-sinf o‘quvchisi Nikitin Evgeniy militsiyaga qo‘ng‘iroq qilib uning maktabida bomba qo‘yilganligini xabar qiladi, 2004 yili fevral oyida boshqa ikki o‘quvchilar KorshunovAleksandr 9-sinf o‘quvchisi va 6-sinf o‘quvchisi Nosov Ivanlar ularning maktablarida bomba yashirilgan deb militsiyaga qo‘ng‘iroq qiladilar. Qoidabuzuvchilarni darhol topdilar. Lekin, bundan avval maktabdan hammani evakuatsiya qildilar, mutaxassislar – saperlar keldilar. Darslarni bekor qilish, mutaxassislarni chaqirish davlat uchun 60 ming so‘mga tushdi. Keyinchalik bolalarning birinchi darslari yo‘qligi va ular zerikkalarida militsiyaga qo‘ng‘iroq qilganliklari ularning gaplaridan ma’lum bo‘ldi. Ikkala o‘quvchilar ham yaxshi oilalardan bo‘lib chiqdilar: Nosovning otasi ham, onasi ham bor, Korshunov.A.ning oilasida ikkita bola va uning oilasi moddiy ta’minlangan, yaxshi oila bo‘lib chiqdi. Ota-onalari bolalari tarbiyasida qandaydir kamchilikka yo‘l qo‘yganlar, ularning bo‘sh vaqtlarini, dam olishlarini tashkil eta olmagandirlar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ota-onalar o‘z farzandlari uchun javobgarlar deb yozib qo‘yilgan. Portlash moslamasi haqida yolg‘on chaqiruv – bu jinoiy jazolanadigan jinoyatdir. Agarda bola qo‘ng‘iroq qilgan bo‘lsa, uning ota-onasidan jarima undiriladi, agarda o‘smir bo‘lsa uni balog‘atga etmaganlar ishlari bo‘yicha Komissiya ro‘yxatiga oladilar. Tarbiyalash koloniyalaridagi balog‘atga etmagan hukm etilganlarning Yoshi xususiyatlari Jinoyat kodeksiga binoan, tarbiyalash koloniyalarida ozodlikdan mahrum etishga hukm etilganlar, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan balog‘atga etmaganlar hamda ular 21 yoshga etguncha tarbiyalash koloniyalarida qoldirilishga hukm etilganlar jazo o‘taydilar.Yoshi ko‘p jihatdan insonning jismoniy holatini, uning xulqini, qiziqishlarini, hayotdagi imkoniyatlarini belgilashi hammaga ma’lum. Jazoni o‘tash davrida ham

yoshi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ular tarbiyalash jarayonini tashkil etishda, hukm etilganlar jamoalarini tuzishda va boshqalarda hisobga olinadi. Balog‘atga etmagan jazolanuvchi – bu o‘smirdir. O‘smirlik davri organizmning keskin jismoniy rivojlanishi, kuch-quvvati, faolligi, tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. O‘smirning qattiq emotsionalligi, ta’sirchan, engiltakligi intizomni buzish sababi bo‘lishi mumkin. Balog‘atgaetmagan jazolanuvchilar tashqi ta’sirlarga shu bilan birga ijobiy tomonga ham, salbiy tomonga ham juda ta’sirchan bo‘ladilar. Ko‘pchilik o‘smirlar o‘zlariga tanqidiy ko‘z bilan qaramaydilar. Bu ma’naviy beqarorlikka olib keladi, u hulqini ijtimoiy boshqarish samarasini pasaytiradi. Bular ularda ijtimoiy foydali ko‘rsatmalar, qarashlar va ishonchlarini shakllanishini qiyinlashtiradi. Shu bilan bir vaqtda ma’naviy beqarorligi, “oson va chiroyli” hayot kechirishga intilishi, madaniylik darajasi pastligi xulqini ma’naviy o‘zi boshqarishiga zarar keltiradi. Bu holat odobaxloqsizlik harakatlardan ular osongina noqonuniy ishlarni amalga oshirishga o‘tishlariga olib keladi. Bu yoshdagi o‘smirning hulqi va faoliyatiga o‘zicha baho berishi ta’sir ko‘rsatadi, u ko‘pchilik hollarda yoki oshirib yuborilgan yoki pasaytirilgan bo‘ladi. O‘ziga yuqori baho berishda o‘smir o‘zini hammadan ustun deb hisoblaydi, boshqalar orasida ajralib turishni istaydi. Bunday jazolanuvchilar koloniya xodimlarining maslahatlariga kam quloq soladilar, tarbiyachilarga kinoyali munosabatda bo‘ladilar, ularda ma’naviy o‘zini takomillashtirishga istak uyg‘onishga intilishga e’tiborsizlik bilan qaraydilar. O‘zini baholashi past bo‘lgan jazolanuvchilar o‘zlarida ishonchsizlikni his etadilar, qo‘rqadilar, boshqalardan yomon ko‘rinadilar. Buning oqibatida ular boshqalar ta’siri ostida qoladilar. Balog‘atga etmagan jazolanuvchilarda bu yoshda irodasi va irodaviy sifatlari shakllanishi jarayoni boradi. Bu davr davomida tarbiyalanuvchilar o‘zlarini shaxs sifatida, kuchli va irodali shaxslarni namuna qilib olib o‘zlarini tarbiyalashga qodir ekaliklarini anglab etadilar. Ammo tashqi ko‘rinishi ularda ko‘pincha qilgan ishlari ma’naviy mazmunini to‘sib qo‘yadi. Buning natijasida ma’naviy namuna sifatida ularda jinoyatchilik romantikasi ishqivozlari o‘rin oladi. Ko‘pchilik balog‘atga yetmagan jazolanuvchilar uchun dunyoqarashlari qarama-qarshiliklari xosdir. Ularning qarashlari va ishonchlari mantiqsiz va qarama-qarshidir. Jazolanuvchilarning o‘zlari bu mantiqsizlikni, tartibsizlikni kamchilik deb tushunadilar. Bunday o‘smirlarni qaramaqarshilikka ishontirish va ularda to‘g‘ri xulq qoidalarini tarbiyalash oson bo‘ladi, lekin pedagogik va ijtimoiy ancha qarovsiz jazolanuvchi balog‘atga etmaganlar guruhlari bor. Ular mantiqiy tartib bilan va asoslab o‘z qarashlarini himoya qilishlari mumkin. Bunday turdagi o‘smirlar bilan ishlash ancha qiyin. Sotsiologik tekshirishlar ko‘pchilik o‘smirlar jazolanishlaridan avval militsiyada ro‘yxatda turganlar bilan munosabatlarda bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. Ular kitob o‘qish, musiqa bilan qiziqmaganlar, ulardan kamdan-kamlarigina sport bilan qiziqqanlar. Tekshirishlar ko‘rsatishicha jazolanuvchilarning 70 % dan ko‘prog‘i hukm etilishlaridan avval 5-8 soat bo‘sh vaqtlari bo‘lganligini ko‘rsatdi, ular hech narsa bilan mashg‘ul bo‘lmaganlar, maktabga bormaganlar, ishlamaganlar, uy ishlarini bajarmaganlar. Ularning bilim darajalari odatda 2-3-sinfni tashkil etgan: o‘smirlar orasida umuman savodsizlari ham uchraydi. Balog‘at yoshiga etmagan jazolanuvchilarning ko‘pchiligi kasb-hunarga ega emas, ish stajlari yo‘q. Bo‘sh vaqtlarining ko‘pligi, ularning alkogol ichimliklari, narkotiklar iste’mol qilishlariga, erta jinsiy aloqalarni boshlashlariga olib kelgan. Bunday hayot ularni ijtimoiy foydali mashg‘ulolardan chetga tortadi, ko‘pincha qarindoshchilik munosabatlarining uzilishiga, o‘qishga qiziqishi yo‘qolishiga, oxir oqibat jinoyat sodir etishiga olib kelgan. Jazolanuvchilarning ko‘pchilik qismi (53 %) to‘la bo‘lmagan oilalarda, bolalar uylarida tarbiyalanganlar. Ota-onalarining yo‘qligi ma’naviy-axloqiy tarbiyalanishini qiyinlashtiradi. Bunday hollarda asosan bola qorni to‘qligi va eni butunligi haqidagi qayg‘uriladi. Ikkala otaonasi bo‘lgan oilalarda kattalar va bolalar o‘rtasida bir-birini tushunish yo‘qligi, o‘smirning ma’naviy axloqiy muammolari, do‘stlariga ota-onalarning befarqligi aniqlandi. Ana shu masala bo‘yicha tekshirishlarni tahlil qilish quyidagicha xulosaga kelishga imkon beradi:

1. Zamonaviy oilalarning katta a’zolari yuqori darajada band bo‘lishlari sababli ta’lim muassasalari pedagogik jamoalari bilan (maktab, kollej, litsey) o‘zaro aloqalari yo‘q. SHuning uchun ota-onalar o‘smirning haqiqiy ichki dunyosi haqida, uning qiziqishlari va talablari

haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lmaydilar. Bular ota-onalarda bolaga ko‘r-ko‘rona muhabbatni yuzaga keltiradi. Ota-onalarning bunday bir tomonlama qarashlarini ota-onalarning maktab (litsey, kollej) bilan aloqalarini yaxshilash yo‘li bilan yo‘qotish mumkin edi. Ma’lumki, o‘quv yurtlarida
o‘smirning xulqi yomon belgilarini ancha ob’ektiv baholaydilar (uning hulqi og‘ishini, jamoatchilik tartibiga zid harakatlari va huquqbuzarliklarini). Bunday hollarda ota-onalarga pedagoglar malakali yordam ko‘rsatishlari mumkin bo‘ladi.
2. O‘smirning oiladan tashqaridagi yaqin odamlari haqida ota-onalar quyidagi yo‘llar bilan xabardor bo‘ladilar:
a) ularning qiziqtirgan uning o‘zi haqidagi va uning do‘stlari haqidagi muammolarni qo‘pol va odobsiz usulda talab etadilar.
b) bunday ma’lumotlarni uchinchi shaxsdan oladilar.
v) bolaning xulqini o‘zlari kuzatishlari natijasida.
Ota-onalar odatda bolaga o‘zlariga yoqqan bolalar bilan do‘st-o‘rtoq bo‘lishni majbur qilishga harakat qiladilar. Aynan ana shu bolani ota-onasidan uzoqlashtiradi, uni yolg‘onchi qiladi. Ota-onalar bola bilan muomalani bilmaydilar. Shuning uchun ota-onalarni umumiy pedagogik o‘qitish tizimini yaratish zarur, masalan, maxsus seminarlar o‘tkazish yo‘li, bu maqsadlarda ommaviy axborot vositalardan foydalanish yo‘li bilan, yoki ijtimoiy pedagoglar va psixologlar yordamida ishlab chiqilgan “oila xizmati” tizimlari yordamida.
3. Bugungi kundagi ota-onalar ko‘p tomondan huquqiy va pedagogik sohada tayyor emaslar. SHuning uchun ular bolagi nisbatan jinoiy xavf solinganda o‘z farzandlariga to‘gri harakat qilish bo‘yicha biror-bir masalahat berishga qodir emaslar. SHu sababli ota-onalarning o‘zlari orasida va oilaning katta a’zolari orasida profilaktik ishlarni amalga oshirish zarurati yuzaga keladi. Ota-onalar ma’lum yuzaga kelgan vaziyatda o‘zini qanday tutish kerakligini tushuntirib berishlari, bolani ayniqsa, notanish odamlar bilan tanishishda yoki notanish yangi joylarda bo‘lishlarida diqqat-e’tiborli, ehtiyotkor bo‘lishlarini tushuntirishlari kerak. Katta shahar sharoitida o‘smir uchun zarar tegishi xavfi ayniqsa, yuqori bo‘ladi. Bu erda o‘smirning xulqi asosiy yo‘nalishi ularga xavfli joylarga borishni ta’qiqlagan ota-onalarining talablarini qat’iy bajarishi bo‘ladi.
4. Bolalar va o‘smirlarning jinsiy tarbiyasi zamonaviy holati haqida olingan ma’lumotlar bu muammoni hal etishda ko‘plab jiddiy xatolar va kamchiliklar borligini ko‘rsatadi. Kichik va katta sinf o‘quvchilari jinsiy tarbiya masalalari bo‘yicha faqatgina qisqa ma’lumotlar oladilar. Hozirgi paytda 4-11-sinflar uchun respublikamizda yangi Fan kiritilgan, “Sog‘lom avlod tarzi (asoslari?)”. Bu fanning dasturida jinsiy tarbiya haqida bo‘lim bor. Lekin faqatgina jinsiy masalalarni o‘rganishning o‘zigina etarli emas. Balog‘at yoshiga etmaganlar jinsiy jaxlsizligiga jinoiy tajovuz qilish bilan kurashish bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi. CHunki bu holat aniq bir balog‘atga etmagan yoki o‘smirning o‘ziga emas, balki uning atrofidagilarga ham juda katta ma’naviy zarar ko‘rsatadi. Bafarqlik, beraxmlik bilan jinoyat sodir etish usuli o‘smirlar tomonidan (tarbiyasida kamchiliklari bo‘lganlarida) faol huquqbuzarlik faoliyatiga, shunga o‘xshash harakatlarni amalga oshirishga chaqiriq deb qabul qilinishi mumkin. Boshqa tomondan bu o‘smirga uning tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarini shakllantirishda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin (ya’ni, o‘smirlar tengdoshlari va kattalarga ishonchsizlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘ladigan bo‘lib qoladilar). Shundan kelib chiqib, bunday jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligiga to‘g‘ri baho berish va ommaviy axborot vositalari, pedagoglar, ota-onalarni jalb etib profilaktik ishlarni olib boorish zaruriyati yuzaga keladi. Tibbiyot xodimlari va huquqiy muxofaza qilish organlari seksual asosda tajovuzkor hulqli shaxslarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan tegishli chora ko‘rish bo‘yicha birgalikda ish
olib borishlari kerak.
5. O‘g‘il bolalar va qizlar o‘zaro munosabatlari muammolari o‘smirning jinsiy etilish yoshidan ancha avval yuzaga keladi. Bolalar va qizlar orasidagi yaqin aloqalar, munosabatlar

haqidagi ma’lumotlar odatda noto‘gri tushuniladi. Bola bu haqida ishonchli manbalardan qanchalik kam ma’lumotlarga ega bo‘lsa, u bu sohaga shunchalik ko‘p qiziqadi. SHuning uchun jinsiy tarbiyalash asoslari erta bolalik yoshidan boshlanishi kerak bo‘ladi.

Akseleratsiya sababli bugungi kunda o‘smirlarning erta jinsiy etilishlari va uning ijtimoiy tashkil topishi jarayoni ancha uzoq davom etishi o‘rtasida uzilish yuzaga kelgan. Bu holat bir qator muammolarni keltirib chiqardi, masalan, doimiy ravishda kinomotografiya, videofilmlar, matbuotdagi maqolalar va boshqa erotik manbalar tomonidan qo‘zg‘atib kelinayotgan jinsiy instinktlarining uzoq qondirilmasligi kabi. Bu muammoni hal etish o‘smirlarni sportga ommaviy jalb etish, ijtimoiy jamoatchilik ishlarida ishtirok ettirish bilan mumkin bo‘ladi. SHu sababli bizning fikrimizcha bunday ishlarning hamda o‘smirlar o‘rtasida huquqbuzarlikni olidini olish bo‘yicha faoliyatlar markazi umumta’lim maktab bo‘lishi kerak deb to‘g‘ri fikr aytilmoqda, maktab oilaga nisbatan va boshqa ijtimoiy institutlarni boshqarishi kerak bo‘ladi. Haqiqatan, maktab oilaga, ota-onalarga yordam ko‘rsatishni tartibga soluvchi bo‘lishi kerak. Maktab bu ishga ijtimoiy pedagoglarni, tibbiyot xodimlarini, huquqiy himoya qilish organlarini jalb etishi kerak. Bu ishlar maktabning ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishda tarbiyaviy-profilaktik vazifalarni ancha kengaytiradi. Bu ishda qo‘shimcha ta’lim, bolalarning dam olishlari va ijod bilan shug‘ullanishlari, bolalar va yoshlar ijtimoiy tashkilotlarining ham roli katta.

2-savolning bayoni: Jinoyat sodir etishning sabablari (motivlari)

Og‘ir moddiy ta’minlanganlik holati o‘smirlarning o‘z ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish uchun imkoniyatlarini kamaytiradi, bu ko‘pincha o‘smirlarni jinoyat sodir etishga majbur etadi. Biror-bir buyum xarid qilib olish uchun mablag‘ning etishmasligini ular noqonuniy usul bilan to‘ldiradilar. Balog‘atga etmagan hukm etilganlar uchun nomusiga tegish, o‘g‘rilik, bosqinchilik, odam o‘ldirish, tan jarohati etkazish, avtomashinalarni o‘g‘rilash kabi jinoyatlar xosdir. Yomon niyatda jinoyat sodir etishning sabablari quyidagilar: qimmatbaho buyumni egallab olish istagi, buyumlar sotib olish uchun shaxsiy puliga ega bo‘lish istagi. Bu jinoyatlar asosida modadan qolmaslik tengdoshlari ega bo‘lgan narsalarga ega bo‘lish, hatto jinoyat sodir etib bo‘lsa ham ega bo‘lish istagi yotadi. Kuch ishlatib jinoyat sodir etishning eng ko‘p uchraydigan sabablari: qasos olish, “erkakligini” ko‘rsatib quyish, “irodasini mustahkamlash”, “hech narsadan qo‘rqmaslik” va shunga o‘xshash. Ko‘pchilik jinoyatlar “xavfi bo‘lganiga javoban”, “do‘stini sotmaslik”, “o‘rtoqlarini ishontirishga” kat sababli sodir etiladi. Retsedivlar (takroriy jinoyat sodir etish) sabablari orasida “jabrlanuvchilar qarshilik ko‘rsatmadilar”, “o‘ziga ishonish xissi paydo bo‘ldi”, “o‘g‘rilangan narsani sotish osonligi”, “tajribali yo‘lboshchining rahbarligi” kabi sabablar uchraydi. Asossiz beshavqatlik xususiyatiga ega og‘ir jinoyatlar, odam o‘ldirish, bezorilik, og‘ir tan jarohati etkazishning ko‘pchilik qismi o‘smirlar tomonidan mast holatda yoki narkotik iste’mol qilgan holatda sodir etiladi. Bunday holatlarda jinoyat sodir etish aybni og‘irlashtiruvchi hisoblanadi. Hukm etilganlarning ko‘pchiliklari erta chekishni boshlaganliklari, spirtli ichimlik ichganlari aniqlandi, bunga kattalar, shu jumladan ota-onalari ibrat bo‘lganlar, yana o‘rtoqlaridan toksik moddalarni xidlashga, narkotiklar iste’mol qilishga o‘rganish sabab bo‘lgan. Jinoyatlarning bir qismi o‘smirlar tomonidan kattalar bilan birga sodir etiladi. Bunday jinoyatlar odatda oldindan tayyorlanadi. Katta yoshli jinoyatchilar, jinoyat fosh etilgan taqdirda o‘smir “o‘rtoqlik xissi” va qasam ichganligi sababli aybni o‘z bo‘yniga oladi deb o‘ylaydilar, agarda sud bo‘ladigan bo‘lsa unga katta muddat bermaydilar, shartli yoki ijro etishni orqaga surish beriladi deb ishontiradilar. Mustaqil va hech kimga qaram bo‘lmaslikka intilib, lekin bunga xali tayyor bo‘lmay o‘smirlar jamoatchilikka yot elementlarning psixologik ta’sir ko‘rsatishlariga osongina ko‘nadilar. O‘smir bir o‘zi hech qachon jazm eta olmaydigan ishni u guruhda amalga oshira oladigan bo‘ladi. Ba’zi o‘smirlar jinoyat sodir etib buni sho‘xlik deb baholaydilar. Ular tartib buzish bilan jinoyat orasidagi chegarani ko‘rmaydilar. O‘tkazilgan so‘rovlar natijasida hukm etilgan balog‘atga etmaganlarning 50 % gina ular jinoyat sodir etayotganlarini bilganlar. 20 % taxmin qilganliklari, qolganlari esa hatto xayollariga ham keltirmaganliklari aniqlandi. Ularing ko‘pchiliklari o‘z huquqbuzarliklarini jasorat, madrlik va irodasini ko‘rsatish deb baholaydilar.

Balog‘atga etmagan hukm etilganlar munosabatlari o‘ziga xosliklari. Ularning kattalardan farq qilish xususiyatlari Balog‘atga etmaganlarga tarbiyalash koloniyalarida bo‘lishi boshlang‘ich davri, hayot sharoitiga moslashishlari katta ta’sir ko‘rsatadi. Moslashish yaxshi va yomon ham bo‘lishi mumkin, lekin salbiy va ijobiy ham belgilarga ega bo‘lishi mumkin. Bu davrda yuqori o‘rinni egallash, jamoadagi rollarini taqsimlash uchun kurash boradi. Bu davrda tartibni buzish va jinoyatlar sodir etishning o‘sishi kuzatiladi. Tashqi dunyodan ajratib qo‘yilishi hukm etilganlarning munosabatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Rejimli tashkilotlarda munosabatlar ikki turga ajratiladi: rasmiy va norasmiy. Rasmiy munosabatlar jazoni o‘tash rejimi va ichki tartib bilan boshqariladi. Norasmiy munosabatlar - hukm etilganlarning norasmiy munosabatlar tizimida tutgan o‘rniga binoan ularni kategoriyalarga ajratuvchi “boshqa hayot” qoidalari bilan boshqariladi.

Stratifikatsiya hukm etilganning o‘z guruhida balog‘atga etmaganlarni “o‘zlariniki va begonalarga” ajratish mavqeini qat’iy belgilashdan iborat bo‘ladi.

Retsidivistlar keng jinoiy aloqalarga ega bo‘lib, ular ancha yuqori mavqega ega bo‘ladilar. Ko‘plab sonli guruhlar mavjud bo‘lishiga qaramay hukm etilganlar ikkita asosiy guruhlarga ajratiladi:

1) Yuqori mavqeli - mustahkam, qat’iylar, “o‘g‘il bolalar”

2) past statusli – ezilganlar, “pastlar” xo‘rlanganlar.

stratifikatsiya – (lotincha stratum - qatlam) – daromadi kattaligiga, bilim darajasi, hokimiyati kattaligi, kasbi obro’si katta-kichikliklariga qarab yuqoridan pastga qarab ijtimoiy qatlamlarning joylashishi. Status (lotincha status-vaziyati, holati) – individning guruh yoki jamiyatdagi ijtimoiy vaziyati (holati).Retsidivist (lot.Recidivus-orqaga qaytuvchi) ilgari jazolangan jinoyatiga o’xshash jinoyat sodir etgan va qattiqroq jazo olishi kerak bo’lgan odam.

Bu guruhlardan har biri o‘z guruhlariga ega, bu ko‘plab janjallar kelib chiqishiga olib keladi. Tarbiyalash koloniyasiga kelgan yangi odamni mavqei odatda “ro‘yxatga olish” yo‘li bilan aniqlanadi. Yangi bolani faxm-farosatliligini, aqlini, o‘zini himoya qila olishini tekshirib ko‘radilar. Ko‘pincha bu sinovlar beshavqat va beraxmlik ko‘rinishida bo‘ladi. Sinovdan o‘tayotganning sog‘lig‘i uchun ma’lum xavf mavjud bo‘ladi. Balog‘atga etmagan hukm etilganlarning kattalardan farqi ko‘pchilik o‘smirlarda ma’lum hayotiy rejalari, kelajakdagi istiqbollari yo‘qligidan iborat bo‘ladi, bu ular bilan tarbiyaviy ishlar olib borishni ancha qiyinlashtiradi.

Shunday qilib, balog‘atga etmagan hukm etilganlarning shaxsi va guruhlari belgilari quyidagi xususiyatlar bilan belgilanadi:

1. Yoshi xususiyatlari – organizmining tez jismoniy rivojlanishi
- ma’naviy beqarorligi.
- mos bo‘lmagan ravishda o‘ziga baho berish (yuqori baholash, past baholash)
- irodasi jadal shakllanishi jarayoni.
- dunyoqarashning qarama-qarshiligi.

2. Pedagogik va ma’naviy tarbiyasizligi.
- bo‘sh vaqtining tashkil etilmaganligi.
- bilim, ma’naviy va professional darajasi pastligi.
- oiladagi muammolar.
- ota-onalarining yo‘qligi, yoki oilasi to‘liq emasligi.
- ota-onalarining yoki qarindoshlarining jamoat tartib-qoidalarini buzishlari.
- qarindoshlik aloqalari uzilishi.

3. Jinoyat sodir etish motivlari.
- Sotib olishga qurbi etmagan narsaga ega bo‘lish istagi.
- o‘g‘il bolaligini ko‘rsatib qo‘yish, guruxda obro‘ga ega bo‘lish.
- Jinoyat sodir etayotganligini yaxshi tushunib etmaslik.

4. Deviant (og‘ish, chetlanishlar) yomon axloqqa odatlanishi’

5. Katta yoshdagi jinoyatchilarga bo‘ysunishi.

6 . Huquqiy bilimi pastligi.

7. tashkilot tarbiyasi va tartibiga qarshi bo‘lish.
8. Tashkilot sharoitlariga moslashib olish imkoniyatlari.
9. Hukm etilganlarning stratifikatsiyasi (status-rolli munosabatlar)
10. Ma’lum hayotiy rejalarning yo‘qligi.

Shunday qilib, balog‘atga etmagan hukm etilgalar – bu shaxsi ijtimoiylashishi jarayoni oxiriga etmagan odamlar, bu jarayon turli ijtimoiy o‘rin egallashni, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar tizimiga qo‘shilishini ko‘zda tutadi. O‘smirni jinoyat sodir etganda aybdor deb hisobladilar. Uni tarbiyalash koloniyasiga, ya’ni yopiq turdagi tarbiyalash tashkilotiga yuboradilar. Bu albatta shaxsning ijtimoiylashish jarayonini to‘xtatib qo‘yadi va uning bir tekis rivojlanishini yanada qiyinlashtiradi. Ijtimoiylashish yakunlanmagan jarayonini jamiyatdan ajratib qo‘yilgan holatda davom ettirishga to‘gri keladi. Bu Ushbu jarayonning mohiyatiga qarama-qarshidir. Ko‘pchilik o‘smirlar (jinoyat sodir etgan) ijtimoiy muhit uchun jiddiy xavf tug‘diradilar. Shuning uchun ularni jamiyatdan ajratib qo‘yish zarurdir. SHu sababli ular uchun ozodlikdan mahrum etish jazosini qo‘llashdan bosh tortishning iloji bo‘lmay qoladi. Shunda qarama-qarshilik yuzaga keladi: o‘smirni jamiyatdan ajratib quyish zarurligi va shu bilan bir vaqtda uni ijtimoiylashtirish jarayonini yakuniga etkazish. Milliy va chet el tajribalarining ko‘rsatishiga jazo choralarini kuchaytirish, qattiq nazorat qilish o‘smirlar orasida jinoyatchilikning o‘sishi muammosini samarali hal etish yo‘li deb qaralishi mumkin emasligini ko‘rsatdi. Jinoyatchilikni yo‘q qilish – bu birinchi navbatda ijtimoiy muammodir. darajasi faqatgina uni yuzaga keltiruvchi omillarni yo‘qotib borilgan holdagi asta-sekin pasayib borishi mumkin. Balog‘atga etmaganlar jinoyatchiligi bilan kompleks va samarali kurashish maqsadlarida davlat milliy dasturi rejalashtirilmoqda va amalga oshirilmoqda. Masalan, 70-yillarda AQSHda axloqi buzilgan yoshlar hayoti ijtimoiy , turmush madaniy va moddiy sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha 36 dastur amalga oshirildi. XX asrning 90-yillarida AQSHda yoshlar orasida axloqi buzilganlar bilan kurashish bo‘yicha 65 ta dastur amalga oshirilgan. Ana shu dasturlarni bajarish uchun kongress 15 mlrd. dollar ajratdi. Evropa parlamenti ekspert komissiyasi 1996 yili balog‘atga etmaganlar orasida jinoyatchilik muammolarini ko‘rib chiqib yoshlar va balog‘atga etmaganlar orasida jinoyatchilik bilan kurashish samaradorligi oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqdi. Ular asosan quyidagilardan iborat: politsiya xodimlari, ijtimoiy tashkilotlar va yoshlar, balog‘atga etmaganlar ishlari bo‘yicha milliy tashkilotlarning jinoyatchilikni oldini olish sohasidagi hamkorliklarini ancha kuchaytirish kerak: balog‘atga etmagan huquqbuzarlarni jinoiy javobganlikka tortish va ularni tergov paytida ushlab turish amaliyotini o‘zgartirish kerak; O‘smirlarni jazr o‘tash muddatlarini ikki yil bilan chegaralash, muddatidan avval ozod etish huquqini berish. Umuman olganda balog‘atga etmagan huquqbuzarlarni tuzatish tashkilotlariga joylashtirmay qayta tarbiyalashni afzal bilish taklif etiladi. Ozodlikdan mahrum etish ko‘rinishidagi jinoiy jazodan to‘la bosh tortishga erishish masalasi mumkin bo‘lmaganligi sababli ko‘pchilik mutaxassislar jazo choralari belgilanayotganda o‘smir huquqbuzarlarning undan psixologik ta’sirlanishlari va ularning Yoshi xususiyatlarini hisobga olishni tavsiya etadilar. Tarbiyalash koloniyalariga joylashtirilgan balog‘at yoshiga etmagan huquqbuzarlar bilan ishlashda tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish choralari, maktab va o‘smirlarning ozod etilishiga psixologik tayyorgarligi asosiy rol o‘ynashi kerak Balog‘atga etmagan huquqbuzar shaxsiga individual profilaktik ta’sir ko‘rsatish Bugungi kunda bizning jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biri so‘zsiz yoshlar orasida jinoyatchilikning o‘sishini pasaytirish yo‘llarini izlash va ularni oldini olish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Profilaktika (lotincha prophlaktikos – oldini oluvchi, saqlovchi) – tarbiyasi qiyin o‘smirlar delikvent (noqonuniy) va deviant (og‘uvchi) hulqlarini yuzaga kelishi, tarqalishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘plami. Uyushgan jinoyatchilik doirasiga borgan sari ko‘proq balog‘at yoshiga etmaganlar tortib borilmoqda. O‘smirlardan tashkil topgan kriminal guruhlar tomonidan xavfli jinoyatlar sodir etilmoqda. Jinoyatchilik yosharib bormoqda va mustahkam retsidiv (takrorlanuvchi) xususiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bu keskin muammoni hal etishda ijtimoiy pedagogika asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi, biroq bu muammoni jamiyatning

hamma kuchlarini jalb etish, kompleks usullar bilangina hald etish mumkin. Aniq bir huquqbuzar bilan individual ish olib borish, tarbiyaviy-profilaktik jarayonni tashkil etish sohasida aniq bir sistemaning yo‘qligi oqibatida tarbiyalash tizimida ko‘pchilik kamchiliklarni yuzaga keltiradi. Ba’zi pedagoglar individual yondoshishni hulqida og‘ish bo‘lgan o‘g‘il bolalar va qizlarning xususiy xususiyatlarini hisobga olish deb tushunadilar.

“Individual yondoshish – deb yozadi A.S.Makarenko – shaxsning alohida injiqliklari bilan shug‘ullanishni bildirmaydi. Individual yondoshish bahonasida yakka individalistik tarbiyani tushuni kerak emas. O‘quvchi kamchiliklariga ko‘z yumuvchi, uning injiqliklariga ko‘nuvchi, tarbiyalash va xarakterni tuzatish o‘rniga uning aytganini qiladigan pedagog kuchsiz, ilojsiz bo‘ladi. Individual yondoshish uning individual qobiliyati va imkoniyatlariga mos ravishda tarbiyalash ijtimoiy xususiyati bilan belgilanadigan shaxs sifatlarini unga etkazishdan iborat bo‘ladi”

A.S.Makarenkoning fikricha ikkita xato juda ko‘p uchraydi:

Birinchi- xato “hammani bir xil teng ko‘rish”dan iborat bo‘lib, odamni standart namunaga kiritish, inson turlari tor seriyasini tarbiyalashga intilish hisoblanadi.

Ikkinchis- har bir individning xususiyatlariga passiv e’tiborqilish, har bir odam bilan alohida tartibsiz shug‘ullanish bilan hammani bir vaqtda boshqarishga natijasiz urinish.

Bu – gipertrofiyadir (lotincha - haddan tashqari oshirib yuborish). Huquqbuzarlikni individual profilaktika qilish tuzatish-yo‘naltirishdan biri sifatida elementidan iborat bo‘ladi, lekin faqatgina undan iborat bo‘lmaydi. Bu shaxsni maqsadga muvofiq qayta tarbiyalash jarayonidir. U huquqbuzarlarning tarbiyachilar, jamoatchilik va atrofdagilar ta’siri ostida o‘zlari to‘g‘ri qarashlar va ishonchlar, tushunchalar ishlab chiqishlaridan iborat. Ijtiomiy-ijobiy hulqi ko‘nikmalari va odatlarini egallaydilar, o‘z hissiyotlari va irodalarini rivojlantiradilar. SHu tariqa qiziqishlari, intilishlari va layoqatlarini o‘zgartiradilar. Boshqa tomondan individual profilaktika aniq bir shaxsga atrof-muhitning tas’ir ko‘rsatishini bartaraf qilishga qaratiladi. Ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun quyidagilarni ta’minlovchi profilaktik metodlarni tanlash kerak:

1. Ma’naviy ongini ishlab chiqish.
2. Pozitiv hulqi ko‘nikma va odatlarini shakllantirish
3. Jamoyatchilik tartibiga zid ta’sirlarga qarshi tura olishga imkon beruvchi irodaviy kuchlarini tarbiyalash.
4. Mikromuhitni ijtimoiy sog‘lomlashtirish.

Huquqbuzarlikni profilaktika qilish asosiy vazifalari:

1. Ijtimoiy hulqi og‘gan va huquqbuzarlikka qodir bo‘lgan shaxslarni hamda ularga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ota-onalar va boshqa shaxslarni o‘z vaqtida aniqlash.
2. Yosh insonning jamiyat bilan kelishmovchiligiga yo‘l qo‘ymaslik, bunga imkon yaratuvchi sabablar va holatlarga yo‘l quymaslik maqsadida balog‘atga etmagan huquqbuzarlarning shaxsi yoshi va psixologik xususiyatlarini o‘rganish
3. Huquqbuzarlarga va uni o‘rab turgan muhitga individual tarbiyaviy profilaktik ta’sir ko‘rsatish dasturini ishlab chiqish.
4. Tarbiyaviy va profilaktik ishlarda ijtimoiy-pedagogik faoliyat hamma sub’ektlarining birgalikdagi harakatlarini va mosligini tashkil etish, hulqi buzilgan o‘smirlar hayot kechirishini kundalik, muntazam nazorat qilishni amalga oshirishni tashkil qilish.

Qayta tarbiyalash - qayta kuch talab etadigan, jiddiy, mashaqqatli, turli xil profilaktik va ma’naviy ta’sir ko‘rsatish usullaridan foydalanishni talab etadigan murakkab jarayondir, chunki oilada ham, maktabda ham va mehnat jamoalarida ham hulqi ijobiy qo‘nikmalariga o‘rganilmagan tarbiyaviy va pedagogik mazmunda eng ortda qolgan odamlar bilan ishlashga to‘g‘ri keladi.

Qayta tarbiyalash jarayonini tashkil etishda quyidagi kategoriyadagi balog‘atga etmaganlarga alohida e’tibor berilishi kerak:

1. Jazo olib tarbiyalash koloniyalaridan qaytib kelgan, lekin ularning hulqlari tashvish uyg‘otadigan shaxslarga.

2. Ozodlikdan mahrum etish hukmini ijro etish kechiktirilgan balog‘atga etmagan huquqbuzarlarga nisbatan.
3. Jinoyat sodir etib, lekin jinoiy javobgarlikdan jamoatchilik yoki administrative ta’sir ko‘rsatish, yoki amnistiya sababli ozod etilgan hamda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan yoshgacha ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etganlarga.
4. Maxsus o‘quv-tarbiyaviy tashkilotlardan qaytib kelganlarga.
5. Jamoatchilik yoki administrativ ta’sir ko‘rsatish choralariga olib keluvchi huquqbuzarlik sodir etganlarga nisbatan.
6. Spirtli ichimlik yoki narkotik moddalar iste’mol qiluvchilar.
7. Ilgari sudlanmagan, lekin bir yil davomida ikki marta administrativ javobgarlikda ayblangan, yoki rasmiy ogohlantiriga takror olib keluvchi shaxslar.
8. O‘qishni doimiy qodiruvchilar.
9. Doimiy qimor o‘ynaydigan va jamoatchilik tartibiga rioya qiymay hayot keradiganlar. Profilaktik ta’sir xususiyatlari va tendensiyalarini hisobga olganda va uning ichki hissiyotlari bilan, intilishlari bilan mos kelganda optimal bo‘ladi. SHunda tashqi profilaktik ta’sir kursatish go‘yoki o‘zini tarbiyalash, o‘zini rivojlantirish jarayoni bilan uyg‘unlashadi. Balog‘atga etmagan huquqbuzarlar bilan ishlash individual profilaktik dasturning tuzilishi va mazmuni.
Huquqbuzar shaxsini ijtimoiy sog‘lomlashtirish profilaktik dasturi quyidagi muhim komponentlarni o‘z ichiga olishi kerak:
1. Individual-profilaktik ta’sir ko‘rsatish maqsadini, ulardan asosiysi o‘smirda axloq va huquq qoidalari talablariga doimiy rioya qilish zarurligi haqida ishonchini yuzaga keltirishdir.
2. O‘smirda qanday etishmaydigan sifatlarni tarbiyalash va qanday salbiy xislatlarni yo‘qotish zarurligini hisobga oluvchi shaxsga tarbiyaviy va nazorat ta’siri metodlari va usullarini.
3. Shaxsga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni yo‘qotish uchun uning atrofiga bevosita ta’sir ko‘rsatish va shaxslararo munosabatlarni qayta tarbiyalashga imkon beruvchi tizimli shakllantirish usullari.
4. Ushbu bolaga nisbatan eng ko‘p tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata oladigan aynan ana shu mehnat, o‘quv jamoalari, ijtimoiy guruhlar, jamoatchilik va davlat tashkilotlarining individualprofilaktik ta’sir ko‘rsatish vositalarini.
5. Shaxsni ijtimoiy sog‘lomlashtirish profilaktik dasturini amalga oshirish asosiy bosqichlarini.
Profilaktik dasturni amalga oshirishda quyidagi talablarga amal qilish kerak:
1.Qayta tarbiyalash jarayonining mazmunliligi, yo‘naltirilganligi, muntazamliligi.
2. Qayta tarbiyalash foydaliligini tushunib olish.
3.Bir tomondan jamiyatning balog‘atga etmagan huquqbuzarga talablarini va ikkinchi tomondan - o‘smir shaxsi individual xususiyatlarini va rivojlanish umumiy qoidalarini o‘rganish.
4. Qayta tarbiyalashda majburlash va talabchanlikning bo‘lmasligi.
5.Tarbiyaviy profilaktik jarayon ishtirokchilarining hammasi chidamliligi va sabr qilishlari. Individual profilaktik ta’sir ko‘rsatish dasturining asosiy maqsadi balog‘atga etmaganning shaxsini umumiy qabul qilingan qoidalar, tartib va boshqa ijtimoiy qadriyatlar tomoniga o‘zgartirishdir. Bu maqsadga darxol erishib bo‘lmaydi, oylar va yillar talab etilishi mumkin. Qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib vazifalar aniqlanadi. Ulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi: balog‘atga etmaganning normal pozitiv qiziqshlarini tiklash va rivojlantirish; normal munosabatlarni; ijtimoiy mas’uliyatini va intizom va javobgarlik xissini. Balog‘atga etmaganni qayta tarbiyalash qo‘yilgan masalalarini hal etish uchun Ushbu o‘smirning hayot tarzidagi pozitiv vaziyatlarini, ularning mustahkamligini Xamda uning talabistaklarini, qiziqishlarini, layoqatini aniqlash maqsadida bolaning psixologik, ijtimoiy, ma’naviy “qiyofasini” tuzib olish muhimdir. Individual profilaktik ta’sir ko‘rsatish metodlarini tanlash bolaning faoliyati ustun doirasini hisobga olib quriladi. Huquqbuzarlikni individual profilaktika qilishda rag‘batlantirish, sustlashtirish metodlaridan faol foydalanish mumkin. O‘zining mazmuni bo‘yicha ular an’anaviy rag‘batlashtirish va jazolash metodlaridan ancha boydir.

Rag‘batlantirish metodik usullari qatoriga ma’qullash, maqtov, ishonish, baholash, mukofotlash, minnatdorchilik bildirish va boshqalarni kiritish mumkin. Yigit va qizlardan iroda va mehnatsevarlikni talab etadigan harakatlar va ishlarinigina rag‘batlantirish kerak. Ular ko‘p kuch sarflamay va vaqt sarflamay amalga oshirganlarini emas sustlashtirish (tartibga chaqirish, yo‘lga solib turish) metodlari usullari tanbeh berish, koyish, ogohlantirish, ya’ni qoida buzuvchi shaxsiga nisbatan qattiq talablardan iborat bo‘ladi. Ular insonning hulqiga jamoatchilik talablari alohida shaklidan iborat bo‘ladi, unda bir vaqtning o‘zida nima noto‘g‘ri bajarilganligini qoralash ham, keyinchalik qanday harakat qilishga ko‘rsatma ham beriladi hamda qilgan ishini takrorlashi mumkinligini oldini olish maqsadida kelajakda ogohlantirish beriladi.

Tormojenie (sekinlashtirish, tartibga chaqirish yo‘lga solish) insonga har kuni kerak bo‘ladi va u tarbiyalangan bo‘lishi kerak, odat bo‘lishi, har bir jismoniy va psixik harakatda ifodlanishi, ayniqsa tortishuv janjallarda kerak bo‘ladi. Yo‘lga solish usullari agarda ularni jamoa, jamoatchilik tashkilotlari tomonidan qo‘llab-quvvatlansa, ayniqsa yaxshi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Umuman yo‘lga solish uchta asosiy vazifani bajarishi kerak: o‘z kamchiliklarini tushunib etishga, ularning yomonligini anglashga, xulqini o‘zi boshqarish bilan bu kamchiliklarni yo‘qotish. Shundan keyin maqsadlarga muvofiq va shaxs xususiyatlarini hamda vaqtni o‘tkazish eng nozik davrini (nazoratni kuchaytirish uchun) hisobga oluvchi vositalarni aniqlanadi. Ular ko‘pchilik hollarda bo‘ladigan og‘zaki o‘rgatishdangina iborat bo‘lmay, balki turli xil kompleks choralardan iborat bo‘lishi kerak. Profilaktiv vositalar, hatto tushuntirish, suhbat yoki jamoatchilik ta’siri, uqtirish kabi keng tarqalganlari ham har doim ham juda foydali deb hisoblanishi mumkin emas. Bundan tashqari vositalar har qanday tizimini doimiy deb tavsiya etib bo‘lmaydi, chunki bola shaxsi rivojlanish jarayonida o‘zgaradi, yangi munosabatlarga kirishadi, uning hayot faoliyati sharoitlari o‘zgaradi. Yosh huquqbuzarni qayta tarbiyalash samarali vositalaridan biri o‘ziga individual bo‘lgan, dinamik, insonning ichki dunyosi hamma boshqa tomonlari bilan murakkab munosabatlarda bo‘lgan uning emotsional-irodaviy doirasiga ta’sir ko‘rsatish hisoblanadi. SHaxsning emotsional-irodaviy sohasi tushunchasiga psixologiyada sezgi va irodasini kiritadilar. Sezgi –insonning hayotida sodir bo‘layotgan, u idrok etayotgan yoki amalga oshirayotgan ishga turli shakldagi hayajonlanish, ta’sirlanish ichki munosabati sezish ta’sirlanish turli shakllari – emotsiya, affekt, kayfiyat, stress holati, zavq ham va nihoyat sezgi tor ma’noda bu – shaxsning emotsional doirasini tashkil etadi. Asosiy emotsional holatini psixologiyada ijobiy ajratish qabul qilingan – bu qiziqish, quvonch, hayajonlanish, hayratlanish, emotsional holat sifatida ijobiy yoki salbiy emotsional ta’sirlanish belgisiga ega emas. Salbiy emotsional holatga esa azoblanish, g‘azab, nafrat, jirkanish, qo‘rqinch, uyat hisoblanadi. Shaxsning emotsional holatini ifodalovchi barqaror sezgidan biri muhabbat xissi hisoblanadi.

Iroda – bu insonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan o‘z faoliyati va hulqini tashkil etish va o‘zini boshqarishdir. Iroda – bu insonning o‘zi belgilab olgan maqsadi bilan belgilanadigan shaxsning faolligi alohida usuli, uning hulqini tashkil etish alohida turidir. Iroda ikki bir-biri bilan bog‘liq vazifalarni bajarishni ta’minlaydi - rag‘batlantiruvchi, uyg‘otuvchi va yo‘lga soluvchi, ularda o‘zini namoyon etadi. Uyg‘otuvchi vazifalari insonning faolligi bilan ta’minlanadi. Irodaning yo‘lga soluvchi vazifalari, uyg‘otuvchi vazifasi bilan birgalikda ishtirok etib, shaxsning keraksiz, noxush harakatlarini to‘xtatib ushlab qolishda namoyon bo‘ladi. Huquqbuzarlar bilan ishlash usullari turlicha bo‘lishi mumkin: kitob o‘qishga, san’atga qiziqtirish, ijobiy yo‘nalishdagi norasmiy guruhga qo‘shish; kech qolish, dars qoldirish odatlarini yo‘qotish. YOsh huquqbuzar shaxsiga tarbiyaviy-profilaktik ta’sir ko‘rsatish metodlari, vosita va usullarini tanlash ko‘p holatlarga bog‘liq bo‘ladi. Ulardan bir qismini yuqorida ko‘rsatib o‘tdik.

3-savol bayoni:

Ijtimoiy pedagogining tarbiyasi og’ir o’spirinlar bilan ish olib borish

Maktab ijtimoiy pedagogikasining asosiy muammosi tarbiyasi og'ir o'spirinlar hisoblanadi. 12-16 yoshli o'g'il-qizlar o'spirin hisoblanishadi. Bu davr shaxs shakllanishi jarayonida nihoyatda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga ham o'smirlar ham tarbiyachilar uchun qiyin davrdir.

O'spirinlik yoshida bolaning hayot sharoitlari va faoliyati ancha o'zgaradi, ruhiyatining qayta qurilishi ro'y beradi. Tengqurlari bilan muomala qilishning yangi shakllari paydo bo'ladi. Jamoada o'spirinning ijtimoiy maqomida o'zgarishlar ro'y beradi,ota-onalar va ustozlar tomonidan unga talablar kuchayadi

Bu yoshda o'spirinning vaqtinchalik oila va maktabda ruhiy ajralishi sodir bo'ladi. O'spirinning shakllanishida ota-onaning ahamiyati pasayadi. Odatda u rasmiy jamoa va norasmiy muomala guruhini tanlash bilan band bo'ladi va oxir oqibat o'zini qulay sezadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'linadigan guruhni tanlaydi. Bu sport, texnika to'garagi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga bu guruh o'smirlar yig'ilishib, ichib-chekib o'tirishadigan erto'la ham bo'lishi mumkin.

Bu yoshda o'spirinlarning kattalar xususan ota-onalar bilan muammolari paydo bo'ladi. Ota-ona o'z farzandiga yosh bolaga bo'lganday qarashadi, bola esa bu g'amxo'rlikdan chiqib ketmoqchi bo'ladi. Shuning uchun uning kattalar bilan munosabatida ko'p nizolar kelib chiqadi, bolada kattalar fikrlariga tanqid bilan qarash kuchayadi. Kattalar bilan munosabatlar xarakteri ham o'zgaradi: bo'ysunish pozitsiyasidan bola tenglik pozitsiyasiga o'tmoqchi bo'ladi. Bir vaqtning o'zida tengdoshlar bilan ham o'zaro munosabatlarning xarakteri o'zgaradi. O'zpirinda kattalik xissi tug'iladi va xissiyot mustaqil bo'lishga intilish, kattalarning xohish istaklariga qarshi chiqishda namoyon bo'ladi. Kichkina bolaga qaraganda o'spirinning qiziqishlari ham ancha o'zgaradi. Ijodiy faoliyatga intilish bilan bir qatorda o'spiringa qiziqishlarning beqarorligi ham xosdir.

Shunday qilib o'spirinlik yoshining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ajratsak bo'ladi: emotsional voyaga etmaganlik, o'z xulq-atvorini to'liq nazorat qila olmaslik, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyat va xohishlarini to'g'ri baholay olmaslik, katta bo'lishga intilish.

O'spirin etarlicha voyaga etgan shaxs emas. U insonning eng muhim xislatlari va jihatlari shakllanishi bosqichida bo'lgan shaxsdir. Bu bosqich bolalik va kattalik o'rtasidagi davrdir. Shaxs hali o'zini katta deb hisoblashi uchun etarli rivojlanmagan, biroq shu bilan birga atrofdagilar bilan munosabatga kirishishi va o'z harakatlarida ijtimoiy norma va qoidalar talablariga amal qilishi uchun etarli rivojlangan.

O'spirin aqlli qarorlar qabul qilishga ongli harakatlar sodir etishga va ular uchun axloqiy va huquqiy jihatdan mas'ul bo'lishga qodir. Shuni ta'kidlash joizki, o'spirin o'z xatti-harakatlari uchun huquqiy javobgarlikka tortiladigan shaxsdir. Garchi qonun voyaga etmaganlarning ijtimoiy psixologik rivojlanishini inobatga olib, ular uchun cheklangan javobgarlikni belgilasa ham katta o'spirinlik va o'smirlik davrini shaxsiy javobgarlik bilan xarakterlanadigan yosh deb qabul qilsak bo'ladi.

Tarbiyasi og'ir o'spirinlar jismoniy jihatdan sog'-salomatdirlar, biroq ularning ta'lim-tarbiyasi buzilgan. Ular o'z tengdoshlaridan o'qishda ortda qoladilar, chunki ularda xotira, tafakkur va tasavvur xislari yaxshi rivojlanmagan.

Garchi ular o'zlariga qiziqarli narsani bajarishsa ham ular mehnat qilishni yoqtirishmaydi, o'zlarini biror ishni bajarishga majbur qila olmaydi, ular tizimli shug'ullana olishmaydi. Tarbiyasi og'ir o'spirinlar maktab intizomi va tartibini buzishadi, o'qishni xohlashmaydi, o'qituvchilar, tengdoshlar, ota-ona bilan nizolashadilar. Maktabni tashlab ketishadi, o'zlarini omadsiz deb bilishadi, ular daydilik qilishadi, spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilishadi, huquqbuzarliklar sodir etishadi. Aynan o'spirinlar jismoniy yoki jinsiy zo'rlik oqibatida o'z jonlariga qasd qilishadi.

O'spirinlarning pedagogik jihatdan tarbiyalanmaganliklari ijtimoiy pedagogik hodisa bo'lib, oilaviy va maktab tarbiyasining kamchiligidir, maktabdan tashqari tarbiya ishining qoniqarsiz yo'lga qo'yilganligi natijasidir. Amaliyotda isbotlanganidek o'spirinni o'rab turgan bu mihit shakllari odatda ijtimoiy pedagogik darajalari, yo'nalishlari, o'spiringa ta'sir qilish jihatidan turli bo'ladi. Agar oila, maktab, maktabdan tashqari muassasada bolani tarbiyalovchi omillarni boshqarsa, ko'cha-ko'yda ularni boshqarib bo'lmaydi. Bu tarbiya jarayonida aks etmasligi mumkin emas. Chunki o'spirinlar bo'sh vaqtlarining aksariyati aynan ko'chada o'tkazishadi. U erda ularning

muomalasi, ya’ni eng muhim ijtimoiy ehtiyojlaridan biri shakllanadi. O’quvchi o’spirinlar uchun asosiy faoliyat bu o’qishdir. Biroq o’qish tarbiyasi og’ir o’spirinlar uchun o’qituvchilar va tengqurlarining hurmatini qozona olish vositasi emas. Shuning uchun ular o’zlariga muhim bo’lgan faoliyatni maktabdan tashqarida izlashadi. Aynan shu erda, o’zi kabi o’spirinlar davrasida ularga yomon xislatlar va qo’pollik uchun tanbeh berishmaydi, aksincha bu kamchiliklarni kattalik alomati deb bilishadi.

Biroq hozirgi kunda maktabda, yashash joylarida bolalar bilan birgalikda ijtimoiy ish olib borish amaliyoti paydo bo’lmoqda. Bu faoliyat mikrotuman va maktabda ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishning yagona rejasi bo’yicha maktab va barcha ijtimoiy xizmatlarni bolalar tarbiyasi va himoyasi muammosini echish uchun birlashtiradi. yagona reja buiycha ish yuritish maktab pedagogik jamoasining faoliyatini tubdan o’zgartiradi. Pedagoglar maktabdan tashqari bolalar muassasi, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari faoliyatiga qo’shilishadi va ular bilan yaqin hamkorlikda bo’lishadi.

Bu faoliyatda asosiysi bola hisoblanadi, shuning uchun pedagogik jamoa faoliyati maktab devorlari ichida qolib ketmaydi, ular bolaga, oilasiga, bolalar birlashmalariga, tengdoshlar muhitiga murojaat qilishadi.

Pedagogik tarbiyasi og’ir bolalar bilan ishlashda ijtimoiy pedagog maktab va maktabdan tashqari jamoaning ularning xulq-atvoriga ta’sirini o’rganadi. Ular bilan ish olib borishda yaxshi natijalarga erishish uchun bir qator shartlarni bajarishi lozim:

1.O’spirin bilan aloqa o’rnatish;

2.O’spirin bilan yaxshi o’zaro munosabatlarni o’rnatish;

Uning reaktsiyasi, fikri, intilishlari, qiziqishlari, kelajakdagi rejalarini o’rganish.

Psixolog A.B.Filonov tomonidan ishlab chiqarilgan pedagogik texnologiya ham samarali hisoblanadi. Unda ijtimoiy pedagogning o’spirin bilan aloqasining bir nechta bosqichlari ko’rsatilgan:

1.Qarashlarida roziliklarning to’planishi;

2.Uning qiziqishlarini bilib olish;

3.O’smirlikning roziligi;

4.Xususiyatlari va sabablarini tushunish;

5.Uning shaxsiyatining salbiy xislatlarini o’rganish;

6.Yrish-turish va o’zaro munosabatning umumiy normalarini ishlab chiqish102.

Yu.V.Vasilkova tarbiyasi og’ir o’spirinning tarbiyasiga bosqichma-bosqich yondoshuvni ilgari suradi103:

I.O’spirin bilan yaxshi munosabatlarni o’rnatish;

II.O’spirinning shaxsiy ishi bilan tanishib chiqish;

III.Pedagogik tarbiyasi og’irligining sabablarini aniqlash;

IV.Psixologik va ijtimoiy pedagogik xaritalarini tuzish;

V.O’spirin shaxsiyatiga ijobiy ta’sir qiluvchi faoliyat turini tanlash;

VI.Tarbiya va o’z-o’zini tarbiyalash jarayonining birlashishi, o’spirin faoliyatini o’z-o’zini mukammallashtirishga qaratish.

Tarbiya jarayoniga kompleks yondoshuv o’spirinlar guruhlari paydo bo’ladigan mikro muhitlarga faol ta’sir qilishni talab qiladi. Kriminologlarning ma’lumotiga ko’ra voyaga etmaganlar aksar jinoyatlarini guruh bo’lib sodir etishadi. Biroq voyaga etmaganlar orasida huquqbuzarlikni bartaraf etish bo’yicha ko’pgina tafsiyalar indevidual profilaktika tavsiyalari hisoblanadi. Amaliyotda isbotlanganidek ajratib olingan o’spirinning huquqbuzarliklarini bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat har doim ham kutilgan natijalarga olib kelmaydi. Bu holat huquqbuzar o’spirinning yashash joyidagi guruhning a’zosi bo’lganligi va uning xatti-harakatlari guruh

---

102 Л.П.Филонов Дезадаптив ўспиринлар билан реабилитация жараёнида алоқа ўрнатиш технологияси. Замонавий шароитларда болалар ва ўсмирлар реабилитацияси муаммолари ва тажрибаси. М, 1994. 127-143 б.

103 Ю.В.Василкова, Т.А.Василкова Социал педагогика. М:Академия, 2003. 362-363 б.

kayfiyati, ularning hayot tarzi, fikrlashi, boshqa a’zolariga bog’liq bo’lishi bilan izohlanadi. Demak biz pedagogik tarbiyasi og’ir bolalar bilan individual faoliyat olib borishning muhimligini e’tirof etgan holda o’spirinlarni o’rab turgan mikro muhit bilan o’zaro aloqalarini o’rganish zarurligini ham ta’kidlab o’tamiz.

Pedagogik ta’sirlarning kompleks tizimi, tarbiya vositalari, shakl va mazmunini bildirib, bu faoliyatning maqsadi deb pedagogik tarbiyasi og’ir bolalarni sinf jamoasi, o’qituvchilar, sinfdoshlar bilan munosabatlarining normallashuvi natijasida o’smir guruhlarning rejali qayta to’g’irlash hisoblanadi. Bu munosabatlarning normallashuvi o’smir shaxsning shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko’rsatadi.

Tarbiyasi og’ir o’smirlar bilan ish olib borish ommaviy so’rovnoma va anketa to’ldirish bilan amalga oshiriladi. Bu usullar pedagogik qarovsiz o’smirlar guruhlarining qaerda paydo bo’lganligi haqida ma’lumot olish imkonini beradi.

Tarbiyasi og’ir o’smirlar bilan ish olib borishda pedagog quyidagi parametrlarni inobatga olishi lozim: guruh hajmi, ularning yosh va ijtimoiy tarkibi, muomala qilish joylar va vaqti, guruh faoliyatining mazmuni va yo’nalishi. Muomalaning bu parametrlarini bilsh tarbiyachiga tuman, shaharda o’smir guruhlari bilan ishlashning eng to’g’ri va samarali shakl-vositalarini qo’llashga yordam beradi. ijtimoiy pedagog o’smirlar guruhining ijtimoiy tarkibini bilish ham muhim. Ijtimoiy tarkibi turli bo’lgan o’smirlar guruhlarida o’zaro axborot almashuv va muomala qilish qiziqarli bo’ladi. Biroq bu guruhlarda hayot haqida yolg’on tasavvurlarga ega ma’lumotlar ham tarqatilishi mumkin Tarbiyachining vazifasi:

Guruhdagi muomalaning mazmunini bilish;.

1.Tarbiyaviy ta’sirni to’g’ri tashkil qilib, ma’lumotni to’g’ri tomonga yo’naltirish.

2.Guruhlarning o’rganilishi va taxlili qilinishi lozim bo’lgan mashg’ulotlarini ikki turga ajratsak bo’ladi-vaqt bo’yicha –doimiy va nodoimiy, yo’nalishi bo’yicha-ijobiy (mehnat, sport, san’at bilan mashg’ul bo’lish) va salbiy (chekish, alkogol mahsulotlarini iste’mol qilish, qimor o’ynash).

Tarbiyasi og’ir o’smirlar guruhlari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning uslublari va texnologiyalari quyidagilar:

Maktab yordamida:

-maktab va maktabdan tashqari o’smirlar jamoasi yordamida tarbiyaviy ta’sir (sektsiya, klub, to’garaklar);

-intizomli, a’lochi o’quvchilarning pedagogik qarovsiz sinfdoshlariga ta’siri. Bu yo’nalish bir-biri bilan do’stlashish xohishi, o’zaro muomalaga talab bo’lganda juda muvafaqqiyatli amalga oshib, uning asosida qiziqishlar umumiyligi (sevimli sport turi, texnika, musiqa va boshqalar bilan shug’ullanish) yotadi. Bu yo’nalishning amalga oshirishning muvafaqqiyati ko’p borada o’qituvchi, sinf rahbarining mohir rahbarligiga bog’liq.

-sinf jamoasining pedagogik qarovsiz o’smirlarga ta’siri. Bunaqa birgalikdagi faoliyat (sayohatga chiqish, spartakiadalar, san’at festivallari, ko’rgazmalar, jamoaviy harakatlar)ni talab qiladi. Sinfda jamoaviy ishlarga jalb qilingan pedagogik qarovsiz bolalar nafaqat o’zlari uchun balki jamoa uchun ham mehnat qilayotganlarini va ularning ishtirokiga ko’p narsa bog’liqligini anglab etishadi. Bunaqa faoliyatlarda og’aynichilik aloqalari vujudga keladi, boshqalarga nisbatan to’g’ri munosabat shakllanadi, yuksatilgan vazifa uchun mas’uliyat xissi ortadi;

-pedagogik qarovsiz bolalarga tarbiyaviy ta’sirning ko’rib chiqilgan yo’nalishlari mikrotuman tarbiyaviy ishida maktab jamoasi bilan birgalikda va bir vaqtning o’zida amalga oshiriladi.

Maktabdan tashqari o’smirlar jamoasi yordamida tarbiyaviy ta’sirni tashkil qilishda quyidagi holatlarni inobatga olish lozim:

-birinchidan to’garak, sektsiya, klubda o’smirlarda aniqlangan bitta qiziqish bilan cheklanmaslik lozim (akvariumistika yoki sport bilan shug’ullanish) balki mehnat, turli o’yinlar, ijodiy faoliyat orqali pedagogik o’smirlarni atrofdagilar bilan normal munosabatlarga tayyorlashga intilish lozim.

-ikkinchidan, norasmiy guruhga yoki uning aksariyat a’zolariga ta’sir ko’rsata turib ularni rasmiy guruhga o’tishlariga erishsa bo’ladi. Bu jarayonni shartli ravishda “rasmiylashtirish” deyishadi. Bu jarayon o’smirlar uchun sezilmaydigan holda tarbiyachi tomonidan norasmiy guruhning rasmiy guruhga aylanishidir.

Pedagogik qarovsiz bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishning yana bir xususiyati o'smirlarni o'zi tanlashgan, uning bajarilishidan qoniqish sezishadigan faoliyatni tanlashdir. Asta-sekin faoliyatdagi bunday ehtiyojni qondirish va rivojlanish, keyinchalik uni o'smirlarda bajarayotgan ishlari uchun mas'uliyat xissini oshiruvchi faoliyat turlari bilan to'ldirib borish lozim.
Tarbiyasi og'ir bolalar yoki o'smirlar bilan ish olib borish pedagogik qayta tarbiyalash jarayonini ko'zda tutadi.
Qayta tarbiyalash-bola yoki o'smir yurish-turishidagi turli cheklanishlarni engib o'tish yoki bartaraf etishdir. qayta tarbiya ham tarbiyachi ham tarbiyalanuvchilar uchun ham og'ir jarayondir. Tarbiyalanuvchi yangiyulning istiqboli bilan qiziqishi lozim. Tarbiyachi esa tarbiyalanuvchining o'tmishi, bugungi kunini tahlil qilib uning kelajagini tasavvur etishi lozim.
O'smirni qayta tarbiya yoki o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlash jarayoni bir necha bosqichdan iborat:
1.Tarbiyalanuvchini o'rganib chiqish;
2.O'smirning yurish-turishini o'zgartirish uchun uning ruhiy tayyor qilish;
3.Ijobiy axloqiy xislatlarni to'plash;
4.Inqirozdan chiqish, o'z-o'zini tarbiyalashga o'tish.
Shuni ham inobatga olish kerakki, bu jarayonga tarbiyachidan tashqari o'smir mansub bo'lgan tarbiyalanuvchilar jamoasi ham qo'shiladi. Bunda tarbiyachi koordinator vazifasini bajarib, jamoani o'z o'rtoqlarini qayta tarbiyalashga yo'naltiradi. O'smirlar bilan reabilitatsion markazda ishlayotgan ijtimoiy pedagog metodlardan biridan foydalanib tarbiyalanuvchi oldida idealga o'xshash maqsadini qo'yadi. Bu axloqiy komil inson o'smirning ijobiy yurish-turishning shakllanishiga yordam beradi.

Nazorat savollari
1.Maktab yoshdagi bolalar bilan ijtimoiy pedagog ish olib borishning xususiyatlari nimadan iborat?
2.Maktabning ijtimoiy vazifalarini sanab bering?
3.O'quvchilarning ijtimoiylashuvi jarayonida tengdoshlar jamiyati va bolalar submadaniyatining ahamiyatini ochib bering?
4. "Tarbiyasi og'ir o'smirlar" ijtimoiy pedagogikasi muammo sifatida?
5.Maktab va yashash joyida tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ijtimoiy pedagogik ish yuritishda qayday bosqich va texnologiyalardan foydalaniladi?

MODUL. IJTIMOIY PEDAGOGIKA .
SEMINAR MASHG'ULOTI

1-seminar mashg'uloti.
Mavzu: Ijtimoiy pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi
Reja:
1.O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika fanining shakillanishi va rivojlanishi
2.Xorijda ijtimoiy pedagogika faning rivojlanishi tarixi va bosqichlari.

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, taqdimot materiallari, ijtimoiy pedagogika darsligi va o'quv qo'llanmalari, daftar konspekt.

Tayanch tushunchalar: diniy, falsafiy, adabiy, qomusiy, ma'rifatparvar, demokratik, milliy pedagogika, halq pedagogikasi, islom ta'limoti, urf-odat, etnos, mentalitet, mahalla.
Ijtimoiy pedagogika, shakllanishi, bosqich, yo'nalish, sivilizatsiya, atama, fan, qadimgi, uyg'onish, xorijiy mamlakatlar

Umumiy tushuncha

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda rostgo`ylik, haqiqat, demokratiya, o`z huquqini bilish va talab etish doimo muhim ijtimoiy masalalardan biri bo`lib kelgan. SHu ma'noda «Avesto»dek nodir yodgorlik ayniqsa ijtimoiy-pedagogik masalalarni tarixiy nuqtai nazardan eritganligi bilan alohida axamiyat kasb etadi.

Grek tarixchisi Gerodotning ta'kidlashicha Markaziy Osiyoda haqiqatga, tartibga siginish zardushtiylik dini shakllangunga qadar ham mavjud bo`lgan. Haqiqatga sajda qilish - do`stga bo`yin egish buyuk qonun hisoblangan. «Avesto»da jamiyat bir butun ijtimoiy tuzum sifatida tasvirlanadi. Bunda davlat muassasalari bilan birga jamoat tashkilotlari bahamjihat faoliyat ko`rsatishlari kerakligi ta'kidlanadi. Ijtimoiy hayotda jamiyatni boshqarish masalasi aloxida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatni boshqarish uchun Ilohiy Nizom va Oliy Nizom zarurligi aytilib, davlat mahkamalari va jamiyat tashkilotlaridagi barcha yo`nalishlar shu Nizomlar doirasida faoliyat ko`rsatishlari kerak bo`ladi. Ilohiy Nizom talablari «Avesto»ning «Vandidod» va «Xot» qismlarida bayon etilgan. Ilohiy Nizomga ko`ra inson faoliyatining barcha yo`nalishlari ezgulik ruxi bilan sug`orilgan bo`lishi kerak.

Podshoh va vazirlar muxim davlat ahamiyatiga molik ishlar bilan band bo`lganlar. Maxalliy o`z-o`zini boshkarish mahkamalari samarali ishlashi uchun unga yordam berganlar, ammo ularning ichki ishlariga bekordan bekorga aralashmaganlar. Bu hol maxalliy mahkamalar va «erkaklar uylari» kabi (xozirgi choyxonalar) jamoat muassasalari mas'uliyatini oshirishga imkon tug`dirgan. Xar bir odamning fe'l – atvori, hatti-xarakati, butun faoliyati jamoatchilik nazorati ostida bo`lib, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini belgilashning aniq mezonlari bo`lgan.

Atrof muhit tozaligi va jamoat joylari pokizaligini maxsus kishilar nazorat qilib borganlar. Kimda kim ozodalik va tozalikka rioya qilmasa ularni tartibga chaqirishgan, nojuya ishlari uchun javobgarlikka tortishgan. Daraxtning bir shoxini sindirgan ham, nopok ko`zani xovuzga solgan ham 25 qamchi kaltak bilan jazolangan.

Er-xotinning bir-biri bilan kelisha olmasligi, qaynona- kelin o`rtasida janjal, bir-biriga yoqmaslik, fitna, bo`xton, chaqimchilik tufayli oilalarning buzilib ketishiga mahalla - ko`y va jamoatchilik sira yo`l qo`ymagan. Zinokorlik qattiq jazolangan. Xar bir sog`lom inson diniy talab va Nizomni bekamu-kust bajarish bilan birga ijtimoiy foydali mexnat bilan shugullanishi shart bo`lgan.

«Avesto»da ana shu kabi ko'plagan ijtimoiy pedagogik muammolar o`z ifodasini topgan.

Jamiyat manfaati yo`lida o`zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini o`z Vatani uchun baxshida etishga tayyor turadigan etuk insonlar, uddaburon yoshlar, fidoiylar bulmasa, O`zbekistonni dunyodagi ilg`or davlatlar safiga qo`shish qiyin bo`ladi. YOshlarni tarbiyalashda birinchi navbatda SHarq va G`arb mutafakkirlarining ma'naviy va madaniy meroslari katta ahamiyat kasb etadi.

Forobiy, Beruniy, A. YAssaviy, B. Nakshband, Ismoil al-Buxoriy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Zamaxshariy, N. Kubro, Navoiy, Ulug`bek, Bobur kabi alloma va mutafakkirlarimizning, shuningdek, G`arb olimlarining xam ijtimoiy-siyosiy va falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko`rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada samaraliroq bo`ladi. Ular ijtimoiy hayotimizning barcha soxalariga doir o`z fikrlarini bayon etib o`tganlar. Ijtimoiy hayot, atrof-muxitning insonlarga, ularning ma'naviy dunyosiga katta ta'siri borligini atroflicha yoritib berganlar.

Masalan, Konfutsiy va uning izdoshlari shaxsning paydo bo`lishi, uning jamiyatdagi o`rni va mohiyati kabi muammolarni o`rganishgan. Jumladan, Syan-TSzi tug`ma xususiyatlar – bu samoviy munosabatlar hosili bo`lib, ularga ta'lim berish bilan erishib bo`lmasligini ta'kidlaydi. Inson tug`ilishidan boshlab xar bir narsadan foyda olishga intiladi. Bu esa kishilarning o`zaro raqobatlashishlariga olib keladi. SHuning uchun xam tarbiya yo`li bilan inson tabiatini o`zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida ularni adolatlilik va mas'uliyatlilik kabi qator fazilatlarga o`rgatish lozim. Xam SHarq ham G`arb mamlakatlari allomalarining faoliyatida shu kabi ijtimoiy pedagogika muammolariga doir juda ko`plab g`oyalarni uchratish mumkin. Buni biz Abu Nasr Forobiyning qarashlari misolida ham ko`rishimiz mumkin.

Forobiy (873-930 yy.) yunon olimlari falsafasining targ`ibotchisi, faylasuf, qomusiy olim, falsafada Aristoteldan keyingi «Ikkinchi muallim», o`z davrida ijtimoiy-siyosiy masalalar bo`yicha birinchi bo`lib yirik asarlar yaratgan buyuk allomadir. Olim ijtimoiy hayotning turli masalalariga oid o`z

asarlarida insonlarning birgalikda yashashlarining sabablarini, ahil va xamjihatlikda yashashda ta'lim va tarbiyaning rolini tushuntirib berar ekan, quyidagi muammolarga xam oydinlik kiritadi, ya'ni:
Davlat tuzilishi va uni boshqarish.
Ijtimoiy nizolarning oldini olish.
Kamolotga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish, ya'ni etuk jamoaga erishish.
Hirs-xavaslardan tozalanish.
Ijtimoiy – pedagogik ish O`zbekistonda davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida aloxida urinni egallaydi. «Milliy g`oya – bizning g`oya», «Istikbolimiz – istiklolimiz», «Tafakkurimizni o`zgartirgan un yil» mavzularidagi tadbirlar bunga misol bula oladi. Jamoat tashkilotlari, madaniyat, maorif, san'at muassasalari faoliyatiga tegishli bo`lgan ma'naviy – ma'rifiy shakldagi ishlar xam shular jumlasiga kiradi. Ularning faoliyati targibot va tashqiliy ishlarning kulamini kengaytiradi, usayotgan yosh avlod tarbiyasida yangi imkoniyatlar ochadi.
Ma'naviy muassasalar yana bir muxim vazifa bajaradi. Gap odamlarning jamoa bo`lib ma'naviy xayot kechirishni tashkil etish ustida bormokda. Bu vazifa inson va jamiyatning bilish extiyojini kondirish, ularning faoliyatida uchraydigan xodisalarni, mexnatini, turmushini, bush vaktini chukur mushoxada qilish bilan uzviy boglikdir.
Qadim antik davrlardayok bolani ximoya qilish maqsadida o`zlarining ijtimoiy pedagogik tarbiyaga oid muammolarni oldinga surganlar. Eramizdan avvalgi 7-6 asrlar Markaziy Osiyo xududida jaxon dinlari orasida eng qadimgi din- zardushtiylik dini xukumronlik kildi.
Bu din insoniyatga katta ta'sir qildi, yani insonni birinchi uringa olib chikdi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"ni (olovga siginish) o`z davrining o`ziga xos qomusiy asari deb xisoblash mumkin. Zardushtiylar dinida axloqiy meyorlar asosi (axloqiy mezonlar) uchlikka tayangan edi. "Avesto"da Inson yaxshi fikrlarga ega bulishi, faqat yaxshi so`zlar va savobli ishlar qilishi lozim,deb yozilgan (xulk atvor)1.
"Avesto"ning katta qismi bulgan «Yasna»larda inson kamolotini ko'rsatuvchi axloq– odob mezoni ana shu uchlikda xumata (gumata) – yaxshi fikr, xukta (gukta) – yaxshi soz va baarsha (gvarshta) – yaxshi ishlarda ifodalanadi. "Men yaxshi fikr, yaxshi so`z, yaxshi ishga shon shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat konunga shon- shavkat baxsh etaman" ("yasna", 14), deyiladi.
"Avesto"ning tadqiqot chisi A.O.Makovelskiy inson fikri, so`zlari va ishlariga ikki karama karshi kuch: Voxu Mana ("Ezgu fijr") va Apo Mana ("Yovo`z fikr") ta'sir kursatadi deydi. Barcha fikrlar, so`zlar va ishlar ichida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi. "Yaxshi fikr" deganda iloxiy-qonun: kishiga mexribon bo'lish, muxtojlarga ko'maklashishga, yovuzlikka qarshi kurashishga tayyor turish, kishilarni baxt-saodati uchun xarakat qilish, axillik va do'stlik, totuvlikda yashashga intilish ruxidagi niyatlar va fikrlarning musaffoligi tushunilgan. Inson o`z fikri xayolida boshqalarga xasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bulmaydi va boshqa jixatlarga berilmaydi. Chunki bunday xolatda inson yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolat xaqida unitadi va nojo'ya xaraktalar qiladi.
Zardushtiylik dinida uchlik asosiga tayangan xolda axloqiy meyorlar:**YAXSHI SO'Z, YAXSHI ISH, YAXSHI FIKR (XULO' ATVOR**) mavjud.
Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go'ro'g'li) manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etganini ko'ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni yuzaga keltirdi. Ular mintaqadagi oila va jamiyat tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyoning arab halifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashinuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o'zaro munosabatlarning shakllanishini yuzaga keltirdi. Moddiy barqarorlik, ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma'naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishga yordam berdi.
Ijtimoiy pedagogik g'oyalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg'onish davri olimlarining asarlari alohida o'rin tutadi. Ular faoliyatining mohiyati o'sha davrgacha mavjud bo'lgan ijtimoiylashtirish usullarini ilmiy asoslangan tizim holatiga keltirganliklaridadir. Etuk olimlarning

faoliyatidagi o’ziga xoslik, ya’ni doimiy ilm bilan mashg’ul bo’lish, bilimga chanqoqlik ularning ijtimoiy pedagogic qarashlarining mazmunida o’z aksini topadi.
O’rta asrlar Sharq fani va madaniyati etakchilari orasida shubhasiz, o’z davrida zamondoshlari tomonidan “Muallim us-soniy” (“Ikkinchi muallim”) deb nom berilgan Abu Nasr Forobiy (870-950)ning bu boradagi xizmatlari bebahodir. Uning ijtimoiy-siyosiy g’oyalari, ideal davlat haqidagi qarashlari, ayniqsa, taraqqiyparvar tavsifga egadir.
Ijtimoiy pedagogika fan sifatida respublikamiz mustaqillikni qo’lga kiritgandan so’ng o’qitila boshlagan bo’lsa-da, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat- ijtimoiy ximoya ko’rinishida qadimiy ildizlarga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go’ro’g’li) manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etishini ko’ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni olib keldi va ular mintaqada oila va jamiyat tarbiyasi tizimiga ta’sir ko’rsatdi. Markaziy Osiyoning arab halifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o’zaro munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Moddiy barqarorlik va ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma’naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o’zlashtirishga yordam berdi.
O’rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy pedagogik g’oyalari.
Ijtimoiy pedagogik g’oyalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg’onishi davri olimlarining asarlari beqiyos o’ringa ega. Ular faoliyatining mohiyati shuki avval mavjud bo’lgan o’sha davrni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asoslangan tizimi asosida to’planganligidadir. Etuk olimlarning faoliyat xarakteri-ilm bilan mashg’ul bo’lish ijtimoiy pedagogik qarashlarning mazmuniga o’z ta’sirini ko’rsatdi.
Buyuk olim Al-Xorazmiy (783-850 y)ning asarlari yorqin didaktik xarakterga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qulgakiritilishini, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kiritilishini, jamiyatning faola’zosiga aylanishini ta’kidlagan.
Al-Xorazmiy-Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug’bek-kabi olimlar o’z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta’lim beruvchi ta’sir kuchlarini o’sib kelayotgan avlodga qaratish g’oyasini tushunishgan va buni tadbiq etishgan. Bu avvalambor ular ta’limning maqsadi hayotga tayyorlash, axloqiy norma va qoidalar, kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo’lishida deb bilganliklarida namoyon bo’lgan.
Buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy (973-1050 y) ta’lim jarayoniga qo’llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U shuningdek ta’lim tamoyillarini ham tasniflagan. Uning pedagogik qarashlarining ijtimoiy yo’naltirilishi u axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o’z ifodasini topgan. Olimning tarbiya, shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy hayot uchun ilm va mehnatning ahamiyati haqidagi g’oyalari hozirgacha muhimligini saqlab qolgan.
Buyuq qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (980-1037 y) o’z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan. Uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar mavjud. Biz uning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof muhit ta’siri, axloqiy va mehnat tarbiyasi, muomala san’ati, bolalarni jamoada o’qitish haqidagi g’oyalari muhim hisoblanadi.
Forobiy, ibn Sino, Beruniy ta’lim muammolari bo’yicha bir xil fikrlar bildirgan va insonning jamiyatga sermahsul xizmat qilishi uchun o’z aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta’lim vazifasini ajratib ko’rsatganlar. Ta’limning rivojlatiruvchi vazifasini amalga oshirish maqsadida ular quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanishni maslahat berganlar:
-asta-sekin tushunchalarning murakkablashuvi;
-amaliyotni tajriba bilan bog’lash;
-qabul qila olishlik;
-ko’rgazmalilik.

Ibn Sinoning fikricha ijtimoiylashtirish ko'nikmalari jamoa bo'lib o'qitish shaklida yaxshi shakllanadi. Buning uchun u quyidagilarga asoslanishi lozim:
1.Ta'lim oluvchilar, o'qituvchi va o'quvchilar orasida tajriba, bilim, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil qilish.
2.Musobaqalashuv elementidan foydalanish.
3.O'quvchining ijtimoiy axloqiy xususiyatlarini-muomala, o'zaro tushunish, o'zaro yordam, do'stlik hissini rivojlantirish.
Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganligi, ularning avvalambor hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta'lim maqsadini sharhlashlarida o'z ifodasini topgan. Shaxsning jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishini ta'minlab beruvchi eng muhim xususiyatlar deb, ular mehribonlik, yaqinlarga yordam, g'urur, vijdon, yaxshi niyatlilik, sabrni bilishgan. O'quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnat tayyorgarliklariga katta e'tibor qaratib, Forobiy va ibn Sino yoshlarning jamiyatga "kirish"larining eng muhim omillari sifatida, faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, ijodiy qobiliyatni hisoblashgan.
Ijtimoiy tarbiyada o'qituvchiga etakchi o'rin ajratib, Forobiy uning faoliyatini, jamiyatning kelajagi unga bog'liq bo'lgan hukmdor faoliyatiga qiyoslaydi. Forobiy ham ibn Sino kabi pedagog o'quvchilarning bilimlarini hayotga tadbiq etishlariga e'tibor berish lozimligiga ishora qilgan.
Qomusiy olimlar shaxsiy namunaga nihoyatda katta e'tibor berishgan hamda o'zlari ham intiluvchanlik, yuqori ijtimoiy mavqe'ga erishganlik namunasi bo'lib xizmat qilishgan. Forobiy nihoyatda mehnatsevar, irodali, kamtar, sodda bo'lgan va doim yordamga intilgan. Forobiyning o'quvchilarning individual psixologik va aqliy xususiyatlariga mos tushuvchi ta'limni usuli, kasb tanlash muhimligi haqidagi fikrlari hozir ham katta ahamiyatga ega.
O'rta Osiyo olimlari tomonidan tarbiya va ta'limning ijtimoiy o'rnini tushunishlari shunda namoyon bo'ldiki, ular ijtimoiylashuvining mikroomillar-muhit, oila, o'quvchilar guruhiga e'tibor karatganlar va ota-onalar, pedagog va o'quvchining harakatlarini mujassamlashtirishni maslahat berganlar.
Shunday qilib, o'rta asr olimlari ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganlikga ega katta pedagogik meros qoldirganlar. Ularning ilmiy pedagogik asarlari zamonaviy ijtimoiy pedagogika ilmining rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi.
XI-XIX asr ma'rifatparvar shoirlari va olimlarining ijtimoiy pedagogik qarashlari Farobiy, Ibn Sinolarning falsafiy va pedagogik kontseptsiyalari keyingi davrlarning etakchi ta'limotlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.
XI-XII asr Markaziy Osiyo ma'rifatparvar olimlari turli fanlar, shu jumladan pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shishdi. Yusuf Xos Xojib, Burxoniddin Zarnujiy va Ahmad Yugnakiylar bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topib olishi uchun bilimning, ota-onaning, oilasining o'rniga e'tibor qaratishgan. Ular tarbiyaning asosiy maqsadi deb yaxshi odam qilib tarbiyalash, unga etishish vositasi deb esa qattiqqo'llik, doimiy mehnatga o'rgatish deb bilishgan.
Zarnujiyning Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari O'rta Osiyoda "Ta'limda o'quvchiga pandlar" kitobi Markaziy Osiyoda pedagogikadan birinchi kitob hisoblanadi?
Tarbiyaning ijtimoiy xarakteri haqidagi g'oyalar Alisher Navoiyning she'riy merosida nihoyatda aniq ifodasini topgan. Shoirning pedagogik qarashlari insonparvar xarakterga ega. Inson egallashi lozim bo'lgan barcha bilim va kasb-xunarlar u tomonidan Vatan foydasi uchun qo'llanilishi kerak.
XVIII-XIX asrning ma'rifatparvar shoirlari Munis Xorazmiy (1778-1829), Muhammad Ogahiy (1809-1874), Ubaydulla Zavqiy (1853-1921) birinchi o'ringa keng ommaning ma'rifatli kilish va ta'lim masalalarini kuyishgan. Ta'limning asosiy vazifasi ular axloqiy mukammallashuvida va mehnatga o'rgatishda deb bilishgan.
Saidahmad Siddiqiyning (1864-1927) qarashlari o'zoqni ko'ra olishlik va zakovati bilan ajralib turgan. Dehqon oilasidan chiqqan pedagog, demokrat shoir o'z qishlog'i hovlisida dehqon va xunarmandlar uchun ilk maktabni ochgan, kattalar uchun maktab tuzgan, 1914 yil kitob, darslik va o'quv qo'llanmalari bilan savdo qiluvchi do'kon ochgan. Keyinchalik Siddiqiy yana bir nechta

qishloq maktablari ochgan va ularda o'zbek, tojik, rus bolalariga ta'lim-tarbiya bergan. Tabiatshunoslik va geografiya darslari tabiat qo'ynida o'tkazilgan.

XIX-XX asr demokrat shoirlarining ijtimoiy pedagogik qarashlari.

Ma'rifatparvarlik va demokratik g'oyalari XIX asrning oxiri- XX asr boshlarida o'z cho'qqisiga ko'tarildi. O'rta asr islom g'oyalari: so'fiylik, zohidlik, dogmatizm, sxolastikaga qarshi chiqib o'zbek demokratlari eski sharoitlarga umuman mos kelmaydigan ta'lim usullari va tamoyillarini ilgari surdilar: har tomonlama (aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat) dunyoviy, o'g'il bolalar va qizlar uchun bir xil, insoniylik, demokratiya, vatanparvarlik ruhidagi tarbiyani ilgari surdilar va asoslab berdilar.

O'zbekistondagi demokratik pedagogik g'oyaning taraqqiyparvar yo'nalishining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniydir (1878-1934) Sharq tillari va adabiyotini yoshligida chuqur o'rganib, u mumtoz o'zbek she'riyati ta'sirida she'rlar yozgan. Uzoq vaqt mobaynida Toshkent maktablarining birida bolalarga ta'lim bergan. Avloniyning o'zbek pedagogikasiga qo'shgan hissasi shuki, u ilk marta tarbiya oldida ijtimoiy vazifalarini qo'ya olgan. Bu shoir va pedagogning katta jasorati o'z asarlarida shaxsning rivojlanishida tarbiyaning hal qiluvchi rolining e'tirof etilishi bo'ldi. Uning fikricha, tarbiya ijtimoiy maqsadlarini ko'zlashi kerak. Avloniy "yangi kishi" tushunchasini shaxsiy emas, balki ijtimoiy manfaatlardan kelib chiquvchi jamoat arbobi sifatida ta'riflaydi. Tarbiyaning muvaffaqiyati Avloniy fikricha oila, ota-onalar va pedagoglarning shaxsiy namunaviy roli bilan belgilanadi. Eng muhim ijtimoiy xususiyat deb u mustaqillik, tashabbuskorlik, amaliy tajribani bilgan.

O'zbek ma'rifatparvarlarning yorqin vakili bo'lgan Avloniy "to'g'ri" g'oyalarning kengaytirib va "noto'g'ri" g'oyalarni bartaraf qilibgina yovuzlikni yo'qotish mumkinligiga ishongan. Shuning uchun tarbiya mavzusi ma'rifat gazetasi bo'lmish "Shuhrat" gazetasida keng yoritilgan.

Mustamlaka Turkiston sharoitlarida matbuot cheklangan o'quvchilarga ega bo'lgan, chunki aksariyat aholi savodsiz bo'lishgan. Bu holatda dramaturgiya ma'rifiy g'oyalarni tatbiq qilishning eng samarali usuli bo'lgan. Teatr Avloniy uchun odamlarni tarbiyalash, birlashtirish vositasi bo'lgan. 1913 yilda Toshkentda Avloniy "Turon" nomli teatr truppasini tashkil qildi. Truppaning maqsad-vazifalari Toshkentdagi "Turon" dramatik san'at jamiyatining nizomida aniqlangan: "sahnaga nisbatan muhabbat va jiddiy munosabat tug'dirish, xalq uchun spektakllar tashkil qilish".

Bu maqsadga erishish uchun jamiyat kechalar, kontsertlar, spektakllar va boshqa ommaviy chiqishlarni tashkil etishga o'z nomiga klub va musiqa kurslari, kutubxona va qiroatxona tashkil qilishga, boshlang'ich maktablar ochishga, ta'limni o'rta va oliy o'quv yurtlarida davom ettirish uchun stipendiyalar ta'sis etish huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek, u mavjud hayriya va ta'lim muassasalariga moddiy yordam ko'rsatishi mumkin104.

Avloniyning ma'rifiy g'oyalari nafaqat ijodda ilgari surgan. U tomonidan 1908 yilda kambag'allar uchun maktab ochilgan va u erda ona tilini o'qitishning yangi usullari qo'llanilgan. Pedagogik faoliyat bilan sermahsul shug'ullanishni kanda qilmay u darslik va qo'llanmalar yoza boshlagan. O'z vaqtida uning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligi mashhur edi.

Avloniydan so'ng ma'rifatning va dunyoviy bilimlarning faol targ'ibchisi Miskin edi. Miskinning ta'lim va ma'rifiy qarashlari ijtimoiy-siyosiy mohiyatga ega edi va o'zbek ilg'or pedagogik g'oyalarining rivojiga katta hissa qo'shgan. Insonni reallikdan ajratib oluvchi va uni shukronalik ruhida tarbiyalovchi hukm surgan musulmon pedagogikasiga qarshi Miskin ta'lim jarayonini yosh avlodni xalqqa xizmat qilish uchun tarbiyalash deb tushungan va o'z qarashini rivojlantirgan. Miskin va boshqa o'zbek ma'rifatparvarlarining intilishlari tarbiyaning ijtimoiy jihatini oshirishga, ijtimoiy tarbiyani kengaytirishga, insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishi, boshqa davlatlar va xalqlar hayotini o'rganishga qaratilgan edi. Biroq bu ijtimoiy xususiyatlar bilan birga o'zbek ma'rifatparvarlari XIX asr ikkinchi yarmida o'z qarashlarining ketma-ket emasligi, ularning feodal-mustamlaka tuzumga qarshi kurashdagi ojizliklarini keltirib chiqaruvchi mustahkam siyosiy

104 А. Бобохонов. Хамзанинг ижтимоий педагогик ва адабий фаолияти. Т.:Ўқитувчи. 1979 й. 15 б.

dasturning yo'qligi bilan ajralib turardilar. Biroq ularning dunyoqarashining cheklanganligi va qarama-qarshiligiga qaramay ular O'zbekistonda ilg'or g'oyaning rivojiga o'z hissalarini qo'shishdi.
XX asr boshidagi o'zbek pedagogik g'oyasida 3 asosiy yo'nalishni ajratsa bo'ladi:
1.ko'proq hukmronlik qiluvchi o'rta asr feodal klerikal yo'nalishi;
2.paydo bo'layotgan milliy burjua yo'nalishi (jadidlik). Uning vakillari bu davrda feodal klerikal maktabiga qarshi chiqib o'zlarining "usuli jadid" pedagogik talablarini ilgari surish;
3.demokratik taraqqiyparvar yo'nalish. Demokratik pedagogika o'rta asr maktabini va tarbiyasini tanqid qilgan va inkor etgan hamda unga qarshi yangi, ilg'or g'oyalarni ilgari surgan.
XX asr boshida O'zbekistonda demokratik pedagogikaning eng yirik vakili Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) edi. Hamza XX asr boshida o'zbek xalqi madaniy hayoti va ma'rifiy harakatining eng yirik namoyandasi edi. Uning nomi bilan O'zbekiston tarixining butun bir davri bog'liq. O'z asarlarida o'zbek xalqi pedagogik g'oyasi rivojining eng yaxshi yutuqlarini jamlab hamda Rossiya ijtimoiy ma'rifiy g'oyalariga tayanib u ta'lim tarbiyaning eng global muammolarini ko'tara oldi.
Qo'qonda ozod milliy maktabning yaratilishi, keyinroq esa Farg'ona, Marg'ilon va Toshkentda shunday maktablarning yaratilishi bu ajoyib pedagog va jamoat arbobining jasoratli qadami bo'ldi. Bu maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi shaxsning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy faallashuvi uchun sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan edi. Hamzaning pedagogik ishlarining ijtimoiy xarakteri tarbiyaning barcha mashhur turlari (estetik, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat), muomala va atrofdagilar bilan o'zaro munosabat malakalarini rivojlantirish, tarbiyalanuvchilarning turli hayotiy, madaniy va aqliy taassurotlarini olishlari uchun imkoniyatlar yaratishga asoslanadi.
1911 yilda Hamza o'zining yangi usul maktabini ochdi va unda o'quv jarayoni tashkil qilishni tubdan isloh qildi. Biroq uning pedagogik faoliyatidagi eng asosiy hodisa 1914 yilda etimlar va kam ta'minlangan bolalar uchun "Dorul ojizin" nomli maktabning ochilishi bo'ldi. Unda bolalar bepul o'qitilgan hamda kitob, daftar, qalam va boshqa yozuv qurollari bilan ta'minlanganlar. Biroq Hamzaning maktablarni isloh qilish va demokratiyalashtirishga harakati musulmon ruhoniylari va chor hukumatining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Buning oqibatida "Dorul ojizin" yopildi va Hamza chor politsiyasi nazoratiga olindi.
Hamzaning ta'lim mohiyatiga, ommaning ozodlikka erishishi uchun asosiy qurol, faol, ijodiy shaxsning tarbiyalash vositasiga nisbatan bo'lganidek, uning qarashlari o'zbek ilg'or pedagogik g'oyasining rivojlanishida katta qadam edi. Insonni reallikdan ajratuvchi va uni shukronalikruhida tarbiyalovchi hukmron sxolastik musulmon pedagogikadan farqli o'laroq Hamza Hakimzoda ta'lim mohiyatiga yangi qarashlarni kiritgan. Ta'lim jarayonini yosh avlodni xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalash deb tushunardi. Shoir tarbiyaning asosiy vazifasi yoshlarni jamoat faoliyatiga tayorlash deb bilgan. Hamza yoshlar o'z vatani va xalqi oldidagi ma'suliyatlarini tushunish kerakligini ko'p marta ta'kidlagan.
Tarbiyaga eng katta ta'sir qiluvchi omillarga Hamza muhit va oilani kiritgan. Go'dakning kelajagi, uning hislarining rivoji va boshqa ijtimoiy psixologik vazifalar uni o'rab turuvchi atrof muhit, uning hayotining xarakteriga bog'liqdir. Oilaning jamoat tarbiyasidagi o'rni bola hamda hayotning o'zaro munosabatiga ko'proq e'tibor qaratishdan iborat. Hamza onaga alohida rol ajratadi, chunki u bolalar bilan psixologik, ruhiy va energetik reja asosida eng ko'p bog'langan shaxsdir. U bolalarni e'tiborsiz yoki noto'g'ri tarbiyalaydigan ota-onalarni qoralagan. Ta'lim tarbiyada tub o'zgarishlarni amalga oshirish uchun Hamza bir qator yangi darsliklarni o'zbek tilida yaratdi: o'zbek alifbosini o'rganish uchun "Engil adabiyot", o'qish uchun "O'qish kitobi", adabiyotdan "Qiroat kitobi". Hamzaning kitoblari ta'lim oluvchilar tomonidan katta qiziqish bilan o'qilgan va tez o'zlashtirilgan. Hamzaning barcha kitoblari o'zbek bolasining erkin o'qishi uchun qulay qilib yaratilgan.
2 savol bayoni: Xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi
Xorijda ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanish tarixidan.
Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi ancha qadimiylikka borib tutashadi. Uning qadimiyligibuyuk mutafakkirlarning ilmiy qarashlarida o'z tasdig'ini topgan.Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishining Birinchi bosqich-qadimgi davrlardan XVII asrgacha

bo’lgan davrini o’z ichiga oladi. Bu davrda faktlar to’planishi, tarbiya tajribasining anglanishi, pedagogik va ijtimoiy nazariyalarning shakllanishi ro’y bergan. Ijtimoiy pedagogikaning bu rivojlanish bosqichi tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida asta-sekin tan olinishi bilan xarakterlanadi. Buning natijasida turli tarbiya nazariyalari paydo bo’lgan.

Birinchi bosqichningbu kabi davriy chegaralanishi avvalambor, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida ham ijtimoiylashtirish muammosining mavjud bo’lganligi bilan izohlanadi. Chunki ibtidoiy jamoada to’plangan boy tarbiyaga oid ijtimoiy pedagogik g’oyalar haqida gapirishga imkon beradi. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida insonning hayvonot olamidan ajralishi bilan paydo bo’lgan.. Dastlab tarbiya faoliyat turi sifatida yuzaga kelgan bo’lsa, keyinchalik esa o’ziga o’ziga xos faoliyat turiga aylangan va bu bilan shug’ullanuvchi odamlar-tarbiyachilar paydo bo’lgan. Vaqt o’tgani sari tarbiya jarayoni ham murakkablashib borgan, yosh, jins, mazmuniga ko’ra farqlana boshlagan, uning axloqiy jihatlariga e’tibor qaratila boshlagan. Juft oilalarning oilaviy tarbiya ham ommalasha boshlagan. Bundan tashqari, arxeologik ma’lumotlar ibtidoiy jamoada kasal va yaradorlarga yordam ko’rsatilganligini bolaligida olingan jarohatlar tufayli vafot etganlarning skeletlari asosida to’la tasdiqlaydi.. Bu kabi qarashlar etnografik ma’lumotlarda paydo bo’lish bilan ham o’z tasdig’ini topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida yashagan barcha elatlarida mehnatning jins va yoshga qarab ajratish an’anasi bo’lgan. Mavjud yoshlarni muntazam ravishda turli kasb-xunarlarga o’rgatishgan.

Bularning hamasi ibtidoiy jamoada ijtimoiy-pedagogik tajribaning ilk ko’rinishlari mavjud bo’lganligi haqida tasavvur qilishga imkon beradi.

Agar ibtidoiy davrni ijtimoiy pedagogik amaliyotning vujudga kelishiga zamin yarangan bo’lsa, qadimgi dunyoning ilk tsivilizatsiyalarining paydo bo’lishi ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishiga kuchli ta’sir ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishi yozuv hamda pedagogik g’oyalarning yozma manbalarda ko’rsatilgan saqlanib qolish hodisasi bilan bog’liqdir.

Sharqning quldorlik davlatlarida ijtimoiy pedogogik g’oyalar bir nechta mualliflar tomonidan shakllantirilgan va odatda muqaddas kitoblar shaklida butun xalq mulkiga aylangan (Xitoyda-Shukit, Hindistonda-Vedalar, Misrda-Tot xudosi kitoblari, O’rta Osiyoda-Avesto va boshqa).

Faqatgina miloddan avvalgi I ming yillikning o’rtalari va ikkinchi yarmida ijtimoiy pedogogik g’oyalarni yaratuvchilarining nomlari ma’lum bo’la boshlaydi.

Shubhasiz, ijtimoiypedagogik tafakkurning rivojlanishiga antik davr (yunon va rim) faylasuflari katta hissa qo’shishgan. Xususan, Suqrot (mil. avv. 469-399 y) “O’z o’zingni angla” degan shiorni ilgari surgan va shu bilan ong insonda barcha yovuzlikni yo’qotishi mumkinligini ta’kidlagan.

Demokrit (mil. avv. 460-370 y) o’z ta’limotida tarbiyada bola tabiatini hisobga olish tamoyilini asoslab bergan. Bundan tashqari uning fikricha, bola tarbiyasini yoshligidan boshlamoq kerak.

Aflotun (mil. avv. 423-347 y) ilk marotaba davlat va tarbiyaning o’zaro munosabati g’oyasini ilgari surgan. Uningcha tarbiya davlatning eng muhim vazifasi bo’lgan.

Arastu (mil.avv. 384-322 y) faylasuf, qomusiy olim. U antik duyoda tarbiyaning eng to’liq nazariyasini ishlab chiqqan. Aflotundan farqli o’laroq u inson tarbiyasida asosiy urg’uni davlatga to’liq bo’ysundirishga emas, balki insonning o’zini manfaatlariga qaratadi. Shaxsning jamoat bilan uyg’un rivojlanishi to’g’risidagi g’oya ham unga tegishlidir.

Mark Fabiy Kvintilian (mil. avv. 42-118 y) notiqlik san’atining qadimgi yunon nazariyotchisi, pedagog. Ilk pedagogik asar bo’lmish “Notiqning tarbiyasi haqida” unga tegishli bo’lib, unda tarbiyaning muhim g’oyalari, ta’lim metodikasi bayon etilgan.Kvintilianning asosiy g’oyalari o’z “men”nini saqlab qolish, “o’z ustidan” hukmronlikka erishish kabilarni tashkil etadi.

Feodalizm davri tarbiyasining o’ziga xos xususiyatlari asketizm, dunyo dinlari qoidalariga qattiq amal qilish bo’lgan. O’sha davrning (VI-XII asrlar) ijtimoiy-pedagogik g’oyasini yaratuvchilari o’sib kelayotgan avlodga singdirmoqchi bo’lgan axloqiy qadriyatlar orasida hamdardlik, yaqinlarga yordam, xususan kasallar va nochorlarga yordam kabilar paydo bo’ldi.

XV-XVI asrda avval Italiyada, so’ngra Evropaning boshqa davlatlarida kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. Paydo bo’layotgan yangi toifa vakillariga, aksariyat ziyolilarga asketizmning tamoyillari begona edi. Yangi burjua madaniyati shakllana boshlaydi va uni xarakterlashtirish uchun odatda insoniylashtirish va qayta tiklash tushunchalar qo’llanilgan. Gumanizm (insoniylik)

tushunchasi yangi madaniyat markazida ilohiylik emas, inson turishi guvohlik berardi. Uning o'zi ham qalban, ham jisman go'zal bo'lishi lozim. Faqatgina inson ongi, kuchi, muvaffaqiyatiga ishonchi, faolligi, irodasi tufayli barcha qadriyatlar va o'z baxtining yaratuvchisiga aylana oladi. Asketizm(yunoncha) tuyg'u va istaklarnicheklash yokibostirish, azob tortish, hayot ne'matlaridan voz kechish. Bu erda gap uning shaxsiy hislatlari, shaxsiyati, mashhurligida emasligi hisobga olingan.. Shu bilan birga gumanistlar cherkovga qarshi ochiq qarshi chiqmaganlar. Ular xudoni, olamni harakatga keltirgan va o'shandan beri unga aralashmagan yaratuvchi deb bilishgan.

XIV-XVI asrlar gumanistlarining aksariyati yoki o'zlari pedagog bo'lishgan yoki pedagogik nazariyaga murojaat qilishgan. Gumanizm g'oyasi pedagogikada xuddi ana shu davrlardan boshlab o'rnasha boshlagan.

Asl tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra doim go'zallik haqida, uning kelajagi haqidagi g'amxo'rlikni bildirgan. Uyg'onish davrida ijtimoiy gumanizm g'oyalarini amalga oshirila boshlanishi mashhur italiyalik pedagog-gumanist Vittorino de Genotre (1378-1446) tomonidan ilk marta "Quvonch uyi" nomli internat maktabning yaratilishi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash joizki, ta'riflanayotgan davrda din, pedagogika va ijtimoiy-pedagogika bir-biriga uzviy ravishda rivojlangan.

Diniy qarashlarda asosiy e'tibor umuminsoniy qadriyatlarga qaratilgan. Diniy rivoyatlarda, muqaddas kitoblarda oyatlarda axloqiy o'gitlar, insonlararo munosabatla, qavm-qarindoshlarga,, bolalarga g'amxo'rlik haqida ko'p gapirilgan. Bu asosda ko'pgina avlodlar tarbiya topishgan va bu borada Evropada cherkov uzoq vaqt mobaynida "nogiron bolalar" rahnamosi bo'lgan. Unga nafaqat ruhiy yordam so'rab, balki tibbiy, moddiy yordam so'rab, adolatsizlikdan himoya so'rab murojaat qilishgan. Butun dunyoda diniy tashkilotlarning boy ana'nalari mavjud. Masalan, Evropada antik davrlardan buyon ota-onasiz qolgan bolalarni ibodatxonalar eshigi oldiga qo'yib ketishgan. Manbalarga ko'ra ota-onasiz qolgan bolalar uchun ilk tarbiya uylari IV asrda Kesariya (Kichik Osiyo) shahrida episkop Vasiliy Kesariyning tashabbusi bilan paydo bo'lgan. 787 yilda bunday muassasa Milandagi soborda ham paydo bo'lgan. Uzoq vaqt u Evropada yagona bo'lib tashkilot qolaverdi va faqat XIV asrga kelib tarbiya uylari soni 30 tagacha ko'paydi. Qizig'i, endi unda faqat tarbiya bilan shug'ullanishmagan, ularda amaliy ishlar ham olib borilgan: onalarga yordam berilgan, bolalarni oilalarga berishgan, ularning tarbiyasini nazorat qilishgan. Keyinchalik ham bolalar uylari ruhoniylar tomonidan boshqarilgan. Parijda 1640 yil ruhoniy Vintsentom Depolen tomonidan asos solingan tarbiya uyi juda mashhur bo'lgan. U uyni qirol Lyudovik XIV tomonidan moliyalashtirishga erishgan. Mehribonlik bilan shug'ullanuvchi organlar- yirik cherkov tashkilotlari ham tuzila boshlagan.

Ijtimoiy pedagogika rivojining ikkinchi bosqichi davri-XVII-XIXasrlar- ijtimoiy-pedagogika eng ilg'or g'oyalar va ilmiy kontseptslar bilan boyitilgan davr bo'ldi desak, xato bo'lmaydi.

XVIII-XIX asrlar (burjua-demokratik inqiloblar davri) olimlarining (pedagog, faylasuf, sotsiolog, psixologlar) davlat va jamoat institutlari bilan biri ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilish g'oyalarining paydo bo'lishi davridir. Tarbiya masalalari jamiyat islohotlari, inson huquqlari tengligi bilan bog'lana boshlandi. Aynan shu davrda ijtimoiy-pedagogikaning asosiy yo'nalishlarining aniq faoliyatda amalga oshishi sodir bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga frantsuz faylasufi, yozuvchi, ma'rifatparvar J.J.Russo (1712-1778 y) ulkan hissa qo'shgan. U tabiiy huquq, din va tabiiy rivojlanish asosiga qurilgan tabiatan shakllangan tarbiya g'oyalarini ilgari suradi. Rus qomusiy olimi va pedagog M.V.Lomonosov (1711-1765 y) o'z "reglamentlari"da tarbiyaning xalqparvar g'oyalarini, insonga faol shaxsga bo'lganidek yondashuvni, bolani axloqiy sifatlarini shakllantirish muhimligini bayon etgan.

Yangi ijtimoiy pedagogik g'oyalar frantsuz faylasufi va ma'rifatparvari Klod Adriana Gelvetsiy (1715-1771 y) ishlarida ham tilga olingan. Ular tarbiya omillari- muhit va pedagogik ta'sir, shaxsiy va jamiyat manfaatlarining birligi masalalaridir.

Shvetsariyalik buyuk pedagog Iogann Genrix Pestalotstsi (1746-1827 y) o'z faoliyatida ijtimoiy pedagogik nazariyani va amaliyotni birlashtirgan va o'z mablag'lari evaziga etimlar uchun uylar ochgan.

XIX asr shunisi bilan xarakterliki, bu davr mobaynida ijtimoiy pedagogikaning pedagogikadan ajralishi jarayoni sodir bo'lgan. Ikkinchi tomondan uning boshqa fanlar psixologiya, ijtimoiyogiya, tibbiyot, falsafa kabi fanlar yaqinlashuvi bilan ham ro'y bergan.
asr ijtimoiy pedagogikaning asosiy yo'nalishlariga esa quyidagilar tegishli:
1. ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqish- bu uning fan bo'lishiga olib kelgan. Bu yo'nalishga mafkurani ham kiritsa bo'ladi.
2. Ta'lim sohasidagi ijtimoiy pedagogik faoliyat. Gap ijtimoiy pedagogik ta'lim, tarbiya maqsadi va xarakteriga ta'siri haqida ketmoqda.
3.Xayriya va o'quv-tarbiya muassasalarining tuzilishi bo'yicha ijtimoiy pedagogik faoliyat (Bazedovning "filantroplari", Ouenning "yangi institut" kontseptsiyalari);
4. ijtimoiy pedagogikaning harakat doirasining kengayishi, "nochor" va tanlab olingan bolalardan tashqari unga boshqa toifadagi katta yoshdagilar ham kiradi.
Asosiysi ijtimoiy pedagogika o'z faoliyatida davlat darajasiga chiqadi va o'z sheriklari bilan birga talablarini qonuniy rasmiylashtirishga erishiladi. XIX asrning 60-70 yillarida Germaniya, Angliya, AQShda ijtimoiy qonunchilik tizimlari yaratiladi.
Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining barcha yo'nalishlarini uning eng asosiy vazifasi-bolalarning huquqlarini himoya qilish birlashtiradi. Biroq XVIII-XI X asrlarda u avvallari e'tiborsiz bo'lgan g'oyalar bilan to'ldiriladi. Aniqrog'i, ijtimoiy pedagogika g'oyasi nazariyasi va amaliyotida birinchi o'ringa umuminsoniy qadriyatlar chiqadi. Ijtimoiy pedagoglarni birlashtirib turgan boshqa muhim g'oya tarbiya va ta'limning uzviy bog'liqligini anglash bo'ldi.
Ingliz faylasufi va pedagogi Robert Ouenning ijtimoiy pedagogik faoliyati bir qancha qiziqarli va sermaxsul tajribalardan iborat. Nyu-Lenarkda "Inson xarakterini tuzishni yangi instituti"ni ishchilarning turmush darajasini yaxshilash uchun yaratib, u amaliyotda ishlab chiqarish ta'limini madaniyat bilan bog'lab qo'ydi. Jahonda ilk marta didaktik o'yinlar o'tkaziladigan, bolalarning jismoniy holati haqida g'amxo'rlik qiluvchi muassasalar u tomonidan tuzilgan.
Ingliz faylasufi Gebert Spenser (1820-1903 y) oilaning shaxs shakllanishidagi o'rni haqidagi ijtimoiy pedagogik g'oyalar bilan to'ldirilgan asarlar yaratgan. Bu maqsadlarga erishishi uchun u qiziq usulni ilgari surgan-Angliyaning davlat va siyosiy tuzilmasini oila va maktab tomonidan imitatsiyalashuvi.
XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogika va ommaviy tarbiya tizimiga buyurtmalar kengayadi. Unga asta-sekin yoshlarni tarbiyalash, shuningdek ijtimoiy xulq-atvor normalarini buzuvchi shaxslarni qayta tarbiyalash kirgan. Industiryalashtirish qishloq axolisining shaharga ommaviy migratsiyasini keltirib chiqardi. Buyurtmaning kengayishini keltirib chiqargan holat Evropa va Amerika mintaqalarining ijtimoiy madaniy jarayonlari bilan ham bog'liq. Qishloq axolisining shaharga ko'chib o'tishlari g'ayriaxloqiy xulq-atvor, jinoyatchilik, daydilikning ko'payishiga olib keldi. Ayniqsa, AQShda holat nihoyatda og'ir edi. Bu davlatga boshqa kam rivojlangan davlatlardan axoli ko'chib kelishi bilan bog'liq. Ayni vaziyatda cherkov rolining susayishi kuzatildi. U shu paytgacha axloqiy normalarning ana'naviy tashuvchisi bo'lib kelgan. Biroq u jamiyatning yangi ehtiyojlari va voqeliklarini anglay olmadi va ko'pgina odamlar hayotida o'zining avvalgi mavqeini yo'qotdi. Shu bilan birga Evropada milliy davlatchilikning shakllanishi va Amerikada millatning yuzaga kelishi barcha ijtimoiy qatlamlarda muayyan g'oya va qadriyatlarning madaniylashuvini talab qilardi. Bu esa masalani echish vositalarini topishni taq azo etardi. XIX asr oxirida mustaqil fanga aylangan ijtimoiy pedagogika rivojiga aynan shu omil vosita bo'ldi. Bu paytda esa nemis pedagogi Fridrix Disterveg tomonidan faqatgina XX asrda keng qo'llanilgan ijtimoiy pedagogika atamasi fanga kiritildi.
Aynan shu vaqtdan ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishining uchinchi bosqichi boshlanadi. XX asr inson tsivilizatsiya tarixiga ilmiy-texnikaviy inqiloblar asri sifatida nom qoldirdi. Fan ishlab chiqarish ob'ektidan iqtisodiy va madaniy sohaning etakchi omiliga aylandi. Ilmiy inqiloblar ijtimoiy pedagogikaning keyingi rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu avvalambor falsafa orqali amalga oshdi. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar-psixologiya, fiziologiya, anatomiya, tarix, sotsiologiya va boshqalar bilan yaqinlashuvi ro'y berdi. Eng asosiysi-XX asrda insonning muammolari, uning tarbiyasi va ta'limi uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratish

zamonning eng global muammosiga aylanadi. Aynan shu davrda pedalogiya-bolani har tomonlama o'rganish haqidagi fan rivojlana boshlaydi. Uning asoschilari E.Meyman, S.Xoll, Torndayk hisoblanishadi. Bu borada Rudolf Shteynerning pedagogikasi ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy pedagogikani yangi g'oyalar va tarbiya usullari bilan boyitgan pedagogika arboblaridan Georg Kirshenshteyner (1854-1932 y)-Germaniya, Jon Dyui (1859-1952 y)-AQSh, Vilgelm Layni (1862-1926 y)-Germaniya ko'rsatsa bo'ladi.

G.Kirshenshteynerning pedagogik nazariyasi maktablarni bolalarning sust qabul qilinishidan faol harakatdagi ehtiyojlarini amalga oshirishga, ijodga ko'ra isloh qilish g'oyasiga asoslanadi. Kirshenshteyner ijtimoiy pedagogik tizimining asosiy tamoyillari-bolalarni jamiyatda har tomonlama tayyorlash uchun mehnat maktablarini yaratish, hamkorlik malakalarini rivojlantirish, davlat manfaatiga xizmat qiluvchi bolalarning fuqarolik tarbiyasidir.

Jon Dyui pragmatik pedagogika asoschisi hisoblanadi. Uning oliy qadriyatlari amaliy natija, biznesda muvaffaqiyatga erishish hisoblanadi. Bu pedagogning xizmati shundaki, u maktab bilan hayotning aloqasi, ta'limning individuallashuvi kabi ijtimoiy psixologik g'oyalarga murojaat qilganidir.

Vilgelm Lay "Harakatlar pedagogikasi"ni yaratdi. U inson faoliyati va mavjudligining fiziologik va psixologik mexanizmlarini o'zida mujassamlashtiruvchi biologik reaktsiya tamoyiliga tayangan. U tarbiyaning biologik tomonini-tug'ma reflekslar, sezgi, reaktsiyalar, ularning bolalar o'yinlarida paydo bo'lishini va ijtimoiyogik tarbiyachining reaktsiyalarga ta'sirini ko'rsatgan.

Hozirgacha turli davlat olimlari o'rtasida ijtimoiy pedagogikaning boshqa pedagogik fanlari orasidagi o'rni borasida –bu mustaqil fan bo'la oladimi yoki faqatgina yosh guruhlarini o'rganish bilan cheklanadigan pedagogikaning mustaqil bir sohasi bo'lib qolaveradimi, degan masaladabahs-munazara davometmoqda.

Bu bahslar, yangi fan tushunchasining shakllanmaganligi ijtimoiy pedagogika mohiyatini inkor etuvchi ba'zi pedagoglar nazariyalarida paydo bo'lgan. Masalan G.Noll va G.Boymer (20-30 y) ijtimoiy pedagogikani bolalarga yordam berish va voyaga etmaganlar huquqbuzarliklarining profilaktikasi deb tushunishgan.

Ijtimoiy pedagogikaning mohiyatini nemis olimi Paul Natori (XX asrning 20- yillari) umuman boshqacha ta'riflangan. U ijtimoiy pedagogik jamiyatning tarbiyaviy kuchlarining yaqinlashtirish muammosini xalqning madaniy va axloqiy darajasini ko'tarish maqsadida tadqiq etadi deb hisoblagan. Bunaqa tushunish yangi davrning buyurtmasiga ko'proq mos kelgan va ijtimoiy pedagogika inson hayoti davomida tarbiyalash haqidagi bilim sohasi ekanligini tasdiqlagan. XX asrning 60-yillarida ijtimoiy pedagogika huquqbuzarlik sodir etgan bolalarga yordam berish, bolalar uyida tarbiya ishlari o'tkazish maqsadidagi ijtimoiy tarbiya asosi sifatida ta'rif etilaboshladi.. Ijtimoiy pedagogika pedagogikani rivojlanishi bilan birga chet ellarda ijtimoiy pedagogika sohasidagi mutaxassislarning kasbga oid faoliyati ham rivojlandi. Xususan, XX asrning 70-yil Germaniyada oliy ma'lumotli pedagoglar tayyorlana boshlandi.

XX asrning50-yillariga kelib ijtimoiy pedagogika muammolarining global darajaga etganiga BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 20.11.1959 yil va 20.11.1989 yilda bola huquqlari deklaratsiyasini qabul qilinganligi guvohlik beradi. Unda aloxida e'tibor etimlarning ijtimoiy himoyasiga, ko'p bolali oilalar, kam ta'minlangan oilalar bolalariga ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan.

Bizning respublikamizda ijtimoiy pedagogika an'ana va tamoyillarini tiklanishi murakkab sharoitlarda amalga oshmoqda; davlat ta'lim standartlari, mutaxassisliklar, darsliklar, o'quv rejalari va dasturlarning etishmasligi, ijtimoiy muxofazaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi chet el mutaxassislari bilan yaqin hamkorlik asosida bo'lish kerak. Chunki Germaniya, Angliya, AQShlarda boy ijtimoiy pedagogik tajriba mavjud.

Nazorat savollari

1.Xo'rijda ijtimoiy pedagogika taraqqiyotinihg asosiy bosqichlarini sanab o'tihg?
2."Ijtimoiy pedagogika" atamasi kim tomonidan va qachon fanga kiritilgan?
3.Ijtimoiy pedagogikanihg ob'ekti va predmeti haqida tushuncha berihg?
4.Ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy ta'lim tushunchalarini ta'riflab berihg?

5.Ijtimoiy pedagogik nazariya va amaliyoti printsiplariga izox berihg
6.Nima sababdan XX asrda ijtimoiy pedagogika fani va faoliyatiga ijtimoiy talab kuchaydi?
7.O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogika fanining shakllanishidagi ildizlarni nimalar tashkil Etadi?
8.O‘rta Osiyolik qomusiy olimlarning ijtimoiy pedagogik g‘oyalarini qanday baholaysiz?
9.Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishidagi shart sharoitlarni tavsiflang?
10.Islom ta’limoti va ma’naviyatining ijtimoiy ahamiyati nimalarda ifodalanadi?
11.Xorij da ijtimoiy pedagogika taraqqiyotining asosiy bosqichlarini sanab o‘ting?
12.Ikkinchi bosqichning qisqa ta’rifini bering?
13“ Ijtimoiy pedagogika” atamasi kim tomonidan va qachon fanga kiritilgan?
14.Nima sababdan XX asrda ijtimoiy pedagogika fani va faoliyatiga ijtimoiy talab kuchaydi?

2-seminar mashg’uloti.
Mavzu: O’zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish shart-sharoitlari.
Reja:
1.O’zbek xalq pedagogikasining zamonaviy ijtimoiy g’oyalari.
2. Milliy mintalitetning ijtimoiylashuvda tutgan o’rni.

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, taqdimot materiallari, ijtimoiy pedagogika darsligi va o‘quv qo‘llanmalari, daftar konspekt.

Tayanch tushuncha va iboralar: rahmdillik va xayr-sahovat ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam, jamoatchilik, individ,ijtimoiy gurux, ijtimoiy xizmat ko’rsatish tizimi, mentalitet, ijtimoiy tarbiya va ta’lim,noadekvat rivojlanish, sotsium, ijtimoiy omillar, «anomal odam.

Umumiy tushunch:
1991 yilda O’zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilinishi bilan pedagogikaning ko’pgina sohalari, shu jumladan, ijtimoiy pedagogikani ham rivojlantirish vazifasi qo’yildi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta’lim to’g’isida”gi Qonun (1997 yil) qabul qilinishi bilan ma’naviy-axloqiy tarbiyaning samarali yo’llarini topish, ma’naviy madaniyatni rivojlantirish, erkin fikrlaydigan barkamol shaxsni shakllantirishning eng samarali yo’llarini yaratish maqsadida pedagogika fani oldiga ta’lim tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish kabi vazifalar qo’yildi.
Bugungi kunda ijtimoiy pedagogika sohasida ko’plab empirik va nazariy bilimlar to’plangan. Ularni to’la anglamoq va tizimlashtirish davr talabidir. O’tmish allomalarimiz, olim-pedagoglarimiz asarlarini yangi nuqtai nazardan o’rganish, chet el tajribalarini o’zlashtirib, Respublikamizga moslashtirilgan holda maqsadga muvofiq qo’llash lozim.
O’zbekiston mustaqil davlat maqomini qo’lga kiritishi bilan jamiyatning ijtimoiy muammolari yanada ko’paydi va keskinlashdi. Buning sabablari, birinchidan, siyosiy, ma’naviy, iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo’nalishlarning almashishi, ikkinchidan esa, bu davrda ijtimoiy muammolarni hal etishda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelish holatlari yuzaga keldi. Biroq demokratiya va oshkoralik tamoyillari, ajdodlarning boy tajribasi yordamida davlat tomonidan muhtojlarga real ijtimoiy-pedagogik yordam berilmoqla, ijtimoiy pedagogika fanini rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar ko’rilmoqda.
Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:
1. Bozor munosabatlarini shakllantirish va jamiyatni demokratiyalashtirish sharoitida davlatning kuchli ijtimoiy siyosati. Bu siyosatning asosiy yo’nalishlari I.A.Karimov asarlarida va davlat dasturiy hujjatlarida ko’rsatilgan.
2. Aholining eng kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish choralari to’g’risidagi hukumat farmoyishlari, qonun, farmonlarni hayotga tatbiq etish.
3. O’zbekistan Respublikasining ijtimoiy-pedagogik kontseptsiyasi.

Ijtimoiy muammolarga nihoyatda katta e’tibor qaratilishining sababi milliy davlatchilikni shakllantirish jarayonidir. Bu davrda, ayniqsa, ijtimoiy muammolar nihoyatda keskinlashadi. Ijtimoiy qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi esa milliy havfsizlikka taxdid qiluvchi omil bo’lib qolishi mumkin. Shuning uchun vaqtida tegishli choralar qabul qilish nihoyatda muhim va mas’uliyatli vazifadir.

Iqtisodiyotning liberallashuvi turli ijtimoiy qiyinchiliklarni: ilmsizlar sonining ko’payishi, turli tengsizliklarning paydo bo’lishi, hayot tarzining buzilishi kabi oqibatlarni keltirib chiqardi. Shuning uchun O’zbekiston taraqqiyotining o’z yo’li, asoslanadigan etakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat olib borish hisoblanadi. Bu siyosatning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash.
2. Aholining turli qatlamlarini paydo qilmaslik orqali ijtimoiy kelishuvni ta’minlash.

Mustaqillik yillarida ko’rsatilgan maqsadlarga muvofiq aholi ijtimoiy himoyasining yangi mehanizmi shakllangan bo’lib, u quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- ishlab chiqarishni barqarorlashtirish;
- davlat mablag’laridan tashqari, mehnat jamoalari, ijtimoiy hamda mehribonlik fond va tashkilotlarining mablag’larini yo’naltirish;
- aholi daromadlarining yuqori tabaqalashuviga yo’l qo’ymaslik;
- kambag’allikka qarshi kurashish, nogiron, etim va qariyalarni qo’llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Mustaqillik yillarida, milliy mentalitet va hayot tarzining xususiyatlarini inobatga olib, eng kam ta’minlangan oilalarni aniqlash va ularga mahalla qo’mitalari orqali yordam ko’rsatish kabi ijtimoiy qo’llab-kuvvatlash shakli tarkalmoqda.

Bunday yondashuv bizning halqimizda ko’p asrli ildizlarga ega bo’lib, uning amaliy ahamiyati mablag’larning hayotda aniq tarqatilishini ta’minlaydi.

Respublikada olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning xukuqiy asosi sifatida quyidagi yo’nalishlarga oid xujjatlar xizmat qilmoqda:

1. Xayriyaga oid O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 4 martdagi «Sog’lom avlod uchun halqaro nohukumat xayriya fondining faoliyatini ta’minlash choralari to’g’risida»gi Farmoni. Unda fondning quyidagi asosiy vazifalari belgilangan:

- mablag’larni «Sog’lom avlod» davlat dasturiga qaratish;
- oila va jamiyatda sog’lom hayot tarzini targ’ib qilish;
- xorij va milliy homiylarning xayriya yordami va mablag’larini jalb qilish;
- ko’p farzandli oilalar, nogiron bolalar, bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga insonparvarlik yordami ko’rsatish.

2. Mehr-muruvvatga oid O’zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 27 yanvardagi «Mehr-muruvvat to’g’risida»gi Farmoyishi. Uning asosiy maqsadi jamiyatda do’stlik, bag’rikenglik, xalqlararo fuqarolar totuvligi, ayniqsa, yoshlarda milliy axloqiy fazilatlarni rivojlantirishdir.

3. Sog’lom avlod tarbiyasiga oid O’zbekistan Respublikasining «Fuqarolar sog’lig’ini saqlash to’g’risida»gi Qonuni hamda aholining malakali tibbiy yordam va ijtimoiy himoya olishdagi konstitutsiyaviy xuquqlarni amalga oshirish, sog’liqni saqlash tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga moslashtirish maqsadida quyidagi farmon va farmoyishlar qabul qilindi. O’zbekistan Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi «O’zbekistan Respublikasida sog’liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to’g’risida»gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 dekabrdagi «O’sib kelayotgan avlodni sog’lomlashtirish muammolarini kompleks hal qilish to’g’risida»gi Farmoyishi, 2000 yil 15 fevraldagi «Sog’lom avlod davlat dasturi to’g’risida»gi, 2002 yil 31 oktyabrdagi «O’zbekistan bolalar sportini rivojlantirish fondi faoliyatini tashkil qilish to’g’risida»gi hamda 2002 yil 25 yanvardagi «Ayollar va o’sib kelayotgan avlodning sog’lig’ini mustahkamlash to’g’risida»gi Farmonlari.

4.Ayollarning ijtimoiy himoyasiga oid O’zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining «Ayollarga qo’shimcha imtiyozlar to’g’risida»gi 1998 yil 14 apreldagi Konuni, O’zbekistan Respublikasi Prezidentining 1998 yil 17 martdagi «Ayollarning maxsus himoyasini kuchaytirish to’g’risida»gi

Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 17 martdagi «Zararli va sharoiti og'ir ishlarda band ayollarning daromadlariga soliq solinayotganidagi imtiyozlar to'g'risida»gi Farmoni.
5. Oilani qo'llab-quvvatlashga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi «Ko'p bolali oilalarga ijtimoiy yordam tizimini mukammallashtirish to'g'risida»gi Farmoni, Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 10 dekabrdagi «Ko'p bolali oilalarga yordam ko'rsatish to'g'risida»gi Farmoyishi. «Voyaga etmagan bolali oilalarga nafaqa to'lash to'g'risida»gi Nizomida bu nafakalarni olish huquqiga kimlar ega ekanligi aniq qilib belgilangan:
— nogiron bolali oilalar;
— ota-onasi yo'q bo'lgan va bolalarning tarbiyasi bilan qarindoshlari shug'ullanuvchi oilalar;
— ota-onadan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar;
— ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lsa.
6.Nogironlarga yordam berishga oid 1991 yil 18 noyabrdagi «O'zbekistan Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida», Vazirlar Mahkamasining «Yoshligidan nogiron bo'lganlarga, qariyalarga va mehnat qilishga layoqatsiz shaxslarga nafaqato'lash to'g'risida»gi 1994 yil 24 iyundagi № 319 Farmoyishi. Ushbu xujjatlarda nazarda tutilgan choralar nogironlarning individual rivojlanishlari, ularning ta'lim olishlari, ishlab chiqarishda qatnashishlari hamda sog'liqlarini saqlash dasturini amalga oshirishga qaratilgan.
7. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini himoyalashga oid O'zbekistan Respublikasining aholining kam ta'minlangan oilalarini himoyasi to'g'risidagi farmon, farmoyishlari. Bu me'yoriy xujjatlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ishga joylashtirishda ish o'rinlarining minimal soni belgilanganligi ko'rsatilgan.
8. Mahallaning ijtimoiy maqomini mustahkamlashga oid Mahalla qo'mitalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organiga aylanishi munosabati bilan 1999 yil 14 apreldagi «Fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida»gi Konun, shuningdek, 1999 yil 13 yanvardagi «Aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashda o'z-o'zini boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida»gi Farmon qabul qilindi. Ushbu me'yoriy xujjatlarda shahar, qishloq, mahalla oqsoqollari yig'ilishlarining vakolatlari belgilab berilgan. Belgilangan vakolatlarning asosiylari: davlatning oilalarni ijtimoiy ta'minlash uchun ajratilgan mablag'larini to'g'ri taqsimlash, ayollar manfaatlarini himoya qilish, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish, ijtimoiy tartibni ta'minlashda ishtirok etish, huquqbuzarliklarning oldini olish, voyaga etmaganlarning xuquqlarini himoya qilish, aholi turar-joy markazlarining tozalik va ekologik holatini nazorat qilish.
Zamonaviy sharoitlarda ijtimoiy siyosatni o'tkazish, hayotning barcha sohalarini ijtimoiylashtirish uchun ijtimoiy ishlarning aniq belgilangan yangi shakllarini joriy qilish zaruratini tug'diradi. Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirildi: 1996 yil 23 fevralda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda tibbiy-ijtimoiy patronaj tizimini tuzish haqida»gi Qarori chikdi. Bu qarorda, «Sog'lom avlod uchun» fondining taklifi bilan viloyatlarda, Toshkent shahrida va Qoraqalpog'iston Respublikasida tez tibbiy yordam guruhlarining tuzilishiga mablag' ajratilganligi ta'kidlanadi. Bu qaror tibbiy-ijtimoiy yordamning ko'chma guruhlarini mutaxassislar bilan ta'minlash vazifasini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, unda tibbiy-ijtimoiy patronaj xodimlarini tayyorlashni tashkil qilish zarurligi ham aytilgan
Tibbiy-ijtimoiy patronaj funktsiyalari tarkibiga quyidagilar kiradi:
1. Tibbiy-ijtimoiy patronaj ijtimoiy sohada ish yurituvchi turli tashkilot, muassasalar faoliyatlarini integratsiyalaydi.
2. Tibbiy-ijtimoiy patronaj o'z faoliyatida O'zbekistonda yashovchi xalqlarning asriy an'analariga, fan va madaniyat sohasidagi yutuqlariga asoslanadi hamda O'zbekistonda yuritilayotgan samarali ijtimoiy siyosatni har bir oilaga etkazadi.
3. Tibbiy-ijtimoiy patronaj har bir oilaning tibbiy ijtimoiy holati monitoringini o'tkazadi.
4. Tibbiy-ijtimoiy patronajning maqsadlari quyidagilardan iborat:
— Sog'liqni saqlash vazirligi, Aholini ijtimoiy ta'minoti vazirligi va «Sog'lom avlod uchun» fondidan olinadigan ma'lumotlarga tayangan xolda, mahalliy organlar bilan yaqin aloqada bo'lib

yashashning sanitar-gigienik sharoitlarini, oilaning psixologik iqlimini, oila a’zolarining salomatligi holatini aniqlash;
— tibbiy, ijtimoiy va psixologik yordamga muhtoj ayollar va bolalarni o’z vaqtida aniqlash;
— oilada sog’lom turmush tarzini shakllantirish.
5. Ko’rsatilgan maqsadlarga muvofiq tibbiy-ijtimoiy patronajga quyidagi vazifalar yuklatiladi:
— oilalarga tibbiy, ijtimoiy va xuquqiy yordam ko’rsatish;
— ayollar va bolalarni sog’lomlashtirishda yordam ko’rsatish, oilani rivojlantirish bo’yicha keng tushuntirish ishlarini olib borish.
1998 yil 1 aprelda Vazirlar Mahkamasining «Ona va bola skriningi dasturini tasdiqlash to’g’risida»gi Farmoyishi chikdi. Bu dastur homilador ayollarda nogiron bolalarning tug’ilishini oldini olish uchun tug’ma va boshqa patalogiyasini aniqlashga qaratilgan. Bu farmoyishga binoan «Ona va bola skiringi» dasturini qo’llab-quvvatlash mas’uliyati «Sog’lom avlod uchun», «Mahalla» fonda hamda O’zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo’mitasiga yuklatildi.
1998-2001 yillardagi davrda, «Sog’lom avlod uchun» fondining «Villak» (Finlandiya) va «Bristol Monteds Skvibb» (AQSh) kompaniyalari bilan tuzilgan shartnomalariga muvofiq skrining markazlari texnik jihozlari bilan ta’minlandilar.
1997 yil 31 dekabrda Vazirlar Maxkamasining «S0S — O’zbekistan bolalar mahallasi assotsiatsiyasini ta’sis etish to’g’risida»gi farmoyishi e’lon qilindi. Bu assotsiatsiya — S0S — Kinderford halqaro jamiyati (Avstriya) tomonidan ta’sis etildi.
Assosatsiya faoliyatining asosiy maqsad va yo’nalishlari quyidagilardan iborat:
— jamoatchilik va davlat tuzilmalari tomonidan etim bolalarning jismoniy, aqliy va axloqiy jihatdan rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishdagi harakatlarini tartibga solish;
— etim bolalarga yordam berishga qaratilgan loyiha va dasturlarni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko’rsatish;
— falokatga uchragan barcha bolalarga yordam berish;
—O’zbekistan Respublikasida S0S—O’zbekistan bolalar mahallaarini tashkil qilish va ularni jihozlar bilan ta’minlash;
- S0S- Kinderford interneyshnl bilan hamkorlik qilish;
—assotsiatsiya faoliyatiga davlat, jamoat va xususiy tashkilotlarni jalb qilish;
— etim bolalar uchun insonparvarlik dasturlarini tarqatish va qo’llab-kuvvatlash uchun ko’rgazmalar, seminarlar uyushtirish, axborot materiallarini chop etish va OAVlari bilan hamkorlik qilish.
Yuqorida keltirilgan xujjatlardan ko’rinib turibdiki, 1996 yildan boshlab ijtimoiy muammolarga alohida e’tibor qaratilgan. 1995 yil O’zbekistonda shaxsni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik kontseptsiyasi ishlab chiqilgan edi. Uning tuzilishi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim tizimini to’g’ri isloh qilish bilan izohlanadi.
Kontseptsiyanint asosiy qoidalari:
— madaniy-axloqiy tarbiyaning ta’limdan ustuvorligi;
— insonda ijtimoiy faollik, o’z-o’zini boshqarish ko’nikmalari, muomala va axloq madaniyati, yuqori intizomga ega demokratik jamiyat fuqarosini tarbiyalash;
— ijtimoiy faol shaxsni jamiyat va ishlab chiqarish rivojining asosiy sharti sifatida shakllantirish, har bir fuqaroni hayotning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy sohalarida ishtirok etishi;
— shaxsni ijtimoiylashtirish vositalari sifatida demokratiyalashtirish, insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirish.
Ta’limni demokratiyalashtirish — faollik va tashabbusni, hamkorlik, birlik vositalarini rivojlantirishni nazarda tutsa, insoniylashtirish yosh avlodni milliy va ijtimoiy- madaniy qadriyatlar orqali umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarga, inson xuqukkarini ta’minlashga ko’nikishlari ma’nosini beradi. Bu kontseptsiya boy tarixiy, madaniy, ma’naviy, pedagogik, ijtimoiy an’analar bilan birgalikda, ijtimoiy pedagogika fanining amaliy faoliyati sohasi sifatidagi rivojida poydevor bo’lib xizmat qilishi mumkin.
Milliy mentalitet va uning ijtimoiylashuvda tutgan o’rni. Ijtimoiy pedagogikaning amaliyoti va nazariyasi halqning etnografik, tarixiy, madaniy an’analari va xususiyatlariga bog’liq bo’lib, inson,

insoniy qadriyatlar haqidagi diniy va axloqiy qarashlarga tayanadi. Inson tsivilizatsiyasi davomida har qanday jamiyat o'zi mustaqil mavjud bo'lishiga qiynaladigan a'zolari: bolalar, qariyalar, kasallarga munosabat mavzusi bilan bir necha bor duch kelgan. Bunday odamlarga munosabat jamiyatning g'oyaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy va milliy xususiyatlariga bog'liq ravishda rivojlangan va ularning jismoniy yo'q kilinishidan tortib, jamiyatda to'liq integratsiyalashuvlarigacha bo'lgan ko'rinishlarda ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, davlat va jamiyat rivojining o'ziga xos yo'lini tanlashi milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklash va hayotning barcha jabhalarida milliy xususiyatlarni inobatga olish vazifasini qo'ydi.

Bugun shaxs shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi omillarni alohida inobatga olish kerak. Bunday omillarga nafaqat moddiy, g'oyaviy va psixologik sharoitlar, balki shaxsning shakllanishi ro'y bergan muhit ham mansubdir. Bu jarayonga turli davlatlarda olib boriladigan millatlararo munosabatlar va milliy siyosat ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu, ayniqsa, shaxsiy hislatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday hislatlarga milliy o'z-o'zini anglash, g'urur, iftixor kabi tushunchalar kirishini e'tiborga oladigan bo'lsak, shaxsning axloqiy shakllanishi umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda kechadi, deb xulosa qilish mumkin.

O'zbek halqi o'ziga xos etnik muhitga egadir. Bunday muhitda bolalar yoshligidan o'z ona (milliy) tillarining va unda o'z aksini topgan ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ashulalarning ta'sirida bo'ladilar. Bolalar asta-sekin milliy an'analar, urf-odatlarning aniq me'yorlariga ko'nikishadi. O'quvchilar milliy tarixni, adabiyotni o'rganish va ona tillarida turli ma'lumotlarni olish orqali o'smirlik yoshidayoq o'z etnik va umummilliy mansubliklarini anglay boshlaydilar.

Etnomadaniy sharoitlarning ijtimoiylashuviga ta'siri mentalitet darajasida nisbatan yorkin namoyon bo'ladi. "Mentalitet" tushunchasi XX asr boshida frantsuz olimi L.Levi-Bryul tomonidan fanga kiritilgan. Mentalitet "etnos" (halq, elat) tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Etnos — bu tarixan bir hududda shakllangan, til, madaniyat, ruhiyatning umumiy, nisbatan barqaror xususiyatlariga ega bo'lgan, shuningdek, boshqa shunday tuzilmalardan o'z-o'zini anglashi bilan ajralib turuvchi insonlar majmuasidir. Biron- bir etnosga mansublik tug'ilishdanoq bo'lmay, ijtimoiylashuv, shaxsning muayyan madaniy sohadagi shakllanishi, bolaning axloqiy steriotiplarni o'zlashtirishi davomida namoyon bo'ladi.

Etnosning muhim hususiyatlaridan biri etnik o'z-o'zini anglashning mavjudligidir. Etnosni boshqa etnoslardan ajratib turuvchi xususiyatlar (til, qadriyat, me'yor, din, milliy xarakter, san'at kabilar), asosan, shu etnos a'zosi bo'lgan kishilarga xos bo'ladi.

Insonlarning ijtimoiy-pedagogik birligi sifatida etnos har bir inson uchun muhim vazifalarni bajarishi mumkin: nisbatan keng ma'lumot berish orqali atrof-muhit umumhayotiy qadriyatlar bilan tanishtirish, nafaqat ijtimoiy, balki jismonan o'zini sog'lom his qilishi uchun himoya qilish. Etnik jamiyat vaqt mobaynida nisbatan muqim bo'lib, uning tarkibi barqarordir. Inson etnik maqomga ega va uni etnosdan ajratib bo'lmaydi. Shu xususiyatlar tufayli etnos inson uchun qo'llab- quvvatlash guruhi hisoblanadi.

Etnosning shaxsiy, faoliyat va ijtimoiy darajalaridagi xususiyatlari etnopsixologiya orqali ifodalanadi. Etnopsixologiya milliy hissiyot va qayfiyat, milliy madaniyat va manfaat, milliy an'analarni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda etnopsixologiyada "milliy xarakter" tushunchasi kam ishlatilmoqda. Etnik guruhlarning psixologik xususiyatlarini ifodalash uchun esa mentallik va mentalitet ushunchalari qo'llanilmoqda.

Mentallik insonning olam, o'zining bu olamda tutgan o'rni haqidagi tasavvurlari asosida yotgan obrazlar tizimi bo'lib, biron-bir davrdagi u yoki bu etnik guruhga xos bo'lgan dunyoqarashdir.

"Mentalitet" kategoriyasi hozirgi vaqtda gumanitar fanlarda an'analar va madaniyat orqali aniqlab beriluvchi ommaviy dunyoqarashning tarkibini ifodalash uchun ishlatilmoqda. Mentalitetning turli ta'riflari mavjud bo'lib, anglanmagan darajada jamoa tasavvurlari majmuasidir. Mentalitet muayyan tabiiy-iqlimiy va tarixiy-madaniy sharoitlarda shakllanadi.

Mentalitet — bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning dunyoni muayyan obrazda qabul qilish, his qilish va unda tafakkur yuritishini o'z ichiga oluvchi individual va jamoaning ong darajasi.

Mentalitet shu halqning uzoq tarixiy rivojlanishi natijasida shakllanadi va a
Mentalitet hatto bir mafkura boshqasiga o'zgarganda ham o'zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi mumkin. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mentalitet bir xil madaniyatga tegishli odamlarning u yoki boshqa masalani anglash va tushunishda umumiylik mavjudligi bilan aniqlanadi. Turli xalqlarning mentalitetlari quyidagi ijtimoiy hodisalar bilan farqlanadi: ijtimoiy tuzilmaga baho berish, huquq va odat haqidagi qarashlari, ozodlikka munosabati, ozodlikni tushunishlari, mehnat, mulkchilik, boylikka munosabatlari, zamon va makonni tushunishlarini qanday qabul qilishlari.
Mentalitet — bu halq madaniyatining keng maydondagi kvintessektsiyasidir. "Mentalitet" kategoriyasi, odatda, ijtimoiy — psixologik kategoriya sifatida tushuniladi. Mentalitet tushunchasi tarkibining psixologik taxlili mentalitet tushunchasini muayyan madaniyatda yashovchi odamlarning integral tasviri sifatida tushunish imkonini beradi. Bu tahlil I.G.Dubrov, V.I.Kukushkin, A.S.Pamarin, V.S.Barulinlar tomonidan o'tkazilgan. Boshqacha kilib aytganda, mentalitet jamiyatning ma'naviy-ruhiy qiyofasi, jamiyat dunyoqarashining asosiy o'lchovi sifatida tushuniladi.
Mentalitet ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki u ijtimoiy axborot tashuvchisi hisoblanadi. Ijtimoiy axborot bu holatda 3 asosiy guruhga bo'linadi:
— ishlab chiqarish qurollari va mehnatning jamoaviy natijalari;
— ob'ektiv ijtimoiy munosabatlar;
— til va muloqot.
Mentalitet ijtimoiy axborotning o'ziga xos qismi sifatida o'zining uzatish kanallariga ega. Ular orasida eng asosiylari tabiiy muhit, mumtoz va boshqa keng tarqalgan matnlar, til tarkibi va kundalik yumushlar hisoblanadi. Hozirgi kunda "mentalitet" tushunchasi fanda tor va keng ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda mentalitet jamiyat, jamiyat ongini qabul qilishning o'ziga xosligini, tushunishning umumiy aqliy faoliyat vositasi (instrumentariyasi) sifatida, o'zining tabiiy va ijtimoiy muhitini hamda o'zligini muayyan tarzda anglash, olamga o'ziga xos munosabatda bo'lish imkonini beradi.
Tor ma'noda esa mentalitet ijtimoiy ma'lumotning nisbatan chuqur va kam o'zgaradigan qismi bo'lib, milliy xarakter va dunyoni tushunishga asoslangan ajdodlar tajribasi sifatida



2-rasm. Mentalitet va uning tarkibiy qismlari

Ijtimoiy pedagogika, xuddi pedagogika kabi, tarbiyalanuvchilarning etnopsixologik xususiyatlarini inobatga olishi kerak. Milliy psixologiyani bilish tarbiya ishining sifatini oshirishning samarali yo'llarini topishga imkon beradi. Etnopsixologiya pedagogika faniga muayyan milliy guruhlar vakillari tomonidan tarbiyaviy ta'sir choralarini qabul qilishning o'ziga xosliklarini, turli xalqlarning tarixiy tajribasini inobatga olib tarbiyaviy tadbirlar mazmunini, u yoki bu millat vakillarining tarbiyaviy choralarga ko'nikish xususiyatlarini, aniq etnik guruh vakillarida milliy psixologiyaning ifodalanishini, turli xalqlarda tarbiyaviy ta'sir paytida intizomiy munosabatlarning ifodatanish xususiyatlarini, milliy mintaqalarda odamlarga nisbatan qo'llanilayotgan psixologik ta'sirga bog'liq ravishda tarbiya ishining mahsuldorligini, turli millat vakillarining muomalasi jarayonida shaxslararo munosabatlarning shakllanishi kabilarni o'rganishga yordam beradi.

Insonlarning milliy psixologik xususiyatlari ularning faoliyatiga quyidagi shakllarda ta'sir ko'rsatadi:

— faoliyatning milliy o'ziga xosligi;

— inson hislatlarining milliy xususiyati;

— milliy axloqiy muhitning o'ziga xosligi.

Milliy psixologik xususiyatlar nafaqat inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi, balki bu jarayonga muayyan tuzilish va mazmun ham beradi.

Psixologiyada ijtimoiy ong hodisasi sifatida to'rtta sohani ajratish mumkin:

Motivatsion soha milliy umumiylikning sabablari va g'oyalarining o'ziga xosligini tavsiflaydi.

Intellektual bilish sohasi esa millat tafakkuri bilan bog'liq dunyoqarashning o'ziga xosligini xarakterlaydi. Bu jihat ulardagi aqliy hislatlar bilan ifodalanadi.

Kommunikativ xulq-atvor sohasi esa har bir halqning o'rnatilib bo'lingan o'zaro munosabatlarining me'yorlari, o'z axloq stereotiplari, o'z rahbarlik shakllari mavjudligidan dalolat beradi.

Halqda shunday gipoteza mavjudki, unga asosan har bir halq nerv tizimi va aqlining tug'ma xususiyatlarining faoliyat yuritishidagi o'z xususiyatlariga ega. Bu esa milliy xarakterning emotsional-irodaviy sohalarining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi.

Milliy psixologik xususiyatlar ko'nikma va stereotiplar mexanizmlari orqali namoyon bo'ladi. Ko'rsatmalar insonning muayyan shaklda u yoki bu hodisani qabul qilishidir, ya'ni ko'rsatma muayyan faoliyat yuritishga tayyorlik, biror-bir milliy jamoa vakili o'z etnik sharoitlaridan kelib chiqib milliy mentaliteta, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida milliy axloqiy me'yorlar va qadriyatlar, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va mustahkamlash, atrof-muhitdagi odamlarga baho berish, o'z millati nuqtai nazariga mos kelmaydigan g'oyalarni qoralash vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy va pedagogik amaliyot hamda bir qator tadqiqotlar insonning milliy majburiyatini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institut sifatida oilani e'tirof etadi. Oila: — milliy axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish, milliy madaniymuhitga va uning qadriyatlariga ko'nikishning eng bevosita va abadiy manbasi hisoblanadi;

— millat psixologiyasini turli ta'sir etuvchi yo'llar orqali alohida shaxslar ongi va ruhiy olamiga kirishini ta'minlaydi;

— milliy qadriyatlarga amal qiladi va ularni asrab avaylaydi;

— o'zining milliy tarbiyaviy ahamiyatini inson hayoti davomida saqlab qoladi;

— milliy urf-odatlar va an'analarning asosiy tashuvchisi hisoblanadi.

Oilaning barcha sanab o'tilgan xususiyatlari o'zbek oilasida o'zining yorqin ifodasini topadi.

O'zbek halqi shaxsiy hislatlarida ifodalangan milliy xususiyatlari oilada milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib ta'lim-tarbiya, odat, marosimlar, qoidalar shaklida mustahkamlangan. Bunday qadriyatlarga, avvalo, o'z yurtining o'tmishiga hurmat, milliy an'analarga sodiqlik va ularni hayotga tadbiq etish kiradi. Milliy xususiyatlarning shakllanishiga mehnat faoliyatining xarakteri va yo'naltirilganligi, ijtimoiy jarayonlarda qatnashish va madaniy ta'lim darajalari ta'sir qiladi.

Milliy hislatlar shakllanishining asosi milliy, tarixiy, madaniy, diniy va axloqiy qadriyatlar hisoblanadi. Ularning shakllanishi, saqlanishi va avloddan-avloddarga o'zatilish vositasi milliy odat va an'analar hisoblanadi.

Axloqiy qadriyatlar asosida o’zbek oilasida rostgo’ylik, vazminlik kabi hislatlar shakllanadi. O’zbek oilasining pedagogik va psixologik xususiyatlari alohida etiborga loyiq. Chunki ular hayot tarzi, ma’naviy axloqiy muhit, tarbiyaviy tamoyillarni belgilab beradi. Bularga milliy qadriyatlarga sodiqlik, diniy an’analar va marosimlarga hurmat, bolalarni yaxshi va xayrli amallarni qilishga undash, o’z so’zida turish, kattalarning yoshlarga namuna bo’lishi, sabr-toqatli bo’lish, yosh xususiyatlarining inobatga olinishi, munosabatlarning hamkorlik va o’zaro hurmat tamoyillari asosida ko’rilishi kabilar kiradi.

Bir qator tadqiqotlar va shaxsiy kuzatuvlar asosida biz tarbiyaviy ta’sirlarning natijalari o’zbek millatining o’ziga xos xususiyatlariga ta’sir ko’rsatadi, degan xulosaga keldik va ularni shartli ravishda ikki guruhga bo’ldik:

1. Xarakterologik: ishonuvchanlik, hissiyotlilik, sodiqlik, sabrlilik, bolalarni sevish.
2. Axloqiy: tarbiyalanganlik, rostgo’ylik, mehnatsevarlik, mehribonlik, insoniylik, insoflilik, g’amxo’rlik, saxiylik, vatanparvarlik.

An’analar, qaysidir ma’noda, iqtisodiy va ma’naviy borliqning tarkibiy unsuri sifatida bizning hayotimizni kelajak bilan bog’laydi. Har bir rivojlanish bosqichida an’analarning mazmuni va ahamiyati aniq ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va vazifalar bilan belgilanadi.

Halqda faqatgina insonlarni tashqi va ichki holatda birlashtiruvchi shu qadriyatlar qadrlanadi. An’analar qanchalik qadimiy bo’lsa, shunchalik ishonch bilan ularning ahamiyati va jamiyat institutlari tomonidan qabul qilinishiga e’tibor qaratish mumkin.

An’analar o’z ifodalarini namoyon qilish bo’yicha nihoyatda milliylik xususiyatiga egadirlar, biroq tarixiy rivojlanish mobaynida ular boshqa xalqlar tomonidan ham boyitilishi hamda shu paytning o’zidayoq umumhalq, halqaro qiyofaga ega bo’lishi mumkin.

An’ana va odatlarga ikki o’zaro bog’liq ijtimoiy vazifa xosdir:

a) shu jamiyatda o’rnatilgan munosabatlarni barqarorlashtirish vositalari;

b) bu munosabatlarni yangi avlod hayotiga tadbiq qilish. Bu vazifalar turli yo’llar bilan amalga oshiriladi: agar urf-odatlar bu hayotda qanday harakat qilish lozimligini aniq belgilab qo’ygan bo’lsa, u holda an’analar, yurish-turishning umumiy me’yorlari yoki tamoyillarini ilgari suradilar.

Hozirgi kunda o’zbek halqining mentaliteti milliy istiqlol g’oyasiga asoslanadi. Birinchi prezident I.A.Karimov ta’kidlab o’tganlaridek, quyidagilar milliy mentalitetning asosiy tushunchalari hisoblanadi:

— Vatanga muhabbat;
— ona tiliga muhabbat;
— milliy axloqiy, madaniy, ma’naviy qadriyatlar;
— oila;
— mahalla;
— islom dini;
— ta’lim va ma’rifatning o’rni;
— umuminsoniy qadriyatlarga tayanish.

Ijtimoiy hayotning barcha jabhalari maishiy, ijtimoiy, san’at sohasining zaruriy tarkibiy qismi bo’lish bilan birga, an’ana va odatlar odamlarning har bir davrdagi ko’p asrli qarashlarini mujassamlashtiradilar. Aksariyat hollarda an’analarning kelib chiqishi muhim tarixiy hodisalarga borib taqaladi.

Asosiy savollar.

1. Mustaqillik yillarida ishlab chiqilgan aholi ijtimoiy himoyasining yangi mexanizmi nimalardan iborat?
2. Respublikada olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning huquqiy asosi sifatida qaysi xujjatlar xizmat kilmoqda?
3. Tibbiy-ijtimoiy patronaj funktsiyalari tarkibiga nimalar kiradi?
4. 1997 yil 31 dekabrda Vazirlar Mahkamasining «SOS — O’zbekistan bolalar mahallalari assotsiatsiyasini ta’sis etish to’g’risida»gi Farmoyishi haqida nimalar bilasiz?

5. «Ta’limni demokratiyalashtirish» tushunchasini izohlang.
6. «Mentalitet» tushunchasini izohlang.
7. Mentalitetning tarkibiy kismlarini sanab chiqing.
8. «Insonlarning milliy psixologik xususiyati» deganda nimani tushunasiz?
9. «An’ana» tushunchasiga ta’rif bering va mohiyatini ochib bering.

3-seminar mashg’uloti.
Mavzu: Ijtimoiylashuv ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida
Reja:
1.Ijtimoiylashuvning mazmun va mohiyati
2 .Ijtimoiylashuv vosita va mehanizmlari.

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, taqdimot materiallari, ijtimoiy pedagogika darsligi va o‘quv qo‘llanmalari, daftar konspekt.

Tayanch tushunchalar: Bostirish mexanizmi, Ajratish mexanizmi, Uz-o`zini cheklash mexanizmi, introektsiya, Ratsianallashuv, Imprinting, Eksiztentsial, Reflektsiya mexanizmi,
an’anaviy mexanizmi, instituttsional mexanizm

Umumiy tushuncha
“Ijtimoiylashuv” so`zi dastlab siyosiy-iktisodiyotdan kelib chikkan. U siyosiy-iktisodiyotda er, ishlab chikarish vositalarining umumiylashuvi ma’nosini anglatgan.
“Ijtimoiylashuv” atamasining muammoli deb, bu atamani “Ijt. nazariyasi” (1987) kitobida xozirgiga yakin ma’noda ko`llagan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings xisoblanadi. Uning zamonaviy ma’nosi- ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy xayotga tayyorlashdir.
XX asr o`rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini uning butun umri mobaynida o`rganuvchi mustaqil ilmiy soxaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli kontseptsiyalarining taxlili uni shartli raivshda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:
-sub’ektiv-ob’ektiv. Unda insonga jamiyat ta’sirining passiv iste’molchisi sifatida karaladi (E.Dyurkgeym, T.Parsons)
-sub’ektiv-sub’ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o`rni, uning xayotiy xolatlarga ta’sir etish kobiliyati nazarda tutiladi.
Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning xozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko`prok mos tushadi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o`zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o`zgarishi bilan aniklanadi.
Ijtimoiylashuv jarayoni
Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning xamma narsani egallashga bo`lgan ob’ektiv extiyoji jarayonida paydo bo`ladi. Birok bu bilan uzviy ravishda bola boshka bir ob’ektiv extiyoj -o`ziga xosligini namoyon qilish xissi xam shakllanadi. Bola uni yuzaga chikarish uchun turli usul va vositalarni kidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro`y beradi. Bu xodisa shunda namoyon bo`ladiki, shaxsning ijtimoiy axamiyatga ega xislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo`ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jixatlarga ega bo`ladi. SHunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o`zaro boglik yo`nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv ( ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o`zlashtirish) va individuallashuv (mustaqil lik, nisbiy o`ziga xoslikni ko`lga kiritish). SHu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan boglik ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning anik bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. moslashuv sub’ekt va ijtimoiy muxit faolliklarining yakinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muxit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.
Indivuallashuv insonning xali yoshligidayok paydo bo`ladigan ob'ektiv extiyojlari bilan boglik jamiyatdagi o`z-o`zini egallashdir. Bu extiyoj:
a) o`z karashlariga ega bo`lish;
b) o`ziga xosliklariga ega bo`lish;
v) unga tegishli bo`lgan masalalarni xal qilish, uning o`z darajasini aniklab olishiga xalakit beradigan xayotiy xolatlarga karshi turish xohishi sifatida namoyon bo`ladi.
Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuaalashuv jarayonlari o`rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yakinlashuvi ro`y beradi. SHu bilan birga bu erda shaxs va muxitning o`zaro ta'sir etish xam sodir bo`ladi. SHunday qilib, muvaffakkiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o`rtasida muvozanat saklangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon 3 asosiy soxada amalga oshadi:
- faoliyat-turlarning kengayishi, uning shakl va vositalarini ko`lga kiritish, erkin mo`ljal olish.
- muomala-muomala doirasini kengaytirish, uning mazmunini chukurlashtirish, xulk-atvor me'yorlarini o`zlashtirish anglash-shaxsiy men obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o`z ijtimoiy mansubligi va o`rnini anglash, o`ziga baxo berishni shakllantirish.
Ijtimoiylashuv vositalari.
Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy katlamlariga xos bo`lgan universal vositalar orkali amalga oshiriladi, ularga: go`dakni emizish va gamxo`rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish koidalari, insonni o`rab turuvchi moddiy madaniyat maxsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning xayotiy faoliyatidagi ko`p sonli munosabatlari-mulokot, o`yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shugullanish kiradi.
Xar bir jamiyat, davlat, ijtimoiy gurux ijobiy va salbiy ta'kiklar-man etish, ruxsat berish, majburlash chora-tadbirlarini ishlab chikishadi. Bu choralar yordamida inson xulk-atvori shu jamiyatda kabul qilingan me'yoriy kadriyatlarga moslashtiriladi.
Bola ijtimoiylashuvining etakchi vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshkalar bilan) xamda faoliyat (o`yin, o`kish, ijod, sport)dir. Psixologik-pedagogik tadqiqot lar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniklangan.
Bolaning me'yorida rivojlanishining eng muxim shartlaridan biri bu muomala. Muomala va faoliyatning etakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari ko`llaniladi::
-go`daklik davri-bevosita xissiy-ruxiy;
-go`daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;
-maktabgacha davr-rolli o`yinlar;
-ilk maktab davri-o`quv faoliyati;
- o`smirlik davri-kasb ta'limi faoliyati;
-o`spirinlik davri-shaxsiy mulokot faoliyati.
- Ijtimoiylashuv agentlari
Insonning voyaga etishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo`lgan kishilar muxim o`rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb xam nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turlicha bo`ladi. Bolalar va o`smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, karindoshlari, tengdoshlari, ko`shnilar agent bo`lishlari mumkin. YOshlik davriga kelib agentlar katoriga turmush o`rtogi, xamkasblari xam ko`shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o`rinlariga, inson uchun qanchalik axamiyatli ekanligiga karab agentlar xam farklanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko`rsatmaydigan.
Ijtimoiylashuv mexanizmlari.
Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, agentlar bilan xamkorlikda va bir kator mexanizmlar asosida amalga oshadi. Frantsuz olimi Gabriel Tard, Amerikalik Uri Bronfenbrener, rus olimlari V.S.Muxina va A.V.Petrovskiylarning tadqiqot lari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondoshuvlarni keltirib chikardi. Mavjud ma'lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni aloxida ajratib ko`rsatish imkonini beradi:

I.P.Podlasiy tasnifi bo`yicha:
Bostirish mexanizmi, uning mazmuni muayyan g`oya, fikr, xoxish, istaklarni ongdan chikarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashki va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm xam o`z o`rnida ixtiyoriy va gayri ixtiyoriyga bo`linadi. gayri ixtiyoriy mexanizm -unutishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashki bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarkalgan usulidir;
Ajratish mexanizmi, bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o`zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bogliq. Ajratish mexanizmi odatda nizolarni hal qilishda kuzatiladi.
Uz-o`zini cheklash mexanizmi, bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o`rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do`stlarinikidan ko`ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o`z-o`ziga hurmati pasayadi, yomon o`qiy boshlaydi. Bu o`z menini cheklab qo`yish, qiyinchiliklar oldida ojiz qolishdir. Ba'zi hollarda o`z-o`zini cheklash mexanizmini qo`llashni qo'llasa bo`ladi. CHunki bu holatda moslashuv sodir bo`lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o`z-o`zini cheklash, o`z-o`ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o`z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so`ng boshlagan ishini tashlab qo`yadi, oqimda suza boshlaydi;
O'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash loyihalash mexanizmining mohiyatini tashkil qiladi. O`ziga, boshqalarga qarshi qaratilga qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o`ziga bo`lgan hurmatni saqlab qoladi. SHubhali inson hammadan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin hisoblaydi;
Ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmlaridan biri bu-identifikatsiyadir. Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o`zini o`rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya ob'ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo`lishi mumkin. Identifikatsiyaning to`liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud.
Identifikatsiya mexanizimi introektsiya mexanizimi bilan juda bogliq. Bunda boshqalarning xislatlari o`zgarmagan holda o`zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas;
Empatiya mexanizmi, ya'ni boshqa odamning hissiy xolatiga hamdard bo`lish. SHaxsning muammo, qiyinchiliklarini engishga yordam berish hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega;
Qiyin xolatlarda intellektuallashuv mexanizmi ishga tushadi. Katta yoshdagi tarbiyalanuvchi abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo`lini o`zi uchun emas, go`yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy muhim muammolarga (kasallik, boshqa maktabga o`tish, institutga kirish) duchor bo`lganda namoyon bo`ladi.
Ratsianallashuv mexanizmida tarbiyalanuvchi o`z xatti-harakatlarining mantiqiy xulosasini chiqaradi. YOsh ratsianalizatorlar odatda maqsadning diskreditatsiyasini qo`llashadi.
Fikr, xissiyot, harakatlarini susaytirish uchun harakatlarni bekor qilish mexanizmi qo`llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so`raganida, uning harakatlari kechirilishi va sof vijdon bilan harakat qila boshlashiga ishonadi. Ko`p shaxslar shu tarzda komillikka erishishadi.
I.V.Mudrikning fikricha psixologik va ijtimoiy- psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritsa bo`ladi:
Imprinting (xotirada saqlab qolish)-insonga ta'sir qiladigan hayotiy muhim ob'ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm odatda go`daklik davrida ko`p qo`llaniladi. Biroq keyingi yosh davrlarida ham imprintingni kuzatishimiz mumkin.
Eksiztentsial bosim mexanizmi-tilni o`zlashtirish va munosabatga kirishganda kerak bo`ladigan ijtimoiy xulq-atvor normalariga anglamagan xolda ega bo`lish.
Taqlid-biror bir namunaga o`xshashga harakat qilish. Bu xolat insonning ijtimoiy tajriba to`plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo`llaridan biridir.
Reflektsiya mexanizmi-ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro`- e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko`rib chiqadi yoki inkor etadi. Reflektsiya insonning turli "men" obrazlari orasidagi real va hayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro`y beradi.

Bundan tashqari ijtimoiylashuvning ijtimoiy pedagogik mexanizmlariga quyidagilarni ham kiritsa bo`ladi:
1.Ijtimoiylashuvning an'anaviy mexanizmi inson tomonidan oila, atrof-muxit, qo`shnilar, o`rtoqlariga xos norma, qarash steriotiplarini o`zlashtirishni ko`zda tutadi. Bu o`zlashtirish ongsiz xolatda amalga oshib taasurotlar yordamida sodir bo`ladi.
2.Instituttsional mexanizm insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlari bilan o`zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to`plashi mumkin.

Ijtimoiylashuv omillari

Ijtimoiylashuv bolalar, o`smirlar, yoshlarlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko`p sonli shart-sharoitlar bilan o`zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan. O`rganilgan omillar xaqida bilimlar etarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari 4 guruxga bo`linadi;

1.Megaomillar (mega-eng katta)-kosmos, planeta, dunyo, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy siyosiy, ekologik, planetar jarayonlarni ham kiritsa bo`ladi. Ular boshqa omil guruxlari orqali erning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko`rsatadi.

2.Makroomillar (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat. Bu omillar muayyan xududda yashovchi aholi ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi.

3.Mezoomillar (mezo-o`rta)-xudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, auditoriya, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko`ra ajratilgan guruxlarning ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu xududning OAVlariga ta'sir qiladi.

4.Ijtimoiylashuvga mezoomillar mikroomillar orqali ta'sir qiladi. Mikroomillarga muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillar-oila, qo`shnilar, tengdoshlar guruxlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

Shaxs tugilganidan boshlab rivojlanadigan muxit sotsium yoki mikrosotsium deyiladi.

Tashqi ijtimoiy omillardan tashkari ichki biologik omillar xam mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o`rganishning iloji yo`k. Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillarajratib ko`rsatiladi.

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson kiluvchi umumiy jixatlarini aniklaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o`xshashlik, xususiyatlarning o`tishi tushuniladi. Irsiyatga ko`ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuygu organlari, shuningdek, komat tuzilishi, soch, teri rangi o`tadi. Bular insonni boshka insonlardan ajratib turuvchi tashki omillar xisoblanadi. SHuningdek irsiyat bo`yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xusuiyatlari xam o`tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat soxasida muayyan kobiliyatlarining shakllanishini ko`zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko`ra kobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo`la olmaydi. Bola kobiliyatlarining namoyon bo`lishi uning xayot, talim-tarbiya jarayonlariga boglik.

Ota-onadan bolaga o`tuvchi bir kator kasalliklar mavjud-kon kasalligi, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshkalar. Bu kasalliklarni genetika o`rganadi.

Xozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muxit, atmosferaning buzilishi kabi tashki omillar xam salbiy ta'sir ko`rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuksonli bo`lib tugilayogan bolalar soni ko`paymokda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nixoyatda ogir kechadi. SHuning uchun ularga o`kitishning yangi metodlari joriy qilinmokda va bu metodlar ularning akliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuksonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shugullanishadi. Bu bolalar o`z tengkurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini kiyinlashtiradi. SHuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashki olam bilan aloka qilish kanallarini ochishdir.

Ijtimoiy omillar. Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi, uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo`ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy axamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan kadriyat, ijtimoiy norma, xulk-atvor namunasi orkali amalga oshadi.

Ijtimoiylashuv insonning butun xayoti davomida kechadigan ko`p kirrali jarayondir. U ayniksa bolalik va yoshlik davrida nixoyatda jadallik bilan kechadi. CHunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o`zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muxim axamiyatga ega. Bu ijtimoiy muxitni bola asta-sekinlik bilan o`zlashtiradi. Agar bola tugilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muxitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashkari tarbiya muassasalari, turli ko`ngilochar maskanlarda kechadi. YOsh ulgaygan sari ijtimoiy muxit "xududi" kengayib boradi. Bola kanchalik ko`p muxitlarni o`zlashtirsa, u shunchalik keng doira xududini egallashga xarakat kiladi. Bola doimo o`zi uchun kulay bo`lgan uni yaxshi tushunadigan, unga xurmat bilan munosabatda bo`ladigan muxitni izlashga urinadi. SHuning uchun u bir muxitdan boshka muxitga ko`chib yuradi. Muxit bolaning shakllantirishida, uning ijtimoiy tajriba to`plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muxim axamiyatga ega.

Muxit tushunchasi turli fan vakillari-sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning o`rganish ob'ekti xisoblanadi. Ular muxitning bunyodkorlik saloxiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o`rgandilar.

Ijtimoiylashuv jarayonida muxitning o`rni

Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muxit avvalambor bolaning yangi muxitlarga integratsiyalashuvi nuktai nazaridan o`rganiladi. SHu nuktai nazardan inson va unga ta'sir kiluvchi tashki omillarning jamiyatdagi o`zaro munosabati xamkorlik xarakteriga ega ekanligi muximdir. Muxit-inson kirishishi, o`zini kulay sezishi uchun joylashuvinigina etarli bilishi lozim bo`lgan ko`cha, uy va boshka narsalar emas. Balki, muxit bu aloxida o`zaro munosabatlar tizimi va koidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari xamdir. SHuning uchun inson muxitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir kiladi xamda o`zgartiradi va o`z o`rnida muxit xam inson oldiga o`z talablarini ko`yadi. U insonni, uning xatti-xarakatlarini kabul qilishi xam, inkor qilishi xam mumkin. Muxitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga kanchalik javob berishiga karab aniklasa bo`ladi. Insonning xulk-atvori uning jamiyatda tutgan o`rni bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaktning o`zida bir kancha mavke'larni egallashi mumkin. Masalan, ayol xam rafika, xam ona, xam ustoz mavke'larini egallashi mumkin. xar bir mavke' insonga muayyan talablarni ko`yadi va shu bilan birga unga bir kancha xukuklarni beradi. Insonning jamiyatdagi muayyan xukuk va majburiyatlar bilan xarakterlanadigan mavke'i ijtimoiy makom deyiladi. Insonda tugma makomlar bo`lishi mumkin. Insonning ijtimoiy makomiga millati, tugilgan joyi, familiyasi va boshka omillar ta'sir ko`rsatishi mumkin. Bunday makomlarga odatda tugma makom deyiladi. Boshkalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga karab belgilanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog makomiga shu soxadagi kasb tayyorlovchi o`quv muassasasida ta'lim olgan va bu soxa bo`yicha diplomga ega bo`lgan shaxs erishishi mumkin. YUkoridagi makomni ko`lga kiritilgan makom desak adashmagan bo`lamiz.

Makom insonning jamiyatdagi xulk-atvorini muayyan vaziyatlarda o`zini shu makomdagilar xolatiga ko`ra belgilaydi. Atrofdagilar u shaxsdan nima kutishlari xam muximdir. SHuning uchun inson makomi bilan belgilanadigan xulk-atvor ijtimoiy rol deyiladi. Turli ijtimoiy rollarni o`zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas kismi xisoblanadi. Uning murakkabligi jixati shundaki, jamiyatda faqat jamiyat tomonidan ma'kullanadigan makomlar bo`lmasdan ijtimoiy norma va kadriyatlarga mos kelmaydigan makomlar xam mavjud. SHuning uchun bola shakllanishi va rivojlanishi jarayonida xam ijobiy xam salbiy rollarni o`zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rollarga avvalo oila a'zosining rolini kiritsak bo`ladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini o`zlashtiradi: o`gil yoki kiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek bobokalonlari bilan xam tanishishi mumkin.

Bola o`z rivojlanishi davomida o`zlashtiradigan yana bir muxim roli bu jamoa a'zosi rolidir. Bolalar bogchasi va maktabda sport to`garagida tengkurlari bilan muomala kilganda bola jamoa a'zosi, o`rtok, do`st, o`quvchi, etakchi kabi rollarni o`zlashtiradi. Xar bir inson iste'molchi rolini bajaradi. CHunki u xayoti mobaynida zarur bo`lgan narsalarga doim extiyoj sezadi. Bular: ovkat, kiyim-

kechak, kitob va boshkalar. Jamiyat insonga taqdim etgan xizmatlardan okilona foydalana olishni bola yoshligidayok o`zlashtirishi lozim.
Yana bir muxim ijtimoiy rol-o`z vatani fuqarosi bo`lish, uni sevish, u bilan faxrlanish, vatanparvar bo`lish bilan boglikdir. SHu bilan birga bola o`zlashtirishi mumkin bo`lgan boshka rollar xam bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola maktab, litsey yoki boshlangich kasbiy bilim yurtlarida o`zlashtiradi. Salbiy rollarga daydi rolini misol kilsak bo`ladi. Katta shaxarlar ko`chalarida, magazin, bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni xam uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko`nikishgan. O`tgan-kaytganlardan moxirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o`girlik bilan shugullanadiganlari xam uchraydi. Ba'zi xollarda bo`lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.
Bolaning xulk-atvor mexanizmlarini o`zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffakkiyatli moslashuvini ta'minlaydi. ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muxit sharoitlariga ko`nikishi tushuniladi.
Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffakiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi xisoblanadi. Bu asosan uch yo`nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat soxasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini ko`lga kiritishi, muomala soxasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chukurlashishi, jamiyatda kabul qilingan xulk-atvor me'yorlarini o`zlashtirish sodir bo`ladi. Anglash soxasida o`z "men"i obrazini shakllantirish, o`zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o`rnini anglash ro`y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida

So`nggi o`n yilliklar davomida pedagogika va boshka fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o`zaro munosabati keng muxokama qilib kelinmokda. Davlat mafkurasining o`zgarishi sababli bu muammoga aloxida e'tibor karatish lozim. SHu bilan birga ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga xarakat qilishmokda. Boshkalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir kismi sifatida o`rganishadi. Ba'zi olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axlokiy tarbiyani tushunishadi. To`rtinchi gurux olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb xisoblashadi. Birok tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini xamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy xarakat bo`lishi, uni ijtimoiylashuvdan farklaydi. Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan Maks Veberg uni muammolarni echishga karatilgan xarakat, inson xulk-atvorining taxminiy variantlarini sub'ektiv anglash sifatida ta'riflagan.
Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo`ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. CHunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo`ladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. SHunga karamay tarbiyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko`p ma'noliligini sabab qilib ko`rsatsak bo`ladi. Tarbiyani ijtimoiy xodisa, faoliyat, jarayon, kadriyat, tizim, ta'sir, o`zaro munosabat sifatida ko`rib chiksak bo`ladi. Bu tushunchalarning xech kaysisi tarbiya mazmunini to`lik ochib bera olmaydi.
Quyida ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo`lgan umumiyligini aks etishga xarakat qilingan tarbiyaning ta'rifi keltirilgan. Birok unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan. A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:
Tarbiya-insonning jamiyatga ko`nikishiga ko`maklashuvchi va bu ko`nikish sodir etiladigan gurux va tashkilotlarning xususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta'rif to`lik va to`gri xisoblanmaydi. Bu faqat muallifning nuktai nazarini aks ettiradi.
Borgan sari tashki tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Birok boshka bir jarayon-o`z-o`zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o`z shaxsini mukammallashtirish, o`z-o`zini rivojlantirish bo`yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o`z-o`zini tarbiyalashga extiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli xisoblanadi. Bizning modelga binoan insonning o`z-o`zini tarbiyalashi exrom bunyod etish bilan barobardir.. SHuning uchun o`z-o`zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho`ziladi.
Bolaga ta'sir etuvchi tarbiya tizimlarini A.V.Mudrik quyidagicha tasniflaydi

Bola ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruxiy rivojlanishining salbiy xususiyatlari bilan kiyinlashtirilishi mumkin. Bolaning ijtimoiy me'yor va kadriyatlarni o`zlashtirishi muxitning salbiy ta'siri okibatida noto`gri yo`nalishda ketib kolishi mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda kolib ketib, maxsus yordamga muxtoj bo`lib koladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni avvalo tarbiya orkali amalga oshadi. Birok buning uchun xar bir toifa bolalarning ijobiy jixatlarini faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chikish lozim.

Umuman olganda tarbiyachi va mutaxassislarning vazifasi kiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuvigaga karatilgan, ya'ni jamiyatda kabul qilingan konun va me'yorlarga faol ko`nikishi yoki salbiy omillarning okibatlarini engishdir.

Agar shaxsda ijtimoiy muxit sifatlarining shakllanmagan darajasi bolaga ijtimoiy muxitga ko`nikishga xalakit beradigan xolat bo`lsa, bolaning ijtimoiy moslasha olmasligi sodir bo`ladi. Bu xolatda bola tomonidan yo`kotilgan ijtimoiy alokalar va munosabatlarni tiklashga karatilgan maxsus chora-tadbirlarni ko`llash tavsiya etiladi.

Shunday qilib, bolaning jamiyatda rivojlanish jarayonida uning ijtimoiylashuvi sodir bo`ladi. Agar bu jarayon sodir bo`lmasa, uning aksi-dezadaptatsiya kuzatiladi. Bunday xolatda bolaning ijtimoiy reabilitatsiyasiga extiyoj tugiladi.

Ijtimoiylashuv jarayoni. Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj -o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi. Shunday qilib, bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq ikki yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni tashkil etadi. Inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).

Ijtimoiylashuv vositalari. Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari, insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari-muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyati, sport bilan shug'ullanishi kiradi.

Ijtimoiylashuv agentlari. Insonning voyaga etishida, uning shakllanish jarayonida, u bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib, agentlar qatoriga turmush o'rtog'i, hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rinlariga, inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga qarab agentlar ham farqlanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko'rsatmaydigan.

Ijtimoiylashuv omillari. Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan. O'rganilgan omillar haqida bilimlar etarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari ikki guruhga bo'linadi: tashqi va ichki.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi.

1. Megaomillar (mega-eng katta)-kosmos, er shari, planetar jarayonlarni kiritsa bo'ladi.

2.Makroomillar (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ya'ni erning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadigan omillarni kiritiladi.

3. Mezoomillar (mezo-o'rta)-hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarning ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariga ta'sir qiladi.
4. Mikroomillar, ya'ni muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillarga -oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.
"Ijtimoiylashuv" atamasining muammoli deb, bu atamani "Ijt. nazariyasi" (1987) kitobida xozirgiga yakin ma'noda ko`llagan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings xisoblanadi. Uning zamonaviy ma'nosi ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy xayotga tayyorlashdir.
XX asr o`rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini uning butun umri mobaynida o`rganuvchi mustaqil ilmiy soxaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli kontseptsiyalarining taxlili uni shartli raivshda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:
-sub'ektiv-ob'ektiv. Unda insonga jamiyat ta'sirining passiv iste'molchisi sifatida karaladi (E.Dyurkgeym, T.Parsons)
-sub'ektiv-sub'ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o`rni, uning xayotiy xolatlarga ta'sir etish kobiliyati nazarda tutiladi.
Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning xozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko`prok mos tushadi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o`zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o`zgarishi bilan aniklanadi.
Ijtimoiylashuv jarayoni bolaning ijtimoiylashuvi, xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning xamma narsani egallashga bo`lgan ob'ektiv extiyoji jarayonida paydo bo`ladi. Birok bu bilan uzviy ravishda bola boshka bir ob'ektiv extiyoj -o`ziga xosligini namoyon qilish xissi xam shakllanadi. Bola uni yuzaga chikarish uchun turli usul va vositalarni kidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro`y beradi. Bu xodisa shunda namoyon bo`ladiki, shaxsning ijtimoiy axamiyatga ega xislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo`ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jixatlarga ega bo`ladi. SHunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o`zaro boglik yo`nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv ( ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o`zlashtirish) va individuallashuv (mustaqil lik, nisbiy o`ziga xoslikni ko`lga kiritish). SHu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan boglik ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning anik bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. moslashuv sub'ekt va ijtimoiy muxit faolliklarining yakinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).
Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muxit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.
Indivuallashuv insonning xali yoshligidayok paydo bo`ladigan ob'ektiv extiyojlari bilan boglik jamiyatdagi o`z-o`zini egallashdir. Bu extiyoj:
a) o`z karashlariga ega bo`lish;
b) o`ziga xosliklariga ega bo`lish;
v) unga tegishli bo`lgan masalalarni xal qilish, uning o`z darajasini aniklab olishiga xalakit beradigan xayotiy xolatlarga karshi turish xohishi sifatida namoyon bo`ladi.
Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuaalashuv jarayonlari o`rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yakinlashuvi ro`y beradi. SHu bilan birga bu erda shaxs va muxitning o`zaro ta'sir etish xam sodir bo`ladi. Shunday qilib, muvaffakkiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o`rtasida muvozanat saklangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon 3- asosiy soxada amalga oshadi:
- faoliyat-turlarning kengayishi, uning shakl va vositalarini ko`lga kiritish, erkin mo`ljal olish.
- muomala-muomala doirasini kengaytirish, uning mazmunini chukurlashtirish, xulk-atvor me'yorlarini o`zlashtirish.
- anglash-shaxsiy men obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o`z ijtimoiy mansubligi va o`rnini anglash, o`ziga baxo berishni shakllantirish.
Ijtimoiylashuv vositalari.

Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy katlamlariga xos bo`lgan universal vositalar orkali amalga oshiriladi, ularga: go`dakni emizish va gamxo`rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish koidalari, insonni o`rab turuvchi moddiy madaniyat maxsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning xayotiy faoliyatidagi ko`p sonli munosabatlari-mulokot, o`yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shugullanish kiradi.
Xar bir jamiyat, davlat, ijtimoiy gurux ijobiy va salbiy ta'kiklar-man etish, ruxsat berish, majburlash chora-tadbirlarini ishlab chikishadi. Bu choralar yordamida inson xulk-atvori shu jamiyatda kabul qilingan me'yoriy kadriyatlarga moslashtiriladi.
Bola ijtimoiylashuvining etakchi vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshkalar bilan) xamda faoliyat (o`yin, o`kish, ijod, sport)dir. Psixologik-pedagogik tadqiqot lar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniklangan Bolaning me'yorida rivojlanishining eng muxim shartlaridan biri bu muomala.
Muomala va faoliyatning etakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo`llaniladi:
-go`daklik davri-bevosita xissiy-ruxiy;
-go`daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;
-maktabgacha davr-rolli o`yinlar;
-ilk maktab davri-o`quv faoliyati;
- o`smirlik davri-kasb ta'limi faoliyati;
-o`spirinlik davri-shaxsiy mulokot faoliyati.
Ijtimoiylashuv agentlari Insonning voyaga etishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo`lgan kishilar muxim o`rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb xam nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turlicha bo`ladi. Bolalar va o`smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, karindoshlari, tengdoshlari, ko`shnilar agent bo`lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib agentlar katoriga turmush o`rtogi, xamkasblari xam ko`shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o`rinlariga, inson uchun qanchalik axamiyatli ekanligiga karab agentlar xam farklanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko`rsatmaydigan.

4-seminar mashg'uloti.
Mavzu: Oila mahalla bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogiK faoliyat.
Reja:
1.Oila va uning oziga xos maqomi
2.Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari.
3. Mahallaning paydo bo‘lish,I mahallaning ijtimoiy-pedagogik o‘rni.

Kerakli jihoz va materiallar: proektor, taqdimot materiallari, ijtimoiy pedagogika darsligi va o‘quv qo‘llanmalari, daftar konspekt.

Tayanch tushuncha va iboralar: mahalla, ijtimoiy kelib chiqishi, oilaning turlari,reproduktiv,felistologik vazifasi, iqtisodiy vazifasi

Umumiy tushunchalar:
Jamiyatda oilaning roli o'zining kuchi bo'yicha boshqa qech bir ijtimoiy institutlar bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Aynan olada insonning shaxsi shakllanadi va rivojlanadi; bola jamiyatda qiyinchiliksiz moslashib ketishi uchun u ijtimoiy vazifalarni egallaydi. Oila birinchi tarbiyaviy institut sifatida ishtirok etadi, u bilan boqliqlikni inson o'zining butun hayoti davomida qis etadi. Oilada insonning ma'naviyligiga asos solinadi, qulqiy qoidalari yuzaga keltiriladi, shaxsning ichki dunyosi va individual siftlari ochib beriladi. Statistika ko'rsatishicha xo'jalik yuritish bozor siyosatiga o'tish ijtimoiy institut sifatida oila qolatiga ancha salbiy ta'sir ko'rsatdi. Domograflar tuqilish kamayganini qayd etadilar. Sotsiologlar asotsial oilalar sonini o'sib borishini qayd etadilar va turmush darajasining pasayishini taxmin qiladilar hamma davrlarda qam oila o'zining bolalarni

tarbiyalashda yordam olishga talabni xis etgan. Tarixning ko'rsatishicha odamlar katta oilalar bilan yashaganlarida oilaviy hayotning zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalari avloddan avlodga tabiiy ravishda va oddiy kundalik o'tib ketgan.

Zamonaviy rivojlangan jamiyatda avlodlar o'rtasidagi oilaviy aloqalar buz ilmoqda. Shuning uchun jamiyat oila tashkil etish va bolalarni tarbiyalash qaqidagi zarur bilimlarni etkazish bo'yicha ishlarni o'z zimmasiga oladi. qozirgi paytda ota onalarga mutaxassis psixologlar, ijtimoiy ishlar xodimlari, ijtimoiy pedagoglar va bolalarni tarbiyalash bo'yicha boshqa mutaxassislarning yordamlari zarur. Ana shu mutaxassislarning yordamiga faqat notinch, yomon sharoitdagi oilalar emas, bugungi kunda tinch, yaxshi oilalar qam muqtojlar.

Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari.

Oila shaxs tarbiyasida boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda birinchi darajali rolni bajaradi. Chunki, aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy normalar shakllanadi. Oila omili insonga butun unum davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy rollarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o'z-o'zini belgilab olishga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshishiga yordam beradi.

Oilaviy munosabatlar oliy qadriyat hisoblangan bizning respublikamizda O'zbekistonda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda balanddir va o'z mavqe'ini xozirgacha ushlab turibdi. Biroq bu holatdagi oila inqirozi ko'pgina oilalar, shu jumladan, o'zbek oilalariga ham ta'sir qiladi. Ko'pbolali o'zbek oilalarida patriarxal tartibning saqlanishi oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlagan, chunki o'zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil va ko'nikmalar avloddan-avlodga o'tib keladi. Oila a'zolari sonining qisqarishi, avlodlarning uzoqlashuvi muammosining kuchayishi munosabati bilan oilaviy munosabatlarni shakllantirish masalasi borgan sari muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Oila bugungi kunda yuksak malakali psixolog, ijtimoiy pedagog, ijtimoiy ishchilar yordamiga nihoyatda muhtoj bo'lib qolgan.

Oila ikki yo'nalishda mavjud bo'ladi: kichik ijtimoiy guruh sifatida va ijtimoiy institut sifatida. Birinchi holatda u qarindoshlik asosida tuzilgan va birga yashash bilan birlashtirilgan hamjamiyatdir. Ikkinchisida esa insonlarning kundalik hayoti kechadigan ijtimoiy institutdir.

Inson jamiyatida oila bir nechta vazifalarni bajaradi:reproduktiv-homilani davom ettirish bilan bog'liq O'zbekistonda ko'p bolali oilalarning mavjudligi bilan bir qatorda oila a'zolari sonining qisqarishi ham kuzatilmoqda. Bu hodisalar asosan moddiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, ma'naviy inqiroz, yosh oilalarning ota-ona uyidan ajralib chiqishi, tibbiy xizmatning past darajasi, noqulay ekologik holat bilan izohlanadi.

Iqtisodiy-oilaning bir a'zosi tomonidan boshqalar uchun moddiy mablag'lar topilishi, voyaga etmaganlar va qariyalarni moddiy ta'minlash, pul mablag'larini to'plash. Zamonaviy bozor munosabatlari mulk to'plash, mulkka ega bo'lish, meros masalalarida oilaning iqtisodiy vazifasini faollashuvini talab qiladi.

Ijtimoiylashuv vazifasi-oila bola shakllanishiga ta'sir qiluvchi birinchi va asosiy ijtimoiy guruh hisoblanadi. Oilada ota-onalar va bolalarning tabiiy-biologik va ijtimoiy aloqalari uzviy bog'lanib keladi. Oila mikromuhit sifatida bolaning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oilaning vazifasi bolani asta-sekinlik bilan jamiyatga tayyorlashdir. Oilada insonga ta'lim va tarbiya beriladi, uning aqliy, ijodiy qobiliyatlarining rivoji sodir bo'ladi. Aynan oilada bola mehnat va mustaqillikka o'rganadi.

Xo'jalik-maishiy-oila jamiyatning asosiy va doimiy xo'jalik negizidir. Unda oila a'zolarining jismoniy holatini bir maromda ushlab turish, kasallar va qariyalarga g'amxo'rlik qilish amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy vazifa. Biz bu funktsiyani alohida ajratib ko'rsatamiz, chunki u bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bola shakllanishiga shuningdek, atmosfera va iqlimning ta'siri ham bor. Tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri shaxsiy namunadir.

Rekreatsion va psixoterapevt funktsiyasi. Bu funktsiya shunda namoyon bo'ladiki, oilada hamma o'zini qulay sezishi lozim. Ruhshunoslar, sotsiologlar, pedagoglarning kuzatishlariga ko'ra inson kuchlari oila sharoitida jadal tiklanadi.

O'zbekistonda ko'pbolali oilalarning mintaqaviy xususiyatlari

O’zbekistonda yuqori tug’ilish darajasi quyidagi mintaqaviy omillari bilan izohlanadi:
-inson organizmiga geografik va iqlim sharoitlarining ta’siri, ayollarda homila davrining uzunligi,
-erta nikohdan o’tish an’anasi,
-ijtimoiy omillar-ayolning jamiyat va oiladagi o’rni. Hozirgi kungacha oilaviy tarbiya amaliyotida ko’pbolalikning ijobiy va salbiy xususiyatlari borasida bahslar olib borilmoqda, chunki bu muammoning ahamiyatli ekanligiga qaramay bu masala etarli darajada o’rganilmagan.
Ko’p bolali oila-kattalar va bolalardan iborat, o’ziga xos jamoadir. Unda shaxsning ijtimoiylashuvi uchun qulaysharoitlar yaratiladi. Bunaqa oilada tarbiya jarayonini tashkil etish muammosi bilan shug’ullanuvchi olimlar ham turli qarashlarga egadirlar. Ularning ba’zilari ko’p bolali oilada bola jamoa munosabatlari orqali tajriba to’playdi deyishadi, chunki ko’p bolali oila tarbiya uchun qulay sharoitlar yaratadi va ota-onalarning bolalari haqida qayg’urishlari teng taqsimlangan bo’ladi. Boshqa tadqiqotchilar esa, aksincha ko’p bolali oilada bola har tomonlama etarli rivojlanmaydi, deb hisoblashadi.
Agar oilaviy tarbiya bola individualligini aniqlash va uning qobiliyatlarini rivojlantirish kerak degan qoidadan kelib chiqsak, bu uchun oila nihoyatda rivojlangan bo’lishi kerakligiga amin bo’lamiz.
Ko’pbolali oilada individual yondashuv bo’ladimi? Bu erda tarbiya jarayonining ko’p tamonlamaligi va standartlashuvi ro’y bermaydimi? Individual yondashuv uchun avvalo psixologik va pedagogik bilimlar, shuningdek esa tarbiya jarayonida bolalarni kuzatish uchun maxsus vaqt va psixologik tahlil o’tkazish kerak.
Ba’zi nohush tarbiyaviy omillar o’zbek oilasida, xususan ko’pbolali o’zbek oilasida uy xo’jaligini yuritish bilan bog’liq. Ko’p o’zbek oilalarida uy ishlarini qiz bolalar bajarishadi, o’g’il bolalar esa bu vazifalardan deyarli ozod etilganlar. Bu holat keyinchalik o’g’il bola xarakterida oiladagi muomalasiga xalaqit beruvchi odatlarni paydo qilishi mumkin. ba’zan esa bolalar uy yumushlariga haddan ortiq vaqt ajratishadi. Bu ham ularning ta’lim olishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Ba’zan o’zbek oilalarida ota-onalar bolalarining o’qishiga umuman befarq bo’lishadi, ularga uy vazifalarini bajarishda amaliy yordam barishmaydi. O’zbek oilalarida bola uy vazifalarini kechqurun-barcha oila a’zolari to’planishganda qilish odat bo’lgan. Bu vaziyatda ko’pgina chalg’ituvchi omillar ham paydo bo’ladi-televizor ko’rish, oila a’zolarining o’zaro suhbatlashishi qilishi, uy yumushlarini bajarish talabi. Ko’pgina oilalarda bolalarning o’qishi uchun sharoitlar bor, biroq ular har doim ham yaxshi jihozlanmagan bo’ladi. Bu borada aksariyat ota-onalar pedagogik maslahatlarga ehtiyoj sezadilar. Ularni bolalarga yordam berishning aniq usullari bilan tanishtirish lozim.
O’zbek oilalaridagi yigit-qizlarning ijtimoiy moslashuvigasiga xalaqit beruvchi omillarga qizlarni oilaviy hayot uchun yigitlarni esa mehnat, kasb uchun noto’g’ri tayyorlashni kiritsak bo’ladi. Ayol kishidan malakaviy va kasbiy faollikni, erkak kishidan esa o’z xizmat va oilaviy majburiyatlarini bajarishni talab qiluvchi hozirgi kunda bu an’analarning saqlanib qolishi zamonaviy ijtimoiy talablarga zid keluvchi hodisadir. Bu hodisa ijtimoiy tarbiya va oilaviy tarbiya o’rtasida kelishmovchiliklar borligidan guvohlik beradi. Bunaqa oilalarning salbiy ta’sirini bartaraf etish oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy omili sifatida mukammallashtirishni talab qiladi. Bu masalaning muhimligi kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilgari surilgan ta’lim-tarbiya jarayoni talablari bolalar tarbiyasiga nafaqat maktabda balki, oilada ha o’z talablarini qo’yganligi bilan katta ahamiyatga ega bo’lmoqda.
Shu bilan birga bir qator o’zbek pedagog olimlari aynan ko’pbolali oilalarda bolalar tarbiyasi uchun qulay sharoitlar mavjud deb hisoblashadi. Avvalo, ko’pbolali oila pedagogik munosabatda qulay bo’lgan yosh tuzilmasiga ega. Bir nechta bola mavjud bo’lganida ota-onalarning g’amxo’rligi ham ular orasida teng taqsimlanadi. Katta oilada bola yoshligidanoq jamoaviy munosabatlarga kirishadi. Katta va kichik boalar o’rtasida turli o’zaro munosabatlar shakllanadi. Ko’pgina ota-onalar ko’pbolali oilalarda bolalarni tarbiyalash oson, chunki bunda katta farzandlar yordam berishadi deyishadi. Ko’pbolali oilalardagi tarbiyaning eng muhim omillari muomula muhiti, birgalikdagi mehnat, jamoaviy tashabbus, ota-onalarning talabchanligi, bolalar yoshini inobatga olish hisoblanadi. Bunaqa oilalar farzandlari axloqiy hislatlarining shakllanganligi, mehnatsevarligi, mehribonligi, to’g’riligi, mustaqilligi, ishbilarmonligi bilan ajralib turishadi. Katta oilada

mustahkam va tabiiy bolalar jamoasi shakllanib, unda bu jamoa a’zolari birgalikda g’amxo’rlik ko’rsatishadi, boshqa a’zolar oldida mas’uliyatli ekanliklarini his etishadi.
Shunday qilib o’zbek oilasining ko’pbolalik omili bola tarbiyasiga umuman olganda ijobiy ta’sir ko’rsatadi.
Oilaning ijtimoiy maqomi .Oilaning jamiyatda moslashuvining ko’rsatgichi uning ijtimoiy maqomi hisoblanadi, ya’ni oilaning bugungi kundagi holati. Oila maqomi oila a’zolarining individual tavsiflari majmuasidan shakllanadi. Oilaning to’rtta maqomi mavjud bo’lib, ular: ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy, ijtimoiy-madaniy, vaziyat-rol maqomlaridir.
Ijtimoiy-iqtisodiy maqom-oilaning moddiy holatini belgilaydi. Bu oila daromadlari, yashash ko’rsatgichlarini o’z ichiga oluvchi moddiy ta’minotlanganlikdir. Daromadlar yuqori, o’rta va past bo’lishi mumkin.
Yuqori-daromad va yashash sharoitlari darajasi nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini beradi, balki boshqa xizmatlardan foydalanishga ham zamin yaratadi.
O’rta-holat minimal ijtimoiy ehtiyojlarni qondira oladi, biroq dam olish ta’lim va boshqa xizmatlardan foydalanishga ham zamin yaratadi.
Past-daromad va yashash sharoitlari darajasi belgilangan me’yorlarlardan past, ovqat, kiyim-kechak, yashash joyi to’lovi kabi masalalarda ham muammo chiqib turadi.
Psixologik (ruhiy) maqom-bu oilaning psixologik iqlimi. Yaxshi iqlim emotsional yaqinlik, hamkorlik, teng huquqlilik bilan xarakterlanadi. Yomon, noxush iqlim esa nizo-janjallar ko’pligida emotsional noqulayliklarda namoyon bo’ladi.
Ijtimoiy-madaniy maqom-ta’lim darajasi, yurish-turish madaniyati, an’nalarni saqlab qolish va o’tkazish vazifasi, qiziqishlarning keng doirasi, rivojlangan ma’naviy ehtiyojlar, dam olish va maishiy hayotning birgalikdagi shakllari.
Oilaning ijtimoiy moslashuv bo’yicha tadqiqot o’tkazish uchun ijtimoiy pedagogika uning xususiyatlarini bilishi, ularga baho berish lozim. A. Q. Minavarovning105 fikricha oilaning tarbiyaviy funktsiyasining darajasi uch yo’nalishda bo’luvchi uning tuzilmasiga bog’liq.
Bu yo’nalishlar demografik-ko’pbolalik, kambolalik, ikki yoki uch avlodning birgalikda yashashi, ota-onalarning ikkalasini ham bo’lishi, oila a’zolarining ta’lim olganliklari darajasi, bolalarni tarbiyalashda vazifalarni taqsimlash, oila tarbiyasining o’ziga xosligi, shuningdek oilaning milliy xususiyatlari ham inobatga olinadi.
Oila tipologiyasi ijtimoiy moslashuv darajasi bo’yicha farq qiluvchi to’rttaasosiy kategoriya asosida shakllanadi:
Yaxshi oilalar-o’z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishadi, o’z bolasi ehtiyojlariga tez ko’nikishadi. Muammo paydo bo’lib qolsa ularga bir karra yordam ko’rsatish kifoya.
Tavakkalchi oilalarda adaptativ qobiliyatlar pastroq. Ular bola tarbiyasini qiyinchilik bilan eplashadi va ijtimoiy pedagog yordami va nazoratiga ehtiyoj sezadilar.
Muvaffaqiyatsiz oilalar hayotiy faoliyatning biror-bir sohasida past ijtimoiy maqomga ega bo’lib, ular o’zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar, ularning adaptativ imkoniyatlari past, bola tarbiyasi jarayoni katta qiyinchiliklar bilan sekin kechadi. Bu oila turi uchun ijtimoiy pedagogning faol yordami zarur. Muammolari xarakteridan kelib chiqib pedagog ularga ta’lim, psixologik yordamlar ko’rsatadi.
G’ayri ijtimoiy oilalar-bu oilalar tubdan isloh qilinishi lozim. Bu oilalarda ota-onalar g’ayriaxloqiy va g’ayrihuquqiy hayot tarzini olib borishadi, yashash sharoitlari oddiy tozalik-gigienik talablarga javob bermaydi. Bolalar tarbiyasi bilan albatta hech kim shug’ullanmaydi, bolalar nazoratsiz qolib ketishadi, rivojlanishda ortda qolishadi. Ijtimoiy pedagogni bu oilalar bilan ishlaganda huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqin hamkorlik asosida ish yuritishi darkor.
Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi ijtimoiy pedagog faoliyati oilani o’rganishdan boshlanadi. Oiladagi munosabatlarni o’rganish pedagogga oilada bolaning holatini tasavvur qilish imkonini beradi. Oilani o’rgangandan keyin ijtimoiy pedagog oldida oilada yangi munosabatlarni

105 Минаваров А. К. Оилавий тарбия эффективлигини педагогик шарт-шароитлари. Т.: Фан. 1989 й, 17 б.

o’rnatish vazifasi turadi. Bu muammoni oilani turli klublar, maslahatlar, maishiy birlashmalar, bog’, tamorqadagi ishga jalb qilish yo’li bilan hal qilsa bo’ladi.
Bolaning oilada tutgan o’rni haqida tasavvurga ega bo’lgandan so’ng ijtimoiy pedagog oila bilan birgalikda u uchun reabilitatsion dastur variantlarini ishlab chiqadi.
Ijtimoiy pedagog tomonidan “oila xaritasi”ni buzish amaliyoti ham mavjud. Unda oilaning har bir a’zosining tavsifi, tug’ilgan sanasi beriladi. Shuningdek oila maqomi, yashash sharoitlari, qo’shnichilik, oilaning diniy va milliy mansubligi aniqlanadi.
“Xarita”ning ilovasida oilada bola tarbiyasini o’rganish deb nomlangan qismi ham mavjud, unda ota-onalar bola bilan qancha vaqt va qanday o’tkazishadi, ularning umumiy ishlari nimalardan iboratligi, vaqtni ota-onalar o’z farzandlari haqida nimalar bilishlari haqidagi ma’lumotlar o’z aksini topadi. Masalan-bola nimaga qiziqadi, nimalarni o’qiydi, kimlar bilan do’stlashgan, uning sog’ligi qanaqa va sh.k. Shuningdek, bu jarayonda bolalarning ham ota-onalari haqida nima bilishlarini aniqlash juda muhimdir.
Bundan tashqari, ijtimoiy pedagog oiladagi barcha munosabatlar-kattalarning o’zaro munosabati, kattalar va bolalar o’rtasidagi munosabatlarni inobatga olishi muhim hisoblanadi. Oilada hamkorlik mavjudmi yoki barcha munosabatlar kattalarning buyrug’i asosida quriladimi. Agar bola birinchi sinfga qatnay boshlasa, ijtimoiy pedagog bolaning holatini, kim bilan sizlashishi, unga nima yoqishi-yoqmasligini aniqlashi lozim.
Ijtimoiy pedagog birinchi navbatda, muvaffaqiyatsiz oilalar bilan to’qnash keladi. Bularga bola doimiy ota-onalar janjallarida yashaydigan, ota-onasi giyohvand bo’lgan oilalar kiradi. Zamonaviy sharoitlar bularga ishsiz oilalarni ham kiritib qo’ydi.
Ijtimoiy pedagog oilaning turli muammolari bilan duch keladi. Bular:
-kasal bolalar, nogiron bolalar,
-nogironlar, nafaqaxo’rlar, qariyalar,
-foxishabozlik,
-giyohvandlik,
-daydi bolalar,
-ota-onalarning ajralishlari.
Shubhasiz, ijtimoiy pedagogning oiladagi birinchi vazifasi bu inqirozli vaziyatlarni hal qilishdir. Ijtimoiy pedagog oila bilan ish yuritishda uch asosiy rolni o’ynaydi:Maslahatchi-oilani ota-onalar va bolalarning o’zaro ta’sirining muhimligi haqida gapirib beradi, bola tarbiyasi bo’yicha pedagogik maslahatlar beradi konsultant-oila qonunchiligi masalasi bo’yicha maslahat beradi, mavjud tarbiya metodlarini ma’lum qiladi, oilada bolaning me’yorida rivojlanishi va rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish usullarini tushuntirib beradi.
Himoyachi-bola ota-onalari shaxsiyati (giyohvand, aroqxo’r, bolalarga yomon munosabat)ning to’liq degratatsiyasiga duch kelganda bolani himoya qiladi.
Ijtimoiy pedagogning oiladagi faoliyati uch asosiy ijtimoiy pedagogik yordam-ta’lim, psixologik, vositachilik yordamlaridan iboratyordam o’z ichiga ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ikki yo’nalishini oladi: ta’lim olishda va tarbiya olishda yordam.
Ta’lim olishda yordam oilada vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va ota-onalarning pedagogik-madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.
Ijtimoiy pedagog faoliyati quyidagi masalalar bo’yicha ota-onalarning keng yoritishni ko’zda tutadi:
-ota-onalarning bo’lajak farzandlarini tarbiyalashlari uchun pedagogik va ijtimoiy-biologik tayyorgarligi;
-bolalarda tengdoshlariga nisbatan adekvant munosabatni shakllantirishda ota-onaning o’rni;
-bola tarbiyasida shaxsiy namuna va ota-ona obro’ e’tiborining ahamiyati,
-oilada turli avlodlarning o’zaro munosabati, bolalarga pedagogik ta’sir usullari, bolalar va kattalar orasida ijobiy munosabat shakllantirish.
Tarbiyada yordamlashish ijtimoiy pedagog tomonidan avvalo, ota-onalar bilan ularga maslahat berish orqali, shuningdek esa bola bilan maxsus tarbiyaviy holatlar yaratish orqali o’tkaziladi.





Ijtimoiy pedagogik yordamning psixologik yo'nalishi 2 komponentdan iborat: ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash va korrektsiya (to'g'rilash).

Qo'llab-quvvatlash qisqa muddatli inqiroz davrida oilada yaxshi muhitni yaratishga qaratilgan turli shakldagi stress holatlarini boshdan kechirayotgan oilalarni psixologik qo'llab-quvvatlashni ijtimoiy pedagogning qo'shimcha psixologik ma'lumot bo'lganda amalga oshiriladi. Bundan tashqari bu ishni psixolog va psixoterapevtlar ham bajarishlari mumkin. Agar qo'llab-quvvatlash kompleks tarzida amalga oshirilsa nihoyatda foydali bo'ladi. Ijtimoiy pedagog oiladagi shaxslararo munosabatlarni, oilada bolaning tutgan o'rnini, oilaning jamiyat bilan aloqasini tahlil qilib muammoni o'rganadi, psixolog esa psixologik testlar va boshqa metodlar vositasida oila a'zolarining nizoga olib keluvchi ruhiy holatlarini aniqlaydi, psixiatr esa davolash bilan band bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlarning korrektsiyasi asosan oilada bolaga nisbatan ruhiy zo'rlik bo'lganda qo'llanadi. Ruhiy zo'rlik bola asab-ruhiy va jismoniy holatining buzilishiga olib keladi. Yaqin-yaqingacha bu hodisaga etarli e'tibor berilmagan. Bunaqa zo'rlikka bolani qo'rqitish, uni haqorat qilish, g'ururini poymol qilish, ishonchini oqlamaslik kiradi.

Ijtimoiy pedagog oiladagi munosabatlarni shunday korrektsiyalashi lozimki, oilada tartib va intizomni ta'minlashga qaratilgan barcha choralar bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiya talablariga asoslanishi lozim.Psixoterapiyadan farqli o'laroq korrektsiya oila ichidagi nizolarni ochib ko'rsatadi. Uning maqsadi oila a'zolariga ular o'rtasidagi munosabatlarni bilishga ko'maklashishdir.

Ijtimoiy pedagogik yordamning vositachilik yo'nalishi uch komponentdan iborat: tashkil qilishga yordam, tartibga solishga yordam va axborot berishga yordam.

Tashkil qilishga yordam oilaviy dam olishni tashkil qilishga qaratilgan. Oilaviy dam olish o'z ichiga xayriya auktsionlari o'tkazish, oilaviy bayramlar, tanlovlar, uy xo'jaligini yuritish bo'yicha kurslar tashkil qilishdan iborat.

Tartibga solishga yordam berish muayyan oilaning muammosini hal qilish bo'yicha turli muassasa va xizmatlarni faollashtirishdir. Bunday muammolarga:

1.Bolani tarbiyalash uchun boshqa oilaga topshirish,

2.Bolalikka olish,

3.Bolalarni bolalar uylariga joylashtirish kiradi.

Axborot berishga yordam olani ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha axborot bilan ta'minlashga qaratilgan va konsultatitsiya shaklida o'tkaziladi. Masalalar maishiy, oilaviy, mehnat, fuqorolik, nafaqa qonunchiligi, bolalar, ayollar, nogironlar huquqlari, shuningdek oilaviy nizolarga tegishli bo'lishi mumkin.

Oilada ijtimoiy pedagogik yordam shakllari. Oilada ijtimoiy pedagogik yordam shakllari muhtojlarga ijtimoiy pedagogik yordam uzoq muddatli va qisqa muddatli ish shakllaridan iborat bo'ladi.
Qisqa shakllar ichidan olimlar o'zaro munosabatlarning intervent va muammoli modellarini ajratishadi.
Oila bilan ish yuritishning intervent modeli inqirozli holatda bevosita yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi. Bu inqirozlar oila hayotidagi o'zgarishlar yoki tasodifiy noxush holatlarga bog'liq bo'lishi mumkin.
Inqirozli holatga qaysi muammolar sabab bo'lganidan qat'iy nazar ijtimoiy pedagogning vazifasi bevosita emotsional yordam ko'rsatish orqali stress holatining ta'sirini yumshatish va oila kuchlarining inqirozini bartaraf etishga qaratishdir.
Bu holatdagi yordam psixologik, axborot va vositachilik xarakteriga ega bo'lishi mumkin.
Muammoli model ham qisqa muddatli ish shakliga tegishli bo'lib, uning muddati to'rtoydan oshmaydi. Muammoli model oiladagi amaliy vazifalarni echishga qaratiladi, ya'ni model markazida shunday talab turadiki, yordam ko'rsatuvchi mutaxassis shaxslar o'z harakatlarini oiladagi muammolarini echishga yo'naltirishlari kerak. Bu model muayyan holatlarda aksar muammolarni odamlarni o'zlari xal qilishlariga asoslanadi. Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifasi aynan shunday holatlarni yaratishdir, muammoli modelning etakchi metodi yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy pedagog va oila o'rtasida shartnoma tuzilishidir. Shartnoma tuzilayotganda oilaning vazifasi oldinda turgan faoliyatning maqsad va vazifalarini aniqlashdir. Ijtimoiy pedagogning vazifasi esa bu maqsad va vazifalarning amalga oshishi uchun etarli bo'lgan muddatni belgilash.
Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy pedagog va oila o'rtasidagi shartnoma biznes yoki nikoh shartnomasiga o'xshamaydi. Bu holatda tomonlar moddiy emas, balki axloqiy majburiyatlarga ega bo'lishadi va bu rasmiy hujjat bilan tasdiqlanadi. Shartnoma bo'yicha hamkorlik oilani shartnoma shartlarini ishlab chiqishda, qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. O'smirlar va o'spirinlar bilan ishlashda shartnomaning tuzilishi ularning mutaxassis bilan munosabatlariga jiddiy xarakter berishi bilan ijobiy jihatlarga ega.
Asosan xorij amaliyotida qo'llaniladigan uzoq muddatli ish shakllari psixoijtimoiy yondoshuvga asoslanishadi va to'rtoydan ortiq vaqtni talab qiladi.
Psixoijtimoiy yondashuvning asosiy vazifalari biror bir vazifani bajarishga odatlantirish qilish orqali oilaviy tizimni o'zgartirish, oilaga ta'sir qiluvchi boshqa ijtimoiy tizimlardagi holatlarni o'zgartirishdan iborat. Aynan ijtimoiy pedagogik yordam sharoitida patronajning qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Patronaj- ijtimoiy pedagogik ish shakllaridan bo'lib, unda ijtimoiy pedagog tashhiz, nazorat va reabilitatsiya maqsadlarida oilaga tashrif buyuradi. Bu esa oila bilan uzoq muddatli aloqalarni ushlab qolishga zamin yaratadi. Patronaj oilani uning tabiiy sharoitlarida kuzatishga imkon beradi. Patronajning o'tkazilishi bir qancha tamoyillarga amal qilishni talab qiladi. Bular: yordamni ixtiyoriy qabul qilish, konfidentsiallik va boshqalar. Shuning uchun oilani avvaldan tashrif to'g'risida xabardor qilish lozim.
Patronajlar tanlangan ish strategiyasiga qarab doimiy va bir martalik bo'ladi. Doimiy patronajlar avvalambor g'ayri ijtimoiy oilalarga nisbatan qo'llanilishi lozim. Chunki ularni doimiy nazorat qilish intizomga chaqiradi. Shu bilan birga vujudga kelayotgan inqirozli holatlarni aniqlash imkonini beradi.
Patronaj bilan bir qatorda ijtimoiy pedagogik faoliyatda oila bilan ish olib borishning muhim shakllaridan biri–bu konsultativ suhbat o'tkazishdir. Konsultatsiya asosan hayotiy masalalarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan sog' odamlarga mo'ljallangan. Yakka tarzdagi konsultatsion suhbatlar bilan bir qatorda oila bilan ishlashning jamoaviy shakllari-treninglar ham o'tkazilishi mumkin.
Ijtimoiy pedagogik trening amaliy psixologiyaning jamoaviy psixologik ish olib borishni faol metodlaridan foydalanishga asoslangan sohasi sifatida ta'riflanadi.
Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda o'tkazilayotgan trening dasturlarining maqsadlari kengaydi va trening faqatgina amaliy psixologiya sohasi bo'libgina qolmay, ijtimoiy pedagogika, ta'lim tizimida ham o'z o'rniga ega bo'ldi. Trening bir qancha indevidual va jamoaviy ish olib borish

usullarining uyg'unlashuvi bo'lib, ota-onalarning psixologik, pedagogik savodxonligini oshirish muammosini xal qilishning eng istiqbolli usullaridan biriga aylandi. Bu muammo so'ngi o'n yilliklar davomida o'z global ahamiyatini yo'qotmayapti. Ayniqsa ruhiy va jismoniy nuqsonli farzandli oilalarda bu muammo nihoyatda keskindir.

Jamoaviy usullar ota-onalarga bir-birlari bilan tajriba almashishi, savollar berishi va guruhda qo'llab-quvvatlanish imkonini beradi. Bundan tashqari axborot almashinuvida etakchilik rolini bajarish faollikni oshiradi. Yuqoridagi ususllar-konsultativ suhbat, trening ommabop hisoblanib ham qisqa muddatli ham uzoq muddatli shakllarda qo'llaniladi.

Oiladagi ijtimoiy pedagogik faoliyat tizimli yondashuvga asoslangan taqdirdagina samarali bo'lishi mumkin. U demografiya, ijtimoiyogiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika (oilaning tarbiya funktsiyasi), huquq, iqtisod (oila byudjeti), etnografiya, tarix va falsafa ma'lumotlarini o'rganishni va ulardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitlarda oila turli bilim sohalari: ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy ish, sog'liqni saqlash va boshqalarning markaziy ob'ektlaridan biriga aylanmoqda. Chunki har bir jamiyatning kelajagi o'sha jamiyatdagi oilalardagi muammolarni xal qilishga bog'liq.

Mahalla – ijtimoiy institut sifatida. O'zbek mentalitetining muhim xususiyatlaridan biri ijtimoiy tuzilma mahallaning mavjudligidir. Toshkent shahrida XIX asrdan boshlab mahallalar mavjud bo'lgan. Ularning tashkil topishi va faoliyat yuritishi, bir tomondan, milliy-psixologik xususiyatlarga, boshqa tomondan esa aholini yoshligidanoq ijtimoiy munosabatlarga jalb qilinishiga imkon yaratish bilan bog'liqdir. Boshqacha aytganda, mahalla mikrotizim bo'lib, unda axloqiy tamoyil va qoidalarga amal qilish, marosim va jamoat faoliyatining boshqa turlarida ishtirok etish orqali shaxsning yanada kattaroq hamjamiyatda ijtimoiylashuv usullari shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida. "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi" deb, belgilab qo'yilgan.

1992 yil 12 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmondan ko'zda tutilgan maqsad tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash va izchil targ'ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum, an'analarini keng ommalashtirish, respublikaning mahallalari o'rtasida madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish, shuningdek, ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash choralarini davlat yo'li bilan qo'llab – quvvatlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida mahalla faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yana qator farmon, farmoiyish va qarorlar qabul qilindi. Jumladan:

1992 yil 17 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika «Mahalla» hayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi;

1992 yilda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun ilk bor qabul qilindi. 1999 yilda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ushbu Qonun qayta ko'rib chiqilib, takomiliga etkazildi va yangi tahrirda qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida 2003 yil «Obod mahalla yili» dasturi qabul qilindi va boshqalar.

"Mahalla" hayriya jamg'armasining vazifalari:mahallada madaniy, ma'naviy-marifiy targ'ibot ishlarni keng yo'lga qo'yishning uslubiy asoslarini yaratish va joriy qilish;

aholi o'rtasida o'zaro hurmat va insonparvarlik, yaxshi qo'shnichilik, mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish, ijtimoiy – siyosiy barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashning zarurligini keng targ'ib qilish va tartibot uslublarini yaratish;

yosh avlodni milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik ruxida tarbiyalashda mahallalarga uslubiy yordam ko'rsatish;

Davlat organlari vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish jarayonida faol qatnashish va bu vakolatlarning amalga oshirilishida mahallalar uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

mahallalar raislari, oqosoqollari va faollarining bilim darajasini, malakasini va saviyasini ko'tarish, ularda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga mos keluvchi zamonaviy boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishda o'quv ishlarini tashkil qilish;
respublikadagi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan aloqalar o'rnatish, hamkorlikni kuchaytirish;
- mahallalarning ish faoliyatini o'rganib borish, tahlil qilish va shu sohadagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ular manfaatini qonun asosida himoya qilish, ular tomonidan ishlab chiqilgan istiqbolli g'oyalar va islohot loyihalari, respublikani ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishga olib boradigan amaliy tadbirlarni qo'llab-quvvatlash, bu ishlarda ularga butun choralar bilan ko'maklashish;
- mahallalar ishini muvofiqlashtiruvchi oqosoqollar kengashlarini tashkil qilishda o'z takliflari bilan ishtirok etish, faoliyatini yo'naltirish, zarur hollarda moliyaviy qo'llab-quvvatlash;
mahallalardagi kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalar, yolg'iz keksalar, faxriylar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, etim-esirlar, baynalminalchilar manfaatlarini har tomonlama himoya qilish;
- mahalla ahlining tashabbuskorligini oshirishda qulay moddiy va ma'naviy sharoitlar yaratib berish, ishlarni kasb-xunarga yo'naltirish, mahallalarda kichik va qo'shma korxonalar ochishga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish;
-xalqaro aloqalarni amalga oshirish maqsadida chet ellardagi birodarlik uyushmalari bilan hamkorlik qilish;
-ekologik dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish.
Bu borada mahallada ijtimoiy institut sifatida unikal mexanizm mavjud. Chunki unda:
- davlatimizning ko'pmillionlik va ko'pmillatlilik xususiyatidan kelib chiqib har bir fuqaroga ---- tarbiyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyati mavjud;
-har bir fuqaro rioya qilishi kerak bo'lgan muayyan axloqiy qonunlarga amal qilinadi;
-o'zaro munosabatlar axloqiy tamoyillarga asoslanadi;
-hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna, kattalarga hurmat, bolalarga nisbatang'amxo'rlik kabi fazilatlar shakllantiriladi;
- tarbiya amaliy faoliyatga yo'naltiriladi;
ommaviy ong qadriyatlar vositasida oila va har bir shaxsga uzatiladi;
har bir shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan nazorat qilinadi;
-boshqaruv soxasida markazlashtirishni cheklash imkoniyati bor;
tarbiya jarayonini amalga oshirishda o'zaro ishonch va oshkoralik tamoyillari ustunlik qiladi.
Mahalla ijtimoiy institutining shaxs ijtimoiylashuviga ta'siri. Mahallaning demokratiyalashuv, ijtimoiylashuv, insoniylashuv va mukammallashuv jarayonlariga faol ta'sir qila olishini birinchi Prezident I.A.Karimov quyidagicha ta'kidlab o'tgan: «Mahalla — bizning jamiyat hayotida insoniy tarbiya va kelishuvning o'zgarmas manbasi. Tarixning guvohlik berishicha, bizning davlat daryolar bo'yida paydo bo'lgan. Tabiat kataklizmalari, tashqi hayvonlarni birgalikda engish, qiyin kunlarda qo'llab-quvvatlash bizning ajdodlarimizni jamoa bo'lib yashashga o'rgatgan. Mehribonlik, raxmdillik kabi insoniy hislatlar aynan mahallada shakllanadi. Bu ma'noda mahallani o'z-o'zini boshqarish maktabi, kerak bo'lsa, demokratiya maktabi desa bo'ladi."
Alohida tarixiy davrlarda an'anaviy hayotiy me'yorlarning buzilishiga urinishlar amalga oshirilganligiga qaramay, mahalla bunga qarshilik ko'rsatdi va an'ana, odatlarning saqlanib qolishiga yordam berdi.
Mahallaning ijtimoiy o'rni uni doimo jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarga o'z munosabatini bildirganida va oliy insoniy hamda axloqiy tamoyillarga tayanishida namoyon bo'ladi. Masalan, XX asrning 20-30 yillarida mahallada ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shilishi, savodsizlikni bartaraf etish, axolining madaniy dunyoqarashini kengaytirish qo'llab- quvvatlangan.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari.

1. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli.

2. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.
3. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.
4. Tarbiyaning maqsad va vazifalari.
5. Didaktika – ta’lim nazariyasi sifatida.
6. Ta’lim qonuniyatlari.
7. Ta’lim mazmuni.
8. Ta’lim metodlari va vositalari.
9. Ta’lim turlari va ta’limni tashkil etish shakllari.
10. Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli.
11.Ta’lim olganlikni tashxis etish.
12.Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.
13. O‘quvchilar jamoasi – yaxlit pedagogik jarayonning asosiy shakli.
14. Tarbiyaning umumiy metodlari.
15. O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.
16. O‘quvchilarning aqliy tarbiyasi.
17. Fuqarolik tarbiyasi.
18. Ma’naviy-axloqiy tarbiya
19. Mehnat tarbiyasi.
20. Jismoniy va estetik tarbiya.
21. Estetik tarbiya
22. Oila tarbiyasi asoslari.
23. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi.
24. Ta’lim muassasasi menejmenti.
25. Korreksion pedagogika asoslari.
26. O‘qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari
27. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta’lim va tarbiya masalalari
28. VII –XIV asrlarda ta’lim va tarbiya masalalari
29. Hadislarda ta’lim va tarbiya masalalari
30. Farobiyning pedagogik qarashlari
31. Farobiy ustozlar haqida.
32. Ibn Sinoning ta’limiy-tarbiyaviy qarashlari.
33. Yuuf Xos Xojibning pedagogik asarlari
34. Ahmad Yugnakiyning ta’limiy-tarbiyaviy qarashlari
35. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida pedagogik ugitlar
36. Mirzo Ulug‘bekning ta’lim-tarbiyaga qo‘shgan hissasi
37. Alisher Navoiy komil inson haqida
38. Jadidchi ma’rifatparvarlar
39. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.
40. Ta’lim tizimida ro‘y berayotgan bugungi o‘zgarishlar
41. K.D.Ushinskiyning hayoti va pedagogik ijodi.
42. Qadimgi YUnonistonda ta’lim va tarbiya
43. Qadimgi yunon faylasuflarining pedagogik qarashlari
44. Ritsarlik tarbiyasi
45. O‘rta asr universitetlarida ta’lim tizimi
46. Ya.A.Komenskiyning sinf-dars tizimi
47. Musulmon maktablarida ta’lim sistemasi va mazmuni
48. Qur’oni Karimda ilgari surilgan axloqiy g‘oyalar
49. Hadis ilmida ta’lim va tarbiya masalalari
50. So‘fiylik ta’limoti

GLOSSARIY.

Anomaliya (yunoncha – anomal) – me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.
Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.
Axloq (lotincha «moralis» – xulq-atvor ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.
Axloqiy ong – shaxga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.
Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
Baynalminallik («inter» – orasida, o'rtasida, aro, «natio»– xalq) – o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon etkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilat.
Bakalavriat – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.
Bashoratlash – bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.
Baho – ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.
Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.
Bilim olish – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.
Bilish – ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.
Vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixdan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.
Verbal – bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) etkazib berish, ifoda etish.
Gnoseologiya (yunon tilidan gnosis – bilim, ong, o'rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.
Davlat ramzlari – muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.
Davlat ta'lim standarti – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.
Dars – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.
Darslik – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta’lim nazariyasi) – (yunoncha «didaktikos» “o‘rgatuvchi”, «didasko» – “o‘rganuvchi”) – ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolari)ni o‘rganuvchi fan.
Didaktika tamoyillari (lotin tilidan «printsipium» – har qanday nazariyaning asosiy, **boshlang‘ich, dastlabki holati)** – ta’limni tashkil etishga qo‘yilgan me’yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta’lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.
Didaktik tashxis maqsadi – o‘quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.
Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko‘rsatish.
Didaktik o‘yin – o‘rganilayotgan ob’ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi.
Dunyoqarash – tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimi.
Jazolash – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.
Jamoa (lotincha «kollektivus» so‘zining tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma’nolarni anglatadi) – bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.
Jinsiy tarbiya – o‘zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o‘rgatish, o‘z sog‘ligi uchun g‘amxo‘rlik qilish va mas’uliyatli bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.
Jismoniy tarbiya – o‘quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.
Joriy nazorat – ta’lim jarayonida o‘quvchilar tomonidan o‘quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o‘zlashtirilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.
Idrok – aniq maqsadga yo‘naltirilgan anglash jarayoni.
Ijtimoiy adaIlmatsiya (yunoncha adapto - moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.
Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.
Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar – o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlar, e’tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg‘usi va irodasiga ta’sir ko‘rsatish usullari.
Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.
Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha rehabilitas – layoqati, qobiliyatini tiklash) – anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va mehnatga jalb etish.
Izohlash (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli.
Ilmiy dunyoqarash – uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.
Individ (lotincha “individium” bo‘linmas, yagona, alohida degan ma’nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.
Individuallik – shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari.
Institut – bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo‘nalishlar bo‘yicha oliy va qoidaga ko‘ra oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.
Iqtisodiy tarbiya – o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-

sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta’lim – o‘quvchilarga xo‘jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar) to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari – muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash – mutaxassislarning kasb bilimlari va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta’lim bosqichi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi – «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o‘zaro hamkorligi, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyila Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subo‘ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta’lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta’minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Kasb-hunar kolleji – o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Kategoriya – fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» – o‘rnini to‘ldirish, tenglashtirish) – oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o‘rnini to‘ldirish yoki qayta qurish.

Korreksiya (yunoncha «correctio» – tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to‘liq tuzatish.

Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha «defectus» – nuqson, kamchilik, **«logos»** – fan, ta’limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan.

Korreksion-pedagogik faoliyat – yaxlit ta’lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar - shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko‘ra umumiy pedagogik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari tizimi.

Ko‘nikma – shaxsning muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.
Ko‘rgazmali metodlar – predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko‘rsatishda qo‘llaniluvchi usullar.
Litsey (kollejda) ma’ruza – o‘quv materialini o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari bilan birgalikda davomli og‘zaki bayon etish (80-90 minut), berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish (asosiy fikrni tezis yoki loyila ko‘rinishida yozib olish) va boshqalar.
Loyilalashtirish (rejalashtirish) – o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.
Logopediya (yunoncha «logos» – so‘z, nazariya, ta’limot, «paideia» -tarbiyalash) – nutqiy nuqsonlarni o‘rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to‘liq tuzatish masalalarini o‘rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.
Magistratura – aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta’lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’lim.
Madaniyat («cultura» so‘zidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy boyliklar tizimi.
Mazmun (ta’lim (bilim olish) mazmuni) – ta’lim jarayonida shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.
Maktabgacha ta’lim – bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlovchi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otuvchi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta’lim bosqichi.
Maktabgacha ta’lim pedagogikasi – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o‘rganadi.
Maktabdan tashqari ta’lim – madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda yo‘lga qo‘yiluvchi, bolalar hamda o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta’lim bosqichi.
Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.
Materialni og‘zaki bayon qilish metodlari – o‘quv materiali mohiyatini ozg‘aki (hikoya, tushuntirish, maktab ma’ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo‘llaniluvchi usullar.
Mafkura (arabcha «mafkura» – naqtai nazar va e’tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy yuksaklish, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda etakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar tizimi.
Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari – muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.
Ma’lumot – ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.
Ma’naviyat (arabcha «ma’naviyat» - ma’nolar majmui) – mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar majmui.
Ma’rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlarni singdirish, ta’lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish, ularni targ‘ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.
Ma’ruza – yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish shakli.
Menejment – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta’sir o‘tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.
Metod – yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo‘li» kabi ma’nolarni anglatadi.

Metodika (fan sifatida) – xususiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi.
Pedagogik talab – turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari.
Pedagogik texnologiya – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.
Pedagog kadrlar tarkibi – o‘qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo‘nalishlarda faoliyat o‘rsatuvchi to‘garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.
Pedagogik mahorat – ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.
Pedagogik talab – turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o‘quvchi amal qilishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.
Rag‘batlantirish – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usuli.
Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.
Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) – muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘ycha baholash.
Sinf – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo‘lgan, ma’lum o‘quvchilar guruhi.
Surdopedagogika (yunoncha «surdus» - kar) – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini o‘rganuvchi fan; korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.
Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi.
Tamoyil (yunoncha «printsipium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang‘ich qoidasi; boshqaruvchi g‘oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.
Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.
Tarbiya jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.
Tarbiya mazmuni – shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.
Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» - yo‘l) – tarbiya maqsadiga erishish yo‘li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullari.
Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.
Tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to‘laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli).
Tashxis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.
Ta’lim – o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon.
Ta’lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.
Ta’lim vositalari – ta’lim samaradorligini ta’minlovchi ob’ektiv (darslik, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm,chizma, dioproektor, magnitafon, video-magnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subo‘ektiv (o‘qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.
Ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta’lim menejeri – ta’lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.
Ta’lim metodlari – ta’lim jarayonidaqo‘llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmui.
Ta’lim muassasi Ustavi – ta’lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.
Ta’lim konsepsiyalari (lotin tilidan «conceptio» – tizim) – ta’lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqchlarida ta’lim muassasalari faoliyati yo‘nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.
Ta’lim mazmuni – davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo‘ycha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.
Ta’lim maqsadi (o‘qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning aniq yo‘nalishini belgilab beruvchi etakchi g‘oya.
Ta’lim natijasi (ta’lim mahsuli) – ta’lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o‘quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.
Ta’limni boshqarish – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o‘rganadi.
Ta’limning sinf-dars tizimi – dars shaklida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan o‘quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo‘ycha olib boriladigan ta’lim jarayoni.
Ta’lim tizimi – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta’lim tarbiya berish yo‘lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta’lim muassasalari majmui.
Ta’lim shakli – ta’lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.
Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) – o‘zaro bog‘langan ko‘plab elementlar (tarkibiy qismlar) o‘rtasidagi mustahkam birlik va o‘zaro yaxlitlik.
Tiflopedagogika (yunoncha typhlos – ko‘r) – ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o‘rganuvchi fan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF – 5847 – son Farmoni.

Mirziyoev Sh. Bugun ma'rifatga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. .https: G`G`www.

gazeta.uz G`uzG`2016G`10G`19G`ustuvorG`

2.2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari

bo`yicha HARAKATLAR STRATEGIYaSI. – strategy.regulation.gov.uzG`uzG`documentG`

3.. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2017 y., 20 aprel.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
5. Barkamol avlod orzusi. tuzuvchilar: Qurbonov SH. va boshq. – T., sharq nashriyot-matbaa k onserni, 1999.
6. G‘oziev E. Psixologiya (yosh davrlari psixologiyasi). – T., O‘qituvchi, 1994.

7. Zununnov A. Pedagogika tarixi. - Toshkent, “FAN”, 2010
8. Lerner I.YA. Didakticheskie osnovo’ metodov obucheniya. – M., Pedagogika, 1981. – 186 s.
9. Movlonova R. va boshq. Pedagogika. – T.: ”O‘qituvchi”, 2010- yil.
10. Movlonova R. va boshq. Pedagogika nazariyasi va tarixi.- T.: ”Fan va texnologiya”, 2010
11. Movlonova R. va boshqalar. Ijtimoiy pedagogika. - T.: ”O‘qituvchi”, 2009
12. Novotorseva N.V. Korreksionnaya pedagogika i spetsialnaya psixologiya. Slovar. – M., Pe dagogika, 1999.
13. Nishonova S., Imomova M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. – T., O‘qituvchi, 1996.
14. Okan V. Vvedenie v obhuyu didaktiku. – M., Vo’sshaya shkola, 1990. S.–382.
15. Xoshimov K., Ochilov S. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T., O‘qituvchi, 2010
16. Xoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi (pedagogika oliy o‘quv yurtlari va talabalari uchun qo‘llanma. – Toshkent, O‘qituvchi, 1996.
17. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Munavvarov tahriri ostida. – T., O‘qituvchi, 1996.
18. Podlasiy I.P. Pedagogika. Novo’y kurs. V 2 kn., kn. 1. – M., Vlados, 1999.
19. Pedagogika. Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix vuzov i pedagogicheskix kolledjey. Pod red. P.I.Pidkasistogo. – M., Pedagogcheskoe obhestvo Rossii, 2000. – 640 s.
20. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. –T., O‘qituvchi, 1990.
21. Ro’jkov V.N. Didaktika. – Moskva, YUNITI-DANA, 2004. – 318 s.
22. Usanova O.N. Psixik rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar. –Moskva, Pedagogika, 1995.
23. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. –T, O‘qituvchi, 1997.
24.R.Movlonova.Umumiy pedagogika - Fan va texnologiya Toshkent- 2018.

Электрон таълим ресурслари

1.www.ziyonet.uz
2.www.edu.uz
3.www.pedagog.uz

MUNDARIJA

Kirish.....
Fanning sillabusi……
Fan dasturi.....
Ishchi fan dasturi…….
Tematik plan……
Nazariy materiallar (III- semestr).....
Seminar mashg‘ulotlari (III- semestr) .....
Nazariy materiallar (IV- semestr).....
Seminar mashg‘ulotlari (IV- semestr.....
Mustaqil ta’lim bo‘yicha materiallar.....
Glossariy.....
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....
Test savollari.....